

74 ✓
D.TOJIBOYEVA, A. YO'LDOSHEV

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

D. TOJIBOYEVA, A. YO'LDOSHEV

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT-2009

D. Tojiboyeva, A. Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: «Aloqachi», 2009, 568 bet.

Darslik mazkur fanni o‘rganishning nazariy va amaliy asoslarini qamrab olgan. Darslikning maqsadi iqtisodiy tafakkurni shakllantirish uchun dars o‘tishda qo‘llaniladigan mavjud metodlar bilan tanishtirish, dars o‘tishni tashkil etish va uni takomillashtirish, talabalarda iqtisodiy fanlardan dars o‘tish malakasini hosil qilish bo‘yicha bilim berishdir.

Darslik kasb ta‘limi (iqtisodchi - pedagog) yo‘nalishi talabalari va iqtisodiy fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

N.Xo‘jayev – i.f.d., professor;
H.Vahobov – g.f.d., professor;
H.Omonov – p.f.d., pfessor.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, «Ta‘lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni (08.10.1997 yil), «Ta‘lim to‘g‘risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish – davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu dasturiy hujjatlarda kadrlarning mamlakatimizni iqtisodiy ravnaq topishini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi hisobga olingan.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mamlakatimizda ta‘lim tizimini isloh qilishning qonun-qoidalariga amal qilgan holda turli yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglar tayyorlashga kirishildi. Shu jumladan, professional iqtisodchi pedagoglar tayyorlash ham qo‘yilgan vazifani amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to‘g‘ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an‘anaviy uslublarga tayanib dars o‘tish yetarli emas. Bu esa ta‘lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi. Shu talabdan kelib chiqib, kasb ta‘limining bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga mutaxassislik fani sifatida **«Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi»** darsi 2008-yilda qabul qilingan yangi DTS bo‘yicha esa **«Kasb ta‘limi metodikasi»** o‘qitiladigan bo‘ldi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o‘rganishga bo‘lgan harakatni, fanni chuqur o‘rganishga bo‘lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo‘jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, **balki ularni o‘qitadigan iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashni ham** talab qiladi.

Iqtisodchilar tayyorlashdagi mutaxassislik fanlarini o‘qitadigan

iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashda iqtisodiy fanlar yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli, bu sohadagi kasb ta‘limi bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun maxsus mutaxassislik fanlari bu – iqtisodiy fanlar bo‘lgani tufayli **iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi** o‘rganiladi.

Iqtisodchi-pedagoglar uchun kasb ta‘limi metodikasi – bu iqtisodiy fanlardan dars o‘tishni o‘rganish metodikasi bo‘lib, iqtisodiy fanlarni talabalarning chuqur o‘rganishlari uchun fanning va mavzuning maqsadidan kelib chiqqan holda qanday vosita va metodlarni tanlash va dars jarayonida qo‘llash yo‘llarini o‘rganish, bo‘lg‘usi iqtisodchi-pedagoglar ongiga yetkazishni ko‘zda tutadi.

Iqtisodiy fanlarni yoshlarga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi bu fanlarni yaxshi bilishi, dars berish metodlarini mahorat bilan qo‘llay olishi talab etiladi. Shu bilan birga, pedagogika, psixologiya, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilishi zarur bo‘ladi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Ma‘lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar o‘z navbatida ishchi kuchiga ham alohida talablar qo‘yadi. Ya‘ni ishchilar malakali, mahoratli, talabning o‘zgarishiga moslashuvchan, o‘z malakasini oshirishga intiluvchan bo‘lishi talab etiladi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talablarni talabalar chuqur idrok etishlari, mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilishga, oqilona xulosa chiqarishga o‘rganishlari lozim. Jahon pedagogikasida diqqat-e‘tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilish va tarbiyalashga qaratilgan. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko‘nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktivmetodlarini qo‘llash ijobiy natija berishini ko‘rsatdi. Bu uslublar dars o‘tishni dialog tarzida amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta‘minlashga qaratilgan.

Bu borada iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi fani o‘ziga xos o‘rin tutadi va talabalarning iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi. Iqtisodiyot sir-asrorlarini chuqur o‘rganish, avvalo, iqtisodiyot nazariyasi fanini, qolaversa, boshqa iqtisodiy fanlarni ham, chuqur bilishni talab etadi. Toshkent Moliya institutida o‘qitiladigan «Bank ishi», «Soliq va soliqqa tortish», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili», «Audit» va boshqa fanlarni yaxshi bilish orqali talabalar kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va o‘rta maktab, qolaversa,

magistraturani bitirgach, oliy o'quv yurtlarida ham dars bera oladilar.

Ma'lumki, iqtisodiy fanlar, bir tomondan, umumiy jihatlarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shubhasiz, bu iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasida ham o'z aksini topadi. Dars o'tish metodlarini tanlashda o'rganilayotgan maxsus iqtisodiy fanlarning xususiyatidan kelib chiqish zarur.

Muallif mazkur darslikda iqtisodiy fanlarni o'qitish metodining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy interaktiv metodlarni yoritib berishga harakat qilgan. Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan metodlar, iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi ilg'or mamlakatlarda to'plangan tajribalar ham hisobga olingan.

Mazkur darslik shu sohadagi dastlabki qadam bo'lib, uning tuzilishi va mazmuni to'g'risida bildirilgan fikr va mulohazalar kelajakda uni yanada takomillashtirishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

I bob. MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIIY ASOSLARI

Iqtisodiy hayot nihoyatda murakkab va ko'p qirrali. Iqtisodiy muammolarni bilish, o'rganish o'z faoliyatida qo'llash nafaqat iqtisodchi mutaxassislar, balki barcha uchun zarur. Chunki u murakkab iqtisodiyot dunyosini tushunishni, iqtisodiy, tahliliy fikr yuritishni o'rgatadi. Shuning uchun ham yoshlarning iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishlari muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy fanlarni yoshlar qiziqib o'rganishlarida bu fanlarni o'qitish, dars berish metodlari va ularni mahorat bilan qo'llay olish alohida ahamiyatga ega. Mazkur fan ana shu maqsadga qaratilgan. Kitobning birinchi bobi fanning predmeti, dars o'tish metodlari, ularga turli jihatdan yondashish, didaktika va uning metodika bilan naqadar bog'liqligi, o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishdagi rolini o'rganishga bag'ishlangan.

1- §. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Fan-texnika va axborotdagi revolyusiya inson va uning ilmiy-ma'rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun iqtisodiy o'sish omillarining sifat jihatdan takomillashib borish jarayoni xosdir. Fan-texnika taraqqiyotining ilg'or natijalarini qo'llash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yuqori samarali texnika - texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, eng muhimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqaro mehnat taqsimotida munosib o'rin egallash, milliy iqtisodiyotning raqobatbar-

doshligini ta'minlash muammolari ko'p jihatdan ish kuchining bilimi, malakasi, vaziyatga qarab ish tuta olishiga bog'liq. Kelajakda erishishimiz lozim bo'lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

«Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog'liqdir»¹.

Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va 1997-yildan kuchga kirgan kadrlar tayyorlashning «Milliy dastur»i bo'yicha butun ta'lim tizimi isloh qilinar ekan, asosiy diqqat ana shunday saviyadagi kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarbiyalashda ta'lim tizimining naqadar ahamiyatga egaligi, Prezidentimizning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining «Ta'lim—kelajakka yo'naltirilgan sarmoya» mintaqaviy konferensiyasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidagi ushbu jumladan ham anglash mumkin: «Hozirgi paytda bir haqiqatni har qachongidan ko'ra teran anglab olish muhim ahamiyatga ega. Samarali ta'lim tizimini yaratmasdan turib, jamiyatni isloh etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini tasavvur etish qiyin.

Ushbu sohaga ustuvor ahamiyat berilishi shubhasiz, uning kelgusi taraqqiyoti uchun zamin hozirlashdir»².

Bilimdon mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tashkil qilishi va dars berishiga bog'liq. Shuning uchun ham o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarning chuqur bilim olishiga yordam beruvchi o'quv uslublarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi.

Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, tabiiyki har bir odamdan iqtisodiy fikrlashni o'rganish talab

¹ Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T.: «Sharq», 1998, 83-bet.

² I.A.Karimov. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti «Ta'lim—kelajakka yo'naltirilgan sarmoya» mintaqaviy konferensiya ishtirokchilariga yo'llangan tabrik. «Ma'rifat», 7-aprel 2004-yil, № 28.

etiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bu talab yanada kuchaydi. Farzandlarimizning yoshlikdan iqtisodiy fikrlay bilishi uchun, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab iqtisodiy bilim asoslarini o'rganishga kirishildi.

Oliy o'quv yurtining, ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari esa iqtisodiy fikrlashnigina emas, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijaga olib kelishi mumkinligini his qila bilishi, ko'z o'ngiga keltira bilishni o'rganishi zarur. Buning uchun esa iqtisodiy fanlarni chuqur bilish talab qilinadi. Murakkab xo'jalik dunyosini aks ettiruvchi bu fanlarni o'rganish uchun to'g'ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Dars o'tishda to'g'ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o'qituvchining bilimi yuqori bo'lishidan qat'i nazar, kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchining bilimi pedagogik mahorat bilan qo'shilgandagina o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Buning uchun o'quv jarayonini tashkil etishning turli metodlari va ularni qo'llashni bilish kerak. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi (uslubiyati) aynan ana shu maqsadga qaratilgan. U *iqtisodiy fanlarni o'rganish metodlari va uni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi.*

Metodika va metodologiya

Dars berish metodikasi (uslubiyati)ning predmeti, bu dars berish (o'qitish) jarayonining o'zidir.

Odatda, **metodika (uslubiyat) deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu — nazariy jihatdan qo'yilgan** maqsadga yetish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o'rganishning usullari yoki operatsiyalari majmuidir.

O'qitish metodikasi tushunchasi:

a) pedagogning o'qitish usullari va o'quvchining o'qish usullari hamda o'quvchining o'qituvchi bilan o'zaro bog'langanligini;

b) o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishish bo'yicha hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, ya'ni o'qitish metodlari belgilangan maqsadga yetish uchun ta'lim vazifalarini hal etishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatidir.

Metodika pedagogikaning tarkibiy qismi (pedagogika yunoncha paidagogike¹) bo'lib, insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'lim-tarbiya be-

¹ Paidagogos — (yunon. — tarbiyachi, o'qituvchi, bola yetaklagan kishi).

rishning mazmuni, shakli va metodlari (uslublari) haqidagi fandir.

Metodologiya esa (yunoncha metod va logiya soʻzlaridan) faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi taʼlimotdir.

Metodologik bilim, birinchidan, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini oʻz ichiga olgan odat va normalar shaklida, ikkinchidan, amalda bajarilgan faoliyatning taʼsiri sifatida yuzaga chiqadi. Hozirgi zamon adabiyotlarida metodologiya deyilganda, avvalo ilmiy bilish metodologiyasi, yaʼni ilmiy bilish faoliyatining shakllari va usullari tushuniladi.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida metodologiyaga quyidagicha taʼrif berilgan: «Metodlar haqidagi taʼlimot fanda metodologiya deyiladi»¹.

«Metodologiya – tadqiqotning nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi taʼlimot»².

«Metodologiya metodlar haqidagi taʼlimot yoki yalpi umumiy bilish metodi» deb ham taʼriflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqyelikka qanday yondashish yoʻlini oʻrgatadi. Voqyelikning muayyan qismini, biron jihatini oʻrgatuvchi metodologiyaga metafizikani, voqyelikni chiziqli rivojlanishi, oʻzgarish jarayonini uni tashkil etuvchi bilimlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorliklarni aks ettiruvchi metodologiyaga dialektikani, voqyelikda roʻy beruvchi, keskin halokatli oʻzgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini oʻrganishda qoʻllanilayotgan metodologiyaga sinergetikani misol sifatida kiritish mumkin» – deyiladi, mazkur ensiklopediyada.

Insonning boshqa maxluqotlardan farqi uning maʼlum bir maqsad sari harakat qilishidir. Maqsadga yetishda turli-tuman toʻsiqlarga duch kelinadi. Muayyan toʻsiqni yechish uchun qoʻllaniladigan chora yoki tadbirni usul deyiladi. Maqsadga yetishda qoʻllaniladigan chora-tadbirlar maʼlum bir ketma-ketlikda qoʻllaniladi. Bu – qonuniyat. Ana shu turli-tuman chora-tadbirlarni maʼlum bir ketma-ketdikda qoʻllash usullar tizimi boʻladi³.

Metodika, qisqacha qilib aytganda, maʼlum bir fanni oʻrganish, oʻqitish metodlari toʻgʻrisidagi taʼlimot. **Iqtisodiy fanlarni oʻqitish**

¹ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. OʻME Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003, 613-bet.

² Oʻsha kitob, 614-bet.

³ Ziyomahammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T. «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2006.

metodikasi (uslubiyati) esa shu fanni o'rganish, o'qitish metodlarini o'rganadi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasining maqsadi iqtisodiy-nazariy ta'lim berishning qonuniyatlari, turli metodlarini o'rganishdir.

Boshqacha aytganda metodika – bu dars o'tishda o'qituvchiga qo'yiladigan talablarni realizatsiya qilishni amalga oshiradigan turli metodlarning majmuidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarib, nodavlat tarmoqlarning rivojlanishi, mamlakatimizni jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasi ta'lim tizimini ham isloh qilish, hozirgi zamon ta'lim tizimi oldida turgan masalalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarni iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib qoldi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga maktabdan boshlab alohida e'tibor qaratilmoqda. Barcha kasb ta'limi yo'nalishidagi bakalavrlar uchun «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy predmetlardan biri hisoblanadi. Iqtisodchi-pedagoglar tayyorlashda esa maxsus fanlar - iqtisodiy fanlar bo'lib, ana shu fanlardan dars o'tish metodikasi o'rganiladi.

Dars o'tish o'qituvchidan fanni puxta bilishnigina emas, balki o'z bilimini ustalik bilan talabalar ongiga yetkazishni ham talab qiladi. Talabalar fanni puxta o'zlashtirishlari uchun uni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar katta ahamiyatga ega. Shu sababli, iqtisodchi-pedagoglar iqtisodiy fanlarni o'rganish metodlarini puxta egallashlari, ularni mahorat bilan qo'llay bilishlari kerak. **Mazkur fanning maqsadi kasb ta'limi (iqtisodchi-pedagog) yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o'rganishda qo'llaniladigan an'anaviy va interaktiv metodlar bilan tanishtirish va kelajakda o'z faoliyatlarida qo'llash va yangi usullarni yaratishni o'rgatishdir.**

Iqtisodiy fanlar faqatgina nazariy emas, amaliy fanlardir. Ular bevosita amaliyotga tayanadi, aniq ma'lumotlar, dalillar, raqamlar hisob-kitoblarga asoslanadi. Shuning uchun iqtisodiy bilimlarni o'rganish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, real iqtisodiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni o'rgatuvchi, iqtisodiy bilim beruvchi fanlar xilma-xil. Iqtisodiy fanlarni o'rganish obyektini miqyosi, iqtisodiy bilimlarni qamrab olishi jihatidan shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumiy iqtisodiy fanlar. Ular iqtisodiyotni, unga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlar, tamoyillarning amal qilishini yaxlit holda o'rganadi. Bularga, eng avvalo, iqtisodiyot nazariyasi fani kiradi. U barcha iqtisodiy fanlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning qonun-qoidalarini bilish, shu fanni o'rganishdan boshlanadi.

O'rta maxsus o'quv yurtlarida «Iqtisodiy bilim asoslari», «Iqtisodiyot asoslari», oliy o'quv yurtlarida esa «Iqtisodiyot nazariyasi» o'rganiladi.

2. Xususiy iqtisodiy fanlar. Bular mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, ijtimoiy iqtisodiyot, mehnat iqtisodiyoti va boshqalar bo'lib, ular iqtisodiyotning u yoki bu sohasini o'rganadi.

3. Funksional iqtisodiy fanlar. Bu fanlarga buxgalteriya hisobi, moliya, audit, moliyaviy tahlil, soliq, sug'urta, menejment, bank ishi va boshqalar kiradi. Odatda, ular ko'proq mutaxassislik fanlari sifatida o'rganiladi.

Shunga ko'ra, har bir iqtisodiy fan o'z predmetini umumfalsafiy, umumiy iqtisodiy hamda boshqa alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shu fanga xos bo'lgan metodlar yordamida o'rganadi. Fanni o'rganish jarayonida esa nafaqat fanning predmetini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar, balki fanni ham katta ahamiyatga ega. Chunki o'qitish jarayonida fanni talabalar ongiga yetkazish, ularni bilim olishga chorlash, qiziqtirish, o'z ustida ishlashga yo'naltirish ko'p jihatdan unda qo'llaniladigan metodlarga bog'liq.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi o'quvchi-talabalarda iqtisodiy fikrlash, tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi fanining bir tomonida iqtisodiy fanlar: iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, moliya, soliq, statistika va qator boshqa iqtisodiy fanlar tursa, ikkinchi tomonida esa pedagogika, pedagogik texnologiya, psixologiya kabi pedagogikaga oid fanlar turadi. Maxsus fanlar, ya'ni iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi ularni bir-biriga bog'laydi.

Kasb ta'limi yo'nalishida o'qiydigan bakalavrlar buxgalteriya hisobi va audit, moliyaviy tahlil, soliq va soliqqa tortish, bank ishi, moliya va boshqa iqtisodiy fanlarni, pedagogikani chuqur o'rganishlari zarur. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- xo'jalik yurituvchi suyektlardan boshlab, butun jamiyat miqyosida uzluksiz kuzatish olib borish, ma'lumotlar, axborotlar

to'plashni naqadar zarurligini talabalar ongiga yetkazish;

- talabalarga qo'yilgan maqsadga ko'ra to'plangan iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash, taqqoslash, qiyosiy xarakteristika berish, tahlil qilishga o'rgatish;

- hodisalar va jarayonlarni chuqur o'rgatish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish va xulosalar chiqarish;

- iqtisodiy fikrlay bilish, mustaqil fikr yuritish, o'z nuqtayi nazarini asoslashga o'rgatish;

- iqtisodiy fanlarni o'rganish uchun tatbiq etiladigan dars o'tish metodlari bilan tanishtirish;

- fanning predmetini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar bilan dars o'tish metodlarini to'g'ri bog'lay bilish;

- fanning mavzulariga ko'ra dars o'tish metodlarini to'g'ri tanlay bilish o'z faoliyatida mohirlik bilan foydalanishni o'rganish kabilardan iborat.

Iqtisodchi-pedagog kasbini tanlagan kasb ta'limi yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislar o'z oldilariga qo'yilgan talablarga javob berishi uchun mutaxassislik fani bilan bog'liq holda:

- 1) iqtisodiyot nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur egallagan bo'lishi;

- 2) huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishiga oid fanlarni mukammal bilishi;

- 3) yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun — pedagogik mahorat va tajribaga ega bo'lish uchun intilishi;

- 4) dars berish metodlarini yaxshi o'rganib, ularni fanning yo'nalishi va mavzusi bo'yicha qo'llay oladigan bo'lishi;

- 5) o'zbek xalqining tarixini, xalq pedagogikasini bilishi, milliy g'urur, madaniyatga ega bo'lishi;

- 6) mutaxassislik fani bilan bog'liq yangiliklarni o'rganishga intiluvchan bo'lishi;

- 7) fan-texnika yutuqlariga qiziquvchan bo'lishi;

- 8) o'quvchi-talabalarga fanni o'rgatishda tasdiqlangan dastur asosida fanga qiziqish uyg'ota olish, har bir o'quvchi, talabning saviyasi, individual xususiyatiga ko'ra vazifa, topshiriq berish va talab qilish san'atiga ega bo'lishi lozim.

Shunday qilib, metodika o'quv jarayonini tashkil qilish shakllari, metodlari, qonun-qoidalarini o'rganadi. **Metodika, bir tomondan o'rganilayotgan fanda erishilgan yutuqlar, ikkinchi tomondan, pedagogika fanining rivojlanishi bilan boyib boradi, rivojlanadi.**

Fanning rivojlana borishi bilan o'rganish metodlarining roli ortib boradi. Metodlarsiz qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. **O'qituvchining metodik mahorati, dars o'tishning yangi metodlarini o'zlashtirishiga yetarli e'tibor berilmas ekan, ta'limga, inson kapitaliga investitsiyalarning qanchalik ko'payishidan qat'i nazar ta'lim sifati oshmaydi.** O'qituvchilarning metodik mahoratini oshirishga qilingan xarajatlar, ularni bunga rag'batlantirish «minimal xarajat qilib, maksimal samara» olish imkonini beradi.

2-§. Didaktika, uning tamoyillari va o'quv jarayonini tashkil etish

Metodika va didaktika uzviy bog'liqdir. Metodika deganda bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushunilishini ko'rib o'tdik. Bu fan didaktikaning bo'limidir.

Didaktika (yunon—didaklikos — o'qitadigan, o'rgatadigan) — pedagogikaning bilim olish, ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasi. U talabalarning bilim olish, o'zlashtirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoniga xos ta'lim prinsiplari, uslublari va o'quv jarayonini tashkil qilishga oid hamma masalalarni o'rganadi.

Didaktika termini dastlab nemets pedagogi Wolfgang Ratke (Ratixiya) (1571—1635) tomonidan o'qitish san'atini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatilgan. XVII asrda chex pedagogi Ya.A.Komenskiy ham shu fikrni davom ettirib, «hammani barcha narsalarga o'qitish, o'rgatish universal san'ati» deya talqin etgan. U «Buyuk didaktika» asarida (1657-yil) didaktikaning asosiy masalalarini ishlab chiqqan. XIX asr boshlarida nemets pedagogi I.F. Gerbart didaktikaga ta'lim olishni tarbiyalovchi yaxlit nazariya tarzida qaragan. Didaktika XIX asr o'rtalaridan boshlab pedagogikaning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlandi. O'zbekistonda dastlab jadid maktablarida didaktikaning tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilingan.

Ratixiya davridan boshlab, uning asosiy vazifasi — nimani va qanday o'qitish kerak, qachon, kimni, nima uchun o'qitish kerak masalalarini yechish deyarli o'zgargani yo'q.

Hozirgi kunda O'zbekistonda didaktika sohasi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgani holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Mamlakatimizda didaktikaga tarbiyadan alohida holda qaralmaydi. U yoshlarni tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

Yoshlarga ta'lim berish jarayoni jamiyat taraqqiyoti, fan-

texnika taraqqiyoti, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o'zgarishi didaktika prinsiplari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o'zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Barcha fanlarni o'rganishda didaktik prinsiplar muhim o'rin tutadi.

Didaktik prinsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o'qitish va o'qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi zarur.

Ular bir-biriga bog'lanib ketadi, - quyidagi prinsiplar o'qitish va o'qish jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha qoidalar bo'lib, ular uzoq vaqt davomidagi tajribaga asoslangan.

Ta'lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Faollik tamoyili

Inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir.

Talaba, o'quvchi o'z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o'quvchi-talabalar darsga faol qatnashishi lozim.

2. Nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan bog'liqligi

Nazariy bilim doim kasb-hunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

3. Ko'rgazmalilik

Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarililigini va ta'lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real obyektlarda o'qitishni talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.

4. Tushunarlilik

O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni o'quv materialining mazmuni, shuningdek, o'qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchi-talabanning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.

5. Namunalardan foydalanish

O'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim

namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo'lishini aniq ko'rsatadi.

6. Ilmiylik

O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim.

O'qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmastigi kerak.

7. Bilimlarni qo'llash

O'quvchi-talabalar olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

8. Natijalarni mustahkamlash tamoyili

O'qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa bo'lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus «Baholash varaqalari» da qayd qilinishi kerak.

Didaktik tamoyillar o'qituvchi faoliyatining yo'l-yo'rig'i sifatida xizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarliklik prinsipini qo'llab- quvvatlaydi.

O'qitishning asosiy qoidalari:

- tushunarlikdan - tushunarsizga;
- yaqindan - uzoqqa;
- osondan - qiyinga;
- aniqdan - mavhumga;
- umumiydan - xususiya, umumlashtirilgandan-yakkaga;
- xususiya - umumiyga.

O'qish va o'qitish didaktik xatti-harakatlar bilan bog'liq. Didaktik xatti-harakatlarga o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va baholash faoliyati kiradi.

Bu faoliyat quyidagi savollarda o'z ifodasini topadi:

1. Kimlar o'qitiladi?
2. Kimlarni o'qitish kerak?
3. O'qitish orqali qanday maqsadlarga erishish mumkin?
4. Maqsadga erishish uchun nimani, qanday o'qitish kerak?
5. Nazariy va amaliy darslarda qaysi metodlarni qo'llab, dars o'tish kerak?
6. Nazariy va amaliy darslarni qanday sharoitda o'tkazish kerak?


7. O'qishni qanday tashkil qilish kerak?

8. Ko'zlangan maqsadga erishishni tekshirish uchun natijalar qanday baholanadi?

Dars berishning shakllari, uslublari turli-tuman. Maqsad, o'tilayotgan dars har bir talabaning ongiga yetib borsin. Bu yerda hal qiluvchi rolni didaktik sakkizburchak va o'quv jarayonining mazmuni o'ynaydi.

Didaktik sakkizburchak.

- O'qish (o'rganish)ning maqsadi -



Chizmadan ko'rinib turibdiki, o'quv jarayonini qanday o'tishi qo'yilgan maqsad bilan uni amalga oshirish birligidan iborat.

O'qituvchi, dars beruvchi sifatida har safar qanday qilib, qaysi usul bilan dars o'tsam qo'yilgan maqsadga erishaman deb o'z oldiga savol qo'yib, o'ylab ko'rsa, dars o'tishning aynan mavzuga mos keladigan uslubini topishi mumkin.

Dars o'tishning uslubini tanlash quyidagilarga bog'liq:

1. O'qitilayotgan guruhning darsga tayyorgarlik darajasi.
2. O'rganiladigan predmet.
3. Darsda o'tiladigan mavzu.
4. O'tiladigan mavzuning mazmuni.
5. Dars o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan texnik vositalarning mavjudligi va boshqalar.

Darsni qanday o'tish borasida aniq bir qarorga kelishda, asosiy mo'ljal olishda darsni nimaga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Agar:

- maqsadga erishish mo'ljalga olinadigan bo'lsa, dars jarayonida qanday maqsadlarga erishish kerakligini aniq belgilab olinishi lozim;

- darsda qatnashadiganlar mo'ljalga olinsa, talabalar (o'quvchilar) guruhi kimlardan iboratligiga e'tibor qaratiladi;

- o'tiladigan mavzu, unga ajratilgan vaqt mo'ljalga olinsa, qanday o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish zarur va unga qancha vaqt ajratilganiga diqqat qaratiladi;

- o'quv vositalari mo'ljalga olinsa, qo'limizda qanday o'quv vositalari bor va ulardan qay darajada foydalanishimiz mumkinligini hisobga olamiz;

- talabalar (o'quvchilar)ning darsga faol yoki passiv qatnashuvi mo'ljalga olinsa, qanday dars o'tish uslublarini qo'llash kerakligini tanlaymiz;

- darsni tashkil etish mo'ljalga olinsa, qanday tashkiliy shart-sharoitlar mavjudligini hisobga olamiz;

- o'zlashtirishni nazorat qilish mo'ljalga olinsa, qanday tartibda talabalar bilimi nazorat qilinadi va baholanadi, diqqat ana shunga qaratiladi (IY bob, 3-§ ga qarang).

O'quv jarayonini tashkil qilish va uni boshqarish mashg'ulotlarda qo'yilayotgan maqsadga bog'liq. O'qituvchi darsda talaba iqtisodiy kategoriya (tushuncha)ni yoki tendensiyani o'rgatishni maqsad qilib qo'yyaptimi yoki uni tushunish, tahlil yoki tatbiq qilishni o'rganishi kerakmi? Iqtisodiy voqeyelikni sintez qilishni yoki turli variantlarni taqqoslab, ularning ijobiy, salbiy tomonlarini o'rganib baho berishni bilish kerakmi?

Tushunarli bo'lishi uchun makroiqtisodiyotga doir ikki savolni taqqoslab ko'raylik:

1. Markaziy bank pul taklifini tartibga solish uchun quyidagi tadbirlarning qaysi biridan ko'proq foydalanadi?

- a) hisob stavkasini o'zgartiradi;
- b) bank marjasi bo'yicha talabni o'zgartiradi;
- d) ochiq bozorda qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi;
- e) rezerv (zaxira) miqdorini o'zgartiradi.

2. Agar iqtisodiyot resurslarining to'la bandligi ta'minlanmagan holatda bo'lsa, Oliy Majlis va Markaziy bank ishlab chiqarish imkoniyatlarini rag'batlantirish uchun qo'llagan qaysi tadbir maqsadga muvofiq bo'ladi?

- a) ochiq bozorda qimmatbaho qog'ozlar sotib olish evaziga foiz stavkasini ko'tarish;

b) davlat xarajatlarini kamaytirish uchun qat'iy pul siyosatidan foydalanish;

d) iste'molga soliqni pasaytirish, daromadga soliqni ko'tarish, davlat transfert to'lovlarini kamaytirish;

e) ochiq bozorda operatsiyalar evaziga foiz stavkasini tushirish, iste'molga soliqni ko'tarish;

f) kapitalning o'sishiga soliqni ko'paytirish va pul taklifini kamaytirish.

Ko'rinib turibdiki, ikkinchi savol murakkab, chunki birinchi savol faqat olgan bilimni, axborotni yodga olishni talab qiladi. Ikkinchi savolga javob berish uchun esa faqat avvalgi o'rgangan bilim, axborotni eslash kamlik qiladi, javob berish uchun turli variantlarni solishtirish kerak. Demak, ikkinchi savolda fikrlash darajasi avvalgi savoldagiga qaraganda boshqacha yuqoriroq darajada bo'lishi talab qilinadi.

Bilim olish darajasini tasvirlash uchun AQSH pedagogi Benjamin Blum tomonidan 1956-yil e'lon qilingan «Taksonomiya seley obucheniya» chast 1. «Kognitivnaya sfera» (Taxonomy of Educational Objectives: Handbook 1: Cognitive Domain) kitobida ta'lim maqsadlarini qat'iy belgilangan mezonlarini ishlab chiqqan. Undan o'tiladigan darsning maqsadini rejalashtirishda, auditoriyada amaliy ish bajarish yoki nazorat ishi uchun savollar, test tayyorlashda foydalanish mumkin. «Taksonomiya» (yunoncha taxis — joylashish, tarkib, tartib va nomos — qonun) murakkab tuzilishga ega reallikni tasniflash va tizimga solish haqidagi nazariya bo'lib u narsalarning tabiiy bog'liqligi va xosiyatlariga ko'ra ierarxik tarzda tavsiflash va tizimlashtirishni anglatadi. XX asrning 60–70-yillaridan ierarxik biri ikkinchisiga bo'ysinuvchi, uni qamrab oluvchi obyektlar-taksonlar, taksonomik kategoriyalar tizimi haqidagi ta'limot sifatida ko'rila boshlandi¹

B. Blumning fikricha, bilim olish (kognitiv)² darajasi ma'lum ierarxiya tarzida joylashib, har bir bosqich avvalgisiga qaraganda murakkab hamda avvalgi bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni bilim har bir yangi pog'onaga ko'tarilar ekan, albatta, avvalgi bosqichni ham takrorlash lozim bo'ladi. Ular quyidagilar:

¹Blum taksonomiyasidan tashqari Kratvol taksonomiyasidan foydalaniladi. Hozirgi paytda o'quvchi, talabalarning, ayniqsa, kasb ta'limida xulq-atvorini baholash muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan D. Kratvol taksonomiyasi e'tirof etilib, jahon pedagogikasida talabalarning faoliyatini effektiv sohasida baholanishini bildiradi Kratvol taksonomiyasi pedagogika va psixologiya fanlarida o'rganiladi.

² lot. cognito — bilim ma'nosida.

1. Bilish, olingan bilimni yodga saqlash. Bu eslash qobiliyati yoki darsda o'tilgan, o'qiganlarni kerak bo'lganda eslab, yodga tushirish qobiliyati. Bunda avvalgi darslarda o'tilgan tushuncha, tendensiya, umumlashtirilgan xulosa kabilarni eslab yodga solish ko'zda tutiladi. U darsning dastlabki maqsadi.

2. Tushunish. Talabalarning darsda eshitganlari, o'qiganlari, ko'rganlari ma'nosini tushunishi. Qonunlar, tendensiyalar, tushunchalar, g'oyalar ma'nosini tushunib, ularning o'zgarishi nimaga olib kelishini ko'z o'ngiga keltira olish qobiliyati. Lekin tushunish uchun avval olingan bilimni yodga saqlash kerak. -

	Baholash	6
	Sintez	5
	Tahlil qilish	4
	Qo'llash	3
	Tushunish	2
Bilish		1

3. Olingan bilimni qo'llash. G'oya, prinsip, konsepsiyalarni yangi vaziyatlarda qo'llash iqtidori. Bunda eng avvalo, bilganlarni yodga tushirib, uni yangi vaziyat bilan taqqoslash, fikrni davom ettirish, real hayotdan misollar bilan bog'lash kerak.

4. Tahlil qilish. Bu – voqyea-hodisalarni bo'laklarga bo'lish, ular o'rtasida mantiqiy aloqalarni aniqlashni talab etadi. Tahlil qilish (analiz) iqtisodiy voqyelik, jarayonlarni, u yoki bu shaklda induksiya yoki deduksiya uslubini qo'llashga tayanadi. Tahlil qilish uchun esa olgan bilimni yodga tushirish, muammoga tushunish, uni qo'llay bilish kerak.

5. Sintez qilish, umumlashtirish. Bilim olish va fikrlashning bu bosqichida alohida tarkibiy qismlar va turli manbalardan olingan axborotni bir butun yagona tizimga keltirish qobiliyati namoyon bo'ladi. Buning uchun yodga tushirish, masalaga tushunish, uni qo'llay bilish, tahlil qila bilish zarur.

6. Baholash. Bu – bilishning yuqori bosqichi bo'lib, talabaning qo'yilgan masalaga o'z fikri, nuqtayi nazarini bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Bunda u yoki bu muammoni yechishning turli yo'llari shakllanadi. Uning qaysi biri to'g'ri, samarali, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi baholanadi. Odatda, baholash mezonlaridan foydalaniladi. Bu mezon o'qituvchi tomonidan qo'yilishi yoki uni talabalarning o'zi belgilashi mumkin. Baho berish uchun, avvalo, olgan bilimni yodga tushirish, masalani tushunish, yangi vaziyatda

bilganlarini qo'llay bilish, tahlil qilish, sintez qilishni bilish kerak. Talabaga berilayotgan topshiriq, ana shu bilishning olti bosqichidan qaysi bosqichiga to'g'ri kelishini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy da'vatlar quyidagi so'zlar hisoblanadi:

1. Aniqqlang, tasvirlang, sanab chiqing, yodga tushiring, ko'rsating.

2. Taqqoslang, farqini ko'rsating, tushuntiring, gapirib bering, misollar bilan izohlang, o'zgartirib, ifoda qiling.

3. Qo'llang, tuzing, namoyish qiling, fikrni davom ettiring, chuqurlashtiring, loyihasini tuzing, ishlab chiqing, yeching.

4. Tahlil qiling, kategoriyalarga, bo'laklarga bo'ling, tasvirlang, farqini ko'rsating.

5. Ishlab chiqing, tuzing (yarating), tendensiyani, qonuniyatini aniqlang, umumlashtiring, tavsiya qiling, ta'riflab bering.

6. Tinglang, yeching, baholang, muhokama qiling.

Bilishning bosqichlariga ko'ra talabaning fikrlash doirasi, qobiliyatini hisobga olib, topshiriq, vazifa berish kerak. O'qitishning turli uslublarini qo'llashdan asosiy maqsad, talabalar bilimini yuqori bosqichlarga olib chiqishdir. Keyingi boblarda ana shu maqsadga erishish yo'llari haqida fikr yuritamiz.

Dars berishning mazmuni shu fanda mujassamlashgan obyektiv reallik bilan aniqlanadi. Metodika (uslubiyat) fanning o'quv jarayonidagi harakati, rivojlanish shaklidir. Fan bilan uni o'qitish o'rtasidagi farq shundaki, fan bevosita obyektiv reallik bo'lib, uning rivojlanish qonunlarini ifodalash bilan birga, o'quv predmeti sifatida ana shu jarayonni bevosita tasvirlaydi. Umuman olganda, o'qitish, ilm berish obyektiv dunyoni bilishni shu fan erishgan yutuqlar darajasiga ko'taradi. Fan doimo rivojlanib yangi kashfiyotlar, bilimlar bilan boyib boradi. O'z navbatida, talabalarga bilim berish jarayonida ular ongiga ushbu kashfiyotlar singdirib boriladi.

Iqtisodiy hayotning yangi qirralari, muammolari ularni yechish yo'llarini o'rganish jarayonida beto'xtov chuqurlashib boradi. O'quv jarayonida yangi metodlar qo'llaniladi, yangi o'quv kurslari kiritiladi. Iqtisodiy fanlardan dars berishni ma'naviy, nazariy tomondan yuqori bosqichga ko'tarish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'quv shakllari, metodlari, talabalarni iqtisodchi olimlarning ishlarini o'rganishlari darajasiga ham bog'liq.

Iqtisodiy savodxonlik talabalarning O'zbekistonning iqtisodiy hayotida yuz berayotgan voqyelikka jamiyat taraqqiyoti va jahon miqyosidagi jarayonlar birligi nuqtayi nazaridan qarashni o'rganishlari bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz iqtisodiy

fanlarning rolini nihoyatda oshishiga olib keldi. O'z navbatida, bu fanlarni o'qitish zamon talabiga javob berishi zarur. Buning uchun esa har bir o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashishi, o'z ustida tinimsiz ishlab, izlanishi talab qilinadi.

3-§. Dars o'tish metodlari va unga turli jihatdan yondashish

Didaktika va metodikaning maqsadi: ta'lim berish, o'qitish, o'rgatishni amalga oshirishdir. **Didaktika «nimani?» va «nima uchun?» o'qitish kerak degan savollar bilan shug'ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog'liq holda «qay tarzda, qanday?» va «nimalar yordamida o'qitish?» lozim masalalari bilan shug'ullanadi.** Didaktikaning an'anaviy «qanday o'qitish kerak?» degan savoli bizni o'qitish metodlari kategoriyasiga olib keladi. Metodlarsiz qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. U qo'yilgan maqsad bilan natijani bog'laydi.

«Metod» atamasi yunoncha «methodos – tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot» so'zidan kelib chiqqan bo'lib – tadqiqot yo'li, haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma'nosini anglatadi. Metod deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o'rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo'nalishidir. Unda ta'lim va tarbiya berish usullari asosiy o'rinda turadi. Metod – o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalarning ta'lim-tarbiyadan qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan tartibga solingan, tizimlashtirilgan faoliyatdir.

Metod nihoyatda serqirra bo'lib, juda ko'p komponentlarni jamlaydi. Uning **qirralariga**: ta'lim-tarbiyaning maqsadi; o'qituvchi tanlagan maqsadga yetish usullari; o'qituvchi bilan o'quvchi-talabalarning hamkorlik qilish yo'llari; ta'lim maqsadini aniq o'quv materialini mazmunida ifodalash; ta'lim-tarbiya jarayonining (qonun, qonuniyatlar, prinsiplar) mantig'i; axborotlar manbasi; o'qituvchining mahorati; ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilarining faolligi; o'qitish vositalari va usullari tizimi va boshqalarni yozish mumkin. Murakkabligi uchun ham metodni yagona ma'noga ega tarzda ifodalash qiyin. Shu bois metodning mazmun-mohiyatini, sifatlarini soddalashtirilgan variantdagi ta'riflarda berishga to'g'ri keladi.

O'qitish metodlarining serqirraligi, murakkab tuzilishga ega ekanligi unga turli jihatdan yondashuvlarda o'z ifodasini topadi. I. P. Podlasiyning fikricha, metod-jarayonning o'zagi, rejalash-

tirilgan maqsadni yakuniy natija bilan bog'lovchi bo'g'in. Uning «Maqsad – mazmun – metodlar – shakllar – o'qitish vositalari» tizimidagi roli hal qiluvchidir¹. Pedagogik amaliyotda, an'anaga muvofiq, o'quv – tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan, tartibga solingan faoliyat usuli metod deb tushuniladi. Bunda o'qituvchining o'qitish faoliyati usullari bilan o'quvchining o'qish faoliyatining usullari bir-biriga bog'liqligi ta'kidlanadi.

O'qitish metodi quyidagicha tavsiflanadi: o'qitishning maqsadi, o'zlashtirish usuli; o'quv jarayoni qatnashchilari (o'qituvchi; o'quvchi, talaba)ning o'zaro munosabati.

Ta'lim metodlari bir tomondan, obyektiv xarakterga ega bo'lib, qaysi pedagog qo'llashidan qat'i nazar, doimiy amal qiladigan mustahkam qonun-qoidalar bilan bog'liq. Ular barcha didaktik qoidalar, qonunlarning talabi hamda maqsadlarning doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining mazmuni, shaklini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, subyektiv xarakterga ega bo'lib, u pedagog shaxsi, o'quvchi-talabalarning o'ziga xos tomonlari, aniq sharoit bilan belgilanadi,

Metodlarning obyektiv hamda subyektiv xarakteri haqidagi fikrlar xilma-xildir. Metodlarning obyektiv xarakterini butunlay inkor qilib, uni to'liq subyektiv xarakterga ega, shuning uchun ham takrorlanmasdir, u har bir pedagogning ijodi tarzida yuzaga chiqadi, degan fikr bildiruvchilardan tortib, uning tamomila aksi bo'lgan, to'la obyektiv xarakterga ega deydiganlar ham mavjud. *Haqiqat, odatda, barcha fikrlarning o'rtasida tug'iladi.* Aynan hamma metodlar uchun doimo umumiy bo'lgan obyektiv tomoni, didaktika nazariyasi, ko'p holatlarda esa eng yaxshi bo'lgan amaliyot yo'llari tavsiya etiladi.

Metodlarning obyektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar, tamoyillar, ta'riflar, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy tomonlar aks etadi. Metodlarning subyektiv jihati pedagog shaxsi, uning mahorati, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligi va aniq sharoitga bog'liq.

Dars jarayoni har ikki tomon bir butun bo'lib, birlashgan holda tashkil etiladi. Uning amaliy ifodasi qo'yilgan maqsadga ko'ra erishilgan natijada o'z aksini topadi. Metodlarning obyektiv jihatini didaktik prinsip nuqtayi nazaridan talqin etish, uning nazariyasini

¹ Подласый И. П. Педагогика. Учебник. М., Высшее образование, 2009, стр. 287.

ishlab chiqish, amaliyotda qo'llanishi zarur bo'lgan eng yaxshi metodlarni tavsiya etish, mantiqiy tanlash muammolarini muvaffaqiyatli yechish imkonini beradi.

Metodlarni optimallashtirish uchun esa pedagoglar mahorati, ijodiy yondashish zarur bo'ladi. Shuning ham o'qitish metodlari yuqori darajadagi san'at bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Sharq mutafakkirlari ham bilishning metodlariga katta e'tibor bilan qaraganlar. O'quv jarayonini tashkil etish va o'qitish metodlariga alohida e'tibor bergan alloma Aristoteldan so'ng «ikkinchi muallim» deb nom qozongan Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlari haqidagi traktatlarida ta'lim oluvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatgan, bilim olish zarurligiga shak-shubhasiz ishonirish lozimligini ta'kidlagan¹.

Hozirgi terminlardan foydalanib, Sharqning qomusiy allomalarining o'qitish metodlarini bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlasa bo'ladi. Ular foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Bular Ibn Sino qo'llagan ko'rgazmali-tajriba metodlari, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiyning ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, Forobiy va Al Xorazmiyning bilimlarni tekshirish metodlari va boshqalardir. Ularning hammasi o'quvchi-talabalarning faoliyatini kuchaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadini ko'zlagan.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyada metodlar qator funksiyalarni bajaradi. Metodlar yordamida qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni bilim olishga da'vat qiladi. Bilishni faollashtirishning asosiy, ayrim paytlarda esa yagona stimulyatori bo'lib xizmat qiladi. Metodlar yordamida o'qituvchi o'quv jarayonini kechishi va natijasini diagnostika qiladi, zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Pedagog, psixolog mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, metodlar o'quv-tarbiya jarayonida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Ta'lim berish:

Metodlar yordamida ta'limning maqsadi amalga oshiriladi. Metodlar o'qituvchi va o'quvchilarning nazariy hamda amaliy bilimini ta'lim olish borasidagi vazifalarni bajarishga qaratadi.

Kamolotga boshlash funksiyasi:

O'quvchi, talabalarni fikrlash doirasini, bilim olish, aqliy rivojlanish sur'atini tezlashtirishda, qiziquvchanligini oshirishda o'z ifodasini topadi.

¹ Аль. Фаробий. Математические трактаты. Алма-ата: Ильм, 1972, стр. 327–328.

Tarbiyalash funksiyasi:

O'quv materialini o'rganish, o'zlashtirish jarayoniga mustaqil qarash, fikrlash, iroda xususiyatlari, axloqiy, ma'naviy qarashlarning shakllanishiga olib keladi.

Bilim olishga da'vat etish, istak, xohish uyg'otish funksiyasi:

Metodlar talabalarni bilim olishga da'vat qiluvchi vosita hisoblanadi. Asosiy, gohida bilishga qiziqtiruvchi, istak, xohish tug'diruvchi yagona stimulyator vazifasini bajaradi.

Nazorat funksiyasi:

Metodlar yordamida o'qituvchi o'quvchi, talabalarning bilimni nazorat qilibgina qolmay, o'quv jarayoni natijalariga ko'ra unga zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Dars jarayonidagi metodlar qo'llash imkoniyatlariga ko'ra quyidagi sifatlarni o'z ichiga oladi:

1. Bilim berish, idrok etish, o'zlashtirish, e'tiqodni ta'minlovchi metodlar. Bu guruhga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatmalar berish, ommaviy axborot, dasturlashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tatbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, dasturlashtirilgan o'qitish kabinetlaridagi mashg'u-lotlar, ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

3. Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining reytinglari, kollokviumlar, suhbat o'tkazish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, davlat attestatsiya natijalarini baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Metodlarni ajratib turuvchi sifatlarga: birinchi guruhda bilimni idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhda tatbiq etish va mustahkamlash, uchinchi guruhda attestatsiya va olingan bilimlar darajasini aniqlash kiradi.

Metodlarni fanlarni o'rganishdagi qo'llashdagi qamroviga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: umumiy metodlar, turkum fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan va xususiy metodlar

Dars o'tishning umumiy metodlari barcha fanlarni o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, savol-javob, suhbat, tarqatma materiallardan foydalanish kabilar.

Ayrim metodlarni esa ma'lum turkum fanlarni o'qitishdagina qo'llash mumkin. Bularga masala yechish, munozara kiradi.

Xususiy metodlar faqat ayrim olingan fanni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar yoki usullar bo'lib, u o'rganilayotgan faning xususiyatidan kelib chiqib qo'llaniladi.

Didaktik tadqiqotlar mashg'ulot o'tkazishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Unga ko'ra:

- O'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lim tizimida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'zgaradi, rivojlanadi, deb qaraladi.

- Barcha metodlar bir-biri bilan aloqador. Biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisiga bog'liq.

- Metodlarni qo'llashning turli-tuman modifikatsiyalari mavjud bo'lib, ular dars o'tish shakllari va vositalari bilan qo'shilib ketadi.

Dastlab, dars berish metodlarini tasniflashga an'anaviy jihatdan yondashilib, o'rganiladigan bilim manbalariga ko'ra guruhlariga ajratilgan. Bunday guruhlanishning ijrosi qadimgi falsafiy va pedagogik qarashlarga borib taqaladi. Bunday manbalar, qadimda uchta: amalda sinash, ya'ni praktika (tajriba), ko'rgazmali, og'zaki (so'z orqali) ifodalangan. Jamiyat taraqqiyoti tufayli keyinchalik unga kitob bilan ishlash qo'shildi. So'nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta'linga shiddat bilan yangi metodlar, qog'ozsiz axborot manbai: video-kompyuter tizimi kirib keldi.

Shunday qilib, hozirgi paytda o'rganiladigan bilim manbalariga ko'ra, metodlar 5 guruhga bo'linadi hamda qator usullarni o'z ichiga oladi.

1) Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o'tkazish, amaliyot o'tkazish;
- mashq qilish, mehnat, ishlab chiqarish jarayonida qatnashish, eksperiment o'tkazish.

2) Ko'rgazmali namoyish qilish metodi:

- har xil rasm, suratlardan foydalanish;
- namoyish qilish;
- illyustratsiya qilish;
- o'quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o'tkazish.

3) Og'zaki so'z orqali ifodalanadigan metod:

- tushuntirish, ongiga yetkazish;
- hikoya qilish;
- o'zaro fikr almashuv;
- suhbat o'tkazish;
- yo'l-yo'riq, ko'rsatma berish;

- ma'ruza;
- munozara, mubohasa, bahs va boshqalar.

4) Kitob bilan ishlash:

- * o'qish, o'rganish, tezda ko'rib, varaqlab chiqish;
- * sitata keltirish va uning ustida ishlash, bayon yozish;
- * referat yozish, reja tuzish, konspekt qilish va boshqalar.

5) Video metod:

- * kompyuterda mashq, test yechish;
- * nazorat o'tkazish;
- * internetda ishlash;
- * elektron variantlar bilan ishlash;
- * o'quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;
- * axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida kompyuterda iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta'sirini o'rganish;
- * multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

Metod murakkab, ko'p qirralik bo'lgani uchun ham unga turli jihatdan yondashib, tizimlashtirish, guruhlariga ajratish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi raytda metodlarni tasniflashni o'nlab guruhlarini ko'rsatish mumkin, ularning soni hozirgi kunda yanada ortib bormoqda.

Pedagog olimlar (M.A. Danilov, B.P. Yesipov) o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadlari va uni amalga oshirish bosqichlariga ko'ra, dars o'tish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

- 1) bilimni egallash;
- 2) malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- 3) olingan bilimni amalda qo'llash;
- 4) ijodiy faoliyat;
- 5) olingan bilimni mustahkamlash;
- 6) bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

Guruhlashdan ko'rinib turibdiki, u dars jarayonini tashkil qilishning klassik sxemasi asosiga qurilgan. Bunda asosiy maqsad, pedagoglarga o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish va metodlar majmuini soddalashtirishga qaratilgan.

Psixologik nuqtayi nazardan, bilimlarni o'zlashtirish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (chizмага qarang).

METODLAR

Darsni o'zlashtirish, tushuncha olish, olingan bilimni mustahkamlashga qaratilgan metodlar:

- Ma'ruza;
- Hikoya;
- Bayon qilish;
- Ilyustratsiya;

Namoyish qilish va boshqalar.

Muammoni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilishga, mustaqil bilim olishga undaydigan metodlar:

- Case study.
- Tadqiqot.

Loyihalash va boshqalar

Bilimni o'zlashtirish bo'yicha reproduktiv¹ faoliyatni, o'quvchi, talabalarning darslarga qatnashishini ta'minlovchi metodlar:

- Kitob bilan ishlash;
- Laboratoriya ishi;
- Masala va mashqlar.

Munozara, tahlil qilish kabi ta'limni rivojlantiruvchi produktiv² faoliyatni ta'minlovchi metodlar:

- Davra suhbat.
 - Bahs, munozara.
 - Aqliy 'ujum.
- Modellashtiruvchi o'yinlar va boshqalar.

Idrok etish, bilim olish, o'rganish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar (I. Ya. Lerner, M. N. Skatkin) 5 guruhga bo'linadi.

A) Tushuntirish-illyustrativ(axborot-retseptiv):

- tushuntirish;
- illyustrativ;
- axborot;
- retseptiv³

Bu metodlarning xarakterli xususiyatlari bilimlar tayyor holda tavsiya etilishidir. Bu metodlar bilimlarni idrok qilish, tushunish, xotiraga joylashtirishga qaratilgan.

O'quv jarayonida axborotlarning turli manbalari (so'z, ko'rgazmali qurollar va boshqalar) qo'llaniladi. Bayon qilish ham induktiv, ham deduktiv yo'l bilan olib borilishi mumkin.

Bu metodning mazmuni unga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- bilimlar o'quvchi, talabaga tayyor holda beriladi;

¹ Reproductiv – xuddi shunday qaytarmoq, aks ettirmoq, tasvirlamoq, ya'ni xotirada saqlangan bilimni qayta tiklashga asoslangan.

² Lot. Produco, ma'nosi – ishlab chiqaraman, yarataman.

³ Retsept – shifokor yozib beradigan dori qog'ozi, tayyorlash usuli, usul, yo'l, andoza.

- o'qituvchi turli usullar bilan bu bilimlarni o'quvchi, talabalar tomonidan qabul qilinishini tashkil qiladi;

- o'quvchi, talabalar bilimni o'zlashtiradilar va xotiralarida saqlab qoladilar.

Bilimlarni qabul qilish bilan cheklanish doim ham olingan bilimlardan foydalanish mahorati va ko'nikmalarini shakllantirmaydi. Bilim olish faoliyatini faqat tayyor bilimni eslab qolishga qaratilishi ularni xatosiz, ayrim hollarda tushunmasdan ham xotirada saqlash aqliy faollikni past darajada bo'lishiga olib keladi. _

B) Reproduktiv metod

Bu metod talabalarni olgan bilimlarini anglash, tushunib yetishlarini, eslab qolishlarini ta'minlashga qaratilgan. Olingan bilimni mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

O'qitishning reproduktiv metodi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- o'qituvchi bilimni tayyor holda yetkazadi;
- faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan, uni tushuntiradi ham;

- o'quvchi, talabalar bilimlarni tushunib o'zlashtiradilar, o'zlashtirishning mezonini olgan bilimlarini xotirada to'g'ri tiklash (reproduksiya)dir;

- o'zlashtirishning mustahkamligi axborotni ko'p marta qaytarish yo'li bilan ta'minlanadi.

Har ikki metodning afzalligi qisqa muddatda, ko'p kuch sarflamay katta hajmdagi axborot va bilimlarni o'quvchi, talabalarga yetkazishni ta'minlash imkoniyatiga egaligidir. Bilimni puxta egalashga takrorlash orqali erishiladi.

O'qitishning har ikki metodi o'quvchi-talabalarga ta'limning tayyor mazmunini uzatishga, o'quv dasturlari, darsliklar, fan bo'yicha axborotni o'zlashtirishga qaratilgan.

Mavjud kamchiliklariga qaramasdan, informatsion-retseptiv usul kam kuch sarflab, bilimlar va ko'nikmalarning kattagina hajmini o'zlashtirish imkonini beradi.

Inson faoliyati tabiatan reproduktiv, ijrochi yoki ijodiy bo'lishi mumkin. **Reproduktiv faoliyat ijodiy faoliyatga turtki beradi, uning boshlanishi bo'ladi. Shuning uchun uni ta'limda qo'llashni nazarpisand qilmaslik, mensimaslik noto'g'ri.** Shu bilan birga uni haddan tashqari keng qo'llash ham to'g'ri emas. Eng ma'quli, ularni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llashdir.

D) Muammoli bayon qilish metodi

Bu metodda o'qituvchi tomonidan mavzuning mazmuni muammoli tarzda bayon qilinadi. O'qituvchi mavzuning mazmuniidan kelib chiqib, muammo ko'yib, uni yechimini ko'rsatadi. Bu metod talabalarni ijrochilikdan ijodkorlikka o'tishini ta'minlaydi. O'qitish jarayonining ma'lum bosqichlarida talabalar muammoli masalalarni mustaqil ravishda yecha olmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining dars o'tish usulini kuzatib, shunday vaziyatlarda masalani qay tarzda yechishni, qanday qarorga kelishni o'rganadilar.

E) Qisman ijodiy (evristik) metodlar

Bu metodda:

1. Bilim mustaqil ravishda egallanadi.
2. O'qituvchi axborotni o'rganish yoki bilim egallashda turli metodlar yordamida mustaqil ishlashni tashkil etadi.
3. O'qituvchi, talabalar mustaqil fikr yuritishadi.

Masala, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish taqsimlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rganishadi. Natijada talabalarda anglab yetilgan puxta bilim shakllanadi.

O'qituvchi-talabalar ko'pincha murakkab muammoni mustaqil hal qilisha olmaydi. Ularga o'qituvchi ko'mak beradi. O'qituvchi faoliyati **o'qituvchi—o'qituvchi, o'qituvchi—o'qituvchi sxemasida** amalga oshadi. Bilimlarning ma'lum bir qismini o'qituvchi beradi, qolgan qismini o'qituvchi-talabalar mustaqil o'rganishadi.

F) Tadqiqiy metodlar

Bunday metod bilimni tadqiq etish jarayonida egallashni ko'zda tutadi.

U:

▪ O'qituvchi o'qituvchi-talaba bilan muammoli masalani aniqlaydi, uni hal qilishga vaqtning ma'lum bir qismi ajratiladi.

▪ O'qituvchi mavzuni bayon qilmaydi. Talabalar mustaqil ravishda muammoli masalani yechish, olingan javoblarni turli variantlarini taqqoslash jarayonida mavzuni o'rganishadi. Natijani qanday bo'lishini ham o'zlari aniqlashadi.

▪ O'qituvchining faoliyati muammoli masalalarni yechish jarayonini boshqarishdan iborat bo'ladi.

▪ O'qituvchi jarayoni yuqori intensivligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchi qiziqarli bo'lib, olingan bilimning chuqur va puxtaligi, amalda qo'llashni o'rganish bilan farq qiladi.

Bu metodni qo'llash o'qituvchidan yuqori darajada malaka talab etadi.

Didaktik maqsadlar bo'yicha dars o'tish metodlarini pedagog olimlar (T.I. Shukina, I.T. Ogorodnikov va boshqalar) ikki guruhga bo'lishadi:

A) O'quv materialini dastlabki o'zlashtirishga imkon yaratuvchi metodlar: bularga o'qituvchining mavzuni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash va boshqalar kiradi.

B) Olingan bilimni mustahkamlash va takomillashtirishga imkon yaratuvchi metodlar. Bu guruhga masala, mashqlar yechish, amaliy ishlar bajarish va boshqalar kiradi.

O'qitish metodlarini binar (qo'sh) va polinar (ko'p qirrali) guruhlarga ajratilishi ham mavjud. Binar guruhlarini I.I. Mahmudov dars berish metodlari bilan o'rganish metodlarining birga qo'shilishi tarzida ko'rsatadi.

O'qitish, dars berish metodlari:

1. Axborot berish – bayon qilish.
2. Tushuntirish.
3. Ko'rsatma berish.
4. Tushuntirish – da'vat etish.
5. Undovchi, da'vat etuvchi.

O'rganish metodlari:

- Ijro etish.
- Reproduktiv.
- Produktiv – amaliy.
- Qisman ijodiy.
- Ijodiy izlanishga asoslangan metodlardan iborat.

O'qitish metodlarining polinar tasnifi V. F. Palamarchuk va V. I. Palamarchuk singari tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'kidlanishicha, bilim manbai uning faolligi darajasi, o'qish jarayonida olinadigan bilimlarning mantiqiy yo'llari majmuidan tarkib topadi.

Har bir iqtisodiy fan o'z predmetini umumfalsafiy, umumiy iqtisodiy hamda boshqa alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shu fanga xos bo'lgan metodlar yordamida o'rganadi. Fanni o'rganish jarayonida esa nafaqat fanning predmetini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar, balki fanni o'rganish, bilish jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar ham katta ahamiyatga ega. Chunki o'qitish jarayonida fanni talabalar ongiga yetkazish, ularni bilim olishga chorlash, qiziqtirish, o'z ustida ishlashga yo'naltirish ko'p jihatdan unda qo'llaniladigan metodlarga bog'liq.

Metodlarni ajratib turuvchi sifatlarga: birinchi guruhda bilimni

idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhda tatbiq etish va mustahkamlash, uchinchi guruhda attestatsiya va olingan bilimlar darajasini aniqlash kiradi.

Metodlarni fanlarni o'rganishdagi qo'llashdagi qamroviga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: umumiy metodlar, turkum fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan va xususiy metodlar.

Dars o'tishning umumiy metodlari barcha fanlarni o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, savol-javob, suhbat, tarqatma materiallardan foydalanish kabilar.

Ayrim metodlarni esa ma'lum turkum fanlarni o'qitishdagina qo'llash mumkin. Bularga masala yechish, munozara.

Xususiy metodlar faqat ayrim olingan fanni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar yoki usullar bo'lib u o'rganilayotgan fanning xususiyatidan kelib chiqib qo'llaniladi.

Dars jarayonida fanni yoki mavzuni o'rganishda umumiylikdan xususiylikka yoki aksincha, xususiylikdan umumiylikka borilishiga qarab ikki katta guruh: deduktiv va induktiv metodlarga bo'lish mumkin. Masalan, buxgalteriya fanini o'rganish buxgalteriya balansini o'rganishdan boshlanadi, ya'ni deduktiv metod qo'llaniladi. Deduktiv va induktiv metoddan foydalanib, mavzuni yoki uzviy savolni muhokama qilishimiz mumkin.

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari – o'quv materiali mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning induktiv metodi – o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval faktlarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchi-talabalar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosa chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. Ular faktlar ustida mustaqil fikrlaydilar, ishlaydilar va tegishli xulosalar chiqaradilar, umumlashtiradilar.

Deduktiv metod – o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin navbatma-navbat xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchi-talabalar umumiy qoidalarni idrok qiladilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni o'rganadilar.

Agar shu metodlar taqqoslansa, o'quvchi-talabalar o'zlari mu-shohada yuritib, faktlar, raqamlar, ma'lumotlarni umumlashtirish,

mustaqil xulosa chiqarishni o'rganishlari nuqtayi nazaridan induktiv metod foydaliroqdir. Deduktiv metod o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, lekin bunda mustaqil fikrlash yaxshi rivojlanmaydi, mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi.

Induktiv va deduktiv metod barcha fanlar uchun umumiy bo'lib, mavzu yoki savolni o'rganishda uning xususiyatlariga ko'ra qaysi birini qo'llashni o'qituvchi tanlaydi. Barcha fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan dars o'tishning savol-javob, suhbat, tarqatma materiallardan foydalanish kabi umumiy metodlari borki, ularni qo'llashda albatta fan, mavzu, uzviy savollarni o'rganishning maqsali, mazmuni hisobga olinadi.

Bilishning bosqichlariga ko'ra talabaning fikrlash doirasi, qobiliyatini hisobga olib, topshiriq, vazifa berish kerak. O'qitishning turli uslublarni qo'llashdan asosiy maqsad, talabalar bilimini yuqori bosqichlarga olib chiqishdir.

Dars berishning mazmuni shu fanda mujassamlashgan obyektiv reallik bilan aniqlanadi. Metodika (uslubiyat) fanning o'quv jarayonidagi harakati, rivojlanish shaklidir. Fan bilan uni o'qitish o'rtasidagi farq shundaki, fan bevosita obyektiv reallik bo'lib, uning rivojlanish qonunlarini ifodalash bilan birga, o'quv predmeti sifatida ana shu jarayonni bevosita tasvirlaydi. Umuman olganda, o'qitish, ilm berish obyektiv dunyoni bilishni shu fan erishgan yutuqlar darajasiga ko'taradi. Fan doimo rivojlanib yangi kashfiyotlar, bilimlar bilan boyib boradi. O'z navbatida, talabalarga bilim berish jarayonida ular ongiga ushbu kashfiyotlar singdirib boriladi.

Iqtisodiy hayotning yangi qirralari, muammolari ularni yechish yo'llarini o'rganish jarayonida beto'xtov chuqurlashib boradi. O'quv jarayonida yangi metodlar qo'llaniladi, yangi o'quv kurslari kiritiladi. Iqtisodiy fanlardan dars berishni ma'naviy, nazariy tomondan yuqori bosqichga ko'tarish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'quv shakllari, metodlari, talabalarni iqtisodchi olimlarning ishlarini o'rganishlari darajasiga ham bog'liq.

Metodlarni fanlarni o'rganishdagi qo'llashdagi qamroviga ko'ra, uch guruhga bo'lish mumkin: umumiy metodlar, turkum fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan va xususiy metodlar.

Dars o'tishning umumiy metodlari barcha fanlarni o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, savol-javob, suhbat, tarqatma materiallardan foydalanish kabilar.

Ayrim metodlarni esa ma'lum turkum fanlarni o'qitishdagina qo'llash mumkin. Bularga masala yechish, munozara, «aqliy hujum» kabilarni kiritish mumkin.

Xususiyl metodlar faqat ayrim olingan fanni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar yoki usullar bo'lib u o'rganilayotgan fanning xususiyatidan kelib chiqib qo'llaniladi: «case study», tadqiqot kabilar.

O'tgan asrning o'rtalaridan **metodlarni faol (aktiv) va passiv guruhlarga ajratishga harakat** kuchaydi. Ayniqsa, interaktiv¹ metodlarni qo'llash keng targ'ib qilina boshlandi. Ko'pgina pedagog va psixologlarning fikricha metodlarni aktiv va passiv guruhlarga bo'lish noto'g'ri uni shunday bo'lishiga aslida o'qituvchi va o'quvchi, talabalar sababchi deyishadi. «Interaktiv» tushunchasi kompyuter lug'atidan olingan bo'lib, kompyuterdan foydalanuvchining axborot almashish jarayonini ekranda ko'rib turib, jarayonga ta'sir etishi, o'z xohishiga ko'ra boshqarishi, uning harakatlariga kompyuterining javob berishi ko'zda tutilgan. Bunga misol qilib kompyuter o'yinlarini ko'rsatish mumkin.

Asosiysi, o'qituvchi dars o'tish metodlarini qo'llar ekan, o'quvchi, talabalarni hamkorlikda ishlashini ta'minlashi, ularni mustaqil fikr yuritishga undashi zarur.

Guruhlarga ajratish, tasniflashga doir yana qator yondashuvlar mavjud. Ulardan biri didaktika bo'yicha nemis mutaxassisi L. Klinberg tasnifi bo'lib, u o'qitish metodlarini hamkorlik shakllari bilan birga olib qaraydi, ya'ni **monologik metodlar**: ma'ruza, hikoya, namoyish qilish.

Dialogik va polidogik metodlar: suhbat, munozara va boshqalar; hamkorlik shakllari: individual, guruhii, umumiy (frontal), jamoa tarzida bayon qilinadi.

Umuman olganda, metodlarni guruhlarga bo'lishning barchasida ham kamchiliklar mavjud. Shuning uchun ham pedagoglar metodlarni tasniflash, guruhlarga ajratishni takomillashtirishga harakat qilishmoqda. Shu sababli metodlarni guruhlashdan voz kechish tendensiyasi vujudga keldi. Metodlarning murakkabligi ularni turli sharoitlarda qo'llashga ahamiyat berishga majbur qilmoqda.

Har bir darsni o'qitish jarayonida bir necha metod bir-biriga bog'lanib, qorishib ketadi. O'qituvchi va talabalarning o'zaro muvoqoti natijasida ta'lim metodlari bir-biriga singib ketadi. Tadqiqotchi Yu. K. Babanskiyning fikricha, biz u yoki bu metodni qo'llash haqida gapirar ekanmiz, bu shu metodning ma'lum bosqichda yetakchi rol o'ynashini bildiradi, xolos.

¹ Interaktiv — ing. interact co'zidan olingan bo'lib, inter-o'zaro, act-faoliyat yuritish, harakat qilmoq, ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Metodlarning funksional jihati butun o'quv jarayonida o'zgarimas emas, ya'ni qotib qolmaydi. U sharoitga, qo'yilgan talabga, intensiv tarzda qo'llanish yoki qo'llanmasligiga ko'ra o'zgarib turadi.

Bir xil metodlar ko'proq ta'lim berish, o'quvchilarni kamol toptirish, tarbiyalashda muhim rol o'ynasa, boshqalari bilim olishga da'vat etish, uchinchilari esa bilimni nazorat qilishda keng imkoniyatlarga ega.

Ayrim metodlar ko'proq o'quvchi, talabalarni bilim doirasini kengaytirish, nazariy bilim olishlarida qo'l kelsa, **boshqalari** ko'proq tajriba to'plash, ko'nikma hosil qilish, o'z bilimini amalda sinab ko'rishda yordam beradi. **Uchinchilari** esa bilimni oshirish uchun mustaqil o'z ustida ishlashga da'vat etadi, **to'rtinchilari** bilim, ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, ayrim **metodlar** bilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, tafakkurni rivojlantirsa, **ikkinchisi**, faollik, o'rganganlarini uzoq esda saqlashga yordam beradi. **Uchinchisi** iroda, o'z fikrini mustaqil aytish, himoya qilishga o'rgatadi. **To'rtinchisi** his-tuyg'u, kechinmalarni boshqarishga yordam, ruhiy ozuqa beradi.

4-§. O'qituvchi – o'quv jarayonini tashkil etuvchi subyekt

O'qituvchining o'z ishiga ijodiy yondashuvi jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, yangiliklarni tezda ilg'ay bilishi, fan yangiliklarini o'rganib, o'z faoliyatida qo'llashi bilan ifodalanadi. Buning uchun esa o'qituvchi tezkor axborot bilan ta'minlanishi darkor. Axborotning roli beqiyos o'sgan davrda kerakli ma'lumotlarsiz iqtisodiy hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish mumkin emas.

Axborot to'plashning asosiy usullari quyidagilar:

1. Bibliografiya tizimi.
2. O'qituvchi va talabalar tomonidan to'plangan ma'lumotlarni tizimlash.
3. O'qituvchilar kuchi bilan yangi adabiyotlarga taqrizlar va sharhlar yozish.
4. Ilmiy munozaralar tashkil qilish va ilmiy doklادلarni muhokama qilish, internet axborotidan foydalanish va hokazolar.

Lekin shuni yodda tutish kerak:

1. Allaqachonlar ko'pchilik bir fikrga kelgan masalalar, iboralar bo'yicha qaytadan munozara boshlamaslik.
2. Me'yordan chiqmaslik, hamma mavzuda albatta munozarali savolni o'rtaga tashlash shart emas.

3. U yoki bu muammo, tushuncha haqida boshqalar o'z fikrlarini aytgach, albatta, munosabat bildirish.

4. Munozarali savollarni avvalo kafedra yig'ilishida muhokama qilib, bir fikrga kelish, so'ngra talabalar muhokamasiga qo'yish kerak.

Shu bilan birga, murakkab hodisa-jarayonlarni asossiz ravishda soddalashtirishga ham urinmaslik kerak. Har bir masalaga bir tomonlama yondashish ham noto'g'ri xulosa chiqarishga olib kelishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik zarur.

Dars o'tishda o'qituvchi talabalarning qaysi guruhini mo'ljalga olishi kerak: bilimdonlarnimi, bilimi o'rtachalarnimi yoki bilim doirasi pastlarnimi? Bu savolga javob berish uchun har qanday darsda mazmun va shaklni hisobga olish kerak.

Har qanday ma'ruza mazmunan nazariy jihatdan yuqori darajada, shaklan esa hammaga tushunarli bo'lishi kerak. Ma'ruzaning hammabopligi avvalo, uning shakliga, uslubiga, qanday auditoriyada o'qilishiga bog'liq. Ko'pincha, talabalardan o'qituvchi zerikarli ma'ruza o'qiydi, tushunib bo'lmaydi, degan shikoyatlarni eshitish mumkin. Tajribali pedagoglar buning sababini didaktikaning prinsiplari buzilganida, izchil mantiqning yo'qligida, gaplarning murakkab tuzilishida, yaxshi misollar tanlanmaganligida, oldingi ma'ruza bilan bog'lanish yo'qligida deb ko'rsatishadi.

Dars berishning obyektiv hamda subyektiv tomonlari mavjud. Uning obyektiv tomoniga fanning predmeti, shu fanning xususiyatlari, mavzuning mazmuni kirsa, subyektiv tomoniga shu fanni o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilishi kiradi. Undan tashqari, metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi, individual metodik tamoyillar, uslublar va uni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash ham shu muammoga kiradi.

O'quv jarayonini tashkil etish va dars berish uslubini tanlaganda mutaxassis tayyorlash bilan birga, yoshlarga yetuklik, axloqan poklik, vatanparvarlik, baynalmilalchilik ruhini ham singdirish zarurligini yoddan chiqarmaslik kerak.

O'qituvchining shaxsi, psixologik sifatlari, nazariy va metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi dars berish metodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bir metodni qo'llash turli o'qituvchilar darsida turlicha natija berishi mumkin.

Dars berish metodlarining samaradorligi haqida fikr yuritilar ekan, o'qituvchining shaxsiy sifatlaridan uning ilmiy-uslubiy tayyorgarligi darajasini ajratib bo'lmaydi.

Dars berish jarayon sifatida obyektiv va subyektiv tomonlarning birligidir.

Dars berishning **obyektiv tomoniga** o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan, o'rganilayotgan fanning mazmuni, dars o'tish tamoyillari kiradi. **Subyektiv tomonlariga esa:**

a) o'qituvchining shu fanni qanday egallagani, bilim darajasi;
b) o'qituvchining uslubiy tayyorgarligi, metodikaning qonun-qoidalarini qo'llay bilish mahorati;

d) har bir o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida u yoki bu uslubni qo'llashdagi individual xususiyatlari kiradi.

Dars berishda pedagog subyektiv omil sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p jihatdan talabalarning o'zlashtirishi o'qituvchining dars o'tishda tanlagan metodlariga bog'liq.

Har bir o'qituvchi o'z qobiliyatini dars berishda namoyon qilib, ma'ruza va nutqida o'ziga xos jihatlarni ko'rsatadi. Ma'lum bir mavzuni yoritishda o'qituvchi o'zi yaxshi bilgan yoki o'zining ilmiy izlanishlari bilan bog'liq bo'lgan, lekin shu mavzuga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan savolga ko'p vaqt ajratib, qolgan savollarni ko'rib chiqish uchun vaqt yetmay qolishi mumkin. Bu — mavzuni bayon qilishda didaktikaning izchillik prinsiplarini buzilishiga olib keladi.

Shuning uchun dars o'tishdagi muhim vazifalardan biri, bu — subyektiv omillar, albatta, obyektiv omillarga bo'ysinishi, aynan shu fanning mazmunini ochib berishga xizmat qilishi kerak. Bunda, albatta, to'plangan metodik tajriba qo'l keladi.

Har bir o'qituvchi o'zida **quyidagi psixologik** sifatlarni hosil qilishga va rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

1. O'qituvchi auditoriyada o'zini erkin tutishi dars berish imkoniyatiga ishonishi kerak.

2. O'qituvchi **gampirib turib, o'ylashni** bilishi kerak. O'qituvchilik kasbining, mehnatining, mahoratining o'ziga xosligi ham shunda. **Dars berishda fikrlash, o'ylash va gampirish jarayoni qo'shib ketadi.** Avval o'ylab olib, keyin so'zlashga fursat bo'lmaydi.

3. O'qituvchining fikrlashi va shu vaqtning o'zida uni bayon qilishi auditoriyada yuz beradi. Shuning uchun o'qituvchi unga tikilib turgan ko'zlardan qo'rqmasligi zarur. Ularni ta'siridan xoli bo'lishni o'rganishi, bilishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi auditoriyadagi talabalar bilan o'zaro bog'liqlikni yo'qotmaslikni ham o'zida tarbiyalashi shart.

4. O'qituvchi auditoriyada o'tirgan talabalarning munosabatini, ulardagi o'zgarishini to'g'ri aniqlashi uchun kuzatuvchilik qobili-

yatiga ham ega bo'lishi kerak. Auditoriyani psixologik holatini (sukunat, shovqin va hokazolar) tez ilg'ashi zarur.

O'qituvchi bir psixologik holatdan boshqa holatga oson o'ta olishi kerak. O'qituvchining ishonchli dalillari, ilmiy, asosli mulohazalari, uning fikrlarini talabalarga ta'sirini bir necha marta oshiradi. O'ziga ishonchi esa keng doiradagi bilimi, o'z fikrini ilmiy asoslab bera olish qobiliyatiga ega bo'lishda shakllanadi.

O'qituvchi keltirgan misollarida talabalarga mehnatga, jamiyatga, o'rtoqlariga, jamoaga qanday munosabatda bo'lish zarurligini anglatishi kerak. Talabalarga ta'sir ko'rsatish uchun, albatta, o'qituvchi ular o'rtasida hurmatga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi (oratorlik) voizlik - ma'ruza o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchida talabalarni o'z fikriga mahliyo qilish, o'zini qanday tutishni bilish qobiliyati bo'lsa, u haqiqiy talant sohibidir. Buyuk faylasuf Aristotel har bir so'zni qanday aytishni avval soatlab oynaga qarab, mashq qilgan ekan.

O'qituvchining butun faoliyatida samimiylik, o'ziga ishonch muhim ahamiyatga ega. O'quv-tarbiya faoliyatida qo'llaniladigan metodlar o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga qaratilgan. Bu o'qituvchi bilan talaba o'rtasida ishchanlik muhitini yaratishda o'z ifodasini topadi. Bunda talabaning fikri o'qituvchi bilan birga kechishi yoki ozgina orqada qolishi yoki ozgina oldinga o'tib ketishi mumkin.

O'qituvchi auditoriyani ko'rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerak. Talaba ham, o'z navbatida, o'qituvchi uni ko'rib, nima qilayotganini bilib turishini his qilishi kerak.

O'qituvchi darsni zerikarli bo'lmasligiga harakat qilishi, o'z ma'ruzasiga talaba ko'zi bilan ham qarashi lozim. Ana shunda o'zini kamchiliklari, dars o'tishda qo'llayotgan uslubi to'g'ri yoki to'g'ri emasligini tez ilg'ab oladi. O'z ishiga ijodiy yondashish, undan tashqari talabalar hayotini yaxshi bilish, talabalarni qiziqtiradigan masalalarni yechishga yordam beradi.

Bir so'z bilan aytganda, metodika o'qituvchi uchun chuqur, qiziqarli, tushunarli tarzda bilim berish asosidir.

5-§. Ta'lim tizimida o'qitishning asosiy shakllari

Hozirgi paytda talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, o'z navbatida, ishchi malakasi, mahoratining yuqori bo'lishi, mehnat bozori talabiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab etadi. Shuning uchun o'quvchi-talabalarga ham mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishni o'rgatish lozim bo'ladi. Buni o'rgatish, eng avvalo, ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimi, o'qitishning shakl va metodlari majmui o'quv jarayonining obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi. Psixologik-nuqtayi nazardan qaraganda insonning bilim egallash jarayoni sezish, idrok, xotira va tafakkur tufayli kechadi. Sezish va idrok bilimning dastlabki, eng oddiy bosqichi hisoblanadi. Sezish orqali tashqi dunyo taassurotlari, xususiyatlari bosh miyaga alohida-alohida axborot tarzida berilib aks etadi. Idrokda ana shu taassurotlarning yaxlit obrazi hosil bo'ladi.

Demak, idrok sezishga nisbatan murakkab bosqich. Unga odamning yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, nutqi, idrok obyektiga munosabati, ruhiy holati va boshqalar ta'sir etadi. Sezgi va idrok asosida odamning ichki dunyosi shakllanib boradi. Xotira idrok etilgan taassurotlarni bosh miyada saqlanib qolishi, keyinchalik qayta tiklanishi hisoblanadi.

Insonning esda saqlab qolishi tufayli unga qaraganda ham murakkab jarayon tafakkur shakllanadi. Tafakkur deganda shaxsning ma'lum muammo haqida o'ylashi, fikr yuritishi tushuniladi. Tafakkur keng va chuqur bilimga asoslanadi. Insonda o'ylash, fikr yuritish ma'lum bir muammo paydo bo'lganda, obyektiv zarurat tufayli sodir bo'ladi. O'quvchi-talabalarni bilim olish, teran fikrlashga o'rgatish esa ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

O'quv yurtlarida o'quvchi-talabalarga ta'lim berish jarayonida real hayotda sinab ko'rilgan hamda o'zini oqlagan o'qitish shakllari: ma'ruza, seminar, maslahat, amaliyot darslari, laboratoriya ishlari, o'quv va ishlab chiqarish praktikasi, kurs ishi va bitiruv malaka ishi, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar, joriy, oraliq, yakuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasi imtihoni, turli konkurslar, olimpiadalar va boshqa shakllaridan hamda turli metodlaridan foydalaniladi.

Ta'lim berish jarayonida o'qitishning asosiy shakllari: auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg'ulot o'tkazishga bo'linadi.

Auditoriyada o'qishga — ma'ruza, seminar darslari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi, joriy, oraliq, ya-

kuniy baholash, davlat attestatsiya komissiyasining yakuniy baholashi kirsam, auditoriyadan tashqari o'qishga sayyor darslar, o'quv anjumanlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, o'quv ishlab chiqarish amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ishlar kiradi.

Sanab o'tilgan o'quv-tarbiya shakllarining hech biri universal emas. Biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, ular bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini mantiqiy ketma - ketligini taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiya berishning bir shakli albatta, ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ma'ruza o'qish, unda muayyan metodni qo'llash seminar o'tkazish saviyasiga katta ta'sir ko'rsatadi va hokazo.

Dars o'tishning shakl va metodlari o'rtasidagi nisbat o'zgarib turadi. Yuqori kurslarda seminar darslarining va mustaqil ishlarning roli ortadi. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlari talabalarni, bilishning eng yuqori bosqichi baholash darajasigacha ko'tarilishini ta'minlashdir.

O'quv jarayoni o'zaro bog'langan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi ikki faoliyatni qamrab oladi va ta'lim unga tayanadi:

1. O'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati.

2. Talabalarining o'quv va bilim olish faoliyati.

Ta'lim (dars) jarayoni — ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining darsga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish borasida avvaldan ko'zlangan natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonidir (jarayon- lotincha *processiv* — oldinga harakatlanish, o'zgarish ma'nosini ifodalaydi).

O'quvchi-talabalarining fanni o'rganishlarida nazariy va amaliy darslar bilan bir qatorda maslahat darslari ham muhim o'rin tutadi (Nazariy va amaliy darslar, V va VI boblar).

O'quv jarayonini tashkil qilishda, ayniqsa, seminar, amaliyot darslarini ko'ngildagidek o'tishini ta'minlashda maslahat darslarining o'z o'рни bor.

Maslahat darslari guruhiiy va individual tarzda o'tkazilishi mumkin. Guruhiiy maslahat darslarini semestr yakunida yoki murakkab mavzuni muhokama qilishda o'tkazish yoki guruhning talabi bilan, aytaylik, yangi o'quv adabiyotini o'rganish, munozarali muammolarni hal etish uchun tashkil etish mumkin.

Maslahat darsining asosiy qismi individual tarzda o'tkazilib, u ixtiyoriy ravishda tashkil etiladi. Talabalar qayerda maslahat darsi-

dan zarur yordam olsalar, o'sha yerda maslahat darsiga bajonidil qatnashishadi. Aynan maslahat darslarida talabalar adabiyotlarni konspekt qilish, mustaqil o'qishni tashkil etish masalalari bo'yicha hamda o'zlari uchun qiyin bo'lgan boshqa savollarga javob olishadi. O'qituvchi maslahat darsida faqat talabaning savoliga javob berish bilangina qanoatlanib qolmay, balki qoloq talabalar bilan ishlashga e'tibor qaratishi lozim. Maslahat darsi qayerda, qachon, qanday mavzuda o'tishini talabalarga yetkazish kerak.

Individual maslahat darsi o'qituvchining o'quvchi, talabani yaqindan bilishiga, uning ichki dunyosi, -psixologik xususiyatlarini to'laroq his qilishiga yordam beradi. Unda o'quvchi-talaba faqatgina axborotga ega bo'lib qolmay, fan bo'yicha har tomonlama maslahat oladi. Shuning uchun ham fanni chuqur o'zlashtirishga, izlanishga, uning qiziqishini kengaytirishga yordam beradi.

Talabalarni amaliyot bilan yaqindan tanishishida sayyor darslarning roli katta. Bunday dars o'rganilayotgan soha bo'yicha korxonalar, tashkilot, muassasalarda o'tkaziladi. U yerda ishlayotgan mutaxassislar o'quvchi-talabalarni ish jarayoni bilan tanishtirib, dars o'tadilar. Natijada, talabalar amaliyot bilan yaqindan tanishadilar.

Elektron darsliklar yaratilishi bilan hayotga masofadan o'qitish kirib keldi. Uning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. O'qitishning bunday shakli qanday rivojlanishini kelajak ko'rsatadi.

Xulosa

* Metodika ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan bo'lib, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi esa shu fanlarni o'rganish metodlari va ularni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rganadi.

* Metodika bilan didaktika uzviy bog'liq bo'lib, metodika didaktikaning bo'limi. Didaktika bilim olish, uni o'zlashtirish, ko'nikmalar hosil qilishning prinsiplari, uslublari, o'quv jarayonini tashkil etishga oid barcha masalalarni o'rganadi. Barcha fanlarni o'rganishda didaktik prinsiplar: faollik, nazariya bilan amaliyotning bir-biriga bog'liqligi, ko'rgazmalilik, tushunarlilik, namunalardan foydalanish, ilmiylik, bilimlarni qo'llash, natijalarni mustahkamlash kabilar muhim o'rin tutadi va ularga o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishning qoidalari sifatida amal qilinishi zarur.

* Dars o'tish jarayonida ta'lim maqsadlarini belgilashga alohida diqqat qaratish zarur. Bunda taniqli AQSh lik pedagog olim

B.Blum taksonomiyasidan foydalanish mumkin. Qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi va o'quvchi-talabalar uchun topshiriqlar ishlab chiqiladi.

* Metod nihoyatda serqirra, murakkab tuzilishga ega bo'lib, dastlab pedagog olimlar tomonidan turli jihatdan yondashgan holda guruhlariga bo'lish tendensiyasi ustun bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda metodlarni u yoki bu xususiyatlariga ko'ra guruhlariga bo'lishdan voz kechish tendensiyasi vujudga keldi. Haqiqatan ham metodlarni guruhga bo'lishdan maqsad ularni o'rganilayotgan fanning, mavzuning o'ziga xos tomonlarini, uni o'rganishdan qo'yilgan maqsadni hisobga olgan holda samarali qo'llash. Shuning uchun metodlarni guruhlariga bo'lish bo'lmislikdan qat'i nazar har birini chuqur o'rganib chiqish zarur. Umuman olganda, guruhga bo'lish shartli bo'lib, metodlar bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini taqozo qiladi.

* O'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchi-talabalarga ta'lim berish jarayonida real hayotda sinab ko'rilgan hamda o'zini oqlagan o'qitish shakllari va turli metodlaridan foydalaniladi.

* O'qitish jarayon sifatida obyektiv va subyektiv tomonlarning birligidir. O'quv jarayonini tashkil etish dars berish metodlarini samaraliligini ta'minlashda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi unga qo'yilgan talablarga javob berishi, o'z o'stida tinmay izlanishi, metodikani puxta egallagan holda o'rganilayotgan fanning, mavzuning xususiyatlariga ko'ra, turli metodlarni qo'llay bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Asosiy tushunchalar va atamalar

Metodika, pedagogika, metod, metodlarga yondashish, reproduktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, produktiv faoliyatni ta'minlovchi metod, didaktika, didaktika prinsiplari (tamoyillari), didaktik sakkiz burchak, bilishning (kognitiv) darajasi, dars o'tish prinsiplari(tamoyillari), o'qitish shakllari, maslahat darslari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani nimani o'rganadi? Fanning maqsadi va vazifalarini ko'rsating. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi qanday o'rin tutadi?

2. Metodika deganda nimani tushunamiz? Metodlarning obyektiv va subyektiv jihatlari ta'riflang.

3. Metodlarga turli jihatdan yondashish nuqtayi nazaridan ularni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

4. Didaktikaning asosiy prinsiplari (tamoyillari) nimalar? Didaktik sakkizburchak nimani ifodalaydi? Nega olti yoki yettiburchak emas?

5. Nazariy jihatdan bilim olishning qadam-baqadam modeli nimalarni o'z ichiga oladi? Ikkita savol va unga javoblar asosida ana shu modelni ifodalashni ko'rsatadigan test tuzing va uni izohlang.

6. O'qitish jarayonining obyektiv va subyektiv jihatlarini ko'rsating.

7. Dars jarayonida o'qituvchining roli, o'rta maxsus va oliy maktab o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni gapirib bering. Sizingcha, o'qituvchiga yana qanday talablar qo'yilishi kerak?

8. O'qitishning asosiy shakllari va ularning farqini ko'rsating.

II bob. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI, UNING TARKIBI VA DARS O'TISHNING XUSUSIYATLARI

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasini o'rganar ekanmiz, birinchi navbatda mamlakatimizda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari, ularda dars o'tishning xususiyatlariga e'tibor qilishimiz lozim. Shuning uchun bu bobda ana shu masalalarni o'rganamiz.

1-§. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning mavjud emasligi va boshqa jiddiy kamchiliklar mavjud edi.

Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas edi. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmadi.

Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmagan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya ahvoli qoniqarsiz. Maktabgacha tarbiya ham jiddiy islohotlar talab qilardi. Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qoldi. Oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyor-

garlik bo'lmadi. Natijada, 9-11-sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o'z o'rinlarini aniqlay olmadi. Chunki ularda o'zlariga ishonch shakllanmagan edi.

Ta'lim tizimida, mavjud umumta'lim va kasb-hunar dasturlari o'rtasida uzviylik va vorisiylikning yo'qligi ham o'рта maktab bitiruvchilarida kasbga ishtiyoq va mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajasiga salbiy ta'sir etdi. Natijada, yigit va qizlar o'z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlariga, moyilliklariga monand hayot yo'lini tanlashda qator qiyinchiliklarga duch keldilar.

O'quv jarayoni, odatda, bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanadi. Shu bois ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlashi kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmadi. Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta'lim muassasalariga o'tish ko'proq og'izda bo'lib, amalda esa ularda ta'lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o'quv-uslubiy bazada, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tmagan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirildi.

Kasb-hunar ta'limining obro'si hamda o'qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bordi. O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismining yaxshi tayyorgarlik ko'rmasligi, bilimi sayozligi va kasb saviyasi pastligi tufayli tayyorlanayotgan kadrlarning malakasi past darajada qoldi. Respublikamizda ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarning o'rtacha yoshlari ulg'ayib bordi.

Ko'ngildagidek bilimdon, mutaxassis kadrlar tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish har jihatdan ustozlarga ularni o'qitish jarayonini tashkil etishlariga bog'liq. Ta'lim tizimi kadrlarning miqdori va malakasi, mutaxassisligi jihatidan bozor talablariga tezda moslasha oladigan bo'lishi zarur. Tizimdagi qator kamchiliklar, zamon talablarini hisobga olgan holda respublikamizda kadrlar tayyorlashning mutlaq yangicha tizimini barpo qilishga kirishildi.

Ta'lim tizimini isloh qilish, o'quvchilarni kasbga yo'llash va ta'limning amaliy yo'naltirilganligini yetarli bosqichga ko'tarish yoshlarda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyati ko'nikmalarini yorqinroq shakllanishiga yordam beradi.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni eski mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

Bu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi qator vazifalarni amalga oshirishni talab qilishi belgilab qo'yildi:

– «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tizimni isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida tizimni yagona o'quv – ilmiy – ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilish jarayoniga moslash;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatidan tarbiyalash va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy qilish;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xofis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalga faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishning kafolatlarini ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'ziga xos uzluksiz ta'limning o'zbek modeli sifatida vujudga keldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi
(1997-yil 29-avgustda qabul qilingan)



Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun hal etilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri—yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishning kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratishdir. Shunday ekan, ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta'minlamay turib, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash mumkin emas.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan. Birinchi bosqichda (1997–2001) asosan yangi uzluksiz ta'lim tizimi uchun me'yoriy asoslar yaratish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichi(2001–2005)da ta'lim sifatini ta'minlashga e'tibor qaratildi.

Ikkinchi bosqichda Milliy dasturni to'la ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish mo'ljallandi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariiga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli markazida o'quvchi, talaba, malakasini oshiruvchi — xullas «bir so'z bilan aytganda» **shaxs** turadi. U kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi, shu bilan birga, ularni amalga oshiruvchi hamdir.

Davlat va jamiyat — esa ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga soladi va nazorat qilishni amalga oshiradi. Shu bilan birga kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafili sifatida ham asosiy rol o'ynaydilar. Model *uzluksiz ta'limni* amalga oshirish bilan ajralib turadi.

Uzluksiz ta'lim — malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Milliy modelda fanga, uning ahamiyatini hisobga olgan holda alohida o'rin beriladi. *Fan* — yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiqadi. Kadrlar tayyorlash tizimiga ilmfanning uzviy ravishda kirib borishi nazarda tutiladi.

Kadrlar tayyorlashning pirovard natijasi, bu — ishlab chiqarish (tovar va xizmatlar) uchun zarur malakali mutaxassislar tayyorlashdir.

Ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi sifatida ishtirok etadi.

Bir bosqichli oliy ta'lim mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlarni va ilg'or xalqaro tajribani to'liq hajmda hisobga ololmadi. Ilg'or mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, uni ikki bosqich: bakalavriat va magistratura bosqichlariga bo'lindi.

Hozirgi paytda dasturning ikki bosqichi yakunlanib, uchinchi bosqich vazifalari amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilish davom etmoqda. Dastlabki muvaffaqiyatlarga erishildi. Shunga qaramay, umumta'lim maktablaridagi mavjud kamchiliklar jiddiyligi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy bazasi mutlaqo talabga javob bermasligi, kamchiliklarni tezroq bartaraf qilishni talab etishi ularga alohida diqqat qaratishni zarur qilib qo'ydi. Prezidentimiz, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi

ma'ruzasida ham alohida ta'kidlab, maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasini jiddiy muammo bo'lib turgani, o'qituvchilarning 30 foizdan ko'prog'i oliy ma'lumotga ega emasligini ko'rsatdi.

«Barchamiz shuni yodda tutishimiz kerakki, maktabni bitirgan farzandlarimiz ertaga yangi turdagi o'quv maskanlari va kollejlariga har taraflama puxta bilim va tayyorgarlik bilan kelishlari zarur»¹.

Bu yerdagi kamchiliklarni hisobga olib, umumta'lim maktablari tizimini rivojlantirish masalasini alohida ko'rib chiqish va maxsus dastur tayyorlash topshirildi. 2004-yil 22-may kuni matbuotda «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi.

Milliy dasturni amalga oshirish ta'lim tizimidagi maxsus dastur bilan yanada to'ldirildi, rivojlantirildi. Shu yillar davomida ko'zda tutilgan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

2-§. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari—uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi keng ko'lamlı ishlar ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq.

Yangi ta'lim tizimining eskisidan farqi, uning uzluksizligidadir. Yana bir ko'zlangan maqsad o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishishdir.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Aynan uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.


Uzluksiz ta'lim davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil tur hisoblanadi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

¹ Karimov I. A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifalarimiz. // Xalq so'zi, 2004-y. 10-fevral, №28.

yoʻnalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji oʻquvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat taʼlim standartlariga muvofiq, oʻrta maxsus taʼlim beradi. Oʻquvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yoʻnaltirilgan taʼlim olishni taʼminlaydi.



Akademik litseylarda oʻquvchilar oʻzlari tanlab olgan taʼlim yoʻnalishi boʻyicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur oʻrganishga qaratilgan maxsus bilim va koʻnikmalarga ega boʻladilar. Bu koʻnikmalarni oliy oʻquv yurtlarida davom ettirishlari yoki mehnat faoliyatida roʻyobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat taʼlim standartlari doirasida oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi beradi, oʻquvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va koʻnikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar boʻyicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda taʼlim olish oʻquvchilarga oʻz bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega boʻlishni taʼminlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar taʼlimning keyingi bosqichlarida oʻqishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar boʻyicha mehnat faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida taʼkidlanishicha, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyatning normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan, chet ellarda tayyorlashni tashkil etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limlari o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv uslubiga majmualar ishlab chiqish;

- akademik litseylarining o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan keyin uzluksiz ta'lim turlarining eng asosiy o'rta bo'g'ini bo'lmish O'MKHT (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) bizning kadrlar tayyorlash milliy modelimiz boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimi bilan o'xshash emasligini ko'rsatdi. Bunda, ayniqsa, uzluksiz ta'limdagi muhim bo'g'in 3 yillik majburiy O'MKHT qanday bo'lishi kerak, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat, uni tashkil etish va boshqarish mexanizmlari qanday bo'lishi kerak, bituruvchilarga qanday namunadagi hujjatlar berilishi lozim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qanday hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatishlari zarur degan savollar yuzaga keladi.

Prezidentimiz I. Karimov ham Milliy dasturni amalga oshirishdagi eng og'ir, eng murakkab va eng nozik masala 3 yillik ta'lim muassasalarini tashkil etish va bu pog'onada bolalarimizga bilim berish va kasb-hunar o'rgatish muammolaridir deb, ko'p marta ta'kidlagan.

Yuqoridagi savollarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi qarori va shu qaror asosida tasdiqlangan «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom oydinlik kiritdi.

Bu Nizomga asosan kasb-hunar bo'yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim berish o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va ularning o'z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlangan kasb-hunar bo'yicha mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yillik majburiy ta'lim turi bo'lib, uning yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey – o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirish, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan o'rta maxsus o'quv yurtidir. 9 yil davomida maktablarda o'quvchilar umumiy tayanch ma'lumot olgan bo'lsalar, endilikda ular o'zi tanlagan yo'nalish bo'yicha bilim olish va oliy o'quv yurtiga kirish uchun maqsadga yo'naltirilgan fanlarni mukammal o'rganishi bilan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasb-hunar kolleji – o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurti. Unda o'quvchilarga o'zlari tanlagan kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilim beriladi va kasb-hunar o'rgatiladi. Ular zamonaviy jihozlanganligi, o'qituvchi-pedagoglar saviyasi, o'qish jarayonini tashkil etilishi va talabalarga kamida 2–3 zamonaviy kasb-hunar bera olishi bilan oldingi kasb-hunar maktablaridan tubdan farq qiladi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli ta'lim tizimi tarkibi o'zgarib bordi. Uni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rsa bo'ladi.

Ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2000/ 2001 y.	2004/ 2005 y.	2006/ 2007 y.	2007/ 2008 y.
Ta'limga ajratilgan davlat xarajatlarining YaIMlari ulushi	%	6,7	7,0	8,8	8,8

¹ O'zbekiston iqtisodiyoti 2002. T., 2003. 78-bet.

Основные показатели развития народного образования и подготовки кадров за 2006 год. Статистический бюллетень. Ташкент: 2008, стр. 63–66.

Umum ta'lim mak- tablari	Soni	9788	9835	9826	9816
Undagi o'quvchilar soni	Ming kishi	6076,4	6151,4	5961	5715
9-sinf bitiruvchilari	Ming kishi	...	578,1	584,0	623,8
11-sinf bitiruvchi- lari	Ming kishi	...	303,8	269,7	...
Akademik litseylar					
Jami litseylar	Soni	47	65	99	119
Undagi o'quvchilar soni	Ming kishi	17,5	30,5	53,1	75,6
Qabul qilish	Ming kishi	10,6	13,4	17,2	27,0
Bitirganlar soni	Ming kishi	...	7,0	7,1	7,9
Kasb-hunar kollejlari					
Jami kollejlari	Soni	303	827	953	1073
Undagi o'quvchilar soni	Ming kishi	130,0	757,6	1021,9	1119,7
Qabul qilish	Ming kishi	77,3	310,1	332	428,6
Bitirganlar soni	Ming kishi	...	194,7	217,6	237,1
Oliy o'quv yurtlari					
Jami oliy o'quv yurtlari	Soni	61	63	62	62
Undagi talabalar soni	Ming kishi	195,8	263,6	286,3	296,6
Qabul qilish	Ming kishi	44,7	59,3	61,2	69,1
Bitirganlar soni	Ming kishi	...	52,8	60,7	63,2

Izoh: Har bir o'quv yurti bo'yicha bitirganlar soni muvofiq ravishda 2001, 2006, 2007-yillar bo'yicha ko'rsatilgan.

Jadval ma'lumotlariga qaraganda respublikamizda umumta'lim maktablari va o'quvchilar soni unchalik o'zgarmagani holda keyingi yillarda akademik litsey va ayniqsa, kasb-hunar kollejlari va ularda o'qiyotganlarning soni ortib borayotganini quvonchlidir.

2000–2001 o'quv yilida O'zbekistonda barcha oliy ta'limgacha bo'lgan (birinchi sinfdan boshlab) bilim maskanlari o'quvchilarining 0,15 foizini akademik litsey va 0,9 foizini kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tashkil etgan bo'lsa, 2002/2005 o'quv yiliga kelib, muvofiq ravishda 0,5 foizini va 10,9 foizini tashkil etdi. Yoki 2004/2005 o'quv yilida 2000/2001 yilga nisbatan akademik litsey o'quvchilari 3 marta, kasb-hunar kolleji o'quvchilari 12,7 martadan ortiq ko'paydi. 2007/2008 o'quv yilida esa bu raqam

yanada ortdi. Bu raqamlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning ta'lim tizimidagi salmog'i borgan sari ortib, qamrovi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Agar 9-sinfdan keyingi o'quvchilar tarkibini olsak, ularning asosiy qismini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tashkil qilgan bo'lsa, hozirga kelib barcha 9-sinf bitiruvchilari akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari o'qishmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylar soni 1,6 martaga, kasb-hunar kollejlari esa 3,4 martaga ortdi. Demak, ana shu yillar davomida respublikada 25 akademik litsey va -586 kasb-hunar kolleji qurilib, ishga tushirildi yoki tubdan rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Shu yillar davomida oliy o'quv yurtlari soni 62 tani tashkil etadi. Ulardagi talabalar soni 143,8 foizga ko'paydi.

Kasb-hunar kollejlarning ixtisoslashuvi bo'yicha tarkibi¹ (2006/2007 o'quv yili, foiz hisobida)

	O'quv dargohlari		O'quvchilar		Jumladan qizlar
	soni	jamiga nisbatan foiz hisobida	soni, ming kishi	jamiga nisbatan foiz hisobida	jamiga nisbatan foiz hisobida
Hammai	953	100,0	1021,9	100,0	47,3
Jumladan, sohalar bo'yicha:					
1. Sanoat	151	15,8	148,2	14,5	36,6
2. Qurilish	84	8,8	65,0	6,4	35,9
3. Transport	24	3,8	29,6	2,9	20,1
4. Aloqa	226	23,7	189,5	18,5	36,0
5. Qishloq xo'jaligi	40	4,1	45,1	4,5	32,0
6. Iqtisodiyot	125	13,1	127,8	12,6	45,3
7. Huquq	2	0,2	5,8	0,5	36,3
8. Sog'liqni saqlash	64	6,7	142,7	14,3	84,9
9. Jismoniy tar-					

¹ Manba: Основные показатели развития народного образования и подготовки кадров за 2007 год.

Статистический бюллетень. Ташкент, 2008, стр. 54. (Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan).

biya va sport	15	4,7	13,4	1,3	21,1
10. Maorif	59	6,2	133,0	13,0	82,1
11. Xizmat ko'rsatish	128	13,4	96,8	9,4	45,5
12. San'at va kinematografiya	35	3,6	25,0	2,4	45,6

Jadval ma'lumotlariga nazar solsak, 2006/2007 o'quv yilida respublikamizda 953 kasb-hunar kollejlari bo'lib, ulardan 40 tasi qishloq xo'jaligi, 151 tasi sanoat, 125 tasi iqtisod, 128 tasi xizmat ko'rsatish, 226 tasi aloqa, 84 tasi qurilish, 57 tasi sog'liqni saqlash, 59 tasi maorif yo'nalishlari bo'yicha yoshlarimizga bilim, malaka bermoqdalar. Ularda o'qiyotganlar, barcha o'quvchilarning asosiy qismini tashkil qiladi. Keyingi yillarda kasb-hunar kollejlari ixtisoslashuviga ishchi kuchi tarkibiga bo'lgan bozor talabini hisobga olgan holda yondashishga diqqat qaratildi.

«Ayni paytda bugun bizni g'oyat muhim, prinsipial bir masala bezovta qilmasligi mumkin emas. Ya'ni yosh mutaxassislar tayyorlanayotgan ixtisoslik yo'nalishlarining barchasiga ham iqtisodiyotimizning soha va tarmoqlarida amaliy talab bormi? Litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yigit-qizlarimiz jamiyatda o'ziga, o'z kasbiga munosib o'rin topayaptimi?», — degan savolga javob bo'lsa, «Shu borada alohida muhim ahamiyat kasb etadigan ikkinchi bir masala — yoshlarni, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlash sifati bilan bog'liq. Tabiiyki, bu borada bugun farzandlarimizga kimlar ta'lim-tarbiya berayotgani, pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash qanday tashkil etilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega»¹.

Buni hisobga oshgan holda mutaxassislarga talabni o'rganish, uni asosida kadrlar tayyorlashni iloji boricha talab darajasiga yaqinlashtirish uchun chora-tadbirlar belgilandi.

Marketing tadqiqotlari asosida ularning ixtisoslashuvida tub tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Agar 2006-yilga qadar qishloq xo'jaligi uchun kichik mutaxassislar tayyorlash ustun bo'lib, 213 ta yoki 24,3 foiz kasb-hunar kollejlari shu soha uchun kadrlar tayyorlagan bo'lsa, 2006/2007 o'quv yiliga kelib, qishloq xo'jaligining qisqaruvchi tarmoq ekanligi, bozor ehtiyojini hisobga olib, atigi 40 ta yoki 4,4% kollej qoldirildi. Aksincha aloqa yo'nalishi bo'yicha

¹ Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash — barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir.// Xalq so'zi, 2008-yil 9-fevral, 3-bet.

avval bor-yo'gi 2,5% kollej mutaxassis tayyorlagan bo'lsa, hozirgi kunda eng ko'p 226 ta yoki 23,7 foiz darajasiga ko'tarildi. Shuningdek, sanoat uchun ham malakali ishchilar tayyorlash ikkinchi o'rinda bo'lib, 148,2 ming kishi yoki jami tayyorlangan kadrlarning 14,5 %ini tashkil etadi, undan oldingi o'rinda 18,5% ko'rsatkich bilan aloqa turadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport, maorif, xizmat ko'rsatish uchun kadrlar tayyorlash ham ko'paytirildi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli muassasalarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni amaliyotdan uzoqlashtirmasdan «imkoni boricha ko'proq qamrab olish chomlaridan kelib chiqib» tashkil etiladi.

Hozirgi paytda, kasb-hunar ta'limi sohasida 82,8 ming pedagog va muhandis-pedagoglar faoliyat ko'rsatishyapti. Jami pedagoglarning 75926 na nafari (91,8 %) oliy ma'lumotli, ulardan 116 nafari (0,1 %) fan doktori, 1015 nafari (1,4 %) fan nomzodlaridir.

2010-yilga kelib, sohada jami 167 ming pedagog va muhandis-pedagoglar lahlashi nazardan tutilgan. Oliy o'quv yurtlarida esa to'la stavkada 20 mingdan ortiq professor-o'qituvchilar dars berishmoqda. Ulardan 1470 tasi fan doktori, 7113 tasi fan kandidati, 1232 kishi professor, 4885 kishi dotsent lavozimida ishlaydi.

Umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni 450327 nafar bo'lib, ulardan 68,1%i (306487) ayollardir.

Pedagogika sohasi bo'yicha ilmiy darajaga ega mutaxassislardan 61 nafari fan doktorlari bo'lib, ulardan 7 nafari yoki 11,4 % ini ayollar tashkil etadi.

Fan nomzodlari 446 kishi bo'lib, ulardan 108 tasi yoki 23,1 % ayollardir.

Hozirgi paytda iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash, asosiy vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu vazifani tayyorlagan mutaxassis kadrlarimiz, ayniqsa, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari amalga oshirishadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirishda qator yutuqlarga erishilgani bilan bir qatorda kamchiliklarni ham ko'rsatib o'tishimiz zarur. Bu, eng avvalo, respublikamiz iqtisodiyotida barqaror ravishda 15-20 ming bo'sh ishchi o'rni joy bo'lish tendensiyasi kuzatilishida ifodalanadi.

Ikkinchidan, sanoatga yuqori malakali, asosan IV va undan yuqori razryadli ishchilar kerak. Mehnat bozorini esa, asosan, 2-3 razryadga ega bo'lgan kollej bitiruvchilari to'ldirayapti.

Uchinchidan, hozirgi paytda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda, kichik mutaxassislar tayyorlashda buni hisobga olish kerak.

To'rtinchidan, fan-texnika taraqqiyoti, ko'p tarmoqlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqartiradi. Mutaxassislar tayyorlayotganda buni ham hisobga olish kerak. Yangi texnika, texnologiya uncha tez sur'atlar bilan joriy qilinmaydigan tarmoqlar uchun ko'proq, tez o'zgaradigan sohalarga nisbatan kamroq mutaxassislar tayyorlash kerak.

- Shuning uchun akademik litsey, kasb-hunar-kollejlari mehnat bozorida o'zlari marketing tadqiqotlari olib borishlari, unga asoslangan holda mutaxassis tayyorlashga harakat qilishlari kerak.

3-§. Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish – davr talabi

Fan-texnika taraqqiyotining ilg'or natijalarini qo'llash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yuqori samarali texnika-texnologiyalardan foydalanish mehnat omiliga yangi talablar qo'yimoqda.

Hozirgi kunda uning miqdor va sifat jihatlarini o'rtasidagi nisbat keskin o'zgarib bormoqda. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqaro mehnat taqsimotida munosib o'rin egallash, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash muammolari ko'p jihatdan ishchining bilimi, malakasi, vaziyatga qarab ish tuta olishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

1998-yili YUNESKO tashkilotchiligida «XXI asrda oliy ta'lim: yondashuvlar va amaliy tadbirlar» degan mavzuda o'tkazilgan jahon anjumani deklaratsiyasi yangi asrda oliy ta'limga bo'lgan talab misli ko'rilmagan darajada o'sib borishi, ya'ni yosh avlod yangi bilim, g'oya va ko'nikmalarni egallashi, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotda uning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini kengroq anglashga intilishining kuchayishini ta'kidlagan edi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, XXI asr ta'lim olishning o'ziga xos davri bo'lishi kutilmoqda, chunki endilikda ta'lim axborotlar oqimi kuchaygan sharoitda amalga oshiriladi. Bu jarayondan albatta kasbiy ta'lim ham chetda qolmaydi.

Mustaqillik, bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz mamlakatimizdagi barcha sohalar kabi ta'lim sohasini ham isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatilgandek, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va

ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni joriy etish, yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini tayyorlash, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqish, o'quv yurtlarini attes-tatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.¹

Dasturda ta'kidlanganidek, kadrlar tayyorlash tizimining de-mokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emas-ligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarining kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi va boshqalar kadrlar tayyorlashdagi muhim kamchiliklar edi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida qator kamchiliklar mavjud bo'lib, u o'z navbatida zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga to'sqinlik qila boshladi. Ularni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-ning kamchiliklar va muammolar qismida ko'rsatib o'tilgan.

Ta'limni mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlarni, jahondagi ilg'or tajribani hisobga olgan holda tashkil etish zarurati vujudga keldi. Bundan tashqari ilmiy muammolar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlarni kadrlar tayyor-lash jarayoniga yetarli darajada qo'shilmaganlari ham mam-lakatimizda kadrlar tayyorlashni zamon talabiga javob bermasligiga olib keldi.

Respublikamizda ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarning o'rtacha yoshlari ulg'ayib bordi. Oliy o'quv yurtlarida 40 yoshga to'lmagan fan doktorlari 2000-yili jami fan doktorlarining 0,9 foizini, 50 va undan katta yoshdagilari esa 79 foizini tashkil etadi. Fan doktorlari ilmiy darajasiga tasdiqlanganlardan o'rtacha 50 nafar fan nomzodi 36 yoshda bo'lgan. Hozirgacha ham bu sohada katta o'zgarishlar bo'lgani yo'q.

Ko'ngildagidek bilimdon mutaxassis kadrlarni tayyorlash inson salohiyatini yuzaga chiqarish ularni har jihatdan bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tashkil etishga bog'liq.

Shunday qilib:

1. Ma'lum sabablarga ko'ra, jahon hamjamiyati taraqqiyotida ortda qolgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan

¹ Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001, 20-bet.

o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish uchun eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi.

2. An'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi.

3. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganlik natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi.

4. Kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi.

5. Yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi.

6. Talabalarni individual xususiyatlari, axborotni qayta tiklash qobiliyati va boshqa xislatlarini rang-barangligi zamon talabiga muvofiq kadrlar tayyorlash uchun zamonaviy ta'lim usullarini qo'llashni talab qiladi.

4-§. Oliy ta'lim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida dars o'tishning xususiyatlari

Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanishi axborot oqimini keskin ko'payishiga olib keldi.

Lekin axborotni qabul qilish, o'zlashtirish, tahlil qilish, baholash, ular asosida xulosa chiqarish uchun vaqt nihoyatda cheklangan. Axborot olinadigan manbalar turli-tuman va xilma-xil. Taraqqiyot tufayli ular yanada takomillashib, yangi-yangi turlari vujudga kelmoqda.

Inson tug'ilganidan boshlab, to umrining oxirigacha axborot qabul qiladi va olingan axborotga o'z munosabatini bildiradi. Inson tomonidan qabul qilinadigan axborotlar tayyor yoki yangi shakllantiriladigan bilimlardan iborat bo'ladi.

Birinchi holatda tayyor bilimlar o'zlashtiriladi. Ikkinchi holatda yangi bilimga ega bo'lish uchun intilish tufayli ularni takomillashtirish va boyitib borish jarayoni amalga oshiriladi.

Axborotlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi bilim bosqichlari ishtirok etadi:

• Sezgi (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, his qilish, ular insonning ko'zi, qulog'i, burni, tili, terisi orqali yuz berib, bilishning boshlang'ich vositachilari hisoblanadi). Sezish hali ma'lumotlarni o'zlashtirish degan so'z emas, bunda sezgilar orqali ma'lumotlar bir necha xususiyatlariga ko'ra yaxlit holatga olib kelinadi. Bu – ma'lumotlarni idrok qilish, deyiladi.

• Idrok (ma'lumotlarni ranglar, belgilar, harakat, ko'rish, eshitish, sezish, his qilish orqali yaxlit tasavvurga olib kelish).

• Xotira. U mexanik, obrazli, qisqa va uzoq muddatli, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tezkor bo'lishi mumkin.

• Tafakkur. Insonni inson sifatida barcha mavjudotlardan alohida ajralib turishi, uni tabiatning gultoji sifatida e'tirof qilinishi ham tafakkur bilan bog'liq. U tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash (turkumlarga ajratish), qaror qabul qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

• Xayol, ijodkorlik. Yangi timsollar, yangiliklar yaratish, ixtirolar qilish kabilardan iborat.

Hayot uchun kurash, insonning o'z-o'zini saqlash, himoya qillish intinkti yangi bilimlar uchun intilishni hayotiy zaruriyatga aylantiradi. **Yoshlarning mavjud bilimlarni o'zlashtirish, yangi bilimlar uchun intilishi, asosan, ta'lim jarayonida shakllantiriladi.**

Ta'lim jarayoni-ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi qo'yilgan maqsad asosida belgilangan bilim, ko'nikma va tarbiyani tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro muloqot (ta'sir ko'rsatish) jarayonidir.

Ta'lim maqsadi ta'lim natijasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, odob bo'lib, aynan shular uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi. Odamlar ta'lim olish, yangi bilimlarni o'rganish jarayonida bilishning turli vositalari, shakllari, bosqichlariga murojaat qilishlari tabiiy. Bu jarayon insonning yosh xususiyatlari, ta'lim-tarbiya maqsadlari, uzluksiz ta'lim mazmuni va uning bosqichlariga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi. Bu esa so'zsiz o'quv jarayonini tashkil etish, dars o'tish metodlarini tanlashda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni zarur qilib qo'yadi.

Ma'lumki, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qiyotgan o'quvchilarning yoshi 15–18 yosh atrofida. Ular ko'proq o'zlaridan katta yoshdagilarning, xususan o'qituvchining maslahatiga, yordamiga muhtoj.

Oliy maktab talabalari esa balog'atga yetgan, yetuk, mustaqil hayotga qadam tashlagan yoshlar. Ularning dunyoqarashi akademik

litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari dunyoqarashidan ancha farq qiladi. Ular ko'proq mustaqil faoliyat yuritishga intilishadi.

Shuning uchun ham *akademik litsey, kasb-hunar kollejlari* ham, oliy maktabda ham dars jarayonini tashkil qilishda o'quvchi, talabalarning yoshini hisobga olish zarur.

Yoshlarga xos qator xislatlar dars jarayonini tashkil etish, dars o'tish metodlarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Chunki dars ular uchun zerikarli mashg'ulotga aylanmasligi kerak.

Asosiysi, dars jarayonida qo'llanadigan uslublar o'quvchi-talabalarni tahliliy fikr yuritishga, o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rgatishi lozim.

Akademik litsey va kollejlarda iqtisodiy fanlardan dars o'tishning o'rta maktab va oliy maktabdagidan muhim farqi dars jarayonini tashkil etishdir.

Akademik litsey va kollejlarda dars 80 minut bo'lib, mavzuning o'quv-kalendar rejasida ajratilgan soatiga ko'ra «nazariy va amaliy mashg'ulot»ga bo'linadi. Mufoviq ravishda darsni tashkil etish shakli ham farq qiladi.

Akademik litsey va kollejlarda o'tiladigan fanlar uch guruhga bo'linadi.

1. Umumta'lim fanlari:

a) chuqurlashtirilib va qo'shimcha guruhlashtirilib o'tilayotgan fanlar.

2. Umum kasbiy ta'lim fanlari.

3. Maxsus fanlar.

Iqtisodiy fanlar mazkur akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida qaysi blokka kiritilishiga ko'ra dars soatlari belgilanadi.

O'qituvchi dars o'tish va dars o'tishda qo'llaniladigan metodlarni tanlashda fanni qaysi blokka kiritilganligini ham hisobga olishi kerak.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim ko'proq mavjud bilimlarni o'zlashtirishga qaratilsa, oliy ta'limda esa ko'proq ijodiy izlanuvchanlikka qaratiladi.

Psixologlarning fikricha, bilimlarni o'zlashtirish, bu—yangi qabul etilayotgan axborotni o'quvchi-talaba ongidagi avvalgi mavjud bo'lgan axborotlar tizimiga kiritishdir. Ularda bilim qanchalik keng bo'lsa, yangi axborotni qabul qilishi shunchalik oson kechadi.

O'qituvchi yana shunga e'tibor berishi kerakki, u yangi fanni o'rganishni yoki yangi mavzuni o'tishni boshlar ekan, albatta, ularga taalluqli, axborotni qayta tiklashi hamda yangi fanni, mavzuni o'zlashtirish uchun asos hosil qilishi zarur. Ayniqsa, shu

yoshdagi o'quvchi, talabalarni qiziqtiradigan savol, muammoli vaziyat yaratilishi ularni fanni, mavzuni o'rganishga faolligini kuchaytiradi.

Shuning uchun akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'qituvchi dars o'tish metodlarini fanni o'rganish, uning asosiy tushunchalarini yodda saqlash zarurligini hisobga olgan holda tanlashi zarur. Asosiy tushunchalarni anglab, puxta o'zlashtirishlari barobarida tafakkurni o'stirishga, rivojlantirishga qaratilgan o'quv metodlarini qo'llashga ahamiyat berish kerak.

Oliy o'quv yurti o'zining yuqori ilmiy saviyasi bilan o'rta ta'limdan farqlanadi. Fanni o'rganish fanda erishilgan zamonaviy yutuqlarni amaliyot bilan bog'lash, dolzarb muammolarni aniqlash, ularning yechimini topishga yo'naltirish bilan ajralib turadi.

Oliy va o'rta maktabdagi ta'limning o'ziga xosligi dars o'tish metodlarini tanlashga ham ta'sir ko'rsatadi. Olim I. T. Ogorodnikov o'z tadqiqotlarida oliy maktabdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligi deganda, uning ilm o'rganish metodlari bilan yaqinlashuvdir deb ta'riflaydi. S. I. Arxangelskiy esa oliy maktabdagi o'qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtirish, balki bilimning o'quv va ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan tizimi degan fikrni bildiradi.

Shuning uchun ko'proq talabalarni o'ylashga undaydigan dars o'tish metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Umuman o'quvchi-talaba o'ylashga o'rganmasa, olgan bilimlaridan foydalana olmaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida insonning o'ylashi, tahlil qilishi, taqqoslab, qaror chiqarishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, har qanday sohada muvaffaqiyatli ish yuritish uchun tafakkur rivojlangan bo'lishi zarur.

O'qitish uslubining pirovard maqsadi chuqur bilim berishgina bo'lmay, yoshlarda mustaqil bilim olishga intilishni uyg'otish, ularni tarbiyalash hamdir. Axborot turli-tuman shakllarda qabul qilinadi. Kimning axborotni turli tarzda qabul qilish qo'lidan kelmasa, bu — uning uchun katta yo'qotish bo'ladi.

Agar o'qituvchi o'quvchi, talaba yoqtirmaydigan uslubda dars olib borsa, uning o'qishdan ko'ngli so'vib, fan bilan shug'ullangisi kelmay qolishi mumkin. Shuning uchun turli-tuman usullar bilan dars o'tish, har bir o'quvchi, talabaning darsga faol qatnashishiga omil bo'ladi. Ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi.

Ta'lim metodlarini o'qitish metodlari va o'rganish metodlariga ajratish mumkin.

O'qitish metodlariga bilim berish usullari sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, uning dunyoqarashini shakllanishiga yordam beradi.

O'rganish metodlari bilim, malaka, ko'nikmalarni ijodiy egalashga yo'naltiradi.

Oliy maktabdagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari o'quv jarayonini tashkil etishda ham ko'rinadi. O'rta ta'limda o'quv jarayoni asosan dars o'tish shakllari: nazariy dars, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti tarzida tashkil etilsa, oliy o'quv yurtlarida esa o'quv jarayoni dars mashg'ulotlaridan tashqari davra suhbat, ilmiy konferensiya, amaliy seminarlar va boshqalarni ham keng qo'llab tashkil etiladi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari oliy maktablardan o'rganiladigan bilim hajmi bilan farq qiladi. Demak, dars jarayonini tashkil etish, fanni o'rganish bo'yicha uy vazifalari va topshiriqlar hajmi ham farqlanadi.

Kollej, maktab ta'limi metodlarini shakllantirishda, o'qitishni tashkil etishda tayanch muassasa hisoblanadi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari dars o'tganda o'qituvchilar dars o'tish metodlarini o'quvchilarning yoshiga moslarini tanlashi, murakkablarining esa soddalashtirilgan variantlarini ishlab chiqishlari va qo'llashlari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurti o'qituvchilari dars o'tishda, albatta, o'quv yurtining, undagi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari, shu bilan birga, ularni darsga faol qatnashishlarini ta'minlovchi, tafakkurni o'stirishga, rivojlantirishga qaratilgan o'quv metodlarini qo'llashga e'tibor berishlari lozim.

O'qituvchilarning malakalarini oshirishga, ularni dars berish jarayonida turli metodlarni qo'llashlari uchun tajriba almashishga katta e'tibor berilishiga qaramay, hali ham barcha ta'lim maskanlarida o'quv jarayonini tashkil qilish va dars o'tishda turli-tuman interaktiv metodlarni qo'llash ko'ngildagidek emas. Buning qator sabablarini ko'rsatish mumkin:

Birinchi, barcha o'quv yurtlarida moddiy ta'minot bir xil emas.

Ikkinchi, barcha o'qituvchilar interaktiv uslublarni qo'llash bo'yicha tajriba to'plamagan.

Uchinchi, bunga har bir o'qituvchi uchun belgilangan dars soatining haftasiga qancha bo'lishi ham ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarni har bir darsga mavzu bo'yicha tayyorlanish,

yangi metodlarni qo'llab, dars o'tish jismonan toliqtiradi. Shuning uchun osonroq yo'l qidirishlari tabiiy. Ular uchun kamroq kuch, tashvish talab qiladigan metodlarga murojaat qilish qulayroq.

To'rtinchidan, turli uslublarni qo'llab dars o'tish uchun zarur qo'llanmalar yo'q.

Shuning uchun:

1. Turli uslublarni qo'llab, qiziqarli dars o'tadigan o'qituvchilarni alohida rag'batlantirish zarur.

2. Dars jadvalini tuzganda, haftalik dars soatlari taqsimotiga ahamiyat berish, darsda interaktiv uslublarni qo'llab dars o'tish uchun zarur jihozlar, tarqatma materiallar va boshqalarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim.

3. Dars o'tishda qo'llaniladigan metodlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash va ularning konkursini o'tkazish kerak.

4. Malaka oshirishda dars o'tish metodlarini takomillashtirishga qaratilgan darslar ham tashkil etishga e'tibor berish zarur.

Xulosa

Respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimi demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi ishlab chiqariladigan tarkibiy o'zgarishlarga javob berolmasligi hamda ilg'or xalqaro tajribadan kelib chiqib, ta'lim tizimini isloh qilishni nazarda tutgan holda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

Uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi sifatida umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limda esa ikki bosqichli: bakalavriat va magistratura bosqichlari joriy qilindi.

Kadrlar tayyorlashga davr talabidan kelib chiqib, nafaqat tarkibiy jihatdan, balki dars berish mazmunini o'zgartirish jihatidan ham yondashildi.

O'quv jarayonini tashkil etish uzluksiz ta'lim tizimi tarkibiy qismlarida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo qiladi. Chunonchi dars o'tishda o'quvchi-talabalarning yoshlari, tayyor bilimni o'zlashtirishi yoki yangi bilimlarga ega bo'lishga qaratilishi yoki fanda erishilgan yutuqlarni amaliyot bilan bog'lashga qaratilishi, o'qitish va o'rganish metodlarini ustun darajada qo'llanilishi jihatidan farqlanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Ta'lim tizimini isloh qilish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim, Milliy dasturning maqsadi, Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari, dars o'tish xususiyatlari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyatining sabablarini aytib bera olasizmi?

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilgan ta'lim tizimidagi asosiy kamchiliklar haqida qanday fikrdasiz?

3. Uzluksiz ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz?

4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil qilishdan maqsad nima? Ularning ta'lim tizimidagi o'rni haqida nimalar deya olasiz?

5. Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirishga nima sabab bo'ldi?

6. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida dars o'tishning qanday xususiyatlari bor? Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'limdan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

III bob. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA DARS O'TISH METODIKASI

Mamlakatimizda ta'lim tizimining isloh qilinishi ta'lim jarayonini ilg'or-jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etishni taqozo qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti texnologiyani fan sifatida o'rganishni, keyinchalik esa o'quv jarayonini ham texnologiyalashtirishga olib keldi.

Mazkur bobda pedagogik texnologiya deganda nimani tushunamiz, uning shakllanish bosqichlari, pedagogik texnologiyada metodlarning tutgan o'rini o'rganamiz.

1-§. Pedagogik texnologiya va unga turli jihatdan yondashish

Hozir mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobat — fan, texnika va texnologiya sohasidagi raqobatga aylandi. Demak, raqobat intellektual mohiyat kasb etib, ta'lim sohasidagi raqobatga aylanmoqda dekan xato bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti, unga doimo noaniqlik yo'ldosh bo'lishi mutaxassis kadrlar tayyorlashga ham yangicha talablar qo'yadi. Undan tashqari bugungi kunda bilimning daromad manbai va ijtimoiy himoya sifatidagi rolining ortishi ham uni aniq pragmatik ma'no kasb etishiga olib keladi. Shuning uchun ham respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga alohida diqqat qaratildi.

Biroq respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlashga doir o'tkazilayotgan islohotlar avvalgi ta'lim tizimining ijobiy tomonlaridan tamomila voz kechish degani emas. Barcha sohada, jumladan, ta'lim tizimida ham avvalgi erishilgan ilmiy potensialga tayanish, ma'naviy merosni amaliyotga tatbiq etish, ijobiy jihatlardan foydalanish zarur. Asosiy maqsad — zamonaviy talab darajasida yoshlarimizni tarbiyalash, ijodiy fikrlay oladigan malakali mutaxassislar tayyorlashdir. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida qator kamchiliklar mavjud bo'lib, u o'z navbatida zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga to'sqinlik qila boshladi. Ularni

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining kamchiliklar va muammolar qismida ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu dasturiy hujjatda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilinmagani, amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi, mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilash jarayonlari, bozor talablari bilan bog'lanmagani, mavjud umumta'lim va kasb-hunar dasturlari o'rtasida uzviylik, vorisiylikning yo'qligi sababli, tayanch va o'rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo'naltirilganlik va mehnat faoliyati ko'nikmalari shakllantirilmagani, o'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmagani ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: «Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish metodidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan node-mokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keladiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo'q», — deyiladi.¹

Ana shu kamchiliklarni hisobga olgan holda Milliy dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichidayoq pedagog va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish masalasi qo'yilgan.

Ikkinchi bosqichda esa ta'lim muassasalarini moddiy-texnika va axborot olish bazasini mustahkamlashni davom ettirish bilan birga o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanishi amalga oshirilihi va keyingi bosqichda ham davom ettirilishi ko'zda tutilgan edi.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqda 1917-yil ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, bolalarning millati, jinsi, ijtimoiy va moddiy ahvolidan qat'i nazar tekin bilim olish imkoni yaratilib, 1936-yilga kelib yoppasiga savodxonlik tiklangan edi. Shuning uchun ham fan-texnikada, ayniqsa, atom, kosmik tadqiqot sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirildi, kosmosga birinchi inson parvoz qildi.

AQSh, Yaponiya va boshqa mamlakatlar buning sirini

¹ Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001, 22-bet.

o'rganishiga kirishib, oxir-oqibat o'z mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh qilishga kirishdilar. Sobiq Ittifoqda keyinchalik ta'lim tizimidagi ma'muriy avtoritar boshqaruv, qattiq partiyaviy diktatura va boshqa qator kamchiliklar ta'lim tizimini ham turg'unlikka olib keldi va peshqadamlilik boy berildi. Fan - texnika taraqqiyoti ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni zaruriyatga aylantirdi. Natijada, pedagogikada ham yangi oqim - ta'lim texnologiyasi, o'qitishning interaktiv metodlari ishlab chiqilib, dars jarayonida foydalanishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Mamlakatimizda bir tomondan, qator sabablarga ko'ra ta'lim sohasida yo'qotilgan ilgarigi mavqeini tiklash, ikkinchi tomondan, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun ta'lim samaradorligini oshirish, buning uchun esa chora-tadbirlar belgilash zarur edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan ana shu zaruriyatga alohida diqqat qaratila boshlandi. Aynan ana shu zaruriyat tufayli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va uni amalda qo'llash taklifi kiritildi.

Ta'lim jarayonini jahon tajribalari asosida tashkil qilish, o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga ahamiyat berila boshlandi. Respublikamizda ham ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga e'tibor berish boshlandi. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunishimiz kerak degan savolga javob berish uchun avvalo texnologiya so'zining ma'nosini bilib olishimiz kerak.

«Texnologiya» — yunoncha techne va logos so'zlaridan olingan bo'lib, mahorat, san'at va so'z, ta'limot ma'nosini anglatadi. Odatda, texnologiya ishlab chiqarishga nisbatan qo'llanilgan. Texnologiya deganda mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlarga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'llari, usullari tushunilgan. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli texnologiya ham takomillashib borgan.

Patent, litsenziyalar sotiladigan va sotib olinadigan bo'lgach, texnologiya deganda tayyor mahsulot olish uchun xomashyo, materiallarga ishlov berish usullari, bajaradigan ishlarning ketma-ketligi va qanday tarzda bajarilishi haqidagi hujjat ham tushuniladigan bo'ladi. Masalan, sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot, aytayik, detalni loyihalaganda qanday materialdan tayyorlanadi, shakli qanday bo'ladi, buning uchun standart belgilari, chizmalar va ulardagi o'lchamlarni aniqlash va boshqa talablar aks ettiriladi. Loyihada aks ettirilgan xomashyo va unga ishlov berish operatsiyalari

og'ishmay bajarilsa belgilangan standartdagi mahsulot tayyorlanadi, ya'ni mahsulot sifati yuqori darajada kafolatlanadi.

Taraqqiyot «Texnologiya»ni fan sifatida ham o'rganishni ob'ektiv zarur qilib qo'ydi. U fan sifatida fizik, kimyo, mexanik va boshqa qonuniyatlarni aniqlash orqali mahsulot ishlab chiqarishning samarali usullarini o'rganish, yangiliklarni topish va tajribada sinashni o'rganadi.

XX asrda fizika, kimyo, energetika, biologiya, matematika, informatika va boshqa fanlarning yutuqlariga tayangan texnologiyalar texnologik inqilobni keltirib chiqardi. - Fan-texnika taraqqiyoti yaratilgan texnika va texnologiyalarni tushunadigan ularni ishlata oladigan, ko'rsatilgan texnologiya bo'yicha mahsulot yarata oladigan kadrlar tayyorlashni ham ob'ektiv zarur qilib qo'ydi. Mutaxassis kadrlarning qay darajada bilim olishi, ko'nikma mahoratiga ega bo'lishi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini ko'p jihatdan qanday tashkil etilishiga bog'liq. Shuning uchun ham ko'plab pedagoglar o'quvchi talabalarga nimani o'qitish, o'rgatish kerak, qanday o'qitish, o'rgatish kerak? degan savol qo'yib, unga javob topish uchun tinimsiz izlanishlar olib boradilar. Pedagog olimlar va amaliyotchilar ishlab chiqarish texnologiyasini nazarda tutgan holda o'quv jarayonini ham «texnologiyalashtirishga», ya'ni o'qitishni natijasini kafolatlangan o'ziga xos texnologik jarayonga aylantirishga urinadilar. Natijada pedagogikada yangi yo'nalish — pedagogik texnologiya, xususan, o'qitish va tarbiyalash texnologiyasi paydo bo'ldi.

Pedagogik texnologiya — bu ta'lim samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha sohaları bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, unga yondashuvlar, tizimlar, konsepsiyalar, tendensiyalar, g'oyalarning fanlararo o'zaro birikib yagona majmua tarzida ifodalanishini bildiradi.

Pedagogik texnologiya deyarli yarim asr davomida tadrijiy ravishda rivojlandi va hozirgi darajaga yetdi. Bu davrda o'qitish «og'zaki — audiovizual — dasturlash - multimedia — gipermedia» ketma-ketligi bo'lib almashindi.

Pedagogik texnologiyaning e'tirof etilishi davrini to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi davr. Pedagogik texnologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida e'tirof etilishi. XX asrning 30-yillarida AQSh ta'lim tizimiga audiovizual o'qitish dasturlari kiritila boshlandi. U nafaqat ta'limda texnologik inqilobga, balki yangi fan—pedagogik texnologiyaga asos soldi.

1946-yilda AQSh ning Indiana universitetida o'quv dasturiga audiovizual ta'lim rejasi kiritildi (muallifi L Larson).

Birinchi davr (50 - yillarning boshi va o'rtalari) ta'lim muassalarida axborotlarni taqdim etishning texnik vositalari tovushni yozib olish va qayta eshittirish, boshqacha qilib aytganda «audiovizual vositalar» ning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Dastlab har bir dars, o'tiladigan mavzuda o'quv va tarbiya maqsad - vazifalari ishlab chiqiladi. Bu holda ishlab chiqarishdagi **boshqaruvchi** bilan ta'limdagi **pedagog faoliyatida o'xshashlik** bor. O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati - o'quv jarayonini so'nggi natijalari bo'lgan mukammal bilimga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga erishish maqsadi turgan.

Ikkinchi davr (50-60-yillarning o'rtalari) o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvning tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu yondashuvning nazariy asosi dasturli o'qitish g'oyasi hisoblanadi. Uning texnologik asosini o'quv maqsadlari uchun maxsus mo'ljallangan audiovizual vositalar (teskari bog'lanish vositalari, elektron sinflar, lingafon xonalari, trenajyorlar) tashkil etadi. Bu davrda ta'lim texnologiyasi deyilganda muqarrar ravishda oldindan **rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi pedagogik jarayonning ilmiy tavsifi (voqita va metodlari majmui)** tushunila boshlandi.

Bu davrda pedagogik texnologiyaning kasbiy kategoriya sifatida e'tirof etilishi, dasturli o'qitish g'oyasi (1954-yil) asoslab berildi (muallif B. F. Skinner) va bu hol pedagogik texnologiyadagi ustuvorliklarning o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Uchinchi davr - pedagogik texnologiyaning pedagogikadagi nazariy bilimlar tarmog'i sifatida e'tirof etilishi. 70-yillar pedagogik texnologiya bazasi - asosining kengayishi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik texnologiyaning asosini yaratishda informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogika, tizimli tahlil fanlarining yutuqlariga tayanildi. Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi o'zgardi. Og'zaki o'qitishdan audiovizual o'qitishga o'tildi. Ayniqsa, 1976-yili birinchi shaxsiy kompyuter «APPLE» (olma) yaratilishi (mualliflar: Stiv Jobs va Stiv Uoznik) ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlarga olib keldi.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyani e'tirof etishning to'rtinchi davri davom etmoqda. Bugungi kunda pedagogik texnologiya fanlararo bog'lanishni amalga oshiruvchi jarayon sifatida tan olinmoqda.

1998-yili YuNESKO tashkilotchiligida «XXI asrda oliy ta'lim: yondashuvlar va amaliy tadbirlar» mavzusida o'tkazilgan jahon an-

jumani Deklaratsiyasi yangi asrda oliy ta'limga bo'lgan talab misli ko'rilmagan darajada o'sib borishi, ya'ni yosh avlodning yangi bilim, g'oya va ko'nikmalarni egallashi, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyotda uning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini kengroq anglashga intilish kuchayishini ta'kidladi.

Pedagogik texnologiya mohiyati jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi. Chunki har bir texnologiya o'z xususiy sohasi, metodlari va vositalariga ega. Ma'lum «**material**» bilan ish ko'radi. Biroq, pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq. Bilim olish, ta'lim berish sohasi sifatida murakkab va-hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, axborot va boshqa texnologiyalardan ajralib turadi. Uning eng asosiy o'ziga xos tomoni, uning «**materiali**» - inson.

Pedagogik texnologiya va inson kapitaliga investitsiya tushunchalarining hayotga kirib kelishini deyarli bir davrda yuz berishi bejiz emas. Chunki har ikkisi ham sog'lom mustaqil fikrlay oladigan, vaziyatni to'g'ri baholab, samarali variantni farqlay biladigan, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha talabga muvofiq malaka, ko'nikmaga ega bo'lishning obyektiv zarurligini ko'rsatuvchi, ta'kidlovchi tushunchalardir. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, unga asosanib dars jarayonini tashkil etish haqida kamida yarim asr davomida ilmiy munozaralar olib borilyapti. Bu munozaralar-ning mazmuni, natijasi turli mualliflar pedagogik komissiyalar va uyushmalarning ta'rifu tavsiflarida o'z aksini topdi. Bir guruh mualliflar pedagogik texnologiyani o'qitishning zamonaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari kommunikatsiya jarayoni, uchinchi guruhdagilar o'qitish jarayoni va vositalarining bir butunligi deb qarashadi.

AQSh pedagogik texnologiyalar va kommunikatsiyalar uyushmasi 1979-yili pedagogik texnologiyalarning ma'nosi to'g'risidagi munozaralarga yakun yasab, uning rasmiy ta'rifini e'lon qildi. Bu ta'rifga ko'ra pedagogik texnologiya odamlarning g'oyalarni, bilimlarni o'zlashtirishi, ta'lim olishni rejalashtirish, ta'minlash, baholash va boshqarish faoliyatini tashkil etish metodlari va vositalarini o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy integrativ jarayondir.¹ Lekin hozirgi paytda ham bu haqdagi munozaralar to'xtagani yo'q.

Mashhur pedagog olim Bepalko V.P. pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik mu-

¹Silber K. H. Some implicational of the history of Educational Techology: we re all in this together. In: J. W. Brown and S. N. Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981, p. 21.

vaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir, deb ta'riflagan. Pedagogik texnologiyani teran ma'nosini V.P.Bespalko, birinchidan, pedagogikadagi ekspromtlardan xoli bo'lish va ta'lim jarayonlarini loyihalashda, ikkinchidan, o'quvchining o'qish, bilim olish faoliyati tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda, uchinchidan, o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish sifatini, uning shaxs sifatida kamol topish darajasini nazorat etish va maqsadli tashxis qilishda, to'rtinchidan, o'quv-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (komponentlari) mazmumdorligi va tizimini yaxlitligi tamoyilini joriy etishda ko'radi.¹ M.V. Klarin fikriga ko'ra, «PT – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir»² Pedagogik texnologiya respublikamiz pedagog olimlari tomonidan turlicha talqin etiladi. «Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir».³ Tadqiqotchilar Sayidahmedov N., Mirzajonova D. ta'riflariga ko'ra, «Pedagogik texnologiya – bu ilmiy asoslangan didaktik jarayon amalga oshiradigan, samaradorligi va ishonchliligi yuqori bo'lgan hamda ta'lim natijasiga erishishni kafolatlaydigan pedagogik faoliyatdir»⁴.

Hozirgi paytda barcha pedagoglar pedagogik texnologiyaga berilgan eng mukammal ta'rif – bu YuNESKO ta'rifi, deb tan olishadi. Lekin qizig'i shundaki, uni inglizchadan tarjimasini turli kitoblarda farq qiladi. Masalan, «Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari» kitobida «Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir»⁵ deb qayd etiladi.

¹ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: «Педагогика», 1989, с. 192.

² Klarin М. В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: «Знание», 1989, с. 75.

³ Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2003, 6-bet.

⁴ N. Sayidahmedov, D. Mirzajonova. Pedagogik texnologiya ta'limi, zamonaviylik va ilmiylik. Kasb-hunar ta'limi №1, 2005-yil.

⁵ Farberman B.V., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. Toshkent. 2002, 60-bet.

Boshqa mualliflar «Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib, butun ta‘lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda (sistemali) majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir», deb ta‘riflangan, degan fikrni bildiradilar.¹ Yana bir kitobda «Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil tizimidir» deyiladi YuNESKO ta‘rifida, deb ko‘rsatiladi.²

«Ta‘lim texnologiyasi – ta‘lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir», - deb beriladi, ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan seminar trening materiallarida.³

«YuNESKO ta‘rifiga ko‘ra, PT(pedagogik texnologiya) ikki ma‘noga ega: o‘qitishning texnik vositasi(O‘TV) va PT, ya‘ni dastlabki ma‘noda «bu – o‘qitishning texnik vositasi», keyingisi bo‘yicha esa «PT – bu rejalashtirish – joriy etish – baholash (densing – applying – assessing) chizig‘i bo‘yicha tizimli yondashuv. Bu pedagogik texnologiyaning barcha yangi ta‘riflari va ularning konsepsiyalari uchun xarakterlidir».⁴

Ko‘rinib turibdiki, mualliflar o‘z qarashi nuqtayi nazaridan ta‘rifni turlicha talqin etishga harakat qilishgan. Bir ta‘rifda butun texnologiya, uni qo‘llashning tizimli metodi sifida talqin etilsa, ikkinchisida, ta‘lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda (sistemali) majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir deyilsa, boshqalarida esa metodlar haqida ochiq fikr bildirilmay, ko‘proq tizim sifatidagi tomoniga e‘tibor qaratiladi.

Turli qarashlarni hisobga olgan holda pedagogik texnologiya ta‘rifiga yondashsak, «ishlab chiqarish» natijasi «mahsuloti» - **ma‘lum malakaga ega bo‘lgan mutaxassis** tayyorlash uchun ilmiy asoslangan

¹ Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya, Toshkent. 2001, 7- bet.

² Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, Toshkent. 2003, 63-bet.

³ «Ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari.» mavzusidagi seminar-trening materiallari. Toshkent, 2002, 41-bet.

⁴ Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi. Nashr etilgan materiallar sharhi. Kasb-hunar ta‘limi. 2005, №2, 20-bet.

didaktik jarayonni amalga oshirish, ya'ni o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketma-ketlikda, turli metodlarni qo'llash orqali samarali ta'lim natijasiga erishishning ishonchligini ta'minlovchi pedagogik faoliyat deb tushuntirish mumkin.

Pedagogik texnologiyada ta'lim va tarbiya umumiy tarzda qaraladi. Lekin hayot ko'rsatdiki, ta'lim sohasidagi texnologiyani hamma vaqt ham tarbiya sohasida qo'llab bo'lmas ekan. Sababi, ta'lim jarayonida maqsadni tashxislash va rejalashtirish imkoni mavjud. Tarbiya jarayonida esa maqsadni tashxislab bo'lmaydi. Bundan tashqari, har qanday pedagogik texnologiya pirovard maqsadga erishishni ta'minlashi zarur. Lekin hozirgi vaqtgacha pedagogikada insonning tarbiyalanganlik darajasini, insonda shakllangan muayyan shaxsiy sifatlarni, insoniy qadriyatlarni, umuman olganda, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijalarini aniqlash juda qiyin va bu mezonlar ishlab chiqilmagan.

2-§. Ta'lim texnologiyasida dars o'tish metodlarining tutgan o'rni

Ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi quyidagi zaruriytdan kelib chiqadi:

– Qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zlangan maqsad - vazifalarni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnasha oladigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir eta oladigan, mamlakat taqdiriga javobgar bo'la oladigan, mas'uliyatni his etadigan, mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish.

– Jahon talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash.

– Bozor talablariga tezda moslashish.

– Bozor iqtisodiyotiga noaniqlik doimiy yo'ldosh, qaror qabul qilishning turli variantlari mavjud va risk bilan bog'liq. Har bir kishi vaziyatdan kelib chiqib, mustaqil ravishda eng kam talafot keltiradigan qaror qabul qilishni o'rganishi.

– Axborotlar nihoyatda ko'p va xilma-xil, o'qituvchi qanchalik bilimdon va mahoratli bo'lmasin, ularni barcha zarurlarini dars jarayonida o'quvchi, talabaga yetkazib beraolmaydi. Yagona to'g'ri yo'l ularning o'zini faolligini oshirish, muntazam ravishda o'z ustida mustaqil ishlashlarini ta'minlashga o'rgatishdir. Ko'p yillik tajriba orqali ilg'or pedagog olimlar bu maqsadga ta'lim texnologiyasi orqali erishish mumkinligini isbotladilar.

Ta'lim texnologiyasi o'z ichiga:

1. O'quv predmeti, har bir o'rganiladigan mavzu bo'yicha maqsad-vazifalar va ularning ro'yxatini ishlab chiqish.

2. O'quv maqsadiga erishish yo'llarini – metodlarini tanlash, ishlab chiqish.

3. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va uni qay darajada bajarilganini nazorat qilish uchun topshiriqlar tayyorlash va nazoratni amalga oshirish.

4. Erishilgan natijani baholash.

A) xususiy o'quv maqsad-vazifalarni qayta ko'rib chiqish va tuzatishlar kiritish;

B) nazorat natijalarini tahlil qilish, muvofiq ravishda tuzatishlar kiritish kabilarni oladi.

Ko'p hollarda metodikani ta'lim texnologiyasi, usulni metodlar bilan aralashtirib yuboriladi. Shu bois, bu tushunchalarga aniqlik kiritish zarur. Metodika, ilgari bobda aytganimizdek o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi bo'lib, qanday, qay tarzda, nimalar yordamida o'qitishni o'rgatadi.

Ta'lim texnologiyasi esa qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va natijasini ma'lum darajada kafolatlash uchun turli metodlar va vositalar orqali o'qitish jarayonini o'zaro bog'liq qismlarini bir butun qilib birlashtirish va ma'lum tartib, tizim asosida izchil, mantiqiy ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Metodika tushunchasi usul, metod tushunchalarini qamrab oladi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liq. Metod usulga nisbatan juda keng ma'noga ega. Metodning o'zi bir necha usullarni o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, metod usul sifatida, usul metod sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Usul – bu metodning bir unsuri, uning tarkibiy qismi, bir martalik faoliyat, metoddagi alohida bir tashlangan qadam.

O'qitish metodi – murakkab, ko'p o'lchovli, serqirra tushuncha, agar biz uni fazoviy modelini chizishni uddalaganimizda, qarshimizda qirralari ko'zni qamashtiradigan va rang-barang tovlanadigan ajoyib billur namoyon bo'lardi.

O'qitish texnologiyasi va metodikaning asosiy farqlari

Ta'lim texnologiyasi o'ziga xos jihatlari bilan metodikadan farqlanib, eng avvalo, dars jarayonini bir butun holda konstruktiv qurilishini ifodalaydi. Qo'yilgan maqsadga kora butun dars jarayonini bosqichma-bosqich bajariladigan ishlar loyihalashtiriladi.

• Qanday o'qitish kerak? degan savolga o'qitish texnologiyasida salmoqli qo'shimcha bilan qanday qilib ko'zlangan natijaga erishgan holda o'qitish kerak, o'quv jarayonini qanday tashkil etish kerak? degan nuqtayi nazardan yondashiladi.

• Aniq sharoitdan kelib chiqib, taxminiy emas, kafolatlangan, aniq natijaga erishish mo'ljallangan pedagogik jarayon loyihashtiriladi va uni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

• Erishilgan natijani takrorlash mumkinligi bilan farqlanadi.

• O'quvchi talabaga yo'naltirilgan va ularning o'qishdagi muvaffaqiyati o'z faoliyati evaziga ta'minlanadi.

• O'qituvchi eksperiment emas, aniq belgilangan natija uchun harakat qiladi. Qo'yilgan maqsadni yaratilgan sharoit va belgilangan vaqtda amalga oshirishga shubha qoldirmaslikka asoslangan o'qitish modeliga tayanadi.

• Kutiladigan natijaga aniq o'quv maqsadi qo'yilib, pedagogik vazifalar belgilanganda va o'quv jarayonini tashkil etishda zarur sharoit yaratilganda erishiladi.

O'qitish metodlari, bu — pedagogik texnologiyaning nerv tomlirlari, chunki, qo'yilgan maqsadni qanday amalga oshirish, qanday natijaga erishish aynan qaysi metodni qay tarzda qo'llash hamda talabalar bilimining nazoratiga bog'liqdir. *Nazorat ham metodga tayanadi.*

Ta'lim texnologiyasida ishlab chiqarish natijasi, «mahsuloti», ya'ni ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun ko'riladigan uslubiy tadbirlar majmuasi, boshqacha qilib aytganda, maqsad qo'yish va unga qanday tarzda erishish ko'rsatiladi. Uni umumiy tarzda 63-betdagi chizma orqali ifodalash mumkin.

Ta'lim mazmuni o'z ichiga:

* ta'lim standartlari;


* o'quv rejasi;

* o'quv dasturi;


* o'quv adabiyotlari oladi.

Pedagogik texnologiyaning komponentlari va dars jarayonini tashkil etishning mazmuni quyidagi chizmalarda ko'rsatilgan.

Pedagogik texnologiya



Ta'lim (dars) jarayonini tashkil etish



3-§. Ta'lim tizimiga yondashuvlar va dars o'tish metodlari

Ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni baholash mezonlari, dars o'tishda o'qituvchining alohida urg'u beriladigan roli va boshqalarga ko'ra o'qitishga yondashuvni turli guruhlariga bo'lish mumkin.

Bugungi kunda ta'limga yondashuvlar nihoyatda turli - tuman. Ularni atroflicha o'rgangan taniqli olim G. K. Selevko o'zining «Современный образовательный технологии» kitobida pedagogik texnologiyalarni turli jihatdan yondashgan holda eng ko'p (12)ta guruhga ajratadi. Ularni turli jihatdan guruhlariga bo'lib, chuqur o'rganish pedagogik texnologiyalar fanida amalga oshiriladi.

Biz maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani nuqtayi nazaridan yondashib, o'qitish metodlarini qo'llash jihatidan hozirgi paytda keng foydalanilayotgan yondashuvlar haqida to'xtalib o'tamiz. O'qituvchining tutgan o'rni, qo'yilgan maqsad, o'qitish metodlari va boshqalarga qarab, ta'lim jarayonini tashkil etishni uch guruhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali — an'anaviy (tushuntiruv-illyustrativ) yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy-ijodiy yondashuv. O'qitishga uch xil yondashuvni bir-biridan qanday farqlanishini quyidagi tilarga berilgan qiyosiy tavsifi orqali ko'rish mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'qitishga uch xil yondashuv konseptual jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ko'rgazmali-an'anaviy yondashuvga asoslangan dars o'tishda o'qituvchi bilim beruvchi sifatida tayyor bilimlarni bayon qilish orqali o'quvchi, talabalar ongiga yetkazuvchi pedagogik jihatdan majbur qilishga tayangan, ko'pincha o'quvchi, talabalarning initsiativasi, mustaqillika intilishi bo'g'ilgan bo'lsa, texnologik yondashuvda ta'lim o'quvchi shaxsiga qaratilgan, ta'limga tizimli faoliyat sifatida yondashiladi. O'quvchi, talaba ta'lim markazida turadi. Insonparvarlik, demokratik munosabatlar o'rnatilib, ularni majbur qilishdan voz kechiladi. O'qitishga o'quvchi, talabalarining intellektual imkoniyatini hisobga olib tabaqalashgan holda yondashiladi. O'qish aqdiy jihatdan rivojlanish, mustaqil izlanish, ayniqsa, olingan bilimni amalda qo'llashga qaratiladi.

Birinчисida ta'lim paradigmasi:¹

¹ Paradigma (yunoncha paradeigma so'zidan olingan bo'lib, namuna ma'nosini beradi) fals. va sots. — 1) voqelikni muhim xususiyatlarini ifodalovchi, uni tushunchalar tizimida mujassamlashtirgan qat'iy ilmiy nazariya; 2) dastlabki konseptual sxema, muammoning qo'yilishi va yechilishi, ma'lum bir tarixiy davrda ilmiy jamoada muammoning qo'yish va yechish modeli, tadqiqot metodlari.

O'qitishga uch xil yondashuvning qiyosiy tavsifi

Ko'rgazmali an'anaviy (Tushuntiruv — illyustrativ) yondashuv	Texnologik yondashuv	Tadqiqiy-ijodiy yondashuv
<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi bilimlarni o'rgatuvchi. 2. O'quv maqsad-vazifalari doimo aniq qo'yilavermaydi. 3. Tayyor bilimlar bayon qilinadi. 4. Ta'lim berishning ustuvor metodlari — bayon qilish va suhbat. 5. Axborotlarni to'plash, xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga doimo undash. 6. Mashg'ulotlar asosan akademik xarakterga ega bo'lib, bo'lg'usi mutaxassislik faoliyati bilan yetarlicha bog'lanmagan. Ayrim hollarda bilim olish bosqichlarini bir butun tizimga yetarlicha bir-biri bilan bog'lanmagan fanlar tashkil qiladi. 7. Qanday natijaga erishish ko'pincha noaniq. Mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishga imkon yaratilmaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv jarayonini tizimli yondashuvdan foydalangan holda loyihalash. 2. Ko'zlanayotgan natijaga ko'ra, maksimal darajada o'quv maqsadlarini aniq qo'yilishi. 3. O'qitish o'quvchi-talabalarning faol qatnashishi orqali amalga oshiriladi. 4. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar qo'llaniladi, vaziyatga ko'ra tuzatishlar kiritish mumkin. 5. O'quvchi-talaba faolligini ta'minlash, mustaqil o'qishga o'rgatish. 6. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallarni rivojlantirish va malum ketma-ketlikda amalga oshirish. 7. Rejalashtirilgan natijalarga kafolati erishish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Variantlarni baholash va qaror qabul qilish, muammolarni yechishga qaratilgan. 2. O'quv jarayonini izlanish, tadqiqot o'tkazish tarzida tashkil qilish. 3. Malumotlar to'plash, gipoteza va farazlarni ilgari surish va tekshirish 4. O'quvchi-talabalarni shaxsiy tashabbusi, yangi bilimlarni mustaqil o'rganishlarini qo'llab-quvvatlovchi metodlar. 5. Mustaqil fikrlash, tahliлий fikrlash faoliyatini yuz berishi uchun muhit yaratish. 6. Ta'limda hamkorlik qilish eksperiment, tajriba — sinov o'tkazish, modellashtirish. 7. Tahliлий, tanqidiy, ijodiy fikrlay bilish.

«O'qituvchi — darslik — o'quvchi» bo'lsa, ikkinchisida «O'quvchi — darslik — o'qituvchi» bo'lib, birinchisida o'quvchi o'qitishga bo'ysindirilgan obyekt sifatida qaralsa, ikkinchisida, ta'lim jarayonining teng huquqli, mustaqil hamda faol ravishda ilm olishga intiluvchi subyekt sifatida ko'riladi. Birinchisida «bilim olish — yagona maqsad», xato esa jazolansa, ikkinchisida, «bilim olish — shaxsiy muammolarni yechish vositasi», xatoni har kim ham qilishi mumkin, inson xatolari orqali o'rganadi, uni takrorlamaslikka harakat qiladi, degan pozitsiyadan qaraladi.

An'anaviy yondashuvga, odatda, ko'rgazmali-tushuntiruv, axborot-retseptiv, reproduktiv, kabi usullar kiritiladi. Ularning umumiy tomoni tayyor bilimlarni o'quvchi, talabaga yetkazish, bayon qilishga asoslangan bo'lib, o'quvchi bilim oluvchi rolini bajaradi. An'anaviy o'qitishda:

1. Yangi materiallarning deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinadi:

– bilimlar talabalarga tayyor holda taqdim etiladi;

– o'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlarning qabul qilinishini tashkil etadi.

2. O'quvchilar bilimni qabul qiladilar (retsepsiya) va ularni ma'nona qabul qiladilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar.

3. Darslik asosida mustaqil ish uchun qo'llaniladi.

4. Auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar: ayrim hollarda pedagog tushuntirishlariga xalaqit bermasligi uchun yoki o'quvchi, talabalar diqqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi. Ko'pincha darslik uyda ham qo'llanilmaydi, uning o'rnini dars paytida tuzilgan konspekt bosadi.

5. Bilimlarni tekshirish asosan mashg'ulot vaqtining sezilarli qismini egallaydigan individual og'zaki so'rovlar hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi;

6. Mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam.

O'quvchi, talabalarni olingan bilim, axborotlarni xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga undaladi. Ta'limga an'anaviy-ko'rgazmali yondashuvda asosan dars o'tishning an'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlari qo'llaniladi. Bu metodlarda o'ziga xos afzallik va kamchiliklar bor.

Metodlarning afzalliklari:

• aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish;

- o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhiti-ni yuqori darajada nazorat qilish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanish.

Metodlarning kamchiliklari:

- o'qitishning bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi talabalar-ni mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasi pastligi;
- o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun moti-vatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi;
- o'quvchi, talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hammada teng bo'lmagani sababli gu-ruhda o'zlashtirish past bo'lishi mumkin;
- mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

XX asrning boshlarida yashagan nemis pedagogi Rudolf an'anaviy dars haqida shunday degan ekan: faqat eshitish va ko'rish metodi bilan ta'lim olgan o'quvchilar juda passiv zotlarga aylanadi-lar. Ular hayotiy haqiqat oldida o'jiz bo'ladilar. Bu fikr hozirgi kun uchun yanada dolzarbdir. Yana bir nemis pedagogi A.F.Disterveg «Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi» degan. Aynan hozirgi kunning talabi ham o'quvchi-talabalarni mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va ba-holash qaror qabul qilishga o'rgatishdir. Bu maqsadni amalga oshirishga texnologik yondashuv orqali erishiladi.

Texnologik yondashuv ta'lim jarayonini o'zaro uzviy bog'liq bosqichlarga ajratish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun belgila-nadigan amallarni bajarish va ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirishni loyihalashtirilgan ish va amallarni bir xil talab asosida bajarishni nazarda tutadi. O'quv materiali ta'lim maqsadiga mos tuziladi.

Har ikki yondashuvda ham umumiy jihat: ta'lim jarayoni markazida o'quvchi turadi. O'quvchi, talabalarning mustaqil bilim olishga, o'qishga, mustaqil fikr yuritish, taqqoslash, xulosa chiqa-rishga o'rgatiladi. Darsda faol qatnashishlariga keng imkon beruv-chi, ularni o'ylashga undovchi, hamkorlikda ishlashga o'rgatuvchi metodlar qo'llaniladi. Bu metodlarni qisqacha noan'anaviy yoki interaktiv (interfaol) metodlar deb yuritiladi. Bu metodlar ham o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi, talaba turgan) o'qitish metodlarining afzalliklari:

- o'quvchi, talabalarning darsda faol qatnashish imkoniyati kengligi;

- dars mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;

- nafaqat mazmunni o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy, tahliliy fikrlashni ham rivojlantirishga yordam berishi;

- muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishi;

- mustaqil fikrlay oladigan o'quvchi, talabalarning shakllanishiga yordam berishi.

Noan'anaviy metodlarning kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etishi;

- o'quvchi, talabalarni doimo ham kerakli nazorat qilish imkoniyati pastligi;

- murakkab mazmundagi materiallar o'rganilganda ham o'qituvchining roli past bo'lib qolishi;

- bilimni pas o'quvchi, talabalar bo'lgani sababli bilimdonlarning ham pas baho olishi yoki aksincha holat bo'lishi;

- o'qituvchining o'zi ham fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish, hozir-javob bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Uchta, tadqiqiy-ijodiy yondashuvda o'quvchi, talabalarning muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirish, ularni yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi, tashabbus ko'rsatishiga ko'proq e'tibor beriladi. Shaxsiy tashabbuslari faollashtirilib, qo'llab-quvvatlanadi va rivojlantiriladi. Ijodiy fikrlashga undaladi. Ta'lim hamkorlikka asoslanadi. Bu yondashuv texnologik yondashuvning ijobiy tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan holda yanada yuqoriroq darajada talabalarni ilmiy izlanishga yo'naltiradi.

Hozirgi paytda ta'limda integrativ yondashuv ham keng yoyilmoqda.

(Integratsiya so'zi lotincha bo'lib, tiklash, to'ldirish, qismlarni bir butun qilib birlashtirish degan ma'noni anglatadi). Ta'limda bilimlar integratsiyasi yoki fanlararo bog'lanishdan ko'p foydalaniladi.

Integrallashgan ta'lim o'quvchi, talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatadi. U nafaqat o'quv-bilim faoliyatini tizimlashtiradi, jadal-lashtiradi, balki ta'lim oluvchilarning umumiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi, Predmetlararo bog'lanish tufayli integratsiya turli darajada namoyon bo'ladi:

- bir necha fanlarni birlashtirib, maxsus kurslar yaratish;
- o‘quv fanlarining turli bo‘laklarini ma’lum bir blokka birlashtirish;
- bir mavzuni ikki yoki bir necha predmetlar asosida o‘rganish;
- bilimlarni umumlashtirish asosida yaratilgan kurslarni o‘rganish.

Keyingi paytlarda keng qo‘llanilayotgan, ta’limni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlaridan biri—fanlarni **modul texnologiyasi** asosida o‘qitishdir. Ma’lumki, an’anaviy ta’limda maqsadlari, asosan, bilim berishga, modul texnologiyasi asosida o‘qitishda esa ta’lim oluvchilar faoliyatiga yo‘naltiriladi.

Modul — bu fanning bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fundamental tushunchalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan va didaktik tamoyil asosida tuzilgan o‘quv materiallari birligi bo‘lib, unda fan bo‘yicha o‘quv dasturlari qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashtiriladi. Natijada bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi.

Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o‘qitish to‘g‘ri tashkil etilsa, ta’limning har qaysi bosqichida o‘quvchi, talabalar yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtiradi, ko‘nikma va malakasini takomillashtiradi. Modul algoritmi asosida ishlab chiqiladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg‘ulot, uslubiy ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riqlar, nazorat, o‘zlashtirilgan bilim, malakani sinash, baholash va hokazo.

Modul texnologiyasi asosida o‘qitish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- modulli o‘qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish;
- modulning o‘quv maqsadlari va mazmunini belgilash;
- o‘quv-didaktik materiallari va o‘qitish vositalarini tayyorlash;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;
- o‘quvchi, talabalarining olgan nazariy bilimi va amaliy ko‘nikmalarini baholash.

Yuqorida keltirilganlarning hammasi ta’lim oluvchilarni fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqea - hodisalarning sababini anglash, izlanishni o‘rgatishga qaratilgan.

Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchilar ta’limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o‘zlashtiradilar. *Ta’limda modul tizimini qo‘llash eski modul birligi o‘rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo‘llash imkoniyatini beradi.*

Modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundaki, e'tibor ko'proq ta'lim oluvchiga, uning o'z ustida mustaqil ishlashi hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratiladi.

Modul tizimi asosida o'qitishning davomiyligi ta'lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog'liq. O'qitishni ta'limning istagan modulidan keyin to'xtatish mumkin.

Modulli texnologiya asosida o'qitishda o'quv didaktik materiallar sifatida nazariy va amaliy darslarda matnli vizual vositalar, masalan, o'quv adabiyotlari, kartoteka va ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, uslubiy ko'rsatmalardan foydalaniladi.

Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

Qiziqtirish (motivatsiya uyg'otish). Iqtisodiy fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitishda darslarni qiziqarli, hatto darsga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lmagan ma'lumot bilan boshlash mumkin. Masalan, mavzu bilan bog'liq qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki xizmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi. Bu ta'lim oluvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi.

Ma'lumot (bilim) berish. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar, o'quv suhbatlari uyushtiradi. Yangi modul birligini o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi.

Modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Bu o'quv jarayonini osonlashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish va ko'rib chiqish uchun yetarli vaqt ajratiladi.

O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlar berish. O'quvchi, talabalarga tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin bajarilgan ishlar baholanadi. Natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilish ham yuqori samara beradi. Modulni o'rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu —o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyati natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat beradi.

Fanlarni modul texnologiyasi asosida o'qitishda o'quvchi, talabalar bilimi va ko'nikmalari o'quv maqsadlariga muvofiq holda

muntazam baholanishi kerak. Baholash huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga hamda Davlat ta'lim standartlariga asoslanadi. Baholash orqali butun modulni o'rganish jarayoni va uning barcha komponentlari maqbulligi tekshirilib ko'riladi. Bu bilan modulli o'qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya, to'g'rirog'i, ta'lim texnologiyasi, qo'llaniladigan metodlarning barchasi ham ta'lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida ko'nikmaga ega bo'lishlariga qaratilgan. Hamma gap qo'yilgan maqsadni qay darajada amalga oshirishdadir.

Xulosa

- Pedagogik texnologiya deganda «ishlab chiqarish» natijasi-mahsuloti» ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketma-ketlikda turli vosita va metodlarni qo'llash o'quvchi-talaba va o'qituvchi hamkorligini amalga oshirish tufayli samarali va kafolatlangan ta'lim natijasiga erishishni ta'minlovchi pedagogik faoliyat tushuniladi.

- O'qitish metodlarini pedagogik texnologiyaning nerv tomirlari deb atash mumkin, chunki qo'yilgan maqsadni qanday amalga oshirish, qanday natijaga erishish dars o'tish metodlarini tanlash va qay tartibda qo'llashga bog'liq.

- Ta'lim tizimiga, o'qitishga qator yondashuvlar mavjud bo'lib, ular darsni o'tkazishda o'qituvchining qanday rol o'ynashi, qo'yilgan maqsad, o'quvchi-talabalarning dars jarayonida faolligini ta'minlash, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish metodlari, mustaqil, tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, erishish mo'ljallangan natija va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ulardan keng tarqalganlari ko'rgazmali-an'anaviy, texnologik, tadqiqiy-ijodiy yondashuvlar bo'lib, keyingi paytlarda integral va modulli yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish ham keng qo'llanilmoqda.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, ta'lim jarayoni, dars o'tish metodlariga yondashuv, an'anaviy ko'rgazmali yondashuv, texnologik yondashuv,

tadqiqiy-ijodiy yondashuv, integrativ yondashuv, modul texnologiyasi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Pedagogik texnologiyani o'rganish obyekti sifatida e'tirof etilishi bosqichlari (davrlari)ni ko'rsata olasizmi?
2. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz, unga berilgan qanday ta'riflarni bilasiz?
3. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarning qanday umumiy tomonlari va farqlari bor?
4. Ta'lim texnologiyasi bilan metodlarining farqi bormi? Metodlar ta'lim texnologiyasida qanday o'rin tutadi?
5. O'qitishning an'anaviy metodlari bilan noan'anaviy metodlarining qanday farqi bor? Ularning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsata olasizmi?
6. O'qitishga (ta'limga) uch xil yondashuvning qiyosiy xarakteristikasiga ko'ra qanday xulosa chiqarish mumkin?

IV bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR VA ULARNI TANLASH MEZONLARI

Avvalgi bobda ta'lim texnologiyasida dars o'tish metodlari qanday o'rin tutishini ko'rib chiqdik. Dars o'tish metodlari xilma-xil. Dars o'tishda nima sababdan turli metodlarni qo'llash zarur? Sinalgan bir metodni qo'llab dars o'tsak yaxshi emasmi? An'anaviy dars o'tish va interaktiv dars o'tish metodlari qay jihatdan farqlanadi, umuman dars o'tish metodlarini tanlaganda nimalarga e'tibor berishimiz kerak. Navbatdagi bob ana shu masalalarga bag'ishlangan.

1-§. Iqtisodiy fanlardan dars o'tishda turli metodlarni qo'llash zaruriyati

Hozirgi paytda, avval ta'kidlab o'tganimizdek, dars o'tishdan asosiy maqsad tayyor bilimni o'zlashtirish emas, eng asosiysi, o'quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish esa ko'p jihatdan dars o'tish metodlarini tanlashga bog'liq.

Har qanday fanni o'rganishda turli metodlar qo'llaniladi. Buning sababi, **birinchidan**, dars o'tishda turli uslublarni qo'llash *uni qiziqarli bo'lishiga olib keladi, talabalarning diqqati o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratiladi. Bir xil* metodda dars o'tilaverishi talabalarni zeriktiradi. Psixologlar tadqiqotlariga ko'ra har qanday mohir o'qituvchi ham bir xil metodni qo'llab dars berar ekan, aytaylik, ma'ruza o'qir ekan, talabalar dastlab 20 minut, so'ngra darsni tugashidan oldin 20 minut ma'ruzani diqqat bilan eshitar, qolgan paytda xayolga berilib ketar ekan.

Ikkinchidan, talabalarning darsni o'zlashtirish, bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil bo'lib, turli uslublarni qo'llashgina o'tilayotgan mavzuni talabalar tomonidan nisbatan to'liq o'zlashtirishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimni o'zlashtirish jarayonida mavzuni tezroq anglashga bir xil talabalarga bir uslub yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi.

Uchinchidan, dars o'tish metodlari talabalarni fikrlash doirasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun ham barcha pedagoglar talabalarga bilim berishning eng samarali yo'li, dars o'tishga turli metodlarni qo'llash zarur degan fikr tarafdori bo'lib, aynan qaysi metod qaysi kategoriyadagi talabalar uchun qo'llanilishi ma'qulligi bo'yicha esa yagona qolip yo'q, Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, **tahliliy fikr** yuritadigan talabalarangina muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar(sardorlar), fan arboblari yetishib chiqadi.

Tahliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir. Har bir kishining fikr yuritishi individual xarakterga ega bo'lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir.

G'apb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy adabiyotlarda¹ bilim berish uslubiga ta'sir etuvchi parametrlarga:

- a) har bir talabaning individual xususiyatlari;
- b) axborotni qayta tiklash qobiliyati;
- d) talabalarni bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi, hamkorlik qilish xislatlarini kiritishadi.

1. Har bir kishining individual, o'ziga xos xususiyatlari inson tomonidan axborot qabul qilishda ham ifodalanadi. U boshqa omillar bilan birga uning shaxsiy xususiyatlariga ham chambarchas bog'liq.

Psixologlar odamlarni introvert va ekstravert guruhlariga bo'lishadi:

Introvert tipidagi talabalar ko'proq individual qatnashish ustun dars o'tish uslublarini yoqtirishadi. Masalan, ma'ruza eshitish, kitob o'qish, adabiyotlarni konspekt qilish, nazorat ishi, referat, doklad yozish kabilar.

¹ Curry I (1987) *Integrating concepts of cognitive style: A review with attention to psychometric standards*. Ottawa & Oiv: Canadian College of Health Service Executives.
Punn R. & Dunn K (1978) *Teaching students through their individual learning styles. A Practical approach*.

Reston, VA, Reston Publishing.

Kelder, R.M. (1996) *Matters of styles, ASEEP rising*, 6 (u), 18-23 (December).

Griggs, S.A. (1991) *Learning styles counseling*. Ann Arbor MI: Eric Counseling and Personnel Services Clearinghouse The University of Michigan.

Keefe JW (1989) *Learning style profile handbook: Accommodating perceptual, study and instructional Preferences (vol. II)* Reston V.A. National Accommodating of secondary school Principals.

Witkin H.A. (1954) *Personality through Perception: An experimental and clinical study* Westport CT: Green Wood Press.

Брюс Джемс и Марша Вейл и др. *Модели обучения*. Москва, 1996.

Ekstravert guruhidagi talabalar o'qitishning faol turlarini, boshqalar bilan hamkorlikda bajariladigan uslublarni yoqtirishadi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar o'tkazishda qatnashish kabilar.

2. Insonda olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati ham turlicha. Talabalar bilim olish, olgan axborotlarini yodda saqlash, tushunish va qo'llashda ham bir-biridan farq qiladilar. Ba'zi talabalar uchun verbal (so'zda ifodalangan) axborot, masalan, ma'ruza eshitish yoki radio orqali tinglash yetarli. Boshqalari uchun esa vizual (ko'rish) axboroti muhim. Ular ko'rgazmali qurollar: jadval, sxema, grafik, diagramma kabilar orqali mavzuning mazmuniga tez tushunishadi. Uchinchi guruh talabalar uchun kinestetik (o'zi qatnashuvchi) axborot foydali. Ular o'qitishning aktiv uslublari, modellashtirilgan o'yinlarda rol o'ynash orqali axborotni yaxshi o'zlashtiradilar.

3. Talabalar ko'p narsalarni bir-birlaridan o'rganishadi. Shuning uchun talabalarni bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, hamkorlik qilishga asoslangan dars o'tish metodlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, ba'zilar mustaqil, birinchi bo'lishga intilishi bilan ajralib turadi. Ular alohida o'qishni ma'qul ko'radi. Ularga debat, munozara olib borish, konkurslarga qatnashish yoqadi. Boshqalar yolg'izlikdan ko'ra hamkorlikda o'qishga moyil. Ular uchun koope-ratsiyalashgan o'qitish uslublarini qo'llagan ma'qul. Ba'zi talabalar aniq faktlar, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Ba'zi talabalar ko'rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, uchinчилari esa amaliyotda o'zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtaroq o'rganadi.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiyaning metodlari qotib qolgan emas. Vaqt o'tishi bilan ular o'zgaradi. Talabalarni bilim olishi va olgan axborotini qayta ishlashi uchun turli-tuman metodlarni o'ylab topib, qo'llash mumkin. Ayniqsa, hozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ko'p sohalarga bilishning turli usullarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rang-barang pedagogik metodlar qo'llash talab etiladi.

O'qituvchilarni dars jarayonida turli uslublarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, talabalarda bilim olishga ishtiyoq uyg'otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning qobiliyatini, ularni individualligini hisobga olgan holda turli metodlarni qo'llash, albatta, o'zlashtirish natijasini ko'taradi.


Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-talabalarni barkamol, chu-

qur bilim egasi, mustaqil fikrlaydigan inson bo'lib shakllanishi faqat individual xususiyatlariga bog'liq emas. Ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim omil, ta'lim berish jarayonini tashkil etishdir.

Ta'lim berish jarayonini tashkil etishda esa o'qitish shakllari va metodlari asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim metodlarini tanlash katta ahamiyatga ega. O'quv metodlarini tanlashda esa uning samaradorligini e'tiborga olish zarur.

Pedagog - olimlarning tadqiqotlari bo'yicha o'qitish jarayonida berilgan axborotni eslab qolish qo'llanilgan metodlarga ko'ra quyidagicha ko'rinishda aks etar ekan:

O'qitish «piramida»si¹



AXBOROTNI ESLAB QOLISH

1. Ma'ruza, doklad. Eshitganimizning 5 foizi.
2. O'qish. O'qiganimizning 10 foizi.
3. Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish. Ko'rganimizning 20 foizi.
4. Tajribani namoyish qilish. Ko'rgan va eshitganimizning 30 foizi;
5. Munozara. Birga muhokama qilganimizning 40 foizi.
6. Mashq. O'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50 foizi.
7. Ishbilarmon o'yini, loyiha usuli. Mustaqil o'qiganlarimizning,

¹ «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzuidagi seminar-trening materiallari. Trenerlar uchun qo'llanma. Toshkent, 2002, 67-bet.

tahlil qilganlarimizning, muhokama, himoya va yozganlarimizning, namoyish qilganlarimizning 75 foizi.

8. Boshqalarni o'qitish. Boshqalarni o'qitgan narsalarimizni 90 foizi.

Biz ma'ruza, doklad eshitar ekanmiz uning 5 foizini, o'qigan materiallarimizni 10 foizi, video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rganimizni 20 foizini, tajribani namoyish qilinganida ko'rgan va eshitganlarimizni 30 foizini, munozaraga kirishsak, birga muhokama qilganimizni 40 foizini, mashq yechar ekanmiz, o'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50 foizini eslab qolar ekanmiz. Ishbilarmon o'yin, loyiha metodi, mustaqil o'qiganlarimiz, tahlil qilganlarimizni muhokama qilish samarali metod ekan. Buning natijasida talabalar ongida ma'lumotning 75 foizi saqlanib qolar ekan. Lekin, o'quv-amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarning birbirlariga o'rgatishlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 foiz ma'lumot o'zlashtiriladi.

Insonning esda saqlash xotirasi — biokompyuterdir. Odatda, olingan axborotning juda ko'pi qisqa muddat yodimizda saqlanadi.

Boshqa yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot xotiradan ko'tarilib ketadi. Axborotlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, inson har kuni o'z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori turlicha bo'lib, xotirada saqlanib qolish jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Psixologlarning fikricha, axborotni xotirada uzoq saqlanib qolishi uchun, u go'yoki miyangizda filtdan o'tishi, saralanishi, go'yoki xotira qurilmasiga o'tkazilishi kerak ekan. Axborot saralanib, oxir-oqibat u yoki bu tomoni bilan ajralib turadiganlarigina xotiraga o'tar ekan.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- nihoyatda qiziqarliligi, jo'shqinligi va boshqa shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;
- tasavvur, his-tuyg'u va shu kabi bir-birini eslatadigan bog'lanishdagi axborotlar;
- inson tomonidan tushunib, mohiyatiga yetilgan axborotlar;
- faollik bilan qabul qilingan o'rganilgan, masalan, takrorlanib turadigan axborotlar.

Bilimni o'zlashtirish bilan bir qatorda uni yodda saqlash, undan foydalanish, takrorlab turish muhim ahamiyatga ega. Olingan bilimdan foydalanilmasa, takrorlab turilmasa xotiradan ko'tariladi.

Demak, talabalar eng avvalo o'quv materialini o'zlashtirishi,

yodda qolish uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko'rish orqaligina emas, balki o'zi gapirishi, o'z faoliyatida sinab ko'rishi orqali yetkazishi katta ahamiyatga ega ekan.

Bunga dars o'tishda turli-tuman metodlarni qo'llash orqali erishish mumkin.

Umuman olganda, o'qituvchilarning dars jarayonida turli metodlarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, o'z talabalarida bilim olishga ishtiyoq uyg'otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Pedagoglarning muhim vazifasi, maqsadi aynan turli metodlar orqali talabalarni bilim, axborot-olishni turli shakllariga tezda moslashishga, o'z dunyoqarashini kengaytirish uchun harakat qilishga talabalarni qiziqtirish va uni amalga oshirishdir.

Ayniqsa, hozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ko'p sohalarga, bilishning turli metodlarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rang-barang pedagogik usullar qo'llash talab etiladi.

2-§. Interaktiv metodlarni qo'llash va o'quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, islohotlar ta'lim standartlarini o'zgartirishga, yangi fan, o'quv kurslarini kiritishnigina emas, balki dars o'tish metodlarini ham o'zgartirishni, talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlarni qo'llash ehtiyojlarini keltirib chiqardi.

Shuning uchun jahon pedagogikasida asosiy e'tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilishga qaratildi. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko'nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktiv metodlarini qo'llash ijobiy natija berishini ko'rsatdi. Bu uslublar dars o'tishni dialog tarzda amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Har qanday fandan dars o'tishda turli metodlarni, ayniqsa, interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati yana shunda ifodalanadiki, birinchidan, bunday metodlarni qo'llash darsni qiziqarli o'tish va talabalarni darsga faol qatnashishlarini, ikkinchidan, ularning diqqatini o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratishlarini ta'minlaydi.

Dars o'tishda qo'llaniladigan metodlarni **shartli** ravishda: **an'anaviy** dars o'tish uslublari hamda talabalar faolligini oshiruvchi **interaktiv** metodlarga ajratish mumkin (III bob, 3-§ ga qarang).

An'anaviy dars o'tishda darsning asosiy maqsadi ko'proq tushuntirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi - bilim beruvchi, o'quvchi-talaba bilim oluvchi rolini bajaradi. Ularni o'rganilayotgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini nazorat qilish jarayonida bildirgan fikrlariga qarab aniqlanadi.

Pedagoglar, pedagog-olimlar dars jarayonida o'quvchi, talabalar o'rtasida hamda ular bilan o'qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o'rnatilsa, uni interaktiv hisoblashadi.

Odatda, bunday hamkorlik u yoki bu muammoni yechish yo'llarini fikrlashib topishda, qabul qilingan qarorni qay darajada qo'llasa bo'lishini muhokama qilishda o'rnatiladi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki, muhokama jarayoni uni javoblaridan ham muhimroq. *Ta'lim interaktiv metodlarining maqsadi bilim berish emas, balki o'quvchi, talabalarda mustaqil ravishda o'qish, izlanish, savollarga javob topish, qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.*

Dars o'tishning talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlari ayrim adabiyotlarda noan'anaviy dars o'tish metodlari deb ham ta'riflanadi. Bu metodlardan avvallari ham foydalanilgan, lekin kamroq e'tibor berilgan. Hozirgi paytda butun dunyoda faol interaktiv metodlarni qo'llashni dars o'tishning samarali metodi sifatida tan olinib, keng qo'llanilmoqda.

Interaktiv metodika o'zaro hamkorlikning nihoyatda ko'p usul va turlarini qamrab oladi. Lekin metodik usul qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchi talabalarning tajribalari asosiy ta'lim manbai hisoblanadi. Hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan metodlarning asosiy xususiyati shundaki, unda o'quvchi, talaba o'zi uchun nimanidir kashf qiladi.

Interaktiv metodlar «o'qishga va uqishga» o'rgatadi. U o'quvchi-talabalarning nihoyatda katta intellektual potentsialidan foydalanish imkonini beradi, ularni o'quv jarayonida faol qatnashishlarini ta'minlaydi. O'quv jarayonida nafaqat hamkorlik, balki musobaqa, bellashuv elementlarini ham qo'llash imkonini beradi.

Interaktiv metodlar talabalarni o'z fikrini ifodalashi uchun keng imkoniyat yaratib beribgina qolmay, o'rtoqlarining fikri, asoslari, dalillarini tinglab, o'z fikridan qaytishi yoki fikrini tamomila o'zgartirishi mumkin. Interaktiv metodlar boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashga, uni sabr-toqat bilan eshitishga ham o'rgatadi. Auditoriyada hamkorlik muhitini yaratishning real imkoniyatini yaratadi.

O'qituvchi yaxshi dars berishning tayyor retseptiga emas, balki

interaktiv metodlarga asoslangan ta'lim texnologiyasiga ega bo'lishi kerak. U ijodiy hamkorlikda ishlashga va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun tayyor turishga o'rgatadi.

Ta'limning interaktiv metodlari pedagoglarda:

• darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi;

• o'quv materialini puxta o'zlashtirish imkonini beradi;

• o'quvchi, talabning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi;

• barcha o'quvchi, talabalarni o'quv jarayoniga tortish, faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi;

• guruhda ko'ngildagidek ijobiy psixologik iqlim, muhit yaratadi.

Dars o'tish metodlari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

To'g'ridan-to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub)da yangi tushunchalar, navbatma-navbat, asta-sekinlik bilan, mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza o'qiganda qo'llaniladi.

Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash. Bu uslubda juftlik yoki kichik guruh bilan birgalikda qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muhoqot qilish orqali yechish ko'zda tutiladi.

Intervyu — bir yoki bir necha kishilardan axborot olish uchun aniq maqsadga qaratilgan so'rov (savol-javob) o'tkaziladi.

Darsni aniq yo'naltirilgan (mo'ljallangan) savollar asosida olib borish. Bu uslubda mavzu bo'yicha aniq yo'naltirilgan savollar bilan mavzu muhokama qilinadi. O'qituvchi savol-javob, suhbatni boshqarib turadi.

Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda darsda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha faoliyat abstrakt usullardan foydalanib, real voqelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub amalda mavzuni tushunish osonlashadi. Imitatsiya qilingan «ishlab chiqarish» yoki «xizmat ko'rsatish» jarayonida o'zlari qatnashganlari uchun talabalarga juda qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda talabalar o'zlari belgilangan rollarni bajaradilar. O'z xatti-harakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallashadi.

Referat — baholash nuqtayi nazaridan neytral pozitsiyada turgan holda mavzu bo'yicha og'zaki axborot bo'lib, u aniq obyektiv, struktur, kitob yoki risolaning mazmunini qisqacha bayon qilish yoki biron mavzu, asar bo'yicha qisqacha doklad tarzida tayyorlanishi mumkin.

Doklad yoki qisqacha doklad – mavzu yoki muammoni tartibga solingan holda tanishtirish yoki baholash tarzida bayon qilinadi.

Masala yoki mashq yechish. O‘tilganlarni nazariy jihatdan yodga tushirib, berilgan topshiriqni bajarish. Nazariy bilimni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga qaratiladi.

Tadqiqot metodi. Bu metodda biron muammo yoki gipoteza qo‘yilib, guruh birgalikda tadqiqot o‘tkazadi, mantiqiy xulosa chiqariladi, uni ilgari surilgan gipoteza bilan taqqoslaydi.

«**Aqliy shturm**» metodi → muayyan muammo yechish uchun talabalar o‘rtasiga qo‘yiladi. Unda har bir guruh yoki alohida talabalar tomonidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Ular solishtiriladi va xulosa chiqariladi.

Konkurs(tanlov)lar o‘tkazish. Ma’lum bir mavzu yoki muammo bo‘yicha talabalar olgan bilimlarini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi.

Dars o‘tishda boshqa qator metodlar ham mavjud bo‘lib, ularni o‘qituvchi mavzuning mazmuni, guruhning tayyorgarligiga qarab, qo‘llashi mumkin.

Dars berish jarayonida turli metodlarni qo‘llashni hozirgi paytda keng targ‘ib qilinayotganiga qaramay, hali kutilgan natijaga erishilgani yo‘q. Buning qator sabablari quyidagicha:

- dars jarayonini turli metodlar asosida tashkil etish, metodlarni qanday qo‘llash bo‘yicha metodik qo‘llanmalarning yo‘qligi;
- interaktiv metodlarni qo‘llash bo‘yicha o‘tkaziladigan darslarga tayyorgarlikning ko‘p vaqt va mablag‘ talab qilishi;
- interaktiv metodlarni keng qo‘llash uchun barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida moddiy bazaning yetarli emasligi;
- interaktiv metodlarni keng qo‘llab, dars o‘tish o‘qituvchidan chuqur bilim va mahorat talab qilishi;
- barcha o‘qituvchilarni bunga birday jalb qilishning qiyinligi va hokazolar.

Bundan tashqari, o‘quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar va kamchiliklar ham turli metodlarni qo‘llab, dars o‘tishga to‘sqinlik qiladi.

O‘qish jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar:

- a) butun o‘quv jarayonini tashkil qilishga tegishli;
- b) o‘quv materialining ma’lum bir qismiga tegishli bo‘lishi mumkin.

Kamchiliklar esa:

- 1) umumiy xarakterga ega bo‘lgan;

- 2) o'quv jarayonidagi individual to'siqlar;
- 3) guruh tufayli kelib chiqqan qiyinchilik;
- 4) dars jarayonini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar tufayli kelib chiqqan to'siqlar.

Darsni tashkil qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar – shovqin, dars paytidagi tanaffus, darsni boshqalar tomonidan buzilishi tufayli kelib chiqishi mumkin.

Dars jarayonida qo'llanishi kerak bo'lgan texnik vositalar, darslik, zarur o'quv qurollari yetishmasligi kabilar ham qiyinchiliklar tug'diradi.

O'qituvchining o'z fanini puxta bilmasligi, fanga doir yangiliklardan xabardor emasligi, o'zini biror-bir aybi bor yoki biror narsa yetilishmayotganday tutishi ham dars o'tishda qiyinchilik tug'diradi.

Talabalarning darsda o'zini tuta bilmasligi, o'zaro raqobatlashuvi, ham dars o'tkazishga - to'siq bo'lishi mumkin.

Didaktik xarakterdagi kamchiliklar:

- o'qituvchining hukmronlik rolini o'ynashi;
- o'qituvchining o'zini tuta bilmasligi;
- o'qituvchida nabr-toqatning yetishmasligi;
- xushmuomalalik, xushfo'llikning yetishmasligi;
- yordam berishga tayyor turishdagi kamchiligi;
- xayrixoh emasligi, talabalarni ko'r-ko'rona so'zsiz bo'yuntirishga majbur qilishi kabilardan iborat.

Dars o'tishda yuz beradigan turli kamchiliklar natijasida talabalarning o'qishdan ko'ngli soviydi. Bu individual, ruhiy va intellektual qobiliyati darajasiga nisbatan o'zlashtirish darajasini tushib ketishida ifodalanadi.

O'quv jarayonida to'siqliklar yuz berganmi yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin:

- o'zlashtirish ko'rsatkichining pasayishi;
- darsga qatnashish darajasining pasayishi;
- materialni o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqtda ulgurmaslik.

Demak, dars jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi iloji boricha ana shu kamchiliklar yuz bermasligining oldini olishga harakat qilishi kerak.

Darsda pedagog interaktiv metodlarni qo'llashi uchun shaxsiy tajriba talab qilinadi. Interaktiv metod va ularni qo'llash haqida ko'plab o'quv, uslubiy adabiyotlarni o'qish mumkin. Lekin ularni qo'llash malakasiga esa bevosita ana shu jarayonda o'zi qatnashib-gina ega bo'lishi, ko'nikma hosil qilishi mumkin.

3-§. Dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari

O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiya, pedagogika bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlarda dars o'tish metodini tanlashga ta'sir qiluvchi juda ko'p omillar ko'rsatiladi (I bob, 3-§ ga qarang).

«Metodika prepodavaniya ekonomicheskix dissiplin» kitobi mualliflarining fikricha ta'lim metodini tanlash yoki aniqlashning oltita umumiy shart-sharoitlarini ajratib ko'rsatish mumkin.¹

Bular:

1. O'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari.
2. Fanning mazmuni va o'rganish metodi, jumladan, uning predmeti va mavzulari.
3. O'qitishning maqsadi va vazifalari.
4. Talabalarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning xususiyatlari).
5. Tashqi sharoitlar (geografik, ishlab chiqarish, atrof-muhit).
6. O'qituvchilarning imkoniyatlari.

Turli-tuman omillarning dars o'tish metodini tanlashdagi o'rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo'lsak, ko'pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o'rinda ta'limning maqsadi turadi. Aynan dars o'tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo'lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o'rinda ta'limning motivatsiya darajasi turadi.

Motivatsiya — bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. Insonni o'qishga o'rganishga ham ana shu tuyg'u undaydi. Subyektiv nuqtayi nazardan esa motivatsiya birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, albatta, o'quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e'tibor berish kerak.

Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlari va prin-

¹ Н.Ходжаев, П.З.Хошимов, Т.Т.Джураев, О.Б.Гимранова. Методика преподавания экономических дисциплин. Т.: 2004, стр. 16.

siplarini¹ realizatsiya qilishni nazardan qochirmaslik kerak (qonuniyat - obyektiv amal qiluvchi hodisalarning muhim aloqadorligi, bog'lanishlari va ularning qonunlari, qonuniy asosda tabiiy ravishda o'z-o'zidan kelib chiquvchi muqarrar ish, hodisa va boshqa shu kabilar).

Har bir fanni o'rganishda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlaridan, didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda tanlanadi.

XV–XVI asrlarda mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.²

Ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- ta'lim va tarbiya jarayoni hamda o'quvchi – talabalar tafakkurini rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'langan;
- o'qitish va o'rganish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayoni, muayyan ta'lim mazmuni bilan bir-birini taqozo etadi va ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;
- o'quvchi, talabani biron-bir faoliyatga o'rgatish uni shu faoliyatga maqsadga muvofiq jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- o'qitish maqsadi va o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtasidagi qonuniy bog'liqlik;
- o'quv jarayoni o'quvchi - talaba maqsadining o'qituvchi maqsadiga muvofiq bo'lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirishi lozim bo'lgan mazmuniga mos bo'lishi shart;
- ta'lim mazmunini o'zlashtirish sur'ati va puxtaligi, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga, o'quvchi, talabalarni bilishga bo'lgan qiziqishini ta'minlash;
- ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;
- o'zlashtirilgan o'quv materiali mazmunining puxtaligini ta'minlashda mavzuni to'liq yoki qisman takrorlash.

O'quv jarayonida talabalar bilim qonuniyatlaridan qanday foy-

¹ Prinsip (lotincha principium – asos, boshlanish):

- Nazariya, ta'limot, fan, xatti-harakatning asosiy qonun-qoidasi.
- Kishi qattiq ushlab olgan, og'ishmay amal qiladigan qoida, nuqtayi nazar, qarash, maslak, yetakchi g'oya.

² R. Mavlonova, O.To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. «Pedagogika». T.: «O'qituvchi», 2001, 185-bet.

dalanishlari didaktik prinsiplarga amal qilish bilan bog'liqdir.

Albatta, dars o'tish metodlarini tanlayotganimizda fanni o'rganishga qo'yilgan talablar va fanning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bir fanni o'zlashtirishda yaxshi natija bergan metod boshqa fanga talabalarni chuqur o'zlashtirishlari uchun yaxshi yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ham dars o'tish metodlarini tanlaganda, albatta, fanning xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozim.

Fanni o'rganishda **o'quv materialining murakkabligi va miqdori** ham muhim rol o'ynaydi. Demak, dars o'tish metodini tanlashda fanning bu jihatlarini ham hisobga olish lozim. Masalan, oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot nazariyasi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlariida iqtisodiyot asoslari fanini o'rganishda abstrakt tafakkur nihoyatda katta rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi, tahlil, soliq va boshqa shu kabi fanlarda amaliy metodlar fanni o'rganishga katta yordam beradi. Demak, metodlarni muvofiq ravishda tanlash lozim.

Dars o'tishda qanday metodni tanlash **o'rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o'rganiladigan mavzularga** bog'liq. Masalan, statistika fanida iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosiy rol o'ynasa, buxgalteriya hisobi fanida esa hujjatlashtirishga asosiy diqqat qaratiladi. Bir mavzuning mazmuni munozarada chuqur o'zlashtirilsa, ikkinchisining, masala-mashq yechishda ko'proq tushunarli bo'ladi.

Dars jarayonini qanday metod asosida tashkil etishda **o'quvchi - talabalarining o'rtacha bilim darajasi** ham muhim rol o'ynaydi.

Guruhda talabalarining bilim darajasi yuqori bo'lsa, muvofiq ravishda ijodiy izlanishga undaydigan metodlarni qo'llash zarur. Bu ularni yanada ko'proq o'qishga, izlanishga olib keladi. Bilim darajasi past bo'lsa, ularga fanning mazmunini o'zlashtirishga yordam beruvchi metodlarni tanlagan ma'qul.

Dars o'tish qiyin bo'lgan guruh talabalarining bilim darajasi bir-biridan keskin farq qiladigan guruhdir. Shuning uchun bunday guruhlarda bilimdonlar boshqalarga yordam berishiga erishishga, fanni o'zlashtirishga ko'maklashadigan metodlarni ko'proq tanlashga to'g'ri keladi.

O'qituvchi dars metodini tanlar ekan **talabalarining faolligi, qiziqishini** ham hisobga olishi zarur. Talabalarining qiziqishi past guruhlarda ularning faolligini oshiruvchi, fanni o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi metodlarni qo'llash zarur. Bunda modellashtiruvchi o'yin turli qiziqarli mashqlar, konkurslar o'tkazish, talabalarga individual topshiriqlar berish, aytaylik, biron iqtisodiy ko'rsatkich-

larni o'zgarishidan qanday xulosa chiqishi borasidagi fikrlashlar bilan kechadi.

Talabalarining faolligi yuqori guruhlarda ularni o'z ustida mustaqil ishlashlarini ta'minlovchi, erishgan darajada qotib qolmay, yanada ko'proq bilishga undovchi metodlarni qo'llash muhim.

Dars o'tish metodining ustun darajada bajaradigan funksiyalari. Ta'lim berish ko'zda tutilsa bir xil, olingan bilimni nazorat qilish lozim bo'lsa boshqa xil metod qo'llash zarur.

Suningdek, **olinadigan bilim, malakaning zaruriy manbalariga ko'ra** metod tanlash muhim ahamiyatga ega (I bob, 3§ga qarang).

Dars o'tish metodini tanlashda **ta'lim berish muddatini** ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, vaqt inson uchun eng cheklangan resurs. Shuning uchun talabalarni doimo vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish zarur. Fanni o'rganishga umumiy qancha vaqt berilgani, shulardan mavzularga qancha vaqt ajratilganiga qarab, dars o'tish zarur.

Shubhasiz, dars o'tish metodlarini tanlashda **moddiy-texnik baza, o'qitishning tashkiliy shart - sharoitlari** ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, maqsadga erishish uchun o'rganilishi zarur bo'lgan asosiy savollarga ko'proq vaqt ajratishi, shunga muvofiq dars o'tish metodini tanlash va uni o'tkazishni rejalashtirishi zarur.

Dars o'tish metodini tanlashga ta'sir etadigan yana bir omil darsning shakli va tarkibidir. Albatta, nazariy darsda tanlangan metodni, amaliy darsda ham qo'llash kutilgan natijani bermaydi. O'qitish metodini tanlashda **guruhdagi talabalar soni** ham katta rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan metodlar katta guruhlarda kutilgan natijani bermasligi mumkin yoki umuman qo'llash qiyin bo'ladi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan metodni tanlashda o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida o'quv jarayonida shakllanadigan munosabatlarda o'zaro hamkorlikka diqqat qaratilsa, boshqalarida avtoritarlik ustun. Dars o'tish metodini tanlashda eng muhim omil bu o'qituvchining darsga tayyorgarligi darajasidir. Chunki qaysi metodni qo'llash, qanday qilib dars o'tish, darsning mazmuni talabalar ongiga yetkazish o'qituvchiga, uning bilimi, salohiyati, kasbiy ko'nikmasi, mahoratiga bog'liq.

Yuzaki qaraganda dars o'tish metodini tanlash murakkab emas. Ularni qanday qo'llash uchun o'qituvchida tajriba bor. Ulardan birortasini tanlasa bo'ldi, deya fikr yuritamiz. Lekin ko'rib o'tganimizdek, dars jarayonini tashkil etishga ko'plab omillar ta'sir qiladi.

Bundan tashqari real jarayonga kutilmagan holatlar, sabablar ta'sir qilishi mumkinki, uni avvaldan ko'rib, hisobga olib bo'lmaydi. **Dars o'tishda samarali metodlarni qo'llash deganda, mavjud turli-tuman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo'llash tushuniladi.** Ular har bir fan, mavzu, savol, guruh uchun turli-tuman bo'lishi mumkin.

Dars o'tish metodlarini tanlashda yangi mavzuni, materialni o'rganilishi, uni mustahkamlash, mavzuni umumlashtirish va dars jarayoni bosqichlari ham katta rol o'ynaydi.

Mavzuni o'rganish uchun metod tanlashda komterdan foydalanish katta imkoniyatlarga ega. Dars o'tish metodini tanlashning asosi algoritmlar bo'lib, o'qituvchi belgilangan mezonlar orqali mavzu, uzviy savolni o'rganish uchun kompyuter yordamida optimal metodlarni tanlaydi. Hozirgi paytda 60 dan ortiq metodlarni 35 ta shartlar asosida tanlaydigan «Metod» dasturlari bo'lib, ular so'zsiz o'qituvchiga dars o'tish metodini tanlashda katta yordam beradi.

4-§. Iqtisodiy fanlarni masofadan o'qitish metodini qo'llashning obyektiv asoslari, afzalliklari va muammolari

Taraqqiyot tufayli hayotimizga kompyuter, internetning kirib kelishi, o'qish, o'rganishning muhim metodi sifatida masofadan o'qitishni shakllanishiga, rivojlanib borishiga olib keldi. Yoshlarning chuqur bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lishga ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan bilim maskanlarining markazda va yirik shaharlarda joylashgani masofadan o'qitish tadbirlarining vujudga kelishiga turtki berdi.

Hayotda shunday kategoriyadagi kishilar borki, ular o'z bilimlarini oshirishga, tinmay izlanishga ehtiyoj sezadilar. Lekin uni amalga oshirish uchun an'anaviy ta'lim tizimi xizmatlaridan foydalanishga imkoniyatlari yo'q. Ular uchun eng qulayi o'z xizmat vazifalarini bajargan holda malakalarini oshirishdir. Bunday ehtiyojni masofadan o'qitish yordamida qondirish mumkin.

Masofadan o'qitishni qulayligi shundaki, undan barcha aholi qatlamlari foydalanishi mumkin. Masofadan (distansion) o'qitish talabani mustaqil bilim olishga asoslangan ta'lim jarayonini yangicha tashkil etishdir. Ta'lim olish jarayoni, muhiti shu bilan xarakterlanadiki, bilim olayotganlar o'qituvchidan vaqt va masofa

jihatidan ajralgan holda, uzoqda, lekin telekommunikatsiya vositalari yordamida dialog olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masofadan o'qitish o'quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o'rganishdir.

Masofadan o'qitish o'ziga xos qator afzalliklarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Saboq olayotganlar an'anaviy o'qishga o'xshab ma'ruza, seminar darslarga muntazam qatnashmaydilar. Ular o'rganayotgan fanini, kursini o'zlashtirishi uchun, mutaxassislik bo'yicha zarur bilimlarni olishga qancha vaqt zarur bo'lsa, shuncha o'qiydi.

2. O'qish jarayonini ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, kasbiy faoliyat bilan birgalikda olib borish mumkin.

3. Respublikamizning eng chekka hududlarida yashayotganlar ham yurtimiz va chet ellik eng taniqli professor-o'qituvchi olimlardan saboq olish, jahonning mashhur kutubxonalari fondidagi noyob asarlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Undan tashqari o'qitish har ikki tomon uchun qulay vaqtda, sur'atda, kelishilgan holda olib borilishi mumkin.

4. Masofadan o'qitish keng yoyilgan mamlakatlar tajribasi, hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim tizimiga qaraganda bu 10–50 foiz arzonga tushadi.

Xarajatlarni pasaytirishga o'quv xonalari, texnik vositalardan samarali foydalanish, o'quv materiallarini konsentratsiyasi va unifikatsiyasi orqali erishiladi. Shubhasiz, ana shu afzalliklarni hisobga olgan holda respublikamizda ham keyingi paytlarda masofadan o'qitishni yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratilmoqda. Lekin masofadan o'qitishni respublikamiz miqyosida joriy etish biz xohlaganimizdek tezda amalga oshirilishi qiyin. Sababi, qator muammolar mavjudki, ularni yechmay turib, qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Eng avvalo, masofadan o'qitishni tashkil etish uchun muvofiq ravishda infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Zarur miqdorda dasturlar bilan kompyuterlarga ega bo'lib, ularni umumiy tarmoqqa ulashni tashkil etish kerak. Masofadan o'qitish yangi informatsion texnologiya, kompyuter, audio, videotexnika, telekommunikatsiya vositalari tizimini talab qiladi, uni shakllantirib, xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim.

Virtual axborotdan foydalanmoqchi bo'lganlar uchun kutubxona fondlari kompakt disklar, muvofiq ravishda kataloglar bilan ta'minlash, ularni umumiy tarmoqqa birlashtirish zarur. O'quv adabiyotlarining elektron variantlarini kompleks tarzda tayyorlanishiga ahamiyat berish zarur. Fanlar, kurslar bo'yicha ta'lim maz-

muni davlat ta'lim standartlari talablariga mos o'quv komplekslarini yaratish lozim. Bu holda darsliklar, qo'llanmalar o'rganilayotgan fan bo'yicha masala, mashq, testlar, glossariy, o'z-o'zini tekshirish uchun savol-javoblar, ko'rgazmali qurollar hozirlanishi, o'quv metodik to'plamlarning elektron variantlari yaratilishiga ahamiyat berish zarur.

Iqtisodiy fanlarni o'rganish ancha murakkab bo'lib, o'rganuvchidan kuchli iroda va sabr-toqat, tinimsiz izlanishni, o'z ustida ishlashni talab qiladi.

Ma'lumotlar, dalillar o'zgarishi qanday natijaga olib kelishi, ular asosida to'g'ri xulosa chiqarishni bilish iqtisodiy fanlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy yo'nalish bo'yicha bilim olayotgan yoshlar uchun, ayniqsa, iqtisodiy fanlarni, avvalo, iqtisodiyot nazariyasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyot nazariyasi, boshqa iqtisodiy fanlarni masofadan o'qitish uchun zarur elektron o'quv darsliklari, qo'llanma, uslubiy adabiyotlar tayyorlaganda buni albatta hisobga olish zarur. Lekin hali ana shu talablarga javob beradigan o'quv, uslubiy adabiyotlar yaratilganicha yo'q. Ularni yaratish mashaqqatli mehnatni, vaqtni talab qiladi.

Bundan tashqari, masofadan o'qitish o'qishni xohlaganlardan o'z ustida tinimsiz ishlash, o'z vaqtini to'g'ri tashkil etish, ma'lum darajada boshlang'ich bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab qiladi. Bunga, albatta, katta miqdordagi mablag', vaqt, mehnat zarur.

Qo'yilgan maqsadni qisqa muddatda amalga oshirish uchun esa talabalarga dastlabki bilim beruvchi, o'quv adabiyotlari kompleksini tayyorlovchi professor-o'qituvchilardan boshlab, masofadan o'qitishni tashkil qilishga mas'ul yuqori boshqaruv bo'g'inlari vakillarigacha o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondashishlari talab qilinadi. Bu yerda yana bir narsani unutmaslik kerakki, talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi jonli muloqotni o'z o'rni bor, uni hech narsa bosa olmaydi. Masofadan o'qitish texnologiyasi ko'p miqdordagi talabalarga mo'ljallangan. Agarda ularning soni kam bo'lsa, sarf-xarajatlarni oshib ketishiga olib keladi.

Xulosa

- Hozirgi zamon talabiga ko'ra maqsad tayyor bilimni o'zlashtirish emas, balki asosiysi o'quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga ularda mustaqil

tanlash, qaror qabul qilish qo‘nikmasini hosil qilish bo‘lib, bunday xislatni tarbiyalash ko‘p jihatdan dars o‘tishda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq.

Chunki, avvalo, insonning xislatlari bir-biridan farqlanadi, olingan axborotni eslab qolish qobiliyatlari ham. Dars o‘tish shakllari, ularda qo‘llangan turli-tuman metodlar esa ana shu xislatlarga muvofiq ravishda ko‘proq axborot olish, uni tushunish, xotirada saqlash taqqoslash, to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

• Metod bu keng qamrovli, serqirra, murakkab tushuncha. Dars o‘tish uchun metod tanlash ko‘zlangan maqsad, qo‘yilgan vazifalarga, ma‘lum bir metodning imkoniyatlari va boshqa qator omillarga ko‘ra belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi barcha omillarni hisobga olgan holda mavjud mezonlar yordamida dars o‘tish metodini tanlashi lozim.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Axborot qabul qilish, tahliliy fikrlash, insonga xos individual xususiyatlar, introvert, ekstrovert, o‘qitish piramidasi, interaktiv metodlar, motivatsiya, prinsip, pedagogik qonuniyatlar, masofadan o‘qitish.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda turli metodlarni qo‘llash zarurligining asosiy sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

2. Axborot qanday tarzda qabul qilinsa, uni eslab qolish darajasi eng yuqori bo‘ladi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

3. O‘quv jarayonini tashkil qilishda qanday qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin?

4. Turli metodlarni qo‘llab dars o‘tishning ijobiy tomonlari ko‘pligiga qaramay, nima sababdan hali ham turli interaktiv metodlarni qo‘llash talab darajasida emas?

5. An’anaviy dars o‘tish metodi bilan talabalarni faolligini oshiruvchi (interaktiv) metodlar qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

6. Dars o‘tishning asosiy metodlarini sanab bering. Ularni qisqacha tafsilotini ayta olasizmi?

7. Dars o‘tish metodlarini qanday mezonlarga ko‘ra tanlaganimiz ma‘qul?

8. Dars o‘tish metodlarini tanlash osonmi?

V bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA MA'RUZA

Dars o'tishning tashkil etish, metodlarni tanlashda o'quv jarayonini tashkil etish shakllari muhim o'rin tutadi. O'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, shakli ma'ruza bo'lib, mazkur bob ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar, bayon qilish metodlari, ma'ruza matnini tayyorlash, muammoli izlanish, texnologik yondashuvlar asosida ma'ruza darsi o'tishni o'rganishga bag'ishlanadi.

1-§. Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan asosiy talablar

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, dars o'tishning asosiy shakllaridan biridir. Ma'ruza bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki bayon qilish ko'zda tutilgan, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) - o'qish) o'quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning mantiqiy izchil, ma'lum bir tizimga solingan bayonidir. Ma'ruzaga ikki nuqna nazardan yondashish mumkin: 1) o'quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida; 2) bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki bayon qilish metodi sifatida.

Ma'ruza boshqa og'zaki, so'z orqali ifodalanadigan metodlardan:

a) nisbatan qat'iy belgilangan tarkibi; b) o'quv materialini mantiqiy izchillikda bayon qilish; d) tasniflash, tariff berish, obrazli isbotlash; e) beriladigan axborotning seroblighi; g) materialni yoritib berishning tizimliliği bilan ajralib turadi.

Ma'ruza o'quvchi-talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli va uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldiga qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun, uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak. Ma'ruza o'qitishning quyidagi qator funksiyalarini bajaradi:

1. Professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllantirish.

2. Talabalar diqqatini asosiy maqsadga yo'naltirish. Ma'ruzada talabalarning diqqat-e'tibori o'quv materialining asosiy mazmuni,

qonun-qoidalarini, ularning nazariy va kelgusidagi amaliyotda, mutaxassislik faoliyatida qanday o'rin tutishi va ahamiyatiga, uni o'zlashtirish metodlariga qaratiladi.

3. Idrok, tafakkurni rivojlantiruvchi – tinglovchilarda bilimnini bilishga qiziqish uyg'otadi. Mantiqiy fikrlash va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi.

4. Bilim berish, o'rganayotgan fan bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida xulosa chiqarish, umumlashtirishga o'rgatish.

5. Metodologik - ma'ruza jarayonida tadqiqot metodlari taqqoslanadi, qiyoslanadi, ilmiy izlanish tamoyillari aniqlanadi.

6. Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, ijtimoiy-psixologik xislatlarini shakllantirish.

Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida yoritiladi. Albatta, ma'ruzaning metodik jihatdan yoritilishi, bayon etilishi qo'yilgan maqsad, o'rganilayotgan fanning, mavzuning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berish bilan cheklanishi kerak emas, fanning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda ilmning amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini, hayotda real muammolarni yechishdagi ahamiyatini, yechish yo'llarini ham ko'rsatishi kerak.

Ma'ruza qanday fandan o'qilishidan qat'i nazar, ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarini talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimni ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti auditoriya bilan muloqotga kirishishdir. Ma'ruza o'qish, eng avvalo, unga tayyorlanishdan boshlanadi. Buning uchun birinchi navbatda, ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiyotlar tanlash hamda ular bilan tanishib chiqish kerak.

Ikkinchidan, fan bo'yicha ishlab chiqilgan dasturga ko'ra, ma'ruza rejasi va reja bo'yicha matn tayyorlanishi hamda darsni o'tkazishda qo'llaniladigan metodlarni tanlab chiqish, dars jarayonini texnologik tizim sifatida tarkibi, ketma-ketligini aniqlash lozim.

Ma'ruzada darsni uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Kirish. Avvalgi ma'ruzada nimalar o'rganilgan, uning natijasi nimalar bilan bog'liq, bugungi darsga qanday maqsad qo'yilyapti? Avvalo dars ilgari mavzu bilan bog'lanadi. Keyin yangi mavzu e'lon qilinadi. Ma'ruza rejasi, mustaqil o'qish uchun zarur asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

Mavzuni o'rganishdagi asosiy termin, tushunchalar, mustaqil ravishda bajariladigan ishlar, topshiriqlar beriladi.

2. Asosiy bosqich. Bu bosqich ma'ruza rejasiga ko'ra tanlangan dars o'tish metodlarini qo'llagan holda o'tkaziladi. Tinglovchilarga mo'ljallangan axborotlar yetkaziladi.

3. Yakuniy bosqich. Ma'ruzaga yakun yasaladi, qisqacha xulosa chiqariladi. Talabalar diqqati uchun mazkur mavzudagi eng asosiy tushuncha, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, hodisalar ta'kidlanadi. Qo'yilgan maqsadga qay darajada erishildi, bu tahlil qilib, baholanadi. Bugungi ma'ruzada bajarilgan ish kelgusi faoliyatda qanday muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Ma'ruzalarni didaktik vazifasiga qarab: kirish, mavzular bo'yicha, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, tahliliy, yakunlovchi ma'ruzalarga bo'lish mumkin.

Kirish ma'ruzasi ma'lum bir fanni, mavzuni yoki muammoni o'rganishga bag'ishlanib, unda ana shu masala, muammolar haqidagi fikrlar, ularning ijobiy tomonlari, kamchiliklari, yechilmagan muammolar ko'rsatiladi. O'rganishni boshlangan fanning predmeti, o'rganish metodlari bo'yicha ma'ruza kirish ma'ruzasiga tipik misol bo'la oladi.

Mavzular bo'yicha ma'ruzalar — eng ko'p o'qiladigan ma'ruza bo'lib, unda o'rganilayotgan mavzuning asosiy mazmuni, amaliyotda sinalgan, qabul qilingan ilmiy qarashlar, mavjud yechimini kutayotgan masalalar bayon qilinadi. Ularni yechishning mavjud yo'llari ko'rsatiladi, yangilarini topish tavsiya etiladi.

Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ma'ruza — talabalarga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratiladi. Unda ko'proq metodik maslahatlar beriladi. Tavsiya qilinadigan adabiyotlarni mustaqil o'qish, ular ustida ishlash jarayonida diqqatni qaratish lozim bo'lgan masalalar ko'rsatiladi.

Tahliliy ma'ruza u yoki bu muammo, mavzu yoki ma'lum bir tizimga solingan savollarni ma'lum bir mantiqiy aloqadorlikda bayon qilishga qaratiladi. Ko'pincha oliy o'quv yurtlarida yakuniy nazorat yoki imtihon-attestatsiyalar oldidan o'tkaziladi.

Yakunlovchi ma'ruza ma'lum bir mavzu, muammoni yoki fanni o'rganib, uning yakuni bo'yicha o'tkaziladi. Muammo yechimlari va fanning predmeti to'g'risida asosiy xulosalar bayon etiladi.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda talabalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi, ularni jamiyat rivojlanishi iqtisodiy qonun, tendensiyalarini chuqur tushunishi, nazariy masalalar bilan

amaliyotni bog'lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma'ruza quyidagi asosiy talablarga javob berish kerak: Ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablarni ikki guruhga ajratish mumkin.

A) Ma'ruza tayyorlash shakliga, boshqacha aytganda ma'ruza matniga qo'yiladigan talablar.

B) Ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar.

Birinchi guruh, ma'ruza matniga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi ma'ruzaning detallashtirilgan rejasi, boshqacha aytganda, texnologik xaritasini tuzishi zarur. U aniq va lo'nda ifodalangan butun ma'ruza mazmunini qamrab oluvchi masalalarni o'z ichiga olishi zarur.

2. Bayon qilinishi ko'zda tutilgan masalalar mantiqiy izchillikda yoritilishi hamda ular qisqacha xulosalar bilan yakunlanishi kerak.

3. Ma'ruza matni kirish, asosiy va yakuniy qism, ya'ni xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

4. Ma'ruzaning mazmuni ochib beriladigan asosiy qismida quyidagi jihatlarga e'tibor berilishi lozim:

a) ma'ruzaning g'oyaviy nazariy jihatlari:

* ma'ruzada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda atoqli davlat arboblari asarlaridan sitatalar keltirilishi;

* mavzuning asosiy tushunchalarini o'quv dasturiga mos ravishda ochib berilishi;

* ma'ruza matnining ilmiyligi; O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari mavzularda aks ettirilganligi;

* ma'ruza matnida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi masalalarning berilishi;

* ma'ruza matnlarida milliy mustaqillik, Milliy g'urur, Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat kabi bunyodkorlik g'oyalarini aks etishi;

* nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi;

* o'rganilayotgan mavzuning tegishli fanidagi hozirgi o'rni belgilanishi va boshqalar.

b) ma'ruzaning metodik jihatlari:

– ma'ruzaning mantiqiyliги va isbot talab qilmasligi;

– materialni avodli va mazmundor tarzda berilishi;

– o'quvchi-talabalarni idrok qilishlarini faollashtirish usullari;

– tarbiyaviy yo'nalishga ega ekanligi.

Ma'ruzani o'qish va matnini tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan barcha an'anaviy va zamonaviy usullar, yo'llar hamda texnik vosita, jumladan, multimedia vositalari va

ko'rgazmali o'quv qo'rollari bayon qilinayotgan mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ma'ruzaning yakuniy qismi, xulosasida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

* mavzu yuzasidan asosiy xulosalar;

* ma'ruzadagi asosiy tayanch tushunchalar;

* talabalarda bilishga va o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi hamda o'zlashtiruvchilarni nazorat qilish imkonini beruvchi savollar turkumini keltirilishi;

5. Adabiyotlar ro'yxati ma'ruza mazmunini aks ettirishi lozim.

Ikkinchi guruhga ma'ruza o'qiydigan o'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar kiradi.

Ma'ruza o'qish jarayon sifatida obyektiv va subyektiv tomonlarning birligidir.

Ma'ruza o'qishning obyektiv tomoniga o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan, o'rganilayotgan fanning mazmuni, dars o'tish tamoyillari kiradi. Subyektiv tomonlariga esa:

a) o'qituvchining shu fanni qanday egallagani, bilim darajasi;

b) o'qituvchining uslubiy tayyorgarligi, metodikaning qonun-qoidalarini qo'llay bilish mahorati;

d) har bir o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida u yoki bu uslubni qo'llashdagi individual xususiyatlari kiradi.

Dars berishda pedagog subyektiv omil sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p jihatdan talabalarning o'zlashtirishi o'qituvchining dars o'tishda tanlagan metodlariga bog'liq.

Har bir o'qituvchi o'z qobiliyatini dars berishda namoyon qilib, ma'ruza va nutqida o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi. Ma'lum bir mavzuni yoritishda o'qituvchi o'zi yaxshi bilgan yoki o'zining ilmiy izlanishlari bilan bog'liq bo'lgan, lekin shu mavzuga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan savolga ko'p vaqt ajratib, qolgan savollarni ko'rib chiqish uchun vaqt yetmay qolishi mumkin. Bu — mavzuni bayon qilishda didaktikaning izchillik prinsiplarini buzilishiga olib keladi.

Shuning uchun dars o'tishdagi muhim vazifalardan biri, bu — subyektiv omillar, albatta, obyektiv omillarga bo'ysinishi, aynan shu fanning mazmunini ochib berishga xizmat qilishi kerak. Bunda, albatta, to'plangan metodik tajriba qo'l keladi.

Ma'lum bir yo'nalishga, iqtisodiyotni asosiy qonunlari, tendensiyalari, prinsiplari, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini

tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ilmiyligi jihatdan nazariya asoslarini amaliyot bilan, masalaning qo'yilishini ilmiylik bilan hamda iqtisodiyotning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondashish bilan, nazariy dalillarning mantiqiylik bilan uzviy birligi ta'minlanishi kerak.

Iqtisodiy fanlardan ma'ruza o'qish o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- 1) talabalarga iqtisodiyot fanlarining nazariy boyligini ochib berish;
- 2) dunyodagi mashhur iqtisodchilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va taniqli iqtisodchi olimlarning ishlarini chuqurroq o'rganishga yordam berish;
- 3) bir fandan olgan bilimlarini boshqa fanlarni o'rganishda ijodiy qo'llashlariga yordam berish;
- 4) talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish uchun to'g'ri yo'l topish borasida o'ziga ishonch ruhini tarbiyalash.

Ma'ruza talabalarda fanni o'rganishga qiziqish, ishtiyoq uyg'otishi kerak.

Ma'ruzani shunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o'rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlar topish, ularni ustida ishlash, tushunishga xohish-istak tug'ilsin. Shuning uchun zarur materiallar, kitoblar, jurnal va boshqa manbalarni tanlash prinsiplial ahamiyatga ega.

Ma'ruzaning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishi uning ilmiyligi bilan bog'liq. Ma'ruzachi real hayotning obyektiv tahliliga, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga, iqtisodiy hodisalar va xo'jalik hayotining omillari o'rtasidagi ichki bog'lanishlarni aniqlashga, tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabaga ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko'proq ta'sir qiladi. Har qanday fan, jumladan, iqtisodiy fanlar ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi.

Psixologlarning kuzatishlaricha bilish, o'rganish jarayoni fikrlar qarama-qarshiligi asosiga qurilsa, samarali bo'ladi. Ilmiy munozara talabalar uchun ijodiy muhit yaratadi. Iqtisodchi-pedagoglar uchun mo'ljallangan ma'ruzada munozarali savollarni qo'yish, turli nuqtayi nazarlarni bayon qilish maqsadga muvofiq. Ma'ruzachining o'zi ma'lum bir nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlar ekan, talabalarga ham ana shu qarash to'g'riligini tushuntirishi, auditoriyani ishontirishi kerak.

Ma'ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo'yilishini ko'zda tutadi. Ilmiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy hayotni tahlil qilishda tarixiylik va mantiqiylikka amal qilishni talab etadi.

Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo'llashini ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Ana shundagina mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni to'g'ri tanlashi mumkin. O'qituvchi, zarur dalillar, ma'lumotlarga ega bo'lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasa, fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o'tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu hol talabalarda ma'ruzadan qoniqmaslikka, uning ishonchliligi va tarbiyaviy ahamiyatini tushirishga olib keladi.

Nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'lanishi nihoyatda murakkab jarayon. U turli-tuman: ichki, tashqi, bilvosita va bevosita, muhim va uncha muhim bo'lmagan omillar bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham ma'ruzaga tayyorlanish paytida ana shu jarayonlarni chuqur tahlil qilishni bilish, u yoki bu hodisani rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash kerak. Mavzudan chetdagi turli-tuman misollar bilan cheklanish yaramaydi.

Nazariyani asoslash uchun xo'jalik hayotidagi turli-tuman hodisalarni ijobiy yoki salbiy misol sifatida keltirish unchalik qiyin emas. Lekin real voqelikni noto'g'ri ko'rsatish, faqat yuzaki tashqi aloqalarni ta'kidlash bilan cheklanish yaramaydi. Ular masalaning mohiyatini ifodalamaydi va ochib bermaydi.

Ma'ruzada real faktlar, ma'lumotlarning o'rni

Iqtisodiy fanlar bo'yicha o'qiladigan ma'ruzada faktlar, real ma'lumotlarning o'z o'rni bor. Chunki, ular iqtisodiy jarayon, muammolarni mohiyatini ochishga yordam beradi. Lekin ulardan mahorat bilan foydalanishgina kutilgan natijani beradi. Buning uchun qonuniy bog'lanishlar, tendensiyalarni ko'rsata oladigan raqamlarni qo'llash kerak.

Raqamlar, ma'lumotlar o'rganilayotgan predmetning mazmunini tasavvur etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Albatta, raqamlardan o'z fikrini tasdiqlash uchun foydalanish mumkin. Lekin nazariy qoidalar iqtisodiy hodisa va jarayonlar mohiyatiga tushunishda ham muhim rol o'ynashini yoddan chiqarmaslik kerak. Har bir pedagog raqamlardan yuzaki, shunchaki foydalanishdan qochishi kerak. Iqtisodchilarning fikricha, dalillar, raqamlar qayta

ishlashni talab etadigan ma'lum qurilish materiali, xolos.

Real ma'lumotlar, raqamlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- hozirgi zamon xo'jalik hayotining o'ziga xos ayrim tomonlarini ko'rsatishi, ko'z o'ngiga keltirishiga yordam berishi;
- sinchkovlik bilan ularni tanlab olish hodisani o'rganishga, uning o'ziga xos tomonlari, tutgan o'rnini aniqlashga yordam berishi;

- ma'lumotlar, dalillarni tanlayotganda xilma-xil bo'lishiga ahamiyat berish, shu bilan birga, tasodifiy faktlardan ehtiyot bo'lish kerak. Chunki ular u yoki bu hodisani mohiyatini ochib bera olmaydi, aksincha, talabalarni chalg'itishi mumkin. Shuning uchun:

- ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rganda yangiligi nuqtayi nazaridan eng so'nggi raqamlarni keltirish kerak;

- tanlangan dalillar ishonchli, sinalgan bo'lishi, hech kimda ikkilanish uyg'otmasligi;

- har qanday ma'ruzada faktlarga nazariy qoidalar mohiyatini ochishga xizmat qiladigan darajada o'rin berilishiga e'tibor qilish kerak. Agar nazariya bilan faktlar o'rtasida optimal nisbat buzilsa, talaba faktlarni chalkashtira boshlaydi. Vaholanki, ma'ruzada asosiy maqsad nazariy konsepsiyalarni talabalar ongiga yetkazishdir;

- ma'ruzada negativ faktlarni ham to'g'ri sharhlash, ularni qanday oqibatga olib kelishi, bartaraf qilish yo'llari haqida to'xtash kerak. Ma'ruzachining vazifasi negativ faktlarni e'lon qilish emas, balki ularni tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishdir.

Faktlar ma'ruzaga jonli mazmun, hayotiylik nafasini baxsh etadi, uning ahamiyati bu jihatdan behodir.

Induktiv metod ma'ruzada xususiylkdan umumiylikka, deduktiv metod esa—umumiylikdan xususiylk tomon bayon qilishni ifodalaydi.

Induktiv metod dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalar, aniq faoliyat uchun amaliy xulosalar tarzida bayon qilinsa, deduktiv metod—nazariy xulosa, umumiy, xususiy, faoliyat uchun praktik xulosa tarzida bayon qilinadi.

Talabalarning iqtisodiy fanlarni o'rganishlarida, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruzaning roli beqiyosdir. Shu bilan birga, ma'ruzaning mazmunini talabalarga yetkazishda o'qituvchining rolini uning barcha metodlar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va boshqalarni qo'llashdagi mohirligini hisobga olmay, ma'ruzaning rolini ko'rsatib bo'lmaydi.

Birinchi kursdan boshlab, xususiylkdan umumiy mantiqiy xu-

losa chiqarish o'rganilar ekan, o'qituvchi shu tizimni buzmagani holda undan fanni chuqurroq o'zlashtirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana shuni ham hisobga olish zarurki, talabalarda xulosani shoshilinch umumlashtirishga harakat qilish holati uchrab turadi. Ayrim paytlarda talabalar o'ylab o'tirmay dangal, umumlashtirib bo'lmaydigan xususiy faktlarni ham umumlashtirishga harakat qilishadi. O'qituvchi ma'ruza o'qishga tayyorlanar ekan, bu tendensiyani ham hisobga olishi zarur.

Ma'ruzada materialni qay tarzda bayon qilinishiga qarab dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalar - aniq faoliyat uchun amaliy xulosalarga kelish tarzida berilishi mumkin. Induktiv metodda ma'ruza ko'pincha qiziqarli, ko'zga tashlanadigan fakt yoki misoldan, ayniqsa, shu kunning biron dolzarb masalasi bo'lgan, auditoriyaning diqqatini jalb qiladigan masaladan boshlanadi.

Induktiv metod talabalarni xususiy kuzatuvlardan ketma-ket umumiy xulosa chiqarishga o'rganish imkonini beradi. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Deduktiv metodda esa ma'ruza umumiy nazariy masalalardan boshlanadi. Bu metod iqtisodiy fanlarning umumiy qonunlari, qoidalarini real hayotga tatbiq qilish, amaliyotda ko'rish va baholash, xo'jalik hayotida qo'llash, iqtisodiy hayot hodisalari, jarayonlarini, xo'jalik yuritish siyosatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'ruza ham induktiv, ham deduktiv metod asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Avval ishchi gipoteza, taklif shaklida auditoriyaga umumiy savol tashlanadi, so'ngra talabalarni mulohazalari dalillari, faktlari tahlil ma'lumotlari shu savolga to'g'ri kelishi birgalikda muhokama qilinadi, xulosalar chiqariladi.

Bu holda ma'ruza-asosiy g'oya, uni dalillar asosida tasdiqlash - xususiy savollarni izchillikda bayon qilish, deduktiv metodda mavzuning umumiy xarakteristikasini berish tarzida tuziladi.

Ma'ruzaning samarasini oshirishda ko'rgazmali qurollar (jadval, sxema, diagramma, grafik kabilar)ning ahamiyati kattadir. Ko'rgazmali qurollar orqali axborotni qabul qilish, mavzuni chuqurroq tushunishga, o'quv materialini xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi. Lekin ko'rgazmali qurollarga haddan tashqari berilib ketish ham kerak emas, chunki, auditoriya bilan muloqot yo'qoladi va natijada ma'ruzaning samarasi pasayadi. Ammo tanlab olingan, tayyorlangan ko'rgazmali qurollar so'zsiz ma'ruza samarasini anchagina oshiradi.

Ma'ruzaga iloji boricha talabalar diqqatini qaratish kerak. Buning uchun ma'ruzaning kirish yoki uning asosiy qismida masalaning mohiyatini ochib berishga qaratilgan savol qo'yish maqsadga muvofiq. Pedagoglar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining mavzuni bayon qilishidan avval yoki bayon qilish jarayonida savol qo'yishi, uni bayon qilib bo'lgach, qo'yilgan savoliga qaraganda to'liqroq, yaxshiroq natijaga olib kelar ekan. Chunki, ilgari qo'yilgan savol talabani javob qanday bo'lishi kerak, deb o'ylantira boshlaydi va javobni o'qituvchidan eshitishga diqqatini qaratadi.

- Ikkinchidan, ma'ruza boshlanganidan 20 -daqiqacha vaqt o'tgach, talabalar diqqati susayadi. Buni hisobga olib, har 15–20 daqiqada yoki har bir uzviy savolni bayon qilishda turli metodlardan foydalanish, talabalar diqqatini jalb qiladigan savollar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Dars berish jarayonida misol keltirganda guruhdagi talabalarga bevosita misollar keltirishi diqqatni o'ziga jalb qiladi. Masalan, «Odiljon bilan Erkinjon biznes bilan shug'ullanishmoqchi, lekin ishni nimadan boshlashni o'ylanib turishibdi. Sizningcha, ular nimadan ish boshlashi kerak?», «Dilbar doimiy o'rtacha xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan sayin kamayib boradi, deydi, Dinora esa yo'q, o'zgarmaydi, deydi. Sizningcha ularning qaysi biri haq?» singari murojaatlar jonli muloqotga boshlaydi.

Boshqa o'quv shakllariga qaraganda ma'ruzachining ma'ruzasini his-hayajon, jo'shqinlik bilan bayon etishi muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi his-hayajonini o'zgartirish, mimikasi orqali talabalarni darsga qiziqishini kuchaytirishi yoki aksincha, susaytirishi mumkin.

1. Ma'ruzaning emotsional ta'siri o'qituvchining ma'ruza materialini erkin bayon qilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Erkin bayon qilish orqali auditoriya bilan bog'lanish yaxshilanadi. Talabalarning aks tasirini kuzatish imkoni vujudga keladi. Og'zaki nutq xususiyatlari, ya'ni dialogdan foydalanish mumkin bo'ladi.

Aksincha, ma'ruza matniga qarayverish auditoriya bilan kontakt o'rnatishni qiyinlashtiradi, uni buzadi, chunki yozma nutq, odatda, monolog tarzida bo'ladi. Bu yerda gap faqat ma'ruzachining tayyorlangan materialni erkin egallagan bo'lishi, matnni zerikarli tarzda o'qimasligi haqida bormoqda.

2. Og'zaki nutq, ya'ni ma'ruza tushunarli, eshitib, qabul qilishga oson, qisqa jumalardan tuzilgan bo'lishi kerak, chunki uzun, murakkab jumalar fikrni xiralashtiradi. O'qituvchi bayon qilinayotgan materialni yaxshi bilishidan tashqari o'z ovozi ham nazorat

qilishi zarur. Intonatsiyani goh baland, goh past qilib nutq o'zgartirish orqali talabalar diqqatini tortish, o'z vaqtida pauza va boshqa intonatsiyalardan ham foydalanish zarur.

3. «Erkin manera» tarzida dars berish, ma'ruzachining auditoriyada u yoqdan bu yoqqa yurishi talabalarni diqqatini tortadi va tushunishni qiyinlashtirib, ularni mavzudan chetlashtiradi. Pedagog o'zining «ish zonasi»ga ega bo'lishi, undan foydalanishni bilishi kerak.

4. Ma'ruzachi o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor berishni yoddan chiqarmasligi zarur.

5. Ma'lumki, ma'ruzaning jo'shqinligi, ma'lum darajada uning yorqinligiga bog'liq. Jo'shqin, ma'noli nutq faqat aniq misollar bilanlangina emas, balki maqol, matal, badiiy obrazlar bilan boyitilishi zarur. Bu hol ma'ruzani qiziqarli qilib, talabalar diqqatini jalb etadi.

Shunday qanotli so'zlar ham bo'ladiki, ular nihoyatda ajablanarli darajada nishonga tegishi bilan murakkab hodisalar mohiyatini ochib beradi. Faqat ana shu badiiy so'z, maqollar, matallar bayon qilinayotgan material bilan bir butunlikni tashkil qilishi zarur. Masalan, me'yoriy naflilikni tushuntirganda talabalarga «Me'yoriy naflilik mazmunini ifodalovchi qanday maqolni bilasiz?» — deb murojaat qilish yoki «Naflilikni darajasi pasayib borishi qonunini ifodalovchi qanday maqolni bilasiz? Naflilik tovarning narxini shakllanishida qanday rol o'ynaydi?» yoki «Hisobini bilmagan, hamyonidan ayrilar» maqoli nimaga ishora qilyapti? deb murojaat qilish mumkin. Birinchisida talabalardan «holvaning ozi shirin», ikkinchisida «oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», uchinchisida, «hisob-kitobning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi» javobini olishga ahamiyat berish yoki maqolni bayon qilib, uni bayonini talabalar bilan birgalikda naflilik nazariyasi bilan yoki xarajatlar, foyda va boshqalar hisob-kitobi bilan bog'lash mumkin.

6. Ma'ruzaning to'g'ri tuzilishi, darsning har bir minutidan samarali foydalanish mashg'ulotlarning muvaffaqiyatini taminlaydi.

7. Auditoriya bilan «qayta aloqa» o'rnatishda talabalarning savoli va o'qituvchining javobi muhim rol o'ynaydi. Odatda, ko'pincha ma'ruzaning oxirida savollarga vaqt ajratiladi, lekin bu ma'ruza jarayonida savol berilmaydi, degani emas.

Savollarga javob berganda javobning qisqa, asoslangan bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Agar savol qo'shimcha dalillarni talab etadigan bo'lsa, buni ochiq aytish mumkin, (aytaylik, statistik

ma'lumotlar shu daqiqada yo'q bo'lsa) sababini ko'rsatib, kelgusi darsda javob berishga va'da qilsa, buning aybi yo'q. Agar savol individual tarzda bo'lsa, ma'ruzadan so'ng yoki maslahat darsida javob berish mumkin.

Savol-javobda o'qituvchining nutq ohangidan doimo xayrixohlik sezilib turishi, savoldan salbiy munosabat sezilmasligi kerak, aks holda auditoriyaning ishonchi yo'qoladi.

8. Har qanday sharoitda (tashqaridagi shovqin-suron, eshik ortidagi g'ala-g'ovur, qurilish va hokazo) o'qituvchi o'zini tuta bilishi lozim.

9. Nutqda taqliddan qochish, bir gapni bir necha marta takrorlamaslik kerak.

10. Nutqda siyqasi chiqqan so'zlarni imkon qadar ishlatmaslik zarur.

Albatta, ideal tarzda ma'ruza o'qib bo'lmaydi. Lekin har bir o'qituvchi o'zining barcha imkoniyatini, mahoratini ishga solib, dars o'tishi shubhasiz, ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ustun bo'lishiga olib keladi.

Ta'lim tizimidagi o'rniga ko'ra, ma'ruzalar – mavzuni, bo'limni, kursni o'rganishni boshlovchi yoki ta'limning ma'lum bir bosqichini tugallovchi ma'ruzalarga bo'linadi.

Axborotni talabalarga yetkazish nuqtayi nazaridan monolog yoki dialog tarzida o'tkazilgan ma'ruzalar bo'ladi. Monolog tarzidagi ma'ruzada asosan ma'ruzachi gapiradi, ko'rsatadi. Tinglovchilar ma'ruza o'qish jarayoniga sust ishtirok etadilar. Aksincha, dialog tarzidagi, tinglovchilarning ham fikrini eshitgan holda o'tkaziladi-gan ma'ruzalar jonli bo'lish unda tinglovchilar faolligi ta'minlanadi.

Ta'lim berishning asosiy metod va usullariga ko'ra, ma'ruzalarni-axborot beruvchi, muammoli, jadallashtirilgan, binar (bir-biridan farq qiluvchi ikki xil fikr bildiriluvchi), avvaldan ataylab xato fikr ham bayon qilinishi rejalashtirilgan, maslahat ma'ruzalariga bo'lish mumkin.

Hozirgi paytda nisbatan ko'p qo'llaniladigan yoki borgan sari ommalashib borayotgan ma'ruza shakllari: axborot beruvchi, muammoli va jadallashgan (chuqurlashtirilgan) ma'ruzalar bo'lib, ulardan hozirgacha eng ko'p qo'llaniladigani axborot beruvchi ma'ruzadir. U an'anaviy metodga asoslangan bo'lib, asosiy vazifa o'quv axboroti – mavzuning mazmunini talabalarga bayon qilish, tushuntirishdan iborat. Unda o'qituvchi asosan bilim beruvchi rolini bajaradi. Bu monolog tarzida bayon qilinadi.

Mamlakatimizda 80-yillardan boshlab ma'ruzalarni muammoli tarzda bayon qilishga e'tibor berila boshlandi. Bundan maqsad yangicha bilim olish, ya'ni yangi mavzuni o'rganish, muammoli savollar, masalalar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshiriladi. Bilish jarayoni dialog tarzida amalga oshirilib, o'qituvchining faoliyati talabalar bilan hamkorlikda kechadi. Dars tadqiqot faoliyatiga o'xshab ketadi. Dars o'tishda pedagogik vazifa — yangi mavzuni muammo sifatida o'rta qo'yib, turli nuqtayi nazarlarni hisobga olgan holda, uni yechish yo'llarini topish orqali uddalanadi. -

Hozirgi kunning talablaridan kelib chiqib, darsda talabalar faolligini oshirishga qaratilgan chuqurlashtirilgan (jadallashtirilgan) ma'ruza metodini qo'llash borgan sari ommalashmoqda.

2-§. Ma'ruza matnini tayyorlash

Ma'ruza matni har bir fanning ishchi o'quv dasturi asosida, mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, tayyorlanadi. Buning uchun mavjud adabiyotlar o'rganiladi, turli manbalardan axborotlar yig'iladi.

Mavzuni o'rganishning maqsadidan kelib chiqib, zarur savollar qo'yiladi, mavzuni yoritish metodi tanlanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha fanlar uchun asos bo'lishini hisobga olib, namunaviy ma'ruza matni shu fandan beriladi. Ma'ruza o'qilayotgan iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqanda ma'ruzada ma'lum bir farqlar bo'lishi mumkin, lekin ma'ruzaning asosiy mohiyati o'zgarmaydi.

An'anaviy ma'ruza matni

Mavzu: «IQTISODIY RESURLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI»

Kirish

Ilgarigi mavzuda iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi, iqtisodiyot nazariyasi fani nimani o'rganishi, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, fanni o'rganish uslublarini ko'rib chiqdik. Iqtisodiyot nazariyasi barcha iqtisodiy fanlarning poydevori ekanligini, u bajaradigan vazifalarni o'rgandik. Bugungi darsimiz «Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari» mavzusiga bag'ishlanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'rganishni aynan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlardan boshlashimiz bejiz emas. Chunki, inson yashar ekan, uning ehtiyojlari mavjud. Insonning butun umri ana shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Odamlar doimo goh u yoki bu narsani yetishmasligidan shikoyat qilishadi. Vaqtimiz yetmaydi, pulimiz yetmaydi va hokazo. Bunga sabab nima? Hech o'ylab ko'rganmisizlar?

Bugungi o'tiladigan mavzuda ana shu savollarning javobini topishga harakat qilamiz. Mavzu ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, ularning tarkibi, ehtiyojlarning cheksizligi, bu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan ne'matlarning ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarning cheklanganligi muammolarini o'rganishga qaratilgan.

Resurslarning cheklanganligi tanlash va qaror qabul qilish zaruratini ko'ndalang qilib qo'yadi. Shuning uchun ham har bir qadamimiz tanlash va qaror qabul qilishimiz bilan bog'liq. Har bir kishining hayoti, iqtisodiyotning, qolaversa, butun jamiyatning taraqqiyoti qabul qilgan qarorimizga, ya'ni turli variantlardan nimani tanlashimizga bog'liq. Bugungi mavzu ana shu masalalarni ham o'rganishga qaratilgan. Keyingi mavzularda esa qanday qilsak, boshqacha aytganda, qanday qarorga kelsak to'g'ri yo'lni tanlashimiz mumkinligini o'rganamiz. Bugungi ma'ruzada qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi uzviy savollarni muhokama qilamiz.

Reja:

1. Ehtiyojlar va ularning tarkibi.
2. Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalib borishi qonuni.
3. Resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarni qondirish. Iqtisodiyotning bosh muammosi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // «Xalq so'zi», 2006-yil 11-fevral.

3. Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. // «Xalq soʻzi», 2009-yil 14-fevral.

4. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. T.: «Oʻzbekiston», 2009.

5. Makkonnell K., Bryu S. Ekonomiks, gl. 2. M.: «Infra-M», 1999.

6. «Maʼnaviyat, ilmu fan va iqtisodiy bilim yoshlar tarbiyasiga xizmat qilsin» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2004-yil 25-noyabr, T., 2004-y.

7. Тезисы и доклады международной научно-практической конференции на тему: «Социально-экономические проблемы переходной экономики». (Опыт, обобщения, закономерности). Санкт-Петербург, 2005.

8. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Oʻquv qoʻllanma, T.: «Oʻqituvchi», 2002-y.

9. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика, ч.I. M.: «Дело», 1999.

10. Shodmonov Sh., Alimov R., Joʻrayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Oʻquv qoʻllanma, T.: «Moliya», 2002-y.

11. Oʻlmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: «Sharq», 2006-y.

12. Oʻzbekiston iqtisodiyoti. Uzbekistan в цифрах. Статистический сборник. T., 2008.

Maʼruza oʻqishda qoʻllaniladigan koʻrgazmali qurollar:

1. Ishlab chiqarish resurslari tasnifi, chizma.
2. Mavjud resurslarni toʻla ishlatish sharoitida guruch va avtomobil ishlab chiqarish, jadval.
3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi, chizma.

Asosiy qism:

1. Ehtiyojlar va ularning tarkibi.

Kishilik jamiyati, albatta, insonlardan tarkib topgan. Inson esa barcha jonzotlarning eng oliysi. U boshqa jonzotlardan oʻzining aql-idroki bilan ajralib turadi. U hayot kechirish uchun turli ehtiyojlarini qondirishi shart, chunki busiz inson yashay olmaydi.

Insonlarning yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun zarur boʻlgan barcha neʼmatlar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi. Inson oʻz ehtiyojlarini qondirish yoʻlini qidiradi. Ehtiyoj-

larni qondirishi zarurligi, ya'ni yashash uchun kurash uni faollikka undaydi.

Har bir inson uchun o'zining qadr-qimmat o'lchovi mavjud. Bir inson tomonidan qadrlangan, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa ikkinchi bir kishi uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ahamiyat nuqtayi nazaridan ehtiyojlarni tartibga solish qiyin. Insonlar uchun eng zarur va qimmatli qadriyatlarini, ashyolarni sanog'iga yetish qiyin. Har bir inson o'ziga nimalar zarurligini o'zi belgilaydi.

XX asr ko'pincha «axborot asri» deb atalgan. XXI asrga kelib axborotning ahamiyati yanada ortdi. Axborotni biz turli-tuman manbalardan, masalan: radio, televidenie, gazeta va jurnal, kitob, global kompyuter tarmog'i—internet kabilardan olamiz. Shu bilan birga «an'anaviy» axborot manbalari ham mavjud. Ular ota-ona, qarindosh-urug', do'st-birodarlar, qo'ni-qo'shnilar, tanishlar, tasodifiy uchrashgan odamlar va hokazo. Bizning atrofimizni o'ragan olamni, tabiatni kuzatib, yangi-yangi ma'lumotlar, yangi axborot olamiz. Inson-axborot qabul qilish manbai. Chunki, aynan **axborot bizni barcha ehtiyojlarimizni shakllantiradi.**

Bizning barcha odatlarimiz, his-tuyg'ularimiz, bilim va hayotiy tajribamiz, fikr-mulohazalarimiz xohish-istaklarimiz - asosida axborot yotadi. Yangi axborot yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Axborot insonni beixtiyor harakatga solishi yaratuvchanlikka boshlashi mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti, yangi-yangi kashfiyot ixtirolar tufayli yangi tovarlar ishlab chiqarilib, xizmatlar ko'rsatilmoqda. Masalan, kompyuter, qo'l telefoni singari tovarlar bo'lmagan. Demak, bunday ehtiyoj ham bo'lmagan.

Ilgaridan mavjud bo'lgan tovarlarning xususiyatlarini bilmagan odamga, bu haqda yangi axborot olishi tufayli yangi ehtiyojlar vujudga keladi. Masalan, an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlari — sabzavotlar, mevalar, vitaminlarning xususiyatlari to'g'risidagi yangi ma'lumotlar, bo'lmasligi mumkin. Ular to'g'risidagi axborot bunday mahsulotlarning tarqalishiga yordam beradi.

Kishilar hayotida yangi vaziyat, yangi muammolar paydo bo'lishi natijasida ham yangi ehtiyojlar ham vujudga keladi. Masalan, oilada farzand tug'ilishi natijasida chaqaloq uchun zarur buyumlarga, kasal bo'lganda doriga, kasbini o'zgartirganda ish qurollariga zaruriyat paydo bo'ladi. Xullas, inson hayoti davomida yangi-yangi axborotlar oladi, unga muvofiq ravishda ehtiyojlar vujudga keladi. Har kishi avvalo axborotga ega bo'ladi so'ngra, shu

axborotdan foydalanish uchun tegishli qarorga keladi.

Ehtiyojlar nihoyatda turli-tumandir. Ularga turli jihatdan yondashish mumkin. Ko'pgina, iqtisodchilar u yoki bu xususiyatlariga ko'ra ehtiyojlarni turli guruhlariga ajratib, tushuntirishga harakat qilishadi. Alfred Marshall nemis iqtisodchisi Germanning fikriga asoslanib, ehtiyojlarni absolyut va nisbiy, minimal va maksimal darajadagi ehtiyoj, qondirilishi zarur va qondirilishi kechiktirsa bo'ladigan, bevosita va bilvosita qondiriladigan ehtiyojlar, joriy va kelajakda qondiriladigan ehtiyojlarga bo'ladi. Ayrim adabiyotlarda ehtiyojlar: birlamchi - eng zarur ehtiyojlar va ikkilamchi - qondirilishi kechiktirsa mumkin bo'ladigan ikkinchi darajadagi ehtiyojlarga bo'linadi. Birlamchi ehtiyojlarga insonning eng zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa shunga o'xshash ehtiyojlari, ikkilamchi ehtiyojlarga insonning ma'naviy, intellektual faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bilim olish san'ati, turli ko'ngil ochar tadbirlarga qatnashish ehtiyojlarini kiritish mumkin. Lekin bunday tabaqalash shartlidir. Zarurat har bir inson uchun individual muammo bo'lib, bir inson uchun kiyim-kechak, turarjoy birinchi zarurat bo'lsa, boshqasi uchun bular shunday zarurat bo'lmasligi mumkin. Birov uchun kiyim-kechakdan ko'ra bilim olish zarurroqdir. Ba'zi kishilar uchun hatto ma'naviy boylik hasham bo'lsa, boshqasi uchun kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyoj bo'lish mumkin.

Inson ehtiyojlari tarkibiga turli jihatdan yondashib, uni har xil guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ehtiyojlar subyektlariga¹ ko'ra:

a) individual;

b) guruh;

d) umumjamiyat ehtiyojlariga bo'linadi.

Individual ehtiyoj — bu har bir inson uchun bo'lgan zaruratni ifodalaydi. U fiziologik ehtiyojlar, ijtimoiy kontaktda bo'lish, o'zining har tomonlama kamol topishiga bo'lgan ehtiyojlar va boshqalarini o'z ichiga oladi.

Guruh ehtiyoji — bu oila yoki bir to'p kishilarning biror maqsadda birlashgan guruhlarini (mehnat jamoasi, turli uyushmalarning) ehtiyojlari bo'lib, birgalikda yashash, faoliyat yuritish jarayonida vujudga keladigan umumiy ehtiyojlardir. Bularga

¹ Lotinchadan olingan «subyekt» so'zi — ega, «obyekt» esa predmet ma'nosini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ko'rsatilishicha, subyekt, aql-zakovat, iroda egasi, borliqni bilishga, o'zgartirishga qodir, faollik bilan harakat qiladigan shaxs yoki guruhdir.

hududiy ehtiyojlarni ham misol keltirish mumkin. Masalan, tuman, viloyat, ayrim hududda yashovchilar ehtiyoji va hokazo. Guruhlar ehtiyoji, umuman olganda, mulkning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi bilan bog'liq.

Umumjamiyat ehtiyoji – bu mamlakat miqyosida, qolaversa, yer kurrasi miqyosida insonlarning shakllangan tarkib topgan ehtiyojlaridir. U o'z ichiga birinchidan, barcha turdagi individual va guruh ehtiyojlarini olsa, ikkinchidan jamiyatni yaxlit organizm sifatida yashab turish uchun zarurdir. Bularga tabiiy resurslarni asrash, tinchlik, jamiyatni boshqarish va hokazolarni kiritish mumkin. Jamiyatning ehtiyoji turli ijtimoiy toifa va guruhlarga mansub kishilar ehtiyojining yaxlitligi sifatida namoyon bo'ladi. Tabaqalanish darajasiga qarab ehtiyojlar ham farqlanadi.

2. Ehtiyojlar obyektiga¹ ko'ra: moddiy ehtiyojlar, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarga bo'linadi.

Moddiy ehtiyojlar azaliy bo'lib, ular inson bilan birga vujudga kelgan. Moddiy ehtiyojlar eng zarur va hayot uchun kerakli ashyolardir. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, transport va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Ular yashashning birlamchi shartidir.

Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar azaliy bo'lmay, jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida, sivilizatsiya paydo bo'lishi bilan yuzaga keldi. Jamiyat rivojlangan sari bunday ehtiyojlar tabiiy zaruratga aylana boradi. Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar, asosan, turli xizmatlardan foydalanishga bo'lgan zaruratlar tarzida yuzaga chiqadi. O'qituvchi, shifokor, san'at arbobi, sport va boshqalar xizmatidan foydalanib, inson axloqiy, ma'naviy, estetik, jismoniy jihatdan tarbiyalanadi, bilim oladi, kasb egallaydi, har tomonlama kamol topadi. Bu ehtiyojlar hayotning turli bosqichlarida o'zini namoyon etadi.

3. Faoliyat doirasi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar jihatidan mehnat qilish, atrofdagilar bilan muloqotda bo'lish, dam olish, ish qobiliyatini tiklash, iqtisodiy faoliyat yuritish kabilarni o'z ichiga oladi.

Mehnat ehtiyoji insonning yashash uchun kurashi zamirida mujassamlashgan. Mehnatsiz inson yashay olmaydi, chunki mehnatsiz nozu ne'matlar yaratib bo'lmaydi. Mehnat ehtiyoji insonda ijod qobiliyatini shakllantiradi. Inson mehnatda o'z o'rnini topishi, o'z qobiliyatini ishga solib, obro'-e'tibor qozonishga harakat qiladi. Inson yashar ekan doimo boshqalar bilan muloqotda

¹ Obyekt esa kishining faoliyati, diqqat-e'tibori jalb etilgan predmet, hodisa.

bo'lishga ehtiyoj sezadi. Inson mehnat qilar ekan, albatta ish qobiliyatini tiklash uchun dam olishi, turli ko'ngilochar tadbirlarda qatnashishi zarur.

4. Ehtiyojlarga ular qay tarzda qondirilishi jihatidan qaraganda, yakka va birgalikda qondiriladigan ehtiyojlar ko'zga tashlanadi. Har inson o'z ehtiyojlarining bir qismini yakka tartibda, ikkinchi qismini esa boshqalar bilan birgalikda qondiradi. Masalan, kiyim kiyishga bo'lgan ehtiyoj yakka tartibda, bilim olishga bo'lgan ehtiyoj birgalikda qondiriladi.

5. Ehtiyojlarni qondirishdan qanday maqsad ko'zlanganiga qarab, ularni: shaxsiy ehtiyojlar va ishlab chiqarish ehtiyojlariga bo'lish mumkin. Boshqacha aytganda, iste'mol tovarlari va iqtisodiy resurslarga ehtiyoj. Birinchisi insonning bevosita ehtiyojlari bo'lib, uning hayot kechirishi, har tomonlama kamol topishiga qaratilgan. Ishlab chiqarish ehtiyojlari esa inson uchun bilvosita zaruratlar bo'lib, uning yordamida inson yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan turli ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur investitsion tovarlar yaratiladi.

Ehtiyojlar qanday guruhlarga bo'linmasin, ularga qay jihatdan yondashilmasin, bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisini taqozo qiladi hamda **yagona umumjamiyat ehtiyojlari tarzida shakllanadi.**

Jamiyatning umumiy ehtiyojlari tarkib topishi va rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni umumiy tarzda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Aholi soni, yoshi, jinsi.
2. Tabiiy-geografik sharoit.
3. Tarixiy milliy an'analar va odatlar.
4. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti.
5. Madaniy jihatdan erishilgan daraja.

Jamiyat har xil odamlardan tarkib topar ekan, albatta, ularning har birining ehtiyoji shakllanishiga ta'sir etadigan obyektiv va subyektiv omillar mavjud.

2. Ehtiyojlar cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalib borish qonuni

Kishilik jamiyati taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz ehtiyojlarni beto'xtov yuksalib borishini ko'ramiz. Ehtiyojlarning uzluksiz o'zgarib turishi va o'sib borishi har qanday jamiyatga xosdir. Fanda inson ehtiyojining cheksizligini, uning doirasi doimo kengayib borishi allaqachonlar aniqlangan. Ehtiyojlarning chegarasi yo'qligi xalqimizning «Insonning ko'zi tuproqqa to'lgandagina to'yadi» degan naqlda yaqqol ifoda etilgan. Hozirgi nazariyachilar—ehtiyolar

cheksiz, ular o'sishining to'xtashi, jamiyat hayotining to'xtashini bildiradi, deya e'tirof etishadi. Ehtiyoj o'smaganda edi, ishlab chiqarishni taraqqiy ettirishga zarurat bo'lmas edi.

Ehtiyojlar doirasining to'xtovsiz kengayib borishi ikki yo'nalishda amalga oshadi.

a) Kishilarning ehtiyoji miqdoran o'sib boradi. Bu, bir tomondan aholi sonining ko'payib borishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, iste'molning ko'payishi bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonda aholi soni 1990-yilga nisbatan hozirgi paytga kelib, 1,2 marta ko'paydi. Agar individual ehtiyoj o'zgarmadi, deb hisoblaganimizda ham, jamiyat miqyosida ehtiyojlar 1,2 martaga ortgan. Masalan, har 100 oilaga to'g'ri keladigan yengil avtomobillar soni 1,3 martaga ko'paydi. Demak, avtomobillardan foydalanish bilan bog'liq ehtiyojlarimiz ham shunchaga ko'paydi.

b) Ehtiyojlar ko'payar ekan uning tarkibi o'zgarib boradi. Ayrim ehtiyojlar yo'qolib, o'rniga yangisi paydo bo'ladi. Lekin yo'qolib ketadigan ehtiyojlarga qaraganda yangi vujudga keladiganlari ko'p bo'ladi. Ishlab chiqarishning o'zi ehtiyojlarning o'sishiga, ular tarkibini o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, XX asrning 40-yillarida odamlar televizor nima ekanini bilishmagan. Hozirgi paytda har bir xonadonda, ayrim xonadonlarda esa ikki-uchtadan televizor bor.

Demak, ehtiyojlar borgan sari tarkiban yangilanib, ko'payib sifat jihatdan o'zgarib boradi.

Birinchidan, ishlab chiqarish orqali turli ne'matlar yaratiladi va shu ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga imkon yaratiladi. Ehtiyojni qondirilishi o'z navbatida yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Masalan, avtomobil sotib olib ehtiyojni qondirilishi o'z navbatida qator yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Ya'ni mashina turadigan joy, yonilg'i, ehtiyot qismlar kerak, sug'urtaga ehtiyoj seziladi.

Ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi, aholi turmush tarzi ham ehtiyojlarni tubdan o'zgartiradi. Yangi ixtiro qilingan texnikani ishlab chiqarish, ularga ehtiyojni vujudga keltiradi. Ularni odamlar sotib olishga harakat qiladilar. Bunga kir yuvish mashinasi, video magnitafon va boshqalarning ixtiro qilinishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Uchinchidan, ishlab chiqarish maishiy hayotni yaxshilaydi. O'ddiygina misol. Ibtidoiy odamlarning ovqat tayyorlashi bilan hozirgi zamon ovqat tayyorlash texnologiyasi tubdan farq qiladi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlarni shakllantirar ekan, o'z navbatida ehtiyojlar ham ishlab chiqarishga ta'sir etadi:

1. Ehtiyojlar yaratuvchanlik faoliyati kengaytirishga sabab bo'ladi.

2. Inson ehtiyojlarining miqdor va sifat jihatdan tez o'zgarishi ishlab chiqarishni unga moslashishiga undaydi.

3. Ehtiyojlar avangardlik rolini o'ynaydi, pastdan yuqoriga intiladi.

Butun iqtisodiyot tarixini ma'lum ma'noda ehtiyojlarning shakllanishi tarixi tarzida tasavvur etish mumkin. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi darajasiga, ehtiyojlar va ishlab chiqarishning bir-biriga ta'siri asosida erishilgan.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlarning yuksalib borishi qonunida o'z ifodasini topadi. Bu qonun **ishlab chiqarish va madaniyatning rivojlanishi bilan inson ehtiyojlarining yuksalib borishini, uning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishini ifodalaydi.**

Bu qonun ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rtasida bog'lanishlar mavjudligini va bunday munosabat barqaror, doimo bo'lishini ko'rsatadi. Ehtiyojlar cheksizligi ko'proq, ijtimoiy - ma'naviy zaruratlariga taalluqlidir.

Adam Smit «ovqatga intilish har bir odamda kishi oshqozonini kichik sig'imi bilan cheklanadi, lekin qulayliklarga hamda uy-joy, kiyim-kechak, uy sharoiti va anjomlarni bezashga intilish aftidan cheksiz yoki muayyan chegaralarga ega bo'lmasa kerak» deb ta'kidlagan. Komfort (qulaylik) umuman tugamaydigan cheksiz narsa, degan Gegel.

Ehtiyojlar o'zgarishini o'rganishda statistika iste'mol tovarlarini asosan uch guruhga bo'ladi:

a) oziq - ovqat mahsulotlari;

b) nooziq - ovqat tovarlari;

d) uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar.

Ehtiyojlar qondirilishi iste'molda o'z ifodasini topadi. Iste'molning tarkibi va miqdori, uning o'zgarishi jamiyat taraqqiyotiga, yaratilgan YaIM va ishlab chiqarish bilan moslashishiga bog'liq.

3. Resurslar cheklanganligi va ehtiyojlarni qondirish — iqtisodiyotning bosh muammosi

Iqtisodiyot nazariyasi asosini ikki: ehtiyojlarning cheksizligi va ularni qondirish uchun zarur tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat


ko'rsatish uchun kerakli resurslarning cheklanganligi muammolari qamrab oladi. Yer yuzida aholi bugunga kelib 6 milliard kishidan oshdi. Yerdagi tabiiy boyliklar, ekin maydonlari, o'rmonlar, qazilma boyliklar, chuchuk suv va o'simlik, hayvonot dunyosi miqdori cheklangan. Ular kamayib borayapti. Sarf etilgan yer osti boyliklarini umuman qayta tiklab bo'lmaydi.

Ma'lumki, ehtiyojlarni qondirishning yagona yo'li—ishlab chiqarishdir. Buning uchun esa turli-tuman resurslar kerak. Resurslar deganda turli ehtiyojlarni qondiradigan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladigan tabiat tomonidan yoki odamlar tomonidan yaratilgan ne'matlarni va mehnatga layoqatli kishilarni tushunamiz. Bu resurslar moddiy va mehnat resurslariga bo'linadi.

1. **Moddiy resurslar** tabiiy va mehnat bilan yaratilgan resurslarga bo'linadi. Tabiiy resurslarga yer, foydali qazilmalar singari boyliklar kiritilsa, mehnat bilan yaratilgan resurslarga kapital kiradi. U bino-inshoot, asbob-uskuna, mashina, mexanizmlar, har xil qurilma, xomashyo, materiallari kabilarni o'z ichiga oladi.

2. Mehnatga layoqatli, ma'lum malaka va mahoratga ega kishilar mehnat resurslari hisoblanadi.

Ko'rgazmali material



1-sxema.

Keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy va axborot resurslarini alohida ajratib ko'rsatishmoqda.

Moliyaviy resurslar jamiyat tomonidan ishlab chiqarishga, uning rivojlanishi uchun ajratilgan pul mablag'laridan iborat. Uning manbalari qimmatbaho qog'ozlar, soliqlar, pul jamg'armalari, davlat zayomlari kabilardir.

Bozor iqtisodiyoti fan-texnika inqilobi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar axborotlar va resurslarsiz «qo'l-oyoqsiz» bo'lib qoladi. **Axborot resurslari** turli-tuman, bo'lib, uning muayyan asosiy qismini kompyuter texnikasi yordamida avtomatlashtirilgan boshqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tashkil qiladi.

Har bir resurs, undan ishlab chiqarishda foydalangandagina samara beradi. Resurs keltiradigan natijaning o'z chegarasi bor. Har qanday resursdan eng yaxshi, oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma'lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo'lmaydi. Masalan, yaxshi natijaga erishish uchun har qancha harakat qilingan taqdirda ham 1 tonna rudadan - 1 tonna metall olib bo'lmaydi. Mavjud resurslardan ma'lum miqdor va turdagi mahsulot ishlab chiqarish mumkin.

Zarur resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish imkoniyati deganda nimani tushunamiz? Ishlab chiqarish imkoniyati deb, mavjud iqtisodiy resurslardan to'la foydalanish evaziga eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish tushuniladi.

Har bir xo'jalik, korxonalar, firma, tarmoq, mamlakat o'zining ana shunday chegarasiga ega. Resurslardan foydalanish darajasiga qaragan korxonalarining tovarlar bo'yicha ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi ham turlicha bo'lishi mumkin.

Ehtiyojlar doimo kengayib borishi, resurslarning esa cheklanganligi sababli zaruratni to'la qondirish uchun kerakli miqdorda tovar ishlab chiqarishning imkoni yo'q. Shuning uchun har bir kishidan tortib jamiyat miqyosigacha cheklanganlik muammosiga duch kelinadi. Cheklanganlik esa har qadamda bizni izlanishga, tanlashga majbur qiladi.

Oila budjetining cheklanganligi turmush uchun nimani xarid qilishni, resurslarning cheklanganligi qaysi ashyolarni sotib olish va qanday tovar (xizmat)larni ishlab chiqarishni, davlat budjetining cheklanganligi mablag'larining qaysi maqsadlar uchun ishlatishni tanlashni zarur qilib qo'yadi. Masalan, talaba o'z vaqtini dars tayyorlashga yoki dam olishga sarflashi mumkin. Dehqon o'z yeriga piyoz yoki deydik, kartoshka ekishi mumkin. Tadbirkor o'z puliga yangi asbob-uskuna yoki xomashyo sotib olishi mumkin. Viloyat budjetidan mablag'ni yangi maktabga yoki ko'prik qurishga sarflash mumkin va hokazo.

Ana shu imkoniyatlardan birini tanlash qolganlaridan voz kechishga olib keladi yoki birining miqdorini ko'proq tanlasak, ikkinchisining miqdorini kamroq tanlashimizga to'g'ri keladi. Tanlash asosida esa qaror qabul qilamiz. Qarorni esa tanlovning muqobil qiymatini taqqoslash asosida chiqaramiz.

Tanlovning muqobil qiymati nimani ifodalaydi? *Tanlovning muqobil qiymati deb, tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan tanlovchi uchun eng katta naf keltiruvchi yoki qadrlanuvchi imkoniyatga aytiladi.* Masalan: sizga kitob, daftar, flomaster kerak. Eng zaruri kitob bo'lsa, ikkinchi navbatda daftar, uchinchi navbatda flomaster tursin. Pulingiz - hammasini kerakli miqdorda sotib olishga yetmaydi. Kitob sotib oldingiz. Uning muqobil qiymati daftar bo'ladi. Bordi-yu, daftardan ko'ra flomaster zarurroq bo'lsa, u holda kitobning muqobil qiymati flomaster bo'ladi. Agarda har biridan ma'lum miqdorda sotib olinsa, murosali tanlov amalga oshirilgan bo'ladi. Demak, tanlov har bir kishining manfaatidan va imkoniyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. **Manfaatda ehtiyoj gavalansa, imkoniyatda resurslar cheklanganligi ifodalanadi.** Voz kechilgan imkoniyat esa tanlov haqi bo'ladi.

Muqobil qiymat – doimiy, o'sib boruvchi, pasayib boruvchi bo'lishi mumkin.

Ilmiy abstraksiya usulini qo'llab, ana shu imkoniyat chegarasini ikki tur mahsulot ishlab chiqarish modeli asosida tahlil qilamiz. Ikki xil mahsulot – guruch yetishtirish va avtomobil ishlab chiqariladi, deylik. Hamma resurslarni pulda ifodalasak, 100 birlik (100 milliard so'm, dollar, marka) deylik. Guruch yetishtirish uchun 2 birlik, avtomobil ishlab chiqarish uchun 4 birlik zarur. Agarda guruchni X, avtomobilni Y bilan belgilasak, mavjud resurslardan foydalanib ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'lanish quyidagicha bo'ladi.



$$2X+4Y=100$$

Mavjud resurslarni to'la ishlatish sharoitida guruch va avtomobil ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi

Mahsulot turlari	Muqobil ishlab chiqarish					
	A	B	S	D	ye	G
Guruch (ming tonna) «X»	0	10	20	30	40	50
Avtomobil (ming dona) «Y»	25	20	15	10	5	0

Ko'rinib turibdiki, agarda, guruch yetishtirmay, faqat avtomobil ishlab chiqarsak, u 25 mingta, faqat guruch yetishtirsak 50 ming tonnaga teng bo'lar ekan. Birinchisini ishlab chiqarishni ko'paytirish, albatta ikkinchisini kamayishiga olib keladi.

Jadval ma'lumotlari asosida grafik chizsak, u quyidagi ko'rinishda (a rasm) bo'ladi.



Ko'rinib turibdiki, mavjud resurslardan maksimal foydalanib, turli kombinatsiyada guruch bilan avtomobil ishlab chiqarish mumkin ekan.

AG chizig'ini ishlab chiqarish imkoniyatlari **egri chizig'i** yoki **transformatsiya egri chizig'i** deb ataladi. Bu egri chiziq odatda qavariq shaklida (b rasm) bo'ladi. Sababi, real hayotda ishlab chiqaruvchilarning soni ko'p, ularning imkoniyatlari farq qiladi; ikkinchidan chiqariladigan mahsulotlar nihoyatda xilma-xil; uchinchidan, ko'pincha muqobil qiymat o'sib yoki kamayib boruvchi bo'ladi.

Mamlakatda:

A) Guruch yetishtirishni 0 dan 10 ming tonnaga yetkazilishi avtomobil ishlab chiqarishni 5 ming donaga kamayishiga olib keladi. 10 ming tona guruchning muqobil qiymati 5 ming dona avtomobil ($25 \rightarrow 20 = -5$);

B) Guruch yetishtirishni 10 ming tonnadan 20 ming tonnaga ko'paytirsak, avtomobil ishlab chiqarish 15 ming donagacha qisqaradi. Muqobil qiymat 5 ming avtomobil ($20 \rightarrow 15 = -5$);

D) Guruch yetishtirishni 20 ming tonnadan 30 ming tonnaga yetkazishimiz, avtomobil ishlab chiqarishni yana 5 ming donaga kamaytiradi. Muqobil qiymat yana 5 ming dona avtomobil bo'ladi. ($15 \rightarrow 10 = -5$);

E) Guruch yetishtirishni 30 ming tonnadan 40 ming tonnagacha ko'paytirishimiz avtomobil ishlab chiqarishni yana 5 ming donaga kamaytiradi. Muqobil qiymat 5 ming dona avtomobil ($10 \rightarrow 5 = -5$);

Misolimizda muqobil qiymat doimiy. Chunki, guruch yetishtirishni ko'paytirishimiz doimo bir xil miqdorda avtomobil ishlab chiqarishni kamayishiga olib kelyapti.

Ming tonna guruch = 0,5 ming dona avtomobil.

Muqobil qiymat doimiy bo'lganda imkoniyat egri chizig'i to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'ladi.

Guruch va avtomobil ishlab chiqarishni qanday kombinatsiyada bo'lishini tanlash kerak. Korxonada, firma doirasida qanday kombinatsiyalar bo'lishini, qancha, qaysi mahsulot ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish va kim uchun ishlab chiqarish muammosini tadbirkor hal etadi, mamlakat miqyosida esa hukumat tanlaydi. Agarda mahsulot ishlab chiqarish miqdorini ko'rsatuvchi nuqta OAG maydon ichiga to'g'ri kelsa, u mavjud resurslardan to'la foydalanmaganlikni, imkoniyatlarga qaraganda kam miqdorda mahsulot ishlab chiqarilganini ko'rsatadi.

Masalan, 15 ming tonna guruch va 10 ming dona avtomobil ishlab chiqarish uchun 70 milliard so'mlik resurs talab etiladi. Bizdagi mavjud resurs esa 100 milliard so'm. Demak, resurslardan to'la foydalanilmagan.

OAG maydondan tashqari nuqta mahsulot ishlab chiqarish miqdorini mavjud resurslarga nisbatan ko'payishini bildiradi.

Aytaylik, 30 ming tonna guruch, 20 ming dona avtomobil ishlab chiqarilmoqchi, u holda 140 mlrd. so'mlik resurs talab qilinadi.

Tadbirkor oldida ikki yo'l turibdi. Biri mavjud resurslardan maksimal foydalanib tovarlar turini ko'paytirish, resurslarni tejash yo'llarini topish, ikkinchisi ehtiyojlarni o'sishiga qarab, o'zida bo'lmasa, chetdan jalb qilish, qarzga olish mumkin. Bu muammoni har bir tadbirkor, har bir mamlakat individual tarzda hal etadi. Lekin resurslar cheklanganligi sharoitida mavjud resurslarni tejab ishlatish tovar turlarini muqobil variantini, eng optimal darajasini tanlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu raqobat kurashida ham katta rol o'ynaydi.

Iqtisodchilarning tadqiqoti ko'rsatadiki, birgalikda turli tovarlar ishlab chiqarganda 5 foiz resurslar tejalar ekan. Ana shu tejalgan miqdor koeffitsiyentini 0,05 desak, misolimizda ishlab chiqarish imkoniyati formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$2X + 5Y - 0,05XY = 100$; agarda V variantni tanlasak,

1) $2 \times 10 + 4 \times 20 - 0,05 \times 10 \times 20 = 90$; Demak, 10 milliard so'mlik resurs tejalyapti. Tejalgan resurs evaziga qo'shimcha ravishda guruch yoki avtomobil ishlab chiqarish mumkin.

Shuning uchun korxonada, firmalar iloji boricha mahsulot turini

ko'paytirsalar resurslar tejalishi evaziga xarajatlarni pasaytirishga erishadilar. Qaysi tovarni ko'proq ishlab chiqarishni tanlash esa ularga bo'lgan talab bilan taklifning nisbati, boshqacha aytganda, bozor narxlariga bog'liq bo'ladi.

Hayotdagi turli-tuman vaziyatda tanlovning variantlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Muqobil variantlardan birini tanlash uchun har bir kishi beixtiyor shu variantlarni taqqoslashga tushadi.

Taqqoslash mezonlari juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ular ma'lum sharoit, vaziyat, qo'yilgan maqsad va boshqalarga bog'liq. Xuddi shu fikrni muqobil variantlar haqida ham aytish mumkin. Muqobil variant ikki va undan ortiq bo'lsa tanlash, tanlash uchun esa taqqoslash zarur bo'ladi. Buning uchun mezonlar belgilanadi. Taqqoslash natijasida u yoki bu qarorga kelinadi. Bu jarayon alohida shaxslar, oiladan boshlab butun mamlakat miqyosigacha amalga oshirili mumkin.

Qaror qabul qilishda albatta qo'yilgan maqsad asosiy rol o'ynaydi. Har bir vaziyat, qo'yilgan maqsad uchun muqobil variantlar va qaror qabul qilish mezonlari boshqacha bo'ladi. Masalan: tadbirkorning qanday faoliyat turini tanlash muqobil variantlari maktab bitiruvchisining kelajakda qanday kasb tanlashi variantlaridan farq qiladi. Albatta, mezonlari to'g'risida ham shunday fikrni aytish mumkin. Masalan, deputat nomzodiga ovoz berishda ham, albatta, muqobil variantlar ichidan o'zimiz belgilagan mezonlarga ko'ra qaror qabul qilamiz.

Shunday qilib, resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning, aksincha, cheksizligi barcha muammolarning asosini tashkil qiladi va ularni qamrab oladi. Shuning uchun ham resurslar cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi iqtisodiyotning bosh muammosi hisoblanadi.

Ehtiyojlarning qondirilish darajasi

Ehtiyojlarni qondirilish darajasi, odatda, iste'mol bilan o'lchanadi. U yil davomida aholi jon boshiga iste'mol qilingan tovar va xizmatlar miqdori bidan o'lchanadi. Masalan, aholi jon boshiga iste'mol qilingan non va non mahsulotlari, sut, go'sht, sabzavot, meva va hokazolar. Har bir oilaga to'g'ri keladigan uzoq muddat foydalanadigan tovarlar: televizor, kir yuvish mashinasi, sovutgich, uy-joy maydoni va boshqalar.

Jamiyat taraqqiy etgan sari iste'mol o'sib, ehtiyojlar to'laroq qondirila boradi. Ehtiyojni qondirish usullari ham o'zgaradi. Iste'mol ne'matlari turi ko'payadi. Ehtiyojlarni qondirilishi

umumiy tarzda turmush darajasini ko'rsatadi. Turmush darajasi — aholi ehtiyojlarini qondirilishiga qarab baholanadi. Aholining ehtiyojlarini qondirilishi fuqarolarning farovon yashashi, uzoq umr ko'rishiga garovdir. Buning uchun esa ana shu ehtiyojlarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish zarur.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida ehtiyojlar va ishlab chiqarish nisbati qandayligiga iqtisodchilarning alohida diqqati qaratilmoqda. Ehtiyojlar bilan ishlab chiqarish nisbatining hozirgi davrda asosan uch varianti mavjud:

1. **Regressiv.** Bunday holat ishlab chiqarishni uzoq muddat tushkunlikda bo'lishi natijasida kelib chiqadi. Aholining iste'mol darajasi miqdor jihatdan ham sifat jihatdan ham kamayib boradi. Iqtisodiyotni bunday o'zgarishini kichrayib boruvchi spiral, ya'ni **girdob** tarzida ko'rish mumkin. Borgan sari kishilarning eng zarur ehtiyojlarini qondirish ham qiyinlashib boradi. Hozir shunday vaziyatni Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining qator mamlakatlarida kuzatish mumkin. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning 2/3 qismida 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda aholi jon boshiga ishlab chiqarish va daromad qisqarib borgan.

2. **Turg'un.** Bu variantda nisbatan cheklangan turdagi mahsulot ishlab chiqarish ham, ehtiyojlar ham nihoyatda sekinlik bilan o'sib boradi. Yaratuvchanlik faoliyati sust bo'lib, ishlab chiqarish — taqsimot — ayirboshlash — iste'mol — ehtiyojlar **doiraviy harakatini** eslatadi. Iqtisodiyotda umumiy turg'unlik yuz berib, ko'pincha, u mahalliy xalqlarning an'ana va urf-odatlariga bilan bog'lanib ketadi.

3. **Progressiv.** Bunda ishlab chiqarish miqdori ko'payadi. Sifati yaxshilanadi, iste'mol va ehtiyojlar o'sadi. Uni tobora kengayib boruvchi **spiralsimon** harakat tarzida ifodalash mumkin. Bir qadar beqarorlikka qaramay, rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish ham, ehtiyojlar ham o'sib boradi.

Birinchi va ikkinchi variantda ehtiyojlarning o'sib borishiga qator omillar aks ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy ahvoli, fuqarolarning yashash tarzi madaniyati ehtiyoj doirasini belgilab beradi. Bu holda ehtiyojga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

— moddiy va ma'naviy madaniyatning pastligi, inson uchun zaruratning eng asosiylari bilan cheklanish. Eng zarur ehtiyojlarning esa juda sekin o'sishi;

— mehnat taqsimotining pastligi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va ehtiyojlarning oshib borishiga yo'l qo'ymasligi;

— narxlarning balandligi, daromadlarning pastligi eng oddiy

ehtiyojlarni qondirishga ham to‘sqinlik qilishi;

– ko‘plab mamlakatlarda aholi sonining moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga nisbatan tez o‘sishi.

Ehtiyojlarning barqaror o‘sib borishini uchinchi variant ta‘minlashga qodir bo‘lib, u mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, aholining pul daromadlari va aholi jon boshiga real boylikning ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, bu yerda ehtiyojlar bilan ishlab chiqarish o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud. Chunki, insonlarning xohishi bilan imkoniyati har doim ham mos kelavermasligi mumkin.

Yakuniy qism

• Demak, inson yashar ekan uning turli-tuman ehtiyojlari mavjud va ular qondirilishi zarur. Ehtiyojlarni qondirish kishilarning yashashlari, kamol topishlari uchun zarur. Biroq ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘ladigan ne‘matlar cheklangan. Sababi, ularni ishlab chiqarish uchun resurslar cheklangan. Cheklanganlik bizni har qadamda tanlashga, imkon qidirishga majbur qiladi. Eng zarur yechimlarni tanlab qaror qabul qilishimiz uchun muqobil variantlarni taqqoslashimiz, taqqoslash uchun esa uning mezonlarini belgilashimiz kerak.

• Ehtiyojlar tarkibi nihoyatda xilma-xil bo‘lgani uchun ularga turli jihatdan yondashib, qo‘yilgan maqsadga ko‘ra ma‘lum bir guruhlariga bo‘lish, ularning muhimlarini ajratish mumkin. Bu tanlovni osonlashtiradi. Turli variantlardan birini tanlash, ba‘zi ehtiyojlardan voz kechishga yoki iste‘mol miqdorini kamaytirishga olib keladi. Insonning butun hayoti tanlov asosida qanday qarorga kelishiga bog‘liq.

• Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi ham ana shu tanlovni eng maqbul yo‘llarini topib, to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganishdir.

• Ehtiyojni qondirishdan qanday maqsad ko‘zlanganiga qarab, ular shaxsiy va ishlab chiqarish ehtiyojlariga bo‘linadi. Shaxsiy ehtiyojlar kishilarning yashash uchun zarur, shaxsiy iste‘mol zaruratini qondiradigan ne‘matlarga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lsa, ishlab chiqarish ehtiyojlari esa ana shu ne‘matlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy resurslarga ehtiyoj bo‘lib, ular moddiy, mehnat, axborot, moliyaviy resurslardan iborat.

• Mavjud iqtisodiy resurslardan to‘la foydalanish evaziga eng ko‘p mahsulot ishlab chiqarish «ishlab chiqarish imkoniyati» dey-

iladi. Resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

• Iqtisodiyotning bosh muammosi, bu — jamiyat a'zolari ehtiyojlarining cheksizligi va ularni qondirish uchun zarur resurslarning cheklanganligi muammosidir. Chunki, u boshqa barcha muammolarni qamrab oladi. Kishilik jamiyati uni yechish uchun harakat qilib, yangiliklar yaratadi, ixtirolar qiladi. Jamiyat taraqqiyotining asosida ham ana shu muammo va har bir aniq vaziyatda uni hal etish uchun qilingan harakatlar, urinishlar, oxir-oqibat ularning natijasi yotadi.

• Ehtiyojlarni to'laroq qondirishning yagona yo'li ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirish va ularni yaratish uchun sarflanadigan resurslar miqdorini kamaytirishdir. Navbatdagi mavzular ana shu masalalarni o'rganishga qaratilgan.

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Ehtiyoj.
2. Ehtiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy qonuni.
3. Iqtisodiy resurslar.
4. Iqtisodiyotning bosh muammosi.
5. Tanlovning muqobil qiymati.
6. Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi.
7. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Ehtiyoj nima? Nima sababdan uni biz obyektiv va subyektiv xarakterga ega deymiz?
2. Iqtisodchilar tomonidan ehtiyojlar qanday guruhlarga ajratiladi?
3. Yakka va birgalikda qondiriladigan ehtiyojlarga qanday ehtiyojlar kiritiladi?
4. Iqtisodiyotning bosh muammosi nima? Nima sababdan uni bosh muammo deb ataymiz?
5. Tanlov nima? Uning mezonlari-chi?
6. Ishlab chiqarish imkoniyati yoki transformatsiya egri chizig'i nima?
7. Nima sababdan iqtisodiyot nazariyasini o'rganishni ehtiyojlarni o'rganishdan boshladik?

3-§. O'qitishning muammoli-izlanish metodlari va ularni qo'llab ma'ruza o'qish

Bugungi kunda metodlarni samarali qo'llashning muhim mezonlaridan biri muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoni kun tartibiga qo'ya bilishdir. Pedagoglarning fikricha, muammoli o'qitish talabani mustaqilligini, fikrlash doirasini kengaytirishga olib keladi. Muammoli o'qitish talabalarni faol bilish jarayoniga undab, tafakkurni ilmiy tadqiqotga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar, bilganlari bilan yangi faktlar, hodisalar o'rtasida hamda muqobil tanlov zaruriyati vujudga kelishi natijasida qaror qabul qilishning qiyinchiligi oqibatida kelib chiqadigan vaziyatdir.

Muammoli vaziyatning vujudga kelishi talabalarning aqlini peshlaydi. Muammoning kelib chiqish sabablarini, yechimini topishga undaydi.

Muammoli savol qo'yib o'qitish talabalarning bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirishiga, bilish faoliyatini jonlashtirishga, ilmiy izlanishga, tadqiqotga chorlaydi. Shuning uchun ham xoh ma'ruza, xoh amaliy mashg'ulot, seminar bo'lsin o'qituvchining muammo qo'yishi yoki muammoli vaziyat vujudga keltirishi katta ahamiyatga ega.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammolar qo'yilishi jihatidan quyidagi darajalarga bo'linadi:

1. Muammoni o'qituvchining o'zi qo'yadi, uni shakllantiradi, talabalarni uni mustaqil ravishda yechimini topishga, yechish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

2. O'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechimini izlaydilar.

3. O'qituvchi ma'lum bir muammoni ko'rsatmaydi, balki unga talabalarni ro'baro' qiladi, ularni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi. Talabalarning o'zi mustaqil ravishda muammoni anglaydilar, uni shakllantiradilar va yechimini topishga harakat qiladilar.

O'qituvchi o'tilayotgan darsning shakli, o'tilayotgan fan, mavzu va uning xususiyatlariga ko'ra qanday muammo qo'yishni, muammoli vaziyat vujudga keltirishni o'zi hal qiladi. Mazkur metodning o'ziga xos jihati talabalar oldiga muammo qo'yilishidir.

Muammoli ma'ruza muammo qo'yish orqal boshlanadi. Bu muammo esa o'quv materialini bayon etish jarayonida ma'ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo'llari ko'rsatiladi.

Muammo o'quv materialining aniq mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o'qitishga qator talablar qo'yiladi:

* muammoli o'qitish ta'lim oluvchilar ehtiyojlarini qondirish va faolligini oshirishga yo'naltirilishi;

* taqdim etilgan muammoning ta'lim oluvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi. Bular:

* qo'yilgan muammoning muhimligi;

* muammo iloji boricha real hayotdan olinishi;

* ta'lim oluvchilar uchun muammo ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi;

* ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi;

* muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratish;

* muammoning boshqalar uchun ham ahamiyatli ekanini ko'rsatishi lozim.

Muammoli o'qitishning maqsadlari

• Ta'lim oluvchilarning mazmunli va izchil bilim olishini ta'minlash;

• Muammo yechimlarini topish va uning boshqa yechimlari bo'yicha ham istiqbolli hal etish yo'llarini ishlab chiqish;

• Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga bo'linib, muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga o'rgatish;

• O'quvchi, talabalarda shaxsiy mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish va mustahkamlash.

Muammoli o'qitishning to'rt bosqichdan iborat mantiqiy sxemasi quyidagicha.

1. Muammoning qo'yilishi.

2. Uni yechish yo'llarini aniqlash.

3. Muammoni yechishning eng ma'qul yo'lini aniqlash.

4. Muammoni yechish.

O'quv muammolarini qo'yish qoidalari

Mavzu bo'yicha muammoni qo'yish va yechish uchun yangi tushunchalarni talabalarning avvalgi o'rgangan bilimlari bilan bog'lash va esga tushirish zarur

Talabalarga sabab-oqibatli bog'lanishni aniqlash, mushohada qilish, muammoli vaziyatni tahlil qilishni o'rgatish zarur

Talabalar oldiga ular uchun tushunarli bo'lgan, ma'lum darajada xabardor bo'lgan muammolarni qo'yish kerak

Muammoni yechish uchun uni to'g'ri qo'ya bilishni unutmaslik kerak

O'quv materialida yangilik elementlari (yangi tushuncha, statistik ma'lumotlar, xususiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va h.k.) bo'lishi kerak

O'quv materiali muammoli vaziyatni ifodalagan bo'lishi kerak. Ularni qarama-qarshi fikrlar, faktlar, raqamlar, chizma, savollar kabilarda ifodalash mumkin

Talaba javob berolmagan savollarning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltira olmaydi. Masalan, «qanday xarajatlar tashqi xarajatlarga kiradi?» yoki «daromad nima?», «foydani hisoblang» kabi masalalar yechimini qo'yish muammoli vaziyat yoki muammo bo'la olmaydi.

Tajribali pedagoglarning fikricha faqat o'qitish jarayonida qarama-qarshilik paydo bo'lgan vaziyatnigina muammoli vaziyat deb ataladi. Talaba o'qish, bilish jarayonida qarama-qarshiliklarga duch kelsa, uning bilimga bo'lgan qiziqishi ortadi. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiya paydo bo'ladi. Masalan, nima sababdan davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlagani holda soxta tadbirkorlikka qarshi kurashadi, degan savol muammoli hisoblanadi. Chunki, bu savolda qarama-qarshilik bor. U talabani taqqoslashga, tahlil etishga undaydi. Tadbirkorlikning turlarini, uning huquqiy asoslarini, davlatning yuritayotgan iqtisodiy siyosatini o'rganishga, tushunishga

olib keladi. Metodologik jihatdan qaraganda tushunchalar orasidagi qarama-qarshiliklarning asl manbai birlamchi hisoblanadi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun ularni doimo o'zlarida tug'ilgan savolni berishga undash lozim. Dars oxirida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilishi zarur.

Muammoli ma'ruza — muammoli o'qitishning asosi. Lekin muammoli o'qish qanday bo'lishi kerakligi haqida yagona fikr yo'q. Ba'zilar uni hali fanda yechilmagan muammolar haqida ma'ruza deyishsa, boshqalar muammolarni darsda yechish deb hisoblashadi. **Muammoli ma'ruza talabani o'ylashga, taqqoslashga, yechimini topishga undaydigan ma'ruzadir.** U quruq yodlab olish emas, balki o'z faoliyatida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni qo'llab masalani yechishga o'rgatishdir. Shuningdek, o'qitish — bunday darslarda ajdodlar ijtimoiy-tarixiy tajribasi ham o'rgatiladi. Muammoli o'qitish orqali talabani o'z fikrini aytishga, fikrini himoya qilishga va bahslashishga o'rgatish mumkin. Fikrlash jarayonida qarama-qarshilik bo'lmasa, bahs ham, munozara ham bo'lmaydi. Munozarasiz esa muammoning yechimini topish juda qiyin.

Darsda talabalar o'qituvchining o'rgatishga samimiy intilayotganini his qilishi, talabani o'zi bilan teng ko'rayotganini bilishlari kerak. Yuqorida zikr etgan ma'ruzani muammoli ma'ruza tarzida bayon qilish, darsga talabalarni faol qatnashishga chorlash uchun ma'ruza o'qiyotganda muammoli vaziyat yaratish zarur. Buning uchun avvaldan muammoli savol qo'yib, unga talabalar bilan birgalikda muhokama qilinib javob topiladi. Yuqorida keltirilgan «**iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari**» mavzuidagi an'anaviy ma'ruza matnini muammoli ma'ruza tarzida o'qish uchun ma'ruzaning maqsadi alohida ajratib ko'rsatiladi va quyidagicha o'zgarishlar kiritiladi:

Darsning maqsadi:	Ehtiyojlar va ularning tarkibi, ehtiyojlarning yuksalib borishi qonunining mazmunini anglash, iqtisodiyotning bosh muammosini aniqlash, mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish. Ehtiyojlarni qondirish darajasi ko'rsatkichlarini o'rganish.
--------------------------	--

O'qituvchi muammoli vaziyat yaratish bilan talabalarni faollashtiradi, mulohazaga yo'llaydi. **Birinchi uzviy savolni** muhokama qilish jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish mumkin:

Buning uchun o'qituvchi talabalarga «nima sababdan iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishni aynan shu mavzudan bosh-

layapmiz?» degan savol bilan auditoriyaga murojaat qiladi. Bu savollar muhokamasi asosida talabalar fanni o'rganishni, iqtisodiyotni shu mavzudan boshlanishiga qanoat hosil qilishlari kerak.

Talabalarga insonning yashashi uchun nimalar kerak? Birov birinchi navbatda oziq-ovqat desa, boshqasi tinchlik bo'lishi kerak, deydi. Sizningcha kim haq? Buning sababi nimada?- degan savollar qisqacha muhokama qilingach, «Insonning ehtiyojlari turli-tumanligini bilamiz, ularni o'xshash tomonlari bormi?» deya murojaat qilib, talabalardan javob olgach, ma'ruza davom etadi.

Ehtiyojlarning turli guruhlariga bo'linishini tushuntirgach, «Nima sababdan turli jihatdan yondashib, guruhlariga bo'lib chiqdik. Uni nima keragi bor? Guruhlarga bo'lmasdan, o'rganib qo'ya qolsak bo'lmaydimi?» deb murojaat qilish mumkin.

Ikkinchi uzviy savolni muhokama qilishni «Agar odamning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji oshqozoni sig'imi bilan o'lchanadi desak, u juda kam o'zgaradi. Bundan ehtiyojlar o'zgarmaydi degan xulosa chiqarish mumkinmi?» degan muammoli savol qo'yiladi. Bunda o'qituvchi muhokama jarayonida talabalarning o'z ehtiyojari kengayib borishi qonuniyatini amal qilishiga iqror bo'lishlariga olib kelishi kerak. Muhokama asosida ma'ruza o'qish davom ettiriladi.

Uchinchi savol ehtiyojlarni qondirish uchun resurslar kerakligi, resurslar esa cheklanganligi, cheklanganlik qanday oqibatga olib kelishini ko'rsatuvchi muammolar bilan boshlanadi.

Ishlab chiqarish resurslari tasnifi sxemasi namoyish qilinadi va talabalarga: «Hozirgi paytda ayrim iqtisodchilar axborot va moliyaviy resurslarni ishlab chiqarish resurslari tarkibiga kiritishsa, boshqalari bu noto'g'ri, deyishmoqda. Siz qaysi bir fikrga qo'shilasiz» deb murojaat qilib, talabalarni munozaraga chorlash mumkin.

O'rganayotgan mavzuimiz bo'yicha jamiyat resurslarini investitsion tovar va xizmatlar yaratish uchunmi yoki iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun ko'proq sarflagani ma'qulmi? degan savol muammoni ifodalaydi. Uni chizma yordamida qo'yib, muhokama qilish mumkin.

Talabalar fikrini, diqqatini iqtisodiyotning bosh muammosini o'rganishga qaratiladi. Bir tomondan, ehtiyojlar cheksiz, ikkinchi tomondan resurslar cheklangan. Ulardan qaysi biri bosh muammo va nima sababdan uni bosh muammo deb ataymiz? Talabalarning fikrlarini eshitib, o'qituvchi ularning tarafdorlarini aniqlaydi.

To'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsatib, munozaraga yakun yasaydi. Seminarga tayyorlanish uchun topshiriq beradi.

Muammoli o'qitishning *kamchiligi* shundaki:

- U ko'p vaqt talab qiladi. Oqibatda, axborot berishga qaratilgan dars o'tishga qaraganda, mavzu muhokamasiga ko'p vaqt sarflanadi.

- Muammoli vaziyatni har qanday auditoriyada vujudga keltirish qiyin.

Bu o'qituvchidan katta pedagogik mahorat, ko'p kuch-quvvat, tajriba talab qiladi.

4-§. Ta'limning texnologik yondashuviga asoslangan, chuqurlashtirilgan (jalb qiluvchi, jadallashtirilgan) ma'ruza

Jamiyat taraqqiyoti talabalarni mustaqil, chuqur mushohada yuritib, turli variantlarni taqqoslab, qaror qabul qilishga o'rgatishni taqozo qiladi. Ana shunday ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradigan dars o'tish metodlarini qo'llash zaruriyati katta. Aynan tahliliy (tanqidiy) fikrlashga o'rgatadigan metodlar talabalarga ana shunday ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi. Qator taniqli pedagoglar shunday fikrlarni bayon etadilar.

1. Yangi variantdagi uzluksiz ta'lim axborot va g'oyalarning tushunarli bo'lishi muammosini qo'yadi. O'quvchi, talabalar ana shu axborot, yangi fikr, g'oyalarni faollik bilan o'zlashtirgandagina kutilgan yuqori natijaga erishish mumkin.

2. Talabalarining fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun turli strategiya va metodlar qo'llanilgandagina o'qish jaryoni muvaffaqiyatli bo'ladi. Ular talabalar uchun o'quv jarayoni tushunarli, ongliroq bo'lishini ta'minlaydi.

3. Talaba, o'quvchilar o'z bilimlarini muayyan masalalarni yechishga tatbiq eta olsalargina, ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

4. O'quvchi, talabalarining oldin egallagan bilimlariga va tajribalariga asoslangan o'qish mustahkam va yangi axborotni bilganlari bilan bog'lash imkonini beradi.

5. O'qituvchilarning o'zlarini ham fikrlar, g'oyalar, tajribalarining turli-tumanligini to'g'ri tushunishlarigina tahliliy fikrlashni yaxshi natija berishiga olib keladi. Agar bitta javobgina to'g'ri degan fikr ustuvorlik qilsa, u holda tahliliy fikrlashga imkon bo'lmaydi.

6. O'qitishning asosiy shakli ma'ruzadir. Lekin an'anaviy ma'ruzaning kamchiliklari bizga ma'lum. TESIS dasturi

tadqiqotchilarining natijalariga ko'ra uning samarasi juda past. Buning sababini tinglovchilarning passivligida deb izohlanadi.

Albatta, buni barcha an'anaviy ma'ruzalarga xos deb bo'lmaydi. Ma'ruzani mohir ma'ruzachi o'qiganda:

* yangi axborot beradi;

* murakkab nazariy savollarni tushuntiradi, o'rgatadi, tizimga soladi;

* muammo, masalalarni yechish jarayonida ijodiy fikrlashga o'rgatadi;

* yuzaki qaraganda katta farqi bor turli g'oyalarni ko'rsatadi, tahlil qiladi, ular o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiradi;

* bilim olishga undaydi;

* o'rganib qolingani fikrlash tarzi va e'tiqodlarni qaytadan qarab chiqishga da'vat qiladi;

* kelgusida bilim olishga ishtiyoq tug'diradi.

An'anaviy ma'ruzani bunday tarzda o'qish hammaning qo'lidan kelmaydi. Juda ko'p ma'ruzalar monolog tarzida o'qiladiki, u tinglovchilarni ma'ruzadan qoniqmasliklariga, uni diqqat bilan eshitmasliklariga olib keladi.

Ana shu kamchilik, ya'ni tinglovchilarni ma'ruzada passiv emas faol qatnashishlarini ta'minlab, kutilayotgan natijalarga erishish uchun metodikani o'zgartirishga undaydi.

Bunga chuqurlashtirilgan (jalb qiluvchi, jadallashgan, dinamik) ma'ruza orqali erishish mumkin. Jadallashtirilgan ma'ruza tahliliy fikrlash ko'nikmasini hosil qilish, rivojlantirish, universal asoslarga tayangan holda tayyorlangan ma'ruzaning mukammallashtirilgan, chuqurlashtirilgan variantidir. Jadallashtirilgan ma'ruzani har qanday kattalikdagi guruhda o'tkazish hamda talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlash mumkin.

Jadallashtirilgan ma'ruzani qo'llashga zaruriyat, tadqiqot natijasida ishonch hosil qilingan ikki holatdan kelib chiqadi:

1. Auditoriyaga o'qituvchi savolni mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qib bo'lgach tashlaganiga qaraganda, ma'ruza o'qigunga qadar berishi talabalarni ma'ruzada bildirilgan fikrlarni yoki materialni yaxshiroq o'zlashtirishga olib kelar ekan.

2. Ma'ruza boshlangandan 15–20 daqiqa o'tgach talabalarning diqqati susayadi. Demak, metodni o'zgartirish, talabalarni darsga faol qatnashishga undash zarur.

Buni qanday amalga oshirsa bo'ladi?

Bu ishni pedagog olimlar ta'lim texnologiyasi asosida amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatib berishdi. Bunda ma'ruza jarayo-

nida talabalar ham darsga faol qatnashadilar. Dars o'tkazish hamkorlikka asoslanadi. Ma'ruza o'qishda qo'llaniladigan metod va vositalar uzviy savollar bo'yicha avvaldan loyihalashtirilib, ma'ruza darsining texnologik xaritasida ko'rsatiladi. U darsning «ssenariy»si bo'lib, uning asosida dars jarayoni tashkil etiladi. Buning uchun ma'ruza mantiqiy tugallangan qismlarga bo'linadi. Bu ma'ruzada qo'yilgan uzviy savollar bo'ladi. Har bir qism (savol) a) da'vat, b) anglash, tushunish, d) fikrlash, tafakkur bosqichlariga ajratiladi.

1. Da'vat bosqichi. Unda o'qituvchi ma'ruzani boshlar ekan, talabalar diqqatini ma'ruzani eshitishga jalb qiladi. Turli metodlarni qo'llab, ularni ma'ruzada faol qatnashishga chorlaydi. Dastlab talabalar mazkur mavzu bo'yicha nimalarni bilishlari aniqlanadi. Ana shu bilimga dars jarayonida yangi bilimlar qo'shilishi kerak. Shuning uchun talabalarga tezda bajariladigan turli topshiriqlar beriladi. Savol qo'yib, aqliy hujum metodini qo'llash orqali talabalar uchun ma'lum, o'rganilgan bilimlarini aniqlashda;

- qo'yilgan savolni juftlikda muhokama qilish; o'z fikrlarini aytish;

- avvalgi ma'ruzada o'rganilgan tushunchalar mazmunini gapirib berishni taklif qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bunga 3–4 daqiqa vaqt ajratiladi.

2. Navbatdagi bosqich, mazmunni tushunish, anglashdan iborat. Unda 15–20 daqiqa davomida ma'ruza qilinadi. Bu bosqichning asosiy vazifasi talabalarning yangi materialni tushunishlarini ta'minlashdir. Bunda o'qituvchi talabalarga turli savollar bilan murojaat etadi, masalan:

- Sizning uchun hozir eshitganlaringizning qay biri yangilik bo'ldi?

- Eshitganlaringiz bo'yicha sizning fikringiz qanday?
- Sizda eng katta taassurot qoldirgan nima? — kabilar.

3. Tafakkur bosqichida olingan bilimlar mustahkamlanadi. O'rganilayotgan masala bo'yicha talabalarning o'z tushunchalari shakllanadi. Ma'ruza eshitgach, ularning bilimlari kengayib, mustaqil fikrlaydilar, o'z fikrlarini eshitganlari bilan taqqoslaydilar. Bu bosqichda talabalarga fikrlarini tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Ular turlicha bo'lishi mumkin.

«Bu haqda siz nima deb o'ylaysiz?» «O'zingiz bilganlar bilan yangi olgan axborotingiz qay darajada bog'landi?» yoki «Yangi g'oyalar bilan sizning qarashlaringiz qanday o'zgardi?» va hokazo tarzidagi savollar berish yoki test yechish, so'rov kartasini to'ldirish,

10 daqiqa esse yozishni mashq qilish va shunga o'xshash topshiriqlar berish mumkin.

Keyingi savollar yoki qismlar ham xuddi shunday uch bosqichga bo'linib ma'ruza o'qiladi yoki muhokama qilinayotgan savol bo'yicha ma'ruza matni tarqatilib, talabalar insert metodi yordamida matnni o'qib, tahlil qilib o'z fikrlarini bildiradilar. Matnni o'qish bosqichi uyga vazifa qilib topshirilib, dars paytida faqat savolni muhokama qilish mumkin. Bu — o'qituvchi dars jarayonini qanday tashkil etishga qaror qilishiga bog'liq.

Oxirida **yakunlovchi topshiriq** beriladi. Yakunlovchi topshiriqni ham o'qituvchi ma'ruzaning mavzusi, mavjud savollar, guruh talabalari va boshqa omillarni hisobga olgan holda avvaldan tayyorlaydi.

Chuqurlashtirilgan (jadallashtirilgan) ma'ruza o'qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni, ma'ruzaning turli variantlarini tayyorlab qo'yishni talab qiladi. Bunda o'qituvchi har bir dars jarayoni texnologik xaritasini tayyorlaydi. Quyida «Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari» mavzuidagi jadallashgan ma'ruzaga tuzilgan texnologik xaritani namuna sifatida keltiramiz. Uni ta'lim texnologiyasi sifatida ham qarash mumkin.

«IQTISODIY RESURSLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI» mavzuida ma'ruza darsi o'tish texnologiyasi

Fakultet, kafedra, dars o'tiladigan kurs	O'quv predmeti	Mavzuning o'quv dasturidagi tartib raqami va ajratilgan soat
Boshqaruv fakulteti, bakalavriat, 1 kurs	«Iqtisodiyot nazariyasi»	№ 2, 2 soat
Sana: sentabr	O'quv guruhi, talabalar soni: BK-80,81 (40-50)	O'qituvchi: Tojiboyeva D.
O'tiladigan dars mavzusi:	«Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari»	
Ma'ruza rejasi:	1. Ehtiyojlar va ularning tarkibi 2. Ehtiyojdarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalib borishi qonuni 3. Resurslar cheklanganligi va ehtiyojlarni qondirish. Iqtisodiyotning bosh muammosi	
Asosiy	Ehtiyoj, ehtiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy	

tushuncha va terminlar	qonuni, iqtisodiy resurslar, tanlovning muqobil qiymati, ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi, resurslar cheklanganligi, iqtisodiyotning bosh muammosi
Darsning maqsadi:	Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va ularning tarkibi, ehtiyojlarning yuksalib borishi mazmunini anglash, iqtisodiyotning bosh muammosini aniqlash, mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish. Ehtiyojlarni qondirish darajasini ko'rsatkichlarini o'rganish.
O'qituvchining vazifalari:	Motivatsion vazifasi: Mazkur mavzu bo'yicha chuqur ma'noga ega savollarni qo'yib, talabalarni fanning keyingi mavzularini va boshqa iqtisodiy fanlarni ham o'rganishga qiziqtirish. O'rgatuvchi vazifasi: Mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni bilan tanishtirish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish. Rivojlantiruvchi vazifasi: Mantiqiy, tahliliy fikrlashni shakllantirish.
O'quv faoliyatining natijasi	Talaba: 1. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va uning tarkibini turli jihatdan yondashib ko'rsatib, mazmunini tushuntirib berishi kerak. 2. Ehtiyojlarning cheksizligi sabablarini aniqlab, ehtiyojlar yuksalishi qonuni mazmunini aytib berishi kerak. 3. Ishlab chiqarish imkoniyati transformatsiyasi egri chizig'i, tanlovning muqobil qiymati mazmunini bilishi kerak. 4. Iqtisodiyotning bosh muammosi va nima sababdan uni bosh muammo deb atalishini bilishi kerak. 5. Ehtiyojlarni qondirilishi qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanishini tushuntirib bera olishi kerak
O'qitishning metodi va o'rganish texnikasi	Insert, B/ B/ B, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, modellashtiruvchi o'yin, kichik guruhlarga bo'linib, hamkorlikda ishlash, savol-javob
O'qitish vositalari	Doska, kodoskop, slaydlar, daftar, kitob, gazeta, ruchka, jurnallar, yozuv qog'ozlari
O'qitish sharoiti	Tipik auditoriya
Mazkur darsni o'tgungacha talaba	Talaba: Iqtisodiy qarashlarning vujudga kelishi tushunchasiga ega bo'lishi, «Iqtiso-

balar bilishi lozim bo'lgan bilim va malakalar:	diyot nazariyasi» fani nimani o'rganishi, qanday metodlar yordamida o'rganishi, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ehtiyojlar mazmunini bilishi kerak
---	---

**«IQTISODIY RESURLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI»
mavzuidagi darsning texnologik xaritasi**

Texnologik bosqich, vaqt	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
Mavzu bo'yicha dars o'tishga tayyorlanish. 5-10 daqiqa	<p>Avvalgi darsning yakunida talabalarga berilgan vazifa: fanning predmeti, o'rganish metodlari, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning mazmunini bilib kelish.</p> <p>1. Qisqacha (blits)-so'rov metodi qo'llaniladi.</p> <p>2. Talabalarga har bir kichik guruhning darsda faol qatnashishini baholashni taklif qiladi.</p> <p>Ularning baholarini umumlashtirish asosida kichik guruhlar olgan o'rinlar aniqlanishi va ball berilishini uqtiradi</p> <p>Birinchi o'rin – 2 ball. Ikkinchi o'rin – 1,8 ball. Uchinchi o'rin - 1,7 ball. To'rtinchi o'rin - 1,5 ball. Beshinchi o'rin –1,2 ball va hokazo.</p> <p>Baholash jadvali tarqatma material qilib beriladi.</p>	Og'zaki javob berishadi. Asosiy tushunchalarning mazmunini aytishadi.
1 - bosqich Kirish: avvalgi mavzu bilan bog'lash. Mavzuni o'rganishni motivatsi-	<p>Yangi mavzuni o'tgan mavzu bilan bog'laydi. Mavzuning maqsadi, darsning natijasi va uni o'tkazish rejasi e'lon qilinadi.</p> <p>Nima sababdan iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishni aynan shu mavzudan boshlayapmiz?- deb savol bilan auditoriyaga murojaat qiladi. Savol-</p>	1.1. Eshitadilar, javob beradilar, yozib oladilar.

yasi 5-10 daqiqa	javob metodi qo'llaniladi. Pretest o'tkazish ham mumkin.	
II asosiy bosqich. 15-20 daqiqa. Ma'ruzaning birinchi uzviy savoli muhokamasi: 1. Da'vat bosqichi	2.1. Talabalarga insonni yashashi uchun nimalar kerak? Buning sababi nimada? degan savol bilan murojaat qilinadi. «Aqliy hujum» metodi qo'llanadi. O'qituvchi har bir talabaga 1-5 tagacha so'z aytishi mumkinligini uqtiradi. 2.1.3. Ma'ruzaning birinchi uzviy savoli bayon qilinadi.	2.1. Eshitadilar. 2.1.1. Javob beradilar. 2.1.2. Bir talaba doskaga, qolganlar daftarga yozadilar.
2. Anglash, tushuntirish bosqichi	Ma'ruzada eshitganlari asosida muhokama qilib, doskada, daftarda yozilgan ehtiyojlarga turli jihatdan yondashib, guruhlariga ajratish taklif qilinadi.	2.1.3 Eshitadilar, asosiy tushunchalarni yozadilar.
3. Fikrlash, tafakkur bosqichi	Juftlik, kichik guruhlariga bo'linib dars o'tish metodi qo'llaniladi Muhokamani yakunlaydi.	2.3.1. Talabalar guruhlariga ajralishadi. 2.3.2 Har bir kichik guruh ehtiyojlarni turli guruhlariga bo'lib chiqadilar. 2.3.3. Har bir kichik guruh vakili bajaragan ishlari bo'yicha ma'lumot beradi.
Ma'ruzaning ikkinchi savoli muho-	2.2.1. Insonlarning turli-tuman ehtiyojlariga turli jihatdan yondashib, guruhlariga bo'lib chiqdik. Agar odamning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji oshqozonni sig'imi bilan o'lchanadi desak, u	2.2.1. Kichik guruhlar muhokama qilib javob beradilar.

<p>kamasi 15-20 daqiqqa. 1. Da'vat bosqichi</p> <p>2. Anglash, tushuntirish bosqichi</p> <p>3. Tafak- kur bos- qichi</p>	<p>juda kam o'zgaradi. Bundan ehtiyojlar o'zgaraydi, degan xulosa chiqarish mumkinmi? degan muammoli savol qo'yiladi.</p> <p>2.2.2. Savolni kichik guruhlar tomonidan «Insert» metodini qo'llab, muhokama qilinadi. Talabalarga B/B/B jadvali tarqatiladi. Ularga mavzu bo'yicha 1 va 2 ustunni to'ldirish taklif qilinadi. Talabalarga ma'ruza matni tarqatiladi.</p> <p>2.2.3. Matnni o'qib, muvofiq ravishda ma'ruza matni chetiga belgi qo'yib, uning asosida B/B/B ni 4 ustunini to'ldirish va matnni o'qib, yangi o'rgangan asosiy tushunchalarni yozishi kerakligi, guruhlardan biri ekspert rolini bajarishini e'lon qiladi. O'qituvchi maslahat beruvchi sifatida qatnashadi. Har bir kichik guruhning ma'lumotlari asosida axborot umumlashtiriladi</p>	<p>2.2.2. Talabalar jadvalni to'ldirishadi.</p> <p>-</p> <p>2.2.3. Jadvalni qolgan ustunlarini to'ldirishadi.</p> <p>Asosiy tushunchalarni aytib berishadi, yozishadi.</p> <p>Kichik guruhlarning javobini ekspert guruhi e'lon qiladi.</p>
<p>Ma'ruza- ning uchinchi uzviy sa- voli mu- hokamasi 25-30 min. 1. Da'vat bosqichi</p> <p>2. Tu- shunti-</p>	<p>Ishlab chiqarish resurslari tasnifining rasmi namoyish qilinadi va unda yana qanday resurslar ko'rsatilmagani so'raladi:</p> <p>Sizningcha, resurslar cheklanganligi qanday oqibatga olib keladi? Ishlab chiqarish imkoniyati nima?</p> <p>2.2.2. Ma'ruzaning 3-savoli bayon qilinadi.</p> <p>2.3.3. Tanlashning muqobil qiymati, tanlov mezonlarini o'rganish uchun modellashtiruvchi o'yin metodi qo'llaniladi (Ilova) Talabalarga tanlov mezoni jadvali tarqatiladi. O'qituvchi</p>	<p>2.3.1. Xohlagan talabalar alohida javob beradilar, yozadilar.</p> <p>2.2.2. Eshitadilar, yozadilar.</p> <p>O'yinga qatnashadilar, jadvalni to'ldiradilar.</p>

<p>rish, anglash bosqichi</p> <p>3. Tafakkur bosqichi</p>	<p>olib kelgan gazeta, jurnal, daftarlardan har bir kichik guruh tanlab olishi taklif etiladi. Har bir kichik guruhni jadval mezonlarini o'zlari ishlab chiqib to'ldirishi taklif qilinadi.</p> <p>Har bir kichik guruh namoyish qilingan material va tanlov jadvalini muhokama qilishadi. O'z tanlov mezonlari bo'yicha jadvalni to'ldirishadi. Iqtisodiyotning bosh muammosini real hayotda aks etishiga misollar keltirishadi. O'qituvchi maslahat beruvchi va kuzatuvchi sifatida qatnashadi.</p>	<p>3.3.3. Asosiy tushuncha, kategoriya-larning nomi va mazmuni aniqlashadi.</p>
<p>III. Yakuniy bosqich 10-15 daqiqa</p>	<p>3.1. Talabalarga har bir kichik guruhning darsda faol qatnashishini baholash jadvalini to'ldirib, har bir kichik guruhni o'z fikrini bildirishni taklif qiladi.</p> <p>3.2. B/B/B jadvalni uchinchi ustunini to'ldirishni topshiradi.</p> <p>3.3. O'qituvchi kichik guruhlardan baholash jadvalini yig'ib oladi. Yakuniy ball chiqaradi. Darsga yakun yasaydi.</p> <p>Talabalarning diqqatini asosiy masalaga qaratadi, seminar darsiga tayyorlanishda nimalarga diqqat qaratilishi lozimligi haqida, tushunmagan savollarni o'quv adabiyotlaridan o'qish haqida ko'rsatma beradi.</p>	<p>3.1. Kichik guruhlarni topshiriqni bajarish bo'yicha bajargan ishlari va bildirgan fikrlari asosida qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.</p> <p>3.2. B/B/B jadvalni uchinchi ustunini to'ldirishadi.</p>

Tarqatma material 2.1.1.

Kichik guruhlarining ishini baholash jadvali

(Har bir mezon bo'yicha maksimal 5 ball beriladi)

Kichik guruhlar	Topshiriq	Javobning to'g'riligi, aniqligi	Tushunarligi va qisqaligi	Talabalarining barchasini faol qatnashishi	Umumiy to'plan-gan ball
I-kichik guruh	1-topshiriq 2-topshiriq 3-topshiriq				

	Jami				
2-kichik guruh	1-topshiriq				
	2-topshiriq				
	3-topshiriq				
	Jami				
va hokazo					

Tarqatma material 2.1.2.
Kichik guruhlarga topshiriq

Doskada hamda har bir kichik guruh o'zlari qayd etgan ehtiyojlar ro'yxatiga turli jihatdan yondashib, ularni guruhlarga ajratish:

1.a) individual, b) jamoa, d) umumjamiyat ehtiyojlari	2. a) moddiy, b) ijtimoiy- ma'naviy ehtiyojlar	3.a) yakka, b) birgalikda qon- diriladigan ehti- yojlar	4. a) shaxsiy, b) ishlab chiqarish (xizmat ko'rsa- tish) ehtiyojlari
--	---	--	---

1.a)	1.b)	1.d)	2. a)	2.b)	3.a)	3.b)	4. a)	4. b)

Tarqatma material 2.1.3.

Insert metodini qo'llash bo'yicha qabul qilingan qoidalar:

1. Matnni o'qing.
2. Qalam bilan matn chetiga, har bir qator boshiga belgi qo'yib chiqing.

■ O'qiyotgan matndagi bildirilgan fikrlar sizga ma'lum, siz ularni bilsangiz, «bilaman» deb o'ylagan fikringizga mos kelsa, «V» belgisini qo'yasiz.

■ Agarda siz o'qiyotgan jumlarlar sizning bilimingizga qarama-qarshi bo'lsa yoki bilaman deb o'ylaganingizga mos kelmasa, « - » (minus) belgisini qo'yasiz.

■ Agarda o'qiyotgan matnda siz uchun yangiliklar bo'lsa « + » (plus) belgisini qo'yasiz.

■ Siz o'qiyotgan jumlar sizga tushunarli bo'lmasa, ya'ni uni tushunish uchun qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinsa, u holda «?» (so'roq) belgisi qo'yasiz.

Bu belgilar yordamida o'qilayotgan matn bo'yicha umumiy ta-savvur ifodalanishi kerak.

B/B/B jadvali bilan ishlash tartibi

1. Insert metodini qo'llab, matnni o'qing.
2. Olingan axborotni individual tarzda qo'ygan belgilaringizga muvofiq ravishda jadvalda ifodalang.

B/B/B (Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim) jadvali

№	Mavzuning savoli	Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim
1				
2				
3				
4				
5				

Tarqatma material 2.1.4.

Qaror qabul qilishning qadam-baqadam modeli

1. Muammoni aniqlash. Eng avvalo, muammo (tufayli erishish lozim bo'lgan natija)ni ajratish, ayni shu vaqt, shu vaziyat uchun qaysi biri asosiy hisoblanishini, aniqlash zarur.

2. Muqobil variantlarni aniqlab chiqish (belgilangan natijaga erishishning turli usullarini aniqlash). Masalan: aukcion, musobaqa, navbatda turish, boshliqning qarori, mulk egasining xohishi va boshqalar.

3. Mezonlarni belgilash. (Har bir variantni baholash me-zonlarini aniqlaydigan standartlarni belgilash.) Masalan: hammaga teng shans, naflilik, eng yuqori narx, mukofot, qadr-qimmat, omad va hokazo.

4. Muqobil variantlarni baholash (Har bir mezon, muqobil variant uchun qo'llaniladi).

5. Qaror qabul qilish (turli variantlar mezonlari bo'yicha taqqoslanadi va ulardan eng maqbuli tanlanadi).

Qaror qabul qilish setkasi

Muqobil variantlar	Mezonlar					
	Hamma- ga teng shans	Eng yuqori narx	Qadr- qimmat, naf	Mulkiy egasining tanlovi	Omad	Mukofot
Boshliq (o'qituv- chi)ni qaroriga ko'ra	-					+
Lotereya o'tkazish	+				+	
Auksion		+	+			
Konkurs	+		+			+
Mulkiy ega- sining xo- hishiga ko'ra				+		

Qaror qabul qilish setkasi (kichik guruhlar to'ldirishi uchun)

Muqobil variantlar	Mezonlar					

Texnologik yondashuvga asoslangan jadallashgan, (jalb qiluvchi, chuqurlashtirilgan) ma'ruza o'qishning kamchiligi shundaki:

1. U texnologik xarita bo'yicha ajratilganga qaraganda ko'p vaqt talab qiladi. Ayniqsa, talabalar berilgan topshiriqni vaqtida bajarolmasalar ham o'qituvchi, «ulgurish uchun» topshiriqni chala bajarilganicha navbatdagi bosqichga o'tadi yoki uni oxirigacha bajarishlari uchun qo'shimcha vaqt beradi. Unisida ham, bunisida ham barcha uzviy savollarni rejalashtirilganidek muhokama qilish uchun vaqt yetishmasligi xavfi katta.

2. O'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qilinadi. O'qituvchining o'zida izlanish, tadqiqotga intilish, olimlik xususiyati bo'lishi talab etiladi.

3. Talabalarni darsga tayyorlanib kelishlari va unda faol qatnashishlari talab qilinadi. Talabalarni bilim darajasi keskin farq qiladigan guruhlarda bunday ma'ruza o'qish juda qiyin.

Xulosa

- Ma'ruza o'quv jarayonini asosiy bo'g'ini, o'quvchi talabalar bilan muloqatda bo'lishning alohida bir shakli bo'lib, unda o'quv materiali, mavzu kuchli ravishda, ma'lum bir tizimga solingan – bayoni tushiniladi.

- Ma'ruza fanini o'rganishda qiziqish ishtiyoq, talabalarda fanni yanada chuqurroq o'rganishga xohish-istak uyg'otishi kerak. Buning uchun ma'ruzani unga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlanib o'tkazish kerak.

- Avvaldan ma'ruza qanday o'tkazilishiga ko'ra muammoli ma'ruzami yoki texnologik yondashuvga asoslangan holda bo'lishiga ko'ra ma'ruza darsining texnologik xaritasini tuzish zarur.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Ma'ruza, ma'ruzaning funksiyalari, kirish ma'ruzasi, mavzu bo'yicha ma'ruza, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ma'ruza, ma'ruzada real faktlar, an'anaviy ma'ruza o'qish, muammoli ma'ruza o'qish, jadal-lashgan ma'ruza o'qish, ma'ruza matni.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. O'quv jarayonida ma'ruza qanday o'rin tutadi?
2. Ma'ruzaga qanday talablar qo'yiladi?
3. Ma'ruzani bayon qilish metodlari qanday va ular nimalari bilan farqlanadi?
4. Ma'ruzada real faktlar, ma'lumotlarning o'rnini aytib bera olasizmi?
5. Qanday ma'ruza muammoli ma'ruza deyiladi?
6. Jadallashgan (jalb qiluvchi, chuqurlashtirilgan) ma'ruza qaysi jihatlari bilan sizni diqqatingizni tortdi? Uning kamchiliklari bormi?
7. Ma'ruzani qanday o'qish haqida shaxsiy fikringiz? Siz o'qituvchi sifatida ma'ruzani qanday o'qigan bo'ladingiz?

VI bob. SEMINAR MASHG'ULOTLARIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA ULARNI O'TKAZISH

O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan yana biri amaliy mashg'ulot. Uning asosiy shakli seminar darsi bo'lib, u talabalarining bilim olish, olingan bilimni puxta o'zlashtirish, darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydigan turli-tuman metodlarni qo'llash imkoni kengligi bilan ajralib turadi. Navbatdagi bob seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishi, uni samarali o'tkazishni o'rganish masalalariga bag'ishlanadi.

1-§. Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni

Ma'ruza bilan birgalikda amaliy mashg'ulot ham o'quv jarayonining muhim shakllariga kiradi. U ta'lim, tarbiya berish hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyasini bajaradi. Amaliy mashg'ulot termini pedagogikaga oid adabiyotlarda tor va keng ma'noda talqin etiladi. Amaliy mashg'ulot keng ma'noda seminar (uning barcha turlari), mashq, laboratoriya ishini umumiy holda ifodalanishidir. Seminar amaliy mashg'ulotning shakllaridan biri bo'lib:

- ma'ruzada bayon qilingan nazariy qonun-qoidalarini mustahkamlash;
- fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- talabalarni ilmiy tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish vazifalarini bajaradi.

Seminar darsi talabalarni bilim olishlari, uni puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham seminar darsini qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlarni qo'llab o'tish, muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda bayon qilish yetakchi rol o'ynaydi. Talabalar ma'ruza tinglashda passiv rol o'ynaydilar. Seminar darsida esa talabalar faol bo'lishadi. Darsda turli metodlarni qo'llab, ularning faolligini ta'minlash imkoniyati keng.

Ma'ruza darsi monolog tarzida bayon qilinsa, seminar darsi

dialog asosida olib boriladi. Odatda, seminar darsida talabalarning bilimi, o'z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Seminar (lot. seminariym – manba, ko'chma ma'noda – maktab) – o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi.

Ta'limning seminar shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo'lgan. Keyinchalik G'arbiy Yevropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu universitetlarda seminar talabani adabiyotlar, manba ustida ishlashi vazifasini o'tagan. XX asr boshlaridan seminar darslari talabalarning umumiy ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhim muammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynay boshlagan.

Seminarining asosan uch turi bor:

- O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari.

- Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar.

- Tadqiqot xarakteridagi seminarlar.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar o'quv jarayonining talabalar bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimni real hayotda qo'llashga o'rgatishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Seminar darsining oldiga qo'yilgan bosh maqsadga erishish uchun dars oldiga qo'yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajaradigan funksiyalarda o'z ifodasini topadi.

Seminar darsi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1) talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) mustaqil ishlash malakasini o'stirish;
- 3) mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- 4) nutqini o'stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o'rgatish;
- 5) mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini o'rtoqlashishga o'rgatish;
- 6) o'rtoqlari fikrini tanqidiy baholashga o'rgatish;
- 7) talabalar bilimni nazorat qilish va baholash;
- 8) nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash.

Inson xotirasi – bu bizning biokompyuterdir. Odatda, yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot qisman xotiradan

ko'tariladi. Axborotlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, inson har kuni o'z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori, ularni turlicha qabul qilinishi, xotirada saqlanib qolishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, olingan axborot, chizmada tasvirlangandek, go'yoki filtrdan o'tib, saralanib, ma'lum bir jihatlari bilan ajralib turadiganlari xotirada saqlanar ekan.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

1) qiziqarliligi, jo'shqinligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;

2) tasavvur, his-tuyg'u va shu kabi bir-birini eslatadigan, o'zaro bog'lanishdagi axborotlar;

3) inson tomonidan tushunib, mohiyatiga yetilgan axborotlar;

4) faollik bilan qabul qilingan, o'rganilgan, takrorlanib turiladigan axborotlar.

Aytib o'tganimizdek, olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oddiy inson odatda axborotlarni olgan manbasi, shakliga ko'ra turli darajada o'zlashtiradi.




Agarda uni abstrakt chizma orqali ko'rsatadigan bo'lsak, mana bunday ifodalash mumkin.

Olingan axborot chizmada go'yo filtrdan o'tishi ko'rsatilgan. Bu holda axborot qisqa muddat yodda saqlanadi. Qisqa muddat yodda qolgan bilim ikkinchi filtrdan o'tgach, shu bilimni yodda saqlash, foy-

dalanish, takrorlash tufayli faol bilim zaxirasiga aylanadi.

Bu bilimdan foydalanib, takrorlab turilmasa, sust bilim zaxirasiga aylanadi va bora-bora xotiradan ko'tariladi. Uni quyidagi grafikda ko'rish mumkin. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: talabalarning eng avvalo, o'quv materialini o'zlashtirishi, yodda qolishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko'rish orqaligina emas, balki gapirish, o'z faoliyatida sinab ko'rish orqali yetkazish katta ahamiyatga ega. Bunga erishishning yo'li seminar darslarini turli-tuman metodlar orqali olib borishdir.



Aynan seminar dar-sida talabalar ma'ruza, kitob, jurnal va hokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko'rish

imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Seminar darsini o'tkazishda qo'llanadigan uslublar turli-tuman bo'lib, u yoki bu uslubni tanlash, o'rganilayotgan fanning xususiyatiga; o'tilayotgan mavzuga, seminar darsiga qo'yilgan maqsadga, tanlangan uslubni qo'llash imkoniyatiga bog'liq.

Hozirgi paytda iqtisodiy fanlarni o'rganishda nisbatan keng qo'llaniladigan uslublardan: ekspres savol-javob, savollar tizimiga asoslangan muhokama, seminar mashg'uloti rejasi bo'yicha atrof-licha suhbat, modellashtiruvchi o'yin, doklad va referatlarni muhokama qilish, masala, mashq, test yechish va ularning natijasini muhokama qilish, munozara va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Seminar mavzui ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ba'zan mavzudagi ayrim savollar ma'ruzada ko'rib chiqilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda ma'ruzada ko'rilgan mavzu albatta, seminarda ham muhokama qilinadi. Lekin ma'lum sharoitda seminar darsi va uning mavzusiga boshqacha yondashish mumkin. Aytaylik, adabiyotlar, axborot manbalari mavjud bo'lsa, seminarda mustaqil o'rganilgan mavzuni muhokama qilish mumkin.

Seminar darsini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish zarur. Adabiyotlarni o'rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi usul asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi.

Savollarni murakkablashtirish hamda savollar tizimiga o'tish orqali mavzu mazmunini chuqur o'zlashtirish mumkin. Bu esa savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o'rganib, uni yechish imkoniyatini beradi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? - degan savol qo'yilgan. Bu holda talaba iqtisodiyot nazariyasi fanining bosh muammosi — resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehti-

yojlarni qondirish muammosi, deb javob berishi mumkin.

Ana shu savolni aytaylik, quyidagicha savollar tizimi asosida ilgari surish mumkin: Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? Nima sababdan buni bosh muammo deb ataymiz? Sizningcha, iqtisodiyotda yana qanday muammolar bor? tarzida berish mumkin. Ana shu savollar tizimiga javob berish jarayonida talabalar iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish ekanligini, bunga sabab, iqtisodiyotdagi barcha masalalarni qamrab olishi ekanligi oydinlashadi. Ularga misol-qilib, tanlash muammosini, har bir uy xo'jaligi, firma, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va unga erishish muammosini va hokazolarni ko'rsatish mumkinki, ularning barchasi resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq.

Mavzuni o'rganishni chuqurlashtirishga savol shaklini o'zgartirish, uni murakkablashtirish orqali ham erishish mumkin. Aytaylik, savolni iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima va uni nega bosh muammo deyiladi?- tarzida qo'yiladi.

Talabalarning mavzuni, u yoki bu kategoriyani qay darajada tushunganlarini sinash va puxtaroq tushunishlariga yordam berish uchun javoblarni ular bilan birgalikda muhokama qilish asosida mini test o'tkazish mumkin.

Seminar-darsning iqtidorni namoyon etadigan, nutq so'zlash, boshqalar fikriga tanqidiy qarashni talab etadigan uslublaridan biri – munozaradir. Bunday usul bilan dars o'tish o'qituvchidan katta tayyorgarlik ko'rish, mahoratni talab qiladi. Umuman olganda, seminar darsi turli metodlar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli, barcha talabalarni faol qatnashishga, demak, darsga qunt bilan tayyorlanib kelishga undaydi.

2-§. Seminar-darsiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish (seminar-darsi o'tishga doir uslubiy ko'rsatmalar)

Seminar-darsiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni quyidagi namunaviy mashg'ulotda ko'rib chiqamiz. Bu uslubiy ko'rsatma dars o'tishni rejalashtirish va o'tkazishga yordam beradi.

Dars o'tishni uch asosiy qismga bo'lish mumkin. Bular:

I. Kirish:

- salomlashish;
- o'tgan dars mavzuini qisqacha takrorlash;
- yangi mavzuni talabalarga havola qilish;
- darsda o'tiladigan mavzuning maqsadini bayon qilish;

– darsda muhokama qilinadigan savollar rejasini bayon qilish.

II. Dars o'tish:

– mavzuda ko'riladigan asosiy masalalar, kategoriyalarni bayon qilish;

– asosiy konsepsiyalarni, masala, muammolarni tushuntirish, qaytarish bilan talabalar bilimini mustahkamlash;

– hayotda ularni qo'llash borasida misollar keltirish;

– seminar-darslar, amaliy mashg'ulotlarda masalalar, mashqlar yechish va boshqa qator metodlar yordamida bilinni mustahkamlash.

III. Darsni yakunlash:

– darsda bayon qilingan fikrlarni umumlashtirish;

– darsga xotima yasab, talabalarni kelgusida bajarilishi kerak bo'lgan ishlarga yo'naltirish.

Namunaviy seminar mashg'uloti

Mavzu: «IQTISODIY RESURLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI»

Darsning maqsadi:

– ehtiyojlar, nima uchun ularning tarkibiga turli jihatdan yondashish va guruhlariga bo'lishni tushunib olish;

– ehtiyojlarni shakllanishida axborotning rolini anglash;

– resurslar cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi iqtisodiyotning bosh muammosi ekanligini tushunib yetish;

– tanlov va qaror qabul qilish muammosi, qaror qabul qilishning muqobil variantlari va mezonlarini ishlab chiqishni o'rganish;

– qaror qabul qilish uchun axborotning ahamiyati naqadar katta ekanligini anglash;

– ehtiyojlarni qondirilishini ifodalaydigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni bilish.

Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tayanch tushunchalar va atamalar:

1. Individual ehtiyoj

2. Guruhiy ehtiyoj

3. Umumjamiyat ehtiyoji

4. Moddiy ehtiyojlar

5. Ma'naviy ehtiyojlar

6. Yakka va birgalikda qondiriladigan ehtiyojlar

7. Shaxsiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari

8. Ehtiyojlarning yuksalib borishi

- | | |
|--------------------------------|---------------------------------------|
| 9. Resurslar cheklanganligi | 13. Ishlab chiqarish imkoniyati |
| 10. Tanlov | 14. Shaxs(aholi) ixtiyoridagi daromad |
| 11. Muqobil qiymat | 15. Qaror qabul qilish setkasi |
| 12. Imkoniyatlar egri chizig'i | |

Dars o'tish uchun zarur jihozlar:

– proektor, slaydlar, flomaster, kitob, gazeta - jurnallar.

Dars o'tishda foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar (slayd, vatman qog'ozga chizilgan bo'lishi yoki dars davomida doskaga chizish mumkin):

- ehtiyojlar va resurslar tarkibining tasnifi berilgan sxema;
- imkoniyat egri chizig'ini ifodalovchi grafik.

Tarqatiladigan materiallar:

- ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i modeli tasvirlangan grafik asosida masalalar, darsda bajariladigan topshiriqlar;
- qaror qabul qilish setkasi.

Seminar darsida muhokama qilinadigan savollar va ularga ajratilgan taxminiy vaqt:

Tashkiliy qism 5–8 daqiqa.

Muhokama qilinadigan savollar

Savollar mazmuni	Ajratilgan vaqt
1. Ehtiyojlarning mazmuni. Ehtiyojlarning tarkibi. Individual, guruhiy va umumjamiyat ehtiyojlari.	10-12 daqiqa
2. O'zbekistonda ehtiyojlarning xususiyatlari.	10-12 daqiqa
3. Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalish qonuni.	8-10 daqiqa
4. Resurslarning cheklanganligi. Ishlab chiqarish imkoniyati.	10-12 daqiqa
5. Tanlov va muqobil qiymat. Muqobil tanlov va qaror qabul qilish.	10-15 daqiqa
6. Iqtisodiyotning bosh muammosi.	8-10 daqiqa
7. Ehtiyojlarni qondirilish darajasi	8-10 daqiqa
Darsni yakunlash	5-8 daqiqa

Darsning qisqacha tafsiloti

1. Tashkiliy qism

Talabalar bilan salom-alik qilinadi. O'qituvchi auditoriyada zarur jihozlar bor-yo'qligini ko'zdan kechirib chiqadi. Davomat tekshiriladi. So'ngra o'tgan seminar darsida o'tilgan mavzuini qisqacha takrorlab, yangi mavzuni boshlaydi. Darsning qisqacha maqsadi bayon qilinadi:

O'tgan seminar darsida biz iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va uslubi mavzusini yakunladik. Shu mavzuda biz iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi, iqtisodiy nazariyaning fan sifatida shakllanish jarayoni, asosiy iqtisodiy maktablarni ko'rib o'tdik. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, hodisalar va ularni o'rganishning uslublarini birgalashib muhokama qildik.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha iqtisodiy fanlarning poydevori ekanligi, davlatning iqtisodiy siyosatining ilmiy asoslarini ishlab chiqishdagi tutgan o'rni, normativ va pozitiv iqtisodiy nazariyaning farqini o'rgandik. Ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish va uning muammolarini aniqlashda iqtisodiyot nazariyasi fanining ahamiyatini bilib oldik.

Bugun biz yangi mavzu: «Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari» mavzusini muhokama qilamiz.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanini o'rganishni aynan mana shu mavzudan boshlashimiz bejiz emas, chunki insonning butun hayoti turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Bugungi mavzuda biz ana shu ehtiyojlarning tarkibi, ularning cheksizligi, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni cheklanganligi, bundan kelib chiqadigan iqtisodiyotning bosh muammosi, tanlov va qaror qabul qilishni zarurati va boshqa masalalarni o'rganamiz.

Darsga seminar mashg'uloti rejasi bo'yicha tayyorlanib kelish kerak edi. Darsga hamma tayyormi? - deya so'rab, tayyorlanmay kelganlarni sababini aniqlaydi. Bugungi mavzu muhokamasini boshlaymiz deb, o'qituvchi kirish so'zini tugatadi.

2. Savollar muhokamasi

Bugungi mavzu muhokamasini «Ehtiyojlarning mazmuni. Ehtiyojlarning tarkibi. Individual, guruhiy va umumjamiyat ehtiyojlari» uzviy savolini muhokama qilishdan boshlaymiz, deya o'qituvchi nimalarga alohida ahamiyat berish kerakligini tushuntiradi.


Bu savolni an'anaviy uslub suhbat va savol-javob bilan muhokama qilish mumkin. Bunda, avvalo, ehtiyojlar deganda nimani tushunamiz? degan savol qo'yamiz.

Hayot kechirish uchun obyektiv zaruriyatning barchasi ehtiyoj tarzida namoyon bo'ladi. Insonlarning ehtiyoji, ularni qondirish iqtisodiy faoliyat orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Ehtiyojlarning shakllanishida axborotning roliga, alohida e'tibor berish, talabalar tomonidan hayotiy misollar keltirilishiga diqqat qilish kerak.

Ehtiyojlarning nihoyatda turli-tumanligi, unga har jihatdan yondashib guruhlariga bo'lishni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.

Ko'rgazmali material 1 (1-sxema)



Bu savolda dastlab ehtiyojlar, sub'ektlarning individual, guruh, umumjamiyat ehtiyojlariga bo'linishi muhokama qilinadi. Subyektlarning ehtiyojini guruhlariga ajratish, umuman olganda, mulkning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi bilan ham bog'liqligini eslatib o'tish zarur.

So'ngra ehtiyojlar boshqa xususiyatlariga ko'ra turli guruhlariga bo'linishi ko'rib chiqiladi. Bunda talabalar hayotiy misollar yordamida ehtiyojlarni turli guruhlariga bo'linishini tushunib olishlariga

e'tibor berish kerak. Shu maqsadda turli yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qilib, uni muhokama qilish mobaynida maqsadga erishiladi. Masalan: nima sababdan ehtiyojlarni ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar deb ataymiz? Individual ehtiyoj deb qanday ehtiyojga aytamiz va hokazo.

O'qituvchi musobaqaga qisqacha yakun yasaydi va keyingi savolga o'tiladi.

Navbatdagi savol: O'zbekistonda ehtiyojlarning xususiyatlari. Avvalo, ehtiyojlarning shakllanishiga qanday omillar ta'sir qilishi, O'zbekistondagi ehtiyojlar qanday xususiyatlari bilan ajralib turishini, ko'rsatish kerak. Bu holda aholining soni, jinsi, yoshi, tabiiy geografik sharoit, tarixiy, milliy an'analar va odatlar, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniyati va boshqa omillarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, «O'zbekistondagi ehtiyojlar xususiyatlarining ular tarkibini shakllanishiga ta'siri» mavzusida referat yoki qisqa doklad tayyorlash mumkin.

Bu holda *referat* yoki *qisqacha dokladni* ikki talaba tayyorlagani ma'qul. Biri ikkinchisini to'ldiradi. Referatda ko'proq O'zbekistonda ehtiyojlarning shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishi, kelajakda ehtiyojlar qanday o'zgarishi mumkinligi haqida, talaba o'z fikrlarini qanday bayon qilishiga ahamiyat berish kerak.

Talabalar o'z ishlarida respublika, viloyat yoki tuman miqyosida (imkoniyati qadar) statistik ma'lumotlardan foydalanishi zarur. Agar bu fikrlar yetarli bo'lmasa, o'qituvchi yoki talabalar savol berishlari mumkin. Faqat bu savol-javoblar uzoqqa cho'zilib ketishini oldini olgan ma'qul.

O'qituvchi savolni qisqacha yakunlab, kelgusi muhokama qilnadigan savol va unda diqqat qaratish lozim bo'lgan masalalarga alohida urg'u beradi. Bu savol butun iqtisodiyot masalalarini o'zida mujassamlashtirgan muammoni kelib chiqishiga sabab bo'lgan ikki fundamental faktning birini yoki muammoning asl poydevorini tashkil etgan «*Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalish qonuni*»ga bag'ishlanadi.

Bu savolni muhokama qilganda ehtiyojlarning nima sababdan cheksiz bo'lishi asoslab berilishi kerak.

Ehtiyojlarni miqdoran o'sib, ular tarkibi xilma-xilligining kengayishi qanday omillarga bog'liqligini talabalar tushunib yetishi, ehtiyojlarning yuksalib borisli qonunining amal qilishi, nima sababdan u umumiy iqtisodiy qonunlar guruhiga kiritilishini, talabalar tushunib yetishlari kerak.

Talabalar bu savolga qanday tayyorlanib kelishganini mini-test yordamida aniqlash mumkin.

Mini-testimizni yechish uchun har bir savolga 1 daqiqadan vaqt ajratamiz. Mini-test quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Ehtiyojlar cheksizligining sabablari:

- a) aholi sonining o'sib borishi;
- b) qondirilgan ehtiyoj yangi ehtiyojni vujudga keltirishi;
- d) fan-texnika taraqqiyoti aholining yangi-yangi ehtiyojlarini vujudga keltirishi;
- e) ishlab chiqarishning maishiy madaniyatni shakllantirishi.
- f) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri.

2. Ehtiyojlarning yuksalib borishi qonuni:

- a) ehtiyojlarning miqdor jihatidan ko'payishi munosabatlarini ifodalaydi;
- b) ishlab chiqarish va madaniyatning taraqqiyoti bilan ehtiyojlarning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishini ifodalaydi;
- d) aholining qulaylikka bo'lgan zaruriyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini o'sib borishini ifodalaydi;
- e) ehtiyojlarning tarkibi o'zgarishini ifodalaydi;
- f) ehtiyojlarning miqdor jihatidan ko'payishi munosabatlarini, ehtiyojlarning tarkibi o'zgarishini ifodalaydi.

3. Ehtiyojlarning cheksizligi ko'proq qaysi turdagi ehtiyojlarga taalluqli?

- a) moddiy ehtiyojlarga;
- b) guruh ehtiyojlariga;
- d) ijtimoiy-ma'naviy, qulayliklarga bo'lgan ehtiyojlarga;
- e) uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga;
- f) moddiy va guruh ehtiyojlarga.

4. Jamiyat ehtiyojlarining tarkib topishi va yuksalib borishiga ta'sir etuvchi omillar:

- a) aholi, soni, yoshi, jinsi;
- b) tabiiy-geografik sharoit;
- d) tarixiy milliy an'analar va odatlar, madaniy jihatdan erishilgan daraja;
- e) jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti;
- f) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri.

5. Ehtiyojlarning yuksalib borishi qonuni umumiy iqtisodiy

qonunlar guruhiga kiritiladi. Sababi u:

a) kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson ehtiyojlari miqdoran ko'payib, uning tarkibi o'zgarib, yangilanib, xilma-xilligi ortib boradi;

b) iqtisodiyot taraqqiyoti tufayli ehtiyojlarning tarkibi doimo yangilanib boradi;

d) fan-texnika taraqqiyoti tufayli doimo ishlab chiqarish ehtiyojlari ortib boradi;

e) kishilarning maishiy madaniyati shakllanib, borgan sari o'sib boradi;

f) ishlab chiqarish ehtiyojlari ortib, maishiy madaniyat shakllanib boradi.

Mini-test bo'yicha javoblarni to'g'riligini tekshirish uchun o'qituvchi avvaldan javoblar bo'yicha setka tayyorlab olgani ma'qul. U katak daftardan qirqib tayyorlanadi.

	a	b	v	g	d
1					+
2		+			
3			+		
4					+
5	+				

Qaysi javob to'g'ri bo'lsa, shu katakni qirqib olamiz. Bizni tasvirimizda u (+) belgisi tushirilgan. Faqat test javoblarini aynan qanday tartibda yozilishiga qarab, setka tayyorlanadi yoki tayyorlangan setkamiz bo'yicha javoblar qanday tartibda yozilishi kerakligi to'g'risida ogohlantiramiz. Imkoniyat bo'lsa, test bilan birga javob yoziladigan setka ham tarqatiladi. Bunda javoblarni qanday, qayerga yozishni tushuntirish oson.

O'qituvchi testlarni yig'ishtirib olib, qaysi javoblar to'g'riligini, tekshirmay yoki tezda tekshirib, muhokamani boshlashi mumkin.

O'qituvchi ixtiyoriy yoki o'z qaroriga ko'ra biron talabadan uningcha qaysi javob to'g'riligini so'raydi. Talaba belgilagan javobni aytadi. O'qituvchi auditoriyaga «Hamma shunday belgiladimi?» - deya murojaat qiladi:

Talabalar qaysi javob va aynan nima sababdan to'g'riligini tushunishi uchun javoblar birma-bir tahlil qilib chiqiladi. Birinchi javobda aholining soni o'sib boradi, deyilgan. To'g'ri, aholining

soni o'sib boradi va u ehtiyojlarni ham o'sishiga olib keladi. Lekin bu yetarli emas. Ehtiyojlarning o'sishiga faqat aholi miqdorining o'sishi sabab bo'lganda asosan birinchi hayotiy ehtiyoj-moddiy ehtiyojlargina o'sgan bo'lar edi. Biz bilamizki, ular nisbatan sekin o'sadi.

Ikkinchi javob ham qisman to'g'ri, qondirilgan ehtiyojning bir qismi ma'lum muddatdan so'ng yana qondirilishini talab qiladi. Masalan, kiyim-kechak, oziq-ovqat... Ayrim ehtiyojlar esa qondirilgach, qator yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yangi ixtirolar, yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradiki, ularning chegarasi yo'q. Masalan, avtomobilni olaylik. Unga bo'lgan ehtiyoj qondirilgach, yana qator yangi ehtiyojlar kelib chiqadi. Keyingi javobni ham qo'shsak, fikr nisbatan to'laroq bo'ladi. Lekin buning uchun odamlarda maishiy madaniyat shakllangan bo'lishi kerak. Maishiy madaniyat yuqori darajaga ko'tarilgan sari odamlar ishlab chiqarilgan ne'matlardan kengroq foydalanadilar.

Demak, ehtiyojlar cheksizligiga sanab o'tilgan barcha javoblar alohida, alohida javob bermas ekan. Ular hammasi birgalikdagina ehtiyojlarning cheksizligi sabablarini ko'rsatib beradi. Bunday javob bor d. Demak, to'g'ri javob d.

Xuddi shu tarzda qolgan savollar ham talabalar bilan muhokama qilib chiqiladi. Hamda musohabaga yakun yasab, ehtiyojlarining poyoni yo'qligini, jamiyat taraqqiyoti bilan u yanada yuksalib borishini e'tirof qilib, bu jarayon ehtiyojlarning yuksalib borishi umumiy qonunida o'z ifodasini topishini ta'kidlab o'tiladi.

Bu savolni o'qituvchi boshqa metodlar an'anaviy uslub, referat yoki ilmiy doklad muhokamasi tarzida o'rganishni tashkil etishi mumkin:

O'qituvchi uchinchi savolga yakun yasar ekan, hozirgi muhokama qilingan savolda iqtisodiyotning bosh muammosi — poydevorini tashkil qilgan ikki fundamental faktning birinchisi ko'rib chiqilgani, ikkinchisining muhokamasiga o'tilayotganini ta'kidlashi kerak. Bu **resurslarning cheklanganligi**. Resurslar cheklanganligi qaror qabul qilish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yadi. Hozir aynan, ana shu muammoni reja bo'yicha to'rtinchi savol - «**Resurslarning cheklanganligi. Ishlab chiqarish imkoniyati. Tanlov va muqobil qiymat. Qaror qabul qilish**» yordamida puxta o'rganishga harakat qilinadi.

Bu markaziy savol bo'lib, birmuncha murakkabdir. Shuning uchun uni uchga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi qismi «**Resurslarning cheklanganligi**». Birinchi navbatda resurslarning o'zi nima? Resurslar tarkibini o'rganiladi. Buning uchun avvaldan tayyorlangan sxemadan foydalaniladi (154-bet).

Resurslardan ishlab chiqarishda foydalanganimizda u ma'lum samara beradi. Bu holda natijalar o'z chegarasiga ega ekanligi, shu chegaradan ortiq ishlab chiqara olmasliginiz chegarasi hisoblanib, ishlab chiqarish **imkoniyati chegarasi** deb ataladi.

Talabalarga: ayrim iqtisodchilar axborot va moliyaviy resurslarni ishlab chiqarish resurslari tarkibiga kiritishsa, boshqalari bu noto'g'ri, deyishayotganini, «Siz qaysi bir fikrga qo'shilasiz?» - deya murojaat qilib, munozaraga chorlash mumkin. Bunda ma'ruzada qo'llangan resurslar tarkibini ko'rsatuvchi chizmani axborot va moliyaviy resurslarni qo'shib qanday o'zgartirish mumkinligini ko'rib chiqish mumkin.

Savolning ikkinchi qismini imkoniyat egri chizig'i haqidagi fikrimizni mustahkamlash uchun masala, misol yechish yordamida o'rganiladi. Buning uchun quyidagi topshiriqlar berilgan tarqatma materiallardan foydalaniladi.

1-tarqatiladigan material

Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i 80 dona mini traktor va 400 dona chigit ekadigan moslamadan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarishning quyidagi kombinatsiyalari mavjud:

1. 80 mini traktor	400 chigit ekadigan moslama
2. 60 mini traktor	200 chigit ekadigan moslama
3. 80 mini traktor	300 chigit ekadigan moslama
4. 35 mini traktor	300 chigit ekadigan moslama
5. 40 mini traktor	300 chigit ekadigan moslama
6. 70 mini traktor	250 chigit ekadigan moslama

a) Grafik chizing va unda ishlab chiqarish kombinatsiyalarini tasvirlang.

b) Samarali, samarasiz va ilojsiz variantlarini aniqlang.


Eslatma: mini traktorning muqobil qiymati o'suvchi.

O'qituvchi guruhning salohiyatiga ko'ra, masalani yechish uchun vaqt belgilaydi. Talabalar topshiriqni olgach, uni bajarishga kirishadilar. Belgilangan vaqt tugagach, kim tez, to'g'ri yechgani aniqlanadi va baholanadi.

To'g'ri javobni taqqoslashlari uchun javob yozilgan tarqatma material talabalarga beriladi.

2-tarqatiladigan material

Javob:



Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2- va 5- variantlarda mavjud resurslardan to'la foydalanib, mahsulot ishlab chiqarilgan, chunki mahsulot ishlab chiqarish kombinatsiyasi imkoniyat egri chizig'i ustida yotibdi. Demak, ular eng samarali variantlar hisoblanadi. Samarasiz variant 4. Sababi, resurslardan to'la foydalanilmagan, imkoniyat darajasidan kam mahsulot ishlab chiqarilgan. Shuning uchun bu kombinatsiya imkoniyat egri chizig'i ichida joylashgan. 3 va 6 variantlar ilojisiz variantlar hisoblanadi. Sababi, mahsulot ishlab chiqarish kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqta imkoniyat egri chizig'idan tashqarida joylashadi. Resurs yetmaydi.

Guruhdagi talabalarining iqtidoriga qarab, bundan ko'ra mu-rakkabroq quyidagi masalani berish mumkin.

3-tarqatiladigan material

Mamlakatda A va V turdagi tovar ishlab chiqariladi, deylik. Ularning imkoniyati chegarasi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rsatilgan.

Mahsulot turlari	a	b	d	e
A tovar (dona)	0	1	2	3
B tovar (dona)	12	10	6	0

1. Jadval ma'lumotlari asosida grafikda ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini tasvirlang.

2. A tovarning B tovarda ifodalangan muqobil qiymatini hisoblang.

3. B tovarning A tovardagi muqobil qiymati: o'suvchi, pasa-


yuvchi yoki doimiy? A tovarning B tovardagi muqobil qiymatichi? ko'rsating.

4. Agarda muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i qanday shaklda bo'ladi? Jadval va grafikda tasvirlang.

4-tarqatiladigan material

Javob:

Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i quyidagicha bo'ladi:



A tovarning B tovardagi muqobil qiymatini quyidagicha hisoblaymiz

a) Agar iqtisodiyotda 12 birlik B tovar ishlab chiqarsak 0 birlik A tovar ishlab chiqaramiz.

b) A tovarni 1 dona ishlab chiqarsak, B tovardan 2 ta kam ishlab chiqaramiz. **A ning muqobil qiymati 2 birlik B tovar** ($12 - 10 = -2$).

d) A tovar ishlab chiqarishni 1 dan 2 donaga ko'paytirishimiz natijasida 4 birlik B tovarni kam ishlab chiqarishimizga to'g'ri keldi. Endi **A tovarning muqobil qiymati** ($10 - 6 = -4$) **4 birlik B tovarga teng**.

e) A tovarni 2 birlikdan 3 birlikka ko'paytirdik. Natijada 6 birlik B tovarni kam ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Bunda **A tovarning muqobil qiymati 6 birlik B tovar** ($6 - 0 = -6$)

3. **Tovarlarning muqobil qiymati doimiy, o'suvchi yoki pasayuvchi ekanligini aniqlash uchun ularni ketma-ketlikda taqqoslaymiz.**


B tovarning A tovar ishlab chiqarish evaziga yo'qotilgan muqobil qiymati o'sib boruvchi, chunki u 2 dan 4, 6 ga o'sdi.

A tovarning B tovarda ifodalangan muqobil qiymati esa pasayuvchi, chunki u 12, 10, 6, 0 ga teng.

4. Agarda **muqobil qiymat doimiy** bo'lsa A tovar ishlab chiqarishni kamayishi yoki ko'payishi, B tovarning **teng miqdorda ko'payishi yoki kamayishida** ifodalanadi.

Uni jadval yoki grafikda tasvirlasak, quyidagicha bo'ladi:

Mahsulot turlari	a	b	d	e	f	g	h
A tovar (dona)	0	1	2	3	4	5	6
B tovar (dona)	12	10	8	6	4	2	0




Demak, muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi.

Agarda guruh talabalarining bilimi pastroq bo'lsa, quyidagi topshiriqni berish mumkin:


5-tarqatiladigan material

Jamiyat doimo joriy iste'mol uchun hamda kelajak uchun tovarlar, boshqacha aytganimizda, iste'mol mollari va investitsion tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, maorif, ta'lim, profilaktik tibbiyot (kasalliklarni oldini olish uchun chora-tadbirlar)ga qanday miqdorda resurslar sarflashni tanlaydi.

A,V,S,D mamlakatlar uchun 1995-yili a) **rasm** va 2005-yili b) **rasm**da ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'rsatilgan.



a) rasm



b) rasm

Har ikki rasmdagi imkoniyatlar egri chizig'ini taqqoslang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Nima sababdan har bir mamlakat imkoniyat egri chizig'i (a rasm), 2000-yili b) rasmdagi darajaga ko'tarildi?
2. Nima sababdan C va D mamlakatlarda A va B mamlakatlari qaraganda imkoniyat egri chizig'i yuqori?
3. 2005-yilda joriy iste'mol bu mamlakatlarda qanday o'zgargan?

6-tarqatiladigan material

Javob:

- Hamma mamlakatlarda ishlab chiqarish egri chizig'i fan-texnika taraqqiyoti natijasida o'ngga siljigan. Chunki fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi.

- S va D mamlakatlarda ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda 1995-yili investitsion tovarlar miqdori ulushi yuqori bo'lgan.

- 2005-yili barcha mamlakatlarda 1995-yilgi nisbatan joriy iste'mol o'sgan. Lekin S, D mamlakatlarda A, V mamlakatlarga nisbatan yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda dastlab kelajak uchun tovarlar ko'proq, ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini yuqori bo'lishiga, jumladan, joriy iste'molni ham A, V mamlakatlarga nisbatan S, D mamlakatlarda yuqori bo'lishiga olib keladi.

Savolning uchinchi qismi. «Tanlov va muqobil qiymat. Qaror qabul qilish». Talabalar bilan uni muhokama qilish uchun avvalo, qanday qilib tanlash amalga oshirilishini, tushunib olish kerak. Shuning uchun talabalarga «Qaror qabul qilishning qadam-baqadam modeli» va «Qaror qabul qilish setkasi» namoyish qilinadi va tarqatiladi.

Qaror qabul qilishning qadam-baqadam modeli yordamida qanday qaror qabul qilishni o'rganamiz. Ana shu model asosida qaror qabul qilish setkasini chizamiz. Avval tanlov mezonlari ishlab chiqilib, so'ngra diqqat ana shu mezonlarga javob beradigan tanlov obyektini variantlariga qaratiladi. Masalan: tadbirkor bozorni o'rganib, paypoq to'qiydigan kichik sex qurishga qaror qildi. Aytaylik, sex qurish uchun joy tanlash kerak. Auksionda 10 dan ortiq uchastkalar qo'yilgan bo'lib, ular shaharning turli hududlarida joylashgan. Bunda tadbirkor ana shu yer uchastkalarini o'zi belgilagan tanlov mezonlari asosida taqqoslaydi va qaror qabul qiladi.

Agarda tanlanadigan obyekt yagona yoki uni olish uchun talabgorlarga qaraganda taklif juda oz bo'lsa, u holda diqqat tanlashning muqobil variantlariga qaratiladi. Masalan, kitob bitta, uni o'qishni xohlaganlar juda ko'p, kitobni xohlovchilar o'rtasida qanday taqsimlash mumkin? Bunda tanlovning muqobil variantlarini ishlab chiqishga ahamiyat beramiz. Masalan, konkurs, auksion, mulk egasining xohishi va hokazolar.

Tanlash va qaror qabul qilish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'langani uchun ularning hammasini osongina tushunish imkonini beradigan modellashtiruvchi o'yinlardan foydalanish mumkin.

Quyidagi modellashtiruvchi o'yinlardan qaysi biri o'qituvchi uchun maqbul ko'rinsa, shuni tanlashi mumkin. Ma'ruzada qo'llanilgan o'yinni seminar darsida qo'llamagan ma'qul.

Resurslar cheklanganligi tanlash va qaror qabul qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

1. «Ko'rpangga qarab oyoq uzat» modellashtiruvchi o'yini. Bu o'yinda talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga shartli «puliga yarasha» o'qituvchining stoli ustidagi gazeta-jurnallardan tanlab olish taklif qilinadi.

Har bir guruh tanlab bo'lgach, talabalarga tanlovning qadam-baqadam modeli hamda tanlov mezonlari setkasi materiallari tarqatiladi.

O'qituvchi qaror qabul qilish setkasiga muqobil variantlarni (bizning o'yinimizda gazeta-jurnallarning nomlarini) talabalar tomonidan zarurligiga qarab yozib chiqishni, qaysi xususiyatlariga ko'ra gazeta-jurnallarni tanlash mumkinligiga qarab, mezonlarini belgilash kerakligini ko'rsatadi.

Buning uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Aytaylik, setkani bir kichik guruh quyidagicha to'ldirgan bo'lsin:

Qaror qabul qilish setkasi

Muqobil variantlar	Mezonlar				Seminarga tayyorlanish uchun maqola
	Qiziqarli hikoya	Feleton (kamchiliklar ochib tashlangan)	Krossvord, boshqa o'yinlar	Maslahatlar	
1.Saodat	+		+	+	
2.Sanam	+		+	+	
3.Bozor, pul-kredit		+	+	+	+
4.Xalq so'zi		+			
5.Darakchi	+		+	+	
6.Hurriyat			+	+	

Hamma kichik guruh setkani to'ldirib bo'lgach, har bir kichik guruhdan bir talaba, nima sababdan guruh aynan shu gazeta yoki jurnalni tanlaganligi sababini tushuntirib beradi.

Guruh «Bozor, pul, kredit» jurnalini tanlabdi. Sababi, seminar mavzusi bo'yicha ilmiy maqola chop qilinibdi. Imkon bo'lganda guruh «Darakchi» gazetasini ham sotib olgan bo'lardi. Chunki, unda qiziqarli maqola va maslahatlar berilgan. Bunda «Darakchi» gazetasi «Bozor, pul, kredit» jurnalining muqobil qiymati bo'ladi. U guruh tanlab olgan jurnaldan keyin gazeta-jurnallar ichida eng yuqori naf keltiradi deb baholanyapti. U o'zining zarurligi jihatidan «Bozor, pul, kredit» jurnalidan so'ng turadi.

Aytaylik, hamma guruh uchun «Bozor, pul, kredit» jurnali kerak. Lekin jurnal bitta. Uni olishni xohlaganlar o'rtasida qanday taqsimlash mumkin? Yana qaytadan turli variantlar va qaror qabul qilish mezonlarini aniqlab chiqamiz. Endi variantlar ham, mezonlar ham boshqacha bo'ladi. Yangi setka chizamiz. Har bir kichik guruh vakili guruh muqobil variantlaridan nimani tanlagani, uning sababini ko'rsatadi.

Muqobil variantlar	Mezonlar			
	Hamмага teng imkoniyat	Eng yuqori narx	Mukofot	Va hokazo
Musobaqa				
Auksion				
O'qituvchi				

qaroriga muvofiq				
Lotereya va boshqalar				

O'qituvchi javoblarni eshitib, o'yinni yakunlar ekan, talabalarining ishtirokini baholaydi. Agarda talabalarni kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish, bunday tarzda modellashtiruvchi o'yin o'tkazish nisbatan ko'p vaqt talab etsa, g'ala-g'ovur ko'payib ketsa, o'yinni boshqacha tarzda o'tkazish mumkin.

Bunda o'qituvchi bir necha kitob, gazeta, jurnallarni stol ustiga qo'yib, talabalar ichidan ixtiyoriy ravishda o'yinda qatnashishni xohlagan talabani tanlaydi. Unga bor puli miqdorida ular ichidan birini tanlashni taklif qiladi. Aytaylik, Nigora «Saodat» jurnalini tanladi. Agarda puli yetganda «Darakchi» gazetasini ham olgan bo'lardi.

Demak, Nigora uchun «Saodat» jurnalining muqobil qiymati «Darakchi» gazetasi. Bunda o'qituvchi auditoriyaga «Saodat» jurnalining muqobil qiymati nima? Nima sababdan «Darakchi» gazetasi jurnalning muqobil qiymati bo'ladi?, degan savol bilan murojaat qilishi mumkin.

Nigora nima sababdan «Darakchi» gazetasini olmay, «Saodat» jurnalini tanlaganining sababini aytib berishi kerak.

Buning uchun auditoriya bilan birgalikda doskaga yoki proektor bo'lsa, slaydga qaror qabul qilish setkasi chiziladi.

Setkada muqobil variantlar, ya'ni gazeta, kitob, jurnallarning nomlari ko'rsatiladi. Tanlash mezonlariga nima sababdan, qaysi xususiyatiga ko'ra tanlanishi ko'rsatiladi.

Keyingi raundda esa avvalgi kichik guruhlar bilan o'tkazilgan modellashtiruvchi o'yinimizdagidek, butun guruh uchun bitta kitob yoki jurnal qoldirib, uni talabalar o'rtasida qanday taqsimlash mumkinligini muhokama qilamiz.

Har bir talaba qaror qabul qilish setkasini to'ldirishi mumkin. O'qituvchi talabalar uni qanday to'ldirishganini ko'rib chiqib, 3-4 talabadan qanday qarorga kelganini gapirib berishni taklif qiladi.

Agar guruhda hissiyotga beriladigan talabalar ko'p bo'lib, modellashtiruvchi o'yin o'tkazganda auditoriyada g'ala-g'ovur kuchayib ketadigan bo'lsa, quyidagi topshiriqni berish mumkin.

Aytaylik, XP-90, 96 guruhi talabalari yangi yil balini o'tkazishga qaror qildi. Xarajatlar uchun esa o'rtada 120 ming so'm pul yig'ildi. Guruh shu puldan kam xarajat qilishi mumkin, lekin

ortiq emas. Guruh tadbirini ko'ngilli o'tkazish uchun:

- biror badiiy guruhni taklif qilishi;
- biror xonani ijaraga olishi;
- xonani bayram ruhida yasatishi,
- alkogolsiz ichimliklar, tamaddi qilish uchun yengil ovqat, shirinliklar olishi mo'ljallanmoqda.

Talabalar tomonidan saylangan mas'ul kengash quyidagi axborotlarni e'lon qildi:

Tadbirni o'tkazish uchun taklif qilish mumkin bo'lgan badiiy guruhlar:

- «Rayhon» guruhi — oddiy, arzon, baland tovushli musiqa, 10000 so'm;
- «Hisobchi» guruhi — hozirgi zamon qo'shiqlari va musiqa 15000 so'm;
- «Toshkent» guruhi — estradaning pop yo'nalishida 20000 so'm;
- «Anor» guruhi — 22000 so'm;
- Klassik va estrada qo'shiqlarini ijro etuvchi guruh — 26000 so'm.

Tadbirni o'tkazish uchun xona:

1. Fakultetning sport zali — 2000 so'm.
2. Iqtisodchilar klubi — 5000 so'm.
3. Madaniyat saroyi — 5500 so'm.
4. «Guliston» xususiy oshxonasi — 5700 so'm.
5. «Internet» klubi — 5800 so'm.

Yengil tamaddi qilish uchun yaxna ovqat, salat, shirinliklar, mineral suvlar.

— Talabalarning o'zlari buterbrod, pechene, tort tayyorlashlari, zalga bezaklar yasashlari — 20000 so'm.

— Tayyor buterbrod, turli suvlar va oddiy bezaklar sotib olib kelish — 25000 so'm.

— Tayyor buterbrod, pechene, tort, oddiy bezaklar sotib olib kelish — 30000 so'm.

— Tayyor buterbrod, pechene, tort, turli suvlar, chiroyli bezaklar sotib olib kelish — 60000 so'm.

O'ituvchining vazifasi — talabalarning yuqorida sanab o'tilgan san'atkorlar guruhlaridan qaysi birini chaqirishlarini, zalni qayerdan ijaraga olishlarini, ovqatlar, ichimliklar va bezaklar olishlari uchun qaror qabul qilish setkasini to'ldirishlarini nazorat qilish.

Har bir talaba yoki kichik guruh nima sababdan aynan tanlagan tadbiri uning uchun eng ma'qul ekanligi sababini izohlab berishi kerak. Bu topshiriq bajarilgach, o'qituvchi auditoriyaga quyidagi savolni tashlaydi: «Sizning oilangiz ham tanlash bilan bog'liq vaziyatga duch keladimi? U nimasi bilan o'xshash, qaysi tomonlari bilan farq qiladi?»

Yoki muqobil qiymat, tanlashni tushuntirishni eng oddiy, oson yo'lidan foydalanish mumkin. Buning uchun auditoriyaga o'qituvchi muhokama qilinayotgan mavzuga taalluqli savol tashlaydi.

Aytaylik, nima sababdan ehtiyojlar cheksiz? Kim birinchi bo'lib javob bersa mukofot: qalam, o'chirg'ich, ruchka. Javob bergan talaba shulardan birini tanlashi kerak.

Talaba albatta, buyumlardan o'zi uchun kerakli deb hisoblaganini oladi. Aytaylik, u ruchkani olsin. O'qituvchi undan nima sababdan ruchkani olganini so'raydi, Talaba ruchkasi yo'qligi uchun olgan bo'lsin. U holda o'qituvchi ruchkasi bo'lganda nimani olishi mumkinligini so'raydi. U qalam deb javob bersin. Demak, talaba uchun ruchkaning muqobil qiymati qalam bo'layapti. Chunki, u ruchkadan keyin qalamni eng ko'p naf keltiradigan narsa sifatida baholayapti.

Uning uchun tanlash va qaror qabul qilish mezonida asosiy zarurat turibdi. Boshqa talaba uchun esa tamomila boshqacha bo'lishi mumkin. Buni ikkinchi talabaga savol berib, aniqlash mumkin.

Seminar darsining talabalarda bilim, iqtidor, nutq so'zlash, boshqalar fikriga tanqidiy qarashni shakllantiradigan uslublaridan munozaradir. Bunday usul bilan dars o'tish o'qituvchidan katta tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Tanlash va qaror qabul qilish muammosi bu borada keng munozara maydoni hosil qilishga imkon beradi. Chunki, har bir talabaning variantlarni baholash mezonini ikkinchisidan farq qiladi.

Navbatdagi savol «**Iqtisodiyotning bosh muammosi**» bo'lib, bu savol mazkur mavzuning asosini tashkil etadi. Resurslar cheklanganligi o'z navbatida imkoniyatlar, tovar va xizmatlar, daromadlar cheklanganligiga olib keladi. Bu esa har bir faoliyatda tanlash zaruratini taqozo qiladi.

Biror qarorga kelish uchun, deylik, har kim o'z imkoniyati, daromadlari va vaqtiga qaraydi. Aslida butun jamiyat oldida ham shu muammo turadi. Har doim imkoniyatdan birini tanlar ekanmiz, ikkinchisi amalga oshishidan mahrum bo'lamiz. Tanlaganda esa xayolan ularni bir-biriga taqqoslaymiz. Biz uchun nisbatan eng yuqori naflikni tanlaymiz.

Hozirgi paytda juda ko'p iqtisodchilar: «**resurslar cheklanganligi**», «**tanlov**», «**muqobil (alternativ) qiymat**»ni iqtisodiyot nazariyasi tayanadigan uchta katta kit tarzida tasvirlashadi. Bu bejiz emas, chunki iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi shuni talab qiladi.

Savolni muhokama qilish jarayonida nima sababdan resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi iqtisodiyotning bosh muammosi ekanligini talabalar tushunib yetishi zarur.

U barcha muammolarni qanday qamrab olishini misollar bilan ko'rsatish kerak. So'zga chiqqan talaba bu haqda to'xtamasa, o'qituvchi unga qo'shimcha savollar bilan murojaat qiladi.

Savolni suhbat yoki savol-javob usuli bilan muhokama qilish mumkin. Bunda talabalar diqqatini avvalgi muhokama qilingan savollarga qaratib, ular asosida xulosa chiqarish zarur.

Savollar:

1. Nima ishlab chiqarish, ya'ni qanday tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni yo'lga qo'yish kerakki, u jamiyat ehtiyojlarini imkoniyatning eng yuqori darajasida qondirsin?

2. Qancha ishlab chiqarish, ya'ni tasarrufdagi resurslarni qanchasini ishlab chiqarishga jalb qilish hamda qancha hajmda mahsulot ishlab chiqarish kerak?

3. Mahsulotni qanday ishlab chiqarish kerak? Ishlab chiqarishni qanday tarzda tashkil etgan, qanday texnologiyadan foydalanган ma'qul?

4. Ishlab chiqarilgan mahsulotni kim oladi? U iste'molchilar o'rtasida qanday taqsimlanishi kerak?

5. Tizim yuz beradigan o'zgarishlarga moslanishga layoqatlimi? U iste'molchilar talabi, resurslar taklifi, shuningdek, texnologiyaning o'zgarishiga moslasha oladimi?

Bular iqtisodiy faoliyatning besh fundamental masalasi bo'lib, ular iqtisodiyotning bosh muammosidan kelib chiqadi. Har biri tanlovni va qaror qabul qilishni talab etadi. Mikromiqyosda uning yechimi har bir oila, korxonalar, firma, tashkilot qaroriga bog'liq bo'lsa, jamiyat miqyosida esa davlat qaroriga bog'liqdir.

Savolni muhokama qilish jarayonida talabalar diqqatini kelajakdagi taraqqiyot ana shu tanlov va qabul qilingan qarorlarga bog'liq bo'lishiga, u iqtisodiyotning regressiv, doiraviy, progressiv tarzda rivojlanishga olib kelishiga diqqatni tortish zarur.

Darsga yakun yasash. O'qituvchi darsni yakunlar ekan, talabalarga «Kimda qanday savol bor?» - deya murojaat qiladi. Tala-

balarning savoli bo'lsa, o'qituvchi javob beradi. So'ngra guruhning seminar darsiga tayyorgarligini baholaydi hamda eng faol qatnashganlarni alohida ko'rsatib, ular to'plagan ballni e'lon qiladi.

Kelgusi seminar darsi «Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish» mavzusi bo'yicha bo'lishi, darsga «Seminar mashg'ulotlarining rejasini» bo'yicha tayyorlanib kelish topshiriladi.

Bundan tashqari o'tilgan darsni, o'rganilgan kategoriyalarni yanada yaxshiroq eslab qolish uchun tarqatiladigan material orqali quyidagi topshiriq talabalarga uy vazifasi qilib beriladi. Topshiriqni kichik guruhlar birgalikda bajarishi tavsiya qilinadi.

7-tarqatiladigan material

Respublikamizdagi 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarish imkoniyatlari turlicha. Siz tadbirkor sifatida bolalar kiyim-kechagi tikadigan kichik korxonaga qurmoqchisiz. Uni qaysi viloyatga yoki tumanga qurgan bo'lar edingiz? Sababini izohlang.

Tanlov mezonlari: ish haqi, yuqori malakali kadrlar bor-yo'qligi, ishchilar malakasi, transport, aloqa, aholining tarkibidagi bolalarning hissasi, bozor hajmi, bolalar kiyim-kechaklarining narxi va boshqalar.

Respublika bo'yicha real ma'lumotlardan foydalanishga harakat qiling:

- A) topshiriqni har bir kichik guruh (4–5talaba) alohida bajaradi;
- B) har bir kichik o'z tanlovi va qabul qilgan qarorini asoslab beradi;
- D) javob yozma bo'lishi kerak.

O'qituvchi kelgusi darsda javoblarni yig'ib oladi va tekshirib chiqib, talabalar ishini baholaydi.

Umuman olganda, seminar darsi turli uslublar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli bo'lib, barcha talabalarni faol qatnashishga, demak, darsga qunt bilan tayyorlanib kelishga undaydi.

3-§. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil etish

Seminar darsini turli metodlarni qo'llab tashkil etishni ko'rib chiqdik. Darsni texnologik yondashuv asosida tashkil etish bu jihatdan birmuncha farq qiladi. Unda seminar darsi o'tishning texnologik xaritasi tayyorlanib, barcha savollar muhokamasi qanday

tartibda olib borilishi rejalashtiriladi. O'qituvchi va talabalarning qanaday vazifalarni bajarishi ko'rsatiladi. Darsning maqsadi, o'quv faoliyatining natijasi belgilanadi. O'qitishning metodlari va o'rganish texnikasi, o'qitish vositalari aniqlanadi. Mazkur darsni o'tgungacha talabalar bilishi lozim bo'lgan bilim va malakalar ko'rsatiladi. Har bir savolning muhokamasi qanday tartibda o'tilishi, qanday topshiriqlar berilishi ko'rsatiladi.

Texnologik yondashuv asosida seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni, texnologik xarita ishlab chiqishni «Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari» mavzusida seminar darsi o'tish mi-solida ko'rib chiqamiz.

«IQTISODIY RESURLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI» mavzusida seminar darsi o'tish texnologiyasi

Fakultet, kafedra, dars o'tiladigan kurs	O'quv predmeti	Mavzuning o'quv dasturidagi tartib raqami va ajratil-gan soat
Boshqaruv fakulte-ti, bakalavriat, I kurs	«Iqtisodiyot nazariyasi»	№ 2, 2 soat
Sana: sentabr	O'quv guruhi, tala-balar soni: BK-81, (20-25)	O'qituvchi
O'tiladigan dars mavzusi:	«Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari»	
Seminar rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ehtiyojlarning mazmuni. Ehtiyojlarning tarkibi. Individual, guruhiiy va umumjamiyat ehtiyojlari. 2. O'zbekistonda ehtiyojlarning xususiyatlari. 3. Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuk-salishi qonuni. 4. Resurslarning cheklanganligi. Ishlab chiqarish imkoniyati. 5. Tanlov va muqobil qiymat. Muqobil tanlov va qaror qabul qilish. 6. Iqtisodiyotning bosh muammosi. 7. Ehtiyojlarni qondirilish darajasi. 	
Asosiy tushuncha va	Ehtiyoj, ehtiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy qonuni, iqtisodiy resurslar, tanlovning muqobil	

terminlar	qiymati, ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi, resurslar cheklanganligi, iqtisodiyotning bosh muammosi
Darsning maqsadi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ehtiyojlar mazmuni va ularning tarkibiga turli jihatdan yondashish va nima sababdan turli guruhlarga bo'lishni tushunish; 2. Ehtiyojlarning shakllanishida axborotning rolini anglash. 3. Ehtiyojlarning yuksalib borishi, resurslarning esa cheklanganligi mazmunini anglash. 4. Resurslarni cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi iqtisodiyotning bosh muammosi ekanligini tushunib yetish. 5. Tanlov va qaror qabul qilish muammosi, qaror qabul qilishning muqobil variantlari va mezonlarini ishlab chiqishni o'rganish. 6. Qaror qabul qilish uchun axborotning ahamiyati naqadar katta ekanligini anglash. 7. Ehtiyojlarni qondirilishini ifodalaydigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni bilish. 8. Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
O'qituvchining vazifalari:	<p>Motivatsion vazifasi: mazkur mavzu bo'yicha chuqur ma'noga ega savollarni qo'yib, talabalarni fanning keyingi mavzularini va boshqa iqtisodiy fanlarni ham o'rganishga qiziqtirish.</p> <p>O'rgatuvchilik vazifasi: mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni bilan tanishtirish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish.</p> <p>Rivojlantiruvchi vazifasi: mantiqiy, tahliliy fikrlashni shakllantirish.</p>
O'quv faoliyatining natijasi	<p>Talaba: 1. Sotsial-iqtisodiy ehtiyojlar va uning tarkibiga turli jihatdan yondashib, mazmunini tushuntirib berishi; 2. Ehtiyojlarning cheksizligi sabablarini aniqlab, ehtiyojlar yuksalishi qonuni mazmunini aytib berishi; 3. Ishlab chiqarish imkoniyati transformatsiyasi egri chizig'i, tanlovning muqobil qiymati mazmunini bilishi kerak. 4. Ehtiyojlarning shakllanishi va qaror qabul qilishda axborotning roli naqadar katta</p>

	ekanligini ko'rsata olishi zarur. 5. Iqtisodiyotning bosh muammosi va nima sababdan uni bosh muammo deb atalishini bilishi zarur. 6. Ehtiyojlarning qondirilishi qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanishini tushuntirib bera olishi kerak.
O'qitishning metodi va o'rganish texnikasi	Ko'rgazmali qurollardan, tarqatma materiallardan foydalanish, modellashtiruvchi o'yin, kichik guruhlariga bo'linib, hamkorlikda ishlash, savol-javob, testlar, masala-mashqlar yechish.
O'qitish vositalari	Doska, kodoskop, slaydlar, daftar, kitob, gazeta, jurnallar, yozuv qog'ozlari, ruchka, qalam.
O'qitish sharoiti	Tipik auditoriya
Mazkur darsni o'tgungacha talabalar bilishi lozim bo'lgan bilim va malakalar	Iqtisodiy qarashlarning vujudga kelishi tushunchasi, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani nimani, qanday metodlar yordamida o'rganishi, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ehtiyojlar mazmuni.

**«IQTISODIY RESURSLAR VA JAMIYAT EHTIYOJLARI»
mavzusida seminar darsining texnologik xaritasi**

Texnologik bosqich, vaqt	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
Mavzu bo'yicha dars o'tishga tayyorlanish	<p>Talabalarni axborot, dars jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan topshiriqlar bilan ta'minlash maqsadida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - munozara uchun savollar tayyorlaydi; - mini-test savollari, masala-mashqlar tuzadi yoki kafedra tomonidan tuzilgan bo'lsa, mavzu bo'yicha tanlab, dars o'tishga tayyorlaydi; - mavzu bo'yicha ko'rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlaydi, dars o'tish metodlarini tanlaydi. <p>Dars o'tishning texnologik xaritasini tayyorlaydi.</p>	Seminarga tayyorlanishadi.

<p>I bosqich Kirish: avvalgi mavzu bilan bog'lash. Mavzuni o'rganishni motivatsiyasi 5-8 daqiqa</p>	<p>1.1. Avvalgi darsda o'tilgan iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning mazmunini qisqacha (blits)-so'rov metodini qo'llab esga solinadi. 1.2. Yangi mavzuni e'lon qiladi, uni o'tgan mavzu bilan bog'laydi. 1.3. Mavzuning maqsadi, darsning natijasi va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi. 1.4. Testlar, masala-mashqlarning vazifasi, ularni talabalar bilimini chuqurlashtirishga ta'sirini ko'rsatib beradi.</p>	<p>Og'zaki javob berishadi. Asosiy tushunchalarning mazmunini aytishadi. Eshitadilar.</p>
<p>II Asosiy bosqich. Talabalarni bilim olishda faollashtirish. Seminar darsining birinchi savoli muhokamasi. Individual ishlash 10-12 daqiqa</p>	<p>2.1.1. Talabalarga: inson yashashi uchun nimalar kerak? Nega ehtiyojlarga turli jihatdan yondashib, ularni turli guruhlariga bo'lamiz? Bunga qanday ehtiyoj bor deb o'ylaysiz? degan savollar bilan murojaat qilinadi. «Munozara» metodi qo'llaniladi. Muhokamani yakunlaydi.</p>	<p>2.1.1. Eshitadilar, javob beradilar, muhokama qiladilar</p>
<p>Seminarining ikkinchi savoli muhokamasi. Individual va guruh bilan ishlash 10-12 daqiqa</p>	<p>2.2.1. O'zbekistonda fuqarolarning ehtiyojlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari bormi? Sizningcha, bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? «Aqliy hujum» metodi qo'llaniladi. 2.2.2 Kichik guruhlarda aytilgan fikrlarni saralab, baho berish amalga oshiriladi. Muhokamani yakunlaydi.</p>	<p>2.2.1. Avval individual tarzda, so'ngra kichik guruhlar muhokama qilib javob beradilar</p>
<p>Uchinchi savol mu-</p>	<p>2.3.1. Savol bo'yicha tuzilgan test va javob jadvali tarqatiladi.</p>	<p>2.3.1. Talabalar jad-</p>

<p>hokamasi. Individual ishlash 8-10 daqiq</p>	<p>2.3.2. Test javoblarini yig'ishtirib olinadi 2.3.3. Test javoblarining muhokamasini uyushtiradi. Muhokamani yakunlaydi.</p>	<p>valni to'ldirishadi. 2.3.2. Test javoblarini muhokama qilishadi</p>
<p>To'rtinchi savol muhokamasi. Kichik guruhlarda ishlash 10-12 daqiqa</p>	<p>2.4.1. Kichik guruhlariga masala va mashqlar tarqatiladi. 2.4.2. Har bir kichik guruh topshiriqlarini yechishi va javobini taqdim etishini nazorat qiladi. 2.4.3. Topshiriqlarning javobi tarqatiladi.</p>	<p>2.4.1. Masala-mashqlarni yechishadi. 2.4.2. Ularni javobi bilan solishtirishadi.</p>
<p>Seminarining beshinchi savoli muhokamasi. Kichik guruhlarda ishlash 10-15 daqiqa</p>	<p>2.5.1. «Qaror qabul qilishning qadam-baqadam modeli», «Qaror qabul qilish setkasi» tarqatma materiallarini kichik guruhlariga beradi. 2.5.2. Kichik guruhlar tomonidan cheklangan resurs (kitob, jurnal)larni tanlashni tashkil qiladi. 2.5.3. Qaror qabul qilish setkasini to'ldirishni va kichik guruhlar taqdimotini tashkil qiladi.</p>	<p>2.5.1. Tarqatma material bilan tanishadilar. 2.5.2. Kichik guruhlar tanlaydilar. 2.5.3. Qaror qabul qilish setkasini to'ldiradilar 2.5.4. Nima sababdan tanlaganlarini, tanlov mezonlari qanday va nima sababdan o'zgarishini izohlaydilar</p>
<p>Oltinchi savol mu-</p>	<p>2.6.1. «Iqtisodiyotning bosh muammosi nimalardan iborat</p>	<p>2.6.1. Kichik gu-</p>

<p>hokamasi. Kichik guruhlarda ishlash 8-10 daqiqa</p>	<p>bo'lishi mumkin? Nima sababdan uni bosh muammo deymiz» degan savol qo'yadi. 2.6.2. Kichik guruhlarda muhokamani tashkil qiladi. 2.6.3. Muhokamani yakunlaydi.</p>	<p>ruhlar muhokama qiladilar. 2.6.2. O'z fikrlarini bildiradilar</p>
<p>Yettinchi savol muhokamasi Kichik guruhlarda ishlash 8-10 daqiqa</p>	<p>2.7.1. Ayrim ehtiyojlarni qondirish darajasi ko'rsatilgan statistik ma'lumotlar tarqatiladi. 2.7.2. Ehtiyojlarning qondirilish darajasini yana qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkinligi muhokamasini tashkil qiladi.</p>	<p>2.7.1. Statistik ma'lumotlar bilan tanishadilar. 2.7.2. Kichik guruhlarda muhokama qilinadi. 2.7.3. Har bir kichik guruh vakili guruh fikrini bildiradi</p>
<p>III. Yakuniy bosqich 5-8 daqiqa</p>	<p>3.1. Talabalarga har bir kichik guruhning darsda faol qatnashishini baholashni taklif qiladi: birinchi o'rin – 1 ball; ikkinchi o'rin – 0,8 ball; uchinchi o'rin – 0,7 ball; to'rtinchi o'rin – 0,6 ball; beshinchi o'rin – 0,5 ball. 3.2. Darsga yakun yasaydi. Talabalar diqqatini asosiy masalaga qaratadi, seminar darsiga tayyorlanishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi haqida, tushunmay qolgan savollarni o'quv adabiyotlaridan o'qish haqida ko'rsatma beradi.</p>	<p>3.1. Kichik guruhlarni topshiriqni bajarish bo'yicha bajargan ishlari va bildirgan fikrlari asosida qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.</p>

Seminar darsi o'tishga ilovalar

Ilova 1(3.1)

Test javoblari

	a	b	v	g	d
1					
2					
3					
4					
5					

Ilova 2(3.2)

Birinchi kichik guruh uchun topshiriq:

1. Zahro opasi va singlisi Adiba bilan kichik korxonaga ochdi.

Zahro bir yilda 400 dona qizlar ko'ylagi yoki 450 dona erkaklar ko'ylagi tika oladi. Opasi esa 350 dona qizlar ko'ylagi yoki 400 dona erkaklar ko'ylagi tika oladi. Singlisi esa 300 dona qizlar ko'ylagi yoki 350 dona erkaklar ko'ylagi tika oladi.

Oilaviy kichik korxonaning ishlab chiqarish imkonini hisoblang va uni grafikda tasvirlang.

T/N

1. Individual ehtiyoj – bu har bir oilaning, jamoaning ehtiyoji bo'lib, u birgalikda yashash va faoliyat yuritishga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi.

2. Guruh ehtiyoji – bu oilaviy yoki kishilarning biror maqsadda birlashgan to'pi, mehnat jamoasi, turli uyushmalar ehtiyojlari bo'lib, birgalikda yashash, faoliyat yuritish jarayonida vujudga keladigan umumiy ehtiyojlardir. 3. Umumjamiyat ehtiyojlari – mamlakat miqyosida, qolaversa, yer shari miqyosida insonlarning bir butun bo'lib tarkib topgan ehtiyojlaridir.

Ikkinchi kichik guruh uchun topshiriq:

1. Respublikamizda avtomobil va traktor ishlab chiqarilishi quyidagi jadvalda ifodalangan:

Avtomobil	5	4	3	2	1	0
Traktor	0	7	13	18	22	25

Muqobil xarajatlarni aniqlang.

1. bitta qo'shimcha avtomobil ishlab chiqarish uchun;
2. qo'shimcha bitta traktor ishlab chiqarish uchun.

T/N

1. Mahallada militsiya tayanch punkti ochildi. Uni individual ehtiyojga misol qilsa bo'ladi.
2. Atrof-muhit holatini o'rganish uchun laborotoriya tashkil etildi. Bu umumjamiyat ehtiyojini qondirishga kiradi.

Uchinchi kichik guruh uchun topshiriq:

1. Mamlakatda A va D turdagi ikki xil tovar ishlab chiqariladi deylik. Ularning imkoniyati chegarasi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rsatilgan.

Mahsulot turlari	A	B	D	E
A tovar (dona)	0	1	2	3
B tovar (dona)	12	10	6	0

A) Grafikda jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini tasvirlang.

B) A tovarning B tovarda ifodalangan muqobil qiymatini hisoblang.

D) B tovarning A tovardagi muqobil qiymati: o'suvchi, pasayuvchi yoki doimiy? A tovarning B tovardagi muqobil qiymati-chi? ko'rsating.

E) Agarda muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i qanday shaklda bo'ladi? Jadval va grafikda tasvirlang.

T/N


1. Bizning ehtiyojlarimiz olgan axborotlarimizga ko'ra shakllanadi.

2. Ovqatga zarurat har bir odamda kishi oshqozonini kichik sig'imi bilan cheklanadi, lekin qulayliklarga hamda uy-joy, kiyim-kechak, uy sharoiti va uni anjomlar bilan bezashga intilish, aftidan, cheksiz yoki muayyan chegaralarga ega bo'lmasa kerak, deb ta'kidlagan, taniqli faylasuf Gegel.


To'rtinchi kichik guruh uchun topshiriq:

1. Jamiyat doimo joriy iste'mol uchun hamda kelajak uchun tovarlar boshqacha aytganimizda, iste'mol mollari va investitsion

tovarlar ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, maorif, ta'lim, profilaktik tibbiyot(kasallikni oldini olish uchun chora-tadbirlar)ga qanday miqdorda resurslar sarflashni hal etadi. A,B,C,D mamlakatlar uchun 1995-yili a) rasm va 2005-yili b) rasmda ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'rsatilgan.



a) rasm



b) rasm

Har ikki rasmdagi imkoniyatlar egri chizig'ini taqqoslang va quyidagi savollarga javob bering.

A) Nima sababdan har bir mamlakat imkoniyat egri chizig'i (a rasm), 2005-yili b) rasmdagi darajaga ko'tarildi?

B) Nima sababdan C va D mamlakatlarda A va B mamlakatlarga qaraganda imkoniyat egri chizig'i yuqori?

D) Joriy iste'mol bu mamlakatlarda 2005-yilda qanday o'zgargan?

T/N

1. Komfort (qulaylik) – umuman tugamaydigan narsa degan, faylasuf Gegel.

2. Qaror qabul qilish uchun turli muqobil variantlar tanlov mezonlari asosida taqqoslanadi.

Ilova 3(3.3.)

Javoblar:

Birinchi kichik guruh uchun topshiriqning javobi:

1). 1050 dona qizlar ko'ylagi yoki 1200 dona erkaklar ko'ylagi.

Grafik: x o'qida qizlar ko'ylagi, u o'qida erkaklar ko'ylagi ifodalangan imkoniyat chizig'i.

T/N: 1N, 2T.


Ikkinchi kichik guruh uchun topshiriqning javobi:

1. Bitta qo'shimcha avtomobil ishlab chiqarish xarajatlari 7,6,5,4,3 traktor, qo'shimcha bitta traktor ishlab chiqarish 1/7, 1/6, 1/5, 1/4, 1/3 avtomobilga teng.

T/N: 1N, 2T.

Uchinchi kichik guruh uchun topshiriqning javobi:

A) Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i quyidagicha bo'ladi:



B) A tovarning B tovarlarga muqobil qiymati 2, 4, 6.

D) Tovarlarining muqobil qiymati doimiy, o'suvchi yoki pasayuvchi ekanligini aniqlash uchun ularni ketma-ketlikda taqqoslaymiz.


B tovarning A tovar ishlab chiqarish evaziga yo'qotilgan muqobil qiymati o'sib boruvchi, chunki u 2 dan 4, 6 ga o'sdi.

A tovarning B tovarda ifodalangan muqobil qiymati esa pasayuvchi, chunki u 12, 10, 6, 0 ga teng.

E). Agarda muqobil qiymat doimiy bo'lsa A tovar ishlab chiqarishni kamayishi yoki ko'payishi, B tovarning teng miqdorda ko'payishi yoki kamayishida ifodalanadi.

Uni jadval yoki grafikda tasvirlasak, quyidagicha bo'ladi:

Mahsulot turlari	A	B	D	E	F	G	H
A tovar (dona)	0	1	2	3	4	5	6
V tovar (dona)	12	10	8	6	4	2	0



Demak, muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi.

T/N: 1T, 2N(A. Smit aytgan).

To'rtinchi kichik guruh uchun topshiriqning javobi:

A) Hamma mamlakatlarda ishlab chiqarish egri chizig'i fan-texnika taraqqiyoti natijasida o'ngga siljigan, chunki fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi.

B) C va D mamlakatlarida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda 1995-yili investitsion tovarlar miqdori va ulushi yuqori bo'lgan.

D) 2005-yili barcha mamlakatlarda 1995-yilga nisbatan joriy iste'mol o'sgan. Lekin C, D mamlakatlarda A, B mamlakatlarga nisbatan yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda dastlab kelajak uchun tovarlar ko'proq ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini yuqori bo'lishiga, jumladan, joriy iste'molni ham A, B mamlakatlarga nisbatan C, D mamlakatlarida yuqori bo'lishiga olib keladi.

Ilova 4 (3.4.)

Aholining ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanish darajasi dinamikasi

Yillar	Aholining ta'minlanganligi				
	I yashovchi hisobiga turarjoy bilan ta'minlanganlik, kv. m.	10 ming kishi hisobiga kasalxonadagi joylar	10 ming kishi hisobiga ambulatoriya-poliklinika muassasalari	Markazlashtirilgan suv ta'minoti %	Tabiiy gaz %
1991	12,2	123,0	133,7	80,0	46,2
1995	13,0	83,7	137,6	71,5	59,4
2000	13,7	55,9	158,2	81,0	73,9
2001	13,9	55,8	160,4	81,0	76,5
2002	14,2	57,8	163,1	81,4	77,4
2003	14,4	57,3	164,9	82,2	78,2

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ular asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Xulosa

- Amaliy mashg'ulot, jumladan, uning asosiy shakli bo'lgan seminar darsi talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash, mustaqil ishlash malakasini o'stirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, nutqni o'stirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash va bilimni nazorat qilish va baholash imkoniyatlari kengligi bilan ta'limning boshqa shakllaridan ajralib turadi.

- Seminar darslarida fan dasturi bo'yicha belgilangan uzviy savollarni muhokama qilinar ekan, iloji boricha har biri uchun alohida metod qo'llagan ma'qul. U barcha talabalar faolligini ta'minlaydi.

Buning uchun har bir darsga o'qituvchi har tomonlama puxta tayyorlanishi dars jarayonida foydalanadigan topshiriqlar, dars o'tishning texnologik xaritasini ishlab chiqishi zarur.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Seminar, seminar turlari, seminar funksiyalari, qisqa muddatli yodda saqlash, uzoq muddatli yodda saqlash, takrorlash, seminar darsiga tayyorgarlik, seminar darsi texnologik xaritasi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Seminar darsi talabalarning bilim olishida qanday o'rin tutadi?

2. Seminar darsi qanday funksiyalarni bajaradi?

3. Nima sababdan olingan bilimni vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim?

4. Seminar darsi muvaffaqiyatli o'tishi uchun, sizningcha, nima qilish kerak?

5. Seminar darsi o'tsangiz, qanday maqsadlarni ko'zlagan bo'lar edingiz?

6. Seminar darsini texnologik yondashuv nuqtayi nazaridan loyihasini ishlab chiqa olasizmi?

7. Sizningcha, seminar darsining qanday afzalliklari bor?

VII bob. DARSLARNI SAVOLLAR VA SUHBAT ASOSIDA OLIB BORISH

Biz siz bilan dars o'tishning asosiy shakllari bo'lmish ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishni o'rgandik. Ma'lumki, dars o'tish ma'lum bir metodlar asosiga quriladi. Shuning uchun biz dars o'tishning asosiy metodlaridan xabardor bo'lishimiz, ularni dars jarayonida samarali ravishda qo'llay bilishimiz zarur. Mazkur bobdan boshlab ana shu maqsadni amalga oshiramiz. Metodlarni o'rganishni esa eng ko'hna, shu bilan birga hech qachon eskirmaydigan eng ko'p qo'llaniladigan maqsadga yo'naltirilgan savollar va suhbat metodini o'rganishdan boshlaymiz.

1-§. Talabalarga maqsadga yo'naltirilgan savollar asosida dars o'tishning tutgan o'rni

Dars o'tishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri darsni talabalar diqqati, fikrini jamlovchi, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan savollar asosida olib borishdir.

Iqtisodiy fanlar bo'yicha amaliy, jumladan, seminar darslarida atroflicha suhbat yoki aniq maqsadga yo'naltirilgan savol-javob asosida dars o'tish keng qo'llaniladi.

Tahliliy fikrlash savol qo'yishdan boshlanadi, muammo savollar orqali yechiladi. Shuning uchun dars jarayonida savol orqali talabalarda o'z fikrini asoslash ko'nikmasini hosil qilish katta ahamiyatga ega.

O'quv rejasi bo'yicha savol-javoblar yordamida talabalar o'quv jarayoniga jalb etiladi. Shu yo'l bilan talabalarda fikr-mulohaza yuritish, o'z fikrini izohlashga ishtiyoq uyg'otiladi. Chunki, talabalar bir tomondan savollarga javob berishadi, ikkinchi tomondan esa o'zlari savol berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.


Savolni to'g'ri berishning o'zi fikrlay bilishdan dalolat beradi. Shuning uchun darsda faqatgina o'qituvchi emas, balki talabalar ham bir-birlariga savol bilan murojaat qilishlari, ayniqsa, kichik guruhlariga bo'linib dars o'tganda o'zaro fikrlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talaba savol berishni o'rganmasa, o'zining bilimi

sayozligi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Biz savol tuzib, unda o'z fikrimizni ifodalashimiz tufayli boshqalarni ham o'ylashga, o'rganishga undaymiz.

O'qituvchining savoli talabalarni fanni o'rganishda boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Aynan savollar, ularning mohiyati va vaziyatga ko'ra qo'llash, talabalarni tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Bunday metod asosida amaliy dars o'tganda o'quvchi-talabalar soni 25–30 nafardan oshmagani, ular iloji boricha bir-biriga nisbatan yuzma-yuz o'tirgani ma'qul. Eng maqbul holat «P» shaklida joylashtirishdir, lekin hamma vaqt ham bunday shaklda dars o'tkazib bo'lmaydi. Sababi, ko'pincha bunga imkoniyat yo'q. Ko'pgina ilg'or pedagoglarning fikricha, stollarni «archa» shaklida joylashtirgan ma'qul. Bunda har bir talaba o'qituvchiga nisbatan yarim burilishda joylashadi. Savol-javob, davra suhbat tarzida dars o'tilganda stollarni yarim doira shaklida joylashtirish mumkin.

O'qituvchi-talabalarni joylashtirish:



Hamma vaqt ham auditoriya talabga javob beradigan darajada bo'lmashligi mumkin. U holda imkoniyatga, talabalar joylashishini dars o'tishda qo'llaniladigan metodga ko'ra, ta'minlashga harakat qilinadi.

O'qituvchi talabalarda shunday qiziqish uyg'otishi kerakki, uning rahbarligida o'quv materialini butun guruh tomonidan birgalikda o'rganilishi, muhokama qilinishi, ishlab chiqilishi kerak.

Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun o'qituvchi tomonidan auditoriyada ijobiy atmosfera yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba o'z fikrini, tug'ilgan savollarni bemalol ayta olishi hamda

darsda qo'yilgan maqsadga erishish uchun faol qatnashishi kerak.

O'qituvchi esa savollar yordamida butun guruhga bir xilda ta'sir qilishga, qo'yilgan savollarga, muammolarga hech bo'lmaganda qoniqarli javob olishga harakat qilishi kerak.

O'quv rejasi bo'yicha xilma-xil savollar orqali talabalar bilan atroflicha suhbat o'tkazish o'qituvchidan chuqur, maxsus bilim, oxirgi yangiliklar, o'zgarishlardan xabardor bo'lishni talab qiladi. Chunki o'qituvchi talabaning har qanday savoliga javob berishga tayyor bo'lishi kerak. O'qituvchi dars jarayonida nafaqat talaba bilan hamkorlikka tayyor turishi, balki hamkorlik qilishi kerak. Shundagina dars berishdan qo'yilgan maqsadga izchillik bilan erishiladi.

Maqsad esa quyidagilar:

1. Belgilangan vaqt davomida o'quv materiallarini o'rganish va xotirada saqlab qolish.
2. Bosqichma-bosqich mantiqiy fikr yuritishga o'rganish.
3. O'qishdagi oraliq maqsadlarga erishish (masalan, o'rtog'ining fikrini tahlil qilib, tanqidiy o'rganish).

2-§. Savollar va ularni dars jarayonida to'g'ri qo'ya bilishning zarurati

Ma'lumki, savollarsiz dars o'tib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonini qanday metodlar asosida tashkil qilishimizdan qat'i nazar, albatta, savollardan foydalanamiz.

Aniq yo'naltirilgan savollar asosidagi suhbat o'qituvchining ko'rsatmalari bo'yicha olib boriladi. Suhbatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan savollarni to'g'ri qo'yishga bog'liq. Ilgarigi mavzuda ko'rib o'tilgan savollar alohida yoki tizim shaklida qo'yilish, ular oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin.

Savollar qo'yilishi tarzi, mazmuni, maqsadi va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. Axborot xarakteridagi savollar. Qo'yilgan muammo bo'yicha dalillarni, sanalarni aniqlashga qaratiladi. Bu guruhga kiradigan savollar ikki xil bo'ladi: ular ochiq va yopiq savollardir. Ochiq savollar - turli so'roq gaplar orqali ifodalanib, turli-tuman javob berilishi ko'zda tutiladi. **Masalan:** Siz daromadlarga belgilangan progressiv soliq stavkalariga qanday qaraysiz? Yopiq savollar - bu savollarga javob «ha», «yo'q», «ehtimol to'g'ri» tarzida olinishi mumkin bo'lgan savollar bo'lib, odatda, ular fe'lga «mi»

qo‘shimchasi qo‘shilib hosil etiladi. **Masalan:** Talab egri chizig‘ini siljishiga moddaning o‘zgarishi ta‘sir qiladimi? Yoki yalpi ichki mahsulot hisoblaganda transfert to‘lovlarini qo‘shamizmi?

2. **Muqobil savollar** ikki variantda bo‘lib, ulardan nisbatan ishonchlirog‘i tanlanishi kerak. Berilgan savolni tushunish qiyin bo‘lsa, uni boshqacha tushunarliroq variantda beriladi.

3. **Tasdiqlovchi yoki mustahkamlovchi savollar** vaziyatni aniqlash maqsadida beriladi. **Masalan:** a) talaba bildirilgan fikrlarni tushundimi yoki tushunarli bayon qilindimi? Aytilgan fikrlarga hamma tushundimi? Yoki men aytganlarim tushunarlimi?, tarzida qo‘yilishi mumkin.

4. **Faraz, tahlil qilishga, undashga qaratilgan savollar** ikkilanishni bartaraf qilishga yordam beradi. Odatda, bu savollar «aytaylik», «faraz qilaylik», «ko‘z o‘ngimizga keltiraylik» degan so‘zlar bilan boshlanadi.

5. **Muloqot o‘rnatish uchun qo‘yiladigan savollar** auditoriya bilan muloqot o‘rnatishga, keskin vaziyatlarni yumshatishga xizmat qiladi.

6. **Yo‘llovchi, esga soluvchi yordamchi savollarning** mazmuni voqea, hodisaning bajarilishi, ro‘y berishi, ehtimoli yuqori darajadiligini ta‘kidlaydi. Savol ohangi bilan to‘g‘ri javob berishga undaydigan savollar bo‘lib, talabaga to‘g‘ri javob berishga yordamlashadi.

7. **So‘zsiz savollar** o‘qituvchining qarashi, mimikasi, imoishorasi bilan beriladi. U auditoriyada talabalar o‘rtasida diqqate‘tibor, jiddiylilik tug‘diradi. Bu holda o‘qituvchining yuzida, imoishorasida xayrixohlik ifodasi bo‘lmasa, talaba noto‘g‘ri javob berdimmi, degan xayolda esankirab, sarosimaga tushib qolishi mumkin.

Savollarni tuzish va uni talabalarga berishdan qo‘yilgan maqsadga ko‘ra — taxmin, sintez qilingan savollar, sharhlashga doir, qo‘llashga doir savollar bo‘lishi mumkin.

Savollar bilan bir qatorda xohish, istak tug‘diruvchi so‘zlardan ham foydalanish mumkin. Bunday so‘zlar talabalarning bildirayotgan fikriga, gapirishiga turtki beruvchi yoki qisqa mulohaza, maslahat tarzidagi masalan, «ha», «davom eting», «to‘g‘ri», «shunday qilib», «to‘g‘rirog‘i», «aniqrog‘i» kabilardir. Ko‘pincha bunday ta‘kidlar keng fikrlash imkonini berib, nisbatan yaxshi natijalarga erishishga olib keladi. Bunday savol esa, fikr doirasini anchagina cheklaydi va qisqa mulohaza, do‘stona ohangda yoki iltimos shaklida ifodalanadi. Ular ko‘rsatma tariqasida «asoslab bering», «xulosa chiqaring», «yakun yasang», «xarakterlang» va hokazo tarzida

ifodalanadi. O'qituvchi doimo o'z oldiga qanday savol berish kerak yoki qanday qilib to'g'ri savol bersam bo'ladi, degan masalani qo'yadi. Masalani quyidagicha hal qilish mumkin:

- **Savolni barcha talabalarga berish**, butun auditoriya oldiga qo'yish kerak. Hamma talabalar o'ylab ko'rsin. Ma'lum pauzadan so'ng aniq bir talaba javob berishga chiqishi mumkin.

- **Auditoriyaga xos savollar** talabalarning bilim darajasi, darsga tayyorgarligi kabilarni hisobga olgan holda berilishi kerak. Bunda guruhdagi talabalarning individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Nisbatan bo'sh talabalarga uncha murakkab bo'lmagan savollar berish, so'ngra bilimi kuchli talabalarga murakkab savollar berib borish kerak. Natijada oddiydan murakkab tomon borilaveradi.

Dastlab, ixtiyoriy javob bermoqchi bo'lganlarga diqqat qaratish kerak, so'ngra bosiq, o'z ishtiyoqi bilan javob bermaydigan talabalarni javob berishga jalb qilish, haddan tashqari faol talabalarni birmuncha tiyib turish kerak. Darrov javob berishlariga urinmaslik, balki bir necha javob berishni xohlovchilarni aniqlab, bir necha talaba javob berishi mumkinligini his qilgach so'ray boshlash lozim. Muhim va murakkab savollar tashlanganda ko'proq pauza saqlab, talabalarni tayyorgarlik darajasini ko'zdan kechirish zarur.

- **Aniq maqsadga qaratilgan savol berish kerak**. Ma'lum narsalar haqida savol berish zerikarlidir. Talabalar fikr yuritishini zarur yo'nalishga solib, unchalik kerak bo'lmagan masalalarga e'tibor berish, atrofdan aylanish, chetga chiqishdan qochish kerak. Haddan tashqari uzun savollar darsni maqsadidan chetga chiqib ketishga olib kelsa, haddan tashqari qisqa savol esa, «fikr yuritish» uchun kam «joy» qoldiradi. Tushundingizmi, degan savol ko'pincha javobsiz qoladi. Shuning uchun yaxshisi aniq nazorat shaklida savol bergan ma'qul. Bitta so'roq gapdagi bir necha savollar talabalarni chalkashtiradi. Shuning uchun savolni oddiy, tushunarli qilib tuzish kerak.

- **Savollarni xotirjam tarzda berish kerak**. Chunki, bunday savol tushunishni osonlashtiradi. Savoldan keyin fikr yuritish, javobni shakllantirish uchun ma'lum muddat qoldirish kerak. Har doim savol bilan javob berish o'rtasidagi muddat savol beruvchiga ham, javob beruvchiga ham nisbatan uzoq davom etganga o'xshab ko'rinadi. Shuning uchun shoshilmaslik kerak. Auditoriyadagi samimiy muhit unga talabalarni darsga faol qatnashishlariga yordam beradi va darsni muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi. Vaqti-

vaqti bilan o'qituvchi o'zining savol qo'yish texnikasi, mazmunini tekshirib turishi kerak.

Guruhni juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tganda avval savolga javob o'ylanishi va muhokama qilinishi kerak. So'ngra auditoriyada muhokama qilish boshlanadi. O'qituvchi bildirilgan fikrni asoslash yoki mustahkamlash uchun qo'shimcha savollar beradi: «Nima sababdan?», «Siz shu fikrga qo'shilasizmi?», «Misol keltiring-chi?», «O'rtog'ingiz bildirgan fikr to'g'rimi?», «O'zingizning xulosangizni ayting-chi?» tarzidagi savollar bilan kichik guruhlarni bir-birlariga murojaat qilishga yo'naltiriladi.

O'z fikrini bayon qilayotgan talabaga: «aytingchi, siz yoki guruhingiz berilgan savolga ana shunday javob berishiga nima sababdan qaror qildingiz?», deb murojaat qilib, javobni eshitgach, auditoriyaga «boshqalar ham shu fikrdami, uni noto'g'ri deb hisoblovchilar, marhamat o'z fikringizni bildiring» deb, talabalar fikrini aniqlash mumkin.

Agar to'g'ri javob yagona bo'lmasa, o'qituvchi «qani, o'ylab ko'ringlar-chi, yana qanday muqobil javoblar bo'lishi mumkin?» degan savolni tashlashi mumkin.

3-§. Savollarga asoslangan dars o'tish metodi va uning usullari

Ko'rib o'tdik-ki, savol-javob metodi eng ko'hna, shu bilan birga eng universal, eng ko'p qo'llaniladigan metod. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu metodni qo'llash orqali:

1. O'quvchi, talabalarni darsda faol qatnashishga tayyorlash.
2. Yangi o'quv materialini bilan tanishtirish.
3. Egallagan bilimlarini mustahkamlash va ma'lum bir tizimga solish.
4. Egallagan bilimlarni qay darajada ekanligini aniqlash va joriy nazorat qilish amalga oshiriladi va bu borada unga teng keladigani yo'q.
5. Tahliliy hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ham amalda savollar yordamida erishiladi.

Ko'pincha darsda savol-javob metodini qo'llashga an'anaviy metod sifatida qaraladi. Bunga sabab, uni savol berish va berilgan savol doirasida javob kutilib, o'quvchi-talabaning fikrlashini shu savol doirasida cheklanishi tarzida qaralsa, ikkinchidan, uzoq vaqt darsni **og'zaki-ko'rgazmali yondashuv asosida tashkil etilishidir**. Unga asosan dars o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-

talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'riladi. Ular xotira tubida saqlangan bo'ladi yoki boshqa so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol qo'yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda uni eslashi, ba'zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Lekin savol-javob metodining imkoniyati nihoyatda katta. Chunki, mustaqil **fikrlash savol qo'yishdan boshlanadi**, savol o'quvchi-talabani o'ylashga majbur qiladi, izlanishga yo'naltiradi.

Shuning uchun iqtisodiy fanlarni o'rganishda aniq maqsadga yo'naltirilgan savol-javob asosida dars o'tish keng qo'llaniladi.

O'quv rejasi bo'yicha savol-javoblar yordamida talabalar o'quv jarayoniga jalb etiladi. Shu yo'l bilan talabalarda fikr-mulohaza yuritish, o'z fikrini izohlashga ishtiyok uyg'otiladi. Chunki, talabalar bir tomondan savollarga javob berishadi, ikkinchi tomondan esa o'zlari savol berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu bilan birga ustuvor darajada savol va javoblarga asoslangan dars o'tish usullari ham talaygina. Ulardan biri — savol-javob metodidir. Uni turli usullar asosida o'tkazish mumkin.

Qisqacha savol-javob (blits so'rov-javob) usuli.

Bu usulda o'qituvchi qanday maqsad qo'yishiga qarab, qisqa savollar tayyorlaydi. Talabalardan ham qisqa, lo'nda javob berishni talab qiladi. Uni turlicha o'tkazish mumkin. Bu metodni qo'llash uchun o'qituvchi oldindan uni qanday variantda qo'llashini hisobga olib savol va ularni javobini tayyorlab qo'ygani ma'qul. Agarda darsni blits savol-javob tarzida tashkil qiladigan bo'lsa, muvofiq ravishda o'quvchi-talabalarga aniq, lo'nda javob berish zarurligini uqtiradi. Bunda savollarni guruhdagi o'quvchi-talabalar soniga qarab tayyorlash mumkin. Masalan, bunday usulni qo'llashni kasb-hunar kollejlarida «Iqtisodiyot asoslari» fanidan «Talab va taklif, bozor muvozanati» mavzusini o'tishda qo'llashni rejalashtirdik, deylik. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Talab va taklif, bozor muvozanati»ni o'rganishda blits savol-javob o'tkazish uchun o'qituvchi tomonidan tayyorlangan savollar:

1. Talab nima?

2. Talab egri chizig'i deganda nimani tushunamiz?
3. Talab qonuni qanday qonun?
4. Talab elastikligi nima?
5. Taklif deganda nimani tushunamiz?
6. Taklif egri chizig'i nimani ifodalaydi?
7. Taklif qonunining ta'rifini aytaolasizmi?
8. Taklif elastikligi deganda nimani tushunamiz?
9. Talab va taklif muvozanati qanday muvozanat?
10. Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar deganda qanday tovarlarni tushunamiz?
11. Talab o'zgarishi nimani ifodalaydi?
12. Talab miqdorining o'zgarishi-chi?
13. Bozor muvozanatini qisqacha ta'riflab beraolasizmi?

Kutiladigan javoblar:

1. Pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojni bozorda namoyon bo'lishi yoki to'lov qobiliyatiga ega ehtiyoj.

2. Ma'lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo'yicha xaridorlarni sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafik orqali ifodalanishi.

3. Tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab oqibatli funksional bog'lanishini ifodalaydi.

4. Xaridorga narxning o'zgarishi qanday ta'sir qilishini, ya'ni narxning 1%ga o'zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o'zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

5. Bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar.

6. Ma'lum bir vaqt mobaynida turlicha narxlar bo'yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafikda ifodalanishi.

7. Narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorini to'g'ridan-to'g'ri sabab- oqibatli, funksional bog'lanishini ifodalaydi.

8. Narxning o'zgarishi ishlab chiqaruvchi(sotuvchi)larga qanday ta'sir qilishi, ya'ni ularning reaksiyasini ifodalovchi ko'rsatkich.

9. Xaridor sotib olmoqchi bo'lgan tovar miqdori bilan sotiladigan tovar miqdorining tengligi.

10. Tovarlar juftligida birini narxining o'sishi ikkinchisiga talabni kamayishiga olib keladigan tovarlar.

11. Talab egri chizig'ining narxdan boshqa bir yoki bir necha determinantlar o'zgarishi natijasida siljishi.

12. Talab miqdori(hajmi)ning o'zgarishi, talab egri chizig'i bo'yicha narxning o'zgarishiga qarab siljishi.

13. Talab va taklifni miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

Berilgan savolga: 1) xohlovchilar javob berishi yoki barcha o'quvchi, talabalardan navbati bilan so'rab chiqish;

2) konkurs-musobaqa tarzida javob berish;

3) savolni o'quvchi-talabalarning o'zlari berishlari mumkin.

Bunda guruh ikki komanda(jamoa)ga bo'linadi. Mavzu bo'yicha har bir komanda navbati bilan savol va ikkinchi komanda unga javob berishi lozim. Jamoalar berilgan savol va uning javobiga qarab baholanadi. Baholashni osonlashtirish uchun to'g'ri savol ham, to'g'ri javob ham 1 ball bilan baholanadi. Qo'yilgan savol talabga javob bersa, 1 ballni qo'lga kiritadi. Savolga javob bergan 2 komanda a'zolari esa javobning to'g'ri-noto'g'riligiga qarab, tegishli ball bilan baholanadi .

Javobning qoniqarli, to'g'ri yoki noto'g'riligini birinchi komanda tasdiqlaydi. Agar raqib komandaning javobi qoniqarsiz deb topilsa, savol bergan komandaning o'zi to'g'ri javobni aytishi yoki uni to'ldirishi lozim. Savollar tegishli fanning o'rganilgan bo'limlariga doir qoida yoki formulalar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Bu musobaqa - o'yin shartlarining bajarilishini o'qituvchi nazorat qiladi va baholaydi..

O'quvchilar berish uchun savol topolmay qolgan yoki komandalar teng ball to'plagan hollarda o'qituvchi o'zi oldindan tayyorlab qo'ygan qiziqarli (mantiqiy) savollardan ularning e'tiboriga havola qiladi. Yuqori ball to'plagan komanda g'olib hisoblanada va rag'batlantiriladi.

Darsni shakllantirishning bu usuli o'yin-bahs tarzida bo'lgani uchun o'quvchilar unga qiziqish bilan yondashadi. Dars davomida komandalar 20—30 tadan savol berish imkoniga ega. Demak, o'quvchilar 40—60 ga yaqin tushuncha, formula va boshqalarni takrorlashga urinadi. Bundan tashqari, o'quvchi keyingi mashg'ulotlarga yanada qiziqarliroq va jiddiroq savol topib kelishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchi, talabalarning o'z ustida jiddiy ishlashiga olib keladi.

«Zanjir» o'yini

Mavzuni takrorlashga, xotirani mustahkamlashga yordam beradigan savol-javobga asoslangan yana bir o'yin usuli «Zanjir» deb nomlanadi.

Bu o'yin amaliy darslarda qo'llanadi. Mazkur o'yinda savol yashirin, ya'ni ochiq savol berilmaydi, **o'quvchi-talaba o'ziga-o'zi**

xayolan savol beradi. Bu usulni biron bob, bo'lim yoki bir necha mavzuni o'tib bo'lgach, qo'llagan ma'qul. Sababi, talabalar zarur iqtisodiy kategoriya, tushuncha va terminlar bilan tanish bo'lishadi. O'yinni o'ynash tarzi bilan o'quvchi- talabalar tanish. Chunki, ular bolalar bog'chasidanoq, avvalgi so'zning oxirgi harfi bilan boshlangan yangi so'zni topishni bilishadi. Bu holda faqat iqtisodiy fikrni ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi. Lekin so'zlar mazmunini o'rganilayotgan bo'lim yoki ikki-uch mavzu miqyosida chegaralash birmuncha murakkablik tug'diradi. Buning uchun tegishli mavzuni puxta o'rganishni talab qiladi. Kimning navbati kelganda so'z topolmasa o'yindan chiqadi. Kim o'z vaqtida o'yin qoidasi bo'yicha mavzuga, fanning shu bo'limiga tegishli tushunchani to'g'ri aytmasa ham o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan talabaga eng yuqori ball, boshqalarga olgan o'rinlariga ko'ra ball belgilanadi.

O'yin quyidagi tarzda aks etishi mumkin:

Iqtisodiy qonun – narx – xarajat – talab – biznes – sug'urta – aksiya – yalpi ichki mahsulot – tadbirkor – renta – amortizatsiya – yalpi talab – bozor – raqobat – taklif – foyda – aksionerlik kapitali – investitsiya – yalpi taklif – friksion ishsizlik – kapital – likvidlik – krizis – sof monopoliya – yalpi milliy mahsulot – taqchillik – kredit – tovar – real daromad – dividend – taklif egri chizig'i – ishchi kuchi – iste'mol va hokazo.

O'quvchi-talabalar fanni mukammal o'zlashtirishlarida xotirani mustahkamlash muhim rol o'ynaydi. Xotirani mustahkamlashga yordam beradigan va fikr yuritishga undaydigan mashg'ulotlardan biri «Zaif bo'g'in» o'yinidir.

«Zaif bo'g'in» o'yini Buning uchun o'qituvchi darsning maqsadiga ko'ra, mavzu yoki bob, ma'lum bo'lim bo'yicha kategoriyalar va tushunchalar ma'nosini yozib keladi. Talabalarga o'yinning qanday o'tishini tushuntiradi. O'qituvchi tushuncha, kategoriyaning mazmunini aytadi, talabalar uning nomini aytishi kerak. Oxirida 2 talaba qolguncha o'yin bosqichma-bosqich, aylanib davom etadi. Kim noto'g'ri aytsa, o'yindan chiqadi. Yoki o'yinni aksincha tarzda ham tashkil qilish mumkin. Ya'ni o'qituvchi kategoriya, tushuncha, terminni aytadi. Talabalar esa uning mazmunini aytib berishlari lozim bo'ladi. O'yinda avval osonroq tushunchalar, borgan sari murakkab tushunchalar aytilishi mumkin. Bu o'yinni qo'llash uchun darsga

o'qituvchi ham talabalar ham puxta tayyorlanib kelishlari kerak. Bo'lmasa dars kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchi savollarni izohli lug'at tarzida quyidagicha tayyorlagani ma'qul.

1. Ehtiyoj — insonning yashashi, kamol topishi uchun hayotiy ne'matlarga bo'lgan obyektiv zaruriyat.

2. Ehtiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy qonuni — ishlab chiqarish va madaniyat rivojlanishi bilan inson ehtiyojlari doirasining kengayib, miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishi.

3. Iqtisodiy resurslar — turli ehtiyojlarni qondiradigan ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur barcha vositalar va mehnatga layoqatli kishilar.

4. Iqtisodiyotning bosh muammosi — resurslar cheklanganligi sharoitida jamiyat a'zolarining cheksiz ehtiyojlarini qondirish muammosi.

5. Tanlovning muqobil qiymati — tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan tanlovchi uchun eng katta naf keltiruvchi yoki qadrlanuvchi imkoniyat.

6. Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi — mavjud iqtisodiy resurslardan to'la foydalanish evaziga eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish.

7. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i — mavjud resurslardan to'la foydalanish evaziga turli kombinatsiyalarda eng ko'p mahsulot ishlab chiqarishning grafikda ifodalanishi.

8. Ishlab chiqarish funksiyasi — ishlab chiqarish omillarining har qanday to'plami bilan shu omillar yordamida maksimal imkoniyat darajasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi funksiya.

9. Ishlab chiqarish — insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ne'matlar yaratish jarayoni.

10. Iqtisodiy faoliyat — inson ehtiyojini qondirish, ya'ni hayot kechirish, tirikchilikni ta'minlashning vosita va usullari majmui.

11. Iste'mol — ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish, ehtiyojni qondirish jarayoni va hokazo.

Umuman olganda, 15–20 kishidan iborat guruh uchun bir necha bosqichga yetarlicha savol tayyorlash lozim.

«Zakovat» o'yini Bu o'yinni talabalar shu nomdagi teleko'rsatuvdan ham yaxshi bilishadi. O'qituvchi uni o'rganilayotgan mavzuga moslashtirishi kerak. U mavzuning muhim tushunchalari, muammolari borasida qiziqarli savol, masala tayyorlab konvertlarga solib, stol ustiga qo'yadi. Javoblar alohida

konvertga solib olib qo'yiladi. Talabalar kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh vakili konvertlardan birini tanlab olishi kerak. Savolni muhokama qilib, tayyorlanish uchun 1 minut vaqt beriladi. Guruh savolga to'g'ri javob bermasa, o'qituvchi boshqa talabalarga murojaat qiladi. Hamma o'z fikrini aytib bo'lgach, o'qituvchi to'g'ri javobni o'qib eshittiradi. O'z vaqtida to'g'ri javob berganlarga ball beriladi. Bu metodni samarali qo'llashni «Zakovot» o'yini tarzida «Iqtisodiyot asoslari» fanidan «Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda» mavzusida dars o'tish misolida ko'rib chiqaylik.

Bu o'yinni tashkil etish uchun talabalarning o'zlari qiziqarli, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savollarni tayyorlab kelishlari yoki mashhur kishilarning iqtisodiyot haqidagi fikrlarini topib, savol berishlari mumkin. Bunda o'qituvchi har bir kichik guruhga o'zlari tayyorlagan savollar ichidan eng qiziqarisini tanlab, konvertga solib stolga qo'yishni, javobni esa boshqa konvertga solib berishni taklif qiladi. Aytaylik, guruhda 30 nafar o'quvchi bo'lsin, ularni 5tdan 6ta kichik guruhga bo'lamiz. Har bir kichik guruh a'zolari o'zlari tayyorlab kelgan savol-javoblarni ko'rib chiqib, ular orasidan eng yaxshisini tanlashga 1 minut vaqt beriladi. Bunda 5 savol-javob ichidan bitta eng yaxshisi tanlanadi. Natijada 30 savol-javob ichidan 6 tasi tanlab olinib, stolga qo'yiladi.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Birinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

« ... odaming davlati bo'lmasa, u o'zi yeb, boshqalarni to'ydira olmaydi; agar davlati bo'lsa-yu, lekin rasamadi bilan xarjlamasa, sal o'tmasdan bu davlat yo'q bo'lib ketadi.

Shuning uchun nima qiyinroq?

Ikkinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

Nemis xalqi nihoyatda yuqori darajada intizomla xalq ekanini ko'rsatuvchi, Germaniyaning dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasini yuqori bo'lishini ta'minlovchi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda muhim rol o'ynovchi xislatlari bor. Ulardan biz ham ibrat olsak arzirli eng muhimlarini sanab bera olasizmi?

Uchinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

Shunday iqtisodiy kategoriya borki, shu kategoriyaning ifodalagan

soʻzni ikki harfini almashtirsangiz uning aksi boʻlgan, oʻrganayotgan mavzuga tegishli iqtisodiy kategoriyani ifodalovchi soʻzning sinonimi hosil boʻladi. Shu ikki kategoriya qatnashgan uch soʻzdan iborat oʻzbek xalq maqolini ayta olasizmi?

Toʻrtinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

Prezidentimizning mamlakatimizda ulkan moddiy va tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali va oqilona foydalanishga alohida diqqat qaratilgan, bizni resurslarni tejash masalasiga boʻlgan beparvo munosabatlarimizni chet ellik hamkorlarimiz koʻrib hayron boʻlishlarini koʻrsatib oʻtgan, eng boy gullab yashnayotgan mamlakatlarda ham resurslarga bu qadar masʼuliyatsizlikka, bu qadar isrofgarchilikka yoʻl qoʻymasligini taʼkidlangan nutqini koʻrsatib bera olasizmi?

Beshinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

Iqtisodiyotda omad foydasi bor. U qanday foyda va ularni kimlar oladi?

Oltinchi kichik guruh tayyorlagan savol:

«Molsizlikdan qashshoq boʻlsang ham, aqldan boy boʻlishga harakat qil, chunki mol bilan boy boʻlgandan, aqliy tomondan boy boʻlgan yaxshiroqdir: aql bilan mol toʻplasa boʻladi, ammo mol bilan aql toʻplab boʻlmaydi. Johil tezda kambagʻallashadi, ammo bilgilkim, aql bir qimmatbaho narsaki, uni oʻgʻri olib keta olmas, oʻtda yonmas, suvda oqmas». Bu kimning oʻgiti va qayerda yozilgan?

Ikkinchi bosqichda har bir guruh vakili oʻzi tanlagan savolni oʻqib, qoʻyilgan savolga javob berishni taklif qiladi. Soʻngra sinf, auditoriyada muhokama qilish boshlanadi. Birinchi boʻlib javob berishga erishgan guruh vakili oʻz fikrini bildiradi. Javob notoʻgʻri boʻlsa, boshqa guruhlar javob berishi soʻraladi. Hamma kichik guruhlar oʻz javobini aytib boʻlgach, savol tayyorlagan guruh vakili javobni oʻqib eshittiradi.

Savollarning javoblari

1-savol javobi: « ... odaming davlati boʻlmasa, u oʻzi yeb, boshqalarni toʻydira olmaydi; agar davlati boʻlsa-yu, lekin rasamadi bilan xarjlamasa, sal oʻtmasdan bu davlat yoʻq boʻlib ketadi.

Shuning uchun dedilarki, mol-davlatni qo'lgga kiritishdan ko'ra uni xarjlash qiyindir».

Manba: Kalila va Dimna. «Raduga» nashriyotining Toshkent bo'limi. 1988, 47, 48-betlar.

2-savol javobi: Biz ham ibrat olsak arzirli eng muhim xislatlari quyidagilar:

1. Aniq bajarish.
2. Puxta bajarish.
3. O'z vaqtida bajarish.
4. Bekamu-ko'st bajarish.
5. Vaqtida hozir bo'lish.

Manba: G'ulomov S., Abdullayev A., Sotvoldiyev A. Iqtisodiyot ilmi asoslari. Toshkent, «Moliya», 2002, 44-bet.

3-savol javobi: Daromad, buromad. «Daromadga qarab buromad»

Manba: Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala-mashqlar. 1-qism, Toshkent, 2007, 101–114-betlar.

4-savol javobi:

Prezidentimizning 2002-yil 14-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yilda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2002 yilda islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'shlangan majlisida «Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz» mavzusida qilgan ma'ruzasi.

Manba: Karimov I. A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilpn foydalanish – bosh yo'limiz.// Xalq so'zi, 2002-yil 15-fevral.

5-savol javobi:

Omad foydasi iqtisodiy foydaning bir ko'rinishi, lekin u ikki xususiyatga ega.

Birinchidan, omad foydasi firmaga bog'liq bo'lmagan holda bazor narxlarining kutilmagan holda ortishi tufayli paydo bo'ladi. Narxlar pasaygach, yo'q bo'lib ketadi, demak, bu o'tkinchi xarakterda bo'ladi.

Ikkinchidan, omad foydasini hamma firmalar emas, omadi chopgan firmalar oladi. Neft narxini oshishidan hosil bo'lgan omad foydasini faqat neft kompaniyalari olgan, u boshqalarga tegmagan.

Manba: O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, «Sharq», 2007, 180–181-betlar.

6-savol javobi:

Bu hikmat XI asrda yashab o'tgan Kaykovusning o'g'liga bag'ishlab yozgan tarixiy asari «Qobusnoma»da bayon qilingan.

Manba: «Qobusnoma», T.: «O'qituvchi», 1973, 29-bet.

Berilgan javoblarga ko'ra talabalar va kichik guruhga ball beriladi.

Navbat keyingi guruh vakiliga beriladi. Shunday tarzda barcha kichik guruhlar tayyorlagan savollarga javob beriladi. Muvofiq ravishda javoblar baholanadi.

Unda o'quvchi-talabalar o'rtasida eng qiziqarli, mavzuni chuqur o'rganishga qaratilgan savol tanlanadi va uni tayyorlagan talaba hamda qo'yilgan savolga eng mukammal javob bergan talaba tanlanadi va eng yuqori ball beriladi. Aytaylik, talabalar eng qiziqarli hamda o'tilayotgan mavzuning mazmuni bilan bog'langan deb birinchi guruh tayyorlagan savolni topishdi, deylik. Shu savolni tayyorlagan talabaga eng yuqori ball beriladi.

O'qituvchi dars jarayonida bildirilgan fikrni asoslash yoki mustahkamlash uchun qo'shimcha savollar beradi: «Nima sababdan?», «Siz shu fikrga qo'shilasizmi?», «Misol keltiring-chi?», «O'rtog'ingiz bildirgan fikr to'g'rimi?», «O'zingizning xulosangizni aytgandimi?» tarzidagi savollar bilan kichik guruhlarini bir-birlariga murojaat qilishga yo'naltiriladi.

O'z fikrini bayon qilayotgan o'quvchiga: «Guruh nima sababdan shu savolni 5ta savol ichidan eng qiziqarli deb topdi?», «Aytgandimi, siz yoki guruhingiz berilgan savolga ana shunday javob berishiga nima sababdan qaror qildingiz?»—deb murojaat qilib, javobni eshitgach, auditoriyaga «boshqalar ham shu fikrdami, uni noto'g'ri deb hisoblovchilar, marhamat o'z fikringizni bildiring» deb, talabalar fikrini aniqlash mumkin.

Agar to'g'ri javob yagona bo'lmasa, o'qituvchi «qani, o'ylab ko'ringlar-chi, yana qanday muqobil javoblar bo'lishi mumkin?» degan savolni tashlashi mumkin.

Savollar asosida darslarni «O'yla, izla, top», «Qilni qirq yorib», «Kim millioner bo'lishni xohlaydi?», «Intellectual ring», «Mo'jizalar maydoni» va boshqalar kabi tashkil qilish mumkin.

O'quvchi, talabalar xotirasini mustahkamlash va ularni ijodkorlikka o'rgatish maqsadida fanga, uning biron bo'limiga, mavzusiga oid krossvord va skanvord tuzishni topshirish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

4-§. Suhbat metodini qo'llab dars o'tish

Savol-javob odatda darsning og'zaki metodi hisoblanadi. Og'zaki javobga asoslangan yana bir metod, suhbat metodidir. Bu metod odatda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, maslahat daralarida keng qo'llaniladi. Bunda bilim o'qituvchi tomonidan ma'lum bir tizimga solingan holda tushunarli, o'quvchi-talabalar ruhiyatiga ta'sir etadigan tarzda yetkaziladi.

Og'zaki uslubdagi darsning maqsadi ham boshqa metodlar kabi bilim berish, o'rgatish, axborot berish, o'zi olgan axborotni, bilimni yoki fikrni boshqalarga yetkazishdir. Bayon etish, hikoya qilish deb, o'quv materialini monolog tarzida bayon qilishga aytiladi. Hikoya usuli odatda ko'proq maktablarda qo'llaniladi yangi mavzuni, materialni o'zlashtirishga tayyorlash uchun **kirish so'zi**, mazmunini esa **hikoya** tarzida bayon qilinadi.

Hikoya uslubida o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Bu uslubni qo'llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Masalan, diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlar shular jumlasidandir. Hikoya samaradorligining shartlari: rejani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, ko'rgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejarida, oliy maktabda esa suhbat metodi keng qo'llaniladi. Suhbat metodini buyuk filosof Suqrot nihoyatda mohirlik bilan qo'llagan. Bu metod turli jihatdan qaraganda ham samarali bo'lib, qo'yilgan savollar orqali talabalarining xotirasidagi passiv bilimlarni faollashtiradi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, mustaqil fikr yuritish orqali xulosa chiqarish va umumlashtirishga o'rgatadi. Talabani o'qituvchi fikrini ilg'ash, uni davom ettirishga yo'naltiradi. Maksimal darajada tafakkurni faollashtirish bilan birga olingan bilimni diagnostika qilish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Suhbat: a) talabalarni bilim olish, o'qish-o'rganishga chorlovchi (kirish); b) bilim beruvchi; d) bilimlarni mustahkamlashga; e) bilimni nazorat qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Suhbat uslubini qo'llashda savollarni qo'yish (asosiy, qo'shimcha, yo'llovchi va boshqalar), o'quvchi-talabalarining javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Pedagoglar suhbatni quyidagi turlarga bo'lishadi: **evristik** (yunoncha—heurikos — izlayman, topaman, kashf etaman) suhbat.

O'qituvchining mohirlik bilan qo'ygan savollariga talabalarning javoblari orqali yangi bilimlarni jadal o'zlashtirishlarini ta'minlashga qaratiladi.

Katehyezik suhbat (yunoncha — katechesis — nasihat, o'git), biron bir ta'limot asoslarini savol, javob shaklidagi bayoni tarzida olib boriladi.

Germenevtik suhbat (yunoncha — hermeneutikos — tushuntiruvchi, talqin etuvchi), o'qitilayotgan, o'rganilayotgan uzviy savolni yozilgan matnni sharhlash va uni talqin qilish— demak, nimanidir mazmunini, mohiyatini ochib berishga qaratiladi.

Suqrotchasiga va maevtikaga (yunoncha — maieutike — insonda yashiringan bilimlarni yuzaga chiqarishga undaydigan) asoslangan suhbat. Dialektik fikrlashga, bahs-munozara san'atiga o'rgatish, qat'iyan man qilingan fikrlardan qochishga o'rgatadigan suhbat.

Suhbat metodi o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Bu uslubni qo'llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Masalan, diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlar shular jumlasidandir. Uning samaradorligining shartlari: rejani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, ko'rgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishishdir.

Ma'ruza — bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi-talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta'rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Bu metodning samarasi, asosan, o'qituvchi mahoratiga, uning ta'sirchan, tushunarli, diqqatni tortadigan emotsional bayon qilishiga, har bir so'z, ibora uning ko'zida, chehrasida qanday ifodalanishiga bog'liq. Suhbat talabalarning intellektual darajasiga mos bo'lishi lozim.

O'qituvchi ushbu metod asosida dars o'tishga tayyorlanar ekan, zarur materialni, mavjud sharoitda eng yaxshi maksimal natijaga erishish uchun metodik usullar tanlaydi. Ko'pincha xotirada qoladigan usullar qo'llaydi. Taqqoslash, solishtirish, o'xshatish, xu-

losa chiqarish kabilar xotirada qolishga yordam beradigan usullardir.

Suhbat mashg'ulotlarda o'qitishning boshqa metodlari bilan ko'rgazmali vositalar bilan olib borganda yaxshi natijalar beradi. Bundan tashqari hikoyada qanday voqea, hodisa, dalillar, kishilar bayon qilinayotgani ham katta rol o'ynaydi.

Talabalar ham amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi tomonidan berilgan savolga shunday tarzda bayon qilish bilan javob beradilar.

- O'quv jarayonida qo'llaniladigan **suhbat**; ya'ni qo'yilgan savolga atroflicha, aniq, tushunarli javob berish bilan suhbatdoshning diqqati masalaning turli jihatlariga qaratiladi.

Suhbat didaktik jarayondagi eng ko'hna metodlardan hisoblanadi. Suhbat — unda qatnashuvchilarda bilim olishga, o'qish, o'rganishga istak tug'diradi. Shu bois u keng tarqalgan.

Suhbatning afzallik tomoni shundaki, u fikrlashni maksimal darajada faollashtiradi, bilish jarayonini boshqarish imkonini beradi, buning uchun sharoit yaratadi. Lekin bu metodni samarali ravishda qo'llash uchun o'quvchi-talabalar ma'lum darajada bilim zaxirasiga ega bo'lishlari lozim.

Mavzuni bu metodni qo'llab o'rganishda induktiv va deduktiv suhbat tarzida o'tkazishning imkoni katta. Bunda o'qituvchi talabalarni amaliyotdan nazariyaga, umumlashtirishga yoki nazariya, umumiy qoidalarni amaliyot bilan bog'lash orqali qo'yilgan maqsadga yetadi.

Keyingi paytda uning hozirgi talablarga javob beradigan usullari keng qo'llanilmoqda. Ulardan biri suhbatni **«intervyu berish»** usulida o'tkazishdir. Bu usulda bir talaba intervyu oluvchi rolini bajarsa, ikkinchisi intervyu beruvchi sifatida qatnashadi. Natijada talabalar faolligi oddiy suhbat tarzida o'tkazilgan darsga qaraganda ancha yuqori bo'lishiga erishiladi. Undan tashqari **«dumaloq stol atrofida suhbat»**, **«tig'iz payt»**, **«mutaxassis-mehmonimiz»** va boshqa usullarni qo'llab o'tkazish mumkin. Eng asosiysi qanday savollar bilan murojaat qilinadi va qanday javoblar kutiladi, o'qituvchi nihoyatda oldindan puxta tayyorgarlik qilishi kerak.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, suhbat metodini qo'llash orqali:

- o'quvchi, talabalarni darsda faol qatnashishga tayyorlash;
- yangi o'quv materialini bilan tanishtirish;

• egallagan bilimlarini mustahkamlash va ma'lum bir tizimga solish;

• egallagan bilimlari qay darajada ekanligini aniqlash va joriy nazorat qilish amalga oshiriladi va bu borada unga teng keladigani yo'q.

Savol-javob va suhbat metodlarini qo'llab dars o'tishning boshqa barcha uslublarga o'xshab, o'ziga xos afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud. *Ular quyidagilar:*

Afzalliklari:

1. Darsda qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni bevosita nazorat qilish imkoni kattaligi.

2. Talabalarning darsda qatnashishlarini turli savollar bilan faollashtirish.

3. Har bir talabaga savol bilan murojaat qilish orqali, darsda faol qatnashishni ta'minlash ko'rsatkichini oshirish.

4. Birgalikda ishlash, savolni muhokama qilish jarayonida guruhni boshqarishni praktikada qo'llash.

Kamchiliklari:

1. Talabalarning soni cheklangani, 25–30 tadan oshmasligi.

2. O'qituvchidan ko'p kuch, asab, mahorat talab qiladi.

3. Savollar muhokamasi ko'p vaqt talab qiladi.

4. Yaxshi tayyorlanmagan yoki so'zga no'noq talabalar dars jarayonida chetda tomoshabin bo'lib qolishi xavfi bor.

5. Talabalardan ma'lum darajada bilim, tushuncha bo'lishini talab qiladi. Guruhdagi talabalar yangiliklarni, o'zgarishlarni bilishi, darsga puxta tayyorlanib kelishlari kerak. Bo'lmasa darsda qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Javoblarni qanday baholash kerak?

Har bir javobga muvofiq ravishda baho berish kerak. Javob bergan ham, boshqa talabalar ham javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini bilishi kerak. To'g'ri javobni ayrim paytda qaytarish zarur bo'ladi, ayrim paytda so'zma-so'z qaytarish ortiqcha.

To'g'ri javobni e'tirof etish. Javob to'g'riligi e'tirof etilar ekan, doimo bir xilda «to'g'ri», «juda yaxshi» degan so'zlarni takrorlamaslikka harakat qilish kerak.

Javob yo'q. Talaba savolga javob bera olmasa, boshqa savol berib ko'rish kerak. O'qituvchi bunday paytda sabr-toqatli bo'lishi lozim. Agarda keyingi savolga ham javob bo'lmasa, boshqa talabaga murojaat qilinadi.

Javob yetarli emas. Talaba bergan javob yetarlicha to'g'ri

bo'lmasa, javobning to'g'ri qismini hisobga olgan holda esga soluvchi, yo'llovchi savollar berish kerak.

Berilgan javob noto'g'ri. Noto'g'ri berilgan javobni oydinlashtirish, uni boshqacharoq tarzda qo'yish yoki auditoriyaga hamma shunaqa fikrdami? Kelinglar, bir o'ylab ko'raylik deya murojaat qilish mumkin.

Javob mujmal bo'lishi mumkin. Qo'yilgan savolga noaniq javob bo'lsa, o'qituvchi darhol «savol boshqa edi» yoki «men boshqa narsani nazarda tutgan edim» demay, keyingi savolni bergani ma'qul.

Noaniq tushunib bo'lmaydigan javob. Unda o'qituvchi talabdan yana qayta o'z fikrini qaytarishni so'rashi, hamma javobni tushunmadi, yana takrorlang, deb murojaat qilish kerak.

To'g'ri javobni alohida ajratib ko'rsatish. Agar suhbat chog'ida bir necha fikr bildirilgan, turlicha javoblar berilgan bo'lsa, to'g'ri javobni albatta ajratib ko'rsatish, iloji boricha daftarga yozib qo'yish yoki tarqatiladigan materialda bo'lishi kerak

Xulosa

- Insonda tahliliy hamda tanqidiy fikrlash savol qo'yishdan boshlanadi. Shuning uchun savollarni qo'ya bilish, ularga hech bo'lmaganda qoniqarli javob olish katta ahamiyatga ega. Savolsiz dars o'tib bo'lmaydi. Shu bilan savollar yordamida qator modelashtiruvchi o'yinlar tashkil etish, yangilarini o'ylab topish mumkin, ular so'zsiz talabalarni fanni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi.

- Og'zaki javobga asoslangan yana bir metod suhbat metodi bo'lib, u ham fanni o'rganishning qadimiy metodlaridan sanaladi. Shu bilan birga hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Suhbat qatnashuvchilarda bilim olish, o'qish o'rganishga istak tug'diradi. Har bir dars metodini o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mazkur metodlarga ham taalluqli bo'lib, dars o'tishda hisobga olish lozim.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Savol-javob (blits-so'rov), axborot xarakteridagi savollar, tasdiqlovchi-mustahkamlovchi savollar, faraz qilish, tahlil qilishga undovchi savollar, so'zsiz savol, suhbat, metodning afzalliklari, metodning kamchiliklari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Dars o'tishda auditoriya oldiga savol qo'yishning qanday ahamiyati bor? Savol-javob eng ko'hna, keng tarqalgan va hech eskirmaydigan metod deb ayta olamizmi?
2. Nima sababdan har qanday bilish faoliyatining asosida savol yotadi, deymiz?
3. Dars o'tish jarayonida parta, stol-stullar joylashuvining qanday ahamiyati bor?
4. Savollarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
5. Savol berish va unga javobni baholashda o'qituvchi qanday qoidalarga rioya qilishi lozim?
6. Suhbat metodi qanday metod hisoblanadi? Sizningcha, nima sababdan bu metoddan o'qituvchilar dars jarayonida keng foydalanadilar?

VIII bob. GURUHLARNI JUFTLIK KICHIK GURUHLARGA BO‘LIB DARS O‘TISH

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta‘minlovchi hamda boshqa-metodlar bilan birgalikda qo‘llash, talabalarni bir-birlariga ta‘sir ko‘rsatish imkoni keng metodlardan biri guruhlarini juftlik va kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tish metodidir. Mazkur bobda ana shu metodlar asosida dars o‘tishni tashkil qilish, uning ijobiy tomonlari va kamchiliklari bilan tanishamiz.

1-§. Kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishning boshqa metodlardan farqi

Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda muvaffaqiyatli ravishda qo‘llanilayotgan metodlardan biri talabalar guruhlarini juftlik yoki kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishdir. Bu uslubda asosiy mas‘uliyat talabalar zimmasiga yuklanib, ular faolligini oshirishga qaratiladi.

Ilg‘or mamlakatlar, shuningdek, mamlakatimiz pedagoglarining tajribasi kichik guruhlar tufayli ta‘lim oluvchilar o‘rtasida ancha mustahkam munosabat o‘rnatilishini ko‘rsatadi.

Kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tish:

1) o‘quvchi-talabalarni hamkorlikda ishlashga, bilish jarayonini faollashtirishga, ularda kommunikabellik, kirishimlilik, boshqalarning fikrini eshitishni o‘rgatadi;

2) berilgan topshiriqni birgalikda bajarish jarayonida o‘rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo bo‘ladi;

3) savollarni aniq shakllantirishni, beradigan javoblarni asoslab berishni o‘rganadilar;

4) ta‘lim oluvchining potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bilmaganlarini bir-birlaridan so‘rab o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Ta‘lim oluvchilar bilimini o‘zaro hamkorlikda boyishini ta‘minlaydi;

5) tortinchoq talabalar o‘z bilimlari, mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

6) qobiliyatli, iqtidorli o'quvchi-talabalar o'z qobiliyatlarini namoyish qilish, boshqalarga yordam berish, ularga o'rgatishlari va ulardan ham nimanidir o'rganishlari mumkin;

7) kichik guruhlarda ishlash har bir o'quvchi-talabaga, o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko'rsatishga o'rganadilar.

Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish samarali bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Dars materialini o'zlashtirish jarayonida talabalar jamoa bo'lib ishlashi kerak.

2. Har bir guruhda albatta a'lochilar bo'lishi, kichik guruh tarkibi aralash bo'lgani (qizlar, yigitlar) ma'qul.

3. Butun guruh va alohida talabani taqdirlash tizimi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, o'quvchi, talabalarni kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishni tashkil etishning o'zi yetarli emas ekan. Kutilgan natijaga erishish uchun yana ikki komponent: guruhni rag'batlantirish va **shaxsan** mas'uliyatni his qilish mexanizmi va uni rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish kerak ekan. Agarda guruh miqyosida rag'batlantirish yetarli bo'lmasa, guruh a'zolari o'z o'rtoqlari o'tilayotgan darsni o'zlashtirishiga uncha ahamiyat bermay qo'yadi.

Guruhlarni kichik guruhlariga bo'lishni qanday qoidalar yoki tamoyillar asosida amalga oshirish lozim, guruhlar qanday tuzilganda yuqori samara beradi degan savolga aniq javob, universal qoida yo'q. Guruhlarni kichik guruhlariga bo'lishda:

a) qo'yilgan ta'lim maqsadlari, shakli, natijasi;

b) beriladigan topshiriq, texnologik xarita bo'yicha qo'llashni mo'ljallagan ta'lim metodi va usullarini hisobga olishimiz kerak.

O'quvchi-talabalarni kichik guruhlariga bo'lishda tasodifiy belgidan foydalanishimiz mumkin:

— auditoriyada joylashganliklariga qarab bo'lib chiqish mumkin.

O'qishdagi natijalarga ko'ra:

— baravarlashtirish guruhi sifatida tashkil qilinganda, kichik guruhlariga turli darajada o'qiydigan talabalar birlashtiriladi;

— qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish guruhi tarzida tashkil qilinganda, iqtidorli talabalar, o'qish darajasi nisbatan pastroq guruhlariga ajratiladi.

Bajariladigan topshiriqqa ko'ra juftlik, 4–5 kishidan iborat yoki undan ko'p o'quvchi-talabalardan tashkil topgan guruhlariga bo'lish mumkin.

Kichik guruhlarni faoliyat ko'rsatishi vaqti, bir topshiriqni bajarguncha amal qiladigan guruhlar, bir necha mashg'ulot mobaynida birgalikda ishlaydigan guruhlar, tarkibi o'zgarib turuvchi guruhlar tarzida tashkil etish mumkin.

Kichik guruh a'zolarining majburiyatlari

Kichik guruhning har bir a'zosi:

- o'rtoqlarining fikrini diqqat bilan eshitishi;
- guruh ishida faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tortmasligi kerak;
- zarurat bo'lganda yordam so'rashi;
- undan yordam so'rashganda, boshqalarga o'z yordamini berishi;
- guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi;
- o'zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi;
- topshiriqni bajarishda, aniq vazifalarini bilishi kerak.

Har bir kichik guruhning yetakchisi tayinlangani ma'qul. Ularni passiv, o'z fikrini aytmaydigan yoki yaxshi o'zlashtiradigan, faol talabalardan tanlash mumkin. Yetakchi turli funksiyalarni bajarishi mumkin, kichik guruh a'zolarining topshiriqni bajarishini nazorat qilishi lozim.

Yetakchilar guruhning har bir a'zosini individual hissasini, rolini ko'rsatib berishlari kerak. Iloji boricha barcha o'quvchi-talabalarni yetakchi rolida sinab ko'rgan ma'qul.

Kichik guruhlariga bo'linib dars o'tish uslubining bir necha **modellari-variantlari** mavjud. Ular talabalarining o'quv materialini o'zlashtirish natijasini yaxshilashga qaratilgan.

Juftlik ham o'ziga xos, ikki kishidan iborat kichik guruh. Unda topshiriqlar juftlik o'rtasida tayyorlanadi, muhokama qilinadi. Guruhni juftlikdan iborat eng kichik guruhga bo'linib ishlashining afzalligi shundaki, ular bir partada o'tirishadi. Topshiriqni bajarish, muhokama qilish, maslahatlashish uchun alohida joy, xonaning keragi yo'q. Savol-javob, mashq (ayniqsa, to'g'ri/noto'g'ri)larni bajarishda darsni juftlik asosida tashkil qilish samarali bo'lib, talabalarni faollashtiradi, o'z fikrini himoya qilish, asoslashga o'rgatadi.

Kichik guruhlardagi talabalar soni ixtiyoriy bo'lib, uni o'qituvchi barcha omillarni hisobga olgan holda o'zi belgilaydi. O'quv adabiyotlaridagi «5x5» yoki «6x6», «7x7» metodlari haqidagi bildirilgan fikrlardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, ularning

barchasida soʻz guruhlarni kichik guruhlarga boʻlib, dars oʻtish haqida boradi.

Bunda oʻqituvchi biron bir material yoki oʻtilgan darsni qisqacha tushuntirib, talabalarga topshiriq beradi. Topshiriq masala, mashq, savolga javob va boshqa shakllardagi nazorat ishi boʻlishi mumkin. Topshiriq komandalar ichida muhokama qilinadi. Keyin oʻrganilgan mavzu boʻyicha har bir komanda aʼzosi individual tarzda nazorat ishi yozadi. Har bir talabaning ballari jamlanib, umumiy komandaning bali chiqariladi. U shaxsiy va komanda toʻplagan ball bilan taqqoslanadi. Komandalarning olgan oʻrinlari aniqlanib, toʻplangan balga koʻra ragʻbatlantiriladi.

Ikkinchi modelda musobaqa (tanlov) oʻtkaziladi. Bunda komanda aʼzolari boshqa komanda aʼzolari bilan musobaqalashib ochkolar toʻplashadi.

Uchinchi model, mozaika modeli deb ham ataladi. Bu model koʻproq katta guruh, aytaylik, 25–30 tadan talaba bor guruhlarda qoʻllangani maʼqul.

Guruhdagi talabalar soni boʻyicha oʻqituvchi har bir komandaga 5 yoki 6 tadan talabani jalb qiladi. Har bir komanda tarkibidagi talaba soniga qarab, 5–6 savol yoki qismdan iborat materialni oʻrganish uchun topshiriq beriladi. Har bir komandadan bir kishi bitta qismni yoki savolni oʻrganadi.

Turli komandalardan shu qism yoki savolni olgan talabalar birga yigʻilib, oʻquv topshirigʻini muhokama qiladilar. Bu guruhlarni ekspert guruhlar deb ataladi. Asosiy guruhlarni alfavitdagi harflar bilan talabalarni raqamlar bilan belgilaymiz.

Aytaylik, guruh 30 ta talabadan iborat. Oʻqituvchi ularni 6 tadan 5 ta guruhga (A, B, V, G, D) boʻladi. Birinchi guruh A, undagi talabalar A1, A2, A3, A4, A5, A6, ikkinchi guruh B, undagi talabalar B1, B2, B3, B4, B5, B6 va hokazo tarzida boʻlinadi, Har bir talaba oʻzining raqami boʻyicha asosiy komandadan, yaʼni harf boʻyicha oʻquv materialining maʼlum qismini yoki savolni oʻrganish boʻyicha topshiriq oladi.

Soʻngra mutaxassislar guruhida (raqamlar boʻyicha) barcha 1 yoki 2 va hokazo raqamlar asosida yangi guruh tashkil boʻladi. Yaʼni mutaxassislar komandasi A1, B1, V1, G1, D1, ikkinchi komanda A2, B2, V2, G2, D2 va hokazo tarzida yangi komanda hosil boʻladi. Har bir asosiy komandadan bir xil raqamdagi, lekin harfi har xil komanda aʼzolari toʻplanib, oʻzlariga berilgan savol, topshiriqni muhokama qiladilar. Soʻngra har kim ekspertlar guruhidan oʻzining asosiy guruhiga qaytadi.

Guruhning har bir qatnashchisi ekspertlar guruhida o'zi o'rgangan masalani gapirib beradi. Guruhning har bir qatnashchisi diqqat bilan o'rtoqlarining fikrini eshitishga harakat qiladi. Chunki, berilgan topshiriqni bajarishning yagona yo'li o'rtoqlarining fikrini diqqat bilan tinglab, tahlil qilib, so'ngra gapirib berishdir. Undan tashqari, har bir talabada o'z topshirig'ini mufassal bajarish uchun stimuly mavjud. Sababi, u berilgan savol, topshiriqni o'rtoqlari qay darajada o'zlashtirishlariga mas'ul.

Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishdagi to'rtinchi model avvalgi modellardan birmuncha farqlanadi. Bu modelda kichik guruhdagi har bir talaba berilgan topshiriqni avval alohida o'zi bajarib, fikrini seminar daftariga yozadi. So'ngra guruh birgalikda hammaning fikrini o'rganib chiqadi. Kichik guruh nomidan yagona javob tayyorlanadi, darsda barcha guruhlarining javoblari eshitaladi va guruhni erishgan natijasi baholanadi.

2-§. Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishni tashkil etish va uning asosiy fazalari

Kichik guruhlarda talabalar o'rtasida fikr almashuv, tahlil qilish imkoniyati keng. Har bir talabaning fikri o'rtoqlari tomonidan tahlil qilinadi. Bunda har bir talaba, albatta o'z fikrini asoslashga, himoya qilishga harakat qiladi. Munozara jarayonida har bir talaba o'z xatosini tushunadi yoki haqligini sinab ko'radi, hamkorlikda muammoni yechishga o'rganadi.

Guruhni juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib ishlash maqsadga muvofiq, qachonki:

- axborot bilan almashuv;
- g'oya-fikrlarni yig'ish va o'rtoqlashish;
- qiyin yechiladigan muammo va variantlarni tahlil qilish;
- murakkab masalani yechish va xulosa chiqarish zarur bo'lganda.

Guruhda ishlash individual ishlashga qaraganda yaxshi natija beradi. Sababi:

- axborot diapazoni keng, chunki har bir talaba ma'lum axborotga ega;
- hamkorlik natijasida passiv talabalarining ham faolligi ortishi mumkin.
- ko'pgina taklif, fikrlar o'zaro tanqid natijasida saralanadi.

Guruh bilan ishlashning maqsadi talabalarining bilimini

oshirishdir. Uslubni qo'llash natijasida talabalar tomonidan:

- birgalikda ishlash shakllanadi;
- nutq so'zlash va o'z fikrini asoslab berishga, himoyalanihga o'rganadi;
- mustaqil fikrlash va muammolarni yechishga ishtiyoq shakllanadi;
- o'rganishga, ishlashga ko'nikma hosil bo'ladi.

Kichik guruhlarga bo'lib o'tilgan darsda o'qituvchi yagona axborot beruvchi, taqriz qiluvchi, baholovchi shaxs sifatida markazda turmaydi. U mavzuni o'rgatuvchidan darsni tayyorlovchi va tashkil etuvchiga aylanadi.

Kichik guruhlarda berilgan topshiriq¹ bo'yicha mavzuni intensiv o'rganishga to'g'ri keladi. Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, ularni chuqur o'zlashtirishga harakat qilish natijasida olingan bilimni uzoq muddat yodda qolishiga erishiladi.

Juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga bog'liq.

Kichik guruhlarda ishlash faqat qo'yilgan topshiriqni emas, balki uning natijasini muhokama qilishni ham o'z ichiga oladi. Bunda doskadan, texnik vositalardan foydalanish mumkin.

Kichik guruhda ishlashning ahamiyatli jihati kichik guruh, oxir-oqibat umuman butun guruhning ishini unumli bo'lishini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi avvaldan hamma dars jarayonini rejalashtirishi kerak.

1. Tayyorgarlik ko'rish:

- maqsad qo'yish;
- material tanlash;
- kichik guruhlarga topshiriqni tushuntirish;
- zarur materiallar bilan ta'minlash;
- qo'yilayotgan topshiriqni, masalani o'qituvchining o'zi yechishi zarurligi.

2. Axborot bilan ta'minlash:

- kichik guruhlar qanday topshiriq oladilar, uni bajarishga qancha vaqt ajratiladi;
- qanday qoidalarga rioya qilish kerak kabilar e'ton qilinadi.

3. Topshiriq ustida ishlash:

- kichik guruh topshiriqni olgach, vazifalarni bo'lishib olishi mumkin;

¹ Kichik guruhlar uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar namunasi 6,7,20-kab. boblarda berilgan.

- kichik guruhlar o‘zining topshirig‘ini bajaradi;
- kichik guruh o‘z ish natijasini gapirib berishga, qilgan ishini ko‘rsatishga tayyorlanadi;
- kichik guruh o‘z ish natijasini boshqa kichik guruhlar ish natijasi bilan taqqoslaydi.

4. Kichik guruhlar ish natijasini muhokama qilish:

- kichik guruhlar qo‘yilgan masalani birgalikda muhokama qilish uchun yig‘iladi;
- kichik guruhdan bitta talaba (dokladchi) erishgan natijani qisqacha doklad qiladi;
- ish natijasi muhokama qilinadi;
- bildirgan fikrlar bo‘yicha umumiy xulosaga kelinadi;
- talabalarga umumiy natija e‘lon qilinadi.

O‘qituvchining roli:

- qaror qabul qiladi;
- darsni tashkil qiladi va boshlaydi;
- nazorat qiladi va zarur bo‘lganda, aralashadi;
- tahlil qiladi va baholaydi;

Bu metodni qanday qo‘llanishini yuqorida kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishning kooperativ metodi haqida to‘xtalganimizda, qo‘llashning asosiy qoidalarini ko‘rib o‘tdik.

Kooperativ metodning darslik, maqola yoki boshqa matn bilan ishlashga qaratilgan bir usuli «**Bumerang**»¹ deb nomlanadi.

Bu metod o‘quvchi-talabalarning dars jarayonida, darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, o‘z fikrini erkin bayon qilishni o‘rganishiga, dars davomida ularni bilimini baholashga qaratilgan. Metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchi-talabalarga tarqatilgan materialni yakka va guruh bo‘lib o‘zlashtirish, suhbat, munozara orqali uning mazmunini tushunishlariga erishishdan iborat.


«Bumerang» metodi kooperativ o‘qitish metodi bo‘lib, kichik guruhlar bilan dars o‘tishga o‘xshash bo‘ladi. Bunda dars jarayonida talabalarga o‘rganilishi lozim bo‘lgan matn bilan ishlash topshiriladi. Bunda dastlab umumiy mavzu matni kichik guruhlarining soniga ko‘ra bo‘linib, kichik guruhning barcha a‘zolariga bir xil matn tarqatiladi.

¹ Bumerang – avstraliyalik mahalliy aholi ishlatadigan qurol. Otganda yana orqasiga, ovchiga qaytib kelish xususiyatiga ega.

Agar guruhni 5 ta kichik guruhga bo'lgan bo'lsak, u holda 5 ta kichik guruh umumiy mavzu bo'yicha 5 xil matnga, har bir o'quvchi-talaba o'z kichik guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi. Talabalar faoliyati yuqorida kooperativ kichik guruhlariga bo'linib ishlashni ko'rib chiqqanimizdek, tashkil qilinadi.

Kichik guruh faoliyatining yana bir turi «Zig-zag» usuli deb ham yuritiladi. Bunda yuqoridagidek dastlab, kichik guruhning barcha a'zolariga bir xil matn berib emas, balki guruhga ajratilgan matnni, mavzuni o'rganish uchun kichik guruhlar faoliyatini tashkil qilishning ikkinchi bosqichida, har bir guruh a'zolari o'rtasida ham taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, bir talabaga matnning birinchi yoki ikkinchi beti, ikkinchisiga 3–4-beti va hokazo tarqatiladi. Kichik guruh a'zolari o'zlariga tekkan matn bo'yicha ekspert guruhi hisoblanadi.

Kooperativ (bumerang, zig-zag kabilar) kichik guruhlariga bo'linib dars o'tishning tashkiliy shakli



To'rtburchaklar kichik guruhlar va uning a'zolari; Doiralalar ekspertlar guruhi va uning a'zolari

1. Ekspert kichik guruhlar materialni o'rganadilar, taqdimot tayyorlaydilar. Ekspert guruhlar — bu kichik guruhlarida bir xil topshiriq olgan talabalar bo'lib, ya'ni o'rganilishi kerak bo'lgan kitob betlari birinchi guruhdagi talaba bilan ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi kichik guruhdan shunday topshiriq olganlar, ya'ni xuddi shu betlar tushgan talabalar uchrashib birgalikda o'qib, muhokama qiladilar.

Aytaylik, guruh 24 talabadan iborat bo'lsin. Ularni 6 ta kichik

guruhlarga bo'lamiz. Bu kichik guruhdagi A nomerli talabaga 15-betni o'rganish topshirilgan bo'lsin, xuddi shu topshiriq 2-kichik guruhdagi A nomerli, 3-kichik guruhdagi A nomerli talaba, 4-kichik guruhdagi A nomerli talaba, 5-kichik guruhdagi A nomerli talaba, 6-kichik guruhdagi A nomerli talabada ham bor. Demak, 6 ta talaba 15-betni o'qib, fikr almashadilar.

Sheriklar - ekspertlar o'z materiallarini o'qib, o'rganishadi. Uni diqqatni tortadigan qilib taqdim etish uchun savollar tayyorlashadi.

2. Talabalar o'z kooperativ guruhlariga qaytishadi: O'rganilgan 4 bet materialni navbat bilan, o'zaro bir-birlariga o'rgatishadi. Maqsad: har bir kishi butun mavzuni to'laligicha o'zlashtirishi kerak.

3. Har bir guruh individual va guruh hisobotini tayyorlaydi.

Guruhlarning har bir a'zosi bilimni sinash yo'llarini o'qituvchi belgilaydi. Aytaylik, o'qituvchi har bir guruh a'zolariga qator savollar berib, og'zaki javoblariga ko'ra yoki yozgan nazorat ishiga qarab, tayyorlagan taqdimoti bo'yicha va boshqa usullar, jumladan, kichik guruhlar va talabalarni o'zlarini va boshqalarni baholashi orqali amalga oshirish mumkin.

3-§. Kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishda turli interaktiv metod qo'llash

Tajriba ko'rsatadiki, kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishda turli pedagogik texnologiyalarni qo'llashning imkoni katta. Bu yerda eng asosiy farqlanadigan jihat tayyorlanadigan topshiriq va uni bajarishni tashkil etishdir.

Darsni bosqichma-bosqich (zinama-zina) metodi asosida tashkil etishda topshiriqni Blum taksonomiyasi bo'yicha tayyorlagan ma'qul. Bunda topshiriq masalan, xarajatlarni o'rganilayotgan bo'lsa, xarajatlar haqidagi tushunchadan boshlab, xarajatlarni hisoblash, taqqoslash, kamaytirish yo'llarini ko'rsatib, ularni baholashni o'z ichiga olgan topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bunday usul, ayniqsa, iqtidori bir-biridan ancha farqlanadigan guruhlarda qo'llashga mos tushadi. Bilimi bo'sh talabalarga dastlab taksonomiyaning birinchi bosqich darajasidagi topshiriqlar berilib, qolgan guruhlarga borgan sari murakkablashtirib boriladi. Har bir guruh topshiriqni yozma ravishda bajargach, guruhdan bir kishi taqdimot qiladi va guruh javobi berilgan topshiriqqa qarab, doskaga ilinadi. Natijada topshiriqlar javobidan iborat zina hosil bo'ladi. Bunda ta-

laba, albatta, avvalgi guruh taqdimotiga nisbatan ular bajargan topshiriqdan qaysi tomonlari bilan farqlanishini aytib bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi izoh beradi va baholaydi. Kelgusi safar o'qituvchi bilimi bo'sh guruh a'zolariga taksonomiyaning keyingi darajasidagi topshiriq berishni unutmashligi kerak, chunki maqsad bosqichma-bosqich ularni ham yaxshi o'qiydanganlar safiga qo'shilishlariga yordam berish.

Charxpalak Bunda tayyorlangan vazifa, topshiriqlar guruhlarga tarqatiladi. Har bir guruh a'zolari o'z fikrlarini yozadilar. Guruh raqami, ishtirokchining belgisi qo'yilib, boshqa guruhga uzatiladi. Navbatdagi guruh berilgan materialni o'rganadi, to'ldiradi, o'z belgisini qo'yib keyingi guruhga uzatadi. Shunday qilib, bir guruhga berilgan topshiriq barcha guruhlar qo'lidan o'tib aylanib, oxirida shu guruhga keladi. Bu guruh a'zosi guruh raqami va o'zi qo'yg'an belgi bo'yicha tanib oladi.

Har bir guruh a'zolari o'z javoblari bilan boshqa guruhlar yozgan javoblarni taqqoslashadi. Farqlarni aniqlab, o'z fikrlarini yozadilar va butun guruh oldida taqdimot qilishlari mumkin. Topshiriqlar javoblari bilan o'qituvchiga topshiriladi. Bu texnologiyani qo'llaganda o'qituvchi vaqt sarfiga alohida diqqat qaratishi va oldindan reglament belgilab qo'yishi kerak.

3x5 metodi 3X5 metodi o'qituvchi guruhni kichik guruhlarga bo'ladi. Aytaylik, guruhda 25 nafar talaba bor. Ularni 5 tadan 5 ta kichik guruhga bo'linadi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha savollar yozilgan varaqlarni tarqatadi. Har bir guruh shu savolga javob tariqasida 3 ta gap, 3 so'z yoki so'z birikmasi yozishi zarurligini uqtiradi. Har bir guruhning o'z rangli qalami yoki flomasteri bo'lishi kerak. Natijada qaysi guruh qanday fikr bildirgani oson aniqlanadi. Vaqt belgilanadi.

Har bir guruh javobni yozib bo'lgach, stolni tark etadi va navbatdagi stolga o'tiradi. Qoldirilgan materialda bildirilgan fikrlarni davom ettiradi, so'ngra yana boshqa stolga o'tadi. Bu jarayon to o'z joylariga qaytib kelguncha davom etadi. Har bir guruh o'z joyiga qaytib kelgach boshqalar fikrlarini o'rganadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, taqdimot qiladi.

O'qituvchi guruhlar ishini tashkil etadi, kuzatadi, berilgan javoblarni tahlil qilib baholaydi. Agarda kichik guruhlarini ko'chib yurishi uchun imkoniyat bo'lmasa, tarqatma material aylantiriladi.

Darsni kichik guruhlarga bo'lib tashkil etishning yana bir varianti **muammo qo'yib** uni yechishga qaratilgan. Buni tadqiqot metodini kichik guruhlarda qo'llash ham deyish mumkin. Eng asosiysi talabalar muammoni yechish uchun uni kelib chiqish sabablarini o'rganish lozimligini so'ngra muammoni yechish uchun yo'l qidirish mumkinligini o'rganadilar.

Bunda biron muammoga bag'ishlangan kinolavha, maqola, konferensiya materiallari, kitob o'rganib chiqilib, shu asosda o'tkaziladi. O'qituvchi talabalarga materialni diqqat bilan o'rganish, o'rganilayotgan material bo'yicha muammoni aniqlash, uni xotirada saqlab qolish yoki daftarga yozib quyish lozimligini uqtiradi. So'ngra kichik guruhlarga tarqatma material tarqatiladi. Har bir guruh a'zolari tomonidan ko'rsatilgan lavhadan, o'qilgan matndan birgalikda muammoni aniqlash va berilgan tarqatma materialga yozib chiqish topshiriladi. Berilgan vaqt tugagach, guruh vakili tomonidan bajarilgan ish o'qib eshittiriladi.

Navbatdagi bosqichda guruhlar o'rtasida tarqatma materiallar almashtiriladi. Har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi va mustaqil ravishda tahlil etadi. Muallif fikridan tashqari muammoni yechish uchun qo'shimcha qanday fikri bo'lsa, yoki uni qo'llab-quvvatlasa bildiradi. Aytaylik, yerdan foydalanish masalalariga bag'ishlangan hujjatli film namoyish etildi. Shu lavhaga ko'ra tarqatma materialimizda muammo va uning yechimi quyidagicha aks etishi mumkin:

Qo'yilgan muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish uchun muallif tomonidan bildirilgan fikr	Guruhning yoki guruh a'zosining fikri
yerning unumdorligini pasayishi	yerning meliorativ holatining yomonlashuvi	Sizot suvlar uchun drenajlar o'tkazish	Sug'orish jaryonida suvni ortiqcha isrof qilmaslik ham

Talabalar yakka tartibda ishlab bo'lganlaridan so'ng bajargan ishini barchaga o'qib eshittiradi. Muammolar bo'yicha guruhda fikr almashiladi. O'qituvchi darsni yakunlaydi.

Umuman olganda, darsni kichik guruhlarga bo'lib o'tishni turlicha tashkil etish, topshiriq, vazifalarni turli variantlarda qo'llashning imkoniyati katta.

4-§. Metodning afzalliklari va kamchiliklari

Kichik guruhlar ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan darsni to'g'ri tashkil qilish, topshiriq va uning tarkibini aniqlash, dars o'tkazishni rejalashtirish va o'tkazishga bog'liq. Darsni kichik guruhlariga bo'lib tashkil etishning qator ijobiy tomonlari bo'lib, ular so'zsiz talabalarni o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirishlarida, mustahkam bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishlariga yordam beradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zaro ijodiy bog'liqlik, bir-biriga ta'sir etish. Guruhda ijodiy tarzda o'zaro ijodiy bog'lanish yuz beradi. Bunda:

- Kichik guruh oldiga umumiy maqsad qo'yiladi (masalan, guruhda biron bir materialni o'zlashtirish. Savolga javob berishi lozim bo'lgan talabalar ana shu materialni guruhning har bir a'zosi tushunib yetishiga e'tibor qilishi kerak).

- Guruhning barcha a'zolari rag'batlantiriladi (masalan, guruhning har bir a'zosi topshiriqni bajarib, belgilangan natijaga erishgandagina ball oladi).

- Guruh a'zolari o'zlarida bor material va axborotni o'zaro almashtirishlari, o'rtoqlashishlari kerak (masalan, guruhning bir qismi bir materialni, ikkinchi qismi boshqa materialni o'rganadi va so'ngra olgan axborotlari bilan fikr almashadilar).

- Guruh a'zolari o'zaro hamkorlikda o'ylaydilar va ma'lum rolni bajaradilar (masalan, biri yozib turadi, biri butun guruh nomidan so'zga chiqadi. Boshqalari munozarada qatnashadi). Shunday tarzda ijodiy bog'lanish ijobiy natija beradi. O'zaro hamkorlik jarayonida (og'zaki tahlil va muloqotda, biri bilgan axborotni ikkinchisi bilmasligi mumkin) talabalar bir-biridan o'rganadi.

2. **Shaxsiy mas'uliyatni his qilish.** O'zaro ijodiy hamkorlikning o'zi kichik guruhlariga bo'linib, dars o'tishning muhim natijasi hisoblanadi. Lekin har bir guruh a'zosining yangi bilimni o'zlashtirishini ta'minlash uchun berilgan material yoki savolni o'rganishda har birining javobgarligini anglashiga erishishi zarur. Har bir talabaning shaxsiy javobgarlikni his qilishi qay darajada ekanligini nazorat ishi yoki tavakkaliga tanlangan guruhning a'zolaridan biri javobiga qarab tekshirish, aniqlash mumkin.

3. **Talabalar o'rtasida muloqot, kichik guruhda ishlay bilish mahorati.** Guruhda samarali ishlash uchun talabalar o'rtasida bir-biriga ta'sir ko'rsatishni rivojlantirish zarur. Bunga masalan, muloqot, ishonch bildirish, sardorlik qilish, qaror qabul qilish va nizoli

vaziyatni bartaraf qilish kabilarni ko'rsatish mumkin.

4. Guruh bo'lib axborotlarni ishlash. Guruh a'zolari birgalikda axborotni ishlaydilar va materialni tahlil qilib, o'z fikrlarini o'rtoqlashadilar. Juftlik yoki kichik guruhlariga bo'linib dars o'tish uslubining asosiy jihatlari quyidagilar:

- ijodiy hamkorlik va bevosita bir-biriga ta'sir ko'rsatish;
- mas'uliyat his qilish;
- muloqot, kichik guruhlarda ishlay bilish mahorati;
- guruh bo'lib axborotlarni ishlash.

Juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib, dars o'tishning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud.

Birinchidan, muammo bilimni rag'batlantirish bilan bog'liq. Bilimi kuchli talabalar yuqori baho ola bilmasliklari, bilimi kuchsiz talabalar materialni o'zlashtirmaganlari sababli butun guruh past ball to'plashi mumkin.

Ikkinchidan, o'qituvchining dars o'tishdagi, hatto murakkab masalalarni muhokama qilishda ham roli minimal.

Uchinchidan, talabalar bir-biriga bilmaganini o'rgatadi. Lekin yangi tushuncha, yangi o'quv materiali berilganda fanning mazmunini chuqur va yaxshi tushunadigan o'qituvchi bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, juda ko'p o'qituvchilar kichik guruhga bo'lib dars o'tishni oddiy guruh bo'yicha ishlash tarzida ko'rishadi. Lekin nazariy jihatdan o'quv materialini o'zlashtirish uchun bu yetarli emas. Natijada bu uslubning imkoniyati to'la ishga solinmay qoladi.

Beshinchidan, kichik guruhga bo'lib dars o'tish, dars jarayonida muammo tug'dirishi mumkin. Sababi, qo'yilgan masalani kichik guruhda muhokama qilish uchun qo'shimcha auditoriya talab qilinadi. Shuning uchun kichik guruhlariga berilgan topshiriqni darsdan tashqari paytda muhokama qilib, seminar darsida ma'ruzachilarni tinglash mumkin.

Auditoriyada kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda masala, mashq yechish mumkin. Bunda talabalar berilgan topshiriqni ma'nosiga tushunishdimi yoki yo'qmi tekshirish, uni bajarishga aniq vaqt belgilash, talabalar o'rtasida n uloqot tashkil etish kerak.

Metodning kamchiliklariga nisbatan afzallik tomonlari ko'p. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida bu metod keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash imkoniyatlari keng.

Xulosa

Darsni kichik guruhlarga bo'lib o'tish o'quvchi talabalarni hamkorlikda ishlashni eng yuqori darajada olib chiqadigan metod hisoblanib, uni bir necha modellari variantlari mavjud. Metodni qo'llash natijasida talabalarda birgalikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Hamkorlikda ishlash, o'rganish jarayonida talabalar o'zaro o'qituvchi va o'quvchi bo'lib bilmaganlarini bir-birlaridan o'rganishadi.

Kichik guruhlarda dars olib borish, tayyorgarlik ko'rish, axborot bilan ta'minlash, topshiriq ustida ishlash, kichik guruhlar ish natijasini muhokama qilish, fazalariga bo'linadi.

Bu metodning afzallik va kamchilik tomonlari mavjud, lekin kamchiliklariga nisbatan afzalliklari ustun bo'lib, uni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash imkoni ham katta.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Juftlik, kichik guruh, hamkorlik qilish, individual fikr, guruh taqdimoti, tayyorgarlik ko'rish, axborot bilan ta'minlash, topshiriq ustida ishlash, yakuniy bosqich, metodning afzalliklari, metodning kamchiliklari

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Juftlik va kichik guruhlarga bo'linib, dars o'tish qaysi jihatlari bilan boshqa metodlardan ajralib turadi?
2. Talabalarning samarali ishlashi uchun kichik guruhlarda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
3. Kichik guruhlarda ishlash talabalarga nimalarni o'rgatadi?
4. Kichik guruhlarga bo'linib, dars o'tishning asosiy fazalari va ularning mazmunini aytib bera olasizmi?
5. Metodning afzalliklari nimada? Kamchiliklari-chi?
6. Sizningcha, kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishning qaysi modellarini qo'llash imkoniyati katta?

IX bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA MODELLASHTIRUVCHI AMALIY O'YINLAR METODI

Ma'lumki insonning shaxs sifatida kamol topishi o'yindan, o'yinchoqlardan boshlanadi. Shuning uchun qadimdan insonni turli-tuman bilimlarga ega bo'lishi, ularda malaka, ko'nikma, mahorat shakllanishida o'yinlardan foydalanilgan. O'yin hech kimni befarq qoldirmaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy fanlardan real hayotga yaqinlashtirib tuzilgan o'yinlar asosida dars o'tish muhim ahamiyatga ega.

Navbatdagi bob ana shu metodni qo'llashni o'rganishga bag'ishlangan.

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda modellashtiruvchi amaliy o'yinlar metodining tutgan o'rni

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'yin mehnat va o'qish kabi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Insonni shaxs sifatida kamol topishida o'yinlarning ahamiyati katta. O'yinlar inson o'zini hayotda namoyon qilishi, o'z o'rnini topishi, o'z-o'zini boshqarishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yinlarni dars o'tish metodi tariqasida borgan sari kengroq qo'llanishiga asosiy sabablardan biri uning qadimdan insonda turli-tuman bilim, ko'nikma, mahoratni hosil bo'lishi va uning xotirasida saqlanish shakli sifatida qo'llanilib kelishidir.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda modellashtirish metodi muhim o'rin tutadi. Aynan modellashtirishda talabalar iqtisodiy tushunchalarni o'rganishni eshitish, ko'rish orqaligina emas, balki o'zlari ham qatnashib o'rganadilar. Natijada, birinchidan, eng passiv talabalarni ham darsda faol qatnashishlari ta'minlanadi. Ikkinchidan, talabalar u yoki bu tushunchani, jarayonni o'rganishda o'zlari qatnashganlari tufayli u xotiralarida uzoq saqlanib, faol bilim zaxirasini tashkil etadi.

Bilim va malaka o'qish, faoliyat yuritish jarayonida shakllanadi. Biror malakani egallash uchun unga oid faoliyatni ko'p marta takrorlash, mashq qilish, muntazam amalga oshirish zarur. Ana shu

jarayon natijasida o'quvchi, talabalarda uquv, ko'nikma shakllanadi.

Bu jihatdan ham modellashtiruvchi o'yin metodi katta ahamiyatga ega. O'yinlarning afzalligi shundan iboratki, o'yin ishtirokchilari o'ziga u yoki bu rolni olib, harchand qiziqishlari bir-biriningiga mos tushmasa-da, o'zaro muloqotga kirishadilar, natijada ziddiyatli vaziyat yaratilib, ehtirosli holat yuzaga keladi va bu o'yinga qiziqish uyg'otadi. O'yin ishtirokchilari beixtiyor ravishda o'yin davomida o'z xislatlarini namoyon qiladilar. Bunda ular olgan bilim, kasbiy o'quv malakalarinigina emas, balki umumiy iqtidorini, o'z tabiatidagi mavjud jur'at, tezkorlik, kirishimlilik, tashabbuskorlik, faollik kabi xislatlar bor yoki yo'qligini ham namoyish etadilar.

Talabani o'yin jarayoniga tortilishi, o'yin jarayonida yuz beradigan vaziyat, emotsional hayajon, qayg'urish ularni ijodiy faoliyatini oshiruvchi kuchli stimulator rolini o'ynaydi. Talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi.

O'yinlardan foydalanib dars o'tish turli **maqsadlarni** amalga oshirishga qaratilgan.

O'yinning didaktik maqsadi. Talabalarni bilimlarni o'rganish, tushunish, amaliyotda olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini qo'llash, ularni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini kengaytirishga qaratilgan.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi. Mustaqillikni, irodani tarbiyalash, ma'naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirish, jamoaga kirishib keta olish -kommunikabellikni tarbiyalash.

Modellashtiruvchi o'yinlar: shartli ravishda imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan o'yinlarga bo'linadi.

Imitatsion o'yinlarda biron bir tashkilot, muassasa, korxonalar faoliyati andoza qilinadi. Voqeyalar kishilarning biror faoliyati(biznes rejasini muhokama qilish, ish majlislari) andoza qilib olinishi mumkin.

Amaliy(operatsion) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqeya-hodisa, faoliyat, operatsiyaning bajarilishi mashq qilinadi. Amaliy o'yinlar ish jarayoniga xos ravishda modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda aniq shaxsning xulqi, xatti-harakati va majburiyatlarining bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Rol o'yinlari o'quvchi-talabalarining shaxsiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'yinlarda o'yinda qatnashuvchilarning o'zi muammolarni o'ylab topishadi, ular faoliyati va qaror qabul qilishi cheklanmaydi. Ularning o'zi maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun o'yin qoidasi doirasida turli vositalardan foydalanishadi.

O'yindagi vaziyat o'yin ishtirokchilari tomonidan alohida pedagogik usul sharoitida emas, balki kundalik real hayotiy vaziyatni davomi kabi qabul qilinadi.

Rolli o'yinlar — bu yoshlarni tarbiyalash va bo'sh vaqtini o'tkazishni tashkil qilishning shakli ham. Bu o'yinlar o'rganish, tarbiyalash, dam olishda qo'llaniladi va ular katta pedagogik potensialga ega. O'yinlar o'quv jarayonida o'qitish, o'rganish metodi. Uni turli darajada va maqsadlarda qo'llash mumkin.

Barcha talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta'minlashda modellashtiruvchi o'yin metodining oldiga tushadigani yo'q.

2-§. Modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llab, dars o'tishning asosiy bosqichlari

Hozirgi paytda dars o'tishda bu metoddan nisbatan keng foydalanilmoqda. Modellashtiruvchi o'yinlar talabalarga abstrakt iqtisodiy tushunchalar, real hayotdagi iqtisodiy voqea-hodisalarni ifodalash, ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Ya'ni:

1) Modellashtirish metodi asosiga qurilgan dars mo'ljall (orientatsiya)dan boshlanadi. O'qituvchi talabalarni amaliy o'yin, uning maqsadi va foydalaniladigan tushunchalar bilan tanishtiradi.

O'qituvchi biron bir mavzu, savolni modellashtiruvchi o'yinlar yordamida o'tkazishni mo'ljallar ekan, eng avvalo, unga tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Tayyorgarlik bosqichi quyidagilar:

a) o'yinni ishlab chiqish;
b) uni o'tkazish qoidalarini va ularni talabalarga tushuntirishni o'z ichiga oladi.

2) Modellashtiruvchi o'yinning qanday o'tkazilishi yozma matnda ko'rsatiladi. Shuning uchun mavzular bo'yicha maxsus ish o'yinlari avvaldan ishlab chiqilishi, o'yin ssenariysi yozilishi zarur.

Unda:

- o'yinning maqsadi ;
- o'yin vazifalari va ularning bajarish izchilligi;
- o'yin qoidalarini;
- g'oliblarni aniqlash tartiblari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Maqsad — insonni u yoki bu faoliyati jarayonida erishishi lozim bo'lgan dasturlashtirilgan, rejalashtirilgan natija. Maqsad tekshirib ko'riladigan va erishiladigan (amalga oshiriladigan) bo'lishi lozim.

Maqsad ikki turda bo'ladi:

- O'qituvchi faoliyati maqsadlari.
- O'quvchi faoliyati maqsadlari.

O'qituvchi faoliyati maqsadlari o'quvchi, talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'quvchi, talabalarning yangi mavzuni o'rganish loyihasini ta-savvur qila olishiga yordamlashish;
- o'quvchi, talabalarning dalillar, tushunchalar, qonunlar haqi-dagi ko'nikmalarini mustahkamlash;
- o'quvchilarni o'rgangan bilimi va malakasini xilma-xil sharoit-larda mustaqil qo'llay bilishga o'rgatish, «amaliyot» da sinab ko'rish;
- mavzu bo'yicha o'quvchi, talabalarning bilimi, uquvi, malakasini oshirish, mustahkamlash va nazorat qilish.

O'yin o'tkazish uchun qanday tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi uchun tavsiyalar, talabalar uchun ko'rsatmalar beriladi.

Talabalar qanday rol o'ynashadi, o'yinning qoidalari, uni o'tkazishni qadam-baqadam ko'rsatmasi beriladi. Juda ko'p o'yinlarda talabalar hayotdagi personajlarning rolini o'ynashadi. Masalan, sotuvchi, xaridor, ishlab chiqaruvchi, xizmatchi va ho-kazo.

O'yin o'tkazish shartlarida har bir rol bajaruvchining maqsadi va unga qanday erishish mumkinligi ko'rsatiladi. Masalan, xaridor belgilangan vaqt ichida iloji boricha arzon, ko'proq tovar sotib ol-ishi, sotuvchi esa, aksincha, ko'proq qimmatga sotishi, ishlab chiqaruvchi ko'proq kam xarajat bilan mahsulot ishlab chiqarishi va hokazo.

3) Modellashtiruvchi o'yin o'tkazilayotganda darsning maqsadini yaxshi tushunmaslik oqibatida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni to'g'rilash hamda qarama-qarshi muloqot o'rnatish imkoniyatini qoldirishni ko'zda tutishi kerak.

4) Modellashtiruvchi o'yin asosida dars o'tishda talabalar o'yin jarayonida ham bilim oladi. Muhokama qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan berilgan savollar talabalarga o'yin davomida bajarilgan ishlar, voqealarni umumlashtirishga, darsning asosiy mazmunini tahlil qilishga yordam berishi kerak. Talabalar to'qnashgan qiy-inchiliklar, o'zi uchun ochgan yangiliklarni aniqlash, o'yinni real hayot voqealari bilan taqqoslash, o'tilayotgan darsning mazmuni bilan bog'lash asosida ko'rsatilgan asosiy iqtisodiy tushunchalarning mag'zini chaqish, anglab yetish hamda xulosa chiqarishga yordam berishi kerak.

5) Modellashtiruvchi o'yin boshqa o'yinlardan farq qilishini tushuntirish kerak. Masalan, kim birinchi bo'lib masalani yechadi yoki krossvord tuzadi va hokazo. Bular, asosan, qandaydir bir musobaqani ifodalaydi. Modellashtiruvchi o'yinlarga esa, albatta, real ijtimoiy yoki iqtisodiy jarayonni soddalashtirilgan ifodasi, unda qatnashish imkonini beradigan o'quv tajribasi sifatida qarash mumkin. Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar talabalarga shu jarayonning o'zini yoki insonlarning xatti-harakatini, o'zlarini qanday tutishlari, ya'ni tanlov muammosini qanday hal etishlarini namoyon qilishi tufayli iqtisodiy voqea, hodisa, jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Chunki, shu jarayonning o'zida ular qatnashadilar, sinab ko'radilar.

Modellashtiruvchi o'yin tamoyili asosida tuzilgan darsning asosiy bosqichlari.

▪ **Mo'ljalga olish:**

- modellashtiruvchi o'yin o'tkaziladigan mavzu tanlash;
- mavzu mazmunini o'rganadigan o'yin tanlash yoki ishlab chiqish;

- modellashtiruvchi o'yinda namoyish etiladigan, o'rganiladigan tushunchalarni aytish, esga solish, qaytarish;

- modellashtiruvchi o'yinning maqsadini tushuntirish.

▪ **O'yinni o'tkazishga tayyorlanish:**

- rollarni aniqlash, har bir rolni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur ashyolarni tayyorlash;

- o'yinni o'tkazish qonun-qoidasini belgilash;

- o'yin o'tkazishning aniq tartibini belgilash, qanday o'tkazish haqida aniq ko'rsatma berish;

- zarur bo'lganda qisqacha sinov raundini o'tkazish.

▪ **O'yinni o'tkazish:**

- modellashtiruvchi o'yinni o'tkazish;

- o'zaro muloqotni, aloqani ta'minlash;

- noto'g'ri tushunish tufayli yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash;

- o'yinni davom ettirish.

▪ **Muhokama qilish:**

- o'yinda yuz bergan hodisalar jarayoniga yakun yasash;

- yuz bergan qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llarini muhokama qilish;

- jarayonni tahlil qilish;

- o'yinni real hayot bilan taqqoslash;

- o'tilayotgan asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan bog'lash.

Navbatdagi paragrafda darsda bu metodni qo'llash orqali talab va taklif kategoriyasi va qonunini o'rganishda qanday foydalanishni ko'rib chiqamiz.

3-§. O'yinni tanlash va tayyorlash, o'tkazish. O'yin natijasini muhokama qilish. («Kartoshka bozori» amaliy o'yini misolida)

Bozor iqtisodiyotining eng muhim iqtisodiy instituti bozorning o'zi. Bozor resurslarni shunday taqsimlaydiki, bunda qaysi individual xaridor uni eng yuqori baholagan, ya'ni eng zarur deb hisoblagan bo'lsa, sotib oladi. Bozorda bir qancha xaridor turli-tuman tovar va xizmatlarni sotib olishga tayyor. Bu amaliy mashg'ulotda aniq bir bozorda baho qanday shakllanishini ko'rib chiqamiz. So'ngra nima sababdan vaqt o'tishi bilan baholar o'zgaradi? Qanday qilib turli bozorlar bir-biriga muvofiqlashadi va birgalikda bozor tizimini tashkil qiladi o'rganamiz. Bozorlarning yalpi tizimi jamiyat doimo to'qnash keladigan asosiy iqtisodiy savollar: qanday tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish zarur, ularni qanday ishlab chiqarish kerak? Ular kimlar uchun ishlab chiqariladi? Iqtisodiy tizim, ishlab chiqaruvchilar o'zgarishlarga tezda moslasha oladimi? Hammasiga javobni bozor beradi!

Bozor iqtisodiyotida bozorning qanchalik muhimligiga qaramay, ko'pchilik uning qanday ishlashini tushunmaydi.

Darsda o'rganiladigan qonun va kategoriyalar:

Taklif; Talab; Baho, muvozanat bahosi; Bozor kategoriyalari. Talab, taklif qonuni

Darsning maqsadi:

Qanday tarzda taklif va talab asosida baho shakllanadi, o'z navbatida, tovar bahosi talab va taklif miqdoriga qanday ta'sir qiladi.

Ular o'rtasidagi funksional bog'lanishni o'rganish. Darsni talabalarga mukammal raqobat sharoitidagi bozorda erkin oldi-sotdi yuz berishi, lekin hamma tovarlar uchun ham bunday bozor xos emasligini uqtirib o'tishdan boshlaymiz.

Talabalar amaliy o'yinda ishtirok etib, bahoning qanday shakllanishini o'zlari ishtirok etganlari holda chuqur tushunib oladilar.

O'yin o'tkazish jarayonida auditoriya «bozor» bo'ladi. Guruh talabalari ikkiga bo'linadi: talabalarning yarmi xaridor, qolgan yarmi sotuvchi bo'ladi. O'yin o'tkazish uchun 32 ta xaridor va so-

tuvchi kartochkasi tayyorlanadi. Kartochkalar yaxshisi ikki rangda bo'lgani ma'qul.

Xaridorlar kartochkasi		Sotuvchilar kartochkasi	
xarid narxi, so'm	kartochka soni	sotish narxi, so'm	kartochka soni
105	2	105	4
115	2	115	6
125	2	125	6
135	2	135	4
145	4	145	4
155	4	155	2
165	4	165	2
175	4	175	2
185	4	185	2
195	4		

Tarqatiladigan material Xaridorlarning kartochkasi

Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 105 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1050 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 115 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1150 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 125 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1250 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.
Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 135 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1350 so'mdan ortib	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 145 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1450 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 155 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1550 so'mdan ortib

ketsa, zarar ko'rasiz.		ketsa, zarar ko'rasiz.
Siz floji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 165 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1650 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 175 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1750 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 185 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1850 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.
Siz iloji boricha arzonroq narxda 10 kg kartoshka sotib olishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 195 so'mdan ortsa yoki umumiy summasi 1950 so'mdan ortib ketsa, zarar ko'rasiz.		

Tarqatiladigan material Sotuvchilarning kartochkasi

Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 105 so'mdan, umumiy summasi 1050 so'mdan kam bo'lsa zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 115 so'mdan, umumiy summasi 1150 so'mdan kam bo'lsa zarar ko'rasiz.	Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 125 so'mdan, umumiy summasi 1250 so'mdan kam bo'lsa zarar ko'rasiz.
Siz iloji boricha qimmatroq narxda	Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10	Siz iloji boricha qimmatroq narxda

10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 135 soʻmdan, umumiy summasi 1350 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.	kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 145 soʻmdan, umumiy summasi 1450 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.	10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 155 soʻmdan, umumiy summasi 1550 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.
Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 165 soʻmdan, umumiy summasi 1650 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.	Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 175 soʻmdan, umumiy summasi 1750 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.	Siz iloji boricha qimmatroq narxda 10 kg kartoshka sotishingiz kerak. Agar 1 kg kartoshkaning narxi 185 soʻmdan, umumiy summasi 1850 soʻmdan kam boʻlsa zarar koʻrasiz.

Talab va taklifning umumiy miqdorini topish uchun uning shkalasini aniqlashimiz kerak.

Talab — bu maʼlum bir vaqt mobaynida xaridorlar sotib olishi mumkin boʻlgan narxlar boʻyicha tovarlar miqdorini ifodalovchi shkala.

Taklif — bu maʼlum bir vaqt mobaynida ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishi va maʼlum bir narxlarda sotishi mumkin boʻlgan tovarlar miqdorini ifodalovchi shkala.

Shu taʼrifimiz asosida taklif, soʻngra talab shkalasini hisoblab chiqamiz. Bu yerda shuni eslatib oʻtish kerakki, koʻpincha, shkalani hisoblayotganda talabalar xatolikka yoʻl qoʻyib, maʼlum bir narxda sotilishi mumkin boʻlgan tovarlar miqdorini aynan shu narx, shu miqdor boʻyicha olishadi. Vaholanki, avvalgi miqdorni ham qoʻshish kerak. Chunki, 115 soʻmdan 20 kg kartoshka sotib olishi mumkin boʻlgan xaridor tabiiy, 105 soʻmdan ham sotib olishga tayyor. Shuni hisobga olib, taklif va talab shkalasini hisoblaymiz.

Taklif shkalasi

Jadvalning birinchi ustunida sotish narxi, ikkinchi ustunda shu narxda ishlab chiqaruvchilarning sotadigan kartoshkalari miqdori,

uchinchi ustun taklif shkalasi. Unda shu narxda sotilishi mumkin bo'lgan umumiy taklif ko'rsatiladi. Uning miqdori shu narxda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdoriga teng. Tabiiy, 10 kg. kartoshkani 105 so'mdan sotishga tayyor har qanday sotuvchi, uni 115 so'm va undan yuqori narxda so'zsiz sotadi.


Narx (so'm)	10 kg. kartoshkani shu va undan yuqori narxda sotishga tayyor sotuvchilar	Taklif shkalasi
105	4 ta sotuvchi (= 40 kg)	40
115	6 ta sotuvchi (= 60 kg)	100 (40+60)
125	6 ta sotuvchi (= 60 kg)	160 (100+60)
135	4 ta sotuvchi (= 40 kg)	200 (160+40)
145	4 ta sotuvchi (= 40 kg)	240 (200+40)
155	2 ta sotuvchi (= 20 kg)	260 (240+20)
165	2 ta sotuvchi (= 20 kg)	280 (260+20)
175	2 ta sotuvchi (= 20 kg)	300 (280+20)
185	2 ta sotuvchi (= 20 kg)	320 (300+20)

Talab shkalasi

Jadvalda taklifni hisoblaganday tarzda talab ko'rsatilgan. Talab shkalasi shu va undan arzonroq narxda sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdorini ko'rsatadi.

Narx (so'm)	10 kg. kartoshkani shu narxda va undan arzon sotib olishi mumkin bo'lgan xaridorlar	Talab shkalasi
195	4 ta xaridor (= 40)	40
185	4 ta xaridor (= 40)	80 (40+40)
175	4 ta xaridor (= 40)	120 (80+40)
165	4 ta xaridor (= 40)	160 (120+40)
155	4 ta xaridor (= 40)	200 (160+40)
145	4 ta xaridor (= 40)	240 (200+40)
135	2 ta xaridor (= 20)	260 (240+20)
125	2 ta xaridor (= 20)	280 (260+20)
115	2 ta xaridor (= 20)	300 (280+20)
105	2 ta xaridor (= 20)	320 (300+20)

Namoyish qilinuvchi va tarqatiluvchi material.
Kartoshkaga talab va taklif.



Kartoshka bozori.
Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish varag'i
(xaridor va sotuvchi uchun)

Shartnoma nomeri	Sotuvchining (oluvchining) ismi	Narx		10 kg kartoshka summasi		Yutuq	Zarar
		Kartochka bo'yicha	Bitim bo'yicha	Kartochka bo'yicha	Bitim bo'yicha		
1	Nodira	115	125	1150	1250	100	
2							
3							
:							
:							
1-raund jami							
1							
2							
3							
:							
:							
2-raund jami							
Bitimlarning hammasi							

Bitimlarni hisobga olish varag'ini to'ldirish uchun har bir talaba avvalo, o'qituvchidan yoki hisobchi rolini bajarayotgan talabadan narx yozilgan kartochka oladi. So'ng, xaridor bo'lsa, xarid qiladi, sotuvchi bo'lsa - sotadi. Oldi va sotdi bo'yicha bir bitimga kelishgach, sotuvchi xaridorning, xaridor esa sotuvchining ismini, o'z kartochkasidagi va bitim bo'yicha bozorda kelishilgan narxni vedomostga yozib, kartochkani qaytarib topshiradi va yangi kartochka oladi.

Masalan, Saodat 10 kg. kartoshkani Nodiraga 125 so'mdan sotdi. Uning kartochkasida 115 so'mdan kamnarxda sotsangiz zarar ko'rasiz, deb yozilgan. Demak, u o'z kartoshkasini o'zi uchun foydali narxda sotibdi. Uning ko'rgan foydasi 100 so'm. Bularni shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish varag'iga yozib qo'yadi. Nodiraning kartochkasida esa «xarid narxi 145 so'mdan oshib ketsa, zarar ko'rasiz» deb yozilgan.

Demak, bu bitim Nodira uchun ham foydali bo'libdi. U 10 kg. kartoshkani arzon narxda olishi evaziga 200 so'm kam pul sarflabdi. Bu uning foydasi. Nodira ham bu bitimni o'zining shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish varag'iga yozib qo'yadi

Kartochkani qaytarib topshirayotganda, albatta, necha so'mdan bitim tuzilganini aytib, so'ngra yangi kartochka olish kerak. Bu bitimni albatta o'qituvchi yoki hisobchi rolini bajarayotgan talaba hisobdan o'tkazishi, registratsiya qilishi kerak. Bunda o'qituvchi sotuvchilarni, hisobchi xaridorlar bitimini hisobdan o'tkazishi mumkin.

Raund tugagach, talaba o'zining umumiy natijasini hisoblaydi. O'yin tugagach, esa tuzgan barcha bitim(olgan, sotgan)larining hisob-kitobini qilib, olgan foyda yoki zararini hisoblab chiqadi.


O'qituvchi talabalar orasidan eng ko'p foyda olgan va zarar ko'rgan talabani aniqlab, ulardan buning sababini so'raydi. G'olib aniqlanib, unga rag'batlantiruvchi sovg'a yoki shu mavzu bo'yicha qo'shimcha ball berilishi mumkin.

Namoyish qilinadigan material Guruhning hisob vedomosti

1 kg kartoshka narxi, kg/so'm	1-raund (sinovchi)	2-raund (bitim soni)	3-raund (bitim soni)	2 va 3-raundning natijasi (bitim soni va miqdori)
105				
115				

125				
135				
145				
155				
165				
175				
185				
195				

Namoyish qilinuvchi material Kartoshkaga talab va taklif



Darsni o'tkazish

Modellashtiruvchi o'yinni o'tkazish uchun guruh talabalari ikkiga bo'linadi. Guruhning yarmi sotuvchi rolini, yarmi xaridor rolini bajaradi. Xaridorlarning qo'liga avvaldan tayyorlangan kartochkani berib, o'yin qoidasi tushuntiriladi. Talabalardan birini yordamchi sifatida kartochkalarni tarqatish va ikkinchisini oldisotdini nazorat qiluvchi, hisobga oluvchi qilib belgilash mumkin.

1. Xaridor va sotuvchining kartochkalari alohida saqlanib, har bir raunda aralashtirilishi lozim. Har bir talaba kartochkani olgach, shartnoma tuzish uchun sherik qidiradi. Bitim tuzayotganda kartochkada belgilangan narxga ahamiyat berish kerak.

2. Auditoriyada ma'lum bir joyni bozor qilish.

3. O'yinda kim sotuvchi yoki xaridor bo'lsa, oxirigacha bo'ladi.

4. Talabalarga «Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish varag'i»

tarqatiladi. Har bir talaba shartnoma tuzgach, albatta o'zining vedomostini to'ldirishi kerak. Kim bilan bitim tuzgan bo'lsa, ismini yozishi, kartochnkadagi narxni hamda tuzgan shartnoma bo'yicha narxni yozib qo'yishi kerak. Bu olgan foydasi yoki zararini hisoblash, g'olibni aniqlashga yordam beradi. Talabalarga, ular shartnoma tuzayotganda hisoblash oson bo'lishi uchun oxiri 5 yoki 0 bilan tugaydigan raqam bilan narxga kelishganlari ma'qulligini eslatish lozim.

5. Talabalarning shaxsiy hisob varaqlarini to'g'ri to'ldirishayotganini aniqlash uchun sinov raundidan keyin, bu varaqalarni ko'zdan kechirish kerak. Sinov raundidagi shartnoma umumiy hisob-kitobga kiritilmaydi.

6. Bozorda oldi-sotdi 5 daqiqadan (yoki 2,3 raund 10 daqiqadan) uch raundda o'tkazilishi, birinchi sinov raundi bo'lishi, ikkinchi va uchinchi haqiqiy hisobga olinishini e'lon qilinishi kerak.

7. Namoyish qilinuvchi va tarqatiluvchi materialdan foydalanib, shartnomalarni hisob-kitob qilish.

8. Har bir raunddan so'ng, talabalar o'z natijalarini hisoblab chiqishi uchun vaqt ajratish.

9. Talabalarni iloji boricha ko'proq shartnoma tuzishga rag'batlantirish kerak. Ular o'z kartochnkalarini shartnoma tuzgandan so'nggina topshirishlari mumkin. Shuning uchun ular zarar ko'rsalar ham shartnoma tuzishlari kerak. Har bir talaba o'z foydasini ko'paytirish yoki zararini kamaytirishga harakat qilishi kerak.

Birinchi raundda narxlar bir-biridan katta farq qilishi mumkin.

Bozordagi muvozanat narxini qanday aniqlash mumkin? Buning uchun talab va taklif shkalasi ma'lumotlari asosida belgilangan nuqtalarni birlashtirish natijasida hosil qilingan talab va taklif egri chiziqlari yordamida javob beramiz. Ular sotuvchi yoki xaridorning xatti-harakatini izohlaydi. Ana shu egri chiziqlar kesishgan nuqta (fokal nuqta) muvozanat nuqtasi bo'ladi. Ana shu nuqtaga mos narx esa muvozanat narxi deyiladi. Talabalar o'zlari chizgan grafik bilan o'qituvchi chizgan grafikni solishtirishlari mumkin. Grafikni muhokama qilish jarayonida o'qituvchi talabalarga «Pirovard bozor narxini kim o'rnatadi, sotuvchimi yoki xaridor?», deb murojaat qilishi mumkin. (Albatta, bozordagi narxni sotuvchi va xaridor birgalikda o'rnatadi).

Qanday qilib sotuvchi va xaridor o'rtasidagi raqobat narxga ta'sir ko'rsatadi?

10. Belgilangan vaqt tugagach o'yinni to'xtatish hamda tala-

balarni kartoshka bozoridagi umumiy shartnomalar bilan tanishtirish kerak. Har bir qatnashuvchi o'zidan boshqalarni shartnomalari qanday tuzilgani bilan tanishishadi.

11. Ikkinchi raundda talaba o'zi belgilagan narxni baland ovozda e'lon qilishiga ruxsat berishi mumkin. Bu ham axborot oqimini tezlashtiradi.

O'yin tugagach, uni muhokama qilish boshlanadi. O'yinning muhokamasida ko'p foyda yoki zarar ko'rgan talabalar aniqlanib, ularning natijalari izohlanadi.

Shartnomalarni hisobga olish varag'i orqali kartoshka bozorida narxlar muvozanat narxi tomon o'zgarib borganini ko'rsatish kerak.

Buning uchun talabalarga: har bir raundda kartoshkaning narxi qanday bo'lgan, eng ko'p miqdorda necha so'mdan sotilgan?

Narxlardagi farq qaysi raundda eng ko'p?

Nima sababdan oxirgi raundda narxlar nisbatan bir-biriga yaqin, deb murojaat qilish mumkin.

Birinci va ikkinchi savolga olingan ma'lumotlar asosida javob bersak, uchinchi savolga bozordagi raqobat kurashi, xaridor va sotuvchilarning ko'proq axborotga ega bo'lishi sabablarini ko'rsatish mumkin.

Sotuvchi va xaridorlar guruhidan birortasi mustaqil ravishda narxni nazorat qilish imkoniga ega emas. Bunga raqobat yo'l qo'ymaydi. Xaridorlar xaridorlar bilan sotuvchilar sotuvchilar bilan raqobat qilishiga talabalarning diqqatini qaratish kerak.

Chizilgan grafik asosida sotuvchi yoki xaridor yutug'ini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qo'shimcha mashq

Nomukammal raqobat sharoitida narx qanday shakllanishini sinab ko'rish uchun shu o'yinni «Raqobat va bozor narxlarining shakllanishi» mavzusini o'tganda ko'rish mumkin. Bunda sotuvchilar cheklangan bo'ladi. Birinchi raundda sotuvchilarga alohida kartochkalar berilib, bir-birlari bilan kelishishlariga yo'l qo'ymay, bozorga chiqariladi. Ikkinchi raundda esa ularni kelishib olishlariga imkon berib, bozor boshlanadi Raund tugagach, ularning olgan foydasi qanday o'zgartirganini muhokama qilinadi:

1. Erkin bozorga nisbatan, sotuvchilar kam, lekin bir-birlari bilan kelisha olmaydigan sharoitda.

2. Sotuvchilar o'zaro kelishishlari mumkin bo'lgan sharoitda.

O'yin talabalar soni 20 tadan kam bo'lmagan guruhlarda nisbatan yaxshi o'tadi.

5-§. Asarlarni o'rganishda o'yin metodini qo'llash (O'zbekiston Prezidentining asarlari misolida)

Asarlar yoki ilmiy maqolani muhokama qilishda modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llash yaxshi natija beradi. O'yinni konkurs shaklida o'tkazish mumkin. Buning uchun guruh talabalari ikki komanda va hay'at a'zolariga (2 yoki 4 talaba) bo'linadi. Hay'at a'zolariga o'qituvchi boshchilik qiladi. Barcha talabalarga asarni, maqolani chuqur o'rganish va konspekt qilish topshiriladi. Tanlov tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va natijasini muhokama qilish asosida tashkil qilinadi. Uni qanday o'tkazishni Prezidentimiz asarlari misolida ko'rib chiqamiz. Konkurs uchun 2 asarni olamiz. Ular:

- a) O'zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida;
- b) O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.

Tanlovni olib borish uchun har ikki jamoadan bittadan boshlovchi tavsiya qilinadi.

Konkursda har bir jamoa uchun 4 tadan topshiriq beriladi. Bular:

savolga javob; test variantlarini yechish; avvaldan tayyorlangan uy vazifasi, talabalar tomonidan tayyorlangan asar bilan bog'liq kichik sahnalashtirilgan epizod, 4-topshiriq talabalar tomonidan test tuzish va unga javob berish bo'lsin.

1- topshiriq. Har bir jamoaga 3 tadan savol beriladi. Savollar bir xilda konvertlarga joylanadi. Har bir komandadan bir talaba chiqib, konvertni olib, savolni o'qiydi va javob beradi. Javob bera olmasa, komanda yordamga keladi. Komanda ham javob bera olmasa, raqib jamoa javob berishi mumkin. Har bir to'g'ri javob 1 ball hisoblanadi. Uni o'qituvchi belgilaydi.

1. Savol: Birinchi bosqich – totalitar tizimdan zamonaviy bozor munosabatlariga o'tish bosqichida ikkita hal qiluvchi vazifani birdaniga hal qilishga to'g'ri keldi.

Ana shu hal qiluvchi vazifaning birinчисini ayting.

Javob:

– Ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

2. Savol: Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida ikkita hal qiluvchi vazifani birdaniga hal qilishga to'g'ri keldi.

Ana shu hal qiluvchi vazifaning ikkinчисini ayting.

Javob:

— Respublikamizning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.

3. Savol: Nima sababdan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning negizi hisoblanadi?

Javob:

— Chunki, kichik va o'rta biznes bozor talabiga tezda moslashadi va samarali xo'jalik yuritiladi.

4. Savol. Nima sababdan investitsiyalarni jalb qilishga katta ahamiyat berilayapti?

Javob:

— Chunki, iqtisodiy o'sishga investitsiyalar qo'yilgandagina erishiladi.

5. Savol: Nima sababdan Prezidentimiz nutqlarida raqobatchilik muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi?

Javob:

— Chunki, raqobatchilik muhiti bo'lmasa rivojlanish bo'lmaydi.

6. Savol: Nima sababdan Prezidentimiz nutqlarida soliqlarni miqdorini turli yo'llar bilan oshirish davlatga ham, jamiyatga ham naf bermasligi ta'kidlandi?

Javob:

— Chunki, soliqlarni haddan ziyod ko'paytirish oxir-oqibat ishlab chiqarishni qisqartirishga olib keladi.

7. Savol: I. A. Karimov o'zining mazkur asarida, dono xalqimiz nimani o'rgatadi, deb ta'kidlaydi?

Javob: Dono xalqimiz yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslikni o'rgatadi.

8. Savol: «Islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi,» — deb yozadi I.A. Ka-rimov. Shu yo'nalishlar nechta deb o'ylaysiz va qisqacha ta'rif bering.

Javob: Bu yo'nalishlar 5 ta bo'lib, **birinchi yo'nalish** — O'zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish. **Ikkinchi yo'nalish**—tizimdagi o'zgarishlarga, sifat jihatdan yangi iqtisodiy munosabatlarga va, eng avvalo, mulkchilik munosabatlariga asos soladigan qonunlar majmuini yaratish. **Uchinchi yo'nalish**—xo'jalik yuritishning va institut-

sional o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratish. **To'rtinchi yo'nalish**—O'zbekistonni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida ta'riflovchi huquqiy normalarni yaratishdan iborat. **Beshinchi yo'nalish**—insonning ishonchli konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqishdan iborat.

9. Savol: Bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib nima xizmat qiladi?

Javob: Mulkchilik masalasini hal qilish, bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

10. Savol: Bozor infrastrukturasi shakllantirish sari tashlangan birinchi qadam nimadan iborat?

Javob: Bozor infrastrukturasi shakllantirish sari tashlangan birinchi qadam mahsulot yetkazib berishga majburiy davlat buyurtmasi tizimining, uni ishlab chiqarishni fondlashtirilgan resurslar bilan markazlashgan tartibda ta'minlashning tugatilishidan iborat bo'ladi.

11. Savol: Asarda, Ona zaminimiz nimaning asosiy manbai deyiladi?

Javob: Ona zaminimiz — boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir.

12. Savol: Mazkur asarda bizning pirovard maqsadimiz to'g'risida nima deyilgan?

Javob: Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli huquqiy demokratik davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.

13. Savol: Barcha islohotlarning asl maqsadi nimalarni vujudga keltirishdan iborat?

Javob: Barcha islohotlarning asl maqsadi, **birinchidan**, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning o'rtishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish. **Ikkinchidan**, ko'p uk-ladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum qilishga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilishni ta'minlash. **Uchinchidan**, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, iqtisodiyotni boshqa-

rişning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish. **To'rtinchidan**, iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shib borish. **Beshinchidan**, kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyo qarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berishlarni vujudga keltirishdan iborat.

Har ikki jamoa a'zolari javob berib bo'lgach, javoblar baholanib, komandalar yiqqan ballar e'lon qilinadi.

2-topshiriq. Test shaklida tayyorlangan. Bunda o'qituvchi tomonidan komandalar uchun mini test tayyorlanadi. Har bir test savoliga javob berish uchun 1 daqiqadan vaqt ajratiladi. To'g'ri javobning har biriga 1 balldan baho qo'yiladi. Testning to'g'ri javoblari hay'at a'zolariga beriladi(misolimizda ular ajratib ko'rsatilgan).

Testlarimiz quyidagicha bo'lsin:

1-komanda uchun testlar

1. Birinchi bosqichda...

- a) beshta hal qiluvchi vazifani;
- b) uchta hal qiluvchi vazifani;
- d) ikkita hal qiluvchi vazifani;**
- e) asosiy vazifani birdaniga hal qilishga to'g'ri keldi.

2. Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimini...

- a) umumlashtiradi;
- b) bir butun qilib birlashtiradi;
- d) tashkil qiladi;
- e) tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.**

3. Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhitsiz-tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan ...

- a) transportsiz;
- b) bozor infrastrukturasiz;**

- d) banklarsiz;
- e) axborot kommunikatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

4. Butun agrar siyosatning muhim masalasi-negizi: ...

- a) fermer xo'jaliklarini tashkil qilish masalasidir;
- b) yerga mulkchilik masalasidir;**
- d) qishloq xo'jaligini texnika, mineral o'g'it bilan ta'minlash masalasidir;
- e) agrar infrastrukturani tashkil etish masalasidir.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida yangi tizim uchun: ...

- a) ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo'yildi va hal qilindi;**
- b) san'atni rivojlantirish vazifasi qo'yildi;
- d) qishloq xo'jaligini rivojlantirish vazifasi qo'yildi;
- e) transport kommunikatsiyasini rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

2-jamoa uchun testlar

1. Prezidentimiz «Dono xalqimiz yangi uy qurmay turib, ...

- a) eskisini sotmaslik kerak;
- b) eskisini birovga bermaslik kerak;
- d) eskisini buzmaslik kerak;**
- e) eskisini birovga tuhfa qilmaslikni o'rgatadi, — deb ta'kidlaydi.

2. Eng chuqur tarkibiy o'zgarishlar ...

- a) iqtisodiyotning tarkibiy tarmoqlari va ayrim sohalarini boshqarish tizimida yuz berdi;**
- b) transport tarmoqlarida yuz berdi;
- d) qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yuz berdi;
- e) yoqilg'i sanoatida yuz berdi.

3. I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asari birinchi marta...

- a) 1992-yili;
- b) 1996-yili;
- d) 1995-yili;**
- e) 1994-yili nashrdan chiqqan.

4. Ijtimoiy himoya ...

- a) barcha tabaqalarni qamrab olishi kerak;
- b) aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi kerak;**
- d) aniq maqsadli bo'lishi kerak;
- e) aholining ayrim tabaqalariga qaratilgan bo'lishi kerak.

5. Iqtisodiy barqarorlikka erishish bilan birga aholini ijtimoiy himoya tadbirlari ko'rilganligi Respublikada ...

- a) barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ta'minlash imkonini berdi;**
- b) tinchlikni ta'minlash imkonini berdi;
- d) aholining daromadini ta'minladi;
- e) aholini ish bilan ta'minlash imkonini berdi.

Javoblar baholanadi. Komandalar yiqqan ballar e'lon qilinadi.

Uchinchi topshiriq jamoalar uchun uy vazifasi. Bizni tanlovimizda uyga vazifa qilib, I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asari bo'yicha kichik sahna ko'rinishi tayyorlashni berishimiz mumkin. Asar 16 paragrafdan iborat, demak, kamida 16 ta sahnalashtirilgan ko'rinish tayyorlash mumkin. O'qituvchi uni avvaldan rejalashtiradi. 1- jamoa diniy ekstremizm va fundamentalizm, 2- jamoa esa korrupsiya va jinoyatchilik bo'yicha tayyorlashi mumkin.

Bir guruh tomonidan tayyorlangan ko'rinish ikkinchi guruh tomonidan qaytarilmasligi kerak. Jamoalar sahna ko'rinishini namoyish qilib bo'lgach, u hay'at a'zolari tomonidan baholanadi. Maksimal baho 5 ball. Hakamlar talabalarning chiqishlarini baholaydilar va ballarni e'lon qiladilar.

4 - topshiriq har bir jamoa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida Prezidentimizning «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim», nomli ma'ruzasi bo'yicha 5 tadan test tuzish topshiriladi. Har birlarining tuzgan testlarga raqib komanda a'zolari javob berishadi. Har bir to'g'ri tuzilgan test va unga berilgan to'g'ri javobga 1 ball beriladi.

Talabalar barcha topshiriqlarni a'lo darajada bajarsalar, maksimal 23 ball to'plashlari mumkin.

Jamoalar javobini baholash jadvali

Topshiriq mazmuni	To'g'ri javob	Noto'g'ri javob	1-komanda to'plagan ball	2-komanda to'plagan ball
Birinchi topshiriq: 1-savolga javob: 2- savolga javob: 3- savolga javob: Jami ball				
Ikkinchi topshiriq: Test yechish:				
Uchinchi topshiriq: Asar bo'yicha sahna- lashtirilgan ko'rinish tayyor- lash Jami ball	1. 2. 3. 4. 5.			
To'rtinchi topshiriq: test tuzish: testga javob berish: Jami ball				
Hammasi:				

Talabalar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishini baholash mezonlari:

M E Z O N L A R	Maksimal ball
1. Tanlangan muammoning dolzarbligi	1
2. Tanlangan muammoning asar mazmuniga mosligi	1
3. Ko'rinishda asar mazmunining ifodalanishi	1
4. Tanlangan mummoning yoritilishi	1
5. Talabalarning o'z rollarini o'ynash mahorati	1

Xuddi shunday tarzda Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha modellashtiruvchi o'yin tayyorlab (ssenariysini yozib) o'tkazish mumkin.

«MATBUOT KONFERENSIYASI» o'tkazish

Bu metod asosida dars o'tish uchun guruhni «muxbirlar» va «mas'ul xodimlar(davlat, fan arboblari)»ga bo'linadi yoki uchga

«muxbirlar» «mas'ul xodimlar» ularni savoli va javoblarini baholovchi «ekspert guruh»larga bo'lish mumkin. Barcha talabalarga mavzuni atroflicha o'rganish, matbuotda e'lon qilingan yangi qanday qonun yoki farmonlarga ahamiyat berib, darsga tayyorlanib kelish vazifasi topshiriladi. Amaliy mashg'ulot(seminar)da guruh talabalari uchga bo'linadi:

1. «Muxbirlar».
2. «Davlat» va «fan arboblari», «mas'ul xodimlar».
3. Ekspertlar guruhi.

«Muxbirlar» guruhiga mavzuni chuqur o'rganib, real hayotda ular bo'yicha qanday muammolar borligini aniqlab, shular asosida savol tayyorlab kelish topshiriladi. Savol tariqasida o'zlari tayyorlagan eng yaxshilarini berishlari lozimligi, chunki ekspertlar eng yaxshi savolni tanlab, ko'rsatishlari uqtiriladi.

Ikkinchi, «davlat, fan arboblari», «mas'ul xodimlar» guruhi ham darsga muxbirlardan kam bo'lmagan darajada tayyorlanib kelishlari lozim. Ekspertlar eng yaxshi javobni ham alohida ko'rsatishlari ta'kidlanadi.

Uchinchi, «ekspertlar» guruhi darsga nihoyatda puxta tayyorlanishlari zarur. Chunki, ular (3 yoki 5 kishi) «muxbir»larning savollari va unga javoblarni baholashadi. Ularni savol va javoblarni naqadar to'g'ri baholaganlari guruh talabalari o'rtasida muhokama qilinadi. Har bir to'g'ri savol va to'g'ri javob 1 ball, noto'g'ri savol va javob 0 ball bilan baholanadi. Ekspertlar baholash jadvali yordamida har bir talabaning individual va guruh balini e'lon qilishadi. O'qituvchi darsni borishini kuzatib, «ekspert»lar faoliyatiga talabalar o'z fikrlarini bildirgach, ularni baholaydi. G'olib jamoani e'lon qiladi. Darsga yakun yasaydi (VII bob, 5-§ga qarang).

Iqtisodiy tushuncha, kategoriyalarni o'rganishni o'yin tarzida tashkil etish Mavzu bo'yicha tushuncha kategoriyalarni o'rganishni musobaqa-o'yin tarzida amaliy mashg'ulot, seminar darslarida qo'llagan ma'qul. Bunda doskaga mavzu bo'yicha o'quvchi-talabalar bilishi shart bo'lgan qonun, kategoriya, tushunchalar turli yo'nalishda, lekin o'qisa bo'ladigan tarzda yozib chiqiladi. Masalan, mavzu bo'yicha xarajatlar, ularning mazmuni, tarkibini o'rganishimiz kerak, deylik. U holda doskadagi yozuvimiz quyidagicha bo'lishi mumkin:



O'qituvchi guruhni ikkiga bo'ladi. Har bir komanda o'zi uchun nom tanlaydi. Uni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'lanishi va ohangdorligi, ma'nsiga qarab hamda komandani nomini nima sabbdan aynan shu nom bilan ataganlari sababini gapirib berishiga qarab ham komandalarga ball beriladi.

O'qituvchi o'yinni shartini tushuntiradi. Har bir komandan bittadan talabani doskaga taklif qiladi. Doskada yozilgan tushunchalarning mazmunini o'qituvchi aytadi. Masalan, o'qituvchi «Miqdori ishlab chiqarish hajmiga bog'liq xarajatlar» desin.

Talabalar doskada yozilgan ana shu tushunchani, ya'ni «o'zgaruvchi xarajatlar» degan yozuvni tezda topib, ustidan chizib chiqishi kerak. Chizgan komanda bir ball oladi, topolmay qolgani 0 ball. So'ngra navbatdagi talabalar taklif qilinadi. Shunday qilib, doskada yozilgan so'zlar tugaguncha talabalar doskaga chiqib, tushunchalarni mazmuniga ko'ra chizib chiqadilar. Talabalarga ball beriladi. G'olib komanda a'zolari rag'batlantiriladi.

Darsni bunday tashkil etish talabalarni faolligini oshiradi, mavzuni o'rganishga qiziqish ortadi. Berilgan uy vazifalarini tayyorlab kelish, mustaqil ishlash bo'yicha mas'uliyati ortadi. Asosiy tushunchalarning mohiyatini anglash, yodda saqlashga harakat qiladi.

5-§. Metodning afzalliklari va kamchiliklari

Modellashtiruvchi amaliy o'yin — bu bilim olish, o'rganishning kompleks varianti hisoblanadi. Chunki o'yin mobaynida turli usullardan foydalaniladi. O'yinning muvaffaqiyati bevosita uning bilimdonlik bilan tanlanishi, bajarishiga, talabalarni o'z rollarini ma'nosini tushunib yetishiga bog'liq.

Bu metodning afzalligi shundaki, talaba masalaning mohiyatiga qarashini, avvalgi nuqtayi nazarini o'zgartirish imkoniga ega. Modellashtiruvchi o'yin motivatsiya nuqtayi nazaridan ham foydali. Talabalar ko'pincha bunday o'yindan qanoat hosil qilib, yangi o'rganganlarini o'rtoqlashadilar. Darsga faol qatnashadilar.

Talabalar bir qarorga kelishni eksperiment qilishlari va uni oqibatini (minimal xatar bilan) kuzatishlari mumkin. Modellashtiruvchi o'yin yordamida talabalarni real hayot voqeliklari bilan tanishtirish ustunlikka ega. Bunda qo'yilgan savollarga javob topish va real muammolarni yechish uchun talabalarning shaxsan o'zlari qatnashadilar, real hayotning nazariy modeli bilan tanishadilar. Masalan, bozorda muvozanat narxi qanday o'rnatiladi, tanlov qanday amalga oshadi va hokazo.

Modellashtirilgan o'yin metodi o'qituvchiga dars berishning usullarini o'zgartirishga katta imkoniyat beradi.

Har qanday metod kabi bu uslubda ham qator kamchiliklar bor. Auditoriyada real jarayonlarni soddalashtirishga to'g'ri keladi. U bir tomondan yetarli darajada sodda, ikkinchi tomondan yetarli darajada real hayotga yaqin bo'lishi, real jarayonlarni ifodalashi, buni hisobiga qimmatli tajriba o'rgatuvchi bo'lishi kerak. Modellashtiruvchi o'yin o'qituvchidan sinchkovlik bilan puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Darslikka tayangan holda dars o'tish o'qituvchidan nisbatan kam vaqt, kamroq kuch, diqqat talab qiladi. Ammo, hamma darsni modellashtiruvchi o'yin o'tkazish bilan olib borib bo'lmaydi. Ko'pincha, modellashtirish bilim olishning kulminatsiyasi bo'lib, fanning ba'zi bir asosiy, ularni o'rganish boshqalariga yo'l ochib beradigan kategoriyalari, qonunlarini o'rganishda qo'llaniladi.

Modellashtiruvchi o'yindan foydalanishdagi muhim cheklanish — bu aniq o'qituvchining xarakteri, uslubiga bog'liq. Ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy uslublar asosida dars o'tishga o'rganib qo-lishgan, shuning uchun ularga shu uslublar samaraliroq tuyuladi.

Modellashtirish talabalarni faolligini oshiradi. Bu yaxshi, lekin talabalarning o'yinga qiziqib ketishlari oqibatida ba'zi bir nomaqbul holatlar yuz berishi mumkin. Ya'ni rolga berilib ketib, ayrim talabalarni aldash yoki qoidani buzish hisobiga g'olib bo'lishga harakat qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi vaqti-vaqti bilan talabalarga modellashtiruvchi o'yinning maqsadi bilim olish, tajribaga ega bo'lish ekanini eslatib turishi kerak.

Bu uslubni qo'llash bilan bog'liq yana bir muammo vaqt masalasidir. U ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun ko'p o'qituvchilar vaqtni qizg'anib, bu uslubdan juda kam foydalanishadi. Agar o'qituvchi o'tilgan materialni mustahkamlash, talabning bilimini puxta bo'lishini ko'zlasa, vaqtning bir muncha ortiqcha sarflanishi o'zini oqlaydi.

Umuman olganda, metodning kamchiliklaridan afzallik to-

monlari ko'proq. Dars jarayonida barcha mavzularda qo'llashning iloji yo'q, buning hojati ham yo'q. Lekin muhokama qilinayotgan savolga mos mavzularda o'yinlar tayyorlash zarur.

Xulosa

Modellashtiruvchi o'yin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda turli (imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan) o'yinlar yordamida ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat hisoblanadi..

Modellashtiruvchi o'yin metodi o'yin jarayonida berilgan topshiriqni bajarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, o'yin orqali amaliyotni o'rganish tufayli fanni puxta o'zlashtirishga olib keladi.

O'yin metodini qo'llash uchun o'qituvchi uning didaktik, tarbiyaviy maqsadlarini aniq belgilashi, o'yinning asosiy bosqichlarini, har bir bosqichning aniq vazifasini ishlab chiqishi, ayniqsa, o'yinni muhokama qilishga alohida diqqat qaratilishi kerak.

Talabalarni faol qatnashishini, mavzuning yoki o'rganilayotgan muammoning mohiyatini chuqur anglash maqsadida o'rganish uni konkurs tarzida qo'llash mumkin. Bunda albatta, berilgan topshiriqlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Modellashtiruvchi o'yin, imitatsion o'yin, amaliy o'yin, rol o'yinlari, o'yinning didaktik maqsadi, o'yinning tarbiyaviy maqsadi, o'yin bosqichlari, mo'ljalga olish fazasi, o'yinni o'tkazishga tayyorgarlik, o'yinni o'tkazish, o'yinni muhokama qilish, o'yinni tanlash.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Dars o'tish metodlari orasida modellashtiruvchi o'yin metodi, sizningcha, qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
2. O'yin asosida dars o'tishda qanday maqsadlar ko'zlanadi?
3. Modellashtiruvchi o'yin shartli ravishda qanday shakllarga bo'linadi? Ularni sizningcha, farqi bormi yoki yo'q?
4. «Kartoshka bozori» o'yini bilan tanishdingiz. Shunday yoki shunga o'xshash o'yin metodini qo'llab dars o'tkaza olasizmi?
5. Tanlov asosida o'yin – dars o'tishga qanday qaraysiz? Yoki uni darsdan tashqari vaqtda o'tkazgan ma'qulmi?
6. Metodning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini aytib bera olasizmi?

X bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA TADQIQOT VA MUNOZARA METODI

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar tizimida tadqiqot va munozara metodi o'ziga xos muhim o'rin tutadi. Chunki aynan iqtisodiy fanlarda voqeya, hodisa, iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganib, ular asosida xulosa chiqarish talab qilinadi. Buni tadqiqot metodichalik boshqa metodlar yordamida o'rganib bo'lmaydi. Mantiqiy mushohada yuritish o'z fikrini himoya qilish, boshqalar fikrini tahlil qilishni o'rganish bo'yicha munozara metodini oldiga tushadigani yo'q. Muzkur bobda ana shu metodlarni qo'llashni o'rganamiz.

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda tadqiqot metodi va uning boshqa uslublardan farqi

Iqtisodiyotni o'rganishda tadqiqot metodini qo'llash talabalarining puxta bilim olishlariga katta yordam beradi. Sababi, iqtisodiyot doimo kishilarni oldiga tanlov muammosini qo'yadi, chunki resurslar cheklangan, ularni bir maqsaddagina ishlatish mumkin, uni ikkinchi maqsadda ishlatib bo'lmaydi. Masalan, yerga uy qurilsa, endi u yerga ekin ekib yoki yo'l qurib bo'lmaydi. Resurslarning cheklanganligi tanlov bilan bog'liq holda ulardan samarali foydalanish yo'llarini qidirishga majbur qiladi. Buni biz tadqiqot orqali amalga oshiramiz. Tadqiqot nafaqat ilmiy bilishning, balki bilim olishning ham alohida ahamiyatga ega metodidir.

Dars berishning bu metodi oldiga ikki maqsad qo'yiladi:

1. Mavzuning mazmunini o'zlashtirish va ilmiy metodlardan foydalanishni o'rganish.

2. Axborotlar, dalillar, ma'lumotlar asosida tadqiqot o'tkazish jarayonida qatnashish orqali talabalarni axborot to'plash va uni ustida ishlash, xulosa chiqarib, baholashga o'rgatish.

Tadqiqotchilik quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tadqiqotga oid dalillar, hodisalar mohiyati, ularning aloqadorlik va nisbatlarini aniqlash;
- tadqiqot doirasini, uni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash;

• tadqiqot maqsadini belgilash va muvofiq ravishda vazifalarni aniqlash;

• tadqiqot o'tkazish rejasini tuzish;

• tadqiqotni amalga oshirish;

• tadqiqot yechimining to'g'riligini amalda isbotlash.

Tadqiqot metodi asosida dars o'tish induktiv va deduktiv mantiqqa tayanishi mumkin.

Tadqiqotning deduktiv metodga asoslanishi iqtisodiyotda qator tayyor qoida, qonunlar mavjudligi, ulardan qo'yilgan muammolarni yechishda foydalansa bo'lishiga tayanadi. Bu qonun, qoidalar talabalarga zarur axborotni keraksiz ma'lumotlardan ajratishga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida izlanishni to'g'ri yo'ldan borishiga ko'maklashadi.

Induktiv metodni qo'llash yordamida talabalar ma'lumot, axborotga asoslanib, iqtisodiy hodisa va jarayonlar haqida yangi ilmiy taxmin (gipoteza)larni ilgari surishi yoki ilgari bildirilganlarini tekshirib ko'rish mumkin. Bunda, bir muqobil qiymat ikkinchisi bilan solishtiriladi. Shuning uchun kishilarning xatti-harakati qanday bo'lishini va ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunga tadqiqot uslubi orqali erishish mumkin.

Bu uslubning boshqa metodlardan farqi, u talabalarni fikr yuritishi yuqori darajada bo'lishi, bor intellektual qobiliyatlarini ishga solishni talab qiladi. Taniqli amerikalik mutaxassis *Benjamin Blum*¹ tavsiya qilgan bilishning olti bosqichining eng yuqori bosqichiga to'g'ri keladi. U baholash bo'lib, baholashni uddasidan chiqish uchun olgan bilimni yodga tushirish, qo'yilgan masalani tushuna bilish, qo'llay olish, tahlil qilish, sintez qilishni bilishi, turli variantlarni taqqoslashi, oxir-oqibat xulosa chiqara oladigan darajada bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham bu uslubni talabalarining tayyorgarligi, faolligini ta'minlash, bilim darajasini oshirish asosida barcha guruhlarda qo'llash mumkin bo'ladi. Buning uchun talabalarni axborot to'plash, mustaqil ravishda adabiyotlarni o'qib, jadval va grafiklardan foydalanishni o'rganishlarini kuzatish, aniqlash va bu ko'nikmalarni hosil qilishlari uchun yordam berish kerak.

Metodni qo'llash uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rish lozim:

¹ Benjamin Bloom et al., eds., *Taxonomy of Educational Objectives, Handbook J: Cognitive Domain* (New York: Mk Kay, 1956).

1. Darsda talabalarni qiziqtiradigan savol yoki masala qo'yiladi.
2. O'qituvchi talabalarga biron bir gipoteza taklif qilishi yoki talabalarning o'zlari muhokama qilayotgan masalaning yechimini mumkin bo'lgan variantlarini taklif qilishlari, tushuntirishlari mumkin.

3. Talabalar ma'lumotlar, axborotlar to'plashadi. Mustaqil ravishda adabiyotlar o'qib, jadval, grafik, videofilm va boshqalarni o'rganib, shaxsan tadqiqot o'tkazadi yoki darsda tadqiqot o'tkazishda qatnashadi.

4. Olingan ma'lumotlar asosida qo'yilgan masala bo'yicha xulosa chiqariladi.

5. Aytilgan gipoteza to'g'rimi yoki yo'qligi, aniqlanadi. Noto'g'ri bo'lsa chiqarilgan xulosa bo'yicha yangi ta'rif beriladi.

Iqtisodiy masalalar, muammolarni tadqiq qilishda deduktiv taxminlar keng qo'llaniladi. Ular masalani, muammoni yechishda odamlarning sa'y-harakati qanday bo'lishi mumkin, ular nimani tanlashlari mumkin, buning sababi nimada ekanligini tushunishga yordam beradi. Bu taxminlar odamlarning iqtisodiy fikrlash tarzini qanday kechishi mumkinligi, u nimalarga bog'liqligini anglay bilishimizga bog'liq. Tadqiqot o'tkazishda ana shu taxminlardan foydalanamiz. Ular asosida xulosa chiqaramiz.

Iqtisodiy fikrlash tarzi

1. **Odamlar tanlaydilar.** Hamma kim bo'lishi, nima ish qilishi, qayerda yashashidan qat'i nazar, cheklanganlik muammosiga duch keladi. Shuning uchun tanlash va qaror qabul qilishga majbur.

2. **Tanlov xarajatlar bilan bog'liq.** Odamlar muqobil variantlar orasidan eng yuqori naf keltiradigan yoki eng kam xarajat talab qiladigan variantlarni tanlashadi.

3. **Rag'batlantirish(stimullar)ga qanday tarzda e'tibor qilishlari, qanday munosabatda bo'lishlarini oldindan aytish mumkin.** Stimullar turli-tuman, jumladan, pul shaklida yoki jismoniy qoniqish tarzida ham bo'lishi mumkin.

4. **Iqtisodiy tizimlar yaratiladi.** U o'z navbatida individual tanlov stimullariga ta'sir ko'rsatadi. Har doim biron bir kishi u yoki bu muqobil variantni cheklovchi, u yoki bu tanlovni afzal ko'rar ekan, yoki qo'shimcha muqobil variantni hosil qilar ekan, boshqalar uchun stimuly o'zgaradi. Har safar qonun yoki tartib o'zgaranda muqobil variantlar cheklanadi yoki stimullar o'zgaradi.

5. Ixtiyoriy ayirboshlashda qatnashganlar doimo yutishadi. Har safar ikki va undan ortiq kishi ayirboshlashni amalga oshirar ekan, har bir kishi o'zi uchun kamroq qadrlanadigan yoki unchalik zarur bo'lmagan narsani qadrlanadigan, zarur narsaga almashtiradi. Natijada ayirboshlash har ikki tomon uchun qo'shimcha qadr-qimmat yaratadi. Shunday tarzda butun iqtisodiyotda ham ayirboshlash har ikki tomon uchun manfaatli bo'ladi

6. Tanlov kelajakda namoyon bo'ladigan ma'lum bir oqibatga olib keladi. Tanlash natijasida ko'zlangan maqsadga yetish mumkin. Lekin kelajakda u qanday oqibatga olib keladi, buni baholash qiyin. Shuning uchun juda ko'p qarorlar tavakkal bo'lib, ularda ma'lum darajada xatar mujassamlangan. Shuning uchun ham **tanlash risk** qilishdir.

Talabalar biron masalani, muammoni o'rganar ekanlar, insonlarning ana shu iqtisodiy fikrlash tarzini yoddan chiqarmasliklari lozim.

Bu metod dars berishning boshqa metodlaridan:

- 1) iqtisodiy fikrlashning yuqori bosqichiga asoslanganligi;
- 2) talabalarning bor intellektual qobiliyatlarini ishga solishi;
- 3) ilmiy izlanishda talabalarni bevosita ishtirok etishlari;
- 4) ma'lumotlar, dalillar asosida hisob-kitob qilib, xulosa chiqarish va baholashga o'rgatishi bilan farqlanadi.

2 §. Darsni tadqiqot metodi asosida tashkil etish

Dars jarayonida o'qituvchi tadqiqot metodini turlicha qo'llashi mumkin. Jadval ma'lumotlari, grafik, diagrammalar yordamida tadqiqot metodini qo'llash qulay.

Biz tadqiqot metodini modellashtiruvchi, imitatsion o'yin asosida, dars o'tishni mulk munosabatlari misolida ko'rib chiqamiz.

Mulk munosabatlari mavzusi bo'yicha dars o'tish jarayonida tadqiqot metodini qo'llash mulkchilik mazmunini tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

1. Maqsad: mulkchilik, mulk munosabatlarini, mulkka iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida tushuntirib berish.

2. Mulk huquqini resurslarni taqsimlanishida qanday rol o'ynashini tahlil qilish.

3. O'yin o'tkazish uchun materiallar, auditoriyada taxminan 2x2 metr bo'sh joy.

4. 60 dona skrepka, gugurt cho'pi yoki boshqa material bo'lishi mumkin.

5. Rangli skotch.

6. Mulk huquqi dastasi va undan kelib chiqib mulk huquqining aniq sifatlari ko'rsatilgan tarqatma material.

1-Tarqatiladigan material

Mulk huquqi dastasi

Mulk huquqi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Egalik qilish, ya'ni boylikni nazorat qilish huquqi.

2. Foydalanish huquqi.

3. Boshqarish, ya'ni boylikdan kim qanday foydalanishini ta'minlash masalasini hal etish, yechish huquqi.

4. Daromad olish huquqi, ya'ni boylikdan foydalanishdan kelgan natijalarga ega bo'lish huquqi.

5. Tasarruf qilish, ya'ni boylikni begonalashtirish, boshqacha aytganda sotib yuborish, iste'mol qilish, o'zlashtirish yoki yo'q qilib yuborish huquqi.

6. Xavfsizlik, ya'ni boylikni ekspropriatsiya (tortib olish) qilishdan, tashqi muhitdan, chetdan yetkaziladigan ziyonlardan himoya qilish huquqi.

7. O'z boyligini meros qoldirish huquqi.

8. Boylik sohibi bo'lishning muddatsizligi huquqi.

9. Tashqi muhitga zarar keltiradigan tarzda mulkdan foydalanish usullarini ta'qiqlash.

10. Qarzini to'lash javobgarligi, ya'ni boylikdan qarzni to'lash uchun foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lish.

11. Buzilgan huquqni tiklash tartibi va institutlarning mavjud bo'lishini ta'minlash.

Ana shu huquqlarni bir butun holda olib qarasak, ularni umumiy ravishda quyidagi sifatlari: universalligi, mulkni faqat uning egasiga tegishli bo'lishi, qo'lma-qo'l o'tishi, huquqiy ta'minlanganligi bilan biron bir qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi.

2-Tarqatiladigan material

Mulk huquqining aniq belgilangan sifatlari:

Universalligi.

Hamma tovarlar, xizmatlar va resurslar mulk hisoblanadi. Ular-

dan foydalanish, imtiyoz va cheklashlarning barchasi belgilangan.
Mulkning faqat mulk egasiga tegishli bo'lishi.

Mulkka egalik qilish va foydalanishdagi xarajatlar va olingan foyda, natija mulk egasiga qarashli bo'ladi. Ulardan boshqalar-ning foydalanishi, sotish yoki ijaraga berish orqali amalga oshishi mumkin.

Mulkning qo'lma-qo'l o'tishi.

Mulkchilik huquqi bir mulk egasidan boshqasiga o'tishi mumkin. Bunda mulkni merosga qoldirish, sotish, hadya qilish, qarzni to'lash kabilar orqali mulk qo'ldan-qo'lga o'tishi mumkin.-

Huquqiy ta'minlanganligi.

Mulkchilikning barcha huquqlari qonuniy yo'l bilan himoya qilingan. Boshqa kishilar tomonidan sanksiyasiz bironing mulkini egallab olish yoki nazorat qilish man qilingan.

Bu materiallardan talabalar tadqiqot o'tkazish jarayonida foydalanadilar.

Amaliy o'yin – tadqiqot tafsiloti

Ixtiyoriy ravishda o'yinda ishtirok etish uchun 10 nafar talaba doska oldiga chiqariladi. Ular aylana shaklida yonma-yon turishlari kerak. Aylananing diametri 2 metrdan kam bo'lmasin. Doskaga o'yinda qatnashayotgan talabalar ismi yoziladi. O'yin 1 daqiqadan 2 raund bo'lishi tushuntiriladi.

Talabalarining birinchi raundda yerdan olgan har bir cho'pi uchun 0,1 ball, ikkinchisi esa 0,2 ball berilishi alohida ta'kidlanadi. O'qituvchi aylanaga skrepka, gugurt cho'pi yoki boshqa narsani (biz gugurt cho'pini tanladik) sochib tashlaydi.

Avvaliga talabalar cho'plarni ikkinchi raundda teramiz, deb o'zaro kelishishga harakat qilishi mumkin. Lekin baribir biror talaba cho'pni terishni boshlaydi. Unda qolganlar ham yoppasiga terishga tushadilar, natijada birinchi raunddayoq cho'plar terib bo'linadi.

Yordamchi talaba doskaga har bir talabaning tergan cho'pi miqdorini yozib qo'yadi.

2. Skotch bilan pol 10 ta kvadrat bo'lakka bo'linadi. Har bir talabaga ma'lum bir kvadrat beriladi. Talaba o'z kvadrati yonida tursin. Talabalarga faqat o'z kvadratidagi cho'pnigina terishi mumkinligi uqtiriladi. Qolgan shartlar xuddi birinchidagidek amalga oshiriladi. O'qituvchi cho'pni hamma kvadratlarga tushadigan qilib sochadi. Agar cho'plar lentani ustiga tushgan bo'lsa, uni kvadratlarga olib tashlanadi.

Bunda talabalar shoshmay, 2-raundda poldan cho'plarni terishadi. Chunki unga tegishli cho'pni hech kim tera olmaydi. Raund tugagach terilgan cho'plar miqdori va ballar doskaga yoziladi.

Talabalar ismi	Birinchi o'yin			Ikkinchi o'yin		
	1-raund	2-raund	ball	1-raund	2-raund	ball
Odiljon	10	0	1,0	0	10	2,0
Olimjon	8	0	0,8	0	9	1,8
Erkinjon	9	0	0,9	0	10	2,0
Nuriddin	8	0	0,8	0	7	1,4
Husniddin	5	0	0,5	0	4	0,8
Azmiddin	4	0	0,4	0	6	1,2
Abduhalim	3	0	0,3	0	4	0,8
Abduhamid	6	0	0,6	0	6	1,2
Abduxoliq	6	0	0,6	0	2	0,4
Anvar	7	0	0,7	0	2	0,4

O'qituvchi talabalarni o'yinda qatnashgani uchun minnatdorchilik bildirib, hammalarini o'tirishga taklif etadi, so'ngra talabalarga savol bilan murojaat qiladi: jamiyatning maqsadi cheklangan resurslardan samarali foydalanish. O'yinimiz bo'yicha eng ko'p foyda olish uchun cho'plarni **qachon terishni** boshlash kerak (ya'ni resurslarni samarali joylashtirish uchun)?

Ikkinchi raundda.

Sababi, ikkinchi raundda ular uchun (ularning qadri) jamiyat ikki barobar yuqori haq to'lashga tayyor.

Savol: -Nima sababdan hamma talabalar birinchi o'yinda, birinchi raunddayoq hamma cho'plarni terib bo'lishdi? Vaholanki, ikkinchi raundda ikki barobar qimmat to'lanardi? Buning farqi nimada?

Talabalar turlicha fikr bildirishi mumkin.

Birinchi raundda cho'plar umumiy, hech kimga tegishli emas, kim birinchi bo'lib ko'proq terishga ulgursa, shuncha ko'p ball yig'adi (pul oladi). Oldinroq harakat qilsa ko'proq yig'ishi mumkin. Boshqalarni qancha, qayerdan terishini hech kim nazorat qilmaydi. Ikkinchi raundgacha nima qoladi - noaniq. Har bir talaba o'z manfaatidan kelib chiqib, ikkinchi raundni kutishdan voz kechadi. Chunki bu kutish tufayli, ikkinchi raundda qancha cho'p terish mumkin, umuman, qanchasi qoladi yoki qolmaydi — noaniq. Shuning uchun ham hech bo'lmaganda, bir talaba terishni bosh-

laydi. Uni ko'rib, qolganlar ham shosha-pisha cho'p terishga kirishib ketadi.

Ikkinchi o'yinda esa talabalar vaqtni nazorat qilish imkoniga ega. Shuning uchun hamma ikkinchi raundni kutdi. Chunki, endi ular faqat o'z kvadratlariga to'g'ri kelgan cho'plarnigina terishlari mumkin, ya'ni cho'plarga mulk huquqi belgilangan.

Savol: — Mulk huquqining belgilanishi talabalar xatti-harakatiga qanday ta'sir qildi?

Ikkinchi o'yinning 2 raundida talabalar kutishlari evaziga foyda ko'rishdi. Mulkdan samarali foydalanildi.

O'yinda yuz bergan munosabatlarga ikki xil yondashish mumkin:

1. Talabalarni, ya'ni jamiyatni mulkka (cho'pga) munosabati.

2. Jamiyat a'zolari (talabalar)ning mulk (cho'p) yuzasidan o'zaro munosabatlari.

Cho'p (mulk) poldan terib olingach, uni nima qilish ixtiyoriy. O'yinimizda cho'p sotilayapti. Shuning uchun birinchi o'yinda cho'plarni hamma uchun bir xil olish imkoniyati bo'lganda, biri-biriga qaramay, shosha-pisha terishga tushishdi. Ikkinchisida esa aksincha. Demak, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Resurslar hamma uchun teng, umumiy bo'lsa, ulardan foydalanish yuzasidan hech qanday cheklash bo'lmasa, ulardan: 1) samarasiz foydalaniladi; 2) ularni tezda tugatib, yo'q qilinishigacha olib kelish mumkin; 3) ularni o'zlashtirib, ya'ni o'ziniki qilib olish jarayonida turli nizolar chiqishi mumkin.

Savol: — Kishilik jamiyati taraqqiyoti natijasida qanday obyektiv zaruriyat kelib chiqdi va bu muammo qay tarzda hal etildi?

Albatta, bunda ham turli-tuman javoblar bo'ladi. O'qituvchi uning qaysi biri haqiqatga yaqinligiga qarab, baho berishi kerak.

Dastlabki insonga tabiatdagi hamma ne'matlar birday qarashli bo'lgan. Ne'matlarni iste'mol qilishi oqibatida ochlikka mahkum bo'lishdan dehqonchilikni o'rganish, ya'ni ishlab chiqarishni boshlash bilan yo'l topgan bo'lsa, tabiatda resurslarni cheklanganligi, ularni pala-partish, samarasiz ishlatishdan mulkchilik munosabatlari kelib chiqishi, muvofiq ravishda mulk huquqlarini belgilash bilan yo'l topdi. Xususiy mulkchilik resurslardan eng samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi

Shunday qilib, avvaldan ilgari surgan gipotezamiz, birinchi sharoitga to'g'ri kelmas ekan, lekin ikkinchisi uchun mos tushar ekan.

O'yinni muhokama qilish jarayonida tadqiqotni yanada chu-

qurlashtirish uchun manfaat nima, uning mulk bilan qanday bog'liqligi bor? Nima sababdan manfaat bir tomondan obyektiv, ikkinchi tomondan sub'ektiv, bir tomondan umumiy, ikkinchi tomondan xususiy, degan qo'shimcha savollar bilan murojaat qilish mumkin. Bunda talabalarning diqqatini ehtiyojlarning obyektivligi, ya'ni insonning yashash uchun ehtiyojlarini qondirishi zarurligi, ikkinchi tomondan, u har bir insonning subyektiv ehtiyoji tarzida namoyon bo'lishi, ehtiyojlarni qondirish uchun ne'matlar unga tegishli bo'lishi, ya'ni o'zlashtirilishi lozimligi haqidagi fikrlarga diqqatni qaratish kerak. -

Inson o'z manfaatini o'ylovchi shaxsiyatparast(egoist), shuning uchun ham xususiy manfaat umumiy manfaat bilan mos tushavermasligi, natijada umum manfaatiga zid bo'lsa ham, resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelishini ko'ramiz.

Real hayotdan qanday misollar keltirish mumkin? Hozirda hech kimniki bo'lmagan ne'matlar bormi? Misol qilib, kitlar, ilonlar, turli hayvonlar, suv, havo kabilarni natijada ular tufayli qanday muammolar vujudga kelayotganiga qator misollar keltirish mumkin.


Shuni ham ta'kidlash kerakki, talabalar o'yinda o'zlarining huquqlari (o'yindan avval o'qituvchi tomonidan e'lon qilingan shartlar bo'yicha) o'qituvchi tomonidan ta'minlanishini ko'zda tutgan holda qatnashishgan. Mulk huquqini ta'minlashning sharoitlari, kim tomonidan, qanday tarzda amalga oshirilishi haqidagi tadqiqotni birgalikda davom ettirish mumkin.

Talabalarga: Agarda mulk huquqining amalga oshirilishi davlat tomonidan nazorat qilinmasa nima bo'ladi? Mulk huquqi suiiste'mol qilinsa-chi, degan savollar bilan murojaat qilish mumkin.

Tadqiqot metodini afzallik tomoni shundaki, aynan shu metodni qo'llab chizma, grafik, jadvallarning tahlilini o'rganishimiz mumkin. Bu esa iqtisodiy fanlarni o'rganishda juda qo'l keladi. Masalan, pul taklifi bilan talabining muvozanatini ushbu metodni qo'llab ko'rib chiqishimiz mumkin.

Quyidagi grafiklarga diqqat qiling: agar pul taklifi 200 milliard so'm desak, pul bozorida muvozanat qanday o'rnatiladi. Nima sababdan bir vaqtning o'zida pul taklifi va foiz stavkasini tartibga solib bo'lmaydi?


foiz stavkasi



a) rasm

Pulga transaksion (bitim)
talab grafigi

foiz stavkasi



b) rasm

Foiz stavkasiga ko'ra pulga
talab grafigi

Maqsad: 1. Foiz stavkasining pulga talab va taklifga ta'sirini o'rganish.

2. Pul taklifi va pulga talab, foiz stavkasi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganib, uning asosida xulosa chiqarish.

Qo'yilgan masalani yechish uchun materiallar:

a) pulga transaksion talab grafigi;

b) foiz stavkasiga ko'ra pulga talab grafigi.

Bu grafiklarni slaydga, doskaga chizish yoki tarqatiladigan material sifatida tayyorlash mumkin.

Tadqiqot tafsiloti:

Ma'lumki, bozor xo'jaligida ssuda kapitali vujudga keladi. Bunda pul qo'shimcha fazilat, foyda keltirishga ega bo'ladi.

Bozorga chiqarilgan pulning narxi foiz bo'ladi. Bu uning ma'lum ehtiyojni qondirishda pulning xossasidan foydalanilgani uchun beriladigan haq bo'ladi.

Ssuda kapitaliga talab va taklif asosida muvozanatlashgan ssuda foizi belgilanadi.

Odatda, bozor va o'rtacha foiz normasi farqlanadi. Bozor foiz normasi bozordagi ma'lum vaqt mobaynida belgilangan foiz bo'lib, bozor kon'yukturasiga bog'liq. U iqtisodiyotdagi o'zgarishga qarab, tebranib turadi. O'rtacha foiz normasi uzoq muddat davomida uning o'zgarish harakatini ifodalaydi.

Ssuda kapitaliga bo'lgan talab va taklifga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ishlab chiqarish hajmi;
- jamg'arilgan pul hajmi;
- ishlab chiqarish sikllarining tebranishi;

- ishlab chiqarishning mavsumiy sharoitlari;
- inflatsiya sur'ati;
- davlat tomonidan foiz stavkasining boshqarilishi;
- xalqaro omillar.

Tadqiqot o'tkazish jarayonida o'qituvchi savollar bilan murojaat qilib, pulga talab va taklifning hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga ta'sir ko'rsatadi. Pulga talabga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan foiz stavkasi bo'lib, uning o'zgarishi pulga talabni o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Talabalar ikkinchi grafik bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar.


Grafikdan ko'rinib turibdiki, foiz stavkasi yuqori bo'lganda kreditga talab kam, aksincha, foiz stavkasi kam bo'lganda talab ko'p. Buni sababini talabalar turlicha izohlashlari mumkin. Lekin shunday xulosa chiqariladiki, bank kreditiga foiz stavkasi yuqori bo'lganda talabni kamayishiga sabab, tadbirkorlar olgan foydalaridan foiz to'laydilar. Agar olgan foydalar to'laydigan foizlarga nisbatan kam bo'lsa, o'zlariga qoladigan miqdor qoniqtirmasa, kredit olishmaydi. Kredit olganda foiz stavkasi past bo'lsa, olingan foydadan qarz(foizi bilan) to'lash imkoni kengayadi. Natijada tavakkal qilib kredit olishga intilish kuchayadi.

Shu bilan birga, foiz normasi ta'sir ko'rsatmaydigan holat ham mavjudligini (a) rasmdan ko'rish mumkin. Bunda pulga talab darajasiga foiz stavkasi bog'liq bo'lmaydi. Unda, asosan, tovarlar narxi, pul birligi oboroti tezligi bog'liq bo'lib, foiz stavkasi ta'sir ko'rsatmaydi.

O'qituvchi «pul taklifi 200 mlrd. so'm bo'lganda muvozanat qanday bo'lishini aniqlash uchun nima qilishimiz kerak?» degan savol bilan auditoriyaga murojaat qiladi.

Talabalar turlicha fikrlar aytishadi. Ular ichida eng to'g'ri fikr **birinchi navbatda**, transaksion talab bilan foiz stavkasiga ko'ra talabni birga qo'shganda umumiy talab qancha bo'lishi mumkinligini aniqlash. Buning uchun har ikki grafikni bitta grafikda ifodalaymiz. U holda shtrixlangan Dt – pulga transaksion talab chizig'i bilan, Dr – pulga foiz stavkasiga ko'ra talab chizig'i kesishgan nuqta umumiy talabni ifodalaydi.

Biz pulga umumiy talabni aniqladik, endi muvozanat darajasini aniqlashamiz kerak. O'qituvchi talabalarga yana murojaat qiladi: «Qanday qilib muvozanat o'rnatamiz?»



D_r – pulga foiz stavkasiga ko‘ra talab chizig‘i;

D_t – pulga transaksion talab chizig‘i;

D_m – pulga umumiy talab;

S_m – pul taklifi;

E – pul taklifi (S_m) – 200 milliard so‘m bo‘lganda pulning muvozanat nuqtasi.

Ikkinchi navbatda, biz umumiy pulga talabni aniqladik, endi taklif 200 milliard so‘m bo‘lganda muvozanat darajasini aniqlashimiz kerak.

Agar pul taklifi 200 milliard so‘m bo‘lsa, muvozanat quyidagicha o‘rnatiladi. Chunki, pulga umumiy talabimiz D_t bilan D_r kesishgan nuqtada edi. Pul taklifi 200 milliard so‘m bo‘lganda muvozanatni topish uchun bu nuqtani S_m taklif egri chizig‘iga ko‘chiramiz. **Muvozanat E nuqtada bo‘ladi.**

Pul taklifini kamayishi bilan foiz stavkasi oshayapti yoki aksincha. Demak, biz ikkisidan birini tanlashimiz kerak. Pul-kredit siyosati yuritilayotganda mamlakatdagi sharoitga, Markaziy bankning maqsadiga ko‘ra, foiz stavkasini oshirish yoki pasayishi tanlanadi. Ssuda foiz stavkasini pasayishi investitsion faoliyatni kuchayishiga olib keladi. Chunki, kreditga talab ortadi, degan xulosa chiqariladi.

Darsni o‘tkazishda o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishni, axborot, ma‘lumot dalillarni to‘plashni talabalarga avvaldan topshirishi mumkin.

Bu usulda butun guruh birgalikda bank ishi fanini yaxshiroq

tushuntirishga intiluvchi izlanuvchilarga aylanishadi. Lekin bu uslubni qo'llash oson emas.

Birinchiidan, bu metod bilan dars o'tish ko'p vaqt talab qiladi. Qo'yilgan muammoni tatbiq qilishga e'tibor qaratilib, boshqalari keyinga surilishi yoki qolib ketishi mumkin.

Ikkinchiidan, tadqiqot uslubi asosida dars o'tish guruh talabalarining barchasini qobiliyati bir-biriga yaqin, fikrlash darajasi yuqori bo'lishini talab qiladi. Bunga erishish qiyin.

Uchinchiidan, tadqiqot uslubi o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, iqtidor talab qiladi. Chunki, tadqiqot o'tkazish uchun o'qituvchining o'zi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, tadqiqot jarayonida yuz beradigan har qanday kutilmagan hodisa, talabalar tomonidan qo'yilgan savol, masala yoki muammoga javob berishga tayyor bo'lishi, tadqiqot o'tkazilayotgan masalani yechishda metoddan foydalanish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

3-§. Dars o'tishda munozara metodini qo'llash

Talabalarni o'z fikrini qat'iy himoya qilishga, boshqalarning fikrini tahlil qilishga, mantiqiy mushohada yuritishga undaydigan, darsda faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlardan biri darsni munozara metodi asosida tashkil qilishdir.

Tadqiqotchi J. T. Dillon tomonidan o'qituvchi izlanuvchanlik va hamkorlikka asoslangan tarzda munozarani tashkil etishi uchun quyidagilarga e'tibor berish lozimligi ko'rsatilgan.

1. **Tasdiqlash.** Munozarani boshqaruvchi shaxs ma'lum muammoni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi g'oyani o'rtaga tashlaydi. Bu bildirilgan fikrdan ta'sirlanib, uni tushunganlik va tushuna olmaganlikni tasdiqlash usuli. Tasdiqlovchi fikrlarni birmuncha yumshoq ohangda bayon etib munozaraga chorlaydi. Bunda, «Qani, Feruza sizning fikringizcha to'g'rimi, nima deya olasiz?» yoki «Hozirgina Sardor fikr bildirdi siz unga ko'maklashasizmi?» deb murojaat qilish mumkin.

Munozara davomida talaba o'z fikrini qandaydir mujmalroq bayon qilsa, «Meni tushunishimcha, siz.....demoqchi edingiz, lekin Nafisadedi. Demak, siz uni fikriga qo'shilmayapsiz», deya yo'naltirib, ko'rsatmalar berib turadi.

O'qituvchi munozarani sinchkovlik bilan kuzatishi va boshqarishi zarur. O'qituvchi va talabalar fikridan munozarani qizitish maqsadida foydalanishi zarur. Munozarada vujudga kelgan vaziyatdan ustalik bilan foydalanish kerak.

2. **Savollar.** O'quvchi-talabalar o'qituvchining savolidan tashqari sinfdoshlari, kursdoshlari savollarini muhokama qilishga moyil bo'lishadi. Shuning uchun ko'proq ularni savol berishga undash zarur.

3. **Ishoralar.** Munozara jarayonida o'qituvchi gapirayotgan talabani fikrini bo'lmaslik yoki bo'g'ib qo'ymaslik uchun ovoz chiqarmay, imo-ishoralar bilan boshqarishi ma'qul. O'qituvchining yuzida tushunmaslik alomatlarining paydo bo'lishi, o'quvchi-talabalar uchun «tushuntirish talab qilinadi» degan signaldir. Qo'llarni go'yo ikki narsani tortayotganday holatda bo'lishi «aytilayotgan ikki g'oyani taqqoslab, ularning qaysi biri to'g'ri ekanligini tasdiqlash» ishorasini beradi.

O'qituvchining ko'zlarini katta ochib, gapiruvchini ko'rsatib, tinglashga ishora etishi fikrni oxirigacha diqqat bilan eshitishga undaydi.

O'qituvchining yuzidagi qiziquvchanlik, tasdiq ishorasi o'z fikrini ifodalash uchun so'z topolmay turgan talaba (o'quvchi)ni yanada ilhomlantiradi.

4. **Sukut saqlash.** Munozara uchun o'rtaga savol tashlangach, uni o'ylash uchun vaqt beriladi. Lekin bu vaqt qisqa bo'lishi, uni o'qituvchi to'ldirishi zarur. Bo'lmasa, uni to'ldiruvchilar ko'payib ketadi.

O'qituvchi munozara jarayonida o'z fikrini bildirayotgan talabaning gapi, dalillaridan qoniqmasa yoki uni to'g'ri javobga yo'naltirishi lozim bo'lsa, ularni qo'llab-quvvatlash lozim bo'lsa, talaba jim qolganda:

– Misol keltira olasizmi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

– Siz, demak, Shuhratni fikriga qo'shilmaysiz? yoki fikriga qarshisiz? Siz o'rtog'ingizni fikrini qo'llab-quvvatlaysiz? kabi savollar bilan murojaat qilib, yoki «nahotki», «rostdan-a», «yo'g'-e», deb luqma tashlab, ularga ruhiy madad berib, yoki asossiz fikrlar bildirishga yo'l qo'ymaydi.

– Siz o'z dalillaringiz bilan Otabekni ishontiring, u nimagadir gaplaringizga ishonchsizlik bilan qarayapti. Keyingi bildirgan fikringiz, Azizning fikriga zid emasmi? Negadir sizga hayrat bilan qarayapti? - deya talabalar to'g'ri yo'nalishga solinadi.

Talabalarni xatolariga qay tarzda ta'sir ko'rsatish munozara olib borish uchun juda ahamiyatlidir.

Odobli luqma tashlash, savol berish fikrni oydinlashtirib, aytilgan g'oyani mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otadi.

Qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'qituvchi ma'qullaydimi, yo'qmi, o'qituvchi o'z munosabatini bildirishga shoshilmasligi kerak. Bu munozara yuritishning qat'iy qoidasi hisoblanadi.

Munozara jarayonida talabalarning o'zlari o'rtoqlari bildirgan fikrni qaysilariga qo'shilishlari yoki qo'shilmasliklarini bildirishadi. Shu bilan birga o'qituvchi mantiqsiz, yaqqol qarama - qarshi, asossiz fikrlarni aytilishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Munozara o'tkazishdan avval talabalarga tarqatma material sifatida munozarada o'zlarini qanday tutish kerakliklarini ko'rsatuvchi quyidagi eslatmani tarqatgan ma'qul.

Munozara ishtirokchisiga eslatma

- Munozara — o'zaro munosabatlarni aniqlash shakli emas, balki muammolarni hal qilish metodidir. Shuning uchun shaxsiy munosabatlar namoyon etilmaydi.
- Ko'p gapirmang, boshqalarni ham o'z fikrini aytishiga imkon bering.
- O'ylab gapiring. So'zlarni chuqur mulohaza qilib, hissiyotni boshqarib, gapni aniq maqsadga yetkazing.
- Muxolif nuqtayi nazarini tushunishga intiling, unga hurmat bilan qarang.
- Odob bilan e'tiroz bildiring. Aytilgan fikrni buzib, ma'nosini o'zgartirmang. Asabiy rad etmagan holda, o'z fikringizni odilona asoslang.
- Noqulay holatga tushib qolmaslik uchun har narsadan gumonsiramang.
- So'zlar ta'siriga o'ta berilib ketmang.
- O'zingiz bilmagan, kam bilgan yoki umuman, xabardor bo'lmagan masalalar bo'yicha fikr bildirishga shoshilmang.
- Faqat munozara mavzusiga oid fikrni ayting. O'zingizni juda ham bilimdon, zakovatli qilib ko'rsatishga intilmang.
- Biror kishiga yaxshi ko'rinishga yoki aksincha, kamsitishga intilib, gapirmang.

Darsn munozara metodi asosida tashkil qilishni turli usullari mavjud. Ulardan keng qo'llaniladigani yuqorida ko'rsatganimizdek, o'quv jarayonida munozara, muammo qo'yib, muhokama qilish mumkin. Bunda talabalar munozaraga individual tarzda yondashadilar. **Ochiq munozara** qo'yilgan muammoni belgilangan qoida bo'yicha muhokama qilinib, yechimini qabul qilish yoki qilmaslikni plenumga topshirish bilan yakunlanadi. Bunda, masalan,

quyidagicha savol qo'yish mumkin:

Aytishlaricha, Angliyada o'z vaqtida mashhur bo'lgan kema kapitani muhtojlikka tushib, o'ylab-o'ylab, oxir-oqibat gazetada «Xatolarimni sotaman» -deb e'lon bergan ekan. Odamlar taajjublanib, tavba, xatoni ham sotsa bo'lar ekanda, uni qanday ahmoq sotib oladi, deyishgan ekan. Lekin shunday kishi topilibdi. Siz ham xatolarni sotib olgan odamni ahmoq, deb o'ylaysizmi?

Bordi-yu, yo'l qo'yilgan iqtisodiy xatolarni sotaman, degan e'lon chiqsa, siz, o'zingiz sotib olarmidingiz?

Har bir talabani bildirgan fikri hamda qo'yilgan muammoni yechish uchun bildirgan fikriga qarab, ball beriladi.

Dars o'tishning yana bir usuli **kichik guruhlar o'rtasida munozara** olib borishdir. Bu usulda qo'yilgan muammo kichik guruhlar o'rtasida muhokama qilinib, ular o'z takliflarini asoslab berishi zarur. Masalan, Davlat budjeti parametrlarini qabul qilishni Oliy Majlis fraksiyalari o'rtasidagi munozara tarzida tashkil qilish mumkin. Bunda har bir kichik guruh bir fraksiya rolini o'ynashadi. O'z taklifini asoslash uchun eng muhim dalillarni keltirib, Oliy Majlisning boshqa a'zolarini ham o'z takliflarga ovoz berishga moyil qilishga intilishadi. Munozara qatnashchilari qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishlariga ko'ra baholanadi.

Munozara metodini qo'llashning yana bir usuli «**qarama - qarshi munozara**» bo'lib, uni talabalarning o'zi olib boradi. O'qituvchi faqat munozara olib borish uchun savol tayyorlab, darsni tashkil qiladi.

Qarama - qarshi munozarada qo'yilgan savolga zid fikr, javob aytiladi. U guruh o'rtasida muhokama qilinadi. Har bir talaba «ha» yoki «yo'q» deb javob berishi hamda o'z fikrini asoslashi kerak. Savolni quyidagicha qo'yish mumkin.

Masalan, Hukumat importga to'siqlar qo'yishi kerakmi?

ha	yo'q
Importga to'siq qo'yish sabablari Mamlakatni o'zida ishlab chiqarish va aholi bandligini ta'minlash lozim. Milliy xo'jalik tarmoqlarini himoya qilish.	Importga to'siq qo'yimaslik zarurligi sabablari: Xalqaro mehnat taqsimoti yutuqlaridan foydalanilmaydi. Milliy ishlab chiqaruvchilar xarajatlarini pasaytirishga, yangiliklarni joriy qilishga intilmaydilar.

Chet el kapitalini jalb qilish. Chet el firmalari tomonidan uyushtirilgan «demping»ga yo'l qo'ymaslik.	Milliy ishlab chiqarishning raqo- batbardoshligi pasayib ketadi. Texnik, texnologik qoloqlikni kuchaytiradi.
---	---

O'qituvchi har bir juftlikka ana shu namuna asosida o'zining munozara jadvalini tuzishga topshiriq beradi. Talabalar 5—6 daqiqa davomida savol-javobni muhokama qilib, importga to'siq qo'yish yoki aksincha, qo'ymaslik kerakligini asoslab berishlari, muvofiq ravishda uni jadvalning «ha» yoki «yo'q» degan ustuniga yozib qo'yishlari kerak.

Demak, javob:

1) importga to'siq qo'yish zaruriyatini;

2) importga to'siq qo'ymaslik zaruriyatini asoslab berish lozim.

Javoblar bir juftlikda muhokama qilinishi, yozib bo'lingach, ikkinchi juftlik bilan fikr almashiriladi. Har ikki juftlikni «ha» va «yo'q» javoblaridan umumiy xulosa chiqarilib, bir fikrga kelinadi.

Har ikki juftlik o'zlari yozgan javob tagiga bir qarorga kelingan javoblarni yozishadi.

O'qituvchi yozilgan javoblarni yig'ib, ko'rib chiqib, ball qo'yishi yoki har bir to'rtlikning xulosasini butun guruh oldida og'zaki bayon qilishi mumkin.

Munozara metodi asosida darsni tashkil qilishning yana bir usuli **bahs (disput)**dir.

Bu usulda o'tilgan mavzu bo'yicha o'qituvchi savollar tuzib, dars o'tishdan 3—4 kun oldin o'quvchilarga e'lon qiladi yoki yangi mavzu bo'yicha ma'ruza o'tib bo'lgach, kelgusi amaliy mashg'ulot (seminar) darsida ana shu savollar bo'yicha disput o'tkazilishi aytiladi.

Talabalar tayyorlanib kelgach, bilimdon talabalardan hakamlar hay'ati saylanadi. Ular savollarga javob bergan talabalarni baholashadi, natijani e'lon qilishadi. Bahs yakunida o'qituvchi o'z fikrini bildiradi.

Munozara metodini qo'llashning yana bir usuli — **Amerikacha debat**. Debat — bu ikki kishi o'rtasida olib boriladigan munozara. Bunday tarzda dars o'tishda ikki talaba belgilangan qat'iy tartib bo'yicha, raislik qiluvchining rahbarligi ostida berilgan savol yoki muammo bo'yicha munozara olib boradilar. Ularning bildirgan fikrlarini hakamlar hay'ati baholaydi. Arbitrlar talabalardan belgilanadi.

Inglizcha munozara (debatlar). Munozaraning bu shaklida muhokama qilinayotgan muammo yechimiga yetkaziladi. Debatlarni tashkil qilishda turli usullarni qo'llash mumkin. Bu o'qituvchining fantaziyasi, qo'ygan maqsadi, mahoratiga bog'liq. Bu munozaralarga talabalar puxta tayyorlanib, berilishi mumkin bo'lgan savollar va ularni javoblarini o'ylab kelishlari zarur. Har bir talaba darsda debat olib boruvchi sifatida qatnashmagan taqdirda, savol bilan murojaat qiluvchi yoki hakam sifatida qatnashadi. Buni hech kim yodidan chiqarmasligi, demak, darsga alohida tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Munozara metodini qo'llashning yana bir usuli **muzokara** bo'lib, unda asosiy maqsad munozarali masalalarni yechishda bir-biriga yon berib, umumiy qarorga kelishni o'rganishdir. Vaqtdan samarali foydalanish uchun darsni ikki tomonlama, uch tomonlama muzokara tarzida tashkil etish mumkin. Eng oddiy, o'ziga xos muzokara bu bozorda sotuvchi bilan xaridorning savdolashib, oxiri bir fikrga kelib, har ikkisinin o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishidir. Firmalar, qolaversa, davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun doimo muzokaralar o'tkaziladi. Bunda eng asosiysi topshiriq tayyorlashdir. Bunda aytaylik darsni ish haqini oshirish bo'yicha korxonah rahbariyati bilan kasaba uyushmasi rahbarligida ishchilar o'rtasidagi muzokara tarzida uyushtirish mumkin. Bunda guruh ikkiga bo'linadi. Bir tomon korxonah boshqaruvi va mutaxassislari, ikkinchi tomon kasaba uyushmasi rahbari va uning a'zolari bo'lgan ishchilar. Korxonah rahbari va mutaxassislari ish haqini oshirish korxonani qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkinligini, ishchilar esa ish haqini oshirish zarurligini asoslab berishlari zarur. Buning uchun barcha zarur ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan berilishi yoki talabalarni o'ziga ularni to'plash haqida vazifa berib, ular asosida topshiriq tayyorlash mumkin. Eng muhimi qanday kompromissga kelindi. Nimalar bo'yicha kelishib bo'lmadi va nima sabbdan, har ikki tomon qanday qaror qilinganini asoslab berishidir.

Muzokara o'tkazish uchun topshiriqni o'qituvchi tayyorlashi yoki talabalarga topshirishi mumkin. Bunda, aytaylik talabalarga firmaning menejerlari va mutaxassislari hamda kasaba uyushma vakillari sifatida shartnoma tayyorlab kelishni topshirilishi mumkin. (Chizmada munozara jarayonini tashkil etish rejasini berilgan.)

Umuman olganda, munozara talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlab, o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatadi.

Muzokaralar o'tkazish jarayonining taxminiy rejai

Rais kirish so'zi bilan muzokarani boshlaydi. Ko'rilayotgan masala bilan ishtirokchilarni tanishtiradi. Muzokara o'tkazish tartibi va reglament tasdiqlanadi

Masala bo'yicha har ikki tomon vakillarining fikrini aniqlab olish

Birinchi tomonning sardori ikkinchi tomon tayyorlagan shartnomaning o'zlari uchun ma'qul tomonlarini ko'rsatadi.

Ikkinchi tomonning sardori birinchi tomon tayyorlagan shartnomaning o'zlari uchun ma'qul tomonlarini ko'rsatadi.

Har ikki tomonning vakillariga tayyorlagan shartnomaning o'zlari uchun ma'qul tomonlari bo'yicha o'z fikrlarini bildirish uchun so'z beriladi ko'rsatadi.

Birinchi tomonning vakili ikkinchi tomon tayyorlagan shartnomaning o'zlari uchun bajarib bo'lmaydigan tomonlarini asoslab beradi

Ikkinchi tomonning vakili birinchi tomon tayyorlagan shartnomaning o'zlari uchun qabul qilib bo'lmaydigan tomonlarini asoslab beradi

Har ikki tomon vakillariga shartnomaning o'zlari uchun qabul qilib bo'lmaydigan tomonlarini asoslash uchun fikr bildirishga so'z beriladi

Har ikki tomon sardori shartnomaning o'zlari uchun qabul qilib bo'lmaydigan tomonlari bo'yicha asoslangan fikrlarni jamlaydilar

Har ikki tomon sardori shartnomaning o'zlari uchun qabul qilib bo'lmaydigan tomonlardan qaysi birlari bo'yicha yon berish, kompromissga kelish mumkinligini aniqlaydilar

Har ikki tomon vakillari ishtirokida shartnomaga o'zgartirishlar kiritiladi, muzokaraning barcha ishtirokchilarini fikrini bilish uchun ochiq yoki yopiq ovozga qo'yiladi.

Ovoz berish natijalari asosida har ikki tomon sardorlari qanday qarorga kelganlarini e'lon qiladi.
Rais muzokarani yakunlaydi.

4-§. Uslublarning asosiy afzalliklari va kamchiliklari

Dars o'tishning tadqiqot va munozara metodida qo'yilgan masalani hal qilish uchun talabalarning o'zlari qatnashishlari tufayli puxta bilim olishlariga imkoniyat yaratiladi. Ular ilmiy izlanishga o'rganishadi. Talabalar qo'yilgan masalani muhokamasi jarayonida o'z fikrlarini mustaqil ravishda o'rtoqlashishga, boshqalarning bildirgan fikrlarini mushohada qilishga o'rganishadi.

Ma'lumotlarni, dalillarni tahlil qilish jarayonida talabalar qiziqqonlik qilmay, obyektiv tarzda masalani yechishga o'rganadilar. Raqamlarga ko'r-ko'rona yondashmaslikni, ular zahirida iqtisodiy hodisa, qonunlar yashiringanini ko'rishga o'rganadilar. Bilishning nisbiy ekanligi, dalillar o'zgarishi va yangi ma'lumotlar olinishi xulosani ham o'zgarishga olib kelishini tushunishga yordam beradi.

Talabalar turli axborotlar va mantiqiy mushohada orqali o'z taxminlari, o'rtoqlari bildirgan fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashadi. Ma'lumotlar asosida tendensiyalar, qonuniyatlar amal qilishini aniqlashga harakat qilishadi. Ilgari surilgan ilmiy taxmin(gipoteza) bilan chiqarilgan xulosani taqqoslab, yagona qarorga kelishadi.

Qo'yilgan masalani tadqiqot metodi asosida muhokama qilish, yuzaki qabul qilingan qarorlarga ishonchsizlik bilan qarashni tarbiyalaydi.

Talaba masalani chuqur o'rganish uchun zarur adabiyotlar, axborotlar bilan uzluksiz ishlash zarurligini tushunadi. Buni yuqori darajada fikr yuritish zarurligini ham talab qiladi. Shuning uchun ham bu uslub talabalarni puxta bilim olishlarini ta'minlaydi. Ular o'rganayotgan predmetlarining mazmunini tushunibgina qolmay, axborot to'plash va uni tahlil qilishni ham o'rganadilar.

Darsni o'tkazishda o'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni - axborot, ma'lumot, dalillarni to'plashni talabalarga avvaldan topshirishi mumkin. Yoki o'qituvchining o'zi zarur dalil-ma'lumotlar asosida talabalar oldiga muammo qo'yib, uni birgalikda yechishi mumkin. Bunda amaliy o'yin, turli iqtisodiy modellarni ifodalovchi grafik, jadvallardan va boshqa uslublardan foydalanish orqali tadqiqot o'tkazish uni qiziqarli tarzda bo'lishiga olib keladi hamda barcha talabalarni faol qatnashishiga erishiladi.

Bu usulda butun guruh birgalikda iqtisodiyotni, qolaversa, dunyoni yaxshiroq tushunishga intiluvchi izlanuvchilarga aylani-shadi.

Tadqiqot va munozaraning kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab qiladi.
- Auditoriyada shovqin bo'lib ketishi mumkin.
- O'qituvchining o'zi fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinadi. U muammolarni yechish va strategik rejalashtirish mahoratini egallagan bo'lishi kerak.
- O'qituvchi faqat «bilim berib»gina qolmay, talabalarni mohirlik bilan mantiqiy asoslangan xulosaga kelishga yordam berishi kerakligi.
- O'qituvchi darsda qo'yilishi mumkin bo'lgan muammolarni strategik rejalashtirish va ularni yechish yo'llarini o'ylab qo'yishi zarurligi.

Xulosa

Tadqiqot metodi — axborotlar, dalillar, ma'lumotlar asosida tadqiqot o'tkazish jarayonida qatnashish orqali dars o'tishning talabalarni axborot to'plash va uni ustida ishlash, xulosa chiqarib, baholashga o'rgatish jarayonida mavzuning mazmunini o'zlashtirishga, ilmiy izlanishni o'rganishga qaratilgan metod.

• Tadqiqot metodi talabalarning fikr yuritish darajasi yuqori bo'lishini, bor intellektual qobiliyatini ishga solishni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi ham darsga nihoyatda puxta tayyorgarlik ko'rish kerak.

Tadqiqot metodini muhim jihatlaridan biri uni boshqa metodlar bilan va iqtisodiy ma'lumotlar, turli jadval, grafiklar, diagrammalar bilan ishlash, xulosa chiqarish imkoni kattaligidir.

• Munozaraga — 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi sifatida qaraladi.

• Mazkur metod talabalarni tanqidiy va tahliliy fikrlash, o'z fikrini ximoya qilishga o'rgatadigan metod hisoblanib, uni qo'llashning qator usullari mavjud. Haqiqat bahs-munozarada oydinlashadi. Ayniqsa, talabalarni munozaraga kirishlaridan avval uning qoidalariga amal qilish zarurligi haqida ogohlantirish lozim.

• Har ikki metodning ham o'z afzalliklari va kamchiliklari bor. Metodlardan foydalanishda, albatta, ularni hisobga olish kerak.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Tadqiqot, kognitiv darajaning yuqori bosqichi, muammo qo'yish, gipoteza, ilmiy taxmin, odamlarning iqtisodiy fikrlash tarzi, ma'lumot yig'ish, dalillar to'plash, ochiq munozara, qarama-qarshi munozara, amerikacha munozara, inglizcha munozara.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Tadqiqot metodi dars o'tish metodlari orasida, sizningcha, qanday o'rin tutadi?
2. Tadqiqot metodi asosida dars o'tishni tashkil qilishda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
3. Odamlarning fikrlash tarzini o'rganish nima sababdan zarur? Undagi bildirilgan fikrlarga biron nima qo'shimcha qila olasizmi?
4. Siz tadqiqot metodini dars o'tishda qanday qo'llagan bo'lar edingiz?
5. Munozara metodi asosida dars o'tishga sizning munosabat-ingiz qanday?
6. J. T. Dillon o'qituvchi izlanuvchanlik va hamkorlikka asoslangan tarzda munozarani tashkil etishi uchun nimalarga e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi?
7. «Munozara ishtirokchisiga eslatma» haqida fikringiz qanday?
8. Metodlarning ko'rsatilgan afzalliklari va kamchiliklariga qo'shimcha qila olasizmi?

XI bob. MASALA, MASHQ, TESTLAR, ESSE YOZISH VA ULARDAN IQTISODIYOTNI O'RGANISHDA FOYDALANISH

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda shunday metodlar borki, bu fanlarning xususiyatidan kelib chiqib ularsiz fanni o'rganib bo'lmaydi. Bu masala va mashqlar yechish metodidir. Undan tashqari o'ziga xos mashq sifatida test yechish va esse yozish ham bu fanlarning xususiyatiga mos tushadi. Mazkur bobda ana shu metodlarni qo'llashni o'rganamiz.

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala-mashqlardan foydalanish metodining tutgan o'rni

Iqtisodiy fanlarning boshqa fanlardan ajralib turadigan tomoni ham shundaki, u faktlar, ma'lumotlar, raqamlar bilan ish ko'radi. Iqtisodchidan ana shu faktlar, raqamlar, ma'lumotlar bilan ishlay bilish, qo'ygan maqsadiga ko'ra ular asosida hisob-kitob, matematik amallar, kuzatishlarni amalga oshirish, ularning dinamikasi-o'zgarishi asosida xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Bu o'z navbatida iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o'tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko'rishni zarur qilib qo'yadi. Bu jihatdan iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala va mashqlardan foydalanishga teng keldigani yo'q.

Shuning uchun ham iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi. Sababi:

Birinchidan, masala, mashq yechish fanni o'rganishning bosh maqsadi — olingan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, masala, mashq yechish orqali talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, masala fikrlashni o'rgatadi.

Shuning uchun ham masala so'ziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish

obyekti sifatida qaralishi bejiz emas. Aytaylik, yechimini kutayotgan masalalar, hal qilinishi zarur masalalar va hokazo.

Masala yordamida fanni o'rganganda **aniq** raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o'yin, **kichik** guruhlariga bo'lish, konkurs o'tkazish va boshqa metodlar asosida dars o'tishda ham masala-mashqlardan **keng** foydalanish imkoniyati katta.

Talabalarda malaka, ko'nikma hosil qilishda alohida o'rin tutadigan metodlardan biri bu mashq hisoblanadi. Bu metodning samaraliligi, -eng avvalo, mashqlarni amaliyot bilan bog'langanligidir. Mashq qilish deganda o'zi o'rganish, malaka hosil qilish uchun qilinadigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti va uni takror va takror bajarishni tushunamiz. Mashq — inson oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish, ijobiy natijaga ega bo'lish uchun qilingan mashaqqatli mehnat hamdir.

Mashq qilish «Takrorlash — bilimning onasidir» naqlini ifodalaydi. Mashq qilmay o'quv va amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'lib bo'lmaydi.

Mashqlarni ularni bajarishdan quyilgan maqsadga ko'ra: maxsus, avval bajarilganlarini yodga tushiruvchi, o'qish, o'rganish jarayonini faollashtiruvchi mashqlarga bo'lish mumkin.

Mashqlarni bajarishga ko'ra esa: amaliy, og'zaki va yozma mashqlarga bo'lish mumkin.

Iqtisodiy fanlardagi mashqlar talabalarni mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga kam vaqt sarflanishi, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Ayrim fanlar borki, ularni masala-mashq yechmay o'rganib bo'lmaydi. Shunday deganda, odatda, biz tezda matematika, fizika, ximiya kabi fanlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Iqtisodiy fanlarni ham bu jihatdan ana shu fanlar qatoriga kiritish mumkin.

Masala va mashqlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchi, talabalarda aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi.

Chunki, iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda ko'pincha ilmiy abstraksiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchi-talabalar ilmiy abstraksiya metodini tezda tushunaverishmaydi. Matematik ifodalar orqali iqtisodiy hodisalarni o'zaro bog'lanishini tushunish esa oson.

Masada-mashqlarni mustaqil yechar ekansiz, unga sarflagan intellektual energiyangiz va vaqtingizga achinmaysiz. Chunki, ular

iqtisodiyotni chuqur o'rganishga katta yordam beradi.

Masala, mashq yechish jarayonida talabalarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalansa bo'ladi.

Masala-mashqlar talabalar bilimini sinashda ham eng qulay metod.

Masala mashqlardan fanni o'rganish uchun tarqatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib, darsni tanlov o'tkazish shaklida tashkil etish mumkin. Bunda teng kuchli masala-mashqlar tayyorlanib, kichik guruhlariga juftlik yoki individual tarzda yechishga qarab darsda qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi.

Masala, mashqlarning murakkabligi jihatidan tabaqalash-tirgan holda tuzilib, talabalarning salohiyatiga ko'ra beriladi. Natijada murakkab masalani yecholmay hafsalasi soviydigan talabalarni ham darsga, o'rganilayotgan mavzuga diqqatini qaratish mumkin.

Xullas, masala, mashqlar, bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o'tish uslubi bo'lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko'pligi tufayli eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchi, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan metoddir.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega, ya'ni:

Masala-mashqlardan foydalanish amaliyot yo'nalishiga ega bo'lgani uchun mavzuni o'rganish va talabalar bilimini nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar-ning bilimini nazorat qilishda imkoniyati katta.

Masala, mashq mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin. Masala, mashqlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha nazorat qilish, shu bilan birga, asosiy yoki qiyin kategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Masalalarning muntazam yechib turilishi, mashq bajarish hamda uni muhokama qilish, talabalarning olgan bilimini uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi masala, mashq tuzar ekan, birinchi navbatda, aniq maqsad qo'yishi, ikkinchidan, undan kelib chiqib, qanday

ma'lumot berilishini puxta o'ylashi, uchinchidan bajariladigan ishlarni, topshiriqlarni maqsadga ko'ra tushunarli tarzda qo'yishi zarur.

2-§. Masala-mashqlar va ularni nazariy darslarda qo'llash

O'quvchi-talabalarning puxta bilim olishlari, iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishlarining eng samarali metodlardan biri masala va mashqlardan foydalanish qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqdik. O'qituvchi masala va mashqlarni o'quv jarayonida turli shakllarda ishlatishi mumkin.

O'qituvchi dars berishga tayyorlanar ekan, mavzuni o'qishda qo'llaydigan metodlarini, jumladan, masala, mashqlarni chuqur o'ylab, ulardan qanday tarzda foydalanishni ko'z o'ngiga keltirishi zarur.

Masala va mashqlar iqtisodiy kategoriya, qonunlarni sifat xarakteristikasi bilan birga miqdor aloqalarini ham o'zida mujasamlashtirishi bilan muhim rol o'ynaydi.

Masala va mashqlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchi-talabalarning aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishini osonlashtiradi. Chunki, iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda, ko'pincha, ilmiy abstraksiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchi-talabalar ilmiy abstraksiya metodini tezda tushunishmaydi.

Masala va mashqlardan nazariy darslarda foydalanishga ikki nuqtayi nazardan yondashish mumkin:

A) Akademik litsey, kasb-hunar kollejaridagi iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganadigan fanlar: «Iqtisodiy bilim asoslari»; «Iqtisodiyot asoslari», oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi» fanlarini o'rganishda masala, mashqlardan foydalanish.

B) Barcha iqtisodiy fanlardan nazariy dars o'tishda masala, mashqlardan foydalanish.

Masala, mashqlar uchun quyidagi qoidalar umumiy hisoblanadi:

1. Nazariy darslarda masala, mashqlardan foydalanish me'yorini bilish zarur.

Masala, mashqlardan keragidan ortiq foydalanilsa, nazariy masalalarni yoritishga vaqt yetmay qoladi.

2. Ma'ruza darsi uchun qisqa vaqtda yechiladigan masala tuzgan yoki tanlagan ma'qul.

3. Ma'ruzada qo'yilgan masala, mashqni oxirigacha yechish shart emas. Ba'zan masala, mashqni maruza jarayonidan boshlab, mustaqil ravishda davom ettirishni talabalarga topshirish mumkin. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi masala, mashqni doskada yoki og'zaki shaklda yechishi mumkin. Ularni oldindan ko'rgazmali qurol yoki tarqatma material sifatida tayyorlanadi.

Masalan, firma faoliyati va uni baholashni o'rganishda foydaning qanday taqsimlanishini ko'rsatuvchi masalani yechish mumkin:

Firmaning o'z mahsulotlarini sotishdan olgan tushumi 4,5 million so'm. Mahsulotni tayyorlash uchun sarflangan umumiy xarajatlar 4 million so'mni tashkil etadi. Olingan foydaning 18 foizi soliqa, qolgan yarmi dividendga to'lanadigan bo'ldi. Foydaning qolgan qismini 50 foizi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarflanadigan bo'ldi. Foyda normasini, soliq va dividend miqdorini, investitsiyaga ajratilgan mablag' miqdorini hisoblang.

Bu masalani yechish o'quvchi, talabalarga foyda, dividend va boshqa tushunchalarni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Dars jarayonida birinchi navbatda foyda miqdorini aniqlash zarur: u 4,5 mln. so'm - 4 mln. so'm = 0,5 mln so'mga teng. Endi foyda normasibi topamiz. Foyda normasi $P_n = (\text{foyda} \times 100\%) : \text{xarajatlar}$;

Masalamiz b o'icha $P_n = (0,5 \text{ mln. so'm} \times 100\%) : 4 \text{ mln. so'm} = 25\%$ ga teng.

Hisoblarni bajarish jarayonida foyda normasini o'qituvchi tushuntirib beradi. Qolgan hisoblarni talabalarining o'zlari bajarib, boshqa tushunchalarni mazmuni eslatib o'tiladi. Bu yerda talabalar diqqatini bilvosita (egri) soliqlarga ham qaratib o'tish zarur.

Qaysi mavzuda, qanday tarzda masaladan foydanishni o'qituvchi hal qiladi.

4. Ma'ruza jarayonida qo'llaniladigan masala, mashqlar doimo real ma'lumotlar asosida bo'lishi shart emas. Unda shartli raqamlardan foydalanish mumkin.

Masalan, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning farqini ko'rsatish uchun quyidagicha masala tuzish mumkin:

Tikuvchilik kichik korxonasida oy davomida 200 dona erkaklar ko'yilagi tikildi. Tikish uchun quyidagi xarajatlar qilindi.

Xomashyo xarajatlari 300 000 so'm.

Energiya xarajatlari 40 000 so'm.

Asbob-uskunaning amortizatsiya to'lovlari 100 000 so'm.

Transport yollash uchun xarajatlar 30 000 so'm.

Ish haqi va ijtimoiy sug'urta xarajatlari 150 000 so'm.

Ijaraga olingan xona uchun to'lanadigan haq 20 000 so'm.

Ko'ylak tikish uchun umumiy o'rtacha, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar ulushini hisoblang.

Bunda umumiy xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng.

Masalamiz bo'yicha doimiy xarajatlar amortizatsiya to'lovlari va ijara haqidani iborat bo'lib, $100\ 000 + 20\ 000 = 120\ 000$ so'm; Qolgan xarajatlar esa o'zgaruvchan xarajatlar bo'lib, $300\ 000 + 40\ 000 + 30\ 000 + 150\ 000 = 520\ 000$ so'mga teng; umumiy xarajatlar esa $120\ 000 + 520\ 000 = 640\ 000$ so'm;

o'rtacha xarajatlar = umumiy xarajatlar/ tikilgan ko'ylak soni
 $= 640000/200 = 3200$ so'm.

Doimiy xarajatlar umumiy xarajatlarning $120\ 000 : 640\ 000 = 0,1875$ yoki

18,75% iga teng.

O'zgaruvchan xarajatlar esa $100 - 18,75 = 81,25\%$ ga teng.

Bu masala o'quvchi, talabalarni umumiy, o'rtacha, doimiy, o'zgaruvchan xarajatlarning mazmunini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

5. Ma'ruzada berilgan masala oddiy bo'lishi, ma'ruzani murakkablashtirmasligi, nazariy qonun-qoidalarni puxta o'zlashtirishlarini hisoblar, raqamlar orqali mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

6. O'rganilayotgan mavzu, nazariy qonun-qoidalar keng ko'lamda real faktlar dalillarni talab qilsa, bunda rasmiy ma'lumotlar asosida tuzilgan jadval yordamida bajariladigan masala, mashqlar qo'l keladi. O'qituvchi savolni tushuntirish jarayonida statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, talabalarni nazariy fikrlashga o'rgatadi. Amaliy tavsiyalar beradi.

Masalan, iqtisodiy o'sishni o'rganishda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot o'sishi dinamikasi (% da)

YILLAR	YaIM o'sishi, nisbatan	Avvalgi yilga nisbatan	O'sish sur'ati, punkt	
			1991-yilga nisbatan	Avvalgi yilga nisbatan
1991	100	99,5		
1995	81,6.	99,1		
1996	83,0	101,7		

1997	87,3	105,2		
1998	91,1	104,3		
1999	95,1	104,4		
2000	98,2	103,8		
2001	102,7	104,2		
2002	106,8	104,0		
2003	111,3	104,2		
2004	119,8	107,7		
2005	128,2	107,0		
2006	132,9	107,3		
2007	145,5	109,5		
2008	156,6	109,0		

Manba: Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma‘lumotlari asosida O‘zbekistonda YaIM 1996-yilga qadar 1991-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati pasayib borgani, faqat 1996-yilga kelib tushkunlik to‘xtatilib, iqtisodiy o‘shish boshlanishini ko‘rsatib, keyingi 1997-yildan boshlab barqaror iqtisodiy o‘shishga erishilganini ko‘rsatish mumkin.

Bunda talabalarga qo‘shimcha topshiriq berish mumkin. Masalan, o‘qituvchi jadval ma‘lumotlari bo‘yicha yangi topshiriq, aytaylik, 2003–2005-yil ma‘lumotlari bilan to‘ldirish, avvalgi yilga nisbatan o‘shish sur‘atini hisoblashni topshirib, undagi ma‘lumotlar asosida xulosa chiqarishni taklif qilinadi va talabalar bilan birgalikda jadvalning qo‘shimcha ustunini to‘ldirish mumkin. U holda, jadval quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot o‘shishi dinamikasi (% da)

YILLAR	YaIM o‘shishi, nisbatan	Avvalgi yilga nisbatan	O‘shish sur‘ati, punkt	
			1991-yilga nisbatan	Avvalgi yilga nisbatan
1991	100	99,5		
1995	81,6	99,1	-18,4	4,3
1996	83,0	101,7	-17	2,6
1997	87,3	105,2	-12,7	3,5
1998	91,1	104,3	-8,9	-0,9
1999	95,1	104,4	-4,9	0,1
2000	98,2	103,8	-1,8	-0,6
2001	102,7	104,2	2,7	0,4
2002	106,8	104,0	6,8	-0,2
2003	111,3	104,2	11,3	0,2
2004	119,8	107,7	19,8	3,5

2005	128,2	107,0	28,2	-0,7
2006	132,9	107,3	32,9	0,3
2007	145,5	109,5	45,5	2,3
2008	156,6	109,0	56,6	-0,5

Bunda 1996-yilga qadar O‘zbekiston iqtisodiyotining pasayib ketishining qanday sabablari bo‘lishi mumkin, deb auditoriyaga murojaat qilinib, talabalar bilan birgalikda uning sabablari sanab chiqiladi.

1. Sobiq ittifoq tarkibida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni uzilishiga olib keldi.

2. Jahon bozorida, paxta tolasi narxi tushib ketdi. U o‘z navbatida, chetga asosan, xomashyo chiqarishga ixtisoslashgan respublikamiz iqtisodiyotiga katta ta’sir qildi.

3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi tufayli mamlakatimizda taklifni talabga moslashimiz zarurati paydo bo‘ldi. Respublikamiz iqtisodiyoti bunday imkoniyatga ega emas edi.

4. Korxonalar rejali iqtisodiy sharoitdan tamomila farqlanuvchi bozor talabi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishi zarur edi.

5. Mamlakatimizda bozor infrastrukturasi yetarlicha rivojlanmagan edi.

6. Iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun moliya resurslari, texnologiya, malakali kadrlar zarur edi.

Mamlakatimizda iqtisodiy pasayish sabablarini o‘rganib, uni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli 1996 yilning o‘rtalariga kelib, ishlab chiqarishdagi tushkunlik to‘xtatildi. Keyingi yillarda iqtisodiy o‘shishga erishish ta’minlandi. Bunda:

a) ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga e’tibor berilishi;

b) mulkni bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarishni amalga oshirilishi;

d) xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirilishi;

e) bozor infrastrukturasi vujudga keltirishga ahamiyat berilishi;

f) chetdan investitsiyalarni jalb etishiga alohida e’tibor berilishi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy krizisni albatta, O‘zbekistonda ham iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini birmuncha pasayishiga olib keldi. Lekin o‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli keskin ravishda pasayishning oldi olindi.

Fanni o‘rganishda **mas-hqlar** ham katta ahamiyatga ega. Ular

yordamida nazariya amaliyot bilan bog'lanadi. Fanni nazariy jihatdan o'rganayotganda:

- a) formulani tahlil qilish bilan bog'liq;
- b) iqtisodiy kategoriya, qonun-qoidalarni tahlil qilish;
- d) axborot, raqamlar, faktlarda ifodalangan ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan mashqlardan foydalanish mumkin.

Mashqlar sxema, grafiklarga asoslangan bo'lishi, keng ravishda jadval ma'lumotlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Ular orqali u yoki bu kategoriya, tushunchani o'zlashtirish oson bo'ladi.

- Mashqlar to'g'ri javobni tanlash va ana shu tanlovni asoslab berishda ham ifodalanadi. U to'g'ri - noto'g'ri javobni tanlashni izohlash yoki test yechish tarzida bo'lishi mumkin.

Xullas, nazariy darslarda o'tiladigan mavzuga ko'ra o'rganiladigan savollarga qarab, masala-mashqlardan foydalanish darsni qiziqarli bo'lishi, talabalar diqqatini o'rganilayotgan savol, masalaga qaratishlariga yordam beradi. Ma'ruza jarayonida talabalarining ishtirokini ta'minlaydi. O'quv jarayonida bajariladigan o'quv amaliyoti, malakaviy amaliyotlar o'ziga xos mashq.

3-§. Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi, talabalarga individual yondashishning imkoniyati katta. Ularda u yoki bu turdagi qiyinchilik kelib chiqsa, o'qituvchining tushuntirishi, ayrim nazariy qoidalarni aniqlashtirishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi orqali tezda yordam berib yuborish mumkin bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish metodlariga uch xil yondashuv mavjud.

Nisbatan eng ideal varianti bo'lib, amaliy mashg'ulotda nazariy savollarni muhokama qilib bo'lgach, masala, mashq yechib, nazariy bilimni mustahkamlash hisoblanadi. Bunda o'quv rejasini bo'yicha ajratilgan dars soati imkon berishiga qaraladi.

Masalan, ish bilan bandlik, ishsizlik va uning shakllarini muhokama qilib, nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida quyidagi masalani yechish mumkin.

Mamlakatda ishsizlikni tabiiy me'yori 5 foiz deb qabul qilingan. Mehnat resurslari 12 million kishi. Friksion ishsizlar 0.5 mln. kishi, tarkibiy ishsizlar 0.3 mln. kishi, doimiy ishsizlar 0.1 mln. kishi, yashirin ishsizlar 0.6 mln. kishi bo'lsa, ishsizlikning amaldagi me'yori tabiiy me'yordan qanday farq qiladi? Hisoblang, hukumat

qaysi ishsizlik shakliga alohida diqqat qaratib, uni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilashi kerak?

Javob:

Haqiqatan jami ishsizlar $0.5 + 0.3 + 0.1 + 0.6 = 1,5$ mln. kishi; lekin rasmiy ravishda ishsizlik darajasini hisoblaganda doimiy va yashirin ishsizlikni hisobga olinmaydi, ya'ni ular ishsizlar kategoriyasiga kirmaydi. Shuning uchun rasmiy ravishda ishsizlar $0,5 + 0.3 = 0.8$ mln kishi.

Ishsizlik darajasi $0,8/12 = 0,067$ yoki 6.7% ga teng.

Ishsizlik darajasi belgilangan tabiiy ishsizlik darajasidai 6.7%--5% = 1,7%ga ortiq. Davlat tarkibiy ishsizlikni kamaytirishga e'tibor qaratishi kerak. Ular o'z kasblarini mamlakatdagi talabga moslashtirishlari uchun sharoit yaratish zarur.

2. Masala va mashqlardan foydalanishning ikkinchi metodi ular-dan nazariy muammoni, qonunlarni o'rganish jarayonida foydalaniladi.

O'quvchi-talabalar tomonidan nazariy savolni o'zlashtirish qi-yin kechsa, masalani yechish yordamida oson bo'ladi.

Bu masalaga iqtisodiy fanlarni o'rganishda ikki nuqtayi nazar-dan qarash mumkin: birinchisi, obyektiv iqtisodiy qonunlarni o'rganish jarayonida;

Ikkinchisi, mamlakatda qabul qilingan iqtisodiyotga tegishli yuridik qonunlar, Prezident farmonlarini o'rganish jarayonida.

Masalan, o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish qiyin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar, me'yoriy ko'rsatkichlar hisobla-nadi. Uning ma'nosini me'yoriy ko'rsatkichni hisoblashga qaratil-gan masala, mashqlar yordamida tushunish oson.

Buning uchun o'qituvchi quyidagicha masala tuzishi yoki tanlashi mumkin:

Firmaning doimiy xarajatlari 45 ming so'm. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ko'ra quyidagicha:

Ishlab chiqarish hajmi, dona	O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm
1	17
2	15
3	14
4	15
5	19
6	29

O'rtacha, umumiy va me'yoriy xarajatlarni hisoblang.

Firma haftasiga qancha mahsulot ishlab chiqarsa, xarajatlar eng kam bo'ladi?

Nima sababdan o'rtacha xarajatlar avval pasayib, so'ngra ortib ketadi?

O'qituvchi, auditoriyaga murojaat qilib, kelinglar, masalani birgalikda yechib, ana shu savollarga javob beramiz, deydi.

Masala shartlari bo'yicha yechimi ko'rinarli, taqqoslash oson bo'lishi uchun uni jadval orqali ifodalaymiz.

Jadvalimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Ishlab chiqarish hajmi, dona	O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm	O'rtacha umumiy xarajatlar, ming so'm	Umumiy xarajatlar, ming so'm	Me'yoriy xarajatlar, ming so'm
1	17			
2	15			
3	14			
4	15			
5	19			
6	29			

Umumiy xarajatlarni topishimiz uchun doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni topishimiz kerak. Biz doimiy xarajatlarni bilamiz. U 45 ming so'm. O'zgaruvchan xarajatlar birinchi mahsulotni ishlab chiqarganda 17 ming so'm, umumiy xarajatomiz $45 + 17 = 62$ ming so'm. Me'yoriy xarajat yo'q, ya'ni 0. Chunki, me'yoriy xarajatlar har bir qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan qo'shimcha xarajaddir.

Uni quyidagi formula bo'yicha topamiz. $MS = TS_{n+1} - TS_n$, ya'ni me'yoriy xarajatlar keyingi + 1 ta mahsulot uchun qilingan xarajatlardan avvalgi xarajatlarni ayirib, topiladi. Misolimizdagi birinchi mahsulot uchun me'yoriy xarajat yo'q yoki uni shartli ravishda 0 ga teng deyishimiz mumkin.

Endi 2 ta mahsulot ishlab chiqarganda doimiy xarajatomiz 45 ming so'm, o'zgaruvchan xarajatomiz $15 \times 2 = 30$ ming so'm. Umumiy xarajatomiz $45 + 30 = 75$ ming so'm.

Me'yoriy xarajatomiz esa $75 - 62 = 13$ ming so'm, ya'ni avvalgi bitta mahsulotimizga yana bir dona mahsulot qo'shilganda, jami ishlab chiqargan mahsulotimiz 2 ta, mahsulotga sarflangan umumiy

xarajatlardan bitta mahsulot uchun ya'ni $(n-1)=2-1=1$ sarflangan xarajatlarni ayirib tashlasak, 13 ming so'm bo'ladi.

Bu yerda o'rtacha umumiy xarajatlar 75:2-37,5 ming so'mga teng bo'ladi. Endi 3 ta mahsulot ishlab chiqargandagi xarajatlarni hisoblaymiz deb, o'qituvchi o'quvchi-talabalarga masalaning davomini ishlashni topshirishi mumkin. Yoki doskaga bir talabani chiqarib, boshqa talabalar ham o'zlari ishlashlari mumkinligi, kim tez va to'g'ri yechsa, baholanishini eslatish mumkin.

Masala yechib bo'linganda, jadvalimiz quyidagicha ko'rinishni oladi:

Ishlab chiqarish hajmi, dona	O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar, ming so'm	O'rtacha umumiy xarajatlar, ming so'm	Umumiy xarajatlar, ming so'm	Me'yoriy xarajatlar, ming so'm
1	17	62	62	
2	15	37,5	75	13
3	14	29	87	12
4	15	29,25	105	18
5	19	28	140	35
6	29	36,5	219	79

Ko'rinib turibdiki, me'yoriy xarajatlarimiz uchinchi mahsulot-gacha pasayib, to'rtinchi mahsulotdan boshlab, ko'tarilgan. O'rtacha umumiy xarajatlarimiz esa, to'rtinchi mahsulot ishlab chiqarishda eng past — 26,25 ming so'mga teng. Demak, firma haftasiga 4 ta mahsulot ishlab chiqarsa, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat eng past darajada bo'lar ekan. O'rtacha xarajatlarimizni avval pasayib, so'ngra ortib ketishiga sabab, dastlab, me'yoriy xarajatlarimiz pasayib bordi, so'ngra esa, ortib ketdi. Buning natijasida o'zaruvchi xarajatlarimiz ham ortib ketadi.

Shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilaganda me'yoriy xarajatlarni o'zgarishiga e'tibor qaratishimiz kerak.

3. Savolni nazariy jihatdan amaliy darsda muhokama qilib o'tirmay, masala, mashq yechib qo'ya qolish kerak. Buning uchun masala, mashq uyga vazifa sifatida berib o'tirilmaydi. Masala yechish natijasida nazariy savolni chala o'rganiladi, degan xavotirga tushish noo'rin, chunki, masala yoki mashqni tahlil qilish jarayonidagi muloqot, aksincha, nazariy qonun-qoidalarni chuqurroq o'rganishga, uni mazmuniga tushunishga yordam beradi.

Masalan, talab va taklif qonunini o'rganganda, uni nazariy ji-


hatdan muhokama qilib o'tirmay, masala, mashq yechish orqali nazariy xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

O'qituvchi bunda quyidagicha masala tanlashi mumkin.

Kun davomida bir kilogrammi 400 so'mdan 200 kg qulupnay sotildi. Ertasiga ko'proq foyda olish maqsadida qulupnayning narxi 600 so'm qilib belgilandi. Natijada atiga 100 kg sotildi xolos. Buning ustiga kechga tomon qulupnay ko'payib ketdi. Qulupnayni sotilmay qolib ketishidan qo'rqib, 250 so'm narx qo'yildi. Natijada 380 kg qulupnay sotilib, yana 5 kg. dan olmoqchi bo'lgan 4 ta xaridorga yetmay qoldi.

Qulupnayga talabni jadval, grafik tarzida tasvirlang va uni narx bilan bog'lanishini tushuntiring. U qanday qonunni amal qilishini ifodalaydi, izohlang. Uni ko'rsatish uchun qanday metodlarni qo'lladik, so'zlab bering.

Javob: Qulupnayning narxga bog'liq ravishda talab miqdori jadval va grafik ko'rinishida quyidagicha bo'ladi:



Qulupnay narxi, Kg/so'm; R	Qulupnayga talab, kg; Q
250	400
400	200
600	100

Narx bo'yicha talab miqdorini belgilangan nuqtalarini bir-lashtirib, chizib chiqsak, talab egri chizig'i hosil bo'ladi. Bu egri chiziq talab qonuni amal qilishini ko'rsatadi. Narx ko'tarilgan sari talab ortadi. Tovar qancha qimmat bo'lsa, shuncha kam miqdorda xarid qilinadi. Bu sabab-oqibatli, funksional bog'lanish talab qonu-

nini ifodalaydi. Matematik nuqtayi nazardan qarajak, tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ularning narxi bilan teskari proporsional bog'lanishda bo'ladi. Talab qonunini o'rganganda ilmiy abstraksiya, matematik modellashtirish metodlaridan foydalandik. Ilmiy abstraksiya metodi yordamida talabga narxdan boshqa omillar ta'sir etmaydi, deb oldik. Matematik metoddan foydalanib, talab va narxni bog'lanishini jadval ko'rinishida, grafik tarzidagi talab egri chizig'ini chizib, modelda ifodaladik.

Masalani yechib, nazariy jihatdan qo'yilgan savollar muho-kama qilib bo'lingach, o'qituvchi auditoriyaga-murojaat qilib: «ana shu jadval raqamlari, ya'ni kishilarning narxi tushgan tovarni xarid qilishini ko'paytirish imkoni nima deb ataladi?» deb murojaat qilishi mumkin. Talabalar «daromad effekti» deb ataladi deyishi mumkin. Agar to'g'ri javob bo'lmasa, o'qituvchi o'quvchi, talabalarni ana shu fikrga yo'naltirishi kerak. Bundan tashqari, o'rin bosish effekti mavjudligi, u odamlarni narxi qimmat tovar o'rniga nisbatan arzonroq, boshqa tovar sotib olishida ifodalishini, masalan, murabbo qilish uchun qulupnayning o'rniga olcha olinishini ko'rsatish mumkin.

O'qituvchi auditoriyaga: «mana shu qonunda ifodalangan vaziyatni inkor qiluvchi holat bo'lishi mumkinmi?», deb savol tashlab, bunday hol yuz berishi mumkinligi, iqtisodiyotda bunday vaziyat Giffen effekti deyilishi, bunday tovarlar Giffen tovarlari deb atalishi haqida javob olishga harakat qilishi zarur.

Masalan, tovarlarning sifati yaxshi, qancha narxi ortishiga qaramay, talab ortadi, kambag'al oilalar, aytaylik, kartoshkaning narxi ortishiga qaramay, go'shtga nisbatan arzon bo'lgani uchun uni ko'proq sotib olishi mumkin.

Bunday masala, mashqlar o'quvchi-talabalarni nazariy materialni yuzaki, iqtisodiy kategoriyalarning aloqasini o'zaro bog'lanishiga ahamiyat bermay o'rganishlarining oldini oladi. Ko'pincha uning ma'nosi, ijtimoiy mazmuniga e'tibor bermay o'rganishadi.

Masalani yechish esa ularni darsliklardan mexanik tarzda konspekt qilishning foydasi yo'qligiga ishonch hosil qilishlariga olib keladi. Chunki, masalani yechish u yoki bu iqtisodiy kategoriya, qonunlarni quruq yodlash kamlik qilishini ko'rsatadi. Miqdoriy bog'lanish, bir-birini taqozo qilishi, ular asosida xulosa chiqarish uchun bilish, tushunish, tahlil qilish, taqqoslash, o'z bilimidan foydalana bilishni zarur qilib qo'yadi. Shuning uchun ham imkoni bo'lganda, nazariy qoidalar, muammolarni o'rganishda masala,

mashqlardan foydalanish talabalarni mazkur mavzuni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi va ularning faolligini oshiradi.

Auditoriyada masala yechishni turlicha usulda amalga oshirishi mumkin.

Birinchi yo'l. Masala, mashq barcha o'quvchi, talabalar tomonidan individual tarzda yechiladi. O'qituvchi masala, mashqni yechish uchun murakkabligi darajasi, tahlil qilish, baho berish, xulosa chiqarishini hisobga olgan holda, ma'lum vaqt beradi. O'z vaqtida to'g'ri yechilishi va berilgan topshiriq bo'yicha masalani izohlashiga qarab, ball berishini e'lon qiladi. Kim yechib bo'lsa, qo'lini ko'tarib yechib bo'lganini bildiradi. O'qituvchi uning javobiga qarab, ball qo'yadi.

Ikkinchi yo'li. Masala kichik guruhlariga bo'lib beriladi. Kichik guruh uni mukohama qilib, yechadi va guruhdan bir kishi kichik guruh nomidan javob beradi.

Uchinchi yo'li. Bir o'quvchi-talaba doskaga chiqib, yechadi. Qolganlar o'zi yechishi hamda doskada masalaning yechilishini kuzatib, noto'g'ri bo'lsa, tezda o'z fikrini bildirishi lozimligi uqtiriladi. Agar doskada masala yechayotgan talaba adashsa, uni to'xtatib, boshqa talabani masalani yechish bo'yicha fikrini tinglab, to'g'ri yechishni ko'rsatib berishi taklif etiladi. Talabalarning faoliyatiga ko'ra ball beriladi.

To'rtinchi yo'l. Masala, mashq yechishni uyga vazifa qilib berish mumkin.

Amaliy mashg'ulotda uning javobi muhokama qilinib, xulosa chiqariladi.

4-§. Masala-mashq, ularni tuzish va iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash

O'quv jarayonida masala-mashqlarni qo'llash uchun ularni mavzular bo'yicha tuzish lozim. Masala tuzishda duch kelinadigan **an'anaviy qiyinchiliklar** mavjud:

Birinchidan, masalaning shartlarini turlicha izohlashga olib kelishga yo'l qo'yilmaydigan qilib aniq bo'lishiga erishish oson emas. Ayniqsa, mumkin bo'lgan variantlari bir necha xil bo'lib, ularning ichidan nisbatan u yoki bu mezonga ko'ra, eng optimal variantlarni topish sharti qo'yilgan masalalarda ehtiyot bo'lish kerak. Sababi, masalalarning sharti aniq qo'yilmasligi natijasida talabalar masala tuzuvchi ko'zda tutmagan masalalar yechimi, variantlarini taklif qilishi hamda u

masala shartiga, umuman olganda, U holda o'qituvchi qiyin ahvolda bini to'g'ri deb topib, talabalarni noaniqligidan foydalanib, ko'zda yechish yo'lini topgan talabaga eng Undan tashqari bir javobning o'zini ish mumkin. O'qituvchi buni ham kerak, ya'ni masalani qaysi yo'l bilan oladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy fanlarda matematik hisob-kitoblarni talab qiladi ekan, talabani matematikadan emas, sinash lozimligini yoddan chiqarmasligi yaxshi iqtisodiy masala u yoki bu mazmunini chuqur o'rganishga zarur darajada fanga doir tushuncha qilish kerak. Matematik hisob-kitoblar yatiga ega bo'lishi zarur.

Praktika shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi faol tajriba, malaka, mohirlikka ega bo'lishi lozim.

Qo'yilgan shartga binoan murakabligiga ko'ra, masalalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum bir kategoriya, tushunchani asosiy mazmunini bilishga qaratilgan.

2. Ma'lum bir tushuncha asosida hisob-kitob qilish, undan xulosa chiqarishga qaratilgan.

3. Masalani yechish uchun mazkur kategoriya haqida umumiy tushuncha bo'lishini talab qiladigan masalalar.

Qanday masalani yechishni o'qituvchi o'tilayotgan mavzu, guruhdagi talabalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, tanlaydi.

Ma'lum bir kategoriya, tushunchani asosiy mazmunini o'rganishga qaratilgan **quyidagi masalani** ko'rib chiqaylik:

1. Quyidagi jadvalda tovar ishlab chiqarish uchun kapital va mehnat xarajatlarini hamda mahsulot TR miqdorini o'zgarishi berilgan.

Berilgan ma'lumotlar asosida:

A) Mehnat xarajatlarini (ishlovchilar soni) o'zgarishi bilan me'yoriy mahsulot hajmi qanday o'zgaragan, hisoblang. Nechanchi ishchini ishga yollagandan so'ng me'yoriy mahsulot kamaya boshlaydi?

B) Har bir qo'shimcha ishchini yollagandan so'nggi o'rtacha mahsulot (AR) hajmini hisoblang. Qachon o'rtacha mahsulot maksimal darajaga yetadi?

D) Ishlab chiqarish bilan band bo'lganlarning soniga ko'ra, umumiy mahsulot (TR), o'rtacha (AR) va me'yoriy (MR) mahsulotning o'zgarish grafigini chizing.

E) Me'yoriy unumdorlik (daromad)ni pasayib borishi qonuni amal qilishini tushuntiring. Uning fazalarni ko'rsating.

Kapital xarajatlari, K	Mehnat xarajatlari, L	Me'yoriy mahsulot, MR	Umumiy mahsulot, TP	O'rtacha mahsulot, AR
10	0		0	
10	1		20	
10	2		54	
10	3		100	
10	4		151	
10	5		197	
10	6		230	
10	7		251	
10	8		234	

Masalani yechish:

A) Me'yoriy mahsulot $MR = TR_n - TR_{n-1}$ $MR_2 = 54 - 20 = 34$


$MR_3 = 100 - 54 = 46$, xuddi shunday tarzda qo'shimcha ishchilarni ortib borishi bilan me'yoriy xarajat miqdorini hisoblaymiz. Jadvalda MR ustunda ko'rinib turibdiki, beshinchi ishchidan boshlab me'yoriy mahsulot pasayishni boshlagan. To'rtinchi ishchida 51, beshinchida 46 (jadvalga qarang).

B) O'rtacha mahsulotni har bir ishchi qo'shilganidan keyin topamiz. Masalan, ikkinchi ishchi qo'shilganda, $AR = TR/2 = 54/2 = 27$. Uchinchi ishchi qo'shilganda $100/3 = 33$ va hokazo. Maksimal o'rtacha mahsulot darajasiga beshinchi ishchi ishga qabul qilinganda erishiladi. Umumiy (yalpi) mahsulotimiz hajmi eng maksimal 251ga yettinchi ishchini qabul qilinganda, erishiladi, $251/7 = 35,9$ (jadvalga qarang).

K	L	MR	TR	AR
10	0	-	0	0
10	1	20	20	20
10	2	34	54	27
10	3	46	100	33
10	4	51	151	38
10	5	46	197	39
10	6	33	230	38
10	7	21	251	36
10	8	-17	234	29

D) Me'yoriy MR, o'rtacha AR, umumiy TR mahsulot quyidagi grafikda ko'rsatilgan.

TP, AP, MP Birinchi Ikkinchi Uchinchi



2) Umumiy mahsulot dinamikasi unumdorlikni pasayib borishi qonuniga bo'ysunadi.

Birinchi fazada me'yoriy unumdorlik MR (20, 34, 46, 51) o'sib boradi. Natijada TR jadal o'sadi.

Ikkinchi faza – me'yoriy unumdorlikni pasayishi namoyon bo'la boshlaydi (51, 46). TR ning o'sish sur'ati sekinlashadi. Me'yoriy mahsulot MR pasayadi, lekin hali musbat miqdorga ega.

Uchinchi faza – me'yoriy unumdorlik manfiy natija, ya'ni zarar keltirishini boshlaydi

Shunday qilib, TR egri chizig'i o'zining maksimal darajasiga yetgach, pasayishni, me'yoriy mahsulot esa zarar keltirishni boshlaydi.

Ikkinchi guruhga xos quyidagi masalani yechaylik.

Berilgan:

Tovarga bo'lgan talab funksiyasi: $Q_d = 700 - P$;

Taklif funksiyasi: $Q_s = 2P - 200$;

P – tovar narxi, so'm, Q – tovar miqdori, ming dona.

Quyidagilarni hisoblang:

1. Berilganlar asosida tovarning muvozanat bahosi va miqdorini aniqlang.

2. A), B) va D) punktlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarda:

A) davlat organlari tomonidan tovarga 200 so'm miqdorida baho belgilab qo'yildi. Taklif miqdorini, sotilgan tovar va taqchillik miqdorini aniqlang.

B) ishlab chiqaruvchilarga har bir sotilgan tovar uchun 150 so'm miqdorida dotatsiya belgilandi. Tovarning muvozanat narxi va miqdorini aniqlang.

D) har bir tovarga 150 so'm miqdorida egri soliq (qo'shilgan qiymat) belgilandi. Yangi muvozanat narxini hisoblang.

Yechish:

1. Muvozanatga erishish uchun talab va taklif teng bo'lishi kerak.

U holda $700 - R = 2R - 200$. Undan: $3R = 900$; $R = 300$;

Muvozanat narxini talab yoki taklif tenglamasiga qo'yib, tovarning muvozanat miqdorini topamiz. $Q_d = 700 - 300$; $Q_d = 400$ yoki $Q_s = 300 \cdot 2 - 200 = 400$;

Javob: muvozanat narxi **300 so'm**, muvozanat miqdori **400 ming dona**.

2. A) davlat tomonidan belgilangan narx (200 so'm) ni tenglamaga qo'yamiz.

Talab miqdori $Q_d = 700 - 200$; $Q_d = 500$ ming dona.

Taklif miqdorini ham shunday tarzda formulaga qo'yib, topamiz.

$Q_s = 2P - 200$; shuning o'zi sotilgan tovar hajmini ko'rsatadi.

$Q_s = 2 \times 200 - 200$; $Q_s = 200$ ming dona.

Talab hajmidan taklif miqdorini ayirib taqchillik miqdorini topamiz. $500 - 200 = 300$ ming dona

Javob: taklif miqdori **200 ming dona**; tovar taqchilligi **300 ming dona**;

B) belgilangan dotatsiyani hisobga olganimizda, taklif formulasi $Q_s = 2(R+150) - 200$; ko'rishini oladi. U holda dotatsiya kiritilgach, muvozanat bahosi $2(R+150) - 200 = 700 - R$ so'm bo'ladi;

$$3R = 700 - 100; \quad R = 200 \text{ so'm.}$$

Talab miqdori esa, $Q_d = 700 - 200 = 500$ ming dona.

Taklif hajmi $Q_s = 2(200+150) - 200$;

$$Q_s = 700 - 200; \quad Q_s = 500 \text{ ming dona.}$$

Javob: **muvozanat bahosi 200 so'm; miqdori 500 ming dona.**

D) egri soliq kiritilgach, taklif formulasi quyidagi ko'rishga ega bo'ladi: $Q_s = 2(R-150) - 200$;

Ma'lumki, muvozanat narxning ma'lum darajasida talab bilan taklif tengligini ifodalaydi. U holda $2(R-150) - 200 = 700 - R$;

$$2R - 300 - 200 = 700 - R;$$

$$3R = 700 - 500; \quad 3R = 1200; \quad R = 400 \text{ so'm;}$$

muvozanat miqdori esa, $Q_d = 700 - 400 = 300$ ming dona.

Javob: **muvozanat narxi 400 so'm, miqdori 300 ming dona.**

3. O'rganilayotgan kategoriya haqida umumiy tushuncha bor, lekin uni mazmuniga tushunib yetishga yordam beradigan quyidagi masalani ko'rib chiqaylik.

Aytaylik, Erkinjon korxonada sex boshlig'i lavozimida ishlab, yiliga 600 ming so'm maosh olardi. Bankda 1200 ming so'm puli bo'lib, yiliga 14% daromad keltiradi.

U xususiy biznes bilan shug'ullanishga qaror qildi va barcha jamg'argan pulini sarflab, kichik korxonaga ochdi. Birinchi yilning oxirida buxgalteriya hisobi ko'rsatdiki, hamma qilingan xarajatlarni olingan daromaddan ayirib tashlagach 660 ming so'm foyda qolibdi. Bir hisobchi, buxgalteriya hisob-kitobiga ko'ra foydangiz sarflagan 1200 ming so'mlik investitsiyangizga nisbatan 55% tashkil etadi. Bu yaxshi dedi.

Ikkinchi, iqtisodiyot nazariyasini chuqur o'rgangan buxgalter unga, albatta, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish tavakkalchilik xatari bilan bog'liq. Foyda olmay zarar ko'rishingiz ham mumkin edi. Lekin biznesda «omad»ingiz bor ekan deb ayta olmayman. Chunki, sizni real iqtisodiy foydangiz -108 ming so'm. Bu esa investitsiyangizga nisbatan -9% tashkil etadi, dedi. Buxgalterlardan qaysi biri haq?

Javob:

Albatta, ikkinchisi, sababi Erkinjon xususiy biznes bilan

shug'ullanishga qaror qilib, olishi mumkin bo'lgan 600 ming so'mlik maoshdan voz kechdi. Undan tashqari 168 ming so'm olishi mumkin bo'lgan foizni ham ololmadi. Ya'ni xususiy biznes bilan shug'ullanishning muqobil qiymati -108 ming so'm zarar bo'ldi.

$(600 \text{ ming so'm} + 168 \text{ ming so'm}) - 660 \text{ ming so'm} = -108 \text{ ming so'm}$.

Agar biznes bilan shug'ullanishdan «psixologik daromad» olsa, ya'ni unga shug'ullanayotgan ishi yoqsa, Erkinjon buni zarar deb hisoblamasligi ham mumkin.

Demak, **ikkinchi** buxgalter haq.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan mashqlarni bajaradigan vazifalariga ko'ra **shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:**

1. Ta'kidlangan fikrga nisbatan o'z nuqtayi nazarini bildirish va uni asoslab berishni talab qiluvchi mashqlar.

2. Hayotda yuz bergan hodisalarni, jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirib berishga qaratilgan mashqlar.

3. Berilgan topshiriqni mushohada qilib, xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi mashqlar.

Birinchi guruhga kiruvchi mashqlarda bildirilgan fikrni odatda to'g'ri yoki noto'g'riligini (T / N) tasdiqlash va uni izohlab berish talab qilinadi. Misol:

To'g'ri / noto'g'ri

1. Bozor iqtisodiyotida kimning puli ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p tovar sotib olishi mumkin .

2. Tovar ishlab chiqarish hajmi va usuli ishlab chiqarish resurslarining bahosiga bog'liq.

3. Mukammal raqobatga asoslangan iqtisodiyotda alohida tovar ishlab chiqaruvchi mahsulot miqdorini kamaytirish orqali narxga ta'sir etadi.

4. Bozor iqtisodiyotida qanday tovar ishlab chiqarish zarurligini oxir-oqibat iste'molchilar hal qilishadi.

5. Avtomashinalarga benzin quyish shaxobchasi bozorga misol bo'la oladi.

6. Talab egri chizig'i narxning pasayishi tufayli talab hajmining o'sishini ko'rsatadi.

7. Daromadarning ortishi barcha tovarlarga talabni oshiradi.

8. Resurslar bahosining har qanday o'zgarishi talab va taklif muvozanatini taklif egri chizig'i bo'yicha yuqori yoki pastga tomon o'zgartiradi.

9. Bir vaqtning o'zida tovar taklifi va iste'molga ajratilgan daromadning o'sishi natijasida baholar o'zgarmasligi mumkin.

10. Taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi ishlab chiqaruvchilarning har bir narx darajasida avvalgiga qaraganda kamroq tovar taklif qilinayotganini ko'rsatadi.

Javob:

1. Bildirilgan fikr **to'g'ri**, sababi bozor iqtisodiyotida tovarlar taklifi talabga nisbatan ko'p. Xaridor xohlagan tovarni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega.

2. **To'g'ri**, chunki ishlab chiqarish resurslari qancha qimmat bo'lsa, ishlab chiqarish uchun shuncha ko'p mablag', xarajat kerak bo'ladi yoki aksincha.

3. **Noto'g'ri**, mukammal raqobat kurashiga asoslangan bozorda ishlab chiqaruvchi – sotuvchilar juda ko'p, ular soni cheklanmagan. Alohida tovar ishlab chiqaruvchilarning hissasi juda kam, shuning uchun mahsulot miqdorini kamaytirish bilan narxga ta'sir eta olmaydi.

4. **To'g'ri**, chunki bozor iqtisodiyotida taklif doimo talabga moslashadi. Aks holda ishlab chiqargan tovarini sota olmay, kasod bo'ladi.


5. **To'g'ri**, benzin quyish shaxobchasida benzin oldi-sotdi qilinadi.

6. **To'g'ri**, iste'molchilar tovarning narxi qancha past bo'lsa, shuncha ko'p sotib olishadi. Uning shkalasini grafikda tasvirlasak, talab egri chizig'i hosil bo'ladi.

7. **Noto'g'ri**, daromadlarning ortishi hamma to'varga ham talabni oshiravermaydi. Qat'iy elastik talabga xos tovarlarga talab o'zgarmay qoladi. Undan tashqari, daromadlarning ma'lum qismi jamg'armaga aylantiriladi.


8. **To'g'ri**. Chunki, resurslar bahosini o'zgarishi ishlab chiqarilgan tovarlar narxining ham o'zgarishiga, u o'z navbatida, talab miqdorining o'zgarishiga olib keladi.

9. **To'g'ri**. Uni grafikda chizib ko'rsatamiz. Aytaylik, muvozanat Y_1 da bo'lsin. Daromad va taklif ortishi tufayli talab va taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi ro'y beradi. Muvozanat Y_2 nuqtada o'rnatiladi. Lekin baho R_1 darajada qoladi.



10. **Noto'g'ri.** Taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi har bir narx darajasida avvalgiga qaraganda ko'proq tovar taklif qilinayotganini ko'rsatadi.

Uni grafikda tasvirlasak, quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi.



Ikkinchi guruhga kiruvchi mashqlarni quyidagicha tuzish mumkin:

Keltirilgan vaziyatlarni tahlil qilib aytingchi, amalga oshirilgan faoliyat tufayli «mulk huquqi» dastasining qaysi bir elementi realizatsiya qilinadi?

a) Fermer yer uchastkasini ijaraga oldi, unda bug'doy yetishtirib, davlatga sotdi.

b) Erkinjon «Neksiya» avtomobilini sotib oldi va unda dala hovlisiga qatnab turibdi.

d) Korxonaga o'zining sexi binosini boshqa firmaga ijaraga berdi.

e) Tadbirkor Odiljon boshqa tadbirkordan uncha katta bo'lmagan ikkita xonani sotib oldi. Bitta xonani buzib, ikkinchisini kengaytirib, ta'mirladi.

f) Xo'jalik sudi tadbirkor Rahimovdan qarzini to'lamagani uchun, qarz evaziga uning ishlatib turgan uskunasini olib qo'yishga qaror qildi.

g) Fuqaro Akbarova o'zi yashab turgan uyini o'g'illariga vasiyat qildi.

h) Davlat korxonasi bironing bog'idan avtomobil yo'li o'tkazdi. Bunda uning egasiga qirqilgan daraxtlar uchun kompensatsiya to'lanmadi.

i) Avtomobilning egasi undan foydalanmay, avtostoyankaga qo'yib qo'ygan. O'rtoqlari undan avtomobilidan foydalanishga ruxsat so'rashsa, bermadi.

j) Uydagi mulkini o'g'irlab ketishgani uchun fuqaro militsiyaga murojaat qildi.

k) Sud korxonaga tozalanmagan oqovasini anhorga tashlagani uchun jarima soldi.

l) Fuqaro mulk qilib olgan yer uchastkasiga ishlov berdi. Ke-lajakda uni sotmoqchi emas.

Javob:

a) Vaqtincha egalik, nazorat qilish, foydalanish, boshqarish tasarruf qilish va daromad olish huquqi.

b) Egalik qilish, foydalanish va boshqarish, tasarruf qilish huquqi.

d) Foydalanish huquqi.

e) Egalik qilish, tasarruf qilish va foydalanish huquqi.

f) Narsalardan qarzini to'lash uchun foydalanish imkoniyatga ega bo'lish, qarzini to'lash javobgarligi huquqi.

g) Tasarruf qilish, meros qoldirish huquqi.

h) Mulk huquqi buzildi.

i) Egalik qilish, tasarruf qilish huquqi.

j) Mulk huquqi buzildi.

k) Tashqi muhitga, birovga zarar keltiradigan tarzda foydalanish usullarini taqiqlash huquqi.

l) Egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi.

Bu turkumga kiruvchi mashq topshirig'ini quyidagicha ma'lum bir guruh yoki to'plamga tegishli hamda tegishli bo'lmagan tushunchalar, hodisalar, omillar va boshqalarni chuqur o'rganishga qaratilgan tarzda ifodalash mumkin:



Oltinchisi ortiqcha. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: tabiiy resurslar miqdori va sifati, mehnat resurslari miqdori va sifati, asosiy kapital hajmi, texnik taraqqiyot va texnologiya, daromadning iste'mol va jamg'arishga ajratilishi, investitsiyaning o'sishi.

Javob: Ortiqchasi, beshinchi tushuncha. U iqtisodiy o'sishning taqsimlash omili, qolganlari iqtisodiy o'sishning taklif omillari.

Uchinchi guruhga kiruvchi mashqlar:



1. Iqtisodiyotda tushkunlik yuz berayotgan paytda davlat kadr-lar tayyorlashning milliy dasturini qabul qilib, ta'lim xarajatlarini ko'paytirdi. Undan tashqari temir yo'l, avtomagistral, ko'prik qurish va boshqa ijtimoiy ishlar uchun xarajatlarni ko'paytirdi. Narx va real yalpi ichki mahsulot qanday o'zgardi? Xarajatlar ko'paytirilguncha yalpi talab va taklifning grafik tasviri chapdagi chizmada ko'rsatilgan bo'lsa, u qanday o'zgaradi?



Javob: Davlat xarajatlari ortadi. Talab ortadi. Narx o'sadi. Talab egri chizig'i o'ngga siljiydi.

2. Yangi gaz va neft koni topildi. Natijada energiya narxini pasayishi sodir bo'ldi. Muvozanat narxi darajasi va real yalpi ichki mahsulot hajmi qanday o'zgardi? Grafikdagi tasvir qanday o'zgarganini ko'rsating.

Javob: Taklif ortadi. Narx tushadi. Real YaIM o'sadi. Taklif egri chizig'i o'ngga siljiydi.



O'qituvchi masala, mashqlardan foydalanishni rejalashtirar ekan, albatta o'zi darsga puxta tayyorlanishi, tavsiya qilinadigan masala, mashqni yechib, javobini yozib qo'yishi kerak.

Dars jarayonida masala-mashqlarni qo'llashdagi yana bir muhim muammo ularni javobini muhokama qilish. Odatda, masala-mashqning to'g'ri javobini aytib qo'ya qolinadi. Vaholanki, talabaning yodida qolishi, mavzuni puxta o'zlashtirishi, hisob-kitobni to'g'ri bajarishida masalaning javobini muhokama qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun o'qituvchi masalani javobini muhokama qil-

ishga e'tibor qaratishi zarur. Vaqt yetishmaydigan bo'lsa, masala-mashq yechishni uyga vazifa qilib berib, darsda uni to'g'ri yechilganligini muhokama qilish mumkin.

5-§. Testlar, ularni tuzish, o'tkazish va javoblarini muhokama qilish

Talabalarining puxta bilim olishlari, ularning olgan bilimlarini tekshirishdagi qator afzalliklarini hisobga olib, keyingi paytda keng qo'llanilayotgan mashq turi **test¹ hisoblanadi.**

Test yechish nihoyatda keng qo'llanilishi sababli alohida metod sifatida qaraladigan bo'ldi. Mavzuni o'rganishda testlardan foydalanish, ayniqsa, guruhda test o'tkazilgach, uning javoblarini muhokama qilish alohida ahamiyatga ega.

Testlar — bu qisqa, standartlashtirilgan yoki standartlashtirilmagan sinov, mashq bo'lib, qisqa vaqt davomida o'qituvchiga talabalarining o'quv jarayoni davomida egallagan bilimlari darajasini baholashga yordam beruvchi metoddir.

Testni qo'llashning nihoyatda keng qamrovligidan unga turli jihatdan yondashib berilgan ta'riflar ham xilma-xil.

Test — 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir;

2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalanadigan tarqatma material, savolnoma;

3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart-test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi;

4) ko'zlangan maqsadga ko'ra, savol qo'yib, unga bir-biriga yaqin bir necha, lekin to'g'risi bitta bo'lgan javoblar mujassamlangan topshiriq, mashqni bajarish orqali fanni, mavuni o'rganishga, o'quvchi-talabalar bilimini sinashga qaratilgan metod.

Talabalar bilimini baholashda test muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari test boshqa usullar: masala yechish, referat yozish yoki savolga og'zaki yoki yozma javob yozish kabilardan **quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:**

1. Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning obyektiv usuli hisoblanadi. Sababi unda o'qituvchi bilan talaba o'rtasida vujudga

¹ Test (ing. Test -- sinov, namuna, tadqiqot).

kelgan munosabatlar hech qanday rol o'ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta'sir etmaydi.

2. Nazorat ishi yoki referatda o'qituvchi talabaning ayrim xatolaridan ko'z yumib, uning bilimini yuqori baholashi yoki aksincha, o'zining subyektiv talablarini qo'ygan holda past baholashi mumkin. Testlar bunday xatolikdan xoli.

Testning nazariy asoslarini ingliz psixologi Fransua Talmon (1822–1911) ishlab chiqqan. Test terminini birinchi marta 1890 yili amerika psixologi Jeyms Kettell (1860–1944) tomonidan insonni psixologik jihatdan o'rganishda qo'llangan.

Testlarni qo'llash jarayoni kengaygan sari ularning turlari ham ko'paya boshladi. Testologiya tarixida V.A.Makkol birinchi bo'lib testlarning pedagogik va aqliy rivojlanish darajasini aniqlaydigan (intellektual) guruhlariga ajratdi.

Hozirda testlar psixologiya, pedagogika, fiziologiya, meditsina va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Ta'limda odatda asosan psixologik va pedagogik testlardan foydalaniladi.

Testlar qanday maqsadga qaratilganiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Maqsadga erishuv testlari (bilimni o'lchash, sinash, baholashga qaratilgan).

2. Aqliy testlar (zehn, aql-idrok, aql-zakovat, iste'dodni aniqlashga yo'naltirilgan).

3. Ijodiy testlar (ijodkorlik, bunyod etishlik darajalarini tekshiruvchi).

4. Mezoniy mo'ljal testlari (o'quv yoki kasbiy bilimlar va topshiriqlarni qaysi ko'nikma, malaka, xatti-harakat tizimi orqali o'lchash mumkinligiga qaratilgan).

5. Shaxsga oid testlar (xususiyat, bezovtalanish, sifat, fazilat, xislatlarni o'lchashga aloqador).

6. Proeksiyaviy testlar (tashqi ta'sirsiz shaxs o'z-o'zini oshkor qilishga mo'ljallangan) va boshqalar.

Biz testni tadqiq qilishga mavzuni o'rganish va o'quvchi, talabalar bilimini sinash va baholash nuqtayi nazaridan yondashamiz.

Fanni o'rganishda va bilim darajasini sinash va baholashda keng qo'llaniladigan testlar axborotni psixologik jihatdan o'zlashtirish darajasiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: a) axborotni esda saqlash, xotirada qayta tiklashga qaratilgan testlar; b) reproduktiv tafakkur, ya'ni o'zlashtirilgan bilimlar asosida ma'lum bir ishni (tipik) mustaqil bajarishni talab qiluvchi testlar; d) produktiv tafakkur, ya'ni o'rganilgan bilimni qo'llashga yo'naltirilgan testlar;

e) tadqiqiy-ijodiy fikrlashni talab qiluvchi testlarga bo‘linadi.

Test topshiriqlarining mazmuni va javob berish jarayonidagi imkoniyatga ko‘ra: ochiq, yopiq va boshqalarga ajratish mumkin. Ochiq test topshiriqlari kishiga o‘z xohishiga ko‘ra javob berish imkonini yaratadi. Odatda unda asosiy so‘z, tayanch ibora tushirib qoldirilgan bo‘ladi.

Yopiq testda esa aksincha, javoblar mavjud. Bunda test sharti savol yoki vazifa bo‘lib, uning javoblaridan bittasi to‘g‘ri qolganlari to‘g‘ri javobga o‘xshashroq bo‘ladi.

Uni yopiq test deyilishiga sabab uning javoblari mavjud, o‘quvchi-talaba ana shu keltirilgan javoblardan o‘zicha to‘g‘ri deb bilganini tanlashi kerak. Berilgan javoblar ikkitadan beshtagacha bo‘lishi mumkinki, javoblari soniga qarab, testlarga to‘g‘ri javob topish imkoniyati ham o‘zgarib boradi.. Hozirgi paytda bir necha javobli yopiq testlar keng qo‘llaniladi.

Test topshiriqlarini murakkablik darajasini dunyoda eng ko‘p tarqalgan Blum taksonomiyasi asosida tayyorlash mumkin. Bunda testlar «bilish», «tushunish», «qo‘llash» bosqichlariga xos uncha murakkab bo‘lmagan hamda «tahlil», «sintez», «baholash bosqichlariga xos murakkab testlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Obyektiv testlar. Testlarni obyektiv deyilishiga sabab, unga to‘g‘ri javob bor, uni subyektiv jihatdan baholashni istisno qiladi.

Undagi savollar ko‘pincha dalillar, aniq axborotlarni yodga tushirishga qaratilgan. Obyektiv test savollari Blum taksonomiyasining ikkinchi bosqichidagi fikrlash doirasiga to‘g‘ri keladi. Ular fikrlashni yuqori darajada baholashga imkon bermaydi, lekin ularni fikrlashning yuqori bosqichiga to‘g‘ri keladigan qilib tuzish mumkin. Ular tatbiq qilish, tahlil qilish darajasiga mos keladigan murakkablikda bo‘lishi mumkin, lekin bunday savol tuzish qiyin.

Test savollari tuzishda, amerikalik pedagoglarning ko‘rsatishicha o‘qituvchi quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Ko‘zlangan maqsadga ko‘ra, savolni aniq qo‘yish kerak.
2. Testda faqat bitta javob to‘g‘ri bo‘lishi kerak.
3. Javoblarni bir-biriga o‘xshash bo‘lishi va haqiqatga yaqin bo‘lgani ma’qul.

4. Testda iloji boricha inkor etuvchi fe‘l va boshqalardan foydalanmaslikka harakat qilish lozim (Masalan, yuqoridagi ko‘rsatmalardan nima imkon bermaydi? va hokazo ...).

5. Yuqorida ko‘rsatilganlarning hammasi (yoki yuqorida ko‘rsatilganlardan hech biri) kabi ta’riflarni iloji boricha ishlatmaslik zarur.

6. Bir necha komponentlar (aytaylik, A va S) ni mujassamlashtirgan javoblarni iloji boricha kam ishlatish, ishlatganda, test kimlar uchun tuzilayotganiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq;

7. To'g'ri javob doimo bir joyda (doimo A yoki doimo B) bo'lishi kerak emas;

8. Savollar va javoblar grammatik jihatdan o'zaro mos, muvofiq bo'lishi kerak.

Test tuzayotganda avval qanday maqsad qo'ymoqchisiz, ya'ni o'quvchi, talaba shu mavzuda nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, savol yoki topshiriq tanlaymiz.

Aytaylik, o'rganayotgan mavzuimiz buxgalterya hisobi bo'yicha talaba birinchi navbatda hujjatlashtirish tushunchasi nimanani bildiradi? Aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak. Demak, mavzu bo'yicha test tuzar ekanmiz, test orqali talabadan ana shu savolga javob kutamiz. Shuning uchun test savolini «Hujjatlashtirish deb nimaga aytiladi?» deb qo'ysak bo'ladi. Bunda biz mavzuni o'rganishi oqibatida talaba bilishi lozim bo'lgan tushunchani, ya'ni maqsadni test savoliga aylantirdik.

Navbatdagi bosqich, unga to'g'ri javob topish. O'qituvchi test tuzar ekan, avvaldun tanish, javoblari unga ayon masala bo'lishi yoki yangi, o'rganilishi zarur masala bo'lishi mumkin. Har ikki holda ham aniq, asoslangan, to'g'ri javob topish uchun zarur adabiyotlarni o'rganishi, ular asosida uning to'g'riligiga qanoat hosil qilgach, javobni yozishi kerak.

To'g'ri javobimiz, xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini yoppasiga va uzluksiz hujjatlar majmuasida aks ettirishdir. Ayrim o'quv adabiyotlarida hujjatlashtirish barcha xo'jalik muomalalariga tuziladigan hujjatlar majmuasi deb yozilgan. Lekin hujjatlashtirish bu jarayon bo'lgani uchun bizningcha oldingi javob ikkinchisiga qaraganda hujjatlashtirishning mohiyatini to'laroq aks ettiradi. Shuning uchun uni to'g'ri javo sifatida qabul qilamiz. U holda testimiz ikkinchi bosqichda quyidagicha ifodalanadi:

1. Hujjatlashtirish deb nimaga aytiladi?

A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini yoppasiga va uzluksiz ravishda hujjatlar majmuasida aks ettirishdir.

Navbatda hujjatlashtirishni ifodalaydigan, lekin uning mazmunini to'la aks ettirmaydigan, o'xshash, lekin noto'g'ri javoblarni yozib chiqamiz.

Ular quyidagicha bo'lsin.

- B. Mahsulotni omborga qabul qilish uchun dalolatnoma.
- D. Mahsulotni ombordan olish uchun talabnoma.
- E. Zarur shakllarni to'ldirishdir.

Birinchi testimizning javoblari tayyor. Faqat to'g'ri javobni qaysi harf orqali ifodalashni aniqlasak bo'ldi. Uni biz oldingi testda qaysi harfda to'g'ri javob berilganiga qaraymiz. Birinchi testda xohlagan harfimizga qo'yishimiz mumkin. Aytaylik, biz to'g'ri javobni B harfida berishga qaror qildik. U holda testimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Hujjatdashtirish deb nimaga aytiladi?

- A. Mahsulotni omborga qabul qilish uchun dalolatnoma.
- B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini yoppasiga va uzluksiz ravishda hujjatlar majmuasida aks ettirishdir.
- D. Mahsulotni ombordan olish uchun talabnoma.
- E. Zarur shakllarni to'ldirishdir.

Testimiz tayyor. Javob: B.

Boshqa maqsad, vazifalarni ham, mavzu bo'yicha o'quvchi, talaba bilishi lozim bo'lgan tushuncha va muomalalarni shu tarzda test savollari va javoblarida aks ettiramiz.

Yopiq testlardan tashqari ochiq test toashiriqlari tayyorlanadi va qo'llaniladi. Ochiq test topshiriqlari kishiga o'z xohishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar odatda, bitta asosiy so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan jumla bo'lib, javob taklif etilmagan bo'ladi.

Ochiq test tuzish uchun u yoki bu savolni, tushunchani mohiyatini ifodalovchi, javobi o'zida gap tuzib, uning sifati yoki asosiy ma'nosini ifodalovchi so'zni tushirib qoldiramiz.

Yopiq testimiz misolida ochiq test tuzishni ko'rib chiqamiz.

Misol: Birinchi bosqichda gap tuzamiz:

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini yoppasiga va uzluksiz ravishda hujjatlar majmuasida aks ettirish hujjatlashtirish deyiladi.

Ikkinchi boqichda uni ochiq testga aylantiramiz:

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini yoppasiga va uzluksiz ravishda aks ettirish hujjatlashtirish deyiladi.

Testimiz tayyor. Javob: hujjatlar majmuasida. Shunday tarzda davom ettirishimiz mumkin. Lekin hozirgi paytda ochiq testga qaraganda yopiq testlar qulay bo'lgani uchn ko'proq ulardan foydalaniladi.

Bu ish osonginaga o'xshab ko'rinadi. Lekin haqiqatda u katta mehnat talab qiladi.

Testlarning afzallik tomonlari va kamchiliklari. Obyektiv testlarning afzalligi ularni ko'p savollarni qamrab olishidir. Shu tufayli barcha mavzular bo'yicha talabalar bilimini tekshirish imkonini beradi. Bilim olish, tushunish uchun samarali uslub juda qo'l keladi.

Talabalar bilimini baholashda test muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari test boshqa, usullar: masala yechish, referat yozish yoki savolga og'zaki yoki yozma javob yozish kabilardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning obyektiv usuli hisoblanadi. Sababi unda o'qituvchi bilan talaba o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar hech qanday rol o'ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta'sir etmaydi.

Nazorat ishi yoki referatda o'qituvchi talabaning ayrim xatolaridan ko'z yumib, uning bilimini yuqori baholashi yoki aksincha, o'zining subyektiv talablarini qo'ygan holda past baholashi mumkin. Testlar bunday xatolikdan xoli.

Testlarni faqat yakuniy nazoratda qo'llash shart emas. Ularni mavzuni boshlashdan avval ham, joriy nazorat, oraliq nazoratda ham qo'llash mumkin.

Testlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida alohida ahamiyatga ega yoki an'anaviy o'zlashtirish qiyin tushuncha haqida mavzular bo'yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Chunki butun guruhni bilimini tekshirish uchun juda kam vaqt talab qiladi. Bu, ayniqsa, oraliq testlar o'tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko'ra o'qituvchi dastur bo'yicha o'z ishini, dars o'tiladigan savollarni ko'rib chiqadi, kelgusida dars o'tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo'ljallaydi.

Test tuzish ko'p vaqt va mehnat, sinchkovlik, sabr-toqatni talab qiladi.

Shu bilan birga, mehnatni osonlashtiradigan kompyuter dasturlari — TESTER, RESUJTER mavjud. Birinchi dastur ko'proq test tuzishni osonlashtirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi test o'tkazish va natijalarini tezda hisob-kitob qilish, statistik ma'lumotlar olishga qaratilgan.

Testlarni asosiy kamchiliklaridan biri qo'yilgan savollarni tor doirada qamrab olishidir. Diqqat asosan testda berilgan javoblar doirasida cheklanib qolishi, qo'yilgan savollarni tor doirada

qamrab olishdir. Ikkinchi muhim kamchiligi tavakkal qilib javob topish hamda o'quvchi-talabning o'z fikrini bildirish imkoni yo'qligi. Talabalardan esa keng tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi.

Testlarni o'qish va talabalar bilimni baholashning usuli sifatida qo'llashning muhim tomoni hamda murakkabligi shundaki, aynan nima sababdan shu javob to'g'riligini asoslab berish lozim. Bunda javoblarni obyektiv, tushunarli, mantiqan to'g'ri izohlanishiga ahamiyat berish kerak. Test o'tkazilgach, guruhda javoblarni muhokama qilish muhim ahamiyatga ega.

Buni quyidagi test misollarida ko'rib chiqaylik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kompyuterda ishlash uchun dastur tuzuvchilarning ish haqi darajasi, belgilanadi:

A) dastur tuzish malakasiga ega, mavjud ish haqiga rozi, mutaxassislik bo'yicha ishlashga tayyor xizmatchilar miqdori bilan;

B) dastur tuzuvchi mutaxassislarga talab asosida;


D) dastur tuzuvchi mutaxassislarga talab va taklif asosida;

E) mehnat kodeksi va boshqa mehnat bo'yicha qabul qilingan qonunlar asosida.

Javob muhokamasi:

Bu testda to'g'ri javob — D.

Xizmatchilar bozoridagi vaziyatni talab va taklif egri chizig'i yordamida ko'rsatish mumkin. Vertikal (ordinata) o'qiga dastur tuzuvchilarni ish haqi, gorizonttal o'qiga xizmat ko'rsatuvchilar miqdori (bu yerda o'lchov birlik odam-soat yoki dastur tuzuvchilar soni bo'lishi mumkin)ni joylashtiramiz.



Grafikdan ko'rinib turibdiki, dastur tuzuvchining ish haqi darajasi (R) faqat dastur tuzuvchi talabiga yoki taklifiga emas,

aksincha, talab va takliflarning o'zaro ta'siri ostida ma'lum bir ish haqi darajasida belgilanadi. Demak, A va B javoblar noto'g'ri. Savolda ish haqining o'rtacha darajasi haqida gap ketayapti. Qabul qilingan qonunlar u yoki bu mutaxassislik bo'yicha ish haqi darajasiga ta'sir qilishi mumkin, lekin ish haqi darajasini belgilamaydi.

Shunday qilib, E javob ham noto'g'ri. Dastur tuzuvchilarning o'rtacha ish haqi darajasi talab va taklif muvozanatiga bog'liq ekan. Agarda talab ko'p, taklif oz bo'lsa ish haqi darajasi muvozanati nuqtasi yuqorida, ya'ni ish haqi yuqori. Agarda taklif ko'p, talab oz bo'lsa, ish haqi muvozanati nuqtasi pastda, ya'ni ish haqi ham past bo'ladi. Demak, to'g'ri javob — D.

Testlarni faqat yakuniy nazoratda qo'llash shart emas. Ularni mavzuni boshlashdan avval ham, joriy nazorat, oraliq nazoratda ham qo'llash mumkin.

Testlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida alohida ahamiyatga ega yoki an'anaviy o'zlashtirish qiyin tushuncha haqida mavzular bo'yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Chunki, butun guruhni bilimini tekshirish uchun juda kam vaqt talab qiladi. Bu, ayniqsa, oraliq testlar o'tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko'ra o'qituvchi dastur bo'yicha o'z ishini, dars o'tiladigan savollarni ko'rib chiqadi, kelgusida dars o'tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo'ljallaydi.

Amerikalik mutaxassis Benjamin Blum bilim olish, o'rganishning bosqichli modelini ishlab chiqib, uni olti bosqichga bo'lganini ko'rib chiqqan edik. U bilish, tushunish, tatbiq etish, tahlil qilish, sintez (umumiy xulosa chiqarish), baholashdan iborat edi.

Testlar murakkabligiga ko'ra, ana shu bosqichlarning qaysi darajasiga to'g'ri kelishi bilan farqlanadi. Bunda testlarni taxminan uch guruhga ajratish mumkin:

1. Blum taksanomiyasining birinchi va ikkinchi «bilish va tushunish» bosqichlariga mos keladigan nisbatan uncha murakkab bo'lmagan testlar.

2. Taksanomiyaning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi «tushunish, qo'llash, tahlil qilish va sintez qilish» bosqichlariga to'g'ri keladigan o'rtacha murakkab testlar.

3. Ko'proq beshinchi va oltinchi «sintez—umumiy xulosa chiqarish va baholash» ga to'g'ri keladigan murakkab testlardan iborat.

Ana shu testlarni javobiga ko'ra, talaba, guruh predmetni qanday o'zlashtirgani, bilimi qay darajada ekanligini aniqlash mumkin.

O'qituvchi testlarni murakkabligi darajasiga ko'ra, javoblar uchun vaqtni har bir test uchun 1 daqiqa yoki undan ko'proq belgilashi mumkin. Talabalar testlarga javob berar ekanlar, ularga quyidagilarni uqtirish lozim:

1. Kuzatishlar ko'rsatadiki, ko'pincha birinchi intuitiv javob to'g'ri bo'ladi.

2. Testni har kimning o'zi yechgani ma'qul.

Talabalarning bilim olishi va ularni-olgan bilimini baholashning usuli sifatida testlarni qo'llashning muhim tomoni, nima sababdan shu javob to'g'riligini asoslab berishdir. Bunda javob obyektiv, tushunarli, mantiqan to'g'ri izohlanishiga ahamiyat berish kerak.

6-§. Iqtisodiy fanlardan esse yozish va esse uchun savollar tuzish

Ma'lumki, oliy o'quv yurtini bitirgan mutaxassis berilgan topshiriqni bajarganligi, qilingan ishlar va erishilgan natija, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari bo'yicha yozma hisobot bera olishi kerak. Shuningdek, xizmat xati, raport, hisobot, turli muassasa, tashkilotlar o'rtasida yozishmalar, firma, korxonalar va boshqalar bilan shartnoma kabilarni yozishni bilishi kerak.

Talabalar bo'lg'usi mutaxassis sifatida o'z fikrlarini bayon qilishni, yozma ravishda ifodalashni ham o'rganishlari kerak. Ayniqsa, iqtisodiy sohada yozma hisobot, turli-tuman tashkilotlar, firma, korxonalar bilan biznes bo'yicha sheriklar o'rtasida turli-tuman yozishmalar, xatlar, bildirishnomalar, xizmat yuzasidan aloqalarga tegishli takliflar, tavsiyalar va boshqa yozma hujjatlarni tayyorlashga, yozma ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Buning uchun esa ularda ko'nikma hosil qilish kerak. Bu ko'nikma talabalarning yozma ish yozishlari orqali hosil qilinadi. Tez-tez yozma ish yozish ularning fikrlashini o'zgartiradi, ularni kurs ishi, yakuniy nazorat ishi, bitiruv malakaviy ishi, turli yozishmalar, dissertatsiya yozishga tayyorlaydi. Yozma ish ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Uning muallifi o'zining qarashini, fikrini asoslashga o'rganadi.

Afsuski, ko'pincha og'zaki ravishda o'z fikrini bemalol o'rtoqlashadigan kishilar yozma ravishda bayon qilishga kelganda juda qiynalishadi. Ana shunday holni kamaytirishning muhim usuli bu talabalarni **yozma ish** bajarishlaridir.

Talabalarni tez-tez yozma ish yozishlari ularning fikrlash ko'nikmalarini tubdan o'zgartiradi. Ularni kurs ishi, hisobot, bitiruv

malakaviy ishi, qolaversa, dissertatsiya ishlarini yozishga tayyorlaydi.

Yozma nutq fikrni har tomonlama o'ylash, aniq ifodalashga, har bir so'zni o'rnida ishlatishga o'rgatadi.

Yozma ishni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha boshlash kerak. Belgilangan vaqt 10–15 daqiqa. Dastlab, o'quvchi-talabalar xayollariga shu mavzu bo'yicha nima kelsa, shuni yozishadi. Buning uchun ularni koyimaslik kerak.

O'qituvchi yozma ishlarni yig'ib olib talabalarning intellektual darajasi, mavzuni o'zlashtirishlarini aniqlaydi.

Dars o'tishning yangi uslublari orasida **esse yozish** ham o'ziga xos o'rin egallab borayapti. U, ayniqsa, yakuniy nazorat ishi yozish uchun tajriba to'plashda qo'l keladi.

Esse (fransuzcha — ESSAI - tajriba, xomaki reja) — muallifning individual pozitsiyasini alohida ajratib ko'rsatish orqali erkin, ko'pincha, paradoksal bayon qilishga yo'naltirilgan falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, badiiy-publitsistik adabiyot.

Nobel mukofoti laureati V. V. Leontevning «Экономические эссе теории исследования, факты и политика» kitobi nashrdan chiqqach, iqtisodiy mavzularda ham esse yozishga e'tibor berila boshlandi.

Bu usuldan keyingi paytlarda, talabalarni iqtisodiy fikr yuritishga o'rgatish va bilimni baholashda keng qo'llanilmoqda.

Asoslangan esse. Bunday esse qo'yilgan savolga asoslangan javob mavjud bo'lgan yozma ishdir. Muallif muayyan pozitsiyaga ega, u o'z nuqtayi nazarini ishonchli dalillar bilan asoslaydi va uni himoya qiladi, o'z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad muallif o'zi bildirgan fikrga boshqalarni ham ishontirish, qo'llab-quvvatlashga undashdir.

Esse uchun mavzular va savollar

Esse uchun mavzu tanlaganda yoki savol tuzganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

1) Topshiriqni iloji boricha aniq qo'yish kerak. Shartni shunday qo'yish kerakki, talaba undan nima talab qilinayotganligini tushunsin.

2) Esse topshirig'i fikr yuritishga, tahlil qilishga undaydigan savollar bo'lishi zarur.

3) Esse uchun tayyorlangan savol-topshiriqlarni talabalarga o'qituvchining o'zi tanlab bergani ma'qul. Bunda talabaning bilimi obyektiv baholanadi.

4) Kompleks javob talab qiladigan savollarni uyga vazifa tarzida yoki oraliq nazorat, yakuniy nazoratda berish mumkin.

5) Agar vaqt cheklangan bo'lsa, dars davomida eng asosiy momentlarga ahamiyat qaratilgan savollar qo'yish mumkin.

Esse uchun savollar namunasi.

1) 1980-yildan 2005-yilgacha ishlovchilar soni o'sdi. Ularning uy yumushlariga sarflaydigan vaqtlari haftasiga 100 soatdan 50 soatgacha qisqardi. Yog', un, xamirturush, guruch kabilarni sotib olish kamaydi. Non, yarim fabrikatlar, konservalangan meva kabilarni sotib olish miqdori ko'paydi. Ana shu mahsulotlarni sotib olish dinamikasini muqobil qiymat nuqtayi nazaridan-tushuntiring.

2) Ayrim kishilar kundalik ehtiyoj mollari bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy kabilarning narxini past darajada ushlab turish kerak, degan fikrni bildirishadi. Baholar ustidan nazorat va rag'batlantirish konsepsiyasidan foydalanib, birinchi darajali kundalik ehtiyoj mollarining narxini bozor narxidan past belgilanishi qanday oqibatga olib kelishini tushuntiring.

3) Yaponiyada asosiy oziq-ovqat mahsuloti guruchdir. Yaponiya hukumati o'z ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish maqsadida boshqa mamlakatlardan guruch sotib olishni chekladi. 1993-yili ob-havoning noqulay kelishi sababli Yaponiyada sholi yetishtirishga katta talofot yetdi. Ob-havoning yomon kelishi qanday oqibatga olib kelishini oldindan taxmin qiling.

Keyingi yillarda Yapon guruchining a) taklifini;

b) narxini o'zgarishini ko'rsating. Sabablarini izohlang.

Yapon hukumatining guruch importiga, umuman, importga munosabatini izohlang.

Usulning boshqa usullarga o'xshab o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Savollarga javob berish uchun berilgan topshiriqlar, axborotlarni tartibga solish, tahlil qila olishga yo'llashi kerak. Mantiqiy masalalarni yechish ulardan foydalanish ko'nikmasini talab qiladi. Bu iqtisodiy fikrlashning yuqori darajasidir. Ularni obyektiv testga nisbatan tuzish oson. Uni qo'llashning qiyinchiliklari, javoblarni baholashning qiyinligidir. Shunga qaramay, bilish jarayonini tahlil qilish va baholash uchun essedan zarur axborot olish mumkin.

Essening afzalliklari va kamchiliklari

Esse ko'proq fikrlash, bilim mazmunining yuqori bosqichiga xos. U talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Uni tuzish nisbatan oson hamda talabalar tomonidan tavakkal javoblar tanlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Asosiy kamchiligi: a) baholash qiyin; b) ularni o'qish, tahlil qilish, baholash uchun ko'p vaqt kerak.

Testlar ko'p savolni qamrasa, esseda bir necha savol qo'yiladi. Sababi, ularga javob yozish ko'p vaqt talab qiladi.

Talabalar bilimini sinash doirasi kengayadi. Esse savollarini har bir talaba uchun alohida berish maqsadga muvofiq. Esse natijasi muhokama qilinayotganda original fikr bildirgan talabalarga qo'shimcha ball qo'yish kerak.

Esseni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash mezonlari	Maksimal ball
1. Mazmunning mavzuga muvofiqligi	2
2. Muammoni ko'ra bilishi	2
3. O'z nuqtayi nazarini ko'rsata olishi	2
4. Fikrini dalillar bilan asoslab berishi	2
5. Muammoga o'z munosabatini bayon qilish mahorati	2
Jami	10

Ana shu mezon asosida yozilgan esselarni baholagach, dars jarayonidagi reyting ballarga muvofiqlashtiramiz.

Xulosa

- Masala yechish metodi — berilgan ma'lumotlar, raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida hisob-kitob qilish orqali noma'lum natijani topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o'rgatadigan metod.

- Iqtisodiy fanlarni, ayniqsa, mutaxassislik fanlarini o'rganishda masala mashqlardan foydalanish muhim va asosiy o'rin tutadi. Masala yechish faqat topshiriqni hisob-kitob qilish emas, balki chuqur fikr yuritishni ham taqozo etadi. Masalalar amaliy yo'nalishga ega bo'lgani uchun fanni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

- Mashq deganda odatda kishi o'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida harakatlarni og'zaki va yozma ravishda takror amalga oshirishini tushunamiz.

Mashqlardan foydalanish metodi esa fanni o'rganish, malaka, ko'nikmalar hosil qilish uchun tayyorgarlik ko'rish, takrorlash va sinab ko'rishga qaratilgan metoddir.

- Ma'ruza darsida foydalaniladigan masala mashqlari qisqa vaqtda yechiladigan va o'rganilayotgan mavzuning tushinishga yordam beradi, murakkab hisob-kitoblarni talab qilmaydigan bo'lishi lozim.

Amaliy darslarda masala mashq yechish imkoni katta murakab, hisob-kitoblarni talab etadigan masalalarni uyga vazifa qilib berish mumkin.

- Test metodi ko'zlangan maqsadga ko'ra, savol qo'yib, unga bir-biriga yaqin bir necha, lekin to'g'risi bitta bo'lgan javoblar mujassamlangan topshiriq, mashqni bajarish orqali fanni, mavzuni o'rganishga, o'quvchi-talabalar bilimini sinashga qaratilgan metod bo'lib uni barcha fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin.

- Esse yozish metodi muallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko'rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo'naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o'rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo'llaniladigan metod bo'lib, bu metoda savollarni to'g'ri tanlay bilish nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Nazariy va amaliy darslarda qo'llaniladigan masala-mashqlar, masala-mashq yechish, masala-mashqni qo'llash qoidalari, masala yechish qoidalari, masala, mashq turlari, test, obyektiv testlar, javobni muhokama qilish, esse, esse savollari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala, mashq yechish nima sababdan asosiy o'rinda turadi?

2. Ma'lum bir kategoriya, tushunchaning asosiy mazmunini bilishga qaratilgan masalalar, qanday masalalar?

3. Qanday masalalar ma'lum bir tushuncha asosida hisob-kitob qilish, undan xulosa chiqarishga qaratilgan?

4. Qaysi iqtisodiy fanlarda masalani yechish uchun mazkur kategoriya haqida umumiy tushuncha bo'lishi kerak?

5. Iqtisodiy fanlarda o'rganiladigan mashqlarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

6. Testlar haqida nimalar deya olasiz? Ularning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor?

7. Test tuzish qoidalarini o'rgandingizmi? O'zingiz talab darajasida test tuza olasizmi?

8. Esse nima, esse uchun savollar tuzishda qanday qoidalarga amal qilish kerak?

9. Esse yozishning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor?

XII bob. «AQLIY HUJUM» VA «SASE STUDY(KEYS)» METODI ASOSIDA DARS O'TISH

Bozor iqtisodiyotiga noaniqlik, o'zgaruvchanlik xos. U turli vaziyatlarni tezda baholash, taqqoslash va qaror qabul qilishni talab qiladi. Demak, o'quvchi-talabalarda ana shunday ko'nikma hosil qilish zarur. Bu jihatdan dars o'tish metodlari orasida «aqliy hujum» va keys metodining oldiga tushadigani yo'q. Navbatdagi bob ana shu metodlarni qo'llashni o'rganishga bag'ishlangan.


1-§. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda «aqliy hujum» metodini qo'llash va uning boshqa uslublardan farqi

«Aqliy hujum» uslubida qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi («Aqliy hujum» breynstorming — ing. — brain-miya, storming-hujum, bo'ron, qat-tiq hayajon). U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qat-nashishlarini, turli g'oyalarni topish va bayon qilish chog'ida bosh-qalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir. Bu metodni qo'llaganda, qo'yilgan g'oya, savol barchani o'ziga jalb qiladi.

Bu metodda ma'lum muammo bo'yicha har bir talabanning fikr-mulohazasi tinglanib, ular asosida ma'lum bir yechim tanlanadi. Uslub bo'yicha dars o'tishni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.

Bu metod asosida savol muhokamasini ikki, uch xil usulda o'tkazish mumkin. Har bir usul ikki yoki uch bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi usul. Darsning birinchi bosqichida guruh ikkiga ajratiladi. Talabalar qo'yilgan muammo yoki savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini navbatma-navbat qisqacha bayon qiladi. Bunda har bir talaba masalaga o'z nuqtayi nazaridan yondashishga harakat qilishi kerak.



Ikkinchi bosqichda bitta guruhning talabalari ikkinchi guruh vakilining bildirgan fikriga o'z munosabatlarini bildirishadi, ya'ni opponentlik qilishadi. Ikkinchi guruh bildirilgan barcha fikrlarni to'playdi.

Uchinchi bosqichda bildirilgan fikrlar saralanadi va maqbul, samarali yechim tanlanadi. Har ikki guruhning natijasi to'g'ri deb topilgan javoblar asosida taqqoslanadi va ball beriladi.

Dars o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Muammo, muhokama qilinadigan masala yoki munozarali savol aniq, hammaga tushunarli bo'lishi zarur. Iloji bo'lsa, uni doskaga yoki vatman qog'ozga yozib qo'yish kerak.

2. O'qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» yoki «Aqliy shturm» asosida dars o'tkazishning tartibini tushuntirib berishi kerak. Bunda:

a) har bir talaba o'z fikri, g'oyasini aniq, qisqa ifodalashi zarurligi, buning uchun 20–30 soniya vaqt berilishi;

b) boshqalar bildirgan fikr, g'oya, tavsiya, takliflarni takrorlamaslik;

d) birinchi bosqichda munozaraga kirishmaslik, faqat qo'yilgan muammoga nisbatan o'z fikrini aytish;

e) birinchi bosqichda auditoriyada bildirilgan fikr asoslab berilmaydi, tanqid qilinmaydi;

f) fikr bildirilayotgan paytda so'zlovchining gapi bo'linmaydi;

g) bildirilayotgan fikr, g'oya muhimligi jihatidan bir-biriga nisbatan teng deb olinadi.

Sababi, birinchidan, iloji boricha ko'proq fikr, g'oya, taklif, tavsiyalarni to'plash. Ikkinchidan, hammani o'z fikrini ochiq bildirishni ta'minlash. Uchinchidan, vaqtni tejash.

O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni shunday qo'lga olishi, darsni tashkil qilishi kerakki, har bir talaba mavzuga daxldor darajada fikr aytishi zarur.

Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikrlar, g'oyalar, takliflar saralanib, guruhlariga ajratilib, muhokama qilinadi. Tahlil asosida ular ichidan eng maqbul, samarali yechim tanlanadi.

Ikkinchi usul. Birinchi bosqichda qo'yilgan muammo, masala bo'yicha har bir talaba o'z fikrini bildiradi. U qisqa, tushunarli bo'lishi kerak. Talabalar bildirgan fikrni o'qituvchi yoki talaba yozib borishi, yoki 2–3 daqiqa vaqt belgilanib, har bir talaba o'z fikrini yozib berishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalar saralanadi. Birgalikda muhokama qilinadi. Yechim tanlanib, qaror qabul qilinadi. Talabalarning ishtiroki va bildirgan fikrining originalligi, to'g'riligi va boshqa jihatlariga ko'ra ball beriladi.

Masalan, «Agrar munosabatlar» mavzusini o'tayotganda agrar sektorning muammolarini muhokamasi shu usul bo'yicha o'tish mumkin. Bular respublikamiz uchun eng dolzarb muammolardandir. Chunki, YaIMni 26 foizi, valuta tushumining salmoqli agrar sektorga to'g'ri keladi. Aholining 40 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band bo'lib, 65 foizi qishloqlarda yashaydi.

Dars mavzusi; **Agrar sektorning uzoq muddatli muammolarini qanday yechish mumkin?**

Bu muammoli savolni muhokama qilish uchun avvalo talabalarning diqqatini agrar sektordagi uzoq va qisqa muddatli muammolarning farqini ajratishga qaratishimiz zarur.

Qisqa muddatli muammolar:

1. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning noelastikligi.
2. Qishloq xo'jaligida tabiiy va boshqa omillar ta'sirida ishlab chiqarish hajmining o'zgarib turishi.
3. Turli omillarning ta'sirida talabning tebranishi tufayli kelib chiqadi. Natijada agrar sektorning asosiy muammosi tarmoqda baho va daromadlarning beqarorligini keltirib chiqaradi.

Agrar sektorning uzoq muddatli muammolari:

1. Fan-texnika taraqqiyoti bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga taklif ko'payadi. Band bo'lganlar soni qisqaradi.
2. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab nisbatan sekin o'sadi.

3. Agrar sektorda band bo'lganlar daromadi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan kam.

4. Baho pariteti sanoat foydasiga o'rnatiladi.

Bular agrar sektorni qisqaruvchi tarmoq sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi. Bu masala bo'yicha juda ko'p fikrlar, tavsiyalar, takliflar bildiriladi. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

A) Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish.

B) Agrar sektorda band bo'lganlarni boshqa sektorlarga ko'chirish.

D) Davlat tomonidan agrar sektorni qo'llab-quvvatlash.

Qaror qabul qilishda ularning qaysi biri asosiy o'ringa qo'yish kerakligini aniqlaymiz. So'ngra, har bir guruhdagi eng maqbulini ajratamiz. Muammoli savolni muhokamasida qatnashishlariga ko'ra talabalar faoliyati baholanadi.

Metodning o'ziga xos yana bir usuli mavzu qo'yilgan muammoni o'rganishda tahliliy, ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechishdir.

Tahliliy - ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish usuli.

O'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha fikrlashni talab qiladigan, muvofiq ravishda tavsiyalar ishlab chiqishini o'rganish zarur bo'lgan savol yoki muammoni doskaga yozadi.

Muhokama jarayonida bildirgan fikrlar ham yozib boriladi. Aytaylik, biz xarajatlarni o'rganayapmiz. Asosiy maqsad xarajatlarni kamaytirish orqali mahsulot ishlab chiqarib, sotishdan yuqori foyda olishni ta'minlash. Demak, xarajatlarni kamaytirish omillarini aniqlashimiz, ularning ta'siri katta yoki aksinchaligini aniqlashimiz kerak. Buni guruhda muhokama qilish uchun doskaga:

«Sarf-xarajatlar miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar» deb yozib qo'yamiz.

Guruhda 20 ta talaba bo'lsin. Har bir talaba navbat bilan o'z fikrini aytadi va biri ikkinchisini takrorlamasligi kerak. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi.

Sanab o'tilgan omillardan 5 tasini ajratib ko'rsating, deya auditoriyaga murojaat qilamiz. Javoblarni individual yoki kichik guruhlar miqyosida umumlashtiriladi. Misolimizda, aytaylik, bosh menejer va menejerlarning malakasi va mahorati, texnika va texnologiya darajasi, mehnat unumdorligi, xomashyo narxi, mahsulot sifati ko'rsatildi. Talabalar nima sababdan aynan u yoki bu omilni birinchi, ikkinchi va hokazo o'rinlarga qo'yganlari sababini asoslab berishadi.

Ishni boshqacha tashkil qilsa ham bo'ladi. Bunda mavzu yoki

qo'yilgan asosiy savolning o'zini ifodalaydigan bir necha savollar tayyorlab, uni kichik guruhlariga bo'lib beriladi. Har bir kichik guruh o'z savoli bo'yicha alohida «aqliy hujum» o'tkazadi va natijani butun guruh oldida taqdimot qiladi. O'qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va har bir guruhda aqliy hujum qanday bo'rayotganini kuzatib, bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib turadi.

Aqliy hujumning bunday usuli qisqa vaqt davomida bir savolni turli jihatdan ko'rib chiqish imkonini beradi.

Javoblar baholanganda bildirilgan eng yaxshi fikrni talabalarining o'zlari ajratib, 1–3 o'rin berishni taklif qiladi. Talabalarni taqqoslash va baholashga jalb etamiz.

Aqliy hujum metodini o'ziga xos modifikatsiyasi «fikrlar hujumi» metodi bo'lib, bu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. Uni katta guruhlarda (20 tadan 60 tagacha talaba bo'lgan) qo'llash mumkin. Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'lindi. Har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda fikrlar hujumi o'tkaziladi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar. O'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib, unga baho beriladi va eng yaxshilari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» esa Ye. A. Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan. G. Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib, dars jarayonida qo'llash yo'lga qo'yilgan. «Fikrlarning shiddatli hujumi»-destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bunda jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari bildirilgan fikrga, dialog tarzida zid g'oyalar qo'yilishi bilan yanada kengaytiriladi, faollashtiriladi.

2-§. Dars jarayonida «sase study method»ni qo'llash

Bozor iqtisodiyoti har turli vaziyatda to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi. AQShning XX asr boshlaridagi eng badavlat odamlaridan biri Rokfeller, bizni qanday hayot kechirishimiz qabul qiladigan qarorimizga bog'liq degan ekan.

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi – Sase study method(sase-aniq vaziyat, hodisa, study-o'qitish) – «keys» katta imkoniyatlarga ega.

Taniqli olim G Spenserning «Ta'limning buyuk maqsadi bilim

berish emas, balki xatti-harakatlarga o'rgatishdir» degan fikri aynan ana shu metodda to'laroq amalga oshadi. **Keys – ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir.** Jahon pedagogikasida keng miqyosda samarali qo'llanilayotgan keyslardan foydalanish o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgan. Garvard (AQSh) universitetida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar iqtisodiyotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni ifodalagan 2,5 ming keysga javob topgach, diplom olish huquqiga ega bo'lishi, rivojlangan mamlakatlarda o'kua rejalarida keyslar 20%ni tashkil etishi ham ularni iqtisodiyotni o'rganishda naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Keyslar turli-tuman bo'lib, muammoni qamrab olish miqyosiga ko'ra: makro, mikro, mini va umumiy keyslarga, maqsad-mazmuniga ko'ra: strategik va taktik keyslar, muammoli vaziyatning yuz bergan, bermaganiga ko'ra: real voqyelikka asoslangan, voqyelik imitatsiya qilingan va boshqa turdagi keyslarga bo'linadi.

Bu metodning boshqalaridan farqi shuki, talaba muammoli vaziyatni o'rganib, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, undan qanday chiqib ketishni o'rganadi. Bu metod talabalardan atroflicha bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki, qaror qabul qilish nafaqat iqtisodiyot, balki faoliyatni tashkil etish, ish yuritish, axborot va ular bilan ishlash, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlardan ham bilimdonlikni talab qiladi.

- Keys talabalarga real voqelikdan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, amaliyotda aniq vaziyatga tashxis qo'yish g'oyalarni shakllantirish, gipotezalar ishlab chiqish, muammolarni ajratish, qo'shimcha qanday axborotlar to'plash zarurligini tezda ilg'ash, muammoni yechish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishni o'rgatadi.

- Keys talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish uni yechish, identifikatsiya qilish bo'yicha erkin yo'llarini tanlash imkonini beradi.

- Keys talabalarga uni muhokama qilish jarayonida o'zaro muloqotda bo'lish, boshqalarni fikrini eshitish va unga o'z munosabatini bildirishni o'rgatadi.

- Keys nazariy bilimlarni, ko'nikma va mahoratlarini amalda qo'llashga o'rgatadi. Bu metodning yana bir muhim tomoni shundaki, u nazariyani amaliyot bilan bog'laydi. Shuning uchun ham ko'pchilik pedagoglar keysga ishlab chiqarishda yuz beradigan aniq muammoli vaziyatning tafsiloti sifatida qarashadi. Keyslar mazmuni, qamroviga ko'ra: mikrokeys, minikeys, umumiy keyslarga,

qo'yilgan maqsadga ko'ra taktik, strategik keyslar va boshqa turlarga bo'linadi.

Aniq muammoli vaziyatlar metodidan foydalanishning asosiy maqsadi talabalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashdir. U har bir talabaga amaliy va kasbiy ta'lim berilishini ta'minlaydi.

Metodni qo'llashda maqsadni aniqlash va muammoni qo'yishga alohida e'tibor berish kerak. Qo'yilgan muammo aniq, barchaga tushunarli bo'lishi zarur. Muammoni o'rganish, yechish bosqichlariga ko'ra, maqsadlar belgilanadi. Bular:

1. Muammo bilan tanishish.
2. Zarur axborot yig'ish, ular asosida mavjud vaziyat, holatni aniqlash.
3. Olingan bilimni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganish.
4. Olingan natijalarni o'rganish, tahlil qilish asosida qaror qabul qilish.

Ma'ruzaga nisbatan keys metodi bo'yicha dars berishning afzal tomonlarini ko'rsatish mumkin.

Keys metodi asosida dars o'tishning farqlovchi xususiyatlari

Farqlovchi ko'rsatkichlar	O'qitish metodlari	
	An'anaviy metodlar asosida o'qilgan ma'ruza,	Muammoli vaziyat — keys metodi
Maqsad	Bilim berish	* fikrlash; * muammoni hal etish ko'nikmalarini hosil qilish; * kashfiyotlarga intilish, hamkorlikka tayyor bo'lish sifatlarini rag'batlantirish
O'qituvchining vazifasi	O'z fanining mazmunini bilish	O'z fani mazmunini bilish; muhokama jarayonini boshqara bilish;
O'qituvchi — talaba munosabatlari	O'qituvchining o'quvchi, talaba ustidan hukmronligi. Ierarxiya, huquqlarning teng emasligi	shiriklik va hamkorlik

Talabalarning o'z-o'zini va bir-birini o'qitish jarayonida ishtiroki;	Sust	Faol talabalar o'qituvchining vazifasi hisoblanuvchi muhokama rejasini tuzish, asosiy maqsadni aniqlash, mustaqil muhokama qilishga qodir bo'ladilar
Mas'uliyat	Mas'uliyat to'la ma'ruzachining zimmasida	Mas'uliyat ko'proq tinglovchi, talaba, o'quvchi zimmasida
Tadqiqot ko'lamini	Fan doirasida	Fan doirasini har bir talabani intellekti, intilishi bilan bog'liq holda keng qamrab olish imkoniyati mavjud

Aniq muammoli vaziyatni vujudga keltirib, uni tahlil qilish asosida qanday qaror chiqariladi?

Bu savolga yagona to'g'ri javob yo'q. Chunki, muammoga har bir kishi o'zicha yondashadi. Lekin ba'zi bir tavsiyalarni berish mumkin.

1. Vaziyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun eng avvalo, axborot to'planib, ularni sinchiklab o'rganib chiqiladi. Axborotni o'rganish jarayonida uni tahlil qilishga urinmaslik kerak.

2. Yig'ilgan axborotni qayta ko'zdan kechirib, muhim ahamiyatga ega deb topganlaringizni alohida ajrating.

3. Vaziyatni tavsiflashga harakat qiling. Uning mohiyati nimada? Asosiy muammo nima? Qaysi biri ikkinchi darajali, aniqlang. Asosiy muammo va undan kelib chiqqan qanday muammolar borligini yozib qo'ying.

4. Hamma dalillar, faktlarni hisobga oling. Shunday qilinsa, axborotlar, ma'lumotlar bog'liqligini aniqlash oson bo'ladi.

5. Tavsiya etilgan yechimlarni to'g'riligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqing.

6. Muqobil variantlarni topishga harakat qiling. Ulardan qaysi biri mezonlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ko'proq to'g'ri keladi, tanlang.

7. Amaliy tadbirlar ro'yxatini ishlab chiqing. Ko'pincha, qabul qilingan qaror asosida erishilgan natijalar zarur. Amaliy chora-tadbirlar ko'rilmagani tufayli muvaffaqiyatga olib kelmaydi.

Bu usulda ma'lum muammo bo'yicha har bir talabanning o'z fikr-mulohazasi tinglanib ma'lum bir yechim tanlanadi. Vaziyatni ifodalovchi masalalar real axborot asosida tayyorlanadi. Mavjud faktlar bir qadar o'zgartirilishi yoki nomi boshqacha atalishi mumkin. Odatda, mavjud muammoli vaziyat qisqacha ta'riflanadi. Qo'shimcha axborotlar esa keng muhokama qilish oson bo'lishini zarurligini hisobga olgan holda beriladi.

Real hayotda o'zi duch kelgandagi vaziyatga qaraganda o'qish jarayonidagi yaratilgan muammoli vaziyat, ya'ni ana shunday vaziyat ifodalangan topshiriqda berilgan muammolar bo'yicha axborotlar kam bo'lishi mumkin. Lekin bu muhokama jarayonida qo'shimcha axborotlar olib bo'lmaydi degani emas. Qaror qabul qilish uchun axborot yetarli bo'lmasa, uni to'ldirish mumkin.

Undan tashqari shunday muammoli vaziyatdan avval qanday qilib chiqib ketilgani, qanday chora-tadbir ko'rilganini aytib, uni ham muhokama qilish mumkin. Lekin bu degani, yana aynan ana shu yechim qabul qilinadi degani emas. Undan tashqari u yechim yaxshi yoki yomon ekanligini albatta, muhokama qilish shart emas.

Eng asosiy muhokama qilinadigan savollar bu «nima? nima sababdan? qanday? va hokazolarni muhokama qilishdir.

Vaziyatni baholab, unga har bir o'quvchi-talaba o'zi mustaqil ravishda munozorada qatnashib, o'zi yechimini topib qaror qabul qilishi lozim.

Lekin doimo yodda tutish kerakki, real hayotda qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlar, dalillar, raqamlarni unchalik ahamiyatga ega bo'lmaganlaridan ajratish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti ham ularga vaziyatni o'rganish asosida qaror qabul qilishga o'rgata olmaydi. Aynan mana shu metod bu borada katta yordam beradi. Bu usulda ma'lum muammo bo'yicha har bir talabanning o'z fikr-mulohazasi tinglanib ma'lum bir yechim tanlanadi. Uslub bo'yicha dars o'tishni mantiqiy izchillikda yuqoridagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.

Keys «sase study method»ni qo'llash.

Metodni qo'llab dars o'tish uchun o'qituvchi quyidagicha muammoli vaziyatni ifodalagan topshiriqlar tayyorlashi lozim.

Tarqatma materiallar:

1-topshiriq

Kichik korxonada kostyum shim tikib sotishni yo'lga qo'ydi.

Kostyum shimni materialini 30% jun va qolgan 70% sun'iy toladan iborat bo'lib, rangi qora, tezda g'ijim bo'lmaydi. Uni shu yilgi moda bo'yicha tikilgan.

Kostyum shimni sentabr oyidan bozorda sotish boshlandi. Sentabr oyidan fevral oyiga qadar sotish hajmi va foyda narxni o'zgarishiga ko'ra quyidagicha bo'ldi:

	Sentabr 2007-y.	Oktabr 2007-y.	Noyabr 2007-y.	Dekabr 2007-y.	Yanvar 2007-y.	Fevral 2007-y.
Kostyum shim o'rtacha narxi, so'm	60.000	70.000	75.000	60.000	55.000	52.000
Sotish hajmi, dona	500	500	600	600	500	300
Olingan foyda, ming so'm	500	1000	1500	600	250	60

Berilganlar asosida

A) talab elastikligini hisoblang.

B) talab elastikligi va foydani o'zgarishiga qarab xulosa chiqaring va qaror qabul qiling.

Qaror qabul qilish uchun siz yana qanday ma'lumotlar yiqqan bo'lar edingiz?

2-topshiriq

Kichik korxonada ayollar ko'ylagi tikiladi. Tayyor mahsulotda ish haqining ulushi 30%. Kichik korxonada 10 ta tikuvchi ishlaydi. Oylik, sotish hajmi va foyda quyidagicha:

Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Sotish hajmi, mln.so'm	1,5	1,2	1,4	1,5	1,51	1,49	1,48	1,45	1,4	1,3
Olingan foyda, mln.so'm	0,3	0,15	0,2	0,12	0,12	0,12	0,12	0,11	0,10	0,095

Korxonaga egasi tayyorlanayotgan ko'ylaklar uchun olinayotgan materiallarning narxi ortib borayotgani, lekin tayyor

ko'ylaklarning narxini oshirish, xaridorni yo'qotishga olib kelishini hisobga olib, noyabr oyidan boshlab ish haqini umumiy xarajatlardagi ulushini 20 foizga tushirishini e'lon qildi? Siz qanday qaror qabul qilasiz? Qaroringizni asoslang. Qaror qabul qilish uchun yana qanday ma'lumotlar to'plagan bo'lar edingiz?

Mikrokeysga misol bo'laoladigan quyidagi muammoli vaziyatga diqqat qiling: Malikaning oldida, yaqin kelajagida ikkita muqobil yo'l, boshqacha qilib aytganda, loyiha turibdi. Birinchi yo'l, to'rt yil davomida bankda oddiy xizmatchi bo'lib ishlab, yiliga 2160 ming so'm daromad topish.

Ikkinchisi — bir yil «Bank-moliya akademiyasi»da o'qib, malakani oshirish. Malaka oshirish uchun 2 mln. so'm to'lanadi. Akademiyani tugatgach, unga uch yil mobaynida tijorat bankida marketing bo'limi boshlig'i o'rnini va'da qilishyapti. Bu uch yil davomida uning maoshi har yili 100 ming so'mdan ortiq bo'lishi mumkin.

Malika qaysi yo'lni tanlagani ma'qul? Siz qanday qaror qabul qilgan bo'lar edingiz? Tanlagan yo'lingizni to'g'riligni qanday asoslab bergan bo'lar edingiz?

Talabalar javob berayotganda o'qituvchi bu muammoni yechishda inson kapitaliga investitsiya nuqtayi nazaridan yondashib, hisob-kitob qilish va uning asosida qaror qabul qilinishiga e'tibor berishi kerak.

Topshiriq individual yoki kichik guruhlarga mo'ljallab tayyorlanishi mumkin. Shunga ko'ra muhokama jarayonida har bir talaba yoki kichik guruh zarur hisob-kitoblarni bajaradi, o'z fikrini aytadi, bildirilgan fikrlar juda xilma-xil yoki o'xshash bo'lishi mumkin. O'qituvchi ularga yakun yasab, qaysilari alohida diqqatga sazovor ekanini ajratib ko'rsatadi. Munozaraga yakun yasaydi.

3-§. Metodlarning afzalliklari va kamchiliklari

Hozirgi kunda ko'rinib turibdiki, har qachongidan ham yoshlarni murakkab masalalarni yechishni bilishlari va axborotlarni tahlil qilish asosida, chuqur o'ylab qaror qabul qilishni o'rganishlarini hayotning o'zi taqozo qiladi.

Tanqidiy va tahlil qilib fikr yuritish, ma'lum bir savol bo'yicha o'z fikriga ega bo'lishi va uni mantiqiy mushohada qilish asosida himoya qilishni o'rganishni talab qiladi.

Tahliliy fikr yuritish orqali inson u yoki bu g'oyalari bilan tanishish ekan, uni amalga oshirilishi qanday oqibatlarga olib kelishini his qilishga o'rganadi. Buning natijasida bilish an'anaviy jarayon sifatida individuallikni ruyobga chiqaradi va chuqur mushohoda yuritish, uzluksiz va mahsuldor bo'lishi ta'minlanadi.

Tanqidiy hamda tahliliy fikr yuritish esa ma'lum bir o'quv jarayoni muhitida shakllantiriladi.

Tahliliy fikrlash o'quvchi-talabalarda vaziyatni baholash, asoslangan qaror qabul qilishni, shaxs sifatida kamol topish uchun sharoit yaratadi.

Boshqa metodlar kabi «Aqliy hujum» va «sase study method»ning ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. «Aqliy hujum», sase study (keys stadi) metodini qo'llash:

- tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va obyektiv bo'lishga o'rgatadi, obyektiv baho berishga intilish kuchayadi.

- axborotlarni ichidan eng zarurlarini tanlab olishga, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi;

- turli axborotlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ko'ra bilish malakasini hosil qilishga yordam beradi;

- boshqalarni fikriga diqqat qilish, boshqalar bilan fikr almashishni o'rgatadi;

- savol berish va boshqalar bilan samimiy bo'lishga o'rgatadi;

- intuitiv ravishda his qilishni rivojlantiradi;

- mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- talabalarni o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Shu bilan birga sase study (keys stadi) metodi o'zining amaliyot bilan boshqa metodlarga nisbatan yaqinligi tufayli:

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash tajribasini o'rgatadi;

- talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtayi nazaridan muammo yechimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi;

- vaziyatga bog'liq ravishda muqobil yondashuvlarni tadqiq qilish uni o'zicha tahlil qilish, muammoni ko'ra bilish tajribasini o'rgatadi;

- boshqarishni, o'z fikrini qat'iy himoya qilishni, boshqalar oldida o'z fikri, xulosa va dalillarini asoslashga o'rganadi. Boshqaruvda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshi tushunishga imkon beradi;

- turli yechimlar qabul qilish va qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib bilishni o'rgatadi;

— muammoni amaliy yechish ko‘nikmasini shakllantiradi va rivojlantiradi, muammoli vaziyatdan chiqishni o‘rganishga ko‘maklashadi;

— muammoning yagona yechimi yo‘qligi va uning boshqa muqobil variantlari borligini o‘rgatib boradi;

— nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni namoyish qiladi;

— ko‘plab yechimlar topish va ulardan to‘g‘risini tanlash imkonini beradi.

Aqliy hujum, keys stadi metodi o‘quvchi talabalarni darsda faol qatnashishlari va olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkonini berishi bilan birga bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llash mumkin. Bu jihatdan keys metodining imkoniyatlari keng, uni turli tarzda qo‘llash mumkin. Ayniqsa, modellashtiruvchi o‘yin tarzida o‘tkazish imkoniyati katta hamda kutilgan natijaga erishish imkoni yuqori. Shuning uchun bu metodni ko‘pincha, taqlid qilish, imitatsiya metodi sifatida ham ko‘riladi.

Kamchiliklari:

1. Metodni qo‘llash ko‘p vaqt talab qiladi.

2. Katta guruhlarda qo‘llash qiyin.

3. Tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi tufayli barcha o‘quvchi-talabalarning o‘rganish darajasida farq katta bo‘lishi, ayniqsa, bilim darajasi turlicha bo‘lgan guruhlarda bu farqni yanada ortishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘rinib turibdi, metodning afzalliklari ustun, lekin Keys metodidan dars jarayonida hozircha kam foydalaniladi. Bunga sabab:

- konservatizm, yangi o‘qitish metodlariga shubha bilan qarash;

- keyslar ishlab chiqish va keys metodi asosida dars o‘tish uchun maxsus metodik adabiyotlar yo‘qligi;

- keyslar ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qiladi va hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi;

- real voqelik asosiga qurilgan keyslar ishlab chiqish uchun zarur ma‘lumotlar topish qiyinligi;

- o‘qituvchilarda shu metod asosida dars o‘tish uchun tajriba yetishmaydi.

Shuning uchun o‘rganilayotgan fandagi qaysi mavzularni keys stadi metodini qo‘llab dars o‘tish samaraliroq ekanini aniqlab

chiqish va qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib keyslar tayyorlash kerak.

Keyslarni javobini o'qituvchilarning o'zi oldindan tayyorlashi, ular asosida muhokomani qanday o'tkazishni loyihalashtirishi lozim. Sababi vaziyatni yechimini topishdagi turli fikrlarni taqqoslash eng qiziqarli jarayon bo'lib, aynan ana shu jarayonda har bir talaba vaziyatga baho berishni o'rganadi.

O'qituvchilarni keys metodini qanday tarzda qo'llashlariga bag'ishlangan seminar - treninglar o'tkazish bu metodni targ'ib qilish va qo'llashda yaxshi natijalar berishi mumkin.

Xulosa

Aqliy hujum metodi — qo'yilgan muammo, masala, savolga nisbatan barcha o'quvchi-talabalarning o'z fikrini bildirishini ta'minlash asosida ularni darsga faol qatnashish, o'z nuqtayi nazaridan yondashishga yo'naltirish, bildirilgan fikrlarni saralashga o'rgatuvchi metod.

Bu metodning turli modifikatsiyalari mavjud bo'lib, guruhdagi barcha o'quvchi-talabalarning bildirgan fikrlari, takiflari, g'oyalari saralanadi va eng samaralilari tanlanadi.

Keys stadi metodi «sase study method» - o'quvchi-talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi. U talabalarni muammoli vaziyatdan chiqib ketishga o'rgatadi.

O'qituvchi shunday muammolarni tanlashi lozimki, u barchaga tushunarli bo'lsin. Vaziyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun axborot to'plash va undan foydalanish, axborotni qayta ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

Bu metodlarning o'ziga xos kamchiliklari bo'lishiga qaramay, iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash imkoniyatlari katta.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

«Aqliy hujum» metodi, «fikrlar hujumi» usuli, «fikrlarning shiddatli hujumi» usuli, «sase study method», fikr, g'oya to'plash, g'oya, takliflarni saralash, tahliliy-ijodiy vazifalarni birgalikda bajarish, muammoli vaziyat, tavakkal qilish, muammoni o'rganish, qaror qabul qilish.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Dars o'tish metodlari orasida, «aqliy hujum» metodining tutgan o'rnini qanday?

2. Metodni qo'llashning asosiy bosqichlarini aytib bering

3. Siz shu metod asosida dars o'tganingizda nimalarga e'tibor qaratgan bo'lar edingiz?

4. «Sase study method» ning sizga qaysi jihatlari yoqadi?

5. Iqtisodiy fanlardan dars o'tganda «sase stady method»ni qo'llashning imkoni ham, ahamiyati ham katta degan fikr to'g'rimi?

6. Metodlarning asosiy afzalliklarini ko'rsatib bera olasizmi?

7. Metodlarning ko'rsatilgan kamchiliklariga qo'shilasizmi?

Ulardan boshqa kamchiliklarni ko'rsata olasizmi?

XIII bob. LOYIHALASH METODI

Resurslarni cheklanganligi har bir resursdan, jumladan, inson uchun eng cheklangan resurs vaqtdan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Demak, har faoliyatimizni rejalashtirishimizni talab qiladi. O'quvchi-talabalarda bunday ko'nikmani loyihalashtirish metodi yordamida hosil qilish mumkin. Navbatdagi bobda ana shu metodni o'rganamiz.

1-§. Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot. *projectus* - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul

qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash;

— turli yechim, takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);

— jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.

Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi:

— iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O'qituvchining vazifasi:

o'quvchi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganadilar.

Shu bilan birga mazkur metodning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni, albatta, hisobga olish zarur.

Birinchidan, bu metodni mavzular, alohida predmetlar bo'yicha qo'llash juda qiyin. Chunki, bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilma-xil. Ularni bir fan doirasida hal qilish qiyin. Ikkinchidan, barcha talabalar ham loyiha tayyorlab, qo'yilgan muammoni yecha olmaydi.

Uchinchidan, bu metod o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o'z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishini talab qiladi.

2-§. Metodning mazmuni va uni amalga oshirish bosqichlari

1. Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash obyektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha talabalarning

o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasini ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oydinlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi.

Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni ham muddatlari bilan ko'rsatiladi.

6. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1-bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2-bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3-bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xomaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talabalar asosida taxlanadi.

4-bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqri'ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning

mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalantirishi kerak. Matnda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5-bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, tugallangan hisoblanadi.

6-bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida jyuri yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi.

Jyuri ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.

Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari:

M E Z O N L A R		Eng yuqori ball
1. Tanlangan muammoning dolzarbligi		5
2. Muammoni o'rganilganlik darajasi		5
3. Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi		5
4. Tanlangan muammoning qisqacha mazmunini yoritilishi		5
5. Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi		5
6. Ko'rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanish		5
7. Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalarini ko'rsatilishi va asoslanishi		5
8. Rasmiylashtirish sifati		5

Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o'rganadilar. Ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri strategiya tanlash, aniq

masala-muammolarni yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi ularning ishini kuzatadi, maslahatlar beradi, qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqa hech qaysi metod o'quvchi-talabalarda bu metodchalik mas'uliyatni his qilishni shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi.

Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlar mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi-talabalar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi.

Ishchi guruhlar ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari tuzgani ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi. 2-va 3-ishchi guruhidan 1-ishchi guruhiga o'tishga imkon beriladi. Kichik guruhlarda har bir o'quvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanish mumkin.

Individual usulning laboratoriya usulidan farqi, talabalar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani hal etishga harakat qiladi. Ushbu usul talabalar bilimini chuqurlashtiradi, mahoratini oshiradi, shuningdek, ularning o'rganish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

Bos-qichlar	Mazmuni	
1-bos-qich, tay-yorgarlik	O'qituvchi talabalarga iqtisodiyotda qanday muammolar bor, o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan muammolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlarni o'zi tayyorlaydi.	Aqliy hujum. Mustaqil ish
	O'quvchi talabalarga loyihalash mazmuni, loyihalash obyekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi.	Bayon qilish
2-bos-qich	O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi.	Ixtiyoriy
	Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan muammoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi.	

3-bos-qich	O'qituvchi loyihani qanday tayyorlashni tushuntiradi. Talabalar faqat loyiha tayyorlaydilar. Uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki uni bir dars jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi).	Bayon qilish
Asosiy qism	Talabalar loyiha tuzishga kirishadilar.	Mustaqil kichik, guruh
	Loyihalar taqdimoti.	
Yakuniy qism	O'qituvchi o'quvchi-talabalarni baholaydi. Xato va kamchiliklarni ko'rsatadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi.	

Bu metodni qo'llash, kurs ishi, diplom ishi, bitiruv malakaviy ishi bajarishda yaqqol namoyon bo'ladi. Buni har bir talaba individual tarzda bajaradi.

3-§. Loyiha tayyorlashning taxminiy namunasi va loyiha tayyorlashni o'rganish

Kasb ta'limi yo'nalishidagi talabalarning kichik guruhlarda o'zlari tanlab olgan mavzulari ustida ishlab, ana shu mavzularda ma'ruza va seminar darslari olib borish loyihalarini tayyorlashlarini kichik guruhlariga bo'lib, loyiha tayyorlash misolida ko'rish mumkin.

Dars o'tishning texnologik xaritasi. biznes reja tuzish ham o'ziga xos loyiha hisoblanadi. Dars o'tishning texnologik xaritasini tayyorlash ham ko'rib o'tgan bosqichlarimiz asosida amalga oshiriladi. Dars o'tishning namunaviy texnologik xaritasini avval ko'rib o'tganimiz sababli bu yerda batafsil to'xtamaymiz (V bob, 4-§ va VI bob, 3-§ga qarang). **Asosiy diqqatimizni mavjud muammolarni o'rganib, ular orasidan fikrimizcha, dolzarb deb topilgan masalani tadqiq qilib, uni yechish uchun takliflar berish maqsad qilib qo'yilgan loyiha ishlab chiqishni o'rganishga qaratamiz.**

Quyida loyiha ishlab chiqishning taxminiy namunasini keltiramiz:

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası»

«Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası» tomonidan talabalar o'rtasida o'tkazilayotgan «Yilning eng yaxshi loyihasi» konkursida qatnashish uchun tayyorlangan loyiha

Mavzu: «Agrar sektor xususiyatlari va muammolari konsepsiyasi»

Loyiha rahbari — BR-70 guruh talabasi: Xolmuhamedova D.

Qatnashuvchilar: BR-70 guruh talabari: Oblomurodov T., Tog'ae'v S., Ahmedov A., BR-71 guruh talabari: Muyinova N., Xudoynazarov S., BR-75 guruh talabari: Sul'tonova Z., Akbarxo'jayeva N., Salimbekova F., BR-76 guruh talabari: Jabborov A., Tongotarov A.

Toshkent—2006

TADQIQOT LOYIHASI

1.1. Loyiha nomi: Agrar sektor xususiyatlari va muammolari konsepsiyasi.

1.2. Konkurs turi: Amaliy tadqiqot.

1.3. Dastur turi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining «2004—2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar», «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yilida qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda agrar sektor xususiyatlari va muammolarini tadqiq etish.

1.4. Ilmiy yo‘nalishi: Iqtisodiyot.

1.5. Ilmiy yo‘nalishning aniq shifri va nomi (ilmiy yo‘nalishlar klassifikatori bo‘yicha): 6F — Bozor iqtisodiyoti, davlat va huquq nazariyasi.

1.6. Tayanch iboralar: Agrar sektor, resurslar, resurslar cheklanganligi, yer, suv resurslari, tabiiy sharoit, hosildorlik, mehnat unumdorligi, renta, dehqon xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, shirkatlar, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi, qisqa muddatli muammolar, uzoq muddatli muammolar.

1.7. Tadqiqotning qisqacha tafsiloti: Annotatsiya.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida agrar sektor alohida muhim o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26—30 foiz atrofida bo‘lib, ishlab chiqarishning asosiy qismini tashkil etadi. Mamlakatimizda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, mavjud resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermer - dehqonlarni qo‘llab-quvvatlash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin qishloq xo‘jaligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan tarmoq bo‘lib, muvofiq ravishda muammolar, yechimini kutayotgan masalalar doimo mavjud. Hozirgi kundagi muhim muammolardan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarning real iqtisodiy ahvoli kompleks ravishda chuqur ilmiy o‘rganilmaganidir. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar almashlab ekishni qanlay tarzda amalga oshirayapti? Fermer, dehqon xo‘jaliklarini resurslar bilan ta‘minlanish darajasi qanday holatda? Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash-chi? Fermer va dehqon xo‘jaliklarini yer maydonining optimal miqdori qanday bo‘lishi kerak? Ularga axborot, konsalting va boshqa xizmatlar ko‘rsatish darajasi qanday? Nima sababdan agrar sektorga yo‘naltirilayotgan ichki va xorijiy investitsiyalar ulushi kamayib borayapti va hokazolar.

Mazkur tadqiqot loyihasi qishloq xo‘jaligini iqtisodiy jihatdan kompleks ravishda chuqur o‘rganish va o‘tkazilgan tadqiqot asosida ilmiy xulosalar chiqarish, takliflar berish, ularga ekspert xulosalarini olish, ilmiy monografiya tayyorlash va chop etishga ruxsat olishni maqsad qilib qo‘yadi.

1.8. Tadqiqotda qatnashuvchilar: Tadqiqotda jami 11 nafar talabalar qatnashadi. Ish jarayonida vujudga kelgan vaziyatga ko'ra tadqiqotda qatnashish istagini bildirgan qo'shimcha talabalarni jalb etish mumkin.

Loyihada qatnashuvchilar:

Loyihada qatnashuvchilarning familiyasi, ismi	Qaysi guruh talabasi	Loyihada bajaradigan vazifasi
1. Xolmuhamedova D.	BR-70 guruh	Loyiha rahbari, agrar sektor xususiyatlari
2. Oblomurodov T.	BR-70 guruh	Qishloq xo'jaligini resurslar bilan ta'minlanishini o'rganish
3. Ahmedov A.	BR-70 guruh	
4. Tog'ayev S.	BR-70 guruh	Qishloq xo'jaligi infrastrukturasini o'rganish
5. Shodmonova I.	BR-71 guruh	
6. Komilov R.	BR-71 guruh	Agrar sektorga investitsiya jalb qilish masalalarini o'rganish
7. Sultonova Z.	BR-75 guruh	
8. Salimbekova F	BR-75 guruh	Yer unumdorligi, yagona soliq, yer maydoni optimal hajmi masalasi
9. Akbarxo'jayeva N.	BR-75 guruh	
10. Jabborov A.	BR-76 guruh	Xarajatlar, mahsulot realizatsiyasi muammolarini o'rganish
11. Tongotarov S.	BR-76 guruh	

1.9. Bajarish muddati: 2009—2011-yillar

1.10. Tadqiqot o'tkazish uchun saflanadigan mablag' 14478400 so'm

(Mablag' nimaga, qancha sarflanishi batafsil beriladi. Moddiy xarajatlar, ish haqi, xizmat safari xarajatlari alohida ko'rsatiladi va asoslanadi).

2. Loyiha ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot

2.1. Loyiha rahbari to'g'risida ma'lumot:

Familiyasi, ismi-sharifi, qisqacha bajargan ishlari, yashash joyi.

2.2. Loyiha ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot:

Har bir ishtirokchining familiyasi, ismi-sharifi, qisqacha bajargan ishlari, yashash joyi va boshqalar.

Bu ma'lumotlar ishtirokchilarning loyihani bajarishga layoqati ko'rsatkichlarini qamrab olgani ma'qul. Chunki, ular asosida hakamlar xulosa chiqaradi.

ISHNING QISQACHA MAZMUNI

3.1. Agrar sektor xususiyatlari va muammolari konsepsiyasi.

3.2. Loyihada yechilishi nazarda tutilgan ilmiy-amaliy muammolar.

Qayd etilgan muammolarning yechimini topish uchun quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot olib borish mo'ljallanadi:

- agrar sektorning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish;
- xo'jalik yuritishning barcha shakllarining afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish;
- agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari, shu sektorda band bo'lganlarning daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganib chiqish;
- mehnat unumdorligi, hosildorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish;
- qishloq xo'jaligida fond bilan qurollanish darajasini o'rganish;
- ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga turli omillar qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish;
- yetishtirilgan hosilning qanday qismi qayta ishlanishini o'rganish;
- narx pariteti va uni xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadiga ta'siri;
- talab va taklif noelastikligini dehqonlar daromadiga ta'siri va boshqalarni o'rganish.

3.3. Loyiha doirasida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan aniq ilmiy-texnik vazifalar va muammolar.

Loyihani amalga oshirishda quyidagi aniq ilmiy-texnik vazifalar bajarilishi nazarda tutiladi:

- qishloq xo'jaligi faoliyatining huquqiy asoslarini, mamlakatimizda yuritilayotgan agrar siyosatini o'rganish;
- agrar sektorda xo'jalik yurituvchi subyektlarga mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yondashib, ularning hozirgi kundagi real imkoniyatlarini aniqlash;
- agrar sektorda real muammolarni o'rganish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida savolnoma asosida so'rov o'tkazish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar, axborotlar to'plash;
- yig'ilgan ma'lumot, axborotlarni qo'yilgan maqsadga ko'ra qayta ishlash;
- tadqiqot jarayonida olingan ma'lumot, axborotlar asosida nazariy- ilmiy xulosalar chiqarish;
- tadqiqot asosida olingan natijalarga ko'ra samarali xo'jalik yuritish uchun tavsiyalar ishlab chiqish;
- tayyorlangan hisobotni ekspert xulosalaridan o'tkazish;
- ilmiy-amaliy izlanishlar natijasi sifatida monografiya tayyorlash va nashr qilish.

3.4. Mazkur loyihada ko'zlangan maqsad oldin ham qo'yilganmi?

Aynan shunday mazmunda bunday masala tadqiq qilinmagan.

3.5. Loyihani amalga oshirish quyidagi natijalarni olish imkonini beradi:

1. Qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi subyektlarning agrar sektorda tutgan o'rnini aniqlash.
 2. Tadqiqot o'tkazilayotgan davrdagi agrar sektordagi real holatni aniqlash.
 3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar oldida turgan mavjud muammolarni aniqlash.
 4. Aniqlangan muammolar bo'yicha ularni bartaraf qilish uchun taklif qilingan tavsiyalar.
 5. Xo'jalikni samarali yuritish uchun takliflar.
- Olingan natijalardan xo'jalik yurituvchi subyektlar, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi foydalanadi.

3.6. Loyihalarni amalga oshirish bosqichlari va muddatlari

Uni loyiha vaqtini bosqichlarga bo'lib yoki ma'lum bir maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ko'zlangan holda, unga ma'lum bir muddat ajratib ko'rsatish mumkin.

Aytaylik, 3 yilga mo'ljallangan loyihaning har bir yilini bir bosqich sifatida belgilab, unda bajariladigan ishlar, erishiladigan natijalar ko'rsatiladi.

3.7. Loyihani amaliyotga joriy qilish natijasida olinadigan samara

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadqiqot natijalari va muqobil variantlar bilan tanishishi zarur qaror qabul qilishlari uchun yordam beradi. Agrar sektorda samarali xo'jalik yuritishni amalga oshirish uchun zarur maslahatlar olish tufayli barqaror daromad yo'llarini izlashga yo'naltiradi. Tavakkalchilik va tadbirkorlik xataridan o'zini himoya qilish, yo'qotishlar, talofotlar yuz berganda to'g'ri qaror qabul qilish va ko'riladigan zararni kamaytirishning to'g'ri yo'llarini topishga o'rganadilar. Oqibatda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

4. Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar va ularning manbalari ko'rsatiladi. Unda har bir bosqich uchun va jami talab qilinadigan mablag'lar ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan summlar asoslangan bo'lishi kerak. Agar manbalari aniq bo'lmasa, faqat sarf-xarajatlar asoslangan ravishda ko'rsatiladi. Tanlov hakamlari va a'zolari ularni realligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Moddiy xarajatlar va mehnat haqi, tadqiqot yuzasidan xizmat safarlari xarajatlari alohida ko'rsatiladi 5-shakl.

Loyiha bo'yicha bir yillik xarajatlar smetasi

Xarajatlar smetasi (ming so'm)							
	Xarajat turlari						Jami
	Mehnatga haq to'lash fondi	Ustama xarajatlari	Safar xarajatlari	Materiallar	Asbob-uskunalar	Boshqa xarajatlari	
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	12200	1258,4	400	200	800	50	14908,4
Hamijrochi tashkilot (agar bor bo'lsa)	-	-	-	-	-	-	-
Jami:	12200	1258,4	400	200	800	50	14908,4

Shtatlar jadvali va ishlovchilarning ish haqi

T/r	Lavozim	Shtat birligi	Ishlovchilar soni	Bir ishlovchining ish haqi (oylik)	Bir ishlovchining yillik ish haqi	Jami
1.	Loyiha rahbari	1	1	100000	1200000	1200000
2.	Mutaxassislar	10	10	91666	1100000	11000000
3.	Jami	11	11		12200000	12200000

(Loyihaning bu qismi-xarajatlar hisoblashni buxgalteriya hisobi va audit darslarida o'rganiladi).

Namunaviy loyihamiz kafedraning ilmiy ishlarida qatnashishni ko'zlagan iqtidorli talabalar uchun mo'ljallangan. Darsda esa nisbatan uning oddiy, sodda varianti o'tilayotgan mavzu yoki shu mavzu bo'yicha mavjud muammolar yuqoridagi jadvalda berilgan tartib asosida tayyorlanadi. Lekin barcha talabalar turli tashkilot, fondlar o'tkazayotgan tanlovlarda qatnashish uchun ilmiy tadqiqot loyihasi tuzishni o'rganishni faqat ijobiy baholash mumkin. Talabalar bu metod yordamida biznes-reja tuzishni o'rganadilar.

Barcha metodlar kabi bu metodning ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Ko'pincha bosqichma-boqich amalga oshirish mo'ljallangan metodlar texnologiya tarzida ham ifodalanadi. Bunday yondashish ham mumkin, bu har bir o'qituvchining qaysi nuqtayi nazardan yondashishiga bog'liq. Tadqiqot metodiga xos afzalliklar, kamchiliklar bu metodga ham xos. Biz uni avval ko'rib chiqqanmiz.

Xulosa

Loyihalash metodi — o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu, muammo, masalani aniqlab, uni yechish uchun kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, qo'yilgan maqsadni va uni bajarish qanday natijaga olib kelishini loyihada aks ettirish hamda uni amalga oshirishni o'rgatadigan metod.

Metodni qo'llash asosida dars o'tganda loyihalash obyektining maqsadini aniqlash, mazmunini ifodalash muhim ahamiyatga ega. Bu metod asosida biznes reja tuzish, texnologik xarita ishlab chiqish, turli loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu metod mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Loyihalash metodi, loyihalash bosqichlari, loyihalash obykti, loyihalash maqsadi, loyihalash vazifasi, namunaviy loyiha, tadqiqot loyihasi, loyiha taqdimoti, loyihani baholash mezonlari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Iqtisod fanlarini o'rganishda loyihalash metodi qanday o'rin tutadi?
2. Sizningcha, bu metodni qanday mavzu yoki savollarni o'rganishda qo'llagan ma'qul?
3. Loyihalash metodining asosiy bosqichlarini aytib bera olasizmi?
4. Boshqa hech qaysi metod o'quvchi, talabalarda bu metodga o'xshab mas'uliyatni his qilishni shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi, degan fikrga qo'shilasizmi?
5. Siz loyiha taqdimotida nimalarga ahamiyat bergan bo'lardingiz? Loyiha uchun berilgan baholash mezonlari sizni qoniqtiradimi, yana nimalarni qo'shish mumkin?
6. Siz o'zingiz qanday muammoni tanlagan bo'lardingiz?
7. Loyihani amalga oshirish uchun zarur mablag' miqdorini hisoblab chiqib, asoslab bera olasizmi?

XIV bob. IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA BOSHQA METODLARNI QO'LLASH

Dars o'tish jarayonida qo'llaniladigan metodlar turli-tuman bo'lib, ularning har biri talabalarni bilim olish, axborot ustida ishlash, fanni o'rganishga yo'naltiradi. Biz avvalgi boblarda o'rgangan metodlarimizga o'xshab dars o'tishda keng qo'llaniladigan tahliliy va ijodiy fikr yuritishga, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadigan qator metodlar borki, ularni mazkur bobda ko'rib chiqamiz.

1-§. O'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni o'rgatuvchi metodlar

Kitob ustida mustaqil ishlash

O'quvchi, talabalarni o'qitishda qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biri kitob ustida ishlashdir. Bu metodning afzalligi shundaki, u kitobxonga o'quv axborotini uning o'ziga xos sur'atda va qulay vaqtda olishini ta'minlaydi. O'quv adabiyotlari bilan ishlash metodlariga xos funksiyalarni barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishlashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki paragraflarni sinchiklab o'qish, berilgan materialni o'rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu metodning qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modifikatsiyalarda qo'llash mumkin.

Kitob ustida ishlash o'quvchi, talaba uchun murakkab va qiyin metod sanaladi. Juda ko'p o'quvchi, talabalar o'qishni bilganlari holda kitob bilan ishlashni yetarli darajada bilmay yoki o'qiganlarining ma'nosiga to'liq yetmagan holda bitiradilar. Bunga sabab nima?

Nima sababdan o'quvchilar ham, talabalar ham o'quv adabiyotlari bilan ishlashni qiyin ko'rishadi?

Bir guruhi metodistlar (Beck va boshqalar, 1993) tadqiqot o'tkazib, buning ikki asosiy sababini aniqlashdi:

Birinchidan, darsliklar, ko'pincha noaniq, mujmal yozilgan bo'ladi, hech bo'lmaganda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan barcha axborotni kamdan-kam holatda qamrab oladi.

Ikkinchidan, kitobxon noaniq yozilgan matnga, tushunmagan so'zga duch kelgach, tipik holatda o'zini passiv tutadi, ya'ni eng osoni kitobni yopib qo'ya qoladi.

Uchinchidan, o'quvchi, talabalar ko'pincha bir adabiyotdan zarur axborotni barchasini olishni ko'zlashadi.

Shuning uchun amerikalik pedagoglar tomonidan o'quvchi, talabalarni kitob ustida ishlashlarini faollashtirish maqsadida «**mual-lifdan so'rang**» metodi ishlab chiqilgan. Bu metodni qo'llab darsni boshlashdan oldin o'qituvchi buyuk faylasuflardan Suqrotning yozma nutq haqidagi shikoyatini boshqacha tarzda ifodalab, yozilgan matn doimo tushunarli bo'lavermaydi. Uni tushunmagani uchun o'quvchi aybli emas. Odatda, gapirayotgan kishining nutqida tushunilmagan gapni, so'zni so'zlovchiga savol berib, uni kengroq tushuntirib berishini so'raymiz. Yozma matn, ya'ni kitob ma'nosi tushunarli bo'lmasa, uni tushuntirib berishlarini so'rash mumkin emas. Faqat bunda uni kursdoshlari tushuntirib berishi yoki o'zi harakat qilishi mumkin, deya tushuntiradi.

Buning uchun o'qituvchi talabadan matnda nima yozilganini tushunishni ana shu metod yordamida o'rganishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu o'rganilayotgan fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmasi yoki gazeta, jurnallarda chop etilgan bevosita o'rganilayotgan mavzuga taalluqli iqtisodiy maqolalar bo'lishi mumkin.

Bunda o'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha o'quv adabiyotidan paragraf yoki biron parchani o'qishni taklif etadi. So'ngra o'qituvchi talabalarga:

Aytinglarchi, muallif bu yerda nima haqida gapirayapti? degan savolni beradi. Talabalar javob bergach, o'qituvchi gap nima haqida ketayotganligiga yakun yasaydi. Hamda aniqroq, tushunarliroq bo'lishi uchun siz bu fikrni qanday ifodalagan bo'lardingiz? degan savol bilan murojaat qiladi.

Bu metodni boshqacha variantda, dars o'tishni uch bosqichga bo'lib quyidagicha qo'llash mumkin:

Dastlab, o'qituvchi talabalarga kitob yoki ilmiy maqolani o'qib chiqib, tushunmagan jumla, fikrni alohida ajratib daftarga yozishni topshiradi.

So'ngra, **ikkinchi bosqichda** muallif nima haqida fikr yuritayotgani, u nima demoqchi ekani muhokama qilinadi.

Uchinchi bosqichda, o'qituvchi talabalardan o'zlari muallif sifatida bu fikrni yozma ravishda qanday ifodalagan bo'lar edingiz, yozib bering deb, topshiriq beradi.

To'rtinchi bosqichda, talabalar yozgan javoblar o'zaro tekshiriladi va muhokama qilinadi. Muhokama individual yoki kichik guruhlar bo'yicha olib borilishi mumkin. Asosiy maqsad, yozilgan fikr tanqid qilingan mualliflikiga qaraganda tushunarliroqmi yoki aksinchaligini aniqlash.

Talabalar o'z fikrlarini bildirgach, ularni solishtirib, o'qituvchi o'zi yakun yasaydi. Ana shu parchani tushunish uchun avvaldan nimalarni o'qigan bo'lishi, nimalarni bilish kerak? va hokazo.

Topshiriqni bajarilishiga qarab talabalarga ball beriladi

Bunday usulni qo'llash talabalarni o'qishni faol o'rganishga undaydi. Undan tashqari talabalarni o'z fikrlarini asoslashga, materialni taqdim qilishni o'rgatadi.

«Muallifdan so'rang» usuli bo'yicha talabalar o'zlari yangi matn bilan ishlab, yozishni o'rganishadi.

**«O'tilgan mavzu va
mening kasbim»**

Ushbu usulni modifikatsiyasi darsda bir necha o'quv adabiyotida berilgan shu mavzu bo'yicha matnni o'qib chiqib, solishtirish ham mumkin-ki, u talabalarga mavzuni o'zlashtirishga, mustaqil fikr yuritish va bilimni mustahkamlashga katta yordam beradi.

Ko'pincha, o'quvchi-talabalar kollejni, oliy o'quv yurtini bitirib, ishga tushganda ustozlar hayron bo'lishadi, nahot shu narsalarni bilmaydi, o'quv yurtini bitirib keldi-ku, u yerda bu narsalarni o'qitgan, o'rgatgan bo'lishi kerak edi, deb. Psixologlarning fikricha, buning asosiy sababi, eng avvalo, har bir kishi o'qishdan aniq maqsad qo'ymas ekan, ko'zlagan natijaga erishib bo'lmaydi. Agar aniq maqsad qo'yilmasa, bilimni mutaxassis emas, o'qiganini to'tiqushdek takrorlovchi, bilganini real hayotda qanday qo'llashni bilmaydigan bitiruvchilar tayyorlanadi.

O'quvchi, talabalar kitob yoki maqola o'qir ekan, unga olgan bilimi yoki undagi berilgan axborotdan joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat topshirishda yoki ball to'plashda qanday foydalanam bo'ladi, degan nuqtayi nazardan qaraydi. Kasb egasi bilimi jihatidan undan ustun bo'lmasada, mutaxassisligi bo'yicha qo'lga kitob tushsa, eng avvalo, undan ish jarayonida qanday foydalanish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Akademik va amaliy bilimning asosiy farqi ham ana shunda.

Shuning uchun ham hozirda o'quv yurtlarini bitiruvchilarni egallayotgan kasblari bo'yicha amaliyot bilan bog'lashga alohida

ahamiyat berilmoqda. Bunda nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi dars o'tish metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ana shunday metodlardan biri «O'tilgan mavzu (o'qigan kitob) va mening kasbim» usuli bo'lib, uni og'zaki yoki yozma ravishda qo'llash mumkin. Bunda o'qituvchi har bir talabadan aynan shu mavzuni o'rganishdan olgan bilimni, o'qigan kitobidan amaliyotda qanday qo'llashini gapirib yoki yozib berishni taklif qiladi.

Kitob o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki talabalarning o'zlari tanlashlari mumkin. O'qituvchi talabalarning hikoyasini tinglab yoki essellarini o'qib, uni naqadar real hayot bilan bog'langanligi, fikrning originalligi, bayon qilinishiga qarab ball berishi lozim.

**«Bilaman, Bilmochiman,
Bildim (B/B/B)»**

Bu metod talabalarni kitob, ilmiy maqolalarni o'qishga, bilmaganlarini o'rganishga harakat qilishlariga yordam beradi. Barcha talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi.

Bu metodni qo'llashda o'qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida o'rganishni aniqlaydi. O'rganilgan mavzu bo'yicha savollar va ularning javoblarini, o'qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma'ruza matni, yangi mavzu bo'yicha bilish lozim bo'lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi.

Talabalarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo'yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni talabalar bilganini ko'rsatishi uchun jadval chiziladi. Jadval quyidagicha bo'ladi:

B/B/B jadvali

Biz taxminan nimalarni bilamiz?	Biz nimalarni bilishni xohlaymiz?	Biz nimalarni bildik?
1		
2		
va hokazo		

Uni har bir talaba o'z daftariga chizib oladi. Doskaga yoki qog'oz plakatga (qog'oz doskaga) butun guruh uchun chizamiz. Bunda savol qo'yilib, guruhda juftlik yoki kichik guruhlar, yoki individual tarzda muhokama qilish mumkin.

Bunda «aqliy hujum»ni qo'llash yaxshi natija beradi.

Aytaylik, «Yalpi talab va yalpi taklif» mavzusi bo'yicha seminar darsida ana shu metodni qo'llamoqchisiz.

U holda doskaga «yalpi talab va taklif nima hamda u individual talab va taklifdan qanday farqlanadi?» degan umumiy savol yoziladi.

Talabalar o'z fikrlarini bildiradi. Fikrlar individual, justlik yoki kichik guruh nomidan bo'lishi mumkin. Bunda talabalar avvalgi o'tilgan «Talab va taklif. Bozor muvozanati» mavzusida olgan bilimlarini yodga tushirib, talab, taklif kategoriyalariga ta'rif berishadi. Talab va taklifning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni, talab va taklif elastikligi va boshqalarni eslashadi.

Bilganlaricha, yalpi talab va taklif, unga ta'sir etuvchi omillarni sanab berishadi.

O'qituvchi «aqliy hujum» natijasi asosida so'rov o'tkazib, «Nimamalarni bilishimiz kerak?» ustunini to'ldirilishni ta'minlaydi. Bunda talabalar o'z daftarlariga mustaqil yozishlari yoki doskada ham biron talaba yozib birgalikda to'ldirish mumkin.

B/B/B jadvali

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim
1. Talab va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar	1. Yalpi talab egri chizig'ini individual talab egri chizig'iga o'xshashlik sabablari	1.a) boylilik effekti b) protsent stavkasi effekti d) import effekti e) yalpi talab determinantlari.
2. Taklif va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar	2. Yalpi taklif egri chizig'i, uni qisqa va uzoq muddatli davr nuqtayi nazari-dan o'rganish	Qisqa muddatli davrda yalpi taklif egri chizig'i uch bo'lakka bo'linadi: a) gorizontaal yoki Keyns bo'lagi; b) oraliq bo'lak; d) vertikal yoki klassik bo'lak.
3. Talab va taklif grafigi		2. Uzoq muddatli davrda vertikal holda, ya'ni barcha resurslar ishga solingan holda bo'lishini.
4. Talab va taklif qonuni		3. Determinantlar o'zgar-ganda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari o'zga-radi. Taklif egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi.
5. Samarali tanlov		
6. Bozor muvozanati	3. Yalpi taklif egri chizig'ining siljishi nimani ko'rsatadi?	
7. Yalpi talab va yalpi taklif va boshqalar		

Navbatdagi qadam «Biz nimalarni bilishni xohlashimiz»ni aniqlash.

Bunda o'qituvchining mahorati katta rol o'ynaydi. Chunki, savolni talabalardan «tortib olish»imiz kerak.

Buning uchun o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar bilan auditoriyaning diqqatini jalb qiladi.

1. Individual talab va yalpi talab egri chizig'ining shakli bir xil. Talab egri chizig'ini shunday shaklda bo'lishiga daromad va o'rin bosish effekti sabab bo'ladi. Shu fikrlar asosida savol tuzib, ikkinchi yalpi talab egri chizig'ini daromad va o'rin bosish effekti bilan tushuntirib bo'lmaydi. Uni qanday tushuntirish mumkin?

Ustunga «Biz nimalarni bilishni xohlaymiz?» deb yozib qo'yamiz.

2. O'qituvchi talabalarni yalpi taklif egri chizig'ini ifodalashida farq bor-yo'qligini bilish kerakmi yoki yo'qligi haqida o'ylashga undaydi.

Talabalar o'z fikrlarini bildirishadi. Demak, yalpi taklif egri chizig'ini tasvirlashda ham farq bor ekan. Biz uning sababini aniqlashimiz kerak. Yana bir savol tuzib, uni ham ikkinchi ustunga yozib qo'yamiz.

3. Yalpi taklifga ham yalpi talabga o'xshab ta'sir qiluvchi omillar bormikan? Bo'lsa, ular yalpi taklifga qanday ta'sir qiladi, deya talabalarning javobi asosida yana bir savol tuzib, ikkinchi ustunga yozib qo'yamiz.

Nechta savol tuzish, albatta, mavzuga, ularda muhokama qiladigan uzviy savollarga, o'qituvchining bu metodni qanday qo'llashiga bog'liq.

Navbatdagi qadam. Savollarga javob topish.

Bunda ham turli-tuman usullarni qo'llasa bo'ladi.

Agar ma'ruza darsi bo'lsa, o'qituvchi qo'yilgan savollarga javob tariqasida ma'ruzani bayon qiladi va talabalarga javobni daftarlariga individual tarzda yozib qo'yishlari hamda uchinchi ustunni to'ldirishlari lozimligini uqtiradi.

O'qituvchi seminar darsida kim nimalar yozdi, uchinchi ustunni qanday to'ldirdi, deb so'rab darsni davom ettirishi yoki kelgusi ma'ruzadan oldin kim qanday to'ldirganini ko'rib chiqishi mumkin.

Seminar darsida uchinchi ustunni individual, juftlik yoki kichik guruhlar to'ldirib, ularni butun guruhda muhokama qilib, yakun yasaladi.

a) Bunda qo'yilgan savolga javoblarni talabalar ma'ruza eshitib

oldimi yoki o'zlari kitobdan mustaqil o'rganib kelishdimi, e'tibor berish kerak. Har ikki holda ham qaysi savollarga javob topilganini «Biz nimalarni bildik?» ustuniga yozishlari lozim.

b) O'qituvchi albatta muhokama jarayonida talabalardan savol qo'yilmagan bo'lsa ham yana nimalarni bilib olganliklarini so'rashi va ularni uchinchi ustunga yozib qo'yishlarini aytishi kerak.

d) Birinchi «Nimalarni bilamiz?» ustunida bildirilgan javoblar ishonchliligini muhokama qilish maqsadga muvofiq.

e) Ikkinchi ustunda qaysi savollar javobsiz qolgan bo'lsa, javob topish uchun qanday manbalarga murojaat qilishlarini ko'rsatish kerak.

O'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlashi uchun «aqliy hujum» metodini qo'llab, talabadan bilganlarini aniqlashga, ma'ruza matnini yoki kitoblarni o'qish, ma'ruzani bayon qilish uchun ketadigan vaqtini avvaldan rejalashtirib qo'yishi, shu asosda darsni tashkil qilishi zarur.

Talabalarni jadvalni to'ldirganliklariga qarab, baholash mezonlarini ishlab chiqishi va e'lon qilishi kerak. Bunda diqqat ikkinchi va uchinchi ustunlarga qaratilishi lozim.

Insert metodi Talabalarni o'qiyotgan o'quv materiallarini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan interaktiv metodlardan biri insertdir. «**Insert**»: — **insert** — qo'ymoq, suqmoq, joylashtirmoq ma'nosini bildiradi. Talabalarni o'qiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari katta ahamiyatga ega. Sir emaski, ko'pincha talaba o'qiyotgan materialini oxiriga kelib, nima haqida o'qiyotganini unuttadi. Shuning uchun darsda ularda eslab qolish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradigan metodlarni qo'llashning ahamiyati katta. Ana shunday matnni diqqat bilan o'qish va mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan, talabalarni o'qiyotgan o'quv materiallarini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan interaktiv metodlardan biri insertdir. Bu metod Abu Nasr Forobiy tomonidan ham ko'p qo'llanilgan.

O'qish jarayonida materialning (darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmuni baholanib, xulosa varaqning chetki tomoniga (hoshiyasiga) qalam bilan belgi qo'yib borish orqali bilish darajasi aniqlanadi. Bu belgilarni har bir qator yoki taklif etilayotgan g'oyaga qo'yish shart emas. Asosiysi, bu belgilar yordamida talaba olingan bilim, axborot to'g'risida yaxshi tasavvurini aks ettirishi lozim. Umuman olganda, bir satr boshiga bir necha belgi qo'yilishi ham mumkin.

Insert o'quvchi, talabalarga, yangi axborotni o'qib o'rganishi jarayonida tushunarli yoki tushunib bo'lmaydigan, noma'lum yoki e'tiroz bildiradigan guruhlarga ajratib baholash imkonini beradi. Ya'ni o'quvchi, talaba o'qiyotgan materialni shunchaki o'qishi emas, uni uqishi, ya'ni tushunish, baho berish, umuman olganda, tanqidiy o'rganishi talab etiladi.

Bu metod:

- matn bilan samarali ishlash ko'nikmasini hosil qiladi;
- faol, teranfikir yuritib, o'ylab, o'qishni o'rgatadi;
- avval o'rganilgan, talaba uchun ma'lum bo'lgan materialni yangisi bilan taqqoslash va baholash qobiliyatini shakllantiradi;
- mavzuni kelgusida o'rganishni davom ettirishni rag'batlantiradi.

Insert metodini qo'llashda chetki hoshiyaga belgilarni qo'yish bo'yicha qabul qilingan qoidalar mavjud. Ular quyidagicha:

- **O'qiyotgan matndagi bildirilgan fikrlar** sizga ma'lum, siz ularni bilsangiz, bilaman deb **o'ylagan fikringizga mos kelsa**, «V» belgisini qo'yasiz.

- **O'qiyotgan jumlar sizning bilimingizga qarama-qarshi bo'lsa** yoki bilaman deb o'ylaganingizga **mos kelmasa**, « - » (minus) belgisini qo'yasiz.

- Agarda o'qiyotgan matnda siz uchun **yangiliklar bo'lsa**, «+» (**plus**) belgisini qo'yasiz.

- Siz o'qiyotgan jumlar sizga **tushunarli bo'lmasa**, ya'ni uni tushunish uchun qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinsa, u holda, «?» (**so'roq**) belgisi qo'yasiz.

Shunday qilib, o'qish jarayonida talabalar bilganlari va tushunganlariga mos ravishda to'rt xil belgilar qo'yib chiqishadi. Har bir qatorni yoki har bir tushunchani belgilab chiqish shart emas. Bu belgilar yordamida o'qilayotgan matn bo'yicha umumiy tasavvur ifodalanishi kerak.

Matnni yoki maqolani o'qib bo'lgandan keyin o'qilganlarni sherigi bilan muhokama qilib olish uchun bir daqiqa vaqt beriladi. So'ngra butun guruh nimalar o'rganildi, qanday savollar yuzaga keldi, muhokama qiladi.

Insert metodini qo'llashni uch bosqiga bo'lish mumkin:

1. Matn yoki maqolani o'qish jarayonida ilgari olingan bilimlarni qayta esga solish bosqichi.

2. O'rganilayotgan manbani anglab yetish, yangi mavzuni o'rganish bosqichi.

Esga olish tufayli talabaning passiv bilim zaxirasi faollashadi, o'zini bilganlarini xayolan o'ziga tushuntira boshlaydi. Natijada, anglab yetish darajasiga o'tadi. U yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Mulohaza qilish, idrok etish bosqichi. Unda o'qish taklif etilayotgan, ko'rib chiqilayotgan mavzu maqsadini amalga oshiriladi. Bu maqsadlar:

a) o'qituvchi qo'yg'an maqsad;

b) o'quvchi, talabalar mustaqil tanlagan maqsadlardan iborat.

Shunday qilib, o'quvchi, talabalar axborotni o'zlashtirishga ongli ravishda yondashishlari uchun matnni tushunishlari lozim. Bunda matn mazmunini ongda qayta shakllantirish, ixchamlashtirish sodir bo'ladi va u xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishga olib keladi.

Bu metodni ma'ruza darslarida qo'yilgan uzviy savollardan birini muhokama qilish jarayonida ham qo'llash mumkin.

Seminar darslarida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli ilmiy maqolalarni o'rganish, o'quv adabiyotlarini o'qish mumkin. Bunda talabalarga matn tarqatiladi. Ularga ma'lum bir (10–11 daqiqa) vaqt beriladi.

Masalan: «Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari» mavzusida «Resurslar cheklanganligi va ehtiyojlarni qondirish iqtisodiyotning bosh muammosi» savolini insert metodini qo'llab ko'rib chiqaylik.

1. Talabalarga uzviy savol yoki maqola mavzusi bo'yicha biroz o'ylab olish taklif etiladi. Muhokama qilish uchun sherik tanlanadi yoki partadosh o'rtog'i bilan 3–5 daqiqa davomida resurslar va ularning cheklanganligi, ehtiyojlarni resurslar orqali qondirilishi, iqtisodiyotning bosh muammosi haqida nimani bilishsa daftarlariga yozib-chizishadi. Yozilgan narsani to'g'ri-noto'g'riligi ahamiyatga ega emas. Muhimi, iloji boricha ko'proq ma'lumot yozish.

Sheriklar o'zaro muhokamani yakunlagach, guruh miqyosida o'z bilimlari bilan o'rtoqlashish taklif etiladi. Talabalar o'z fikrlarini gapirib berayotganlarida ularning mazmunini doskaga qisqacha yozib borish kerak.

Masalan, resurslar deb yozdik. O'qituvchi, talabalarga, resurslarning mazmunini hamma biladimi, deb murojaat qiladi. Bil-maganlar bo'lsa, javob berayotgan talaba tushuntirib beradi. Har qanday qarama-qarshilik yoki kelishmovchiliklar bo'lsa, muhokama qilib, umumiy qarorga kelib doskaga yozib qo'yamiz.

Shunday qilib, doskada bilganlarimiz quyidagicha aks etdi, deylik:

Resurslar, ehtiyojlar, moddiy resurslar, mehnat resurslari, ehtiyojlarning tarkibi, cheksizligi, ehtiyojlarni qondirish zarurligi va boshqalar.

Demak, biz resurslar cheklanganligi, ana shu sharoitda ehtiyojlarni qondirish muammosi bo'yicha nimalarni bilishimizni aniqladik. Bor bilimlarimizni ishga soldik.

Bu bosqich, odatda, esga olish, da'vat deyiladi.

O'zaro va guruhda muhokama qildik, fikrlash jarayoni kechdi. Muhokama qilish, o'z savollariga javob topish jarayoni, ya'ni tushunish, anglash yuz berdi.

2. Bilganlarimizni esga olib bo'lgach, o'qituvchi barcha talabalarga matnni o'zini berib, har bir satr boshi ro'parasiga zarur belgi qo'yib chiqishni taklif qiladi (10-15 daqiqa vaqt beriladi)

Har bir talaba matnni o'qish jarayonida o'z bilganlari va tushunchasiga mos ravishda belgilar qo'yib chiqadi. Matnni o'qib, zarur belgilarni qo'yib chiqqach, ularni o'rtog'i bilan muhokama qilish uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

Bunda ular o'zlarining qaysi bilimlari tasdiqlandi, qanday yangi ma'lumotlar olishdi, qanday savollar tug'ildi, maslahatlashib oladi.

Ana shu jarayonda talabalar yangi g'oya, ma'lumotlarni o'rganadi. Matnni o'qish jarayonida ularni o'zlari bilganlari bilan solishtirishadi. Talabalar anglash bosqichiga o'tishadi.

Navbatdagi bosqich olingan bilimni guruhda muhokama qilish bo'ladi. Bunda talabalar olgan bilimlari, tushunmaganlari bo'yicha mulohazalar, qo'shimcha bilimlar manbaini izlashadi.

Avvalgi yozilgan fikrlarga qaytib, matnni mazmuni muhokama qilinadi. Hamma rozi bo'lgan savollarni ajratib, qarama-qarshi (-) muhokama va savol belgisi (?) qo'yilgan, tushunmagan fikrlar muhokama qilinadi.

Aytaylik, bu matndagi belgilardan kelib chiqib, transformatsiya egri chizig'i, o'sib boruvchi va pasayib boruvchi muqobil qiymat kabi tushunchalar bo'lsin. Ularni o'qituvchi jadval, grafiklar yordamida tushuntirib beradi.

O'qituvchi savolni yakunlar ekan, iqtisodiyotning bosh muammosi mazmunini talabalar qay darajada tushunganlarini va o'zlari hayotda qanday yechishlariga doir misol keltirishlari uchun savollar bilan:

«Shunday qilib, iqtisodiyotning bosh muammosi nima ekan?»

«Nima sababdan uni bosh muammo deymiz?»

«Nima sababdan xayolan tezda tanlash mezonlarini ishlab

chiqamiz? Misollar keltiring-chi?» deya murojaat qiladi.

Matn bilan ishlagach, **B/B/B** jadvalini to'ldirish talabalar faolligini ta'minlashga katta yordam beradi.

B/B/B jadvali bilan ishlash tartibi

1. Insert metodini qo'llab, matnni o'qing.
2. Olingan axborotni individual tarzda qo'yan belgilaringizga muvofiq jadvalda ifodalang.

B/B/B (Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim) jadvali

№	Mavzuning savoli	Bilaman	Bildim	Bilmoqchiman
1				
2				
3				
4				
5				

Muhokama jarayonida talabalarning tanqidiy fikr yuritishlari, o'z fikrlarini asoslashga urinishlari, o'rtoqlari bilan munozara qilishlari keyingi bosqich fikrlash, tafakkur bosqichiga o'tilganini bildiradi.

Talabalar yangi ma'lumotlarni yaxshi qabul qila oladilar. Chunki ular avvalgi bilganlarini yangi olgan bilimlari bilan bimalol birlashtiradilar. Ularning o'z qobiliyatlariga ishonchlari ortadi.

Insert metodi o'qish davomida talabalarga o'z shaxsiy tushunchalarini faol ko'rib chiqishga yordam beruvchi kuchli qurol hisoblanadi.

2-§. Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar

Ma'lumki, tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlashdir. Mustaqil fikrlashni o'rgangan kishi vaziyatni o'rganib, tahlil qilib, zarur qaror qabul qiladi. Agarda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, undan chiqib ketish yo'llarini izlaydi, topishga harakat qiladi. Qo'yan maqsadiga yetish uchun tinmay izlanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda o'quvchi-talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi metodlarni dars jarayonida qo'llashga katta e'tibor berilmoqda. Inson tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tani-shadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini oladigan bo'lib boradi.

Tanqidiy fikrlash g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan

uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon bo'lib ham hisoblanadi.

Unda axborot olish oxirgi natija emas, balki boshlang'ich nuqta bo'ladi. Tanqidiy fikrlash mavjud bo'lgani uchun bilish jarayoni individual, ongli, uzluksiz va unumli bo'lishi ta'minlanadi.

Tanqidiy fikrlash savol qo'yish va muammoni aniqlashdan boshlanadi. Shuning uchun axborotlarni saralash va ular ichidan zarurlarini ajrata bilish talab qilinadi. Tanqidiy fikrlash asosli argumentlar topishni, bildirilgan fikrni to'g'riligini atroflicha asoslab berishni talab qiladi.

U bildirilgan fikr, g'oyalarni bir-biri bilan taqqoslash va ular asosida qaror qabul qilishni o'rganadi, o'z nuqtayi nazarini ishlab chiqadigan bo'ladi. Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi turli konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va xayolan qayta ko'rishlik murakkab jarayondir.

Ular o'quvchi talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi asosiy metodlardan biri bo'lib, bu metodda eng asosiysi ular axborot bilan ishlash, bildirilgan fikr-g'oyalarga o'z munosabatini bildirish va ular asosida o'z nuqtayi nazarini bayon qilishni o'rganishdir.

G'arbda bunday metodlarni mashhur pedagog olimlardan J.Still, K. Meredis, va Ch. Templ va boshqalar tadqiq qilishgan. Amerikalik buyuk pedagog va faylasuf D. Dyui tanqidiy fikrlashning muhimligini ta'kidlab, insonning vaziyat, shart-sharoit va tajriba natijalariga nisbatan tanqidiy fikrlashigina shaxs istagi va qiziqishlarini to'g'ri yo'lga sola oladi, degan ekan. Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar talaygina, ularga munozara, bahs, referat, tanqidiy nazar va boshqalarni kiritish mumkin.

Tanqidiy nazar Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar orasida kitob ustida ishlashga asoslangan metod tanqidiy nazar metodidir.

Bu oddiy, samarali usul bo'lib, matnning mazmunini tadqiq qilish, imkonini beradi, uni shaxsiy tajriba bilan bog'laydi va o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Undan tashqari o'z fikrini yozma ravishda bayon qilishni o'rgatadi

Metodni qo'llaganda eng asosiysi o'quvchi talabalar olinayotgan axborotlarni ma'nosiga yetishlari lozim. Ularni faol o'zlashtirganlarida, tushunib ma'nosiga yetganlaridagina eng yuqori natijaga erishishlari mumkin. Bunday natijaga tanqidiy nazar metodini qo'llash orqali erishish mumkin.

Fikrlash faoliyatini rivojlantirishni turli strategiyalari, usullari, yo'llari, mavjud. Aynan tanqidiy nazar metodi o'quvchi-talabalarni bildirgan fikrini anglashga va unga o'z munosabatini bildirishga yo'naltiradi.

Ma'lumki, o'quvchi talabalar o'z bilimlarini ma'lum bir masalalarni yechishda tatbiq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Ana shu jarayon bu metodni qo'llash orqali bildirilgan fikrni ma'nosiga yetishdan bilinadi.

Tanqidiy nazar metodini qo'llashning yana bir ijobiy tomoni - borki, u g'oyalar va tavsiflar, fikrlarning turli-tumanligini ta'minlaydi. Agar «yagona bitta javob to'g'ri» degan kayfiyat ustunlik qilsa, tanqidiy fikrlashga imkon bermaydi.

Bunda seminar, amaliyot daftari sahifasi vertikal chiziq bilan ikki qismga ajratiladi. O'qituvchi talabalarga chap va o'ng tomonga nimalar yozilishini tushuntiradi. Chap tomonga talabaga matnni o'qish jarayonida o'ziga yoqqan, unda chuqur taassurot yoki tushunmovchilik tug'dirgan fikr, g'oya, ma'lumotlarni iqtibos(sitata) tarzida yozib borishi lozimligi uqtiriladi.

O'ng tomonda esa talaba sitataga yoki muallifning fikriga o'z munosabatini bildiradi. Aynan qanday sabab ana shu fikrni alohida ajratib ko'rsatishga undaganini sharhlab beradi. Ana shu iqtibos uni nimalar haqida o'ylashga majbur qildi? O'z fikrini yozadi.

Tanqidiy nazar metodi va uni dars jarayonida qo'llash quyidagacha amalga oshiriladi:

O'qituvchi mavzu, savol yoki muammoni tanlashi lozim. So'ngra ajratib olingan savol yoki muammoni qaysi adabiyotdan o'rganiladi: o'quv adabiyotidanmi yoki biron bir ilmiy ommabop jurnal yoki gazetada berilgan maqolami rejalashtiradi. Taxminan dars qanday o'tishini texnologik xaritasini ishlab chiqadi.

Dars jarayonidagi dastlab o'rganiladigan mavzu va uni qanday metod yordamida muhokama qilinishini o'quvchi - talabalarga yetkaziladi.

Tanqidiy nazar metodi asosida dars o'tish tafsiloti:

1-qadam:

Ajratib olingan savol, masala yoki muammo o'quvchi talabalarga e'lon qilinadi.

2-qadam:

Ana shu tanlangan mavzu yoki muammo bo'yicha zarur adabiyotlar, gazeta-jurnal va maqolalari yoki internet saytlari o'rganiladi va zarur axborotlar yig'iladi.

3-qadam:

Ajratib olingan maqola yoki kitobga bildirilgan muammolarni ikki uchta asosiy g'oyasi, fikri ajratiladi.

4-qadam:

Daftarni o'rtasidan chizib, ikkiga ajratib, chap tomoniga o'qiyotgan, o'rganayotgan manbada biron sababga ko'ra e'tiborimizni tortgan g'oya, fikrni yozib chiqiladi.

5- qadam:

O'rganayotgan manbadan daftarga yozib chiqqan muallifning g'oyasi, fikriga o'zining munosabatini bildirib, o'z izohlari asosida tugallangan matn tayyorlaydi.

Iqtibos yoki muallif fikri	O'quvchi-talabaning izoyi, o'z nuqtayi nazari,
Muallif fikrini isbotlovchi 2-3 sitata	Tahlil qilinadi, bu fikrga qo'shilish yoki qo'shilmasligini bildiradi. O'zi uni qanday qabul qiladi, ko'rsatadi va baholaydi.

Metodni qo'llashni misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Iqtibos	Sharh (izoh)
<p>1.«Har kishiga gapirmoqchi bo'lsang, qaragil-kim, u sening so'zingning xaridorimi yo yo'qmi? Agar tinglovchi sening so'zingga xaridor bo'lsa, so'zingni sotgil (agar shu so'zingni xaridor xohlamasa), u so'zni qo'yib, eshituvchiga yoqadigan so'zni gapir, toki sening so'zingga xaridor bo'lsin»</p> <p>Qobusnoma.T.: «O'qituvchi», 1973, 41-bet.</p>	<p>Sharqda yaratilgan durdonalardan biri bo'lgan Kaykovusning «Qobusnoma» asaridan keltirilgan parchada uqtirilayaptiki, seni tinglashsa gapirgin, agar seni eshitishni xohlashmasa, seni tinglamoqchi bo'lganlarga ma'qul fikrlarni aytginki, natijada ular senga diqqatlarini qaratib, so'zlaringni jon qulog'i bilan eshitishsin. Bozordan xaridor o'ziga kerakli narsani sotib oladi. Unga keraksiz narsani sotish juda qiyin.</p> <p>Bu parcha, ayniqsa, o'qituvchilarning doimo yodida bo'lishi, o'quvchi-talabalar uchun zarur, ularning e'tiborini tortadigan tarzda dars o'tish lozim.</p>

Tanqidiy nazar metodining yana bir usuli bir muammo bo'yicha ikki yoki uch muallif bildirgan fikrni sharhlashi yoki ular asosida o'quvchi-talabaning o'z nuqtayi nazarini bildirishi.

Bunig uchun biron muammo yoki masalani yechish bo'yicha bayon qilingan fikr, yondashuv o'rganiladi, ularni o'quvchi, talaba tahlil qiladi va o'z fikrini bildiradi.

U holda biz endi daftarni uchga bo'lamiz:

Birinchi muallif fikri	Ikkinchi muallif fikri	Uchinchi, talaba nuqtai nazari, izohi
O'rganlayotgan masala, mavzu bo'yicha birinchi muallif g'oyasi, fikri ifodalangan iqtibos	O'rganlayotgan masala, mavzu bo'yicha ikkinchi muallif g'oyasi, fikri ifodalangan iqtibos	O'quvchi talaba sharxi, nuqtayi nazari

Bunda o'quvchi-talaba har ikki muallif bildirgan fikr, g'oya, nuqtayi nazarni taqqoslaydi, ular bo'yicha o'z fikrini bildiradi.

O'qituvchi avvaldan talabalarga har bir o'qilgan betdan bitta iqtibos yoki 10 betdan 4 iqtibos va hokazo tarzida keltirib, unga izoh berishlari zarurligini aytadi. Yoki bir iqtisodiy kategoriyaga turli kitoblarda turlicha ta'rif berilgan. Talabalarga ularni solishtirish asosida eng to'g'ri deb, yozilganini ko'rsatib, o'z fikrini asoslab berishni topshirish mumkin:

1. Darsni individual tarzda har bir talabadan tanlagan sitatasi va unga berilgan izohni o'qishi bilan barcha talabalar fikrini eshitiishi shaklida tashkil qilish mumkin.

So'ngra talabalar o'zlari eng yaxshi iqtibos(sitata) va izohni kim tayyorlaganini ko'rsatib, guruh bo'yicha 1-3 o'rinlarni kimga berishni aniqlash mumkin. Bunday usul talabalarni faollashtiradi.

2. Juftlikda ishlash, ikki talaba birgalikda iqtibos tanlab, izohlarni ham birgalikda yozib, yozgan fikrlarini bayon qilishlari mumkin. Bunda talabalar o'rtasida eng «hozirjavob» juftlik tanlanadi.

3. Kichik guruhlarda ishlash. Bunda har bir kichik guruh talabalar soni nechta bo'lsa, shuncha iqtibos va uning izohini keltirishadi. Auditoriyada esa guruh vakili taqdim qilgan sitatalardan eng yaxshi deb, topilganini izohi bilan o'qib beradi. Nima sababdan guruh aynan ana shu iqtibos va izohni eng yaxshi deb topgani sababini ham bayon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida berilgan javoblarga ko'ra, g'oliblar aniqlanadi.

Bu metodni qo'llash o'quvchi talabalardan yuqori darajada bilim taksonomogiyasi bo'yicha tahlil qilish, sintez, baholash darajasida fikr yuritishni talab qiladi. Bu metodni ko'proq oliy o'quv yurtlarida qo'llagan ma'qul, lekin soddalashtirilgan variantlarini

akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham dars jarayonida qo'llash mumkin.

Bu metodni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchi, talabalarda fikrlashi qanday tarzda kechganini ko'ra oladi, iqtibosni o'ylamasdan ko'chirib qo'yaqolganmi yo'qmi, aniqlaydi.

O'quvchi, talabalarda axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. O'z nuqtayi nazarini bayon qilishga, fikrlashga o'rganadi.

Taqriz yozish Kitob ustida ishlash hamda tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar orasida «Taqriz yozish» metodi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bu metodni o'z fikrini yozma ravishda bayon etiladigan metodlar guruhiga ham kiritish mumkin.

Taqriz — bu sinchiklab o'qilgan matnni uni o'qigan kishi tomonidan baholanishidir. Bu baho umumlantirilgan holda ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Uni yozishda muallif quyidagi ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Maqola yoki kitob muallifining ismi, familiyasi, uning nomi yoki mavzusi ko'rsatiladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

Toshkent moliya instituti professori D. Tojiboyevaning
«Iqtisodiyot nazariyasi» o'quv qo'llanmasiga
TAQRIZ

So'ngra mazkur kitob yoki maqolaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dolzarbligi, ahamiyati, uning tuzilishi, bayon etilishi uslubi.

Taqrizda matnni o'qigan kishining shaxsiy fikri, mulohazalari bayon qilinadi. Unda maqola, kitobning mazmuni, diqqat qaratilgan muammolar, unga muallifning munosabati tahlil qilinadi. Taqriz yozuvchi tomonidan uning nuqtayi nazari bo'yicha ishning ijobiy jihatlari, kamchiliklari ko'rsatiladi. Berilgan taklif, tavsiyalarga munosabatini bildiradi. Barcha bildirilgan fikrlar bo'yicha xulosa chiqarilib, ish baholanadi. Taqrizda muallif tomonidan baholovchi fikrlar bildirilganda, masalan, «Bu kitob quyidagi jihatlari bilan yokdi (ular ko'rsatiladi). Quyidagi masalalar bo'yicha muallifning fikrini qo'llab-quvvatlayman. Chunki, ... (taqriz yozuvchining fikri asoslab beriladi). Yoki muallifning quyilagi fikrlariga qo'shilmayman. Sababi, ... (e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari ko'rsatiladi).

Kitob (muammo keltiriladi)ni tadqiq etishga bag'ishlangan ish-

lardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: ...

Oxirida yakunlovchi xulosa chiqariladi. Taqriz xolisona bo'lishi, unda beg'araz fikrlar bayon qilinishi lozim.

Bu metod, birinchidan, matnni sinchiklab o'qishga; ikkinchidan, taqqoslash va baholashga; uchinchidan, o'z fikrini yozma ravishda bayon qilishga o'rgatadi. Bu metodni ko'proq oliy o'quv yurtlarida qo'llagan ma'qul. Lekin, kasb-hunar kollejlari ham soddalashtirgan tarzda qo'llash mumkin. Unda o'qituvchi, kitob yoki maqola mavzusi bo'yicha yoritilishi zarur bo'lgan masala bo'yicha biron bir savol qo'yib, masalan, investitsiya masalalariga bag'ishlangan maqolada «investitsiya tarkibi qanday ko'rsatilganiga diqqat qaratib, taqriz yozing, deb topshiriq berish mumkin.

3-§. Taqqoslash, baholashni o'rgatuvchi metodlar

T-sxema. Bu metod ikki xil ma'lumot: axborot, turli qarashlarni taqqoslashning universal grafik tarzda ifodalash bo'lib, o'quvchi-talabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mavjud qarashlarni taqqoslash, ular asosida qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, farqlanuvchi qarama-qarshi, xilma-xil qarashlarni, ma'lumot axborotlarni ma'lum bir mezonlar bo'yicha ifodalash uchun nihoyatda qulay.

Agar ana shu mezonlarni talabalarning o'zi ishlab chiqsa, dars yanada samarali bo'ladi. Odatda, T-sxema bir-biriga qarama-qarshi (antonim) fikrlar, qarashlar, ma'lumotlar, axborotlarni ifodalaydi. Ularni ha/yo'q, tarafdor/qarshi, yuqori/ past, minimal/ maksimal kabilar orqali ko'rsatish mumkin. Bunda qo'yilayotgan maqsad o'rganilayotgan mavzu, savol yoki qarashlarni mazmuniga ko'ra, o'qituvchi taqqoslash variantlarini ishlab chiqadi.

T-sxema uncha katta bo'lmagan maydonda katta ma'noga ega bo'lgan materialni ifodalash imkonini beradi. U, ayniqsa, modul yoki ma'lum bir qarashlar mazmunini umumlashtirishda foydalanishda juda qulay. T-sxemani mustaqil tizimi bo'yicha berilgan topshiriqlar talabalarni iqtisodiy fikrlashini rivojlantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

T-sxemaga misol sifatida yuqorida keltirilgan dars o'tish metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, «Aqliy hujum metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari»ni ko'rsatish mumkin.

Metodning afzalliklari	Metodning kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtayi nazaridan muammo yechimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi; talabalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi; va hokazolar 	<ol style="list-style-type: none"> metodni qo'llash ko'p vaqt talab qiladi; katta guruhlarda qo'llash qiyin; va hokazolar

Yoki jahon mamlakatlarida aholini turmush darajasi, taraqqiyot darajasi haqida to'xtalganda mana shunday jadvaldan foydalanish mumkin:

Aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish
(Xarid quvvati pariteti bo'yicha, AQSh dollari his. 2007-y.)

Eng boy mamlakatlar	Dollar, ming	Eng kambag'al mamlakatlar	Dollar
1. Qatar	88	1. Serra-Leone	490
2. Lyuksemburg	79	2. Tanzaniya	523
3. Quvayt	56	3. Burundi	591
4. Norvegiya	53	4. Malavi	612
5. Singapur	50	5. Efiopiya	668
6. AQSh	46	6. Niger	746
7. Irlandiya	43	7. Gvineya-Bisau	755
8. Gonkong	42	8. Kongo (Dem. Respublika)	765
9. Shveysariya	40	9. Zambiya	780
10. Avstriya	38	10. Mali	797

Manba: 2007. S/A World Factbook 2007. [http:// ddp-ext.worldbank. Org.](http://ddp-ext.worldbank.org)

Talabalarni faollashtirish, bilimni oshirish maqsadida qo'llaniladigan metodlardan yana biri dars jarayonida foydalaniladigan jadvallar va grafiklarni semantik manosini ifodalovchi tahlil qilish metodidir.

Jadval va grafiklar dars jarayonida taklif etilayotgan axborotlarni kuzatish imkonini ko'rish orqali ma'lum bir **maydon - jadvalda** ifodalashni tashkil etadi. Jadval orqali g'oyalar, tavsiyalar, takliflar beriladi.

Bu metodning mazmuni shuki, yangi tushunchalar, mavzu,

axborotlarni o'rganish avvalgi o'rganilganlari bilan qisman taqqoslash orqali o'rganiladi.

Bu metod, ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o'rganishda juda qo'l keladi. Bunda talabalar bilan ma'lum bir mezonlarga ko'ra tuzilgan jadval ma'lumotlari muhokama qilinadi. Bu muhokamani individual tarzda, kichik guruhlarda olib borish mumkin. So'ngra jadval ma'lumotlarida qo'yilgan maqsadga ko'ra to'ldirish zarur bo'lgan qator yoki ustunlar qoldiriladi. Berilgan axborotlar muhokama qilinib bo'lingach, talabalar bo'sh qator yoki ustunlarni to'ldirishga harakat qilishadi. Talaba o'z tahliliga ko'ra jadvalni to'ldiradi yoki grafik chizadi. So'ngra uni kichik guruhda muhokama qilinadi. Kichik guruhda tahlil qilib, muhokama qilingach, butun guruhda muhokama qilinadi va umumiy qarorga ko'ra jadval to'ldiriladi, grafik chiziladi.

Masalan, makrodarajada iqtisodiyotni tartibga solishni o'rganayotganda, uni tartibga solishning ikki mexanizmi: bozor va davlat mexanizmini bir-biridan farqini taqqoslash orqali o'rganiladi. Bunda talabalarga bozor mexanizmi, ya'ni o'z-o'zini tartiblashning xususiyatlari ko'rsatilgan, davlat tomonidan tartiblashni esa muvofiq ravishda taqqoslab ko'rsatish taklif qilinadigan quyidagi jadval tarqatiladi:

Makrodarajada tartibga solishning ikki mexanizmining asosiy xususiyatlari

<i>Bozor mexanizmi</i> – o'z-o'zini tartiblash	<i>Davlat mexanizmi</i> –davlat tomonidan tartiblash
Bozor tovarlar ishlab chiqarilgandan so'ng ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.	
Bozorning individual, alohida subyektlari o'zlari manfaatdor bo'lmagan makroiqtisodiy struktura o'zgarishlarini amalga oshirmaydilar.	
Bozor subyektlari o'z kapitallarini foyda keltirmaydigan samarasiz ishlab chiqarishga qo'ymaydilar.	
Bozor o'zgaruvchan xaridor talabiga tezda moslashadi.	

<p>Ishlab chiqarish (nima, qanday, qancha, kim uchun) yechimlari mikrodarajada, firma, uy xo'jaliklari miqyosida qabul qilinadi.</p> <p>Boshqarish gorizontal (sherikchilik) asosida, firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasidagi aloqalar asosida tashkil etiladi.</p> <p>Xo'jalik aloqalarini tartibga solish faqat shartnoma va manfaatlarga asoslanadi.</p>	
---	--

Jadvalni har bir talaba individual to'ldiradi. So'ngra kichik guruhlarda muhokama qilib, birgalikda to'ldirib, butun guruh oldida taqdimot qilinadi. Taqdimot tugagach, har bir kichik guruhga to'g'ri javob tarqatiladi. U quyidagicha bo'ladi:

Makrodarajada tartibga solish ikki mexanizmining asosiy xususiyatlari

<i>Bozor mexanizmi - o'z-o'zini tartiblash</i>	<i>Davlat mexanizmi - davlat tomonidan tartiblash</i>
Bozor tovarlar ishlab chiqarilgandan so'ng ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi	Davlat ishlab chiqarish boshlangunga qadar ta'sir ko'rsatishi mumkin
Bozorning individual, alohida subyektlari o'zlari manfaatdor bo'lmagan makroiqtisodiy struktura o'zgarishlarini amalga oshirmaydilar.	Davlat yirik masshtabdagi struktura siljishlari, o'zgarishlarini amalga oshirishga qodir.
Bozor subyektlari o'z kapitalarini foyda keltirmaydigan samarasiz ishlab chiqarishga qo'ymaydilar.	Davlat budjet yordamida iqtisodiyotning notijorat sektorini samarasiz, lekin jamiyat uchun zarur korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi.
Bozor o'zgaruvchan xaridor talabiga tezda moslashadi	Davlat iste'molchi talabining o'zgarishini ancha kech ilg'aydi. Makrodarajadagi qarorlar umum-milliy manfaatlarni ko'zlagan holda qabul qilinadi.
Ishlab chiqarish (nima, qanday, qancha, kim uchun) yechimlari mikrodarajada, firma, uy	Milliy xo'jalikni boshqarish vertikal asosida tashkil etiladi (yuqoridan pastga, davlatdan firma, uy

xo'jaliklari miqyosida qabul qilinadi	xo'jaligiga).
Boshqarish gorizonta(lsharikchilik) asosida, firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasidagi aloqalar asosida tashkil etiladi. Xo'jalik aloqalarini tartibga solish faqat shartnoma va manfaatlarga asoslanadi.	Ierarxik (quyi bo'g'inni yuqoriga bo'ysunishi tartibida) aloqalar ko'pincha iqtisodiy majbur qilishga asoslanadi (soliqlar, boj-xirojlar).

O'qituvchi taqdimotda bildirilgan fikr, to'ldirilgan jadval va uning xatolarini hisobga olib, ishni baholaydi.

Topshiriqni mana bunday jadvalni tahlil qilish, uning ayrim ko'rsatkichlarini hisoblash tariqasida ham berish mumkin. Ayniqsa, maxsus, mutaxassislik iqtisodiy fanlarini o'rganganda bu jihatdan imkoniyat juda katta. Axborotning katta qismi jadval shaklida bo'ladi. Ularda ma'lumotlar hisoblanadi, taqqoslanadi.

Sanoatning tarkibiy tuzilishi va o'sish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Tarkibiy tuzilishi			O'tgan yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi, %		
	2000	2005	2008	2000	2005	2008
Sanoat-jami	100,0	100,0	100,0	105,9	139,4	112,7
Shu jumladan						
Elektroenergetika	9,5	10,9	10,9	101,1	99,1	99,6
Yonilg'i	16,7	13,4	20,1	99,7	106,0	123,9
Qora metallurgiya	1,4	2,6	2,9	118,7	131,6	105,7
Rangli metallurgiya	11,3	15,4	12,6	102,5	104,9	94,9
Kimyo va neft kimyosi	5,9	5,6	5,0	112,7	103,3	108,2
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,0	12,2	16,2	89,5	132,1	123,5
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash	0,9	1,1	0,8	130,1	117,1	119,8
Qurilish materiallari	4,6	3,9	4,9	104,3	108,2	109,8
Yengil sanoat	20,1	18,0	12,9	117	105,2	106,6
Oziq-ovqat	11,8	10,1	10,6	108,5	104,7	128,2
Boshqa tarmoqlar	9,6	5,6	5,4	109,5	121,7	111,7

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

Bu metod klaster, semantik xususiyatlar tahlili kabi ko'rgazmalilik orqali fikr yuritish jarayonini ifodalaydi. Fikr yuritishni qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Konseptual jadvalda vertikal bo'yicha, ya'ni ustunlarda taqqoslanadigan tushuncha, axborot, ma'lumotlar beriladi.

Gorizontal, ya'ni qatorda taqqoslash amalga oshirilishi kerak bo'lganlarni turli xususiyatlari, xarakteristikasi beriladi. Demak, jadvalning bir tomoni nimani taqqoslanishi, ikkinchi tomoni, qanday taqqoslanishini ko'rsatadi. Yoki jadvalni boshqacharoq tarzda tuzsa ham bo'ladi. Asosiysi, taqqoslanayotgan fikrning qaysi jihati taqqoslanayotgani aniq ko'rinib turishi kerak.

Konseptual jadval yoki xarita nihoyatda katta tahliliy axborotni zich, ixcham ravishda joylashtirish imkonini beradi. Bunday jadval-lar, ayniqsa, darsda:

1) metodik jihatdan ko'rgazmalilikni ta'minlaydi;

2) konseptual jadval tizimi bo'yicha berilgan topshiriq orqali o'tila-yotgan mavzu yoki savolning mazmunini o'rganish amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham bu metoddan iqtisodiy fanlarni o'rganishda keng foydalanish mumkin.

Keyns va monetarizm maktablarning farqi

	Keynschilik	Monetarizm
Iqtisodiy siyosatning maqsadi	Barqaror narxlar va ish haqi, to'la bandlikni ta'minlash	Iqtisodiyotdagi salbiy holatlar sababchisi inflatsiya bilan kurashish.
Qo'yilgan maqsadga erishish vositalari	1. Pul muomalasini, bandlikni ishlab chiqarish o'sishiga moslash.	1. Pul muomalasini qattiq nazorat qilish.
	2. Moslashuvchan pul siyosati (krizissiz rivojlanishni ta'minlash) yuritish.	2. Qat'iy pul va barqaror fiskal siyosat yuritish.
	3. Taqchil byudjet, talab va ijtimoiy kafolatning o'sishini moliyalashtirish.	3. Budjet muvozanatini (budjet taqchilligi bozor mexanizmgiga davlat aralashuvini o'sishiga olib keladi) ta'minlash.
	4. Davlat ijtimoiy dasturlarini kengayti rish.	4. Davlat ijtimoiy dasturlarini qisqartirish.
	5. Soliqlarni ko'paytirish, davlat talabini oshirish	5. Budjet taqchilligini kamaytirish, pul muomalasini tartibga solish.

Davlat rolini baholash	Rag'batlantirish	Cheklash
Qo'llashdan ijobiy natija kutish	Iqtisodiy tanglik, bo'hronlar yuz berganda.	Tushkunlik sayoz, inflatsiya kuchli bo'lsa.

Iqtisodiyotni tartibga solish va bu haqda bildirilgan fikrlarni taqqoslashda quyidagi jadval va uni tahlil qilish juda qo'l keladi.

Turli nazariyalar va ularning farqlari

	Keynschilik nazariyasi	Monetaristik nazariya	Ratsional kutish nazariyasi
G'oyaviy yo'nalishi	Iqtisodiyotni soliq va soliqqa tortish va davlat xarajatlari bilan «aniq sozlash»ni amalga oshirish mumkin.	Iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlat pul taklifini 3-5 foizga ko'paytirsam bo'ladi. Boshqa hech qanday aralashish kerak emas.	Monetar siyosat ham, fiskal siyosat ham ish bermaydi, shuning uchun, yaxshisi, hech qanday favqulodda chora-tadbir ko'rmaslik kerak.
Tahlil doirasi	Talab o'z taklifini vujudga keltiradi. $S+I+G=GDP$	$MV=PQ$	Xo'jalik yurituvchi subyektlar yetarli darajada farosatli. Davlat yuritayotgan siyosat qanday oqibatga olib kelishini hisobga olib, o'z manfaatlariga ko'ra o'z siyosatlarini ishlab chiqib yuritadilar.
Amalga oshirishdagi iqtisodiy	1. Ish haqi va baho tushish tomonga moslashuvchan emas 2. Jamg'arma daromadga bog'liq. 3. Investitsiya kuti-	1. Real YaIMni yiliga 3-5 foiz atrofida o'sishi mumkin. 2. Pul aylanish tezligi o'z asosiga ko'ra barqaror.	1. Odamlar ratsional qarorlar qabul qilishadi. 2. Kutish kelajakni ko'zlaydi. 3. Davlat qo'lla-

tahlil	layotgan foyda va foiz stavkasiga bog'liq.		gan siyosat oqibatlaridan o'zini mudofaa qilib, himoya choralarini qo'llashadi.
Mone-tar siyosat	1. Iqtisodiyotga foiz stavkasi va investitsiyalar orqali ta'sir ko'rsatadi. 2. Tushkunlikni to'xtatishdan ko'ra inflatsiyani to'xtatishga yaraydi.	1. M(pul) ni yiliga 3-5 foizga ko'paytirish. 2. Pul taklifini o'zgarishi bevosita narx va ishlab chiqarishni natijasiga ta'sir ko'rsatadi.	3-5 % qoidasi to'g'ri u kutishni barqarorligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
Fiskal siyosat	1. YaIMni ko'paytirish uchun soliqlarni kamaytirish, davlat xarajatlarini ko'paytirish kerak. 2. Inflatsiya sur'atini pasaytirish uchun soliqlarni ko'paytirish, davlat xarajatlarini ko'paytirish kerak.	1. Uzoq muddatli davrda real YaIM-ga ta'sir ko'rsata olmaydi. 2. Qisqa muddatli davrda ma'lum bir samara berishi mumkin.	Fiskal siyosatning samarasizligi odamlarni reaksiyasida ifodalanadi.


III bobda berilgan ta'limga uch xil yondashuv jadvali ham konseptual jadvalga misol bo'la oladi. Bunda talabalarga jadvalning ayrim ko'rsatkichlarini to'raligicha bermay, to'ldirishni topshiriq qilib beriladi yoki bildirilgan fikrlarni konseptual jadval shaklida ifodalash topshiriladi. Ulardan namoyish qilish uchun ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin.

Maxsus iqtisodiy fanlarda ko'plab raqamlar, statistik ma'lumotlar berilgan jadvallar tahlil qilinadi.

Venn diagrammasi Iqtisodiy fanlarni o'rganishda taqqoslashga qaratilgan metodlardan Venn diagrammasi (*Venn diagrams*) ham o'ziga xos o'rin tutadi. U qator vizuallashtirish metodlari va grafik tarzdagi illyustratsiya usullarining umumiy nomi bo'lib, ingliz faylasufi, matematigi, mantiqshunosi Jon Venn asos solgan. Hozirda fanlarning turli sohalarida, ayniqsa, matematika, ehtimollar nazariyasi, mantiqshunoslik, statistika, kompyuter va u bilan bog'liq fanlarni o'rganishda keng qo'llaniladi.

Bu diagramma iqtisodiy kategoriyalarning umumiy va farqlanuvchi tomonlarini o'rganishga ham juda qulay.

Odatda, o'quvchi, talabalar bir-biriga o'xshash kategoriyalarni farqini ko'rsatishga qiynalishadi. Undan, ayniqsa, iqtisodiy kategoriya, tushunchalar, jarayonlar va boshqalarning umumiy tomonlari va farqlanuvchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash, baho berishda keng foydalanish mumkin.



Venn diagrammasining eng oddiy shakli ikki kategoriya, tushuncha, predmet, voqeya, hodisalarning o'xshash va farqlanuvchi tomonlarini ko'rsatishdir. Mazkur diagrammaning afzalligi shundaki, uning yordamida o'xshash yoki umumiy tomonlarni talabalar ongiga yetkazish osonlashadi.

Venn diagrammasi asosida ishlashni individual, juftlikda, kichik guruhlar bilan tashkil etish mumkin.

Diagramma bo'yicha ikki mahsulot YaIM va YaMMni solishtiraylik.

X- YaIM, Y-YaMMning farqlanuvchi xususiyatlari bo'lsin. XY-esa umumiy jihatlari.

Har ikkala mahsulotning **umumiy jihatlari** – XY quyidagilar:

1. Har ikkisi ham yil davomida yaratilgan pirovard mahsulot, boshqacha aytganda tovar va xizmatlar.
2. Har ikkisi ham joriy narxlarda hisoblanadi.
3. Har ikkisi ham makroiqtisodiy ko'rsatgich, mamlakatning iqtisodiy qudratini ko'rsatadi.
4. Har ikkisining tarkibi bir va boshqalar.

Farqlari:

X, ya'ni YaIM – resurslar manbaidan qat'i nazar, mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot, YaMM, ya'ni Y esa mamlakatning resurslari (mehnat, kapital, tadbirkorlik) qayerda joylashtirilishidan qat'i nazar, ular evaziga yaratilgan pirovard mahsulotdir. Xuddi shunday tarzda:

- 1) yalpi ichki mahsulot (YaIM - X), yalpi milliy mahsulot

(YaMM -Y), sof milliy mahsulot (SMM - Z)ning umumiy tomonlari;

2) yalpi ichki mahsulot (YaIM - X), yalpi milliy mahsulot (YaMM -Y)ning umumiy tomonlari;

3) yalpi milliy mahsulot (YaMM -Y), sof milliy mahsulot (SMM - Z)ning umumiy jihatlari;

4) yalpi ichki mahsulot (YaIM - X), sof milliy mahsulot (SMM - Z)ning umumiy jihatlari;

5) yalpi ichki mahsulot (YaIM - X) ning farqdanuvchi jihatlari;

6) yalpi milliy mahsulot (YaMM -Y)ning farqlanuvchi tomonlari;

7) sof milliy mahsulot (SMM - Z)ning farqlanuvchi jihatlari ko'rsatiladi.

Boshqa iqtisodiy kategoriya va tushunchalarni, hodisalarning ham shunday tarzda umumiy jihatlari va farqlarini o'rganish mumkin.

4-§. Axborotni yig'ish va yoyish asosida mavzuni o'rganishga qaratilgan metodlar

Sinkveyn (axborotni yig'ish) metodi

O'rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun qo'llaniladigan metodlardan biri—«Sinkveyn (axborotni yig'ish)»

metodidir.

Sinkveyn — (fransuzcha besh) besh qatordan iborat, o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha, hodisa, voqea, mavzu haqidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi, talaba so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalangani. Sinkveyn tuzish murakkab g'oya, iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga, o'zlashtirishga yordam beradi.

Sinkveyn besh qatordan iborat bo'lib, **birinchi qatorda** bir so'z bilan mavzu yoki muammo yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).

Ikkinchi qatorda bir so'z bilan ifodalangan mavzu yoki muammo ikki so'z bilan tavsiflanadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).

Uchinchi qatorda ushbu mavzu yoki muammo bo'yicha xatti - harakatlar uch so'z bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi qatorda bir so'z bilan ifodalangan mavzu, muam-

moga aloqadorlikni ko'rsatuvchi to'rt so'zdan hissiyotni ifodalovchi gap (ibora) tuzib yoziladi.

Amaliyotda sinkveyn:

- murakkab axborotni sintezlash quroli;
- talabalar tushunchalar zaxirasini baholash vositasi;
- fikrni ijodiy ifodalash vositasi sifatida juda foydalidir.

Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiylash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda muhim qurol hisoblanadi.

Sinkveyn ma'lum bir mavzu o'rganilganda so'ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyati tushunilib, yakunlanadi. Sinkveyn materiallar ustida o'ylashga, murakkab axborotni sintezlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi.

Beshinchi qatorda mavzuning mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonim yoki mohiyatini yangicha ifodasi yoziladi.

_____ mavzu, muammo, tushuncha, kategoriya nomi (ot);
_____ tavsifi (sifat);
_____ mavzu bo'yicha harakatlar,
_____ hissiyot, aloqadorlikni ifodalovchi jumla;
_____ mohiyatning yangicha ifodasi, sinonim,
_____ o'rganishning mahsuli, natijasi

Misol:

_____ masala
_____ qiyin, og'ir
_____ aniqlash, solishtirish, yechish
_____ bartaraf qilish talab etiladi
_____ muammo

Sinkveyn metodini nisbatan adabiyot, falsafa, tarix va boshqa shunga o'xshash fanlarda qo'llash osonroq. Sababi, ularning sifati va harakati bilan bog'lovchi sinonim so'zlarni topish oson. Iqtisodiy fanlardan esa kategoriyalarning sinonimini topish qiyinroq. Lekin uni boshqacha usullar bilan qo'llasa bo'ladi. Ana shu qiyinchilik uni qo'llashni qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

Sinkveyn metodidan iqtisodiy kategoriyalarni o'rganishda foydalanishni quyidagi misol yordamida ko'rish mumkin.

Aytaylik, narx uning sinonimi baho, lekin bahoning narxga nisbatan keng qamrovliligiga e'tibor qaratmaymiz. O'qituvchi sinonimni talabalarga aytmaydi.

O'qituvchi «Narx» deb doskaga yozib, talabalarga murojaat

qiladi. Narxning sifat tomonini ko'rsatadigan so'zlarni keltirishadi. Talabalar: arzon, qimmat, cho'ntakbop, xaridbop, inflatsion va hokazolarni keltirishlari mumkin. Ana shularni ichidan biz eng mos keladigan, to'g'ri ifodalangan deya variantlardan 2 tasini ajratib olamiz. U arzon, qimmat bo'lsin.

Navbatda narxga bog'liq harakatlarni ifodalovchi so'zlarni to'pishimiz zarur bo'ladi. O'qituvchi yana talabalarga murojaat qiladi: aniqlash, taqqoslash, solishtirish, arzonlashtirish, qimmatlashtirish, belgilash, chidash, norozi bo'lish, rozi bo'lish, chora ko'rish va hokazolar. Ularning-orasidan eng ma'quli deb aniqlash, taqqoslash, arzonlashtirishni olaylik.

Endi narx bilan aloqadorlikni ifodalovchi 4 so'zdan iborat gap, jumla tuzishimiz kerak. Aytaylik, talabalar quyidagicha jummalarni keltirishsin:

1. Narxning ko'tarilishi inflatsiyani ifodalaydi.
2. Narxning shakllanishi xarajatlarga bog'liq.
3. Shakllanishi talab, taklifga bog'liq.
4. Raqobatda muhim omil hisoblanadi.
5. Odamlarni manfaatiga ta'sir ko'rsatadi.
6. Narx qadr - qiymat o'lchovi va hokazolar.

Ularni orasidan eng yaxshi, narxning mazmunini ochib berishga yordam qiladigan deb qaysi birini tanlaymiz, deya murojaat qilinadi. Aytaylik, 3 jumla talabalar tomonidan tanlansin.

Endi narxga sinonim so'zni topamiz. U baho. Bizning sinkveynimiz quyidagicha bo'ladi:

Narx
arzon, qimmat
aniqlash, taqqoslash, arzonlashtirish
shakllanishi talab, taklifga bog'liq
baho

Bu metodni boshqacha usul bilan sinonim so'z, kategoriya bilan emas, balki antonim so'z, kategoriya topish tarzida o'tkazish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarda bunday kategoriyalar mo'l.

Uni 2 xil yo'l bilan o'tkazish mumkin:

1. Birinchi qo'yilgan so'z kategoriyaga xos sifat, harakat, gap tuzish yo'li bilan.

2. Aksincha, unga zid bo'lgan sifat harakat, jumla bilan. Senkveynning modifikatsiyasi quyidagicha bo'ladi:

Misol:

Foyda qonuniy, yalpi	Zarar
hisoblanadi, olinadi, taqsimlanadi	hisoblanadi, olinadi, qoplanadi
Firmaning mavqeiga ta'sir qiladi	Firmaning mavqeiga ta'sir qiladi
Zarar (foydaning aksi)	Foyda (zararning aksi)

Xullas, bu metodni ham turli variantlarda qo'llash mumkin. U o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Axborotlarni yig'ishga mo'ljallangan metodlarga jadval tuzish va ulardan foydalanish ham kiradi (alohida metod sifatida to'xtalib o'tdik). Bu metod, ayniqsa, iqtisodiy fanlardan statistika, buxgalteriya hisobi, tahlil kabi fanlarda keng qo'llaniladi. Jadval tuzish, qo'yilgan maqsadga ko'ra uning ega, kesimini aniqlash qoidalari statistika fanida o'rganiladi. Biz esa ulardan fanni o'quvchi-talabalar ongiga yetkazish metodi, fanni o'rganishda qanday tarzda qo'llashga ahamiyat berishimiz darkor.

Axborotlarni yoyish (klaster) metodi

Keyingi paytlarda iqtisodiy fanlardan dars berishda klaster (axborotni yoyish) metodidan ham keng foydalanilmoqda.

Klasterlarga ajratish pedagogik strategiya bo'lib, u keng qamrovli fikr yuritish, o'rganilayotgan tushuncha (kategoriya, hodisa)lar o'rtasida aloqa bog'lash malakasini rivojlantiradi. Mavzu bo'yicha talabalarni erkin ochiq fikrlashiga yordam beradi.

Bu metodni mavzu yoki uzviy savolni o'rganishning da'vat, tushuntirish, fikrlash bosqichida qo'llash mumkin.

«Klaster» so'zi lotincha «g'uncha, bog'lam» ma'nosini anglatadi. U mavjud bilimlarni ifodalash, muayyan mavzu bo'yicha o'ylash jarayonida yangicha fikrlar uyg'otadi. Klaster tarkibiga kiritilgan asosiy tushuncha, g'oyalar o'rtasidagi muhim bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash, keng ko'lamli fikr yuritishni rivojlantiradi. «Atrof»ga turlicha nazar solishga o'rgatadi.

Klaster tuzishni mavzuni mukammal o'rganmasdan turib qo'llagan ma'qul. Klaster muhokama qilinayotgan tushuncha, mavzuga so'z yoki jumlagi taalluqli sifatlar ma'lum yo'nalishi bo'yicha guruhlanadi.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

1. Sinf doskasi yoki qog'oz varag'iga muhokama qilinadigan mavzudagi asosiy tushuncha, «kalit» so'z yoki gap yozing.

2. Sizni fikringizcha shu mavzuga, tushuncha , «kalit» soʻzga tegishli boʻlgan soʻzlar yoki gaplarni yozing.

3. Yozilgan tushuncha, gʻoyalari oʻrtasida bir-biriga mos bogʻlanishni oʻrnatib.

4. Imkoningiz boricha turli variant, gʻoya, fikrlarni koʻproq yozishga harakat qiling. Eslaganingizning barchasini yozing.

Klaster tuzilishining asosiy qoidalari:

1. Xayolingizga kelgan barcha fikrlarni yozing. Bu fikrlarning maʼnosi haqida oʻylamang, muhokama qilmang, shunchaki, yozib olavering.

2. Imlo va boshqa xatolarga parvo qilmang. Ular yozishni kechiktiradi.

3. Sizga berilgan vaqt tugaguncha yozishni toʻxtatmang. Agar dilingizdagi barini yozib boʻlib, fikr kelishi toʻxtab qolsa, u holda yangi fikr, gʻoya kelgunicha qogʻozga soʻzlar oʻrtasidagi bogʻlanishni chizib oʻtiring.

4. Imkoni boricha koʻproq aloqadorlikni toping. Bogʻlanish mumkin boʻlgan soʻz, gʻoyalarni, ularning oqimi va ular oʻrtasidagi bogʻlanishni cheklab qoʻymang.

Klaster maʼlum tushuncha yoki hodisa haqidagi fikrlarni kengaytirish, turlicha yondashib, muhokama qilish vositasi hisoblanadi. Masalan, iqtisodiyotda eng koʻp qoʻllaniladigan, duch kelinadigan, hammaning manfaatiga tegishli kategoriya - narx. Narx tushunchasi asosida klaster tuzaylik. Buning uchun xayolimizga kelgan barcha soʻz, tushuncha, gʻoyalarni yozib chiqamiz. Ular quyidagicha boʻlsin:

Narx	hisob- kitob vositasi	bozor
Tadbirkorlik	arzon	qimmat
talab	naf	oʻlchov vositasi
taklif	bozor narxi	mahalliy bozor
raqobat	narx turlari	ulgurji
xarid	iqtisodiyotni tartiblash	demping
muvozanat	rentabellik	jahon
chakana narx	chakana narx	ijtimoiy himoya
foyda	narx funksiyalari	zarar

va hokazolarni yozib chiqishimiz hamda ularni aloqadorlikda quyidagicha chizmada aks ettirishimiz mumkin:

Navbatda tushunchaning bir-biriga oʻxshash xossalarni

umumlashtirib, klaster tashkil etuvchilarni toifalarga ajratamiz. Va uni chizmada ifodalab, bog'lanishni aniqlab, ko'rsatamiz.

Bu klasteri nihoyatda keng tuzish mumkin, chunki iqtisodiyotdagi faoliyat natijasi oxir-oqibat narxga kelib taqaladi.

Klaster juda moslashuvchan strategiya, uni barcha fanlarni o'rganishda individual yoki guruh tarzida qo'llash mumkin.

Klaster «aqliy hujum» uchun misol bo'ladi. Odatda, «aqliy hujum» metodini qo'llab, dars o'tganda ham, klaster bo'yicha ishlab chiqilgan, berilgan javoblar bo'yicha ham, umumlashtiruvchi turkumlarga ajratib chiqish amalga oshiriladi. Bu esa talabalarda axborotni turkumlash qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlarni tizimlashtirishni o'rganish imkonini beradi.

Axborotlarni turkumlarga ajratishning izchilligini taminlash uchun:

1. O'rganiladigan mavzu bo'yicha mavjud fikrlarni yozib olish.
2. Olingan axborotlarni u yoki bu sifatiga ko'ra umumlashtiradigan nisbatan umumiy tushunchalarni topish.
3. Ularni doskaga yoki daftarga yozib, dastlabki yozilgan fikrlarni ajratib, yozib chiqamiz.
4. Taqsimlash jarayonida talabalar u yoki bu tushunchani o'zgartirishlari, yangilarini yozishlari mumkin.
5. Kichik guruhlar bir-birlarini ishlari bilan tanisha olish imkonini beradigan usullar topishi lozim.


«Narx» klasteri bo'yicha tushunchalarni umumlashtiruvchi turkumlarga ajratamiz:

1. Narxning funksiyalari:

- o'lchov va hisob-kitob qilish;
- iqtisodiyotni tartibga solish;
- taqsimlash;
- ijtimoiy himoya vazifasi.

2. Narxning turlari:

- erkin narx;
- ulgurji narx;
- chakana narx;
- monopol narx;
- jahon narxi va hokazolar.



O'qituvchining quyidagi maslahatlarga amal qilishi darsni muvafaqqiyatli o'tkazishga yordam beradi:

* axborot turkumlashning yagona to'g'ri usuli yo'q. Bir kichik guruhdagi turkumlash ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Faqat talabalar o'z fikrlarini asoslab berishlari zarur;

* u yoki bu ishni taqqoslamang, alohida ajratib ko'rsatmang. Bu guruhda shaxsiyatparastlikni keltirib chiqaradi. Ishni talabalarning o'zlari baholashsin;

* talabalarga tayyorlagan turkum siz tayyorlagan va turkumlagan klasterdan farq qilishi mumkin. Talabalarni- mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi ekanmiz, ularga erkinlik berish va o'z fikrlarini bayon qilishga imkoniyat yaratish kerak;

* umumlashtiruvchi turkumlash natija emas, jarayon sifatida muhim. Chunki u talabalarni o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi.

Klasterni pedagoglar ko'proq «anglash», «tushunish» fazasida qo'llagan maqul deyishadi. Chunki bunda o'quvchi-talaba o'quv materiallarini nafaqat mustaqil va faol o'zlashtirishi, balki o'z tushunchalarini kuzatib borish imkonini ham beradi.

Axborotni yoyish metodiga o'rganilayotgan fanga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, **fikrni chizma, rasmlarda** ifodalashni kiritish mumkin. Bunda, ayniqsa, talabalarga yozilgan matnni chizma (sxema)da ifodalashni topshirish ularni mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, voqyea, hodisalarning bog'lanishi, natijasini tezda ilg'ashga o'rgatadi. Har sxema o'ziga xos klaster.

5-§. Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlar

O'quvchi-talabalarni mantiqiy mustaqil fikrlashga, harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, o'rganayotgan fan, berilgan turli fikrlar orasidan eng keraklisini tanlab olishga, o'z fikrini himoya qilishga, asoslashga o'rgatadigan qator metodlar mavjud. Ulardan eng diqqatga sazovorlaridan biri «Blits-o'yin» bo'lsa, ikkinchisi «FSMU» metodi.

«Blis-o'yin» Texnologik jihatdan o'yin o'tkazish bir necha bosqichga bo'linadi. Berilgan topshiriqni avval har bir o'quvchi-talaba o'zi bajaradi. So'ngra kichik-kichik guruh va butun guruh miqyosida birgalikda muhokama qilib, ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda har bir talaba o'z fikrini o'tkazishga, uning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladi, shu bilan birga boshqalar bilan hamfikir bo'lishiga yordam beradi.

Buning uchun o'qituvchi topshiriq mazmuni bayon qilingan tarqatma material tayyorlaydi. Darsda o'quvchi-talabalarga o'yin bir necha bosqichda o'tkazilishi, buning uchun vaqt berilishini ma'lum qiladi. Bajariladigan vazifani tushuntiradi. Tarqatma materialdagi jadvalda bajariladigan harakatlar berilgan.

Dastlab har bir o'quvchi-talaba o'zi ana shu harakatlar ketma-ketligini belgilangan tartibda jadvalda alohida ajratilgan ustunga qalamda belgilab chiqishi lozimligi tushuntiriladi. Buning uchun har bir o'quvchi-talaba materialni sinchiklab o'rganishi zarur. Vazifa yakka tartibda bajariladi.

Birinchi bosqich:

Har bir o'quvchi-talaba vazifani bajarishga kirishadi. O'qituvchi yaxshi tushunmaganlarga tushuntiradi. Ular tarqatma materialdagi jadvalda «yakka baho» yozilgan ustunga berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketlikda raqamlar bilan belgilab chiqadi. Ulardan qaysi biri birinchi, qaysi biri ikkinchi, qaysi biri uchinchi va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

Ikkinchi bosqich:

Birinchi vazifaga ajratilgan vaqt tugagach, o'qituvchi guruhdagi talabalar sonidan kelib chiqib, 3–4 kishilik kichik guruhlar tashkil qilishni so'raydi. Kichik guruhlar ixtiyoriy mezonlar asosida tashkil qilinadi. Kichik guruhning har bir a'zosi o'zi belgilagan harakatlar ketma-ketligi bilan boshqalarni tanishtiradi. Kichik guruh a'zolari o'z fikrlari, ya'ni o'zlari belgilaganlari to'g'riligini asoslashga harakat qilishadi. Muhokama jarayonida bir fikrga kelib, jadvaldagi «guruh bahosi» ustunini to'ldirishadi, qalam bilan raqamlarni harakatlar ketma-ketligi bo'yicha qo'yib chiqishadi. Buning uchun vaqt vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'qituvchi kichik guruhlar munozarasida ishtirok etmaydi. Faqat ularning faoliyatini kuzatadi.

Uchinchi bosqich:

Barcha kichik guruhlar «guruh bahosi» ustunini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi tarqatilgan materialdan «to'g'ri javob» ustunini topish va u aytgan harakatlar ketma-ketligi bo'yicha raqamlarni yozib chiqishni so'raydi.

To'rtinchi bosqich:

Endi, navbatdagi vazifa, «to'g'ri javob» ustunida berilgan raqamlardan «yakka baho» ustunida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan kichikni ayirgan holda farqni «yakka xato» ustuniga yozib chiqish kerakligini aytadi. So'ngra, «yakka baho»

ustunidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab, jamini hisoblash kerakligini ko'rsatadi. Xuddi shunday tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq kattadan kichikni ayirish orqali bajariladi. Farqlar soni «guruh xatosi» ustuniga yoziladi. Yuqoridan pastga qarab qo'shib, jami hisoblanadi.

Beshinchi bosqich:

O'qituvchi yakka va guruh xatolari bo'yicha tushuncha beradi. Ularni alohida-alohida sharhlab beradi: agar yakka xatolar 21 tagacha bo'lsa (ya'ni o'rtacha bir savolga 2 tagacha), ular o'rganilayotgan masala bo'yicha yetarli tushunchaga ega, mustaqil ravishda berilgan vazifani uddalay oladilar. Turli sharoitda harakatlarni mantiqan to'g'ri bajara oladilar.

Agar yakka xatolar soni 21 tadan 30 tagacha bo'lsa, ularning bilimlari yetarli emas, biron bir ish, faoliyatni olib borishga, tashkil etishga qiyinaladilar yoki pala-partish bajaradilar. Shuning uchun ular bilimlarini mustahkamlashlari, o'qishlari, mantiqiy fikr yuritishni o'rganishlari kerak.

Agar xatolar soni 30 tadan ortiq bo'lsa, bunday o'quvchitalabalar o'z ustilarida qattiq ishlashlari talab qilinadi.

«Guruh xatosi» ustunining sharhi:

Agar xatolar soni 21 tagacha bo'lsa, bu guruhlarda o'quvchitalabalar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar. Bir-birlarini ishontira olganlar. Oqibatda, bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o'rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

Agar guruhda xatolar soni 21 dan 30 tagacha bo'lsa, bu guruh a'zolarining bir fikrga kelishlari qiyin bo'lgan. Muhokama yuzaki, bir-birlarini xafa qilib qo'ymaslik uchun shunchaki kelishishgan. Aslida har kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Bu guruhda samimiy munosabat o'z aksini topmagan.

Agar guruh xatosi 30 dan oshsa, bu guruh a'zolari umuman bir-birlari bilan kelisha olmaganlar. Bir-birlarini o'zaro ishontira olmaganlar. Har kim o'z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o'rnatilmagan.

Bajarilgan vazifaning 55–70 foizi to'g'ri bo'lsa, qoniqarli, 71–85 foizi to'g'ri bo'lsa, yaxshi, 86 foizdan yuqorisi a'lo baho qo'yilishi mumkin.

Aytaylik, «Buxgalteriya hisobi» fanidan buxgalteriya hisobvaraqlari o'rganilganda, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining hisobvaraqlari rejasining «Uzoq muddatli aktivlar» qismini «Men — buxgalter» blits-o'yini yordamida ko'rib chiqish mumkin. Bunda biz hisob varaqlarining raqamlari bo'yicha

ketma-ketlikda joylashtirishni topshiriq qilib beramiz. Vazifani bajarish uchun 5 daqiqa vaqt belgilaymiz. Blits-o'yinni o'tkazishni yuqorida ko'rsatganimizdek amalga oshiramiz. Bu nisbatan oddiy topshiriq, lekin keyingi darslarda bu fandan ancha murakkab topshiriqlar tayyorlashga imkoniyat bor.

Blits-o'yin: «Men – buxgalter»

Harakatlar mazmuni	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka baho	Yakka xato
Nomoddiy aktivlarning hisobvaraqlari	4	0	4	3	1
Debitor qarzlari va muddati kechiktirilgan xarajatlarning hisobvaraqlari – uzoq muddatli qismi	9	0	9	8	1
Asosiy vositalarning hisobvaraqlari	1	0	1	2	1
Nomoddiy aktivlarning eskirish hisobvaraqlari	6	1	5	4	2
Kapital quyilmalarning hisobvaraqlari	7	1	8	9	1
Asosiy vositalarning eskirish hisobvaraqlari	3	1	2	1	1
Uzoq muddatli investitsiyalarning hisobvaraqlari	5	1	6	5	1
Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning hisobvaraqlari	2	1	3	7	4
Kapital quyilmalarning hisobvaraqlari	8	1	7	6	1
		6			13

Demak, birgalikda ishlaganda xato kamaygan. Lekin to'g'ri javob berish uchun talabalar o'z ustida ishlashi, qaysi hisobvarag'i ketma-ketligini aniq bilib olishi kerak.

FSMU metodini qo'llash Bu metod ham bir necha faza yoki bosqichga bo'lib qo'llaniladi. Shuni nazarda tutib, FSMU texnologiyasi deb ham yuritiladi. Bu metod ham o'quvchi-talabalarni mustaqil, erkin fikrlash va o'z fikrini himoya

qilishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini baholashga, bahslashish madaniyatini va unga rioya qilishni o'rgatadi.

O'z fikrlarini aniq va qisqa ifodalab, uni tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishni o'rganishga yordam beradi.

Bu metoddan ham avvalgi metod kabi topshiriq avval har bir o'quvchi-talaba tomonidan individual, so'ngra kichik guruhlar hamda butun guruh bilan birgalikda bajariladi.

1. Tayyorgarlik ko'rish fazasi

O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan birgalikda darsda bahs qilinadigan, muhokama qilinadigan savol, mavzu yoki o'rganilgan bo'limni belgilaydi. Ana shu doirada har bir o'quvchi-talabaga o'z fikrini aytish, fikrning bildirish sababini ko'rsatish, misol keltirish hamda umumlashtirish topshiriladi. Bu topshiriq, bajariladigan ishning ketma-ketligi ko'rsatilgan varaqlar tarqatish orqali yoki doskaga yozib, har bir o'quvchi-talabani o'z daftariga ko'chirib olish tarzida amalga oshiriladi.

2. Axborot bilan ta'minlash fazasi

Varaqlarda quyidagilar yozilgan:

(F) – Fikringizni bayon eting;

(S) – Sabab ko'rsating(bayon qilgan fikringizga sabab ko'rsatishingiz kerak);

(M) – Misol keltiring(ko'rsatgan sababni isbotlovchi misol keltirish kerak);

(U) – Umumlashtiring (bildirgan fikringizni umumlashtirishingiz kerak). O'qituvchi ularni qanday bayon qilish kerakligini tushuntiradi. Har bir kishi o'z fikrini erkin aytishi mumkinligi eslatib o'tiladi. Uni bajarishga qancha vaqt ajratiladi, qanday qoidalarga rioya qilish kerak, kabilar e'lon qilinadi.

3. Topshiriq ustida ishlash fazasi

Har bir o'quvchi-talaba o'z fikrlarini tarqatilgan varaqlarda yoki daftarida aks ettiradi.

4. Kichik guruhlar ish natijasini muhokama qilish

Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, kichik guruhning har bir a'zosi o'zi bildirgan fikr bilan o'rtoqlarini tanishtiradi. Kichik guruh a'zolari birgalikda muhokama qilib, FSMU ni umumlashtirilgan holda yozadilar. Fikrlarni umumlashtirish paytida har bir o'quvchi-talaba o'z fikrini himoya qilishi, isbotlashi mumkin. Kichik guruh o'z fikrini asosiy guruh oldida himoya qilishga tayyorgarlik ko'radi.

5. Yakunlash

Har bir kichik guruh o'z fikrini guruh oldida bayon qiladi, asoslaydi, himoya qiladi. Buning uchun guruhdan tayinlangan vakil FSMUning har bir bosqichi bo'yicha bildirilgan fikrlarni alohida o'qiydi. Guruhning nima sababdan shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

Masalan:

Ish haqi to'g'risidagi savolni muhokama qilganda, bu metod-dan foydalanishni ko'rib chiqaylik.

Aytaylik, tarqatilgan varaqdagi yoki amaliy mashg'ulot (seminar) daftarida meni javobim quyidagicha bo'lsin:

F – Fikringizni bayon eting. Meni ish haqim ohsa xursand bo'laman.

S – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating. Chunki, ish haqi oshgach, meni ehtiyojimni qondiradigan xilma-xil tovar va xizmatlardan foydalanish imkoni ortadi. Anchadan beri orzu qilib yurganim chet elga sayohat qilish imkoni vujudga keladi.

M – Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring. Men hisoblab chiqdim: avval olgan ish haqim faqat oziq-ovqat va kiyim-kechak, kommunal to'lovlarga yetar edi. Endi oyiga 100 ming so'mdan jamg'arish imkoniga ega bo'ldim.

U – fikringizni umumlashtiring. Bulardan shunday xulosa chiqarishim mumkinki, ish haqi oshgach, boshqalarda ham shunday imkoniyat vujudga keladi.

Navbatda, kichik guruh a'zolarining fikri FSMU varag'ida aks ettiriladi. Ular asosida qanday umumiy xulosaga kelish va kichik guruh taqdimotida bayon qilishga kelishib olinadi. Kichik guruhda hamma o'z fikri bilan o'rtoqlashib, bu yerda inflatsiya hisobga olinmaganini aytishi mumkin. Orzu qilingan maqsadga yetish uchun tovar, xizmatlar taklifi avvalgidan kam bo'lmasligi, narxlar, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal xizmatlari deyarli o'zgarماسligi kerak. So'mning tovar bilan ta'minlanish darajasi pasaysa, hamma tarmoqlarda ham ish haqining o'sishi inflatsiyaga olib keladi. Uni pasaytirmaslikning yo'li mehnat unumdorligining ish haqiga nisbatan tezroq o'sishini ta'minlash zarur. U holda kichik guruh a'zolarining umumiy fikri quyidagicha bo'lishi mumkin:

U – fikringizni umumlashtiring. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan ko'proq darajada ortsa, ish haqining ortishi turmush darajasining ko'tarilishi, turli-tuman yangi ehtiyojlarning qondirilishiga olib keladi.

O'qituvchi darsni yakunlar ekan, aytilgan fikrlarga o'z mu-

nosabatini bildiradi. Ularga murojaat qilib, bugungi darsdan nimalarni bilishgani, bu metodni qachon, qanday qo'llash mumkinligi va boshqa savollar beradi. O'quvchi-talabalar va kichik guruhlarining faoliyatini baholaydi.

6-§. Ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi metodlar

«Delfa» metodi O'quvchi-talabalarni ijodiy fikr yuritish, bildirilgan fikrlarni taqqoslab, baho berish ko'nikmalarini shakllantiradigan metodlardan biri «Delfa» metodidir.

«Delfa» metodida u yoki bu mezonlarga ko'ra muqobil variantlar tanlanadi va ulardan muhimlari ajratiladi.

Statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, mehnat unumdorligi pasayib ketishining beshta sababi bor. Bular:

- * ish vaqtida tanaffuslarning ko'pligi;
- * texnikaning eskirganligi;
- * ishchilarning malakasi pastligi;
- * xomashyoning sifatsiz chiqib qolgani;
- * sexda haroratning balandligi.

Shulardan eng muhimini topib, bartaraf qilishimiz kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir sababni ko'rsatib, talabalarga, ana shu sabablardan qaysi biri ularning fikricha, eng muhimi hisoblanishini ko'rsatishni so'raydi. Talabalar navbati bilan o'z fikrlarini bildiradilar. Ular texnikaning eskirganligi deb javob berishi mumkin.

O'qituvchi talabalarga murojaat qilib, shu fikrga qo'shiladiganlar bormi, shu fikr tarafdori bo'lsa qo'l ko'tarsin, deb murojaat qiladi. 20 ta talabadan 14 tasi qo'l ko'tarsa, texnikaning eskirganligi 14 deb yozib qo'yamiz.

O'qituvchi ikkinchi o'ringa fikringizcha, qaysi sababni ko'rsatishimiz mumkin? deya tashlangan savolga, ikkinchi talaba xomashyoni sifatsizligini, deb javob bersin. O'qituvchi yana shu fikr tarafdorlarini aniqlaydi, ular 6 ta bo'lsin. Demak, talabalarning yarmidan ozrog'i bu fikrni qo'llab-quvvatlayapti. Kimda yana boshqa fikr bor? Uchinchi talaba, ishchilarning malakasi pastligini ko'rsatishi mumkin. Bu fikrning tarafdorlari ham aniqlanadi. Ular 12 ta bo'lsin. 3-5 o'ringa qo'yiladigan sabablar ham shunday yo'l bilan aniqlandi. Shu asosda mehnat unumdorligini pasayib ketishining eng asosiy sabablari quyidagi tartibda joylashadi:

- texnika-texnologiya eskirganligi;

- ishchilar malakasining pastligi;
- xomashyo sifatsizligi;
- ish vaqtida tanaffuslar ko'pligi;
- sexda haroratning balandligi.

Demak, mehnat unumdorligini oshirish uchun birinchi navbatda yangi texnika - texnologiya sotib olish, mablag' topish yo'llarini qidirish kerak.

Shunday qilib muhokama jarayonida sabablar ularning muhimligi darajasiga ko'ra saralab chiqiladi. Har bir talaba o'zi uchun muhim deb oilgan sababni birinchi o'ringa, unga qaraganda pastroq hisoblagan sababini ikkinchi o'rin va hokazo o'ringa qo'yadi. Muhokama natijasida guruh uchun umumiy natija qabul qilinadi. Buni guruhda muqobil (variant)larni baholash jadvali asosida amalga oshirish mumkin. U guruhdagi har bir talabanning fikrini inobatga oladi.

Buning uchun sabablar ko'rsatilgach, talabalarga baholash jadvali tushuntiriladi, unga ko'ra talabalar o'zlari eng muhim deb bilgan sabablarini baholaydilar. Sabablar 1 dan 5 ballgacha baholanadi. (Ko'rsatilgan sabablar 5ta)

2-bosqichda, har bir talaba sababga to'xtalib dolzarbligiga ko'ra 10 ballgacha baholaydi. Bunda eng yuqorisi 1, eng past 10 ball.

3-bosqichda muqobil variantlarning har biriga berilgan toifa bahosi bilan bali ko'paytirilib, hosila bali aniqlanadi.

Butun guruh uchun bitta baholash jadvalini to'ldirish ko'p vaqtni talab qilgani uchun, biz kichik guruhlarga bo'lganimiz ma'kul.

Guruh 20ta talabadan iborat bo'lsa, 4 ta kichik guruh tashkil qilamiz. Bunda baholash jadvalini har bir kichik guruh a'zosi to'ldirgach, kichik guruh uchun umumiy xulosa qabul qilinadi.

Aytaylik, u quyidagicha bo'lsin:

BAHOLASH JADVALI

Muhokama qatnash-chilari	Sabablar														
	1			2			3			4			5		
	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H
Abbos	5	2	10	1	6	6	2	8	16	3	6	18	4	8	32
Erkin	4	3	12	1	8	8	3	6	18	2	8	16	5	7	35
Shuhrat	3	2	24	2	7	14	1	9	9	4	2	8	5	6	30

Komila	4	7	28	2	5	10	1	8	8	5	3	25	4	5	20
Nafisa	3	8	24	1	9	9	2	5	10	4	4	16	5	5	25
Jami:			98			43			61			73			142

T- toifa bahosi (1dan 5gacha);

B - ball bo'yicha baho (1dan 10gacha);

H - hosila (ya'ni TxB.).

Demak, 1-kichik guruh a'zolari eng past hosila ballni 2- sababga qo'yishgan. Berilgan sabablarda u texnika-texnologiyaning eskirganligi deyilgan. Demak, guruh a'zolarining fikricha, mehnat unumdorligining pasayib ketishining eng muhim sababi texnika-texnologiyani eskirishi.

Ikkinchi o'rinda 61 ball bilan 3-sabab turibdi, u ishchilarning malakasi pastligi; so'ngra 73 ball bilan 4- sabab, 98 ball bilan 1-sabab, 142 ball bilan 5- sabab turibdi. Kichik guruh a'zolaridan bir talaba guruhning umumiy natijasi asosida qanday qarorga kelishganini bildiradi, xuddi shunday tartibda boshqa kichik guruhlarning natijasi eshitaladi. To'rtta kichik guruh bo'yicha jadval ma'lumotlari umumlashtiriladi va butun guruh uchun umumiy fikrga kelib, taklif ishlab chiqiladi. Ana shunday metodning o'ziga xos modifikatsiyasi mavzu qo'yilgan muammoni o'rganishda tahliliy, ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish metodidir.

Tahliliy - ijodiy vazifa- larni guruh bo'lib yechish metodi

Bunda o'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha fikrlashni talab qiladigan, muvofiq ravishda tavsiyalar ishlab-chiqishini o'rganish zarur bo'lgan savol

yoki muammoni doskaga yozadi.

Muhokama jarayonida bildirilgan fikrlar ham yozib boriladi. Bunda barcha talabalar albatta o'z fikrini aytishi zarur. Aytaylik, biz xarajatlarni o'rganyapmiz. Asosiy maqsad xarajatlarni kamaytirish orqali mahsulot ishlab chiqarib sotishdan yuqori foyda olishni ta'minlash.

Demak, xarajatlarni pasaytirish omillarini aniqlashimiz, ularning ta'siri katta yoki aksinchaligini topishimiz kerak. Buni guruhda muhokama qilish uchun doskaga:

«Sarf-xarajatlar miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar» deb yozib qo'yamiz.

Guruhda 20 ta talaba bo'lsin. Har bir talaba navbat bilan o'z fikrini aytadi.

Biri ikkinchisini takrorlamasligi kerak. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Har bir talaba: nima uchun shu omil xarajatlarning ko'payishi yoki kam bo'lishiga ta'sir qilishini asoslab beradi.

Xarajatlarning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar talabalar tomonidan quyidagicha ko'rsatilsin:

- ✓ sotib olingan xomashyoning sifati;
- ✓ iste'molchilarni uzoq - yaqin joylashishi;
- ✓ xomashyo narxi;
- ✓ amortizatsiya normasi;
- ✓ yordamchi materiallar narxi;
- ✓ elektr energiyasi narxi;
- ✓ gaz narxi;
- ✓ isitish narxi;
- ✓ issiq suv, sovuq suv narxi;
- ✓ asbob-uskunalarining narxi va sifati;
- ✓ texnika - texnologiya darajasini talabga javob berishi;
- ✓ ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga e'tibor berish;
- ✓ o'rganilgan bozor konyunkturasi;
- ✓ mahsulot birligiga sarflangan material yoki material sig'imi;
- ✓ mahsulot birligiga sarflangan mehnat xarajatlari yoki mehnat unumdorligi;
- ✓ mahsulot birligiga sarflangan kapital sarfi yoki kapital sig'imi;
- ✓ mahsulotga sarflangan energiya yoki energiya sig'imi;
- ✓ ishchi va xodimlarning malakasi, mahorati;
- ✓ bosh menejer (ijrochi direktor) va menejerlarning malakasi va mahorati;
- ✓ tabiiy sharoitning qulayligi yoki noqulayligi.

Talabalar fikrini aytib bo'lgach, o'qituvchi auditoriyada sanab o'tilgan va boshqa omillar xarajatlar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Endi ana shu sanab o'tilgan omillardan eng muhim 5 tasini ajratib ko'rsating, deya murojaat qiladi. Javoblarni individual yoki kichik guruhlar miqyosida umumlashtiriladi. Bunda muhimligi jihatidan birinchi o'ringa qaysi bir omilni qo'yish, qolganlarini ahamiyatiga ko'ra tutgan o'rinlari belgilanadi. Bu avvalgi metodni o'rganganimizdek amalga oshirilishi mumkin.

Misolimizda aytaylik:

- 1) bosh menejer (ijrochi direktor), menejerlarning malakasi va mahorati;
- 2) texnika va texnologiyalar darajasi talabga javob berishi;
- 3) mehnat unumdorligi;

4) xomashyo narxi;

5) mahsulot sifati.

Talabalar nima sababdan aynan u yoki bu omilni birinchi, ikkinchi va hokazo o'rinlarga qo'rganlari sababini asoslab berishadi. O'qituvchi javoblarga o'z munosabatini bildirib, talabalarning javoblarini baholaydi. Yoki baholash jadvali tayyorlab, talabalar bilan birgalikda baholab chiqiladi.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda maqollar Hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Jumladan, iqtisodiy fanlardan dars berishda xalq pedagogikasi yutuqlaridan keng ravishda foydalanishni bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida shakllangan, rivojlangan bo'lib, xalq tomonidan yaratilgan hayotiy an'analar, udumlar, marosimlar, bayramlar va boshqalarda o'z aksini topgan, tarbiyaning eng dolzarb masalalarini hal qilishga qaratilgan umum-bashariy, umuminsoniy g'oya va maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Iqtisodiy qarashlar ma'lum bir davrda xalqning an'analari, udumlari yaratilgan tajribalar orqali kishilarga ta'sir etgan bo'lsa, diniy qarashlarning shakllanishi tufayli ular diniy nuqtayi nazardan axloqiy normalar, qonun-qoidalarda mujassamlashgan va kelgusi avlodga yetkazilgan.

Xalqning ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalari, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan, etnopedagogikada alohida o'rganiladigan, durdona fikrlar bu maqollardir. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur ma'noli gaplar — maqollardir. G.Fuller fikricha «Maqollar katta ma'noni uch-to'rt so'z bilan ifodalanadigan shaklidir».

Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga munosabati, hayotning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. U xalqning kuzatuv va xulosasi tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, ularning axloq va odobiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir. Qadimdan maqollar tarbiyalovchi rol o'ynagan. Bir tomondan pedagogik g'oya, ikkinchi tomondan tarbiyaviy ta'sir, ta'lim berish funksiyasini bajargan. Shu tufayli ta'lim-tarbiyada samarali metod sifatida ularni keng qo'llash ijobiy natija beradi.

Maqollar bu q'tmish emas, balki xalqning doimiy yangraydigan jo'shqin ovozi. U bugunnigina emas erta uchun ham ahamiyatini yo'qotmaydi. Maqollarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tinglovchiga o'git-nasihati yo'sinida badiiy o'xshatishlar orqali aytiladi. Yoki keng ma'no'li fikrni osongina tushunishga yordam beradi.

Barcha xalqlarda mehnatga yo'llash, halollik pedagogikaning bosh vazifasi. Ular maqollarda ham o'z ifodasini topadi. Tarixiy va pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, mehnat shaxsni axloqiy, aqliy, jismoniy kamol topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dangasalik xalqlar tomonidan hayot kechirishga yot bo'lgan xislat sifatida doimo qoralangan. Mehnat orqali tarbiyalash insonning ulug'vor, mehnatsevar, izchil va mas'uliyatli bo'lishiga olib keladi.

Xalq mehnatni jamiyat taraqqiyotidagi rolini hisobga olibgina qolmay, mehnatni uning natijasini qadrlashga o'rgatgan. Barcha xalqlarda mehnat, halollik ulug'langan. Ularni iqtisodiy pedagogikada, iqtisodiyotni o'rganishda muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Shu bilan birga shunday maqollar borki, ular iqtisodiyotdagi murakkab kategoriyalarni osonlik bilan tushunishga yordam beradi. Masalan, iqtisodiyotda me'yoriy nafillikning pasayib borishi mavjud, Ne'matning navbatdagi birligini xarid qilib, tasarrufidagi tovarlarni ko'paytiradigan xaridor uchun ular qadrining pasayishi bilan bog'liq. Kundalik hayotda ham qadr-qimmat tushunchasi, odatda cheklangan kamyob ne'matlarga nisbatan qo'llaniladi. Ehtiyojlar to'yingan sari nafilligi kamayib boradi. Ular nisbatan murakkab tushunchalar bo'lib ularni o'rganishda nafillik nazariyasi mohiyatini ifodalovchi «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», «Xolva-ning ozi shirin», «Tuya bir tanga qani bir tanga, tuya ming tanga mana ming tanga» maqollaridan foydalanish mumkin. Yoki iqtisodiyotda resurslarning cheklanganligi, ayniqsa, inson uchun eng cheklangan resurs vaqt ekanligiga diqqat qaratilgan «Vaqtning ketdi, naqding ketdi» yoki sarf-xarajatlarni hisob-kitobini olib borish naqadar muhimligini ifodalovchi «Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar», «O'ylab-o'ylab jo'yak olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan», «O'ylamay uchgan qo'narga joy topolmas» resurslarsiz, ularni birlashtirib ishga solinmasa hech narsa yaratib bo'lmasligini ta'kidlovchi: «Buromad bo'lmasa daromad bo'lmas», «Xolva degan bilan og'iz chuchimas» kabi maqollarini tegishli mavzu, savollar muhokamasida qo'llash mavzuning, masalaning mohiyatini o'quvchi-talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Ularni

o'rganilayotgan mavzularga bog'lab qo'llaniladi. Masalan, budget parametrlarini aniqlash haqida fikr yuritganda «Ko'rpangga qarab oyoq uzat», daromad taqsimotini o'rganishda «Daromadga qarab, buromad», talab va taklif, bozor narxini shakllanishida «Uydagi narxni bozordagi baho buzar», yer taklifining mutlaq noelastikligiga diqqat qaratilgan «Puling bo'lsa yer ol» kabi maqollarni qo'llash mumkin.

Iqtisodiyotda halollikning ahamiyati katta. Iqtisodiy faoliyat ehtiyojlar, manfaatlar, maqsad va ularni realizatsiya qilish uchun qaratilgan faoliyat bilan bog'liq ekan, o'z manfaatini ko'zlagan holda birovni haqiga xiyonat qilish uchun ko'ngil sust ketishi, yo'ldan ozish imkoniyati mavjud. Shuning uchun xalqimiz hallolikni ulug'lovchi uning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ifodalovchi bir qator maqollar ijod qilgan. Ularni tadbirkorlik va kichik biznes masalalarini o'rganishda qo'llash mumkin.

Ayniqsa, o'rganilayotgan mavzuning mazmuni bilan bog'liq maqollarni qidirib topishni o'quvchi-talabalarga topshiriq qilib berish ularni qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunishga, ijodiy izlanishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Iqtisodiy topishmoqlar va paradokslar tanlovi Xalq pedagogikasi barcha sohalarni qamrab organ. «Xalqning tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim»¹

Qadimdan xalq pedagogikasida topqirlikni tarbiyalash, zehnni o'tkirlash, fikrlash qobiliyatini o'stirishda qo'llaniladigan xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida eng ko'p tarqalgan janrlardan biri — topishmoq (jumboq)lardir. O'z xususiyatiga ko'ra topishmoqlar ikki va undan ortiq kishi o'rtasida qizg'in bahslar, tortishuvlar orqali olib boriladi.

Yosh avlodning fikrlash qobiliyatini o'stirish va mustaqil faoliyatga o'rgatishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega. Odatda topishmoqda narsa, buyumlarning bir necha belgilari aks etadi va unga qarab topishmoq javobi topiladi. Javob topish uchun ularni taqqoslash, chuqur, atroflicha mushohada yuritish talab qilinadi. Topishmoqlardan bog'chadan boshlab, ya'ni insonda dastlabki mushohada qilish shakllanishidan boshlab to umrini oxiriga qadar foydalanish mumkin.

Topishmoqlar aqlni yuqori darajada bo'lishini, o'zida axloqiy

¹ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T.: «O'zbekiston», 1993, 8-bet.

g'oyalarni ifodalashga yordam beradi. U aqliy, estetik va axloqiy tarbiyaga katta ta'sir o'tkazadi. Qadimda hamma funksiyani bajar-gan bo'lsa, keyinchalik ko'proq aqliy tarbiyalashda qo'llanilgan. Topishmoqlar fikr yuritishini rivojlantirishga, tahlil qilishga, pred-metning, voqyea-hodisalarning turli jihatlariga diqqat qaratishga o'rgatadi.

Aqliy jihatdan topishmoqlarni qo'llashning afzalligi shundaki, u tabiat, inson, jamiyat xaqida ma'lumotlarni faol fikr yuritish jarayo-nida amalga oshiriladi, fikr yuritish xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Topishmoqlar odamning aqlini o'stirishdagina emas, balki uni shaxs bo'lib shakllanishida katta rol o'ynaydi. U kuzatish qobiliyatini o'stiradi. Topishmoqdagi narsa-buyumlarning bir necha belgilari aks etadi. Ularga qarab topishmoqning javobi topiladi. Bu jarayon turli belgilarni qiyoslash, atroflicha fikr yuritish, musho-hada qilishga o'rgatadi.

Iqtisodiyotni o'rganishda, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy topishmoqlarni roli beqiyos, ularni qo'llashning imkoni keng. Iqtisodiyotni o'rganishda odatda iqtisodiy kategoriya, tu-shunchalarni o'rganishga qaratilgan topishmoqlardan foy-dalaniladi. To'g'ri, iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan xalq to-monidan ijod qilingan topishmoqlar juda kam. Lekin ularni o'qituvchining o'zi namuna sifatida tayyorlab yoki manbasini ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda topishmoqlardan foydalanish o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi.

Bu metod shunisi bilan qiziqarliki, ana shu topishmoqlar, paradokslarni o'quvchi — talabalarning o'zlari tuzishlari, muho-kama qilishlari ularni yanada fanni o'rganishga qiziqtiradi.

Bunda o'quvchi — talabalar iqtisodiy topishmoqlarni she'r yoki boshqacha tarzda, o'ziga xos krossvord tarzida tuzishlari mumkin. Bunda ular iqtisodiy kategoriyalarning mazmunini chuqur o'rganib olishadi.

Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'quvchi-talabalar iqtisodiy konsepsiyalarni bilish-lari zarur. Ular o'quvchi, talabalarni keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniq va izchil tassavvur qilish, fikr yuri-tishlariga yordam beradi. O'quvchi-talabalarga ana shunday top-ishmoqlar tayyorlashni topshirib, ular o'rtasida **tanlov** o'tkazish mumkin.

Iqtisodiy konsepsiyalarni tushunish, real hayotda qo'llashni

o'rganish uchun eng qulay metodlardan biri «Iqtisodiy paradokslar¹ va topishmoqlar tanlovi» hisoblanadi.

Tanlovning maqsadi:

O'quvchi, talabalarni mahalliy yoki milliy iqtisodiyot miqyosidagi misollardan foydalanib, iqtisodiy paradokslarni o'ylab topish va ishlab chiqish mahoratlarini aniqlash.

Tanlovni quyidagi variantlarda o'tkazish mumkin:

1. O'quvchi, talabalarga iqtisodiy paradokslarni topib, tayyorlanib kelish uyga vazifa qilib beriladi. Ular uyda paradokslarni o'z javob varianti bilan tayyorlab kelib, tanlov hay'ati hukmiga havola qilishadi.

2. O'quvchi, talabalar iqtisodiy paradokslar va ularning javob variantlarini hay'atga topshirishgach, tanlovda «Iqtisodiy ring» tashkil etiladi. Bunda o'quvchi-talabalar komandalarga bo'linishadi. Komandalar konkursning boshqa qatnashchilari tayyorlagan paradokslarga javob berishadi. Komandalar paradokslarni ma'nosini tushuntirib, o'z javoblarini berishadi.

3. O'qituvchi yoki hay'at a'zolari konkurs qatnashchilariga iqtisodiy paradokslarga o'z javob variantlarini berishni taklif qilishadi.

Hay'at vazifani bajarish sifati va raqiblarning savol, javobiga ko'ra komandalarni baholaydi.

Hay'at a'zolari iqtisodiy paradokslar va topishmoqlarni baholashlari uchun uning mezonlari ishlab chiqilib, ularga tarqatiladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy paradokslarni baholash mezonlari:

M E Z O N L A R		Maksimal ball
1. Masalani topish mahorati.		1
2. Masalaning muammoligini ko'rsatish, isbotlash mahorati.		1
3. Konsepsiya topish yoki iqtisodiy paradoksni tushuntirish uchun konsepsiya tanlash.		1
4. Vaziyatning jumboqliligi, odatdan tashqari o'zgachaligi.		1
5. Qisqaligi		1
Jami:		5

¹ Paradoks (yunoncha paradoxos – kutilmagan, g'alati) – ko'pchilik tomonidan qabul etilgan an'anaviy fikr, tajribaga o'z mazmuni, shakli bilan zid bo'lgan, kutilmagan mulohaza. Har qanday paradoks «shubhasiz to'g'ri» (asoslimi, asossizmi, bundan qat'i nazar) hisoblangan u yoki bu fikrni inkor etishday ko'rinadi. Antik filosofiyada har qanday g'alati, original fikrni ifodalash uchun ishlatilgan.

Iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tanlovini o'tkazishdan avval albatta o'quvchi-talabalarga ularni qanday tuzish kerakligini ko'rsatish lozim.

Konkursda qatnashuvchilarga maslahatlar:

Iqtisodiy topishmoq, paradoksnı qanday tuzish mumkin?

1. Sizga g'alati tuyulgan voqea, hodisa, narsalarga diqqat qiling.

2. Muammoni aniqlab, hamma uchun tushunarli dastlabki fikrni ifodalang.

Masalan: Oziq-ovqatga past narxlarni ushlab turish kerak. Biz har bir odamni yeyish uchun oziq-ovqati bo'lishini xohlaymiz.

3. Muammoga boshqa tomondan yondashing. Unga qarama-qarshi fikr o'ylab toping. U ham birinchi gap, taklif, fikrga o'xshab mulohazali, oqilona bo'lishi kerak. Masalan: Qayerda oziq-ovqat mahsulotlarining bahosi bozor muvozanati bahosidan past bo'lsa, u yerda peshtaxtalar bo'sh bo'ladi.

4. O'quvchi-talabalarga noiqtisodiy g'oya va fikrlar sabablarini chetda qoldirish, ularga e'tibor bermaslikni maslahat beriladi. Uning o'rniga «iqtisodiy fikrlash tarzi» prinsiplarini qo'llab, muammoni iqtisodiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqish, tushunishga da'vat qilinadi.

U holda biz iqtisodiy muammoni quyidagicha qo'yishimiz mumkin:

«Oziq-ovqatga yuqori narxlarni rag'batlantirish kerak. Biz har bir odamning yeyish uchun oziq-ovqati bo'lishini xohlaymiz»

Haqiqatan ham «Baholar rag'batlantiruvchi stimuly tarzida amal qiladi. Agar baholar haddan tashqari past bo'lsa, dehqonlarning ixtiyoriy ravishda hamma uchun zarur bo'lgan ovqat tayyorlanadigan ekinlarni ekishga rag'bati past bo'ladi. Nisbatan yuqori baholar ularni ixtiyoriy ravishda bunday ekinlarni ekishni ko'paytirishga olib keladi».

5. Qo'shimcha misollarni o'rganib, ko'rsatilgan iqtisodiy prinsiplardan kelib chiqib, yechimi tekshiriladi.

Iqtisodiyotni o'rganishda va tadqiq qilish iqtisodiy topishmoq, paradokslarni yechishda deduktiv fikr yuritishni taqozo qiladi. Bu yerda «deduktiv» fikr deganda, ilmiy jihatdan iqtisodiyot bizni ma'lum prinsiplar, ilmiy taxminlar bilan qurollantiradiki, ulardan masala, muammolarni yechishda foydalanamiz. Ulardan foydalanish o'quvchilarga go'yoki start maydoni — foydali va foydasiz mulohazalarni ajratishga yordam beradi.

Quyidagi ilmiy taxminlardan tadqiqiy masalalarni yechishda

foydalanish mumkin. Iqtisodiy paradokslarning javoblari qo'yidagilarga tayanadi:

1. Kishilar tanlaydilar.
2. Tanlov xarajatlar bilan bog'liq.
3. Odamlar rag'batlantirishga qanday qarashlarini oldindan taxmin qilish mumkin.
4. Odamlar iqtisodiy tizim yaratadilar. U o'z navbatida individual tanlov va stimullarga ta'sir etadi.
5. Odamlar iqtisodiy almashuvdan doimo yutadilar.
6. Odamlarning tanlovi kelajakda namoyon bo'ladigan oqibat-larga olib keladi.
7. Bozorning kamchiliklarini hukumat to'ldirishi mumkin.

Paradokslar kabi topishmoqlarni tayyorlab kelishni o'quvchi-talabalarning o'ziga topshirish ularni fikrlashga, u yoki bu kategoriya, tushunicha, atamalarning mazmuni, o'ziga xos alohida ahamiyatga ega jihatlari, xususiyatlariga diqqat qaratishga o'rgatadi. Bunda ana shu xususiyatlarini qay darajada to'g'ri ifodalashlariga va boshqa qator mezonlariga ko'ra tayyorlangan topishmoqlar baholanadi. Topishmoqlar o'rganilayotgan mavzular va ularda muhokama qilinadigan savollarga bog'lab o'rganiladi.

Iqtisodiy topishmoqlar o'ziga xos mashq-savol tarzida quyidagicha tayyorlanishi mumkin: Masalan, Uyning egasi uyini ijaraga berib pul topdi. Uyni ijaraga olgan kishi shu yerda kichik korxonaga ochib, mahsulot chiqarib sotdi va bu faoliyatdan pul topdi. Bu yerda kim tadbirkor hisoblanadi? (Javob: Kichik korxonaga ochgan.) Bunday mashq-savol tarzida topishmoqlarni individual tanlov tarzida o'tkazgan ma'qul. Chunki, bunday topishmoq tayyorlash har bir talabaning qo'lidan keladi.

2. Iqtisodiy kategoriya yoki tushuncha, hodisalarni o'rganish uchun she'riy topishmoqlar, **topqirlik mashqi sifatidagi** krossvordlar tanlovini kichik guruhlar o'rtasida o'tkazish optimal hisoblanadi.

Bunda, guruhni kichik guruhlarga bo'lib, har bir kichik guruhga topishmoq yoki krossvord tayyorlash vazifa qilib berilishi mumkin.

Masalan, buxgalteriya hisobi fanidan balansni o'rganishda topishmoqlar konkursi o'tkaziladigan bo'ldi, deylik. Bunda baholash mezoni tayyorlab, o'quvchi, talabalarga beriladi va unga ko'ra nimalarga diqqat qaratish lozimligi ko'rsatiladi.

Iqtisodiy topishmoqlarni baholash mezonlari:

M E Z O N L A R	Maksimal ball
1. O'rganilayotgan kategoriyani topishmoqda ifodalash mahorati.	2
2. Iqtisodiy kategoriya, tushunchalarning mazmunini ifodalovchi sifat jihatlarini ko'rsatish mahorati.	1
3. Iqtisodiy kategoriya, tushunchaning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish mahorati.	1
4. Topishmoqda badiiy va iqtisodiy terminlardan foydalanish mahorati	1
Jami:	5

Maksimal balldan kelib chiqqan holda uni mavzu bo'yicha beriladigan ballga moslashtiriladi.

Tanlovda har bir kichik guruhdan bir vakil chiqib, o'zlari tayyorlagan topishmoqni aytishadi. Mavzu bo'yicha bir kichik guruh to'qigan topishmog'i quyidagicha bo'lsin:

«Tarozining pallasi» Talab qilar tenglikni. O'zida qamrab olgan Iqtisodiy kenglikni. Oldi-sotdi, o'zgarish Hujjatlarda yig'ilib, Unda aksinl topar	To'rdada turar kerilib, Ustav kapitali-yu, Asosiy vositalar. Tenglik buzilsa magar, Demak, qilingan xato! Sababini ko'rsating, Qanday nom unga ato?
--	---

Boshqa kichik guruhlar topishmoqni javobini aytishadi hamda topishmoqda o'rganilayotgan kategoriya qay darajada ifodalaniganiga baho berishadi.

(Javob: balans. Tenglik bo'lishi shartligi xo'jalikda bajarilgan operatsiyaning albatta ikki yoqlama yozuv - bir schetning debetida, ikkinchisining kreditida aks ettirilishi.) Topishmoq ayrim kamchiliklariga qaramay, unda korxonadagi barcha muomalalar, ular turli hujjatlardan yig'ilib oxir-oqibat balansda aks etishi, balansning aktiv qismida o'zining salmog'i jihatidan asosiy vositalar, passiv qismida ustav kapitali birinchi o'rinda turishini ko'rsatishga harakat qilingan.


Shunday tarzda boshqa kichik guruhlar tayyorlagan topishmoqlar ham muhokama qilinib, baho beriladi. Eng yuqori ball to'plagan

guruh aniqlanadi. Ularni qanday taqdirlashni har bir o'qituvchi o'zi hal qiladi.

Iqtisodiy kategoriyalarni o'rganishga qaratilgan krossvordlarni ham topishmoq, o'ziga xos topqirlik mashqi sifatida tanlovini o'tkazish mumkin.

Bunda krossvordlarni baholashda uning biron bir shaklni ifodalashi yoki simmetriyasi, o'rganilayotgan tushunchalarning ifodalanishiga ahamiyat berish zarur. Krossvordlar tanlovini fanni yoki uning biron bir bo'limini o'rganishni yakunlayotganda qo'llash kerak. Chunki, bunda o'quvchi, talabalar asosiy tushuncha, kategoriyalarni o'rganib bo'lgan bo'lishadi. Quyidagi krossvordni misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

Katakchalarga mos ravishda ko'rsatilgan strelka bo'yicha iqtisodiy tushunchalarning harfini joylashtiring:



1. Qaytarish sharti bilan ta'lum bir muddat ishlatib turish uchun olingan tovar yoki pul.

2. Tovarlar va xizmatlarning nafililigini baholash vositasi bo'lib, ularga to'lanadigan pul miqdorini ifodalovchi tushuncha.

3. Sarflangan xarajatlarning olingan daromadlardan oshgan qismi.

4. Biror ish yuzasidan keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, oziq-ovqat va h.k..

5. Olingan daromadning qilingan xarajatlardan oshgan qismi.

6. Vaqtincha foydalanib, ma'lum foiz bilan qaytariladigan, ya'ni foydalanganlik uchun haq to'lash sharti bilan qarzga beriladigan, foiz shaklida foyda keltiradigan kapital.

7. Taqsimlanadigan narsa, pulning biror kimga tegadigan yoki tegishli qismi, bo'lagi.

8. YaIMdagi mehnat omilining ulushi, belgilangan ta'rif va stavka asosida to'lanadigan ish haqi (asosan soatbay).

9. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida qayd etilgan pul ifodasi-dagi dastlabki, boshlang'ich kapital.

10. Insonning biror bir ehtiyojini qondirib, ayirboshlash (sotish) uchun ishlab chiqarilgan ne'mat.

11. Ayirboshlash, olish-sotish bilan bog'liq muomala, savdo-

sotiqdan tushgan pul, oldi-sotdi jarayonida narx ustida tortishuv

12. Qo'lga kiritilgan yutuq, g'alaba, muvaffaqiyat.

Krossvordning javobi: 1) qarz; 2) narx; 3) zarar; 4) avans; 5) foyda; 6) ssuda; 7) ulush; 8) maosh; 9) ustav; 10) tovar; 11) savdo; 12) zafar.

Bu metodni akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida keng qo'llash mumkin. Chunki, u ularning yoshiga, musobaqalashishga ishqivozlilik juda mos tushadi.

Xullas, iqtisodiy fanlardan dars o'tishda mavzular mazmunidan, unda qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib maqollar, paradoks va topishmoqlar tanlovini qo'llash o'quvchi-talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashga, ijodiy izlanishga yo'naltiradi. Ular iqtisodiy tafakkurni shakllanishiga yordam beradi. Raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun esa o'z ustida tinmay izlanish, ijod qilish talab etiladi. Izlanuvchan, ijodiy fikrlovchi kadrlarga esa doimo ehtiyoj katta.

Xulosa

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda tatbiq qilinadigan metodlar orasida fanlarning xususiyatidan kelib chiqib, o'rganilayotgan mavzularga moslashtirilgan holda qo'llaniladigan qator metodlar mavjud.

Ular orasida iqtisodiy fikrlashni muvofiq ravishda bildirilgan fikrlarning eng maqbulini tanlash va tavsiyalar ishlab chiqishni o'rgatishga qaratilgan tahliliy-ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish metodi, matnning mazmunini tadqiq qilish, taqqoslash, shaxsiy tajriba bilan bog'lash va o'z munosabatini bildirishni o'rgatadigan tanqidiy nazar metodi, axborotlarni kuzatishni ma'lum bir maydon – jadval va grafiklar orqali ifodalash va ular orqali g'oyalar, tavsiyalar, takliflar berishga o'rgatadigan semantik (ma'nosini ifodalash) xususiyatlar tahlili metodi va boshqalar muhim o'rin tutadi.

- O'quvchi-talabalarni ijodiy fikr yuritish, bildirilgan fikrlarni taqqoslab, baho berish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatadigan qator metodlar bor. Ularga delfa metodi, konseptual (mohiyati, asosini ifodalovchi) jadval, xarita asosida fanni o'rganish metodi va boshqalarni kiritish mumkin.

Keng qamrovli fikr yuritish, o'rganilayotgan tushuncha (kategoriya, hodisa)lar, g'oyalar o'rtasida muhim bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash, keng ko'lamlı fikr yuritish malakasini shakllantirishga qaratilgan metod, pedagogik strategiya tarzida qo'llash mumkin bo'lgan klaster (axborotlarni yoyish) metodi, murakkab g'oya, iqtis-

sodiy tushunchalarni bir nechagina soʻzlar bilan ifodalashni oʻrganish orqali mavzuni yaxshiroq anglashga, oʻzlashtirishga yordam beradigan sinkveyn (axborotni yigʻish) metodi fanni oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Oʻquvchi-talabalarni oʻqiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari uchun oʻqish jarayonida materialning (darslik, oʻquv qoʻllanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmunini baholash orqali, chiqargan xulosasiga muvofiq ravishda oʻz munosabatini bildirishga oʻrgatuvchi insert metodi, mantiqiy mustaqil fikrlashga, harakatlar ketma-ketligini toʻgʻri tashkil etishga va baholashga oʻrgatuvchi. «Blits-oʻyin» metodi, oʻquvchi-talabalarni mustaqil, erkin fikrlash va oʻz fikrini himoya qilishga, oʻquv jarayonida egallagan bilimlarini baholashga, bahslashish madaniyatini va unga rioya qilishni oʻrgatadigan FSMU metodi alohida oʻrin tutadi.

Bu metodlarni oʻrganishdan maqsad boʻlgʻusi iqtisodchi pedagoglar eng samaralilarini tanlab, ularni oʻrganilayotgan fan va uning mavzulariga moslashtirgan holda qoʻllashni oʻrganishlarini taʼminlashdir.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Kitob ustida mustaqil ishlash, «muallifdan soʻrang» usuli, tanqidiy nazar, sitata, sharh, B/B/B jadvali, insert metodi, T-sxema, semantik xususiyatlar tahlili, konseptual jadval, «sinkveyn» metodi, blits-oʻyin, FSMU metodi, «Delfa» metodi, iqtisodiy paradoks, iqtisodiy topishmoq.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Oʻquv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni oʻrgatuvchi metodlarga qaysi metodlarni kiritgan boʻlar edingiz?

2. Kitob bilan mustaqil ishlashni bilish qanday ahamiyatga ega deb oʻylaysiz? Siz oʻzingiz adabiyotlar bilan qanday ishlaysiz?

3. Taqqoslash, baholashni oʻrgatuvchi metodlar qanday metodlar? Boshqa metodlardan qay jihatlari bilan farq qiladi?

4. Axborotlarni yigʻish metodi qanday metod? Bu metodni dars oʻtishda qoʻllay olasizmi?

5. Nima sababdan «Klaster» metodini axborotlarni yoyish metodi sifatida koʻramiz? Bu metod qaysi jihati bilan ahamiyatli?

6. Qaysi metodlar taqqoslash, baholashni oʻrgatadi: bu metod-

larni iqtisodni o'rganishda qanday qo'llash mumkin?

7. Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlarni sanab bera olasizmi? Bu metodlarning afzalligi nimada?

8. Iqtisodiy paradoks yoki iqtisodiy topishmoqlar tanlovi o'tkazsangiz, nimalarga e'tibor bergan bo'lardingiz?

Namunalar, iqtisodiy paradokslar

1. Suvsiz hayot yo'q. U shunchalik zarur bo'lishiga qaramay nima sababdan juda arzon, olmos esa undan keladigan naf kam bo'lishiga qaramay nihoyatda qimmat turadi? (A. Smit).

2. Tekin non qopqonda bo'ladi (Xalq maqoli).

3. Soliq yukining og'irlashuvi, davlat budjeti daromadlari tushumini kamaytiradi (G. Laffer).

4. Agar fermerlar zo'r berib mehnat qilsalar, tabiat ularga ko'maklashsa, ular nihoyatda mo'l hosil yetishtiradilar. Bu ularning umumiy daromadlari kamayishiga olib keladi. Nima sababdan? (P. Samuelson).

5. Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur? (Xalq maqoli).

Iqtisodiy topishmoqlar

1. Odamlar nima sababdan jinoyat qiladilar, vaholanki, buning uchun jazolanishlarini biladilar.

2. Aholisi ko'p bir qator mamlakatlar boy, ammo aholisi kam ba'zi mamlakatlar esa kambag'al. Sababi nimada?

3. Bir-biri bilan notanish, turli din va maslak vakillari, hatto bir-birlari bilan urishganlar ham o'zaro savdo olib borishga qarshi emaslar.

4. Tashqi savdo mamlakatlar uchun manfaatli bo'lishiga qaramay, hamma mamlakatlarda turli to'siqlar qo'yishga urinishadi. Sababi nimada?

5. Salomda boshliq yo'q, savdoda do'stlik (Xalq maqoli).

Maqollar

Halollik har qanday martabani bezaydi. Halol odam uchun eng og'ir haqorat – uni haromlikda ayblashdir. Halol odamni ta'qib etish mumkin, lekin uni badnom qilib bo'lmaydi. Halol

odam birovning haqiga xiyonat qilmaydi.

Oldin angla, keyin tanla. Jo'jani kuzda sana. Ko'rgan ko'p bilar, o'qigan oz. Zar qadrini zargar bilar, dur qadrini savdogar. Har yumushning fasli bor, har bir ishning asli bor. Qimmatda bir hikmat bor, arzonda bir ziyon. Sanoqli mol yo'qolmas. Tejab yegan darmonda, tejamagan armonda. Pulni topgan xarjlasin. Pulni topish oson, saqlash qiyin. Suv qattiq yerda to'xtar. Tiyin qadrini bilmagan so'm qadrini bilmas. Boylik ushoqdan yig'ilar. Usta ovchi chumchuqqa o'q otmas. To'kilgandan tomchilagan yomon. Eskini eplaguncha esing ketar. Qozonga kirgan qaytib qopga tushmas. Hamyonini qadrlagan hisobini puxta qilar. O'tin yormaganga o'tin yoqtirma. Mingni chala bilgandan birni to'la bilgan yaxshi. Ish avvalini bir o'ylasang, oxirini besh o'yla. Mol topguncha hisob top. Naqd pul qarchig'ay. Yo'l bilmagan manziliga yetolmas. Uydagi hisob bozorga to'g'ri kelmas. Pulni bersang pulliga ber, puling kuymas. Savdo ko'p yerda g'avg'o ko'p. Tiyin, tiyinning ishi qiyin. Qo'y egasi bilan cho'ponning sanog'i to'g'ri kelmas. Foyda bilan zarar bir xurjunning ko'zida. Foydang qursin zarariga yetmagan, tuyang qursin piyodadan o'tmagan. Qamishdan cho'g' tushmas.

XV bob. KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda dars o'tish metodlarigina emas. Dars jarayonida foydalaniladigan namoyish etiluvchi va tarqatma materiallardan foydalagnish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir insonning o'ziga xos xislati axborot qabul qilishda ham namoyon bo'ladi.

O'quvchi-talabalarni chuqur bilim olishlari uchun axborotlarni turli tarzda berish muhim ahamiyatga ega. Navbatdagi bob ana shu masalani o'rganishga bag'ishlangan.

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmalilik. Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurol turlari

Metodlarni qo'llashning turli-tuman modifikatsiyalari mavjud bo'lib, ular dars o'tish shakllari va vositalari bilan qo'shilib ketadi. O'qish, o'rganish idrok qilish, xayolan qayta jonlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Hayot tajribasi ko'rsatadiki, inson o'zi ko'rib, tasavvur qilgan narsani to'liq o'zlashtiradi. Avtomobil yoki traktor haqida qancha o'qigan, og'zaki eshitgan bo'lmang, o'zini ko'rib, mashq qilmay o'rganib bo'lmaydi. Inson tabiatan shunday yaratilgan ekan-ki, u biron narsani o'rganishi uchun uni tasavvurida jonlantira bilishi kerak ekan. Shuning uchun ham iloji boricha o'rganilayotgan predmetni turli vositalar, tasvir, maket, rasm, chizma va boshqalardan foydalaniladi, ya'ni ta'limning ko'rgazmaliligi ta'minlanadi.


Ta'limning ko'rgazmaliligini ta'minlashni shartli ravishda ikki katta guruhga: ko'rgazmali va namoyish qilish usullariga bo'lish mumkin. Ko'rgazmalilik o'quvchi-talabalarga turli qo'llanmalar, jumladan, xarita, plakat, chizma va rasmlar, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish qilish esa, odatda, qurilma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Ta'limning ko'rgazmali uslublarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular og'zaki ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chamber-

chas bog'liqligi shundaki, obyektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo'llashni taqozo etadi. Demak, so'z va ko'rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri, o'quvchi-talabalar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, oqilona uyg'unlashtiriladi.

Ko'rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish shubhasiz talabalarni puxta bilim olishlariga yordam beradi.

Taraqqiyotning o'zi bir tomondan fanni chuqur o'zlashtirishni zarur qilib qo'ysa, ikkinchi tomondan turli - tuman yangi metodlar, ko'rgazmalilikni oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo'llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar xilma-xil. Ko'rgazmalilik, odatda, xayolan ko'z o'ngiga keltirish bilan yoki namoyish qilish bilan ta'minlanadi. Ko'rgazmali qurollar: nomoddiy va moddiy turlarga bo'linadi (quyidagi chizma):



Dars jarayonida soʻz bilan oʻqituvchi tomonidan yodga tushirish, talabalarning xayolida gavdalantirish mumkin boʻlgan ichki, xayoliy koʻrgazmali qurollar: adabiyot, sanʼat asarlari, badiiy film, badiiy asar qahramonlari hayotda yuz beradigan turli voqea, vaziyatlardan odatda keng foydalaniladi.

Darsni boshlaganda oʻqituvchi oʻtilgan mavzuni talabalarning yodiga tushiradi. Yangi mavzuni boshlar ekan, talabalar diqqatini unga jalb qilish, fikrini yoʻnaltirish uchun adabiyot, saʼnat asarlari yoki hayotda yuz bergan voqeani gapirib berish mumkin. Bu yangi mavzuni oʻrganishga talabalar ruhi, kayfiyatini tayyorlaydi. Masalan: «Tovar – pul nazariyasi» mavzusini boshlashdan avval auditoriyaga murojaat qilish mumkin: suvni hamma biladi. Usiz hayot yoʻq. Shunga qaramay u tekin yoki narxi juda arzon. Brilliantni koʻz oʻngizga keltiring. Usiz yashash mumkin. Lekin juda qimmat, nima sababdan?

Bugungi darsda ana shu savollarga javob topishga harakat qilamiz. Oʻqituvchi mavzu, uning maqsadi haqida gapirib, soʻngra dars rejasini beradi.

Mashgʻulot jarayonida koʻrsatib, izohlash mumkin boʻlgan koʻrgazmali qurollar - jadval, sxema, plakat, chizma, diagramma va boshqalardan foydalanish talabalarning bilimini puxtalashtirishda muhim rol oʻynaydi.

Darsda doskani ishlatish koʻp vaqtni oladigan, boshqa texnik vositalardan foydalanish imkoni yoʻq auditoriyalarda plakat, sxemalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Anʼanaviy koʻrgazmali qurollar bu sxema va plakatlar boʻlib, odatda sxemalar standart vatman sathiga qora yoki boshqa ranglarda zarur matn yozilgan yoki jadval, chizma, diagramma, boshqalar chizilgan boʻladi. Plakatlar esa nashr qilingan koʻrgazmali qurol hisoblanib oʻtiladigan mavzular boʻyicha tanlab olinadi.

Sxema, plakatlarni tayyorlash moddiy jihatdan qimmat hamda koʻp vaqtni oladi. Xato qilinsa, oʻzgartirish qiyin. Shuning uchun hozirgi paytda vatmanga chizilgan yoki plakat holda nashr etilgan koʻrgazmali qurollar oʻrniga yangi, tayyorlash va foydalanish qulay zamonaviy turlari, ayniqsa, dars jarayonida slaydlardan foydalanish keng yoyildi.

Slaydlar taʼlim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy oʻquv jarayonini bularsiz tasavvur qilish qiyin. Asosiy qulaylik shundaki, ulardan istagan paytda foy-

dalanish, ish o'ri o'zgarganda oson ko'chirish mumkin.

Jadval, sxema, grafik, diagrammalardan foydalanish universal:

– avvaldan slayd plyonkalarga chizib, texnik vositalar yordamida ko'rsatilishi;

– vatman qog'ozga chizib, texnik vositalardan foydalanish uchun sharoiti yo'q auditoriyada foydalanish;

– kserokopiyadan chiqarib, tarqatma material sifatida foydalanish;

– disketga kiritib, kompyuter orqali ko'rish, tahlil qilish mumkin.

Ko'rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o'tishning barcha shakllari, uslublarida qo'llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi. Darsni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar muhim o'rin tutadi. Didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri darsning ko'rgazmaliligini ta'minlash. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish talabalarga iqtisodiy kategoriyalarni, muammolarni o'rganishda katta yordam beradi.

2-§. Tarqatma materiallar va ularning tutgan o'ri

O'tilayotgan darsda talabalarga axborot yetkazish, ularni darsni puxta o'zlashtirishlari va faol qatnashishlarini ta'minlashda tarqatma materiallarning ahamiyati katta.

Darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo'llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita talabaning qo'lida bo'lib, uzoqdan ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollarga xos kamchiliklardan holi.

Tarqatma materiallar – ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1–2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi.

Tarqatma materiallarni maqsadi, mazmuni jihatdan: a) axborot beruvchi, b) topshiriq beruvchi, d) bilimni nazorat qiluvchi guruhlarga ajratish mumkin.

Axborot ko'lami katta bo'lgani sababli qisqa vaqt ichida barcha axborotni talabalarga to'liq yetkazib berish qiyin. Bunday paytda axborotni tarqatma material sifatida yetkazib berish muhim rol o'ynaydi. Bunda gaplar qisqacha yozilgan matnlar bo'lib,

darsga tayyorgarlik ko'rishda, dars davomida yoki bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Tarqatma materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy fanlarni o'rganishda turli jadval, grafik, chizmalardan juda ko'p foydalaniladi. Ularni plakat sifatida tayyorlash talabalar uchun anchagina noqulay. Undan tashqari:

— talabalarga raqamlarda ifodalangan ma'lumotlarni og'zaki yetkazishi ularni chalkashtirib yuborishi bilan birga, eslab qolishlariga ham imkon bermaydi;

— miqdor jihatdan ko'p ma'lumotlarni doskaga yozib, tushuntirish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Doskaga yozish paytida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqa uziladi;

— bu jihatdan ko'rgazmali quroldan namoyish qilinuvchi hamda tarqatma material sifatida foydalanish qator afzalliklarga ega.

O'qituvchi raqamlarda, grafik, formulalarda ifodalangan axborotni namoyish qilinayotgan materialga qarab tushuntiradi. Talabalar esa ham namoyish qilinayotgan materialga, ham qo'llaridagi tarqatma materialga qarashadi. Ma'lumotlar talabalar qo'lida bo'lishi, ularni ko'rib turishi, tushunishi, anglashini osonlashtiradi.

Tarqatma materiallar talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda ishlash imkoniyatini ham beradi. Ayniqsa, buning uchun ishchi varaqalar tayyorlanishi va ular asosida dars jarayonida juft bo'lib yoki individual tarzda ishlashni tashkil qilish, shubhasiz talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi. Ular masala, mashq, turli jadvallarni to'ldirish va hokazolar tarzidagi turli topshiriqlar bo'lishi mumkin.


Tarqatma materiallar ta'lim oluvchilarni bilimini tekshirish nazorat qilishda ham keng qo'llaniladi. Bunda nazorat varaqalari tarzida tayyorlangan test savollari, masala va mashqlar bo'lishi mumkin.

3-§. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda o'z fikrini auditoriyaga yetkazishda ko'rgazmali qurollar, grafik vositalari: turli jadvallar, xari-

talar, chizmalar, matritsalaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa, ma'lumotlarni diagrammalar va ko'rgazmali qo'llanmalar orqali ifodalash muhim o'rin tutadi. Yaxshi o'ylangan va to'g'ri tanlangan diagramma jadvallarga qaraganda axborotni aniq yetkazish va tezroq o'zlashtirishga katta yordam beradi. Ular yordamida o'quvchi talabalar diqqati o'rganilayotgan masalaga jalb qilinadi va shu bilan birga ularni ham kelgusida o'z fikrlarini turli diagrammalar yordamida tushunarli, esda qoladigan darajada bayon qilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Odatda fikrlarni bayon qilishda asosan 5 tipdagi diagrammalar ishlatiladi.¹

Ular quyidagilar:



U yoki bu axborotni diagramma orqali yetkazishni maqsad qilib qo'yar ekanmiz, uni to'g'ri tanlash uchun birinchi navbatda tinglovchiga qanday fikrni yetkazmoqchimiz, diqqat qaratishimiz kerak.

Birinchi qadam, g'oyani shakllantirish kerak, ya'ni raqamlar, ma'lumotlardan g'oyaga;

Ikkinchi qadam, raqamlar, ma'lumotlarni taqqoslash tipini aniqlash darkor, ularning besh xili mavjud: ulushli (komponentli), pozitsion, vaqt, chastotali, korrelatsion.

1. *Komponentli taqqoslash*. U butunning, 100 foizning ulushlari. Bunda biz har bir komponentning butunga nisbatan ulushlarini ko'rsatamiz. Taqqoslashda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar; ulushi, jamiga nisbatan, tashkil etadi.

2. *Pozitsion taqqoslash*. O'rganilayotgan obyektlarning tutgan o'rni. Bunda o'rganilayotgan obyektlar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutadi, ular tengmi, o'zaro yoki boshqalarga nisbatan kattami

¹ Джин Желязны Говори на языке диаграмм. Пособие по визуальным коммуникации для руководителей (Перевод с английского) Институт комплексных стратегических исследований, Москва 2004, стр. 29.

yoki kichikmi, ko'pmi, ozmi va shunga o'xshash, ko'rsatiladi. Eng ko'p ishlatiladigan so'zlar; nisbatan ko'p, nisbatan kam, teng kabilar.

3. Vaqtga ko'ra taqqoslash. Bunday taqqoslash eng ko'p tarqalgan, qo'llaniladigan taqqoslash bo'lib, diqqat o'rganilayotgan obyektning vaqt davomida o'zgarishiga qaratiladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar hafta, oy, kvartal, yil davomida qanday o'zgarishini: o'sadimi, pasayadimi, tebranadimi, o'zgarmay qoladimi, ko'rsatiladi. Unda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar; o'sgan, pasaygan, o'zgarmay qolgan, atrofida kabilar.

4. Sodir bo'lish, takrorlanish darajasiga ko'ra (chastotasi)taqqoslash. Bunday taqqoslashda qanday miqdordagi obyektlar taqqoslanishi aniqlanadi. Misol, qancha ishchilar 150–200 ming so'mdan kam ish haqi oladi yoki aholining qanday qismi 5-10 yoshgacha, qanday qismi 15–20 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etadi va hokazo. Eng ko'p ishlatiladigan so'zlar, diapazon, konsentratsiya, farqi kabilar.

5. Korrelatsion taqqoslash. U ikki o'zgaruvchi o'rtasida bog'liqlik bormi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, sotish hajmining ortishi foydaning ko'payishiga olib keladi yoki skidkalar belgilanishi sotish hajmini ko'paytiradi.


Uchinchi qadam, diagramma tipini aniqlash. Har qanday axborotni yuqorida ko'rsatilganidek, 5 turdagi diagrammadan birortasi yoki biron tarzdagi interpretatsiyasi orqali ifodalash mumkin.

Diagrammalardan qaysi birini tanlashni quyidagi matritsa asosida ko'rib chiqishimiz mumkin. Uning vertikal bo'yicha asosiy 5 tipdagi diagrammalar, gorizontal bo'yicha 5 tipdagi taqqoslash keltirilgan. Vaqtga ko'ra, chastotali, korrelatsion taqqoslashda asosan ikki tipdagi diagrammadan foydalanamiz. Ular aks ettirilgan axborot hajmi bilan farqlanadi. Agarda axborot oz (olti yoki yetti) bo'lsa, yaxshisi gistogrammada, agarda ko'proq bo'lsa, grafikda ifodalagan ma'qul. Korrelatsion taqqoslashda esa kamroq axborot taqqoslansa chiziqli diagramma, ko'proq bo'lsa, nuqtali diagrammani qo'llagan ma'qul.

TAQQOSLASH TIPLARI


Komponentli Pozitsion Vaqtga ko'ra Diapazonli Korrelatsion

DIAGRAMMANING ASOSIY TIPLARI
 Nuqtali Grafik Gistogramma Chiziqli Doiraviy



Lekin qachon, qanday tipdagi diagrammadan foydalanish bu qabul qilingan qoida emas. Har bir kishi quyilgan maqsad, vazifadan kelib chiqib, diagrammaning asosiy tiplari va uning turli variantlaridan foydalanishi mumkin.



O'qituvchi biror bir mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurol tayyorlar ekan, o'quvchi-talabalar mavzuning mazmunini tushunib yetishlari uchun uni qanday tasvirlashni ko'rib chiqadi. Masalan, iqtisodiyotni o'rganishda sarf-xarajatlarni, ularni o'zgarishini o'rganish o'ta muhim. Umumiy xarajatlar, doimiy xarajatlar, o'zgaruvchi xarajatlar, me'yoriy xarajatlar, umumiy tushum, xarajatlarni qoplash nuqtasi, yalpi foyda va boshqalarni og'zaki gapirib o'tgandan mana bunday chizmani slayd qilib tayyorlab, foydalanish talabalarning mavzuning mohiyatiga tushunishi hamda yodida qolishiga yordam beradi.



Ko'p miqdorda raqamlarda ifodalangan ma'lumotlarni, taqqoslanishi lozim bo'lgan har xil qarashlarni turlicha jadvallarda bergan ma'qul. Ularni tushunish, tahlil qilish osonlashadi. Bularni avvalgi boblarda ko'rib o'tganmiz. (XIY bob).

Agarda **iqtsodiy ko'rsatkichlar ulushini** yoki **tarkibini** ko'rsatish lozim bo'lsa, doira shaklidagi diagrammalardan foydalangan ma'qul. Masalan, **budjet**


daromadlari va xarajatlari tarkibi yoki mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar tarkibi, korxonaning asosiy kapitali tarkibi va hokazo. Chunki bunday diagrammada bu ko'rsatkichlarning salmog'i aniq ko'rinadi. Ularni taqqoslash, xulosa chiqarish oson bo'ladi.



Agarda **iqtsodiy ko'rsatkichlar taqqoslanishi kerak bo'lsa**, us-tun tarzidagi diagramma yoki grafik tarzda tasvirlagan ma'qul. Chunki, bunday shaklda ko'rsatkichlarni taqqoslash qulay, ularni qay darajada farqlanishi yaqqol ko'rinib turadi.


Aytaylik, O'zbekistonimiz mustaqil bo'lgandan boshlab YaIM dinamikasini ko'rib chiqib, xulosa chiqarmoqchimiz. Ma'lumot ko'p bo'lgani va o'zgarishni aniq ko'rsatgani uchun grafikdan foydalanganimiz ma'qul.

O'zbekistonda YaIM o'sish dinamikasi (1991–2008-yy. oldingi yilga nisbatan %da)




Gistogramma tarzida quyidagicha tasvirlash mumkin:

Aholi real pul daromadlarining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Vaqtga ko'ra obyektlarni o'zgarishi taqqoslansa, diagramma quyidagicha tayyorlanishi mumkin:

Tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi, mlrd. AQSh doll.



Ayniqsa, POWER POINT dasturi mehnatni ancha yengillash-tiradi va ularni nihoyatda turli-tuman tarzda tasvirlash imkonini beradi. —

Dasturdan foydalanilganda o'quvchi-talabalar diqqatini mavzuga qaratish uchun turlicha dizayndan foydalanish mumkin. Slaydlarda mavzuning nomi, rejasi, o'rganiladigan asosiy tushunchalar, ularni tushunish uchun zarur bo'lgan tasvirlar, jadval, grafik, diagramma va boshqalarni berish mumkin. Muhim afzalligi ularni rang tasvirda berish imkoniyati katta.

Slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, ularning katta-kichikligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga, ularning ishlatilishiga, matn beriladigan fon, unda qanday tasvirlardan foydalanishga, ularni o'quvchi-talabalar kayfiyatiga qanday ta'sir qilishiga, ishlanish usullariga, mantiqiy xarakteriga mosligiga ham ahamiyat berish zarur.

Darsni ko'ngildagidek o'tishida ko'rgazmali materialni qanday namoyish qilish ham katta ahamiyatga ega.

Namoyish qilish jarayonini shunday tashkil qilinishi kerakki:

- ✓ hamma o'quvchi-talabalar namoyish qilinayotgan obyektning ko'rishlari, iloji boricha faqat ko'rish emas, sezish organlari bilan his qilishlari kerak;

- ✓ obyektning muhim, asosiy tomonlari talabalarda katta taassurot qoldirishi, maksimum darajada diqqatlarini jalb qilishi kerak;

- ✓ o'rganilayotgan obyektning sifatini mustaqil ravishda o'lchash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Real narsalarni namoyish qilish metodi ko'proq tabiiy, texnika

va texnologiya bilan bog'liq fanlarni o'rganishda qo'l keladi. Ayniqsa, talabalarning o'zi shu predmetlar, buyumlarni o'z qo'llari bilan ushlab ko'rib, uni xossalarini o'rganishlari bilish jarayonini faol amalga oshishiga yordam beradi.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda ham ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilishni boshqarishni o'rganishda, sarfxarajatlar tarkibini, mahsulot sifati va boshqalarni o'rganishda katta yordam beradi.

Namoyish qilish metodining o'ziga xos davomi illyustratsiya hisoblanadi. Namoyish qilishda ko'proq predmetlardan foydalaniladi. Ilyustratsiya predmet, jarayon hodisalarni simvollar yordamida ifoda qilish bo'lib, odatda, u plakatlar, karta, portret, fotografiya, rasm, chizma, grafik va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ilyustratsiyaning o'ziga xos turi adabiyot, kinofilm qahramonlari bo'lib, ularning obrazlari eslatilganda xotirada ularni jonlantirilishidir.

Ilyustratsiya materiallarini oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytida ko'rsatiladi. Hozirgi paytda ulardan tarqatma material sifatida foydalanish keng qo'llanilmoqda.

Ilyustratsiyaning samaraliligi ko'p jihatdan uni qanday tarzda qo'llashga bog'liq. Ko'rgazmali qurollar va ularni namoyish qilishni rejalashtirganda uni mavzuni o'rganishda qanday rol o'ynashi va didaktik vazifasini yaxshilab o'ylash kerak. Chunki haddan tashqari ko'rgazmali materiallar ko'pligi, talabalarni mavzuni o'rganishdan chalg'itadi. Ilyustratsiya materiallari oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytda ko'rsatiladi.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi keng, ulardan qanday tarzda, qanday maqsadda foydalanish o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi ko'rgazmali qurol tanlar ekan, albatta, avvalo, dars ma'ruzami yoki seminar darsimi - hisobga oladi. Ikkinchidan, mavzu orqali o'qituvchi talabalar oldiga qanday vazifa qo'yimoqchi, maqsadi nima, muhokama qilinayotgan muammoni yechishda ko'rgazmali qurol qanday yordam berishi mumkinligini hisobga olib, tanlashi kerak.

Masalan, jadval raqamlaridan ma'ruzada biron ilmiy taxmin (gipoteza)ni, ilgari surilayotgan fikrni tasdiqlash maqsadida foydalanilsa, seminar darsida masala yoki mashq bajarganda foydalanish mumkin. Bunda ham ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi o'qituvchining mohirligi, fantaziyasiga bog'liq.

O'qituvchi tarqatma materiallar tayyorlayotganda, ma'lum qoidalariga rioya qilishi lozim.

Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llash qoidalari:

- Ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermang.

- Sarlavhalarni bosh harflar bilan yozing, bir matn uchun ikki-uchta tarqatma material tayyorlasangiz, ularga nom-kod bering. Bu ularni ajratishni osonlashtiradi.

- Matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak.

- Bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi va hokazo) ishlatmang.

- Matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak.

- Varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

Tarqatma materiallarda:

- o'tiladigan mavzuning asosiy mazmunini berish;

- olingan axborotni dars davomida va darsdan tashqarida talabalar bilan mustaqil muhokama qilish;

- ta'lim oluvchilar diqqatini mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga qaratish;

- o'quvchi-talabalarni darsga faol jalb qilish;

- o'quvchi-talabalarning olgan bilimlarini nazorat qilish va sinash.

Bularning hammasi dars jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanishda o'ziga xos kamchiliklar ham mavjud.

- Tarqatma materiallar tayyorlash o'qituvchidan ko'p kuch va vaqt, yuksak mahorat talab qiladi.

- Bir kishiga bitta tarqatma materiallar bo'lishi kerak. Bu qo'shimcha katta moddiy xarajatni talab qiladi.

- Tarqatma material asosida o'zaro muhokama cho'zilib, mavzuning boshqa qismlariga, savollariga e'tibor pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ayrim kamchiliklariga qaramay, darsda tarqatma materiallardan foydalanishning afzalligi ustun.

Ko'rgazmali qurol yoki namoyish qilinuvchi material va tarqatma materiallardan barcha metodlar asosida dars o'tishda keng foydalanish mumkin.

Xulosa

Dars jarayonida ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar-

dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularni tayyorlashni ham o'rganish zarur. Ko'rgazmali qurol va tarqatma materiallarni tayyorlayotganda ularni nima maqsadda tayyorlanayotgani, qanday shakl va mazmunda yetkazish ma'qul ekanini hamda ularni tayyorlash qoidalariga rioya qilishni yoddan chiqarmaslik kerak.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Ko'rgazmali qurol, moddiy ko'rgazmali qurol, nomoddiy ko'rgazmali qurol, illyustratsiya, slayd, sxema, chizma, diagramma, grafik, tarqatiladigan materiallar,

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Dars o'tishda ko'rgazmali qurollar qanday o'rin tutadi?
2. Ko'rgazmali qurollarni qanday turlarini bilasiz?
3. Ko'rgazmali qurollarni tanlaganda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish qanday afzalliklarga ega.
5. Dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanish haqida nima deya olasiz?
6. Tarqatma materiallar tayyorlaganda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
7. Iyun oyida A va B kompaniyaning ishlab chiqargan mahsulotini shaharlar bo'yicha sotish hajmi quyidagicha:

	A kompaniya	B kompaniya
Samarqand	13	39
Zarafshon	25	28
Yurmala	35	6
Vilnyus	27	27

Ular faoliyatini tahlil qilish uchun qaysi diagrammani tanlaysiz?

XVI bob. TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda dars o'tishda qanday ta'lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnik vositalarni qo'llab dars o'tish o'quvchi-talabalarning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga, berilayotgan axborotlarni chuqur o'zlashtirishga katta yordam beradi. Navbatdagi bob ana shu masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda texnik vositalar. Ularning turlari, tutgan o'rni

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda texnik vositalardan foydalanish alohida o'rin tutadi. O'qitish vositalarining mukammallashib borishi natijasida dars o'tish jarayonini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish imkoni ortib bormoqda. Texnik vositalardan foydalanish usuliga ko'ra universal va maxsus texnik vositalarga bo'linadi.

Universal vositalarga doska, diaskop, kodoskop, proektor, magnitofon, videomagnitofon, kompyuter, televizor kirishi mumkin.


Maxsus vositalar, ma'lum bir masalani, mavzuni yoritishga qaratilgan maket, videofilm, kasseta, disk, disket kabilarni o'z ichiga oladi.

Axborotni uzatish, tasvirlash nuqtayi nazaridan texnik vositalarni tasvirlovchi (kodoskop, proektor, diaprotessor), tovushli (magnitofon, radio, audio kabilar), audio-video kompleksi, videomagnitofon, kompyuter kabilarga bo'lish mumkin.

Ta'lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalar ta'lim vositalari deb ataladi.

Ta'lim vositalari real va texnik vositalar hamda chop etilgan o'quv materiallarini o'z ichiga oladi. Uning tarkibi quyidagicha bo'ladi.

Ta'lim vositalari



Real ta'lim vositalari, odatda, iqtisodiy yo'nalish bo'yicha ta'lim olish jarayonida kam ishlatiladi, lekin texnik va chop etilgan o'quv materiallari juda keng qo'llaniladi.

Ta'lim vositalari bir-birini to'ldiradi va dars jarayonida uyg'unlashadi. Ta'lim vositalari talabalarning darsni tushunishi, mustaqil ishlashi, o'quv jarayoniga faol qatnashishiga ko'maklashadi.

Kodoskop, proektor shaffof plyonkadagi tasvir (slyidlar)ni ekranga tushirish, aks ettirish uchun qo'llaniladigan jihoz hisoblanadi. U foydalanish uchun qulay, moslashuvchan vosita bo'lib, bir marta tayyorlangan plyonkadan ko'p marta foydalanish mumkin. Doska bo'lmaganda zarur bo'lgan narsalarni flomaster yordamida to'ppa-to'g'ri yozib ko'rsatiladi.

O'qituvchi qaysi vositadan qachon foydalanishi, qanday vositani qo'llashini darsning maqsadi, mazmunidan kelib chiqqan holda oldindan belgilab olishi kerak.

2-§. Dars o'tishda doskaning va boshqa texnik vositalarning tutgan o'rni

O'quv jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan va eng kam chiqim talab qiladigan vosita oddiy doska hisoblanadi.

Doskadan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

- notanish so'z, iboralarni yozish;
- turli chizmalar, diagramma, sxemalar chizish;
- rasmlar yordamida illyustratsiya qilish;

- misollar yechish;
- formulalar yozish va boshqalar.

Doska har bir auditoriyada bo'lishi kerak. Dars paytida doskadan foydalanish uchun uni darsga tayyorlash lozim. Agarda o'qituvchi ilgari dars o'tmagan auditoriyada dars o'tadigan bo'lsa, doskaning o'lchamlari, uning qandayligi bilan tanishishi kerak. Darsda doskadan optimal darajada foydalanishga harakat qilish lozim:

- zarur jummalarni yozish, grafiklar chizish, bir-biridan ajratish, chiziqlarni rangli bo'r bilan chizish;
- agar murakkab chizmalar chizilishi kerak bo'lsa, avval xomaki nusxasini chizib ko'rish;
- doskadagi tasvir iloji boricha tushunarli, taassurot qoldiradigan bo'lishi kerak.

Doskaga aniq, talabalar o'qiy oladigan qilib yozish kerak. Yozayotganda tushuntirishni to'xtatib, yozib bo'lgach, gapirish kerak. Chunki, auditoriyada talabalarga orqa o'g'irgan holda doskaga qarab yozib turib, gapirilgan fikrni ilg'ash qiyin.

Doskada ishlashning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Doskaning afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlatishning osonligi, tayyorligi;
- o'zgartirishlar kiritishning osonligi;
- darsni o'tishga qarab mos holda ishlatish mumkinligi;
- qo'shimcha misollar berilgan savollarga qarab, misollarni moslashtirish;
- murakkab nisbatlarni ko'rgazmali ifodalash mumkin;
- chizmalar, formulalar va boshqalarni yozib ko'rsatish, qabul qilish va tushunishni osonlashtiradi;
- yaxshi yodda qoladi;
- doskadan konspektga ko'chirilgan misol va rasm, chizma, grafiklar kelgusi darslarga yaxshi tayyorlanishga yordam beradi.

Kamchiliklari:

- doskaga yozayotganda talabalarga orqa o'g'irib turiladi, Auditoriya bilan ko'z qarash kontaktini yo'qotiladi;
- bir marta yozilgan narsa o'chiriladi;
- yozish, chizishga vaqt ketadi.

Doska-stend — mashg'ulotlarda o'quv munozaralari boshqa turli muhokamalarning guruh, ishlari natijalarini hujjatlashtirishda foydalaniladigan o'qitish vositasi.

Stendga o'sha kattalikdagi qog'oz qo'yiladi, turli rangdagi va

shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Stenddagi kartochkalar yordamida sxemalar, tuzilmalar, sharxlar va shu kabilarni tuzish mumkin.

Doska-stendning afzalligi shundaki, unda kartochkalar, sxema, grafik, izoh-sharhlar va hokazo kartochkada aks ettirilgan ma'lumotlar, joylashuvini xohlagan vaqtda o'zgartirish imkoniyati mavjud. Qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarning fikr-mulohazalarini qamrab olish, qayd etish imkoniga ega bo'ladi.

Doska-bloknot yoki **flipchart doskasi** — bu varaqlanadigan qog'ozli doska bo'lib, unga marker bilan yoziladi. U turli-muhokama yakunlari va natijalarni yaqqol namoyish etishda, eng muhim axborotlarni qayd etishda qo'llaniladi. Uning qulayligi, xohlagan vaqtda oldingi materiallarga qaytish o'quv xonasiga osib qo'yish, istagan paytda qulay joyga ko'chirish, kerak bo'lsa, devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish mumkin. Undan guruhliy bahs-munozaralarning natijalarini saqlash, kerak bo'lganda ishlatish, turli masalalar bo'yicha asosiy qismlarni ajratib ko'rsatish muhokama qilinayotgan masalaga qaytish, kichik guruhlar yoki butun guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish imkoni mavjud. Diqqatni tortish yoki fikrni ajratib ko'rsatish uchun rangli markerlardan foydalanish mumkin.

Uning asosiy **kamchiliklari**: yozuv, bildirilayotgan fikr tushunarli bo'lishi zarur, aks holda uni o'qish qiyin bo'ladi, ayniqsa, muhokama qilinayotgan masalaga ma'lum bir vaqt o'tgach qaytganda;

— varaqlardan nusxa ko'paytirish qiyin, faqat fotosurat olish yoki ko'chirib yozish mumkin xolos;

— ko'p flipchart qog'ozlari talab qilinadi.

Doska turlaridan yana biri Pinbord doskasidir. U (inglizcha pin-mahkamlash, board- doska). Bu doskaning boshqa doskalardan farqi shundaki, unga maxsus qog'oz tortilgan bo'lib, unga dars jarayonida muhokama qilinayotgan mavzu, masala, muammo bo'yicha talabalar tomonidan yozilgan kartochkalarni ignalar bilan mahkamlash imkonini beradi. Bunda kartochkalar turli rang va shaklda bo'lib, ularga maxsus rangli flomaster yoki markerlar bilan yoziladi. Ular yordamida fikrlar guruhlanadi, tizimga solinadi jamoaviy yagona yoki qarama-qarshi pozitsiya aniqlanadi.

O'qituvchi muammoni o'rta tashlaydi hamda talabalarga o'z nuqtayi nazarlarini bayon qilishni taklif qiladi. «Aqliy hujum» metodi asosida muhokamani tashkil qiladi. Har bir talaba o'z fikrini aytadi, ular muhokama qilinadi. Ular orasidan eng optimal yoki

samarali deb topilgani 2–3 soʻz bilan kartochockalarga yoziladi va doskaga mahkamlanadi. Talabalar tomonidan bedgilangan guruh vakillari doskaga chiqib, boshqalar bilan maslahatlashgan holda:

- xato, qaytarilgan fikrlarni olib qoʻyishadi;
- munozarali fikrlarni aniqlashtirishadi;
- gʻoyani maʼlum tizimga solish alomati boʻlgan fikrlarni aniqlashadi;
- fikrlar yaqinligi va oʻziga xos jihatlari boʻyicha kartochockalarni guruhlariga ajratishadi.
- strelkalar, chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ularning nisbatlari koʻrsatiladi, yagona jamoa yoki qarama-qarshi pozitsiya ishlab chiqiladi.

Bu doska yordamida muammolar ishlab chiqilib qarorlar qabul qilinishi va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni koʻrgazmali qilish mumkin. Shuning uchun pedagoglar oʻrtasida pinbord faqatgina doska emas, oʻziga xos dars berish usuli sifatida ham qaraladi.

Pinbord doskasini siljitish mumkinligi, maʼlumotlarni daskaga mustahkamlash, kartochockalarni guruhlash, turli rangdagi kartochockalardan foydalanish imkoniyati uning afzalligi boʻlsa, qogʻozning koʻp ketishi, kartochockadagi yozuvlarning turli tumanligi, ularni mustahkamlash vaqtni olishi kabilar uning kamchiligidir.

Shuning uchun mavzu boʻyicha muammo qoʻyib, taxminan ularni yechimlarini berib, har bir yechim uchun bir rangdagi kartochockalar tayyorlab, har bir rangdagi kartochockadan bittadan doskaga yopishtirib, uni tanlaganlar nima sababdan shu yechimni tanlaganlarini tushuntirib berishlarini taklif qilish tarzida tashkil etish mumkin.

Koʻrgazmali qurollar darsni qiziqarli va turlicha boʻlishiga taʼsir koʻrsatadi. Ana shu koʻrgazmalilikni taʼminlashda kodoskop, proektor va boshqa texnik vositalardan keng foydalanish mumkin.

Oddiy doska yoki varaqlanadigan (bir tomondan ikkinchi tomonga oʻtkazib qoʻyiladigan varaqlardan iborat) doska bilan birgalikda qoʻllaniladigan texnik vositalardan kodoskop, proektor. Ular yozish uchun vaqtni tejashda eng qulay vositalardan biri boʻlib, darsda koʻrgazmalilikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Dars oʻtishda keng qoʻllaniladigan nisbatan oddiy, bir auditoriyadan ikkinchisiga olib oʻtish oson texnik vosita kodoskop va proektor hisoblanadi. Hozirgi paytda kodoskopga nisbatan proektor koʻproq ishlatiladi. Ulardan foydalanishdan avval uning bexato ishlashini, tozaligini, xonada rozetka bor-yoʻqligini tekshirish lozim.

Slaydlar taqdimot qilinishidan oldin tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo'ygan ma'qul.

O'qituvchi taqdimot jarayonida ekranga qarab emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab, nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirishi lozim, ya'ni «ko'z aloqasi»ni saqlab turishi kerak.

Boshqa vositalar kabi proektorning ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Kodoskop va proektor bilan ishlashning afzalliklari:

- * dars jarayonida doimiy tasviriy kontakt yuz beradi;
- * plyonkalar dars boshlanishiga qadar tayyor bo'lishi mumkin;
- * turli tarzda foydalanishni tashkil qilish mumkin,
- * slaydlarni qo'lda, fotonusxa, kompyuter yordamida tayyorlash va ulardan bir necha marta qaytadan foydalanish mumkin;
- * kerak bo'lmagan qismini yopib qo'yish mumkin;
- * rangli tasvirni qo'llash mumkin;
- * foydalanish oson, qulay joyga ko'chirish mumkin.

Proektor bilan ishlashning kamchiliklari.

- * talabalar butun diqqatni tasvirga qaratishadi;
- * plenkaga yozish, shuningdek, uni darsga tayyorlash ko'p vaqt talab qiladi;
- * proektor bilan ishlaganda auditoriya nim qorong'i bo'lishi kerak. Buning natijasida ayrim noqulayliklar kelib chiqishi mumkin.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida, taqdimot qilishda videoproektordan tobora keng foydalanilmoqda. Undan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari zarur. Oldindan tayyorlangan o'quv materiallari va boshqalar videoproektor orqali namoyish qilinadi. U eng yuqori darajada taqdimot imkonini beradi. Namoyish etiladigan materiallarni turli kompyuter dasturlari: Word, Excel, Power Point, Corel Draw va boshqalarda taqdim etuvchining o'zi tayyorlashi yoki professional darajada tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish mumkin. Bunda katta hajmdagi axborotni disket, kompakt disk, fleshka yordamida ko'chirish, bir marta tayyorlab, keragicha foydalanish mumkin.

Eng muhim afzalliklaridan tayyorlangan materiallarni kamchiliklarini tezda tuzatish, zarur o'zgartirishlar kiritish, takomillashtirib borish imkoni borligi, materiallarni kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi, rangli tasvirdan foydalanish, ularni «jonlantirish» va harakatlantirish imkoni mavjudligidir.

Videoproektor albatta boshqa vositalarga nisbatan qimmat, undan foydalanish uchun ko'nikma talab etiladi. Ranglarni noto'g'ri

tanlash oqibatida ko'z toliqishi, animatsiyani noto'g'ri tanlash tu-fayli asosiy diqqat mazmundan chetga chiqib ketishi mumkin. Vi-deoproektor elektr energiyasini talab qiladi.

Umuman olganda, texnik vositalar dars jarayonini ko'rgazmali qilishga, yuqorida aytganimizdek tasavvur qilishga va xotirada jonlantirishga yordam beradi. O'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirishni, real hayotga, amaliyotga yaqinlashtirishni ta'minlaydi. Ajdodlarimiz bekorga aytishmagan «Yuz marta gapir-gandan bir marta ko'rgan afzal» deb.

O'quv yurtlarida muvaffaqiyatli-qo'llanilayotgan vositalardan biri vertual stendlardir. *Virtual stend* – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yor-dam beradi. Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texni-kaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini na-zorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

3-§. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish

Hozirgi paytda o'quv materiallari, axborotlarni ekranda ko'rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jara-yonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Ularning gurkirab rivoj-lanishi turli axborotlardan samarali foydalanishga qaratilgan jami-yatning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov Vazirlar Mahkama-sining 2007-yil 13-fevraldagi majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek, «Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ularni har bir mutaxassislik va so-halar bo'yicha qo'llash imkoniyatlarini izlash, mazkur texnologiya-larni yanada takomillashtirish jarayonlarida ishtirok etish, eng av-valo, bu boradagi bilimlarni beruvchi, targ'ib etuvchi pedagogik kadr va mutaxassislarni taqozo etadi».¹

¹ I.A.Karimov. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir. Xalq so'zi, 2007-yil 13-fevral.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitofon bilan ta'minlangan auditoriyalarda dars o'tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Avniqsa, o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

* o'quvchi talabalarga o'rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;

* o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;

* talaba, o'quvchilarni xohish, talab, ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirish;

* o'qituvchining o'quvchi, talabalarining bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish;

* talaba-o'quvchilarni o'zlashtirishi bo'yicha obyektiv hisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.


Dars jarayonida axborot texnologiyadaridan foydalanishda asosiy o'rinda multimedia turadi. Multimedia komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarni yaratilishi kompyuter texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri bo'ldi. Multimedyaning vujudga kelishi amaliyotning talabi, nazariyaning rivojlanigi bilan yuz bergan bo'lsada, keyingi o'n yillikdagi keskin ravishda oldinga ketish eng avvalo texnikaning va tizimli vositalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Bu shaxsiy EHMlarning rivojlanishi; xotira hajmini keskin ortishi; tezlik va grafik imkoniyatlarning nihoyatda kengayishi; videotexnika, lazer disk, CD-ROM kabilarda erishilgan yutuqlar hamda ularni keng ommaviy ra-

vishda tatbiq etilishi natijasidir. Ayniqsa, ma'lumotlarni tez va samarali kichraytirish(qisish) metodlarini ishlab chiqish nihoyatda katta rol o'ynadi.

Zamonaviy multimedia-shaxsiy kompyuter to'la «qurollangan» holda displey-televizor bilan birlashtirilgan stereofonik Hi-Fi uy kompleksini eslatadi.

Multimedia tasvirdi ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. U lotincha so'zdan olingan bo'lib, «ma'lumot tashuvchi vosita» degan ma'noni anglatadi.

Multimedia informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika, animatsiya (obyektlarning fazodagi, ekrandagi harakati) jadvallari asosida o'quv materiallarini o'quvchi, talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.



Multimedia rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: Axborotning xilma-xil

turlari: an'anaviy: matn, jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagramma va boshqalar. Original turlar: nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalarni bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya turli qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.

Multimedia vositalari yordamida ishlashning quyidagi afzalliklari bor:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoni yaratiladi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoni yaratiladi;
- ma'lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati yaratiladi.
- olingan bilimlar nisbatan kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

Shu bilan birga uni qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud. Chunonchi, ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni kompyuter dasturlari tarzida ishlab chiqish;

Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

POWER POINT dasturi multimedia tayyorlashda juda katta imkoniyatlarga ega. Ulardan foydalanib, turli mavzularda multimedia tayyorlash va dars jarayonida qo'llash keng yoyilib bormoqda. Natijada keyingi paytda alohida videometod sifatida pedagoglar tomonidan ajratib ko'rsatilmoqda.

POWER POINT dasturida mavzuni o'rganish yoki taqdimot materiallarini tayyorlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- maqsad qo'yiladi, undan kelib chiqib g'oya shakllanadi;
- g'oyani asoslash uchun ma'lumotlar yig'iladi va saralanadi;
- yig'ilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun reja tuziladi;
- bildirmoqchi bo'lgan fikr matnda ifodalanadi;
- mavzu, o'rganilayotgan mavzu, muammoga mos, axborotni xotirada saqlanib qolishiga yordam beradigan dizayn tanlash;
- muvofiq ravishda animatsiya tanlash.

Multimediadan o'quv jarayonida foydalanishning rivojlanishi turli-tuman multimedia mahsulotlarini, oxir-oqibatda elektron darsliklar paydo bo'lishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, axborot texnologiyalarini rivojlanishi internet tarmoqlaridan keng foydalanishga yo'l ochdi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan keng foydalanishda ayrim obyektiv muammolar ham mavjud. Ulardan eng asosiysi, zarur kompyuter dasturlarining yetishmasligidir.

Qator mavzularni qamrab olgan, real hayotga yaqinlashtirilgan RUSE (AQSh), MEKOM (Rossiya) va boshqa dasturlar mavjud. Ulardan foydalanib, kompyuterlarda ishlash, talabalar o'rtasida konkurslar o'tkazish mumkin. Lekin hali bizda ana shu dasturlarga o'xshash iqtisodiyotni o'rganadigan, qo'llangan chora-tadbirlarning natijasini qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradigan dasturlar yaratilgani yo'q.

Undan tashqari, hozircha bizda iqtisodiy fanlardan dars o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan o'quv videofilmlari juda kam. Lekin ularni talabalar bilan birgalikda yaratish mumkin. Keyingi paytda masofadan o'qitishning borgan sari yoyilib borishi, darslik, qo'llanmalarining elektron versiyalarini yaratilishi, o'qitish jarayonida kompyuterlardan yanada kengroq foydalanishga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining, telekommunikatsiyalarni rivojlantirishni o'quv jarayonida *telekonferensiyalarni* kuzatish yoki bevosita

muloqot qilish imkoniyatini ham vujudga keltiradi. Telekonferensiyalarni o'tkazish uchun quyidagi apparaturalar: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlaridan foydalaniladi. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmi materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Xulosa

O'quv jarayonini tashkil etishda texnik vositalar muhim o'rin tutadi. O'quv jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan va eng kam chiqim talab qilinadigan vosita bu doska bo'lib, ishlatish va o'zgartirishlar kiritish osonligi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Bu jihatdan unga teng keladigani yo'q. Shuning uchun ham doskadan hozirgi paytda ham keng foydalaniladi. Keyingi paytlarda uni ma'lum darajada zamonaviy turlari doska-stend, doska-bloknot va boshqalar ham qo'llanilmoqda.

Keng qo'llanilayotgan texnik vositalardan proektor hisoblanadi. Uning turli modifikatsiyalari mavjud bo'lib, pedagoglar ularning tuzilishi, ishlash prinsiplari va didaktik imkoniyatlarini bilishi va ularni hisobga olgan holda dars o'tish jarayonida qo'llashi zarur.

Hozirgi paytda multimedia va o'quv, ilmiy-hujjatli filmlarni kompyuter va boshqa texnik qo'rilmalar yordamida namoyish qilish real hayotga yaqinlashtirilgan iqtisodiy o'yinlar orqali darsni tashkil etish tobora ommalashib bormoqda. POWER POINT dasturi multimedia tayyorlashda juda katta imkoniyatlarga ega. Lekin bizda iqtisodiyotni o'rganadigan, qo'llangan chora-tadbirlarning natijasini qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradigan o'yinlar dasturlarining yo'qligi imkoniyatlarni cheklaydi.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Ta'lim vositalari, real vositalar, texnik vositalar, chop etilgan o'quv materiallari, doska, doska-stend, doska-bloknot, proektor, multimedia.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Texnik vositalardan dars jarayonida foydalanish qanday ahamiyatga ega?
2. Ta'lim vositalariga nimalar kiradi?
3. Texnik vositalardan o'quv jarayonida foydalanishning qanday afzalligi va kamchiliklari bor?
4. Sizningcha, albatta har bir mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki texnik vositalardan foydalanish shartmi?
5. Duskadan foydalanishni asosiy afzalligi va kamchiliklari nimada?
6. Darsda videoproektordan foydalanishning qanday ijobiy tomonlari bor, deb o'ylaysiz?
7. Multimedia nima va nima sababdan hozirda undan keng foydalaniladi?

XVII bob. MUSTAQIL ISH VA UNI TASHKIL ETISH

Tajriba ko'rsatadiki, boshlagan ishini sabr-toqat bilan mustaqil ravishda tinmay izlanish orqali oxiriga yetkazadiganlargina hayotda ko'zlagan maqsadlariga erishadilar. O'quvchi-talabalarda ana shu xislatni tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etish o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Undan tashqari, hozirgi kunda axborot oqimini nihoyatda kattaligi, fan-texnika taraqqiyoti tufayli o'qituvchi qanchalik mohir bo'lmasin, dars jarayonida fan bo'yicha barcha bilim, axborotlarni o'quvchi - talabalarga yetkaza olmaydi. Uni to'ldirishning yagona yo'li o'quvchi, talabalarning o'z ustilarida mustaqil ishlashlaridir. Mustaqil ishlashning yana bir ijobiy tomoni u mustaqil fikrlashni ham rivojlantiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchi, talabalarni mustaqil ishini tashkil etishga alohida diqqat qaratilmoqda. Mazkur bob mustaqil ishlash, uni tashkil etish turlari va xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi.

1-§. O'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil ishlarining tutgan o'rni. Mustaqil ta'limga alohida diqqat qaratilishi

Resurslarning cheklanganligi bizni har bir qadamimizda tanlov zaruriyatini qo'yadi u o'z navbatida turli variantlar orasidan eng maqbulini tanlay olish uchun bilim, mahorat talab qiladi. **Ikkinchidan**, bozor iqtisodiyotiga noaniqlik yo'ldosh. Har bir tanlov risk bilan bog'liq. **Uchinchidan**, hozirgi paytda axborot oqimi nihoyatda katta. Texnika, texnologiyadagi yangiliklarni anglab ulgurib bo'lmaydi. Bularning hammasi yoshlarimizni har jihatdan barkamol bo'lishlari uchun o'z ustilarida mustaqil ravishda tinmay ishlash va izlanish ko'nikmasini hosil qilishni talab qiladi.

O'quvchi-talaba mustaqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib yetisha olmaydi, chunki, talabaning o'qish yillari davomida olgan bilimlarining ko'p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko'pgina bilimlar esa unutiladi. Bilimning eskirishi tez, axborot oqimi nihoyatda katta bo'lgan hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlash, izlanishga o'rganish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. Taniqli

olim G. Spenser tarbiya ishida o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga katta o'rin berilmog'i lozimligini ta'kidlab, insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etganini ko'rsatgan.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy shakllari — ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi sinf, auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkazilsa-da, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi. Hozirgi taraqqiyot darajasi, uning nihoyatda tezlashuvi natijasida belgilangan soatlar mobaynida qo'yilgan maqsadga yetish, barcha axborotni o'quvchi-talabalar ongiga etkazish tobora qiyinlashib boradi. Bu muammoni yechishning asosiy yo'li yoshlarimizni o'z ustilarida mustaqil ishlashga o'rgatishdir.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish o'quvchi-talabalar dunyoqarashini shakllantirishda o'quvchi-talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashi alohida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarning mustaqil ta'limiga alohida diqqat qaratilmoqda.

O'quvchi-talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish Oliy va o'rta ta'lim vazirligining maxsus buyrug'i bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi: Talaba mustaqil ishi 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari esa O'MKHT markazining 2005-yil 17-avgustdagi 192-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan «O'quvchining mustaqil ishini tashkil etish», to'g'risida muvaqqat Nizom asosida tashkil etiladi.

U Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy va ijtimoiy faollikka, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad, raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan, yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda o'quvchi-talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt budjeti, tadqiqot obyekti alohida ahamiyatga ega.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi

va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Talabaning mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

2-§. Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari va tamoyillari

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir o'quvchi-talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni talabalar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishlarini tashkil etish o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni o'quvchi-talabaning o'zi tashkil qiladi. Muvafaqqiyatga erishish uchun uning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa o'quvchi-talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

2. Mustaqil ishlash jarayonida bilimlarni egallash bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak:

A) mustaqil ish - o'qishning, aqliy mehnatning alohida turi;

B) axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengayadi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

3. O'quvchi-talabalar mustaqil ishlash vaqtini ham mustaqil ravishda o'zlari belgilaydi. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasidagi muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlari-ning tarkibiy qismi bo'lib, u dars jarayonini tashkil etishdan katta farq qiladi, ya'ni uni bajarish vaqtini o'quvchi-talabaning o'zi imkoniyatidan kelib chiqib belgilaydi. Mustaqil ishlash vaqtdan to'g'ri foydalanishni, uni tejash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har bir o'quvchi-talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo'yicha tabaqalashtirgan holda rejalashtirishi kerak. Undan kelib chiqib, talaba o'z haftalik rejasini kunlar bo'yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda o'quvchi-talabaga hech narsa bermayotganday, hech qanaqa yordami yo'qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, a'lochilar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

O'zlashtirish bo'yicha fakultet muvaffaqiyatini ham talabalar-ning o'z vaqtlarini to'g'ri rejalashtirishi, uni bajarishi bilan bog'lash mumkin.

Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsim-lashda o'quvchi-talabaga yordam lozim.

4. Mustaqil ishni bajarish uchun o'quvchi-talaba o'zini-o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham subyektiv omil asosiy o'rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiy prinsiplar mavjud. Mustaqil ishni shu prinsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar prinsiplarni o'zlashtirish birinchi darajali ahami-yatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki,

mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas.

O'quvchi-talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari uni tashkil etishning tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular quyidagilar:

Mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning muntazamligidir, ya'ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Bugungi o'tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi uchun o'tilganlarni o'z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o'rganishi zarur. Chunki ma'ruzada talabaga yo'llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo'lmaydi. Uning iloji yo'q, ma'ruzada o'tilgan, muhokama qilingan masalalarni psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko'ra, atigi 5 foizi talabalar yodida qolar ekan. O'zi o'qib o'rgangani, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishi esa bir necha baravar ko'p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabaning o'zini mustaqil tayyorlanib o'qishi fanni o'rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o'zlashtirishida, tahlil qilishi, o'z fikrini ifodalashida muhim rol o'ynaydi.

2. Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emasligi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17—25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog'i yozilishi qiyin bo'lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda sinf, auditoriyada o'tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'ladigan bo'lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo'lsa 3 soatdan ko'proq, agarda ko'p bo'lsa, kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Oliy o'quv yurtlarida haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22—24 soat atrofida bo'ladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quvchilarning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi 16 soatni tashkil etadi.

Albatta, bu vaqt o'quvchi-talabani normal tarzda diqqat-e'tibor, g'ayrat qilib ishlashini mo'ljallagan holda belgilanadi. Lekin real hayotda sobir talaba o'zini zo'rlab dars tayyorlansa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o'rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchin-chisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablarni keltirish mumkin.

3. Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega ekanligi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim prinsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa, semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qolganda, bajar-magan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabani mehnti samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda, talabani kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa o'quvchi-talabani o'ziga ham bog'liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

3-§. Mustaqil ishlash va izlanishning asosiy shakllari

Mustaqil ishlash quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifalarini bajarishda darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ishlash, konspekt tayyorlash.

2. Tipik topshiriqlarni yechish. Bunda talaba avvalgi bilimlarini xotirasida qayta tiklaydi va qisman qayta o'zgartirib, aniq topshiriqlarda qo'llaydi. Masalan: masala, mashq yechish;

3. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan sharoitda qo'llash. Talaba o'rgangan bilimlaridan yangi sharoitda foydalanadi. Sharoitlarda ma'lum umumiylik bo'lishi mumkin.

4. Ijodiy faoliyatga asos yaratish. Bunda talaba o'rganilayotgan sohaning mohiyatiga tushunadi, uning yangi munosabat, bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

Barcha mustaqil ishlar talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Talaba ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamda o'zi

mustaqil fikr bildirishga qiynalishi mumkin¹.

Mustaqil ishlarni individual - didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1) Bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda o'quvchi-talabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar — axborotlarni, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

2) O'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish va qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda, avval egallangan bilimlarni faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar.

3) Avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtayi nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalaning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar.

4) Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar.

Bunda, yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsa-da, ungacha boshqacha nuqtayi nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Mustaqil ishlarning ajralmas qismi bu mustaqil tahsildir. O'quvchi, talabalarning mustaqil tahsili ularni o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o'quvchi-talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs) ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Prezident asarlari va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga

¹ Рочинский В.М. «Азбука педагогического труда» М., 1990. стр. 33.

bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;

- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- berilgan mavzular bo'yicha referat, axborot tayyorlash;
- o'rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob, grafik ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarni tayyorlash;
- ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy mavzularda bo'lib o'tadigan ilmiy, amaliy konferensiya, seminar mashg'ulotlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularda qatnashish;
- turli jamg'armalar tomonidan tashkil qilingan tanlovlarda ishtirok etish;
- o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Uni qanday rejalashtirishni «Iqtisodiyot najariyasi» fani misolida quyidagi jadval yordamida ko'rish mumkin.

Musraqil ta'lim mazmuni va hajmi

No	Fanning mavzulari va ular bo'yicha ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar	Bajarish mud-datlari	Hajmi (so-at-da)	Mustaqil ta'lim bali
	1	2	3	4	5
1.	«Iqtisodiyot nazariyasi» fani-ning predmeti va uslubi. Iqtisodiyot najariyasining fan sifatida shakllanishida turli oqin-larning roli	Kons-pekt qilish	Shu mav-zuda o'ti-ladigan seminar darsiga qadar	4	2
2	Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari. Cheklangan re-surslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qoldirish muam-mosi	Tanlash va qaror qabul qilish set-kasini tay-yorlash	--	2	2

3	Iqtisodiy tizimlar va ularning o'zgarishi. Aralash iqtisodiyot doirasining kengayib borishi. An'anaviy iqtisodiyot va uning transformatsiyasi.	Taqdimot	--	2	2
4	Mulkchilik munosabatlari – iqtisodiy tizim asosi. Mulkni iqtisodiy ro'yobga chiqarish, uning usullari va muqobil yo'llari.	Loyiha	--	4	2
5	Iqtisodiy faoliyat va uning samaradorligi. Ishlab chiqarish jarayoni va uning iqtisodiy mazmuni va shakllari. Ishlab chiqarish natijalari.	Munozara	--	4	2
6	Iqtisodiy tizimda tovar va pul. O'zbekistonda milliy pul – so'mning muomalaga kiritilishi va uning ahamiyati.	Esse yozish	--	2	2
7	Bozor iqtisodiyoti va uning belgilari. Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti, uning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari.	Konspekt qilish	--	2	2
8	O'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va islohotlar strategiyasi.	Matndan iqtibos va ularga sharh yozish	--	2	2
9	Bozor va uning tuzilishi. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari. O'zbekistonda milliy bozorni shakllantirish.	Konstep-tual jadvalda ifodalash	--	4	2
10	Talab, taklif va bozor muvozanati. O'zbekistonda bozor muvozanatini ta'minlash muammolari.	Konspekt qilish	--	4	2
11	Bozor tizimida tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida korxonalarini aksionerlashtirish xususiyatlari.	Taqdimot	--	4	2
12	Sarf-xarajatlar, foyda va zarar. Xarajatlarning tarkibi	Masala va mashq	--	4	2

	va turlari.	yechish			
13	Mehnat va ish haqini tashkil topishi. Ish haqi tizimi. Ish haqini indeksatsiyalash.	Munozara	--	4	2
14	Raqobat nazariyasi. O'zbekistonning antimonopol qonunchiligi va raqobatchilik uchun shart-sharoitning vujudga kelishi.	Konspekt qilish	--	2	2
15	Narx va uning shakllanishi. Erkin ba monopollashgan bozorda narxning shakllanishi.	Chizma ifodalash	--	2	2
16	Agrar tizimda renta munosabatlari. Renta to'lovining shakllari. Renta miqdoiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilish.	Taqdimot. Masala va mashq yechish	--	4	3
J A M I I :				50	33

Mustaqil ishlar tarkibida o'quvchi-talabalardan alohida diqqat-e'tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o'rganilayotgan fandan kurs ishi hamda kasb-hunar kollejlarda diplom ishi, bakalvriyat yo'nalishida bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor.

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o'quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. Konspekt qilish — talabani fanni o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to'g'ridan — to'g'ri ko'chirish deb tushunmasliklari kerak.

Berilgan topshiriqni bajarish o'qishdan boshlanadi. O'qish bu hali o'zlashtirish emas. O'qish, o'qilgan matnni anglash kerak. Tushunish, o'zlashtirish uchun qo'shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi. O'zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta, u o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, uqish bu o'qish emas. Tushunish boshqa, tushunganni o'zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa. Hammasi ham aqlni ishlatishni talab qiladi. O'qishga minimum vaqt va kuch sarflab, hara-

kat qilib, asosiy diqqatni tushunishga, tushunganini yozishga, yoddà saqlashga harakat qilish kerak. Sarflanadigan vaqt, uni o'qishga qancha va tushunish uchun o'ylashga qancha sarflanishi mavzuga, uning murakkablik darajasiga bog'liq.

Talabalarni iqtisodiy fanlarni o'rganishlarida iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, ilmiy to'garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarining ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkurslari olimpiada va ko'rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi.

Talabalarni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o'rgatishda kafedra tomonidan tashkil etilgan ilmiy to'garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedra o'rganilayotgan fan bo'yicha talabalarining qiziqishi, fandagi yangiliklar o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolarni ilmiy to'garaklarda muhokama qilinishini ko'zda tutishi kerak. Talabalar to'garakda tayyorlagan ilmiy dokladlarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to'garak a'zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. To'garak a'zolarini soni, muhokama qilinadigan masalalar, ilmiy dokladlar miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko'ra to'garak rahbari oy davomida ilmiy to'garaklar majlisi o'tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy dokladlar talabalarining ilmiy konferensiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.

O'tkaziladigan konferensiyani umumiy mavzusini tasdiqlagach, dokladlarni mavzu yo'nalishiga ko'ra guruhlariga ajratgan ma'qul.

O'tkaziladigan talabalarining ilmiy konferensiyasida eng yaxshi deb topilgan dokladlar rag'batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi

Fanni mustaqil o'rganishda **mustaqil izlanish** alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash, o'qishdan mustaqil izlanishning asosiy farqi uni ilmiy yo'nalishda bo'lishi fanda, tajribada erishilgan eng so'nggi yutuqlarni o'rganishga diqqat qaratilishi hamda o'z nuqtayi nazarini bayon qilish va taklif, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishidir.

Mustaqil izlanishning o'quv shakllaridan biri **kurs ishidir**.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar iqtisodiy fanlarni yanada chuqurroq o'rganishadi. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar mohiyatini tushunish murakkab nazariy muammolarni tahlil etish, uni amaliyotda tatbiq qilish haqida o'ylashga, fikr yuritishga undaydi.

Albatta oily o'quv yurtlarida kurs ishlariga qo'yiladigan talablar ilmiy va ijodiy jihatdan kasb-hunar kollejarida bajariladigan kurs ishlaridan farqlanadi. Lekin ularni bajarishdan qo'yiladigan maqsad umumiy.

Kurs ishining fanni mustaqil o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma'lumotlar to'plash, ularni jadval, diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o'tilgan masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishga o'rganishadi. Ana shu jarayonda o'quvchi-talabalar o'zlari induktiv va deduktiv uslublarni qo'llab, alohida hodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Kurs ishi o'quvchi-talaba tomonidan tanlanadi. Uning hajmi 25–30 betga (standart yozuv qog'ozi bo'yicha) mo'ljallanadi. Bu mavzuni har tomonlama chuqur o'rganib, o'z qobiliyatini, fanni o'zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi.

Kurs ishiga kafedradan ilmiy rahbar tayinlanadi. U o'quvchi-talabalarga kurs ishini tayyorlashda zarur maslahatlarni beradi:

– kurs ishi mavzusi faqat darslik doirasida emas, balki qo'shimcha adabiyotlar, shu mavzu bo'yicha jurnal, gazetalardagi maqolalardan foydalanib yoziladi;

– kurs ishida ilmiy izlanish elementlari, nazariy qoidalar, tajribalar bilan yoritiladi;

– ish bo'yicha reja tuziladi, reja tarkibi: kirish, asosiy qism (yoritish kerak bo'lgan masalalar), xulosadan iborat bo'ladi;

– kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo'lishi kerak, ya'ni biron bir muallifning fikri keltirilsa, jumlar o'zgartirilmay, qanday bo'lsa shunday ko'chiriladi va qo'shtirnoq ichiga olinadi, izoh beriladi. U sahifaning eng tagiga nomerlangan holda berilib, manba ko'rsatiladi. Unda havola qilingan muallif, asar yoki maqolaning, nashriyotning nomlari, nashr qilingan yili beriladi;

– matn mustaqil yoziladi. O'quvchi-talaba kurs ishi yozishda o'rganayotgan adabiyotlardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmay, avval o'qib chiqib, tushunib, boshqalari bilan taqqoslab, so'ngra o'zining fikrini bayon qilmog'i lozim.

Kurs ishiga qo'yilgan bosh talab — fanni chuqur o'rganishga erishish, ilmiy izlanishga havas uyg'otish.

Kurs ishida o'quvchi-talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, dastlabki ilmiy izlanish kurtaklarini hosil bo'lishida kurs ishi rahbari muhim rol o'ynaydi. Kurs ishi rahbari asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va tanlangan mavzuni to'la ochib berish

uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligi haqida maslahat beradi.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda o'quvchi-talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojaat qiladi. Mavzu bo'yicha ayrim adabiyotlarni to'liq o'qib chiqish, zarur bo'lsa, ayrimlarini mavzu bo'yicha u yoki bu bobi yoki sahifalarini o'qishga, o'rganishga to'g'ri keladi.

Kurs ishida qo'yilgan savollar o'rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishi zarur. Savollar ko'p bo'lmasligi, mavzuning mazmunini ochib berishi lozim. Rejada qaysi adabiyotlar bilan ishlash ko'rsatiladi. Masalan, «Iqtisodiy xarajatlar, ularning tarkibi va turlari» mavzusi bo'yicha reja quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mavzu: Iqtisodiy xarajatlar, ularning tarkibi va turlari

Kirish

1. Iqtisodiy xarajatlarning mazmuni.
2. Iqtisodiy xarajatlarning tarkibi va ularga turli jihatdan yondashish.
3. Iqtisodiy xarajatlarning turlari.
4. Ishlab chiqarish omillarining nisbati va xarajatlarni minimallashtirish muammosi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning ahamiyati, fanni o'rganishda tutgan o'rni, ko'rilayotgan masalaning dolzarbligi, amaliyotdagi ahamiyati ko'rsatiladi.

«Kirish» qismida tanlangan mavzu bo'yicha nima maqsad qo'yilganini qisqacha bayon qilishi kerak. «Xulosa» qismida mavzu bo'yicha chiqarilayotgan asosiy xulosalarni aniq ifodalash kerak. Ular qisqa, ishning mavzuidan kelib chiqishi lozim.

Kurs ishida ko'tarilgan masalalar bo'yicha, matndan kelib chiqib, bildirilgan asosiy xulosalar ishning qadr-qimmatini oshiradi. Talabaning mavzuni chuqur o'zlashtirganidan, yaxshi bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida kurs ishi yozishda talaba tomonidan o'rganilgan barcha adabiyotlar, jurnal, gazetada berilgan maqolalar, monografiya, statistik to'plam va boshqalar to'la ravishda muallifning ismi-sharifi, asar yoki maqola va boshqalarning nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Kurs ishi yozganda Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan

qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlardan, Prezidentimiz asarlaridan foydalanishga ahamiyat berish kerak.

Talabadan kurs ishida fanda yangilik yoki yangi ilmiy qoida yaratish talab etilmaydi. Talaba savollarni yoritish jarayonida ilmiy adabiyotlardan tushunib foydalanganini, to'g'ri umumlashtirib, xulosa chiqara bilishini, nazariy qoidalarni tajriba, amaliyot bilan bog'lay olishini ko'rsatishi kerak.

Ana shu jarayonda talabaning ishida ilmiy izlanish elementlari, kurs ishini yozishda mustaqil iqtisodiy fikrlay olishi namoyon bo'ladi.

Ishda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni farqlash kerak. Xato bu — iqtisodiy kategoriyalarni va qonunlarni noto'g'ri tushunish yoki yaxshi tushunmaslik sababli kelib chiqadi. Kamchiliklar talabaning iqtisodiy kategoriya haqida tushunchasi bor, lekin to'la emasligi, ko'pincha muhim nazariy qoidalarni ahamiyatini yetarlicha tushunmasligi tufayli kelib chiqadi. Shuning uchun ham talabaga o'qituvchining maslahati katta yordam beradi.

«Kasb ta'limi» bakalavriat yo'nalishi talabalari kurs ishi yozishga alohida diqqat qaratishlari lozim. Sababi, ular kurs ishini birinchidan, fanni o'rganayotgan talaba sifatida, ikkinchidan esa kelgusida o'qituvchi -kurs ishi rahbari sifatida bajaradilar. Shuning uchun ham kurs ishi bajarishning barcha talablariga alohida diqqat qaratishlari zarur.

O'quv yurtlarida keng qo'llaniladigan mustaqil izlanishning yana bir turi **doklad**dir. Dokladga: 1) majlis ahli uchun mo'ljallangan muayyan mavzudagi axborot, maruza; 2) talabalarning mustaqil ish turi; 3) ilmiy ish turi sifatida qarash mumkin.

Talabalar dokladni mustaqil ish turi sifatida seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Dokladni adabiyotlarni o'rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o'z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Doklad tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish, o'z fikrini yozma ravishda ifodalashga o'rganadi.

Referat, doklad yozish uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o'zlashtirishi kerak. Tanlab olingan mavzuni yoritish uchun kirish, 3—4 savol qo'yiladi va xulosa beriladi. Dalillar, statistik ma'lumotlar to'planadi. Tahlil qilinayotgan masala bo'yicha mavjud fikrlar, qarashlar bayon qilinadi. Talaba ularga o'z nuqtayi nazarini bildiradi.

Ilmiy doklad haqida to'xtaladigan bo'lsak, ko'p jihatdan kurs

ishiga qo'yilgan talablar bilan bir xil va shu tartibda yoziladi. Faqat ilmiy doklad tanlangan mavzuni kurs ishiga qaraganda ham chuqurroq o'rganish, dalillar, statistik ma'lumotlar to'plash, ular asosida zarur iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni tahlil qilish xulosa chiqarish hamda o'z takliflarini bayon qilish bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kognitiv, ya'ni bilishning eng yuqori baholash darajasida fikr yuritiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'rganiladi. U oliy ma'lumotli, malakali mutaxassis tayyorlashda, barchaning iqtisodiy psixologiyasini, dunyoqarashini, fikrlashini shakllantiradigan predmet sifatida, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga ega ekanligini ham yodda tutish kerak. Boshqa iqtisodiy fanlardan ilmiy doklad tayyorlaganda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga, iqtisodiyotning biron yo'nalishi bo'yicha, undagi muammolarni o'rganishni natijasi sifatida amaliy tavsiya, takliflar berilishi kerak.

«Maxsus (iqtisodiy) fanlarni o'qitish metodikasi» fanidan doklad tayyorlaganda esa yuqorida bayon qilinganlardan tashqari samarali dars o'tish metodlarini tanlash, ularning yangi variantlarini topish va qo'llashga ham e'tibor berish lozim.

Ilmiy doklad yozish qattiq mantiqiy izchillikni, sabr-toqat, tishqoqlikni talab qiladi.

Talabalarning iqtisodiy fanlardan mustaqil ishini muhim tarkibiy qismi sifatida **referat** yozish borgan sari keng tadbiiq etilmoqda. Referatni talabalarning ilmiy ish yozishi, tadqiqot o'tkazishini dastlabki shakli sifatida ko'rish mumkin.

Referat (lotincha refero- axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o'qilgan kitob, maqola kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi doklad.

Referat odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi referatlar keng tarqalgan. Odatda talabalarning seminar mashg'ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham referat deyiladi.

Referat yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistik ma'lumotlar va boshqa materiallarni to'plash, ularni qayta ishlash, ya'ni hisob-kitob qilish, tahlil qilish, o'rganilayotgan hodi-

salarga tanqidiy ko'z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog'lashni o'rganadi.

Referat mustaqil yozilib, uni yozish qoidalariga amal qilinsa, darslik bo'yicha savolga tayyorlanib kelib, seminar darslarda so'zga chiqishga qaraganda katta foyda beradi. Talaba referatda bildirgan o'z fikrini auditoriya oldida himoya qila olishi kerak.

Referat yozish formal bo'lsa, kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun o'qituvchining rahbarligi katta rol o'ynaydi. Referatlarga qay darajada talab qo'yiladi, shunga ko'ra uni muvaffaqiyatli qo'llash mumkin yoki aksincha.

Shunday qilib, referat, kurs ishi, ilmiy doklad, bir tomondan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o'z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasasa, ikkinchi tomondan, ularni yanada yangi ishlarga rag'batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishi, o'z faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o'z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og'zaki, ham yozma ravishda bayon qilishga o'rgatadi.

4-§. O'quvchi-talabalar vaqtini taqsimlash

O'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarni bajarishi bo'sh vaqtni rejalashtirish bilan bog'liq. Bunda darsdan keyingi vaqtni qanday o'tkazishni rejalashtirish muhim rol o'ynaydi.

Aqliy mehnat qilib charchaganda kishining miyasi toliqadi. Bu uning psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Surunkali ruhan va aqlan charchash jismoniy charchashga qaraganda ko'proq sog'likka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun charchaganda dam olish kerak. Hamma uchun dam olish tartibi bir xil bo'lmaydi. Bu o'z-o'zidan ma'lum. Har bir talabaning o'zi dam olish va ishlash tartibini belgilaydi. Lekin shunga qaramay har bir talaba yodida tutish kerak: auditoriyada dars jadvali bo'yicha 6 soat o'qigach, ma'lum vaqt miya dam olishi kerak. Psixologiya bo'yicha mutaxassis - olimlarning fikricha kamida 3 soat boshqa yumushlar bilan shug'ullanishi, dam olishi, ayniqsa, ochiq havoda sayr qilishi tavsiya etiladi. Dars tayyorlaganda mustaqil ravishda adabiyotlar bilan ishlaganda har bir yarim soatda 10-15 minut dam olishi maslahat beriladi. Eng yaxshi dam olish shakllari - bu harakatga asoslangan sayr qilish, sport bilan shug'ullanish, uy yumushlarini bajarishdir. Hatto radio eshitayotgan chog'da ham tik turib harakat qilish, chuqur nafas olish, dam olish paytida o'rganilayotgan predmet haqida o'ylamaslik kerak.

Ko'zlagan ishni bajargandan keyingi dam olish, ishni bajarmay dam olishga qaraganda ko'ngilliroq bo'ladi. Buni yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki, odam bajarilishi zarur bo'lgan ishning tashvish yukidan xalos bo'ladi!

O'quvchi-talabanning sog'lom bo'lishi, to'g'ri kamol topishi, ko'p jihatdan qat'iy kun tartibiga amal qilishi, gigiena madaniyatiga bog'liq, qat'iy kun tartibiga amal qilish insonni ritm bilan bir zaylda ishlashga odatlantiradi.

Kun tartibiga rioya qilmaslik yoki uning butunlay yo'qligi (vaqtida ovqatlanmaslik, yetarlicha uxlamaslik, dam olmaslik aqliy va jismoniy mehnatning betartibligi) — bularning hammasi a'zoi-badanni bo'shashtiradi, tananing butun hujayralarini, xususan, bosh miya hujayralarini ishlashini yomonlashtiradi.

Kun tartibini rejalashtirishda uyg'onish vaqti, ertalabki gimnastika, auditoriyada o'qish vaqti, kuniga 3—4 marta ovqatlanish, ochiq havoda bo'lish, aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan almashinishini hisobga olish zarur. Kundalik rejim bir qolipda bo'lmasligi kerak. O'quvchi, talabalar kundalik faoliyatini rejalashtirar ekan, albatta, mustaqil ishlashni ham hisobga olish zarur.

Unutmang!

1. Dars tayyorlayotganda bir fandan topshiriqni to'la bajargandan so'ng tanaffus qiling. Agar topshiriq ko'p vaqtni oladigan bo'lsa, uni qismlarga bo'lib bajaring. Chunki, tanaffus yana ishga «sho'ng'ishingiz» uchun diqqatni jamlashga qo'shimcha vaqt talab qiladi.

2. Dars tayyorlayotganda boshqa narsalarga e'tibor bermang, maksimal darajada diqqatingizni bajarayotgan vazifangizga qarating.

3. Bajarayotgan ishlarigizni zarurligi va tutgan o'rniga ko'ra ketma-ketligini rejalashtiring.

4. Har bir ishni bajarish uchun o'zingiz muddat belgilang.

5. Bir ishni boshlagach ikkilanmang, chunki ikkilanish ish layoqatingizni yo'qotadi.

Bu qoidalarga bo'lajak mutaxassis sifatida o'zingiz rioya qilishingiz kerak bo'lsa, kelgusida pedagog sifatida shogirdlaringizni ham rioya qilishga undashingiz zarur.

O'quvchi-talabalar mustaqil ishlarining samaradorligi vaqt budjetidan oqilona foydalanishiga bog'liq. Bunda talabalar vaqtdan foydalanish tajribalarini o'rganishi, ulardan kelib chiqib, vaqtini taqsimlashi zarur.

Yoshlarning o'z ustida mustaqil ishlashi, mutolaa qilishlari uchun zamonaviy kutubxona, o'quv zallari, kompyuter markazlari, xalqaro ilmiy axborot markazlari bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Xulosa

O'quvchi-talabalarda o'z ustida uzluksiz mustaqil ishlash ko'nikmasini tarbiyalashda mustaqil ishlashni tashkil etish muhim o'rin tutadi.

Mustaqil ishlash talabani o'zi tomonidan tashkil etilib, muayyan o'quv ishlari izchil va uzluksiz ravishda o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlarning turli shakllari mavjud bo'lib, ularning barchasi talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan.

Mustaqil ijodiy izlanishda referat, kurs ishi, doklad yozish alohida o'rin tutadi. O'quvchi-talabalardan katta kuch, ijodiy izlanish talab qiladigan hamda bor bilimni yozma ravishda aniq, tushunarli, mantiqiy izchilikda bayon qilishni talab qiladigan ijodiy mustaqil ish kurs ishi, ilmiy doklad bo'lib, u o'quvchi talabani naqadar bilimli, mas'uliyatli, o'z fikrini ifodalashga mohirligini ko'rsatadi.

Mustaqil ishlarni bajarishda talabalarning vaqtini to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun talabalar bajariladigan ishlarning muhimligi, muddati nuqtayi nazaridan ularni bajarish ketma-ketligini to'g'ri belgilash va rejalashtirishni o'rganishlari zarur.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Mustaqil ishlar, mustaqil ishning maqsadi, mustaqil ishning vazifalari, mustaqil ishni tashkil etish prinsiplari, mustaqil ishning shakllari, kurs ishi, ilmiy doklad, referat.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. O'quv jarayonida mustaqil ishlarning tutgan o'rni qanday?
2. Nima sababdan mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratilayapti?

3. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi nima? U qanday vazifalarni bajaradi?

4. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning qanday asosiy prinsiplarini bilasiz?

5. Kurs ishi, ilmiy doklad, referat va boshqa mustaqil ishlarni bajarish, sizningcha, qanday ahamiyatga ega?

6. Talabalar vaqtini samarali taqsimlash deganda nimani tushunasiz?

7. Bitiruv malakaviy ishi va uni bajarishga qo'yilgan talablarni bilasizmi? Siz ularni ko'ngildagidek bajara olishga ishonchingiz komilmi?

XVIII bob. BILIMNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda o'quvchi-talabalar bilimni nazorat qilish, sinash va baholashning ahamiyati katta. Agar uni yaxshi yo'lga qo'yilmasa, turli-tuman metodlarni qo'llashimiz, qiziqarli dars o'tish uchun turli topshiriqlar tayyorlashimizdan qat'i nazar, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki inson ongida har doim o'z mehnat faoliyatini baholovchi psixologik jarayon ro'y berib turadi. O'z ishini natijasi baholanmasa yoki baholanishidan, taqdirlanishidan ko'ngli to'lmasa faolligi susayadi, oxir-oqibat «hafsalasi pir» bo'lishi mumkin. Navbatdagi bob ana shu masalaga bag'ishlangan.

1-§. O'quv jarayonida nazoratning o'rni va roli, nazorat shakllari

Qo'yilgan ta'lim maqsadidan kelib chiqib erishilgan natijani nazorat qilish alohida muhim ahamiyatga ega va u pedagogik texnologiyaning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. O'quvchi, talabalarining bilimi va ko'nikmalarini tekshirish, sinash (o'lchash) va baholash nazorat deb ataladi.

Nazoratning asosiy didaktik funksiyasi o'qituvchi va o'quvchi, talaba o'rtasida qaytuvchan aloqani o'rnatish, o'quvchi, talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasi to'g'risida xolisona axborotga ega bo'lish va ular bilimi, ko'nikmalaridagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ko'rishdir.

O'quvchi-talabalar bilimni, muntazam tekshirish va baholash ularni predmetni chuqur o'rganishga undaydi. ***Baho pedagog uchun o'qishni rag'batlantirish, ijobiy o'quv natijalarini shakllantirish, shaxsga ta'sir etishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi.***

Baholashning adolatli bo'lishi va bilimiga ko'ra tabaqalanishi, predmetni puxta o'zlashtirish uchun intilishga olib keladi

Baholash faqatgina o'zlashtirish darajasini aniqlash emas, balki pedagog uchun o'qishni rag'batlantirish, ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish, shaxsga ta'sir etishning yagona vositasi bo'lib hisoblanadi. Xolisona bahodash ta'sirida talabalarda unga muvofiq

bo'lgan o'z-o'zini baholash, o'z muvaffaqiyatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish hissi paydo bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchi-talabalar bilimini sinash va baholash orqali:

* ularning fan bo'yicha nimalarni bilishi, qanday savollarni chuqurroq o'rganishi zarurligi, zaif jihatlari aniqlanadi;

* nimalarni, qanday savol, masalalarni o'zlashtirgani haqida axborotga ega bo'ladi;

* ota-onalar farzandlarining muvaffaqiyatlari haqida axborot olishadi;

* o'qituvchi va o'quv yurti ma'muriyati tomonidan o'quvchi-talabalar bilimini baholash orqali ularni kursdan kursga ko'chirish haqida qaror qabul qilinadi.

Nazorat ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, qator funksiyalarni bajaradi:

1. Tashhislovchi funksiyasi. O'quvchi, talabalarning xislat, fazilatlarini, o'quv va ijtimoiy faoliyatining turli jihatlari aniqlanadi. Ilmiy asoslangan axborot olinadi. Tashhislashdan maqsad kadrlar tayyolash sifatini boshqarishdir.

2. O'qituvchi-o'rgatuvchi funksiyasi. Talabalarning o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatadi, ularning faolligini oshiradi. O'quv faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil qilish, o'qishga ijodiy munosabatda bo'lish, ijobiy fazilatlarini namoyon qilish va uni rivojlantirishga undaydi.

3. Tarbiyalovchi funksiyasi. O'quvchi, talabalarning salbiy tomonlarini minimallashtirish uchun muhit yaratiladi.

4. Rivojlantiruvchi funksiyasi. O'quvchi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'nikma, malakalarini tashhislash orqali o'zgartirishlar kiritish, dunyoqarashining kengayishi, ijtimoiy tajribasini ortishida o'z aksini topadi.

O'quvchi-talabalar bilimini sinash va baholash nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirishning qator tamoyillari mavjud. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy tamoyillari:

– barcha talabalarni jalb etish;

– dastur materiallarini to'la qamrab olish;

– talabalarga oshkora yondashish;

– talabalar bilimini adolatli baholash;

– muntazam tarzda nazorat va baholashni amalga oshirishga rioya qilish, ularni o'z ustida tinimsiz ishlash, o'qish, o'rganishga undaydi.

O'quvchi, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashga zamon talabidan kelib chiqqan holda yondashish talab etiladi.

Hozirgi paytda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash, uning barcha tamoyillarini nazarda tutgan holda ta'lim tizimidagi mamlakatimiz va chet el pedagoglari tajribasi asosida ishlab chiqilgan reyting (ing. Rating – individual son, miqdor ko'rsatkichi ma'nosida ishlatiladi) tizimi qo'llanilmoqda.

Reyting, birinchidan, talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash jarayonini xarakterlovchi tizim. Ikkinchidan, talabaning olgan bilimini o'zlashtirish darajasi, bahosini ifodalashning usuli.

Reyting tizimini qo'llash orqali talabalarni o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, adabiyotlar ustida muntazam ishlash, darslarga faol qatnashishlarini ta'minlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, professor-o'qituvchilarni ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, dars o'tishning turli-tuman uslublarini qo'llash, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda mas'uliyatlarini oshirishdir. Bularning barchasi esa **raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga** erishishga qaratilgan.

O'quvchi, talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr, o'quv yili davomida muntazam ravishda olib boriladi.

Oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 11-iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom»ga asosan talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari esa O'MKHT markazining 2005-yil 17-avgustdagi 192-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom» hamda «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilar bilimini reyting tizimi orqali yakuniy baholash bosqichida tayanch so'z va iboralarga asoslangan yozma ish usulini tatbiq etish bo'yicha muvaqqat Nizom» asosida olib boriladi. Ularga ko'ra, o'qitish saviyasi, o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish ko'zda tutiladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Oliy ta'limda joriy nazoratda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning o'zlashtirishi aniqlanib, baholab boriladi. U odatda, seminar darslari, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari jarayonida amalga oshiriladi. Joriy baholash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ychun ajratilgan har bir mavzu bo'yicha talabanning adabiyotlardan olgan konspekti, bilimi, mustaqil ijodiy fikr-mulohazalari, dars o'tish metodlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi, mustaqil ishi natijalari va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy mashg'ulotlarda amalga oshiriladi, semestr davomida 2 davrada o'tkaziladi.

Oraliq nazorat semestr, o'quv yili davomida fanning bir necha mavzusi, qismi, bo'limi bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng o'tkaziladi. Unda muayyan savol, muammo, test, masala-mashq va boshqalar yordamida talabanning mavzuni o'zlashtirish darajasi, qobiliyati, mahorati aniqlabadi va baholanadi.

Oraliq baholash ham semestr davomida 2 davrada o'tkaziladi. Talabalarning bilimi birinchi va ikkinchi davrada fanning texnologik xaritasida ko'rsatilgan mavzularini qamrab olgan holda, jami 42 ball doirasida baholanadi. Oraliq baholashda talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi ma'ruzalar, unda talabanning faolligi, o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki, yozma ish, test va talabanning mustaqil ishi nazarda tutilgan holda baholanadi.

Mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlar reyting jadvaliga muvofiq joriy va oraliq baholashga qo'shiladi.

Yakuniy nazoratga, fanning semestr yoki o'quv yili davomida o'tilgan hajmi doirasida talabanning fanni o'zlashtirish darajasi baholanadi. Yakuniy baho turiga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga semestr yoki o'quv yili uchun ajratilgan soatning 15 foizi miqdorida belgilanadi. Yakuniy baholash semestrp yakunida o'tkazilib, yakuniy baholashda talabanning bilim, ko'nikma va malakalari ishchi o'quv dasturidan kelib chiqqan holda, fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Yakuniy baholash o'g'zaki so'rash, amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarish, suhbat, yozma ish, masala-mashq yechish yoki test otkazish usulida amalga oshiriladi.

Talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashning yozma ish usuli talabalarda mustaqil, ijodiy fikrlash, o'z fikrini yozma ifodalash ko'nikmalrini rivojlantiradi. Yozma ish oraliq baholash, yakuniy baholash, yakuniy Davlat attesttsiyasi bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.

Yozma ish yakuniy baholash shaklida o'tkaziladigan bo'lsa, savollar kafedra tomonidan ishlab chiqilib, o'quv yili boshlanishida

kafedra majlislarida muhokama etiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Yozma ish hajmi talabning fan bo'yicha tasavvuri, bilimi va amaliy ko'nikmasini baholash uchun yetarli bo'lishi zarur. Uning hajmi kafedra tomonidan belgilanadi va fakultet kengashida tasdiqlanadi. Yozma ishlarni baholash mezonlari kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi.

Fan bo'yicha JB va OB turlarida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal reyting ballning miqdori, o'quv rejasida fanga semestr yoki o'quv yili uchun ajratilgan soatning 85 foizi miqdorida belgilanadi: JB - 43 ball, OB - 42 ball. Talaba o'rganayotgan fani bo'yicha har bir nazorat bo'yicha maksimal ballning kamida 56 foizini to'plagan bo'lishi kerak. Undan kam ball to'plagan talabning fanni o'zlashtirishi qoniqarsiz deb hisoblanadi.

Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tayanch tushuncha va iboralar mazmunini yoritib berish darajasi yoki talabning fanni o'zlashtirganligi darajasiga qarab baholash asosida amalga oshiriladi va unga maksimum 15 ball ajratiladi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar maksimal ballning:

86 – 100 foizini tashkil etsa, «a'lo»;

71 – 85 foizini tashkil etsa, «yaxshi»;

56 – 70 foizini tashkil etsa, «qoniqarli»;

55 foiz va undan kam bo'lsa, «qoniqarsiz» baholanadi.

Bilimini sinash va baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
85 – 100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlay olish; Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay bilish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
71 – 85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay bilish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.

56 – 70	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
0 – 55	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik.

Muvaqqat Nizomga asosan akademik litseylarda har bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qa'i nazar 100 ballik tizimda, kasb-hunar kollejlari esa 5 ballik («5», «4», «3», «2») tizimda butun sonlar yordamida baholanadi. Muayyan fan (predmet) bo'yicha o'quvchining bali nazorat turlari bo'yicha to'plangan umumiy ballarning o'rtachasi hisoblanadi. Mumkin bo'lgan maksimal ball 5 balni tashkil qiladi.

2-§. O'quvchi-talabalar bilimni sinash va baholash usullari

O'quvchi-talabalar bilimni sinash va baholashda qanday usulni tanlash, o'tilayotgan fan, qo'yilgan maqsad, o'qituvchining tanlovi kabilarga bog'liq.

Dars jarayonida metodlarni qo'llash bo'yicha joriy va oraliq nazorat ballar qanday belgilanishi va ularni mavzuga ajratilgan vaqt va balldan kelib chiqib qanday moslashtirishni ko'rib chiqqanmiz. Masalan, amaliyot darsini modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llab o'tildi, deylik, eng yuqori ball 10 bo'lsin. Joriy nazorat bo'yicha amadiy mashg'ulotda maksimal 2 ball berish ko'zda tutilgan bo'lsa, demak, 10 ball olgan talabaga jurnalga 2 ball, 9 ball olganga esa 1,8 ball, o'yinda 7 ball olganga 1,4 ball, agar maksimal ball 5 bo'lsa, 9–10 ball, 7–8 ball bo'lgani 4 va hokazo tarzda moslashtirib baho quyib chiqamiz. Oraliq baholash ham metodlar bo'yicha alohida baholash ko'zda tutilgan bo'lsa, shunday moslashtiriladi.

Keng qo'llaniladigan nazorat uslublaridan og'zaki metodlardir. Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining o'quvchi-talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Bunda talaba bilan jonli muloqot olib boriladi. Oquvchi-talaba o'z fikrini o'rtoqlashish, boshqalarning nuqtayi nazarini tahlil qilish uchun katta imkoniyatga ega. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini,

qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga imkon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to'g'risidagi taassurot vujudga keladi, e'tirozlarni, barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo'ladi. Lekin bu usulda subyektiv omil asosiy o'rinda turadi.

O'quvchi-talabalar bilimini baholashda testlar muhim o'rin tutadi. Testlar talabalar bilimini baholash, bilim olishga ko'maklashishdan tashqari masala yechish, referat yozish, savolga og'zaki yoki yozma javob yozish kabilardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning obyektiv usuli hisoblanadi, sababi unda o'qituvchi bilan talaba o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar hech qanday rol o'ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta'sir etmaydi.

Testlarni yakuniy nazoratdan tashqari mavzuni boshlashdan avval ham, joriy va oraliq nazoratda ham qo'llash mumkin.

Mavzu bo'yicha dars o'tishdan avval qo'llanilgan pre-testlar talabalar diqqatini shu testdagi asosiy xatolarga, o'rganilayotgan kategoriyalarga qaratish imkonini beradi. Pre-testda unga tanish bo'lmagan g'oya, tushuncha, gohida alohida so'z bilan to'qnash kelib, ularni mustaqil o'rganishga harakat qiladi. Ular talabani mustaqil ishlashga undaydi, yo'llanma beradi.

Oraliq testlar darsni o'zlashtirish jarayoni qanday kechayotganini nazorat qilish imkonini beradi. Oraliq testlarning natijasini muhokama qilish jarayonida fandagi asosiy tushunchalarni samarali takrorlash va xotirada saqlash imkoni vujudga keladi.

Testlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida yoki alohida ahamiyatga ega, yoxud an'anaviy o'zlashtirish qiyin tushuncha, mavzular bo'yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Bu ayniqsa, oraliq testlar o'tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko'ra o'qituvchi dastur bo'yicha o'z ishini, dars o'tiladigan savollarni ko'rib chiqadi, kelgusida dars o'tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo'ljallaydi (XI bobga qarang).

Testlar talabalar bilimini sinash va baholashda qator afzalliklarga ega bo'lish bilan birgalikda, kamchiliklari ham bor. Test savollarini tuzish ko'p mehnat, vaqt talab qiladi. Shuning uchun keyingi paytlarda o'qituvchilar ko'proq tayyor test savollaridan foydalanishmoqda. Testning yana bir kamchiligi, tavakkal qilib javob topishning mumkinligidir.

Iqtisodiy fanlar, ma'lumki, iqtisodiy mantiqiy fikrlashga o'rgatibgina qolmay, o'z fikrini atrofda qilishga tushuntirish, o'rtoqlashish, nutq so'zlash, ilmiy munozaralar olib borish, boshqa kishilarni fikrini tanqidiy nuqtayi nazardan baholashga ham o'rgatishi kerak. Testlar esa bunday imkoniyatga ega emas.

O'quvchi-talabalar bilimini sinash va nazorat qilishda masala, mashqlardan ham keng foydalanish mumkin. Masala - mashqlar talabaning bilimini keng ko'lamda tekshirish, olgan nazariy bilimni real hayotda qo'llay bilish imkonini ochib beradi. O'rganilayotgan savolni mohiyatini talaba tushungani yoki tushunmaganini aniqlaydi.

Bu usulning ham o'ziga xos kamchiliklari bor. Birinchidan, talabani hisoblash bilan birga keng mushohada yuritishga yo'naltiruvchi masala-mashqlar tuzish oson emas. Ikkinchidan, talabalar hisob-kitobga haddan ziyod berilib ketib, nazariy jihatdan tahlil qilishga kam e'tibor qaratishadi. Uchinchidan, masala-mashqlar tor doiradagi savollarni qamrab oladi.

O'quvchi-talabalar bilimini sinash va baholashning keyingi paytda keng qo'llanilayotgan usullaridan biri yozma ish yozishdir. Uning afzalligi shundaki, yozma ish uchun savollar oson tuziladi. Ularni o'z fikrlarini ijodiy ravishda bayon qilishlari uchun katta imkoniyat mavjud. Undan tashqari tavakkal qilib, javob berib bo'lmaydi.

O'quvchi-talabalar bilimini sinash va baholashda yozma ish yoki esse yozishdan foydalanish mumkin. Yozma ishning kamchiligi uni o'qib chiqish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Baholash qiyin. Ko'p savollarni qamrab olmaydi. U esse tarzida yoki tayanch ibora, atamalar asosida yozma topshiriq tarzida bo'lishi mumkin.

Esse yoki yozma topshiriq berilar ekan, har bir talabaning ishini obyektiv baholash uchun baholashning mezonlarini ishlab chiqish kerak. Bu mezonlarda talabalarning ishi ball bo'yicha qanday baholanishi ko'rsatiladi.

Yozma ishni baholashda ikki xil yondashish mavjud. Birinchisi, reyting usulidan foydalanish. Bu usulda ishning umumiy sifati qiziqtirib, ayrim tomonlariga e'tibor berish zaruriyati yo'q bo'lsa, qo'l keladi. Odatda, bu usul ko'proq tayanch iboralarga asosida yoziladigan yakuniy nazorat ishida qo'llaniladi. Yozma ish sifatiga ko'ra ish 3-5 kategoriyaga bo'linadi. So'ngra ular ishning sifatiga ko'ra tabaqalashtirib baholanadi. O'qituvchi yozma ishni talabalarga qanday mezonga ko'ra baholanishini tushuntirishi kerak.

Yozma ish o'quv yilining oxirida yakuniy baholash uchun o'tkazilib, ko'p variantli usulda qo'llaniladi. Har bir variantda asosiy savol va tayanch tushunchalar bo'lib, ularga alohida javob yoziladi.

Qo'yilgan savolga to'g'ri va to'la javob yozilsa, savolning mohiyati, mazmuni yoritilib, boshqa iqtisodiy hodisa, jarayonlar bilan bog'lab, hayotiy misollar bilan boyitilib, izchil, mavjud adabiyotlarda yoritilishiga baho berishga intilsa, mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, talabaga yakuniy nazorat uchun ajratilgan maksimal ballning 86 – 100 foizi darajasida baholanadi.

Berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, qo'yilgan savollarning mazmuni, sabablari ochib berilsa, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi, bog'lanishlari ko'rsatilsa, hayotiy misollar bilan asosan to'g'ri yoritilsa, lekin ta'rif berishda va hayot bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilsa, yakuniy nazorat uchun ajratilgan maksimal ballning 71 – 85 foizi darajasida baholanadi.

Qo'yilgan savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq masalaning mohiyati, mazmuni, boshqa hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi to'la yoritilmasa, hayotiy misollar keltirilmasa yoki qisman keltirilsa, bunday ish maksimal ballning 56 – 70 foizi darajasida baholanadi.

Berilgan savolga javob yozilmasa, noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, uning mazmuni, sabablari, boshqa iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligini bayon qilishda, hayotiy misollar keltirishda chalkashliklarga, xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ish yakuniy nazoratga ajratilgan maksimal ballning 0–55 foizi darajasida baholanadi.

Ikkinchi yondashishdagi baholash mezonida, ishning sifati avvaldan ishlab chiqilgan baholash standarti bo'yicha amalga oshiriladi. Bu usul rubrikatsiyalash deyiladi. Bunda mezonlar alohida rubrikatlarga bo'linib, har biri qancha ball bilan baholanishi ko'rsatiladi. Ishni baholashda rubrikatsiya jadvalidan foydalaniladi. Bunday yondashish ko'proq esselarni baholashda qo'llaniladi.

Talabalarni avvaldan ularning ishi qanday baholanishi bilan tanishtirib chiqish mumkin. Bu ularga ishni yozishda mo'ljal bo'ladi. Yuqori ball olish uchun nima qilish kerak, ishni qanday yozish zarurligini avvaldan chamalash imkonini beradi.

Rubrikatsiya jadvali

Mezonlar	Ball
Asosiy g'oyalar mazmuni aniq bayon qilingan. Muallif	

mantiqiy izchillikda o'z fikrini ustalik bilan bayon qilgan. Hayotdan misollar keltirilgan. Ish tushunarli til bilan yozilgan. Statistik ma'lumotlardan foydalanilgan. Lug'aviy zaxiraga boy. Ish grammatik qoidalarga amal qilingan holda yozilgan. Muallifning bilimli ekani ko'rinib turibdi.	5
Asosiy g'oya, mazmun asosan ochib berilgan. Fikr yetarli darajada izchillikda bayon qilingan. Fikr yuritish to'g'ri. So'zlar, iboralar to'g'ri tanlangan va ifodalangan. Matnda minimal darajada xatoliklar bor.	4
Asosiy g'oya, savolning mazmuni no'aniq bayon qilingan. To'plangan material, axborotni bayon qilishda izchillik yo'q. So'zlar, iboralar noto'g'ri tanlangan. Gaplar noto'g'ri tuzilgan, xatolar ko'p.	3
Asosiy g'oya, mazmun, savolga javob yo'q. Fikr uzilib-uzilib, bog'lanmagan tarzda bayon qilingan. Ishning tili muallifni savodsizligini ko'rsatib turibdi.	1-2
Ish o'zining mavzusi emas yoki o'qib bo'lmaydi.	0

Talabalar bilimini sinash va baholashni ijodiy topshiriq berish, tanlov o'tkazish va uni baholash tarzida ham qo'llash mumkin. Bu talabalarga keng imkoniyatlar beradi. Ular o'z qobiliyatlarining turli qirralarini ochadilar. Chunki bunday nomerlarni tayyorlash talabalardan topqirlik, fantaziya, yumorni ilg'ash xislatlari va boshqalarni talab qiladi. Ularni hamma mavzular uchun qo'llab bo'lmaydi. Ularni tayyorlash uchun nihoyatda ko'p vaqt talab qilinadi. Natijada ko'zlangan maqsadga erishmaslik mumkin. Baholash qiyin. Talabalar o'rtasida sifat jihatdan farqni ilg'ash qiyin.

Baholashning turli tiplarini taqqoslash

Topshiriq turlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Masala-mashqlar	Ballda baholash oson. Talabalar bilimni real hayotda qo'llay bilishini, ko'nikmalarini tekshirish, aniqlash mumkin.	Yaxshi masala-mashqlarni o'ylab topish, tuzish oson emas. Talabalar haddan tashqari hisob-kitobga berilib ketishi mumkin. Tor doiradagi savollar qamrab olinadi.

ESse uchun savol, mavzu bo'yicha tayanch iboralar asosida savollar	Savollarni tuzish oson. Talabalar o'z fikrini bayon qilish uchun keng imkoniyatga ega. Tavakkal qilib javob topib bo'lmaydi.	Javoblarni tekshirish uchun ko'p vaqt ketadi. Baholash qiyin.
Testlar	Butun dastur bo'yicha yoki alohida mavzularni qamrab olishi mumkin. Talabalar bilimni tezda tekshirish mumkin. Talabalar bilimi obyektiv baholanadi.	Tavakkal qilib javob topish mumkin. Test savollarini tuzish ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. Talabani o'z fikrini bildirish imkoniyati yo'q.
Ijodiy topshiriq	Fikr yuritishning eng yuqori darajasiga yetishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Asosiy diqqat bilimni amaliyotda qo'llashga qaratiladi. Talabaga ijodiy mustaqillik beradi, olgan bilimining turli tuman qirralarini namoyon qiladi.	Hamma konsepsiya, mavzular uchun ham qo'llab bo'lmaydi. Kutilgan natijani bermasligi mumkin. Baholash qiyin. Ko'p vaqt ketadi. Talabalar o'rtasidagi farqni aniqlash qiyin.

3-§. O'quv jarayonini tashkil qilish. Talabalar bilimni sinash va baholashda jahon amaliyotini qo'llash

Hozirgi taraqqiyot darajasi global miqyosda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga, ta'lim olishning uzluksizligini ta'minlashni asosiy vazifaga aylanishiga olib keldi.

Keyingi yillarda:

- 1) generatsiya tizimi va bilim berish murakkablashdi;
- 2) mavjud bilim va axborot tizimi bir necha barobar o'sdi;
- 3) bilimda eskirish tezligi yuqori;

Shuning uchun olingan fundamental, asosiy bilim na'lum davrda qo'shimcha ta'lim dasturi bilan to'ldirib turilishi va

malaka oshirib turilishini talab qiladi.

Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar o'z navbatida ishchi kuchi malakasi, mahoratini yuqori bo'lishini, ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab etadi. Mehnat bozori ishchi kuchini moslashuvchanligiga alohida talablar qo'yadi. Shuning uchun jahon tajribasida:

* o'qish va ish jarayonini yaqinlashtirish va moslashuvchanligini ta'minlash, ularni bir-biri bilan bog'lash;

* ishchi kuchi safarbarligini ko'tarish;

* ta'lim berish va bandlikning moslashuvchan shakllarini qo'llash;

* ish vaqti va ta'lim vaqtini bog'lash, ta'lim vaqti muddatiga va boshqalarga e'tibor berilmoqda.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Buning uchun talabalarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Shuning uchun jahon pedagogikasida e'tibor talabalarda ana shu xislatlarni hosil qilish va tarbiyalashga qaratildi. Tajriba talabalarda aynan ana shu xislatlar, ko'nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktiv metodlarini qo'llash ijobiy natija berishini ko'rsatdi. Bu uslublar dars o'tishni dialog tarzida amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Jahon tajribasida o'qituvchi yuqori darajada darsni tashkil qilishi, bilimi, talabalarni o'z faniga qiziqтира olishi, shu fanning tayyorlanayotgan mutaxassislik bo'yicha naqadar zarurligi jihatidan raqobat qila olishiga katta e'tibor beriladi. O'qituvchining asosiy vazifasi:

1. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etish, ularni semestr davomida o'z ustida ishlashga o'rgatish.

2. Turlicha dars berish metodlarini qo'llab, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlash.

Talabalarni mustaqil ishini tashkil qilish va o'z ustida uzluksiz ishlashi, izlanishini ta'minlashda jahon tajribasida «Sillabus (Syllabus)» muhim o'rin tutadi. Sillabus bu o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi shartnomadir.

Sillabusda kafedra tomonidan: a) fan bo'yicha albatta, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzular ko'rsatilishi mumkin;

b) o'qituvchilar dasturda ko'rsatishlari shart bo'lgan komponentlarni aniqlab berishi mumkin. Boshqa topshiriqlarni o'qituvchining o'zi belgilaydi.

Sillabusda ko'rsatilishi shart bo'lgan komponentlar:

1. O'qituvchi haqida ma'lumot (O'qituvchining ismi, sharifi, kafedrada bo'ladigan vaqtlari, muloqotda bo'lish uchun boshqa axborotlar).

2. Fan haqida ma'lumot: fanning va mutaxassislikning nomi, fanga ajratilgan soatlar, ma'ruza, amaliy(seminar) mashg'ulot, laboratoriya ishiga ajratilgan soatlar, qaysi semestrda o'tilishi va dars o'tiladigan auditoriya.

3. O'rganilayotgan fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi.

4. Mazkur fanni o'rganib bo'lgach, talabaning bilim darajasi, ko'nikma va xabardor sohalari doirasi.

5. O'qitiladigan fan haqida qisqacha ma'lumot, uning maqsadi va vazifalari.

6. Ma'ruza, seminar(amaliy), mashg'ulot mavzulari, ularga ajratilgan soatlar. Mavzular bo'yicha mustaqil ravishda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar.

7. Adabiyotlar ro'yxati: asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar, jumladan, elektron adabiyotlar, matbuot nashrlari, internet manbalari.

8. Baholash bo'yicha axborotlar: bilimni baholash shkalasi, mezonlari, ularni bajarishga bo'lgan talablar(rubrikatsiya jadvali).

9. Baholash jarayoni va siyosati. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- barcha ishlarni baholash qoidalari(maksimal ball, rag'batlantiruvchi va shtraf ballari);

- imtihon, yakuniy baholashning mezonlari;

- yakuniy baholash va uni appelatsiya qilishning qoidalari;

- darsga kechikib kelish, auditoriyada o'zini tutish, berilgan topshiriqni muddatida bajarmaslik, imtihonda qatnashmaslik oqibatlari.

Har bir talaba yil boshidan o'z faoliyatini sillabus asosida tashkil etadi.

Hozir O'zbekistonda ham jahon tajribasidan kelib chiqqan holda o'quv jarayoniga uning ayrim elementlarini tatbiq etishga harakat qilinayapti. USAID CAR dasturi bo'yicha seminar qatnashchilari bo'lgan o'qituvchilar bu borada o'z tajribalari bilan o'rtoqlashmoqdalar. Albatta talabalar faoliyatini «Sillabus—

o'qituvchi bilan talaba o'rtasida shartnoma» asosida tashkil etish ularni chuqur bilim olishlari, puxta malakaga ega bo'lishlariga yordam beradi. Lekin uni tom ma'noda qo'llash talabafarda tanlov asosida o'tiladigan fanlar, kurslarni, dars beradigan o'qituvchilarni o'zlari tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlarini taqozo qiladi. Lekin hozircha buning uchun imkoniyat yetarli emas.

Talabalarga dars berar ekanmiz, ularning individual xislatlarini yanada boyitib, o'z bilimlarini oshirish uchun o'zlari harakat qilishlari lozimligini o'rgatishimiz, to'g'ri yo'lga yo'naltirishimiz kerak. Ular o'z oldiga o'zi maqsad qo'yib, unga erishish uchun harakat qilishi kerak. Ana shuning uchun ham o'qituvchi bor mahoratini ishga solib, talabalarni individual xislatlariga maksimal darajada ta'sir etib, ularni ana shu maqsadni tanlash va buning uchun o'z kuchlarini to'g'ri yo'naltirishlariga yordam berishi kerak.

Xulosa

O'quvchi-talabalar bilim olishini nazorat qilish, sinash va adolatli baholash ularni fanni chuqur o'zlashtirishlari uchun intilishga olib keladi. Bilimni nazorat qilish, sinash va baholash reyting tizimi orqali amalga oshiriladi.

O'quvchi-talabalar bilimni sinash va baholashda turli usullar qo'llaniladi. Ulardan eng ko'p qo'llaniladiganlari testlar, masala-mashqlar yechish, nazorat ishi yozish, esse yozish, savol-javob o'tkazish, referatlar yozish, ijodiy topshiriqlarni bajarish va boshqalar bo'lib, ularning har birini o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Shuning uchun iloji boricha o'qituvchi bir xil usulni qo'llamaslikka harakat qilgani ma'qul.

Kelajakda o'quvchi-talabalar bilimni nazorat qilish, sinash va baholashda jahondagi ilg'or tajribalarni o'rganib, ularni qo'llashga diqqat qaratish ijobiy natijalarga olib kelishga yordam beradi.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Bilimni sinash va baholash, nazorat qilish, sinash va baholash tamoyillari, baholash turlari, joriy baholash, oraliq baholash, yaku-niy baholash, baholash mezonlari, ijodiy topshiriqni baholash, sil-labus.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning qanday ahamiyati bor?

2. Nazorat qilish va baholashning qanday tamoyillarini bilasiz?

3. Talabalar bilimini nazorat qilishning qanday turlarini bilasiz?

4. Nazorat qilish va baholashning asosiy shakllarini, afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsating.

5. Siz talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning qaysi turlarini ko'proq qo'llagan bo'lar edingiz? Nima sababdan? Izohlang.

6. Sillabus(Syllabus) nima? Siz o'z faoliyatingizda undan foydalanasizmi?

7. O'quvchi-talabalarning bilimini sinash va baholashda yana qanday ilg'or jahon tajribalaridan foydalangan bo'lar edingiz?

XIX bob. IQTISODIY FANLAR BO'YICHA O'QUV - USLUBIY KOMPLEKSI. ULARNI TUZISH VA O'QUV JARAYONIDA QO'LLASH

O'rta maxsus va oliy ta'lim tizimining bosh maqsadi mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. Bu maqsadga erishish uchun ular qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak? Buning uchun o'quvchi-talabalar qanday fanlarni, nimalarni chuqur o'rganishi zarur va ular qanday aniqlanadi? Navbatdagi bobda ana shu savollarga javob topishni o'rganamiz.

1-§. Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni «Davlat ta'lim standartlari»da ifodalanishi

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratishdir. Bu tizim dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, ishning ko'zini biluvchi, vaziyatni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarib, qaror qabul qiluvchi, kelajakni mustahkam poydevorini quruvchi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kadrlar tayyorlashni eng muhim va mas'uliyatli vazifa sifatida amalga oshirishi lozim.

Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish, fanlarni o'qitishda o'quv-uslubiy kompleks va uning o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llash muhim rol o'ynaydi.

Biz eng avvalo, kimni, qanday kadrlar tayyorlashni aniq tasavvur qilishimiz kerak. Bu maqsad davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topadi.

Standart (inglizcha «Standard»—norma, namuna) mahsulotni sifati, tarkibi jihatidan qat'iy belgilangan parametrlardan tashkil topgan, mahsulot, qoida, ko'rinishdir. Standart keng ma'noda bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo'lgan obyektlarni solishtirish uchun qabul qilingan namuna, etalon, modeldir. Standartlar texnik nor-

mativ hujjat sifatida ishlab chiqilib, qabul qilingan ma'lum mezonlar, qoidalar, talablar kompleksidan iborat. Ular vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlar moddiy shaklda mahsulot etaloni, namuna sifatida bo'lishi yoki turli normativ, qonun-qoida, talablar tarzida bo'lishi mumkin. Standartlarni qo'llashdan maqsad, mahsulotni, bajarilgan ishni sifatini ta'minlash.

Ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishidan maqsad tayyorlanayotgan kadrlarimizni zamon talabi darajasida bo'lishini ta'minlashdir.

Bu standartlarda ta'lim dargohini bitirib chiqayotgan o'quvchi, talabalar qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning qo'lidan nima ish kelishining minimal darajasi belgilab qo'yiladi.

Ta'limni standartlashtirish bu butun dunyo miqyosida ta'limni isloh qilishdagi eng asosiy tendensiyalardan biri. Unga bozor iqtisodiyoti talablari nuqtayi nazaridan yondashiladi. Jamiyat bilan ta'limning o'zaro moslashishini ta'minlash bugungi kunning nihoyatda jiddiy masalasidir. Ayniqsa, ikki mustaqil bozor, ta'lim va mehnat bozorlarini bir-biriga yaqinlashtirish, shu asosda talab va taklif muvozanatiga erishish nihoyatda muhim va dolzarb masala. Jamiyatda sodir bo'layotgan yangiliklar, iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi va amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalaridan biri, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va uni tatbiq etishdir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish:

1. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda ta'lim ekvivalentligini, turli ta'lim muassasalari diplomlarini taqqoslab, mamlakatimiz ishchi va mutaxassislarini xalqaro mehnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishini ta'minlaydi.

2. Ta'lim xizmatlari sifatiga aniq (qat'iy) talablarni belgilab qo'yilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

3. Ta'lim muassasalari ishi samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

4. Iqtisodiyot va biznes talablarini tezda ilg'ash va hisobga olish imkoniyatlarini yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng uning

talablarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 5-yanvarda «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari»ni ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi va shu qaror asosida «Davlat ta'lim standartlari to'g'risida» gi Nizom ishlab chiqildi.

Nizomning 1.1 bandida: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonunining 7-moddasida, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunish va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

DTSda kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablar, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari, o'quv yuklamasining zarur hajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilash qayd etilgan.

Nizomda davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari ko'rsatilgan. Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini ta'minlash hamda mamlakatda *amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar asosida* rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratlashuviga insonparvarlashuviga, ijtimoiylikiga ko'ra, ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning jamiyat va davlatning vazifalarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyati mezonlari va tartibini baholash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv - tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Shu maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlarining vazifalari belgilandi, ular:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilim va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta'limning barcha turlari mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish, ularning o'zaro bog'liqligini uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis qismini, ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

- milliy standartlar talabi bilan ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashning xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Nizomda ta'limning barcha turlarini standartlashtirish ko'zda tutilgan.

Ta'limning standartlashtirish obyektlari:

- ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasining hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati;

- talablar, me'yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek, ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar;

- ta'lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va

ilmiy pedagog xodimlar sifatini baholashni o'z ichiga oladi.

DTSga o'zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ravishda ta'lim darajasi va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar o'zgarishi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarga talab va ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda:

- Davlat ta'lim standartlari;
- asosiy qoidalari bo'yicha tayanch o'quv rejasi ishlab chiqiladi;
- tayanch o'quv rejalari ta'lim muassasalarining ishchi-o'quv rejalari ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

2-§. Tayanch o'quv rejalari va ular asosida fanlar tarkibi va soatini aniqlash

Tayanch o'quv rejasida o'quv yili 40 hafta va 2 semestr dan iborat, har bir semestr 20 haftani o'z ichiga oladi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari semestrni 20 haftalik muddatga taqsimlanganligi noqulayliklarga olib kelganligi sababli, o'quvchilarni 1-semestrni tugatib ikki haftalik ta'tilga chiqishlari qulayroq ekanligi hisobga olindi va hozirgi paytda 1-semestr 17 hafta, ikkinchi semestr umumiy 23 hafta qilib qabul qilindi.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari tayanch o'quv rejalari umumiy 4560 soatdan 80–220 soati ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

Ta'lim muassasalari, o'quvchilarning haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soatni mustaqil ishlashga ajratiladi. Ta'lim muassasalari ilmiy pedagogik kengashlariga ishchi o'quv rejalari tuzishda tayanch o'quv rejalari ta'lim standartlari talablari doirasida 15–20 % o'zgartirish huquqi berilgan. Quyida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o'quv rejalari va tarkibi jadvali keltirilgan.

Akademik litsey tayanch o'quv rejasi o'quv jarayoni grafigida nazariy o'quv amaliyoti va ta'til, uchinchi kurs yakunida davlat attestatsiyasi belgilangan bo'lib, u quyida ko'rsatilgan kasb-hunar kollejlari o'quv grafigiga o'xshab ketadi. Faqat litseylarda ishlab chiqarish amaliyoti ko'zda tutilmagan.

Akademik litseylar o'quv rejasi

t/r	Fanlar	Soatlar	Umumiy yuk-lamaga nisbatan % hisobida
1	Umumta'lim fanlari	1940	42,5
2	Chuqurlashtirib o'tiladigan fanlar	1400	30,7
3	Qo'shimcha chuqurlashtirib o'tiladigan fanlar	650	14,2
4	Maxsus fanlar	230	5,0
5	Davlat attestatsiyasi	70	1,6
6	Fakultativ kurslar	270	6,0
	Jami:	4560	100

Kasb-hunar kollejlari o'quv rejasi akademik litseylar o'quv rejasidan farq qilib, ularda ajratilgan soatlarning asosiy qismini kasbiy ta'lim fanlari tashkil etadi. Shu bilan birga umumta'lim va maxsus fanlari soatlari akademik litseylarning soatlari bilan deyarli farq qilmaydi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv rejasi

t/r	Fanlar	Soatlar	Umumiy yuk-lamaga nisbatan % hisobida
1	Kasbiy ta'lim fanlari	1960	43,0
2	Umumta'lim fanlari (umum kasbiy va maxsus fanlari)	1180	25,9
3	O'quv amaliyoti	600	13,1
4	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,2
5	Davlat attestatsiyasi	76	1,7
6	Kollej ilmiy-uslubiy Kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	96	2,1
	Jami:	4560	100

O'quv rejani ishlab chiqish jarayonida «umumta'lim fanlari» blokiga ajratilgan soatlar o'zgarishligiga hamda fanlar o'rtasidagi uzviylik va fanlararo izchillik tamoyillariga amal qilish lozim. Soatlarni semestrlar va haftalarga taqsim qilishda hamda umumiy soatlarni hisoblash jarayonida vertikal va gorizontal soatlar bir-biriga to'g'ri kelishiga e'tibor berish kerak.

O'quv jarayoni grafisini tuzishda o'quvchi-talabalar nazariy

darsga, o'quv amaliyotiga yuborilishi, ta'tilga chiqishi, bitiruvoldi amaliyoti oliy o'quv yurtlarida esa bulardan tashqari bitiruv malakaviy ishi yozish va uni himoya qilish lozimligini oldindan bilishlari lozim.

O'quv rejadagi fanlarning kurslar va semestrlarga taqsimotini, nazariy va amaliyotga taqsimlanishi, haftalik va yillik yuklamalar taqsimoti amalga oshiriladi. Reja bo'yicha o'rganiladigan fanlar bo'yicha texnologik xarita tuziladi.

Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat yo'nalishida o'qishning normativ muddati 4 yil. Nazariy o'qish 136 hafta. Nazariy o'qish $136 \times 54 = 7344$ soat. Bir yilda 2 semestr o'qiladi, har ikki semestr ham 20 haftalik.

Attestatsiya 13–19 haftagacha.

Amaliyot o'tish 12–24 haftagacha.

Ta'til 27–36 haftagacha (bitirgandan so'nggi 4 haftani ham qo'shib).

Bitiruv malakaviy ishiga 5 haftagacha vaqt ajratiladi, hammasi bo'lib bakalavriat yo'nalishida o'qitgan talabaga 1 kursga qabul qilinib, institutga qadam qo'yanidan boshlab, bitirib ketguncha belgilangan muddat 204 haftani tashkil qiladi.

O'rganiladigan ta'lim fanlarining tarkibi quyidagi bloklarga bo'lingan bo'lib:

I blok. Gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy fanlar: 1689 soat yoki umumiy belgilangan vaqtning 25 %ini tashkil qiladi.

II blok. Matematika va tabiiy fanlar: ta'lim yo'nalishiga ko'ra 700 soatdan 1836 soatgacha bo'lib, taxminan 9 %dan 25 %ini tashkil etadi.

III blok. Umum mutaxassislik fanlari ta'lim yo'nalishiga ko'ra umumiy ajratilgan vaqtning 50 %gacha yetadi.

VI blok. Maxsus mutaxassislik fanlari –10 %gacha.

V blok. Maxsus fakultativ fanlar 5 %gacha yetadi.

Oliy o'quv yurtlari o'quv rejasi modeli

t/r	Fanlar	Soatlar	Umumiy yuklamaga nisbatan % hisobida
11	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1836	25,0

22	Matematik va tabiiy-ilmiiy fanlar	906	10,7
33	Umumkasbiy fanlar	3418	48,2
44	Ixtisoslik fanlari	734	10,0
55	Qo'shimcha fanlar	450	6,1
	Jami:	7344	100

O'quv yuklamasining maksimal darajasi auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar bilan birgalikda haftasiga 54 soat belgilangan. Auditoriya mashg'ulotlarining yuqori hajmi haftasiga 36 soat.

Akademik erkinlik va talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatish oliy o'quv yurti faoliyatining asosini tashkil etadi. Tendensiya shundayki, nazariy kurs ta'limga ajratilgan vaqtning 15 % atrofida. Qolgan vaqtlar, seminar ilmiy faoliyat, mustaqil ishlarni bajarish, talabalarni o'z ustida ishlashi kabilardan tashkil topadi. Oliy o'quv yurtida, ayniqsa, talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashiga alohida diqqat qaratiladi.

Texnologik xarita – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik operatsiyalar ketma-ketligini yorituvchi texnik hujjat.

Texnologik operatsiyalar esa ishchi tomonidan o'zining ish o'rnida bajariladigan yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi texnologik jarayonning bir qismi.

Texnologik xaritada ana shu operatsiyalar va ularni qanday ketma-ketlikda qanday bajarilishi ko'rsatiladi. Xuddi mahsulot ishlab chiqarishda bo'lganidek o'quv yurtlarining «mahsuloti» ko'zda tutilgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlardir. Xaritada ana shu jarayon, unda bajariladigan «operatsiya»lar ketma-ketligi, muddati ko'rsatiladi.

Texnologik xarita butun o'quv jarayonini tashkil etish rejasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlanadigan mutaxassislar mehnat bozori talabiga mos bo'lishi zarur. Ta'lim bozori esa iqtisodiyot, mamlakatga xizmat qilishi mehnat bozori bilan bog'lanishi zarur.

Mamlakat uchun zarur bo'lgan mutaxassislar qanday talabga javob berishi zarurligi Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topadi.

Bozor talabiga ko'ra oliy o'quv yurtlari tomonidan yangi dasturlar taklif qilinishi va ular o'quv – metodik kengash va oliy ta'lim vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanib tasdiqlangach, barcha oliy o'quv yurtlari tomonidan foydalanilishi mumkin.

Qabul qilingan davlat standartlariga muvofiq ravishda o'tiladigan fanlar aniqlanadi. Fanlar umumta'lim va mutaxassislik fanlariga bo'linib, har ikki guruhda ham majburiy o'qitilishi zarur va tanlab olinadigan fanlardan iborat.

Har bir o'quv yurtining o'quv bo'limi mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayoni grafigini ishlab chiqadi. Bu grafikka ko'ra nazariy ta'lim, amaliyot, oraliq baholash, davlat attestatsiyasi va boshqalarning muddatlari belgilanadi.

Har bir fan bo'yicha kafedra tomonidan ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlarga ajratilgan soatga ko'ra ishchi o'quv dasturi bo'yicha texnologik xarita ishlab chiqiladi. Bu xaritada o'tiladigan fanning mavzulari, mavzu bo'yicha umumiy soatlar hamda ularni o'quv shakllari bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Fan bo'yicha o'tiladigan ma'ruza soatlari, ularda tarqatma materiallardan foydalanish, amaliy (seminar) mashg'ulotlari, ularda interfaol metodlarini qo'llash rejasi, talabalar bilimini baholash shakli, mavzu bo'yicha mustaqil ish va uni baholash shakli, asosiy o'quv adabiyotlari ishchi o'quv dasturida ko'rsatilgan va raqamlangan adabiyotlarni tartib raqami beriladi. Xaritada fan bo'yicha o'tiladigan mavzular ketma-ketlikda hamda har bir semestrda 2 marta oraliq nazorat o'tkazish va uning natijalarini akadem guruh jurnallarida rasmiylashtirish muddatlari ham ko'rsatiladi.

Bu muddatlar o'quv jarayonini tashkil etish grafigi va tuzilgan dars jadvali asosida belgilanadi. Texnologik xaritani qanday ko'rinishda bo'lishini quyidagi Toshkent Moliya instituti «Umumiqtisodiy nazariya va iqtisodiy pedagogika» kafedrasidan tayyorlangan texnologik xarita (qisqartirilgan varianti) orqali ko'rish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Toshkent Moliya instituti

«Umumiqtisodiy nazariya va iqtisodiy pedagogika» kafedrasini
Kafedra tomonidan ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi)ning IV kurs 7-8-semestrida o'qitiladigan
«Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» fani bo'yicha

O'QUV - USLUBIY (TEKNOLOGIK) XARITA

Tuzuvchilar: prof. Tojiboyeva D.

Kafedra majlisida tasdiqlandi: Bayonnoma № _____ « _____ » _____ 200__ й. Kafedra mudiri dots. Jo'rayev T.T.
Fakultet dekani prof. Karimov F.Sh. _____ O'quv bo'limi boshlig'i dots. Boymurotov T. _____

Eslatma: Xarita 2 nusxada tuziladi. Nusxalari kafedrada va o'quv bo'limida saqlanadi

H a f t a t l a r t/r	Mavzu bo'yicha umumiy soatlar	Mashg'ulot turlari bo'yicha rejalashtirilgan va haqiqiy bajarilgan yuklama va baholash shakllari:										Mavzu bo'yicha asosiy o'quv adabiyotlari (ishchi o'quv dasturiga asosan) tartib raqamida (1, 15, 21 va h.)						
		Ma'ruza		Baholash shakllari		Amaliy (seminar) mashg'ulotlar		Shu jumladan, interfaol metodlar asosida		Baholash shakllari			Mustaqil ish	Baholash shakli				
		r	h	r	h	r	h	r	h	r	h							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	
1	Maxsus (iqtisodiy) fanlarni o'qitish metodikasi	4	4	1,32	ball	4	4	1,32	ball	4	4	13	14	15	16	17	18	1,2,3,4,5,6,7,10,19

	fanining predmeti va ilmiy asoslari																		
2	Uzluksiz ta'lim tizimida dars o'tishning asosiy xususiyatlari	6	2	0,66	ball	2	0,66	ball	2	ball	2	ball	2	ball	2	ball	1,2,3,4,5,6,7,17,21,23		
3	Pedagogik texnologiya va dars o'tish metodikasi	6	2	0,66	ball	2	0,66	ball	2	ball	2	ball	2	ball	2	ball	1,2,3,4,5,6,7,8,10,17,19,22,24		
4	Iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari	12	4	1,32	ball	4	1,32	ball	4	ball	4	ball	4	ball	4	ball	10,11,20,21,25		
5	va hokazo	6	2	0,66	ball	2	0,66	ball	2	ball	2	ball	2	ball	2	ball	10,11,12,13,14,15,16,23,25,26		

Oraliq baholash ballarini akadem guruh jurnallarida qayd etish.

Ta'til. Talabalarning reyting ballarini akadem guruh jurnallari va qaydnomalarda rasmiylashtirish.

Tuzilgan texnologik xarita kafedra majlisida tasdiqlanadi hamda majlis bayonnomasi tartib raqami qo'yilib, kafedra mudiri, fakultet dekani, o'quv bo'limi boshlig'i tomonidan imzolanadi. Xarita 2 nusxada tuziladi. Nusxalarni kafedra va o'quv bo'limida saqlanadi.

Xaritaning aslidan olingan nusxa fan bo'yicha dars beruvchi o'qituvchi qo'lida bo'lib, rejada belgilangan dars va mustaqil ishlarni haqiqatda bajarilishi bilan kuzatib, nazorat qilib boriladi.

Texnologik xarita o'quv dasturi asosida o'tiladigan fanlardan tashqari har bir mavzu, har bir dars bo'yicha ham ishlab chiqiladi. (Ularni qanday ishlab chiqilishini biz ma'ruza va seminar darslari misolida ko'rganmiz (V bob, 4-§, VI bob, 3-§.).

Dars jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda kalendar reja ham muhim o'rin tutadi. Kalendar reja odatda, o'quv dasturi, o'quv texnologik xarita va dars jadvali asosida tuziladi.

O'quv dasturi bo'yicha o'rganiladigan fandan kalendar reja, har bir o'qituvchi tomonidan har bir akademguruh uchun tuzilib, unda mavzular bo'yicha ajratilgan soat va uni ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'uloti, mustaqil ishlar bo'yicha taqsimlanishi bo'yicha reja bo'yicha o'tiladigan sana va soati, haqiqatda bajarilishi ko'rsatiladi.

Kalendar reja orqali har bir mavzuni belgilangan muddat va ajratilgan soat bo'yicha dars o'tishni nazorat qilish amalga oshiriladi.

3-§. O'quv majmuasi va uning tarkibi, o'quv dasturining tutgan o'рни

Fanni o'rganish uchun rejalashtirilgan mavzular ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quv dasturida o'z ifodasini topadi.

O'quv dasturi fanni o'rganish bo'yicha hujjat hisoblanib, bo'lajak mutaxassisga qo'yilgan talablarga mos holda ta'lim mazmunini va uni o'quvchi, talabalar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etish usullarini aks ettiradi.

O'quv dasturlari alohida o'quv predmetlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni va hajmini, ularni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi.

Har bir mavzu bo'yicha fan uchun ajratilgan soatdan kelib chiqqan holda, mavzuning mazmunini o'zlashtirish uchun uning xususiyatlarini, mavzuni murakkabligi, o'zlashtirish zarur bo'lgan

masalalar, qo'yilgan muammo va boshqalarni hisobga olib o'quv jarayonini tashkiliy shakllari bo'yicha vaqt ajratiladi.

Har bir mavzu o'rganiladigan fanning shu mavzu doirasidagi qisqacha mazmunini ifodalaydi.

Dastur fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda hamda tar- moq standartlariga muvofiq ravishda shu fan o'quvchi-talabalarda qanday bilim va ko'nikmalarni shakllantirilishi zarurligidan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. O'quv dasturi namunaviy va ishchi o'quv dasturidan iborat bo'lib, ishchi o'quv dasturi namunaviy das- tur asosida tuziladi.

O'quv dasturlari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

Dastur aniq qoidaga asoslangan bo'lishi kerak. Jamiyat ta- raqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda o'quv dasturini ishlab chiqish metodikasiga muvofiq bo'lishi zarur. O'quv dasturi ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarga javob berishi, unga muvofiq o'quv dasturi tarkibini belgilash lozim.

Ilmiylik prinsipiga asoslanishi. Dastur ilmiy jihatdan tekshiril- gan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida tuziladi.

O'quv dasturlari ishlab chiqishda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, bakalavriat, magis- tratura) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, fanlarda mavzular ketma-ketligiga, oddiydan murakkabga, xususiyan umumiylikka o'tib borishga, ta'lim turlari bo'yicha mavzular tak- rorlanmasligiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, ta'lim tizimining rivojlanishi, jahon tendensiyasini hisobga olishi zarur.

Tarixiylik va zamonaviylik. Dasturda fan rivojlanishining xususiyatlari, hissa qo'shgan olimlar, tarixiy shaxslar faoliyati ham aks ettirilishi, hozirgi rivojlanishi darajasiga muvofiq bilim berishni ko'zlagan bo'lishi zarur.

Gumanitarizm va milliylik. Dastur insonparvarlik, xalqparvar- lik, ezgulik g'oyalarini ustun qo'yib, milliy g'urur, milliy qadriyat- larni hisobga olish, ularga amal qilishni targ'ib qilish, mamlakat- ning rivojlanishini ilmiy asoslangan holda bayon qilishni ko'zda tutishi kerak.

Izchillik va nazariya bilan amaliyot birligini ta'minlash. Dastur aniq mazmun va mantiqiy qoidalarni o'zida aks ettirishi, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limga taalluqli mutanosib fan dasturlari bilan muvofiqlashtirish, qo'yilgan mavzularning mantiqiy izchilligini

ta'minlash, fanni hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog'laydigan uslubiyotga rioya qilishi zarur.

Xalqaro standart va raqobatbardoshlik. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'rganilayotgan ana shu fan bo'yicha amalda bo'lgan o'quv dasturlari bilan taqqoslash, munozara qilish, tajriba almashish asosida, rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ilg'orlikni ta'minlashga qaratilishi zarur.

Dasturda fanning nomi.

Mohiyatidan kelib chiqqan holda hamda davlat ta'lim standartlariga, mehnat bozori talabiga muvofiq ravishda fanni o'qitishdan asosiy maqsad, shu fan o'quvchi, talabalarda qanday bilim va ko'nikma shakllantirishi ko'rsatiladi.

Dasturlar ikki: namunaviy va ishchi o'quv dasturlariga ajratiladi.

Namunaviy o'quv dasturi fanni o'rganishdan qo'yilgan maqsad, fanning asosiy mazmuni, bajaradigan vazifalarini ifodalaydi. Namunaviy o'quv dasturi tarkibiy jihatdan o'z ichiga: kirish, asosiy qism: ma'ruza, seminar, tajriba darslari va mustaqil ish uchun ko'rsatmalar, kurs ishlari bo'yicha ko'rsatmalar, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini oladi.

Namunaviy dastur davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o'zga hollarda 3 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va qabul qilingan tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi zarur.

Namunaviy o'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi.

Namunaviy dastur asosida ishchi o'quv dasturi ishlab chiqiladi.

Ishchi o'quv dasturida namunaviy dasturdan farqli ravishda fan bo'yicha mavzular rejasi qismida mavzular nomi, ajratilgan jami soatlar, dars o'tish, mashg'ulot turlari: ma'ruza (nazariy), seminar (amaliy mashg'ulot), mustaqil ishga ajratilgan soatlar jadval tarzida keltiriladi.

Ma'ruza mashg'uloti hamda seminar mashg'uloti mavzularida har bir mavzuda o'rganilishi zarur bo'lgan mavzuning o'quv maqsadidan kelib chiqib, qisqacha mazmuni beriladi. Mavzuni o'rganish va o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati raqamlarda ifodalanadi.

Shu fanni o'qitish bo'yicha lozim bo'lgan o'quv vositalari, ko'rgazmali namoyish materiallari, o'quv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro'yxati keltiriladi.

Dasturning «o'zlashtirishni nazorat qilish» qismida, fanni

o'zlashtirish bo'yicha baholash metodlari va shakllari ko'rsatiladi.

«Foydalanilgan adabiyotlar» qismida o'quvchi-talabalar tomonidan fanni o'rganish va o'zlashtirish uchun lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Ishchi o'quv dasturiga muvofiq ravishda mashg'ulot (seminar darslari) rejasi, mustaqil ishlar va o'quv kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqa ishlar ishlab chiqiladi.

Fanning har bir mavzusi bo'yicha qo'yilgan maqsad, mavzuning xususiyatidan kelib chiqqan holda dars o'tish metodini o'qituvchining o'zi tanlaydi.

Shunday qilib, har bir fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqiladi.

O'quv-uslubiy majmua – bu yagona metodologiya bo'yicha o'rganiladigan fanning mazmuni va uning xususiyatlariga ko'ra o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim mazmunini va o'zlashtirish jaryonini amalga oshirishda qatnashuvchi barcha vositalarni o'z ichiga oladi.

O'quv-uslubiy majmuaning tarkibi quyidagilarni amalga oshirishga qaratilgan:

- ta'limning maqsadi (o'qitishdan maqsad nima? nima uchun o'qitamiz?);
- ta'limning mazmuni (nimani o'qitamiz? nimani o'rgatamiz?);
- ta'lim metodlari (qanday qilib o'qitamiz?);
- ta'lim vositalari (nimalar orqali, qanday vositalar orqali o'qitamiz?).

O'quv-uslubiy majmuaning komponentlari vazifalarni eng ma'qul tarzda, ya'ni eng optimal variantini aniqlash muammosi majmuaning tuzilishini tanlash bilan uzviy bog'liq. O'quv-uslubiy majmuaning tuzilishiga bog'liq ravishda uning komponentlari, vazifalari ham o'zgarib boradi.

Hozirgi paytda o'quv-uslubiy majmua tarkibi:

1. Fan bo'yicha namunaviy dastur.
2. Fan bo'yicha ishchi - o'quv dasturi.
3. Texnologik xarita.
4. Dars o'tish kalendar rejasi.
5. Amaliy mashg'ulot va seminar darslari rejasi.
6. Ma'ruzalar matni.
7. Asosiy tayanch tushunchalar.
8. Masala-mashqlar, testlar.
9. Fan bo'yicha oraliq, joriy, yakuniy baholash mezonlari.

10. Yozma ishlarni baholash mezonlari.
11. Fan mavzulari bo'yicha tayyorlangan slaydlar, chizmalar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar.
12. Amaliy ish o'yinlari.
13. Kurs ishi mavzulari.
14. Mustaqil ish va referat mavzulari.
15. Yozma ish savollari va boshqalardan iborat.

Fanning xususiyatlari va qo'yilgan maqsaddan, mutaxassislarni tayyorlashda fanning tutgan o'rnidan kelib chiqqan holda mazkur ro'yxat qisqarishi yoki qo'shimchalar qo'shilishi mumkin.

Masalan, bitiruv malakaviy ish mavzulari faqat mutaxassislik fanlari bo'yicha qo'shiladi. O'quv-uslubiy majmua albatta fanni o'rganishdan qo'yilgan asosiy va qo'shimcha maqsadlarni to'la amalga oshirilishiga katta yordam beradi.

Xulosa

- Tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligi Davlat ta'lim standartlarida belgilanadi. Davlat ta'lim standartlari — uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida tayyorlanayotgan kadrlarning minimal darajada ega bo'lishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ifodalaydi.

- O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar ma'nosi, hajmi va xarakteri ta'lim mazmunini anglatadi. Unga muvofiq ravishda tayanch o'quv rejaları ishlab chiqilib, fanlar tarkibi va soati aniqlanadi. Muvofiq ravishda o'rganiladigan ta'lim dasturi, ya'ni o'quv fanlarining mutaxassisliklarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajada tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati ishlab chiqiladi.

- Ta'limning muayyan yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslari tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmi belgilangan normativ hujjat — **o'quv rejasi** va ta'lim mazmuni, talabalar tomonidan o'zlashtirishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat — **o'quv fani dasturi**, har bir fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tayyorlanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Standart, davlat ta'lim standartlari, ta'lim standartlarining maqsadi, ta'lim standartlarining vazifalari, tayanch o'quv rejalari, texnologik xarita, namunaviy o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, kalendar reja, o'quv-uslubiy kompleks.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Davlat ta'lim standartlari deganda nimani tushunasiz? Ularni ishlab chiqish zaruriyati nimada?
2. Davlat ta'lim standartlarining maqsadi va vazifalarini aytib bering.
3. O'quv jarayonini tashkil etishda tayanch o'quv rejalari qanday rol o'ynaydi?
4. Texnologik xarita nima, u qanday tuziladi? Umuman olganda, texnologik xarita kerakmi?
5. Ishchi o'quv dasturi nima? U namunaviy o'quv dasturidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
6. Kalendar reja qanday tuziladi? Siz fan bo'yicha mustaqil ravishda uni tuza olasizmi?
7. O'quv-uslubiy kompleksi (majmuasi) nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?

XX bob. BUXGALTERIYA HISOBI FANIDAN DARS O'TISH METODIKASI

Avvalgi boblarda o'quv jarayonini tashkil etishning shakllari, dars o'tish metodlari, darslarda ko'rgazmali qurol, tarqatma material, texnik vositalardan foydalanish, o'quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholash kabi masalalarni ko'rib chiqdik. Ular barcha fanlardan dars o'tishda qo'llaniladi. Ko'rib chiqqan va boshqa metodlarni barcha iqtisodiy fanlardan dars o'tishda qo'llash mumkin, lekin bu metodlarni tanlash va dars jarayonida qo'llashning esa o'ziga xos jihatlari mavjud. Chunki, har bir iqtisodiy fanning o'ziga xos xususiyatlari borki, dars o'tish metodlarini tanlash va ularni aynan o'tilayotgan fan, mavzularga moslashtirishda albatta hisobga olish zarur.

Mazkur bobda buxgalteriya hisobi fani va uning iqtisodiy fanlar orasida o'ziga xos xususiyatlari va ularga muvofiq ravishda dars o'tish metodlari, usullarini moslashtirishni o'rganamiz.

1-§. Fanning xususiyatlari va dars o'tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish

Har bir fan, jumladan, iqtisodiy fanlar, mutaxassislik fani sifatida buxgalteriya hisobi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biz har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olganimizdagina samarali dars o'tish metodini tanlaymiz, muvofiq ravishda o'quvchi, talabalarni darsga faol qatnashishini ta'minlashimiz mumkin.

Har bir fanning boshqa fanlardan farqlanuvchi xususiyati, eng avvalo, uning predmeti, fanning oldiga qo'yilgan maqsadi, funktsiya va vazifalarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy yo'nalishdagi fanlar orasida mutaxassislik fanlaridan biri bo'lgan «Buxgalteriya hisobi» fani ham kelib chiqish tarixi, predmeti va funktsiyalari, vazifalariga ko'ra boshqa iqtisodiy fanlar orasida o'ziga xos o'rin tutadi, ajralib turadi.

Buxgalteriya hisobi (nemischa Buc — kitob, halten — tutmoq) kitob yuritish ma'nosini bildiradi. Ya'ni kitob tutib, hisob ishlarini

yuritish. Hisob-kitob yuritish zaruriyati, ma'lumki, tovar - pul munosabatlari vujudga kelib, rivojlanishi bilan bog'liq.

Tovar ishlab chiqarish, ayirboshlashning rivojlanishi, qilingan xarajatlarni hisoblash, olingan daromad bilan taqqoslash zaruriyatini keltirib chiqargan. Hisob yuritish taxminan 4 ming yil avval yuzaga kelgan. Taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish, ayirboshlash rivojlangan, o'z navbatida u hisob-kitob ishlariga yangi talablar qo'ygan, rivojlanishiga olib kelgan.

Inson doimo vujudga kelgan qiyinchiliklar, to'siqlarni zaruriyat tufayli bartaraf qilish yo'llarini topadi, natijada yangi ixtirolar qilinadi, yangiliklar yaratiladi. Hisob-kitob ishlari ham bundan mustasno emas. Ana shu zaruriyatning oqibatida buxgalteriya hisobini fan sifatida shakllanishi va uni o'rganish predmetini belgilab berdi.

Buxgalteriya hisobi fanining predmeti bu — xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi harakati, moliyaviy natijalari, ya'ni ulardan foydalanish haqidagi axborotlarni shakllantirish hisoblanadi.


Buxgalteriya hisobi ichki boshqaruv va tashqi iste'molchilar uchun joriy va yakuniy ma'lumotlarni tayyorlash va ularga taqdim qilish maqsadida amalga oshiriladigan uzluksiz va o'zaro bog'liq kuzatishlar, o'lchovlar, ro'yxatga olish, ma'lumotlarni qaytadan ishlab chiqish va korxonalar, birlashmalar va muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'tkazish tizimi.

Buxgalteriya hisobi mikromiqyosda har bir xo'jalik yurituvchi subyektdan tortib, makromiqyosda mamlakat, qolaversa, megamiqyos — jahon mamlakatlari miqyosigacha axborot bilan ta'minlaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, barcha axborotlarning 3/4 qismini buxgalteriya hisobi beradi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt ana shu axborotlardan foydalanadi. Buxgalteriya hisobi boshqarish faoliyatini nazorat va tahlil qilish, qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobi fani predmetining xususiyatlari uning maqsadi va funksiyalarida aks etadi. Buxgalteriya hisobining maqsadi O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda quyidagicha ifodalangan: «Foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq va aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir»¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, 1-modda.

Ana shu axborotlarsiz mikromiqyosdan, ya'ni korxonalar miqyosidan boshlab, to makromiqyos, ya'ni mamlakat miqyosigacha to'g'ri qaror qabul qilib bo'lmaydi. **Axborot to'plash, umumlashtirish** buxgalteriya hisobi yuritish asosida amalga oshiriladi. Buxgalteriya fani ana shu **jihat bilan boshqa barcha iqtisodiy fanlardan ajralib** turadi.




Buxgalteriya fanining predmeti uning funksiyalarida yanada yaqqolroq ko'rinadi. Ular yuqoridagi chizmada o'z aksini topgan.

Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari esa quyidagilar:

- xo'jalikda sodir bo'ladigan xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hujjatlarda o'z vaqtida rasmiylashtirish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy hisobotni o'z vaqtida tuzish va tegishli organlarga taqdim etish;

Buxgalteriya hisobining ham o'z obyektlari va subyektlari bor. Buxgalteriya hisobining obyektlari quyidagicha:




Buxgalteriya hisobining subyektlari «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilgan. Qonunning 3-moddasiga binoan qerda joylashganligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olingan barcha xo'jalik subyektlari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'limlari hisob subyektlari hisoblanadi.

Yuridik shaxs hisoblanmaydigan, ammo bankda schyotga va tugallanmagan balansga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari ham buxgalteriya hisobi subyektlari hisoblanadi va ular «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunga muvofiq hisob yuritadilar.

Fanni o'rganishda shu jihatlar, ya'ni hisobning obyektlari va subyektlariga ham diqqat qaratish lozim.

Buxgalteriya hisobi o'zining predmetiga mos fanni o'rganish metodlaridan foydalanadi. **Bu metodlar aynan fanni o'rganish xususiyatlarini o'zida aks ettiradi:**

Buxgalteriya hisobi fanining metodlari



1. Hujjatlashtirish

Buxgalteriya hisobi obyektlari ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatishlarni amalga oshirish imkonini beradigan axborotlarni dastlabki aks ettirishdir. Buxgalteriya hisobining asosini hujjatlashtirish tashkil etadi. Yuz bergan har qanday muomala o'z vaqtida va xatosiz hujjatlarda aks ettirilishi kerak.

2. Inventarizatsiya

Xo'jalik yuritish jarayonida bo'lib o'tayotgan barcha hodisalarni hujjatlashtirish orqali qayd qilib bo'lmaydi. (masalan: tabiiy yo'qotish). Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan haqiqat o'rtasidagi tafovutni bartaraf qilish maqsadida inventarizatsiya o'tkaziladi. Aniqlangan tafovut, ya'ni mablag'larni ortiqcha yoki kam chiqishi tegishli dalolatnomalarda rasmiylashtiriladi va hisobda aks ettiriladi.

3. Baholash

Baholash hisobi mablag'lar, ularni tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonini pul o'lchovida ifodalash usulida namoyon bo'ladi. Natura o'lchovidagi mulklarni qiymat o'lchoviga keltirish va bir xil o'lchovda aks ettirish hamda umumlashtirish uchun foydalaniladi.

4. Kalkulatsiya

Sarflangan xarajatlar va ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat), bajarilgan ish birligini tannarxi (o'rtacha xarajatlar)ni aniqlash, xo'jalik jarayonini boshqarish uchun, uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni hisoblab chiqish, ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

5. Hisobvaraqlar tizimi

Hisobvaraqlar tizimi hisob obyektlarini ularning iqtisodiy me-

zonlariga ko'ra guruhlashtirishga asoslanadi. Xo'jalik yuritish jarayonida amalga oshirilgan turli muomalalar hisobvaraqlarda aks ettiriladi va hisobvaraqlar tizimidan foydalanib, mazmuniga ko'ra umumlashtiriladi.

6. Ikki yoqlama yozuv

Xo'jalik yuritish jarayonida yuz bergan muomalalarni hisobvaraqda aks ettirishning muhim xususiyati shundaki, muomalada aks etgan summa bir vaqtning o'zida kamida ikkita hisobvaraqda aks ettiriladi. Ikki yoqlama yozuv har bir xo'jalik muomalasi natijasida yuzaga keladigan hodisani o'zaro bog'laydi. Aynan ikki yoqlama yozuv hisob-kitob ishlari to'g'ri bajarilayotgani yoki hisoblashda xato qilinganligini aniqlash imkonini beradi.

7. Buxgalteriya balansi

U xo'jalik mablag'lari va manbalarini ma'lum bir sanaga bo'lgan holatini aks ettirish metodi hisoblanadi. Balans, ya'ni xo'jalik mablag'lari harakatini aks ettirishning bunday tartibi ularning barcha yig'indisini o'zaro bog'langan holda bir butun tarzda ko'rish imkonini beradi. Korxonada faoliyatini tahlil qilishni yengillashtiradi.


8. Hisobot

Ma'lum davrga bo'lgan xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'ladigan voqea ko'p sonli muammolarni kuzatish imkonini beribgina qolmay, ilmiy asoslangan boshqaruv yechimlarini ishlab chiqarish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni iqtisodiy jihatdan umumlashtirish imkonini beradi.

Xo'jalik yuritish jarayonida yuz bergan muomalalarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra umumlashtirish, guruhlashtirish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi, aks ettiruvchi shakllar yig'indisi tarzida ifodalanadi, ya'ni hisobot tayyorlanadi. U xo'jalik faoliyati yakunini, natijasini ko'rsatadi.

Shunday qilib, **buxgalteriya hisobi fani boshqa iqtisodiy fanlardan birinchi navbatda o'z predmeti va uni o'rganish metodlari bilan katta farq qiladi. Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan metodlarning ko'pchiligi, jumladan, hujjatlashtirish, ikki yoqlama yozuv-provodka berish va boshqalarni undan boshqa hech qaysi fanda o'rganilmaydi.**

Buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning barcha bo'limlari, sohalarini zarur axborot bilan ta'minlaydi. Buning uchun xo'jalik subyektlari miqyosida faoliyat yuritish jarayonlarida yuz beradigan barcha aloqalar, muomalalar uzluksiz ravishda kuzatiladi va rasmiylashtiriladi.



Buxgalteriya hisobini xo'jalik faoliyatidagi muomalalarni aks ettiruvchi hujjatlarsiz, hisob-kitoblarsiz o'rganib bo'lmaydi. O'quvchi-talaba hujjatlar bilan shaxsan ishlashi, o'zi ularni belgilangan qoidalar asosida yuritishi zarur. Shu bilan birga, qabul qilingan qoidalar asosida hisob-kitob qilishi, hisobot olib borishni bilishi kerak. Demak, dars o'tishda aynan ana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladigan metodlarni tanlash zarur. Bu jihatdan tarqatma material tayyorlash va ularni dars jarayonida qo'llash muhim ahamiyatga ega. Yuritiladigan hujjatlarni to'ldirish qoidalarini o'quvchi-talabaning o'zi belgilangan tartib asosida hujjatlarni to'ldirmay turib o'rgana olmaydi. Hisob-kitob yuritish haqida ham shunday deyish mumkin. Uning eng samarali yo'li masalamashqlar yechish bo'lib, fanni masala mashq yechmay o'rganib bo'lmaydi.

Shuning uchun mavzularni o'rganayotganda mos ravishda masala va mashqlar yechib, javobini guruhda muhokama qilgan ma'qul.

2-§. «Buxgalteriya hisobi» fanini o'rganishda hujjatlashtirish, hisob yuritish qoidalari va fanni o'rganishda ularning tutgan o'rni

Buxgalteriya hisobi fanining boshqa fanlardan **ajralib turuvchi, xususiyati bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha muomalalarini hujjatlarda aks ettirishdir**. Aynan ana shu hujjatlashtirish orqali uzluksiz hisobga olish ta'minlanadi. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar sodir etgan xo'jalik muomalalari, ular orasidagi hamda yuridik va jismoniy shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar, ya'ni axborotlar hujjatlarda aks etadi. Buxgalteriya hisobida **hujjat xo'jalik muomalasi to'g'risidagi yozma guvohlik bo'lib, u buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga yuridik kuch bag'ishlaydi**.

Shuning uchun, **birinchidan**, hujjatlashtirish buxgalteriya hisobi fanining predmetini o'rganish metodlari orasida asosiy metod sifatida ko'riladi. Boshqa metodlar ham hujjatlashtirishga tayanadi.

Ikkinchidan, hujjatlashtirish uzluksiz olib boriladi. Shu asosida xo'jalik muomalalari ishonchliligi ta'minlanadi.

Uchinchidan, hujjatlar yuridik kuchga ega bo'lar ekan, demak, ular belgilangan ma'lum qonun-qoidalar asosida yuritilishini bildiradi. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga soluvchi huquqiy, me'yoriy hujjatlar to'rt darajali tizim orqali amalga oshiriladi:

1. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun hamda qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning boshqa me'yoriy hujjatlari.

2. Buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish funksiyasi yuklatilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa organlari tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

3. Moliya vazirligi va boshqa organlar tomonidan amaldagi qonunlarga mos ravishda va tegishli obyektlarning hisobini tashkil qilishga doir metodik ko'rsatmalari va tavsiyanomalari, yo'riqnomalari.

4. Korxonaga bevosita tegishli operatsiyalar va faoliyatga tegishli hisobga doir ishchi yo'riqnomalar va ko'rsatmalar, ya'ni korxonalar hisob siyosatini aniqlaydigan hujjatlar. Korxonaning o'zini buxgalteriya hisobini olib borishdagi birlamchi, ishchi hujjatlari.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil etish hamda yuritish O'zbekiston Respublikasining 30. 08. 1996-yil qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibini hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BXMS) va «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» asosida amalga oshiradi. Ushbu me'yoriy hujjatlar buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qilish hamda olib borishning umumiy tartiblarini belgilaydi.

Ayniqsa, «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21 - sonli «Buxgalteriya hisobi milliy standartlari»ning ishlab chiqilishi, buxgalteriya hisobi sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri bo'ldi. 2000-yil 30-martda Moliya vazirligining 37-sonli qarori bilan tasdiqlangan va 1-iyun 2000-yili Moliya vazirligida 430-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan bu standart buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish davlat tomonidan o'rnatilgan buxgalteriya qoidalari asosida yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotga doir qonun hujjatlari buxgalteriya hisobining yagona huquqiy va metodologik asoslarini, uning tashkiliy qismlarini, buxgalteriya faoliyati va moliyaviy hisobot

tuzishning asosiy yo'nalishlarini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot taqdim qilishining asosini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan.

Buxgalteriya hisobi yuritishning asosini hujjatlashtirish tashkil qilishini hisobga olgan holda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda alohida ahamiyat berilgan.

Hujjatlashtirish, eng avvalo, boshlang'ich hujjatlashtirishni to'g'ri va bexato olib borish muhim rol o'ynashi, boshqa hujjatlar ham ular asosida shakllantirilishini hisobga olib, qonunda ularni yuritish qanday tarzda rasmiylashtirilishi belgilab berilgan. Qonunning 9-moddasi boshlang'ich hisob hujjatlariga bag'ishlangan. Xo'jalik operatsiyalari o'tkazish uchun buxgalteriya hisobi operatsiyalarini amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang'ich hisob hujjatlari va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar asos bo'ladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlari operatsiyalari amalga oshirilayotgan vaqtda yoki operatsiyalar amalga oshirilib bo'lgandan keyin tuziladi.

Hisobot davriga tegishli bo'lgan xo'jalik operatsiyalari, agar ular amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo'lsa, tegishli boshlang'ich hujjat rasmiylashtirib, buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy rekvizitlari quyidagilar:

- korxonaning nomi;
- hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;
- xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o'lchovi (natura holda va pulda ifodalangan holda);
- mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari.

Boshlang'ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda imzolagan shaxslar ularni o'z vaqtida to'g'ri va aniq tuzilishi, shuningdek, buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatlarda topshirilishiga javobgardirlar.

Boshlang'ich hisob hujjatlariga xo'jalik operatsiyasi qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan tuzatishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank va kassa pul hujjatlarida tuzatishlar va o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi.

- Hujjatlarning o'z vaqtida tuzilishi.

- To'liq va ishonarli bo'lishi lozim.

Hujjatlarga asoslangan holda xo'jalik faoliyati ustidan dastlabki va joriy nazoratlarni olib borish yo'lga qo'yiladi.

Buxgalteriya hisobi olib borish uchun yuritiladigan hujjatlar nihoyatda xilma-xil. Ularni turli mezonlarga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin. Odatda ular tuzilgan joyi, aks ettirilgan xo'jalik muomalalarining soni, hajmi, qamrab olish usuli, maqsadiga ko'ra guruhlarga ajratiladi (hujjatlar tarkibi, sxemaga qarang).

Buxgalteriya hisobi hujjatlarida yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Xatolarni tuzatish uch usul: korrektura, qo'shimcha provodka, «qizil storno» asosida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishning qoidalari ishlab chiqilgan va ular «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda o'z aksini topgan.

Qonunning 6-moddasida buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari ko'rsatilgan. Ular quyidagilar:


- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholash;
- aniqlik;
- hisoblash;
- oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik);
- mazmunni shakldan ustunligi;
- ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- moliyaviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Shunday qilib, «Buxgalteriya hisobi» fanining yana bir **muhim xususiyati, uni hujjatlashtirishga asoslanganligi, hujjatlar esa yuridik kuchga ega bo'lishidir.**

Hujjatlashtirish mamlakatda qabul qilingan huquqiy, me'yoriy qonun- qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ularga amal qilinmasa hujjatlar yuridik kuchga ega bo'la olmaydi.

Belgilangan qonun - qoidalarsiz xo'jalik faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirib bo'lmaydi.

Demak, buxgalteriya hisobining yana bir nihoyatda **muhim xususiyati hisob yuritishni qabul qilingan qonun-qoidalar asosida olib borilishidir.**



Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi dars berish, o'qitish metodlarini tanlar ekan, albatta, ana shu xususiyatlarni hisobga olishi lozim.

Buxgalteriya fanida o'quvchi-talabalar hujjatlashtirishni o'rganish uchun bu jarayonni amalda o'z'lari bajarishlari shart.

O'qituvchi o'quv jarayonida ana shunday ko'nikmani shakllantiradi. Buning uchun o'qituvchi samarali metodlarni tanlashi va qo'llashi zarur. Eng asosiysi, nazariy darsda o'tilganlarni amaliy dars(seminar)larda bevosita hujjatlar bilan ishlab, to'ldirish va hisob-kitobni amalga oshirishni tashkil etish zarur.

Masalan, korxonada kassasiga naqd pullarni qabul qilish KO-1 shaklidagi kassa kirim orderi bilan amalga oshiriladi. U ikki qismdan iborat: kirim orderi (blankaning chap qismi) va unga oid kvitansiya (o'ng qismi). Kassa kirim orderini buxgalteriya yozib beradi va bosh buxgalter yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanaadi.

Buni o'rganishni faqat kassa kirim orderining blankasini ko'rib, uni to'ldirish orqali amalga oshirish mumkin. Buning uchun bu blankani slayd tarzida tayyorlab, namoyish qilamiz hamda tarqatma material tarzida talabalarga tarqatib, uni to'ldirish tartibini tushuntiramiz.

Nurafshon

ko'ngala, tashkilot (predpriyatie, organizatsiya) Okud bo'yicha kodi

Код по ОКУД

Приходной кассовый ордер №101 KIRIM G'AZNA ORDERI

kip (число)	oy (месяц)
6	aprel

Korrespondent hisob, subhisobi Корреспондент счёта, субсчёт	Analiitik hisob shifri. Шифр аналитического учёта	Summasi. Сумма	Maqsadli topshiriq kodi. Код целевого назначения
		12000	

Olindi (Priyato st. hisob-kitob shtampidan) Asos (Osnovaniye) IT 417131 chesk. kityob

O'n ikki ming so'm 00 (yuz) so'z bilan (propis'yu)

Нова (Prilozheniye)

Bosh (katta) hisobchi
Главный (старший) бухгалтер *imzo*

Qabul qilgan g'aznachi
Получил кассир *imzo*

Nurafshon

korxonaa, tashkilot (predpriyatie, organizatsiya)

№ kirim g'azna orderiga

СНИПТА (KVITANSIYA)
(Квитанция к приходному кассовому ордеру)

Olindi (Priyato ot) x/k shtampidan

To'landi (Otilayveno) Safar

Xarajatlari uchun

O'n ikki ming so'm so'z bilan (propis'yu)

12000 so'm (so'm) 00 tiy. (tiy.)

6 aprel 2006 y.

M.O'.

Bosh (katta)

hisobchi

Главный (старший)

Бухгалтер

imzo

G'aznachi

imzo

Кассир

ЛИНИЯ ОТРЕЗА

Barcha talabalar to'ldirib bo'lgach, kirim orderining to'g'ri to'ldirilgan variantini tarqatamiz yoki slaydni namoyish qilamiz. Talabalar taqqoslab o'z xatolarini to'g'rilab chiqishadi.

Kichik guruh yetakchilari guruh a'zolari qanday xatoliklarga yo'l qo'yishgani haqida axborot berishadi.

Kirim orderini kassaga topshirishda oldin, albatta, kirim va chiqim hujjatlari maxsus jurnalda qayd qilinishi lozim.

Kassa kirim orderini pul topshirayotgan shaxslar qo'liga berish taqiqlanadi. Kirim orderi ijro etish uchun bevosita kassaga topshiriladi. Bu yerda kassir orderning to'g'ri rasmiylashtirilganligini, bosh buxgalterning imzosi borligi va haqiqiyiligini tekshiradi, pulni qabul qiladi, kirim orderi va kvitansiyani imzolaydi. Pul topshirgan shaxsga kvitansiyasi beriladi. Kassa kirim orderi bo'yicha pullar faqat ushbu hujjat to'ldirilgan kunda qabul qilinadi.

Bankdagi hisob-kitob schyoti va boshqa schyotlardan kassaga naqd pul kelib tushganida ham kassa kirim orderi tuziladi va uning kvitansiyasi to'ldiriladi. Kvitansiya hisob-kitob schyotidan pullarni hisobdan chiqarish uchun bank muassasasi ko'chirmasiga qo'shib qo'yiladi.

Naqd pullar kassadan kassa chiqim orderlari yoki kassa chiqim orderlarining o'rnini bosadigan, maxsus shtamp bilan bosilgan

boshqa hujjatlar (to'lov qaydnomalari, pul berish uchun ariza, hisob varaqlar va hokazo) asosida beriladi.

O'quvchi-talabalar mazkur blankani to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi to'g'ri to'ldirilgan blankani namoyish etadi va har bir talabdan to'ldirish jarayonida xatosi bor-yo'qligini tekshirib chiqishga topshiriq beradi. Bu topshiriqni bajarib bo'lgach, har bir talaba individual yoki kichik guruhlar miqyosida o'z fikrlarini bildirishi mumkin. Yoki aytaylik, buxgalteriya hisobi fanidan hisob-kitob schyoti bo'yicha muomalalar hisobi mavzusini o'tganda, albatta, to'lov talabnomasi va to'lov topshiriqnomasi to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

Korxonalar va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarda ular o'rtasida ko'zda tutilgan to'lov shakliga bog'liq holda hujjatlar qo'llaniladi. Agar shartnomada korxonaning o'zi qarzini mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va turli tashkilotlarga o'tkazishi ko'zda tutilgan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi yoziladi.

To'lov topshiriqnomasi korxonaning o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank o'z hisobvarag'idan muayyan summani boshqa korxonaning va shu bankdagi yoki ana shu shaharda yoxud boshqa shaharda joylashgan bank muassasasidagi schyotiga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i hisoblanadi. Bunda to'lovchi bankka belgilangan shakldagi blankda topshiriqnomasi taqdim etadi.

To'lov talabnomasi hisob-kitob hujjati bo'lib, mol yetkazib beruvchi va vositalarni boshqa oluvchilarning to'lovchiga muayyan summani bank orqali to'lash to'g'risidagi talabini o'z ichiga oladi.

To'lov talabnomalari bilan hisob-kitob qilishda vositalarni oluvchi unga xizmat ko'rsatuvchi bankka inkasso uchun to'lovchidan muayyan summani bank orqali to'lash talab qilingan hisob-kitob hujjatini taqdim etadi.

Talabnomalarda mol yetkazib beruvchi, albatta:

- shartnoma sanasi va raqamini ko'rsatadi;
- tovarlarni yuklab jo'natish (berish) sanasi hamda tovar - transport yoki qabul qilish - topshirish hujjatlari va transport turi, tovarlar aloqa korxonasi orqali jo'natmalar sifatida yuborilganda pochta kvitansiyalarining raqamlari ko'rsatilishi kerak;

- Talabnomalar 4 nusxada taqdim etiladi.

№ _____ TALABNOMA

« _____ » _____ 200__ y.

Bo'lim _____
(nomi)

(mansabdor shaxsning ismi-sharifi)

Kim orqali _____

T/r	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	So'ralgan miqdor	Chiqarilgan miqdor	Narxi	Summa

Qabul qildi Topshirdi

Ruxsat berdi:

Direktor

Bosh hisobchi

Hisobchi

Buxgalteriya hisobini ko'rib o'tgan xususiyatlariga ko'ra bu fanda ko'rgazmali materiallardan hamda axborot va topshiriq tarzidagi tarqatma materiallardan keng ravishda foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, hujjatlashtirishni ularsiz og'zaki tushuntirish yaxshi natija bermaydi. Har bir darsda qanday hujjat, qay tarzda to'ldiriladi, albatta, talabalar bilan ko'rib chiqish zarur.

Shunday qilib, boshqa hech bir fanni o'rganish namoyish qilinuvchi ko'rgazmali material va tarqatma materiallarga buxgalteriya hisobi kabi muhtoj emas. **Namoyish qilinuvchi ko'rgazmali material va tarqatma materiallarda aks etgan hujjatlar, hisob-kitob shakllari va ularni shaxsan har bir o'quvchi-talaba o'zi to'ldirmay, o'zi sinab ko'rmay, «Buxgalteriya hisobi» fanini o'rganib bo'lmaydi!**

Demak, har bir dars uchun zarur ko'rgazmali va tarqatma material tayyorlash kerak.

3-§. Buxgalteriya hisobi fanining amaliyot bilan bog‘liqligi

Buxgalteriya hisobi fani amaliyot bilan bevosita bog‘liqdir. Nazariya bilan amaliyot birligi boshqa hech bir iqtisodiy fanlarda bunchalik bir butun tarzda ifodalanmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va milliy hisob tizimini jahon tajribalari asosida isloh qilish bilan birgalikda, mamlakatimizga hisob siyosati tushunchasi kirib keldi. Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish metodlari, ya’ni xo‘jalik faoliyati uchun tanlangan alohida usullar majmuidir. O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti №1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisob»da hisob siyosatiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzish bo‘yicha qoida va usullar yig‘indisi tushuniladi».

Hisob siyosati qamrovi jihatidan: a) umumdavlat miqyosida;

b) xo‘jalik yurituvchi subyektlar miqyosida olib boriladi.

Umumdavlat hisob siyosati xo‘jalik subyektlari tomonidan bajarilishi majbur bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar majmuini ishlab chiqish va o‘rnatishni ko‘zda tutadi. Bu qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat orqali davlatga tegishli qonun va boshqa normativ hujjatlarda ko‘zda tutilgan yagona buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishning metodologik asoslari, hisobotni oshkor etish qoidalari va buxgalteriya axborotining haqqoniyligini tasdiqlovchi faoliyatni amalga oshirilishini bildiradi. Bundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki) buxgalteriya hisobida xo‘jalik operatsiyalari va jarayonlari, aktiv va majburiyatlarini baholash asoslari, hisob apparatining huquq va majburiyatlarini yoritishga yagona yondashishni tartibga soladi.

Hisob siyosati – bu qabul qilingan huquqiy normalar asosida qo‘yilgan maqsadlarga erishishning shakl va usullarini aks ettiruvchi hujjatlar majmuasi va ularga amal qilishdir.

Turli mulkka asoslangan korxonalarining hisob siyosati:

- mulk shakli va korxon turi;
- korxon faoliyati yo‘nalishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqarish tizimi;
- hisob yuritishning tashkiliy shakli;
- hisob yuritish texnologiyasi va boshqalarda ifodalanadi.

Xo‘jalik faoliyati yuritayotgan xo‘jalik subyektini uchun hisob siyosatini ishlab chiqishda ushbu subyektning maqsadi va oldiga qo‘ygan vazifalariga e’tibor berilishi kerak.

Masalan, qo'shma korxonalar chet el investitsiyalaridan samarali foydalanib, bozorni zarur mahsulotlar bilan to'ldirishi, kichik va o'rta biznes esa aholini ish o'rinlari bilan iloji boricha ko'proq ta'minlash, mavjud moddiy, moliyaviy resurslardan foydalanib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va uni amalga oshirish vazifalaridan kelib chiqqan holda hisobotni davlat tomonidan o'rnatilgan buxgalteriya hisobi qoidalari asosida o'zlari ishlab chiqadilar va yuritadilar. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosati davlatning buxgalteriya hisobiga doir me'yoriy hujjatlardan kelib chiqib shakllantiriladi, huquqiy tartibga solinadi.

Ichki hisob siyosati ichki me'yoriy tartibga solish hujjati sifatida korxonada faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari va davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar talablari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'min etadi.

Korxonaning «Hisob siyosati to'g'risida»gi buyruqda tahlil jihatlari o'z aksini topishi lozim:

- buxgalteriya hisobi tahlili;
- hisob axborotlarini qayta ishlash texnologiyasi va hujjat aylanmasini tashkil etish tartibi;
- buxgalteriya hisobi schyotlarining ishchi rejasi;
- majburiyatlar va mulkni inventarizatsiya qilishni tashkil etish va o'tkazish.

Xo'jalik subyekti tomonidan qabul qilinadigan hisob siyosati-ning bosh maqsadi va vazifasi — o'z faoliyatining maqsadidan kelib chiqib, barcha faoliyat bo'yicha obyektiv va haqqoniy axborotni shakllantirish, shu axborot asosida o'z faoliyatini samarali tartibga solib turishdir. Korxonada hisob jarayoni belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi hamma korxonalar uchun umumiy bo'lgan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ammo **har bir xo'jalik subyektlari faqat o'ziga xos bo'lgan, faoliyat shartlari, maqsad va vazifalarini inobatga olib, hisob siyosatini shakllantirishi mumkin.** Bitta korxonaga ma'qul va foydali bo'lgan tavsiyalar, boshqa korxonalar uchun aksincha bo'lishi mumkin.

Umumiy qoida va prinsiplar har bir korxonaning faoliyati shartlari, umumiy model bilan solishtirganda uning o'ziga xosligi, xodimlar malakasi, ularning masalalarni tushunish, boshqarish jarayonida qo'llashi mavjud texnika bazasidan kelib chiqqan holda aniqlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunida kichik tadbirkorlik subyektlarida ham barcha yuridik shaxslar kabi ikki yoqlama yozuvga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritishning majburiyligi ko'rsatilgan. Ammo tadbirkorlarga hisob va hisobotlarni yuritishda yengilliklar yaratish maqsadida ushbu qonunga asosan, «Kichik tadbirkorlik subyektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi va hisoboti» deb nomlangan 20 - Buxgalteriya hisobining milliy standarti ishlab chiqildi. Ushbu standartni ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llashga ruxsat etilishi kichik tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobini yuritishni soddalashtirish orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarga yengilliklar yaratishga qaratilgan.

Korxonalar, tashkilot o'z buxgalteriya bo'limiga egami yoki buxgalter chetdan jalb etilib, xizmatidan foydalaniladimi, qat'i nazar, buxgalteriya hisobini tashkil qilish uchun rahbar javob beradi. Rahbar zimmasiga buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, hisob bilan bog'liq barcha bo'limlarda bosh buxgalterning hisob yuritishi, rasmiylashtirishga doir barcha talablarini bajarish kiritiladi.

Bosh buxgalter yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs buxgalteriya hisobini umumiy metodologik prinsiplarini saqlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

Rahbar quyidagilarni ta'minlashi shart:

- ichki hisob va hisobot tizimini yaratish;
- xo'jalik operaatsiyalarini olib borishni nazorat qilish tartibi;
- to'la va ishonchli buxgalteriya hisobini olib borish;
- hisob hujjatlarini saqlashni ta'minlash;
- tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot tayyorlash;
- soliq va boshqa moliyaviy hujjatlarni tayyorlash;
- hisob - kitobni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlash.

Qonunga muvofiq ravishda kvartal va yillik moliyaviy hisobot tayyorlanadi.

Hisobot topshirish uchun tayyorlanadigan hisobot shakllari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Buxgalteriya hisobining eng muhim xususiyatlaridan biri baholash va kalkulyatsiyani amalga oshirishdir. Baholash va kalkulyatsiyadan xo'jalik ko'rsatkichlarini pulda ifodalashda foydalaniladi. Buxgalteriya hisobi obyektlarini pulda o'lchash, mahsulot ishlab

chiqarish xarajatlarini uni sotishdan olingan tushum bilan solishtirish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktiv va majburiyatlarini baholash tartibi, usullari tegishli buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan belgilanadi. Aktivlar va majburiyatlarni baholashda ularning sotib olingan narxi yoki ishlab chiqarish xarajatlari baholash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning olib borgan barcha faoliyati uning balansida aks etadi. Korxonada faoliyati va uning holati bilan tanishmoqchi bo'lganlar bunday axborotni balansdan olishlari mumkin. Balans korxonadagi vaziyatni aks ettiruvchi oyna. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobi yuritishni o'rganishni balansni o'rganishdan boshlanadi. Bunda buxgalteriya hisobini o'rganish deduksiyadan induktivlikka borish asosida tashkil qilinadi.

Buxgalteriya balansini xo'jalik mablag'lari va ularning turlari, tashkil topish manbalari bo'yicha muayyan bir davrga pulda ifodalab, umumlashtirilib aks ettirish va iqtisodiy guruhlariga ajratish usulidir.

Mablag'lar turlari va ularni manbalarini ajratib ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 7-fevralda 31-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan balans ikki qismdan iborat bo'lgan jadval shaklida tuzilgan. Uning chap tomonida mablag'lar turlari va ularni joylanishi keltiriladi. U aktiv qism deb nomlanadi.

O'ng tomonida mablag'lar manbalari va ularni qanday maqsadlarga atalgani ko'rsatiladi. U passiv qism deb nomlanadi.

Buxgalteriya balansining aktivida:

1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar.

2-bo'lim. Joriy aktivlar.

Passivda:

1-bo'lim. O'z mablag'lari.

2-bo'lim. Majburiyatlar aks etadi.

Balanslar turli-tuman bo'lib, uni ma'lum bir mezonlar asosida guruhlarga ajratiladi. Tuzish vaqtiga ko'ra: kirish balansini, joriy balans, tugatish balansini, ajratish balansini, sanatsiya balansini; Tuzilish manbalariga ko'ra: Inventar balanslari. Ular qisqartirilgan variantda, faqat inventar (ro'yxati) vositalari asosida tuziladi hisoblanadi. Daromadlar balansini, inventarizatsiya o'tkazish yo'li bilan oldindan tekshirilmasdan faqat daftarlardagi yozuvlar asosida tuziladi, Bosh balans — hisob va inventarizatsiya ma'lumotlari asosida tuziladi.

Axborot aks etish turiga ko'ra: yakka, bir martalik balans faqat bir korxonona axborotini aks ettiradi. Yig'ma balans — barcha korxonalar malag'larini aks ettiruvchi summalarini qo'yish yo'li bilan tuziladi. Bundan tashqari bu guruhga konsolidatlashgan yig'ma balans kiradi.

- Faoliyat xarakteriga ko'ra: asosiy balans va asosiy bo'lmagan balans;

- Mulk shakliga ko'ra: davlat korxonalari balansi, aksioner jamiyatlari balansi, munitsipal (shahar boshqarmasiga qarashli) balans, qo'shma korxonalar, kichik va xususiy korxonalar balansi kabilar;

- Aks ettirish obyektiga ko'ra: huquqiy shaxs bo'lgan xo'jalik subyektlarining mustaqil balansi, filiallar, sex, bo'linmalar balansi;

- Tozalanish usuli bo'yicha: brutto balansi va netto balansiga bo'linadi.

Korxonona balansi muayyan vaqt davomida buxgalteriya hisobi schyoti bo'yicha o'tkazilgan xo'jalik muomalalariga doir yig'ma ma'lumotlarni aks ettiradi.

Kundalik, joriy faoliyatda yig'ma raqamlar olish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidagi muomalalarni, xo'jalik vositalari harakati va holati to'g'risida batafsil axborot aks etadigan, jamul jamlikda buxgalteriya schyotlari tizimidan foydalaniladi.

Korxonada buxgalteriya hisobini tegishli tashqil etish uchun korxonona moliyaviy - xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi hamda har bir schyot tavsiflangan va ularga doir schyotlarning namunaviy korrespondensiyasi berilgan rejani qo'llash bo'yicha yo'riqnomadan foydalaniladi.

«Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy - xo'jalik faoliyatining buxgalteriya schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riq-noma» 21-sonli BHMS O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga binoan ishlab chiqilgan. U Moliya vazirligining 2002-yil 9-sentabrdagi 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatdan o'tkazilib, 2002-yil 2-noyabrdan kuchga kirgan.

Buxgalteriya hisobi schyotlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Ikki yoqlama yozuv har bir xo'jalik muomalasining o'zaro bog'liq bo'lgan schyotlarida qayd etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu bilan olib borilgan faoliyat, muomalalar ta'sir etadigan hisob obyektlari o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatiladi va bu o'z navbatida korxonona xo'jalik faoliyati ustidan nazorat qilish va sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Har qanday xo'jalik muomalasini ikki yoqlama yozuv bilan aks ettirish

buxgalteriya balansi umumiy summasi tengligini ta'minlaydi.

Ikki yoqlama yozuv orqali schyotlar hisobvaraqlar yig'masidagi o'zaro bog'lanishni belgilash schyot(hisobvaraqlar korrespondensiyasi deyiladi.

Yuz bergan muomalani bir schyotning kirimli - debetida, ikkinchi schyotning chiqimli - kreditida aks ettirilishi buxgalteriya provodkasi deb ataladi.

Buxgalteriya provodkasi oddiy va murakkab bo'lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi fanining amaliyot bilan bevosita bog'liqligini ifodalovchi yana bir qirradi, o'ziga xos tomöni sintetik va analitik hisob olib borishdir. Sintetik schyotlar xo'jalik mablag'lari va muomalalari haqida umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni beradi. Ular faqat pul o'lchovida yuritiladi. Analitik schyotlar buxgalteriya hisobi obyektlariga batafsil tavsif berish uchun xizmat qiladi. Ular yordamida sintetik schyotlardagi ma'lumotlar batafsil yoritiladi va nazorat qilinadi. Ularda faqat pul emas, natura va mehnat ko'rsatkichlari ham aks etadi.

Xo'jalik mablag'lari va faoliyat yuritish jarayonlarini (sintetik schyotlarda) umumlashtirilgan ko'rsatkichlarda aks ettirish sintetik hisob, deb ataladi. Ularni (analitik schyotlarda) batafsil ko'rsatkichlarda aks ettirish - tahliliy-analitik hisob deb yuritildi.

Buxgalteriya hisobi fanining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatuvchi yana bir qirradi hisob registrlari asosida va qabul qilingan shakllarda olib borilishidir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sodir bo'ladigan va amalga oshiriladigan operatsiyalar buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlarida aks etiriladi. So'ngra ular yig'iladi va yig'ma qaydnomalar tuziladi. Ularning ma'lumotlari tegishli registrlarga yozib chiqiladi, iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanadi.

Buxgalteriya hisobining registrlari deb, boshlang'ich va yig'ma hujjatlarda aks ettirilgan xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash hamda xo'jalik muomalalarini tarkibi va harakatini hisobga olishda qo'llaniladigan maxsus shakldagi jadvallarga aytiladi. Yozuv turlariga ko'ra registrlarning xronologik, sistematik, kombinatsiyalashgan turlari mavjud.

Tashqi ko'rinishiga qarab hisob registrlari buxgalteriya daftarlari, kartochkalar va vedomostlarga bo'linadi.

Buxgalteriya hisobi yozuvlarini ma'lum qoida texnika vositalaridan foydalanib, tashkil qilish buxgalteriya hisobi shakli deb ataladi. Bunda korxonada hisob ishlarida sodir bo'lgan har bir xo'jalik

muomalasini o'z vaq-tida to'g'ri va izchillik bilan hisob registrlarining aniq bir tizimida jamlanishi amalga oshiriladi.

Amaliyotda buxgalteriya hisobining turli shakllari mavjud. Ulardan keng tarqalgani: memorial-order, jurnal-order, bosh jurnal, informatsion texnologiyalarga asoslangan shakllaridir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sodir bo'ladigan va amalga oshiriladigan operatsiyalar buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlarida aks ettiriladi. So'ngra ular yig'iladi va yig'ma qaydnomalar tuziladi. Ularning ma'lumotlari tegishli registrlarga yozib chiqiladi, iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanadi.

Buxgalteriya hisobining registrlari deb, boshlang'ich va yig'ma hujjatlarda aks ettirilgan xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash hamda xo'jalik muomalalarini tarkibi va harakatini hisobga olishda qo'llaniladigan maxsus shakldagi jadvallarga aytiladi. Yozuv turlariga ko'ra registrlarning xronologik, sistematik, kombinatsiyalashgan turlari mavjud.

Tashqi ko'rinishiga qarab hisob registrlari buxgalteriya daftarlari, kartochkalar va vedomostlarga bo'linadi.

Buxgalteriya hisobi yozuvlarini ma'lum qoida texnika vositalaridan foydalanib, tashkil qilish buxgalteriya hisobi shakli deb ataladi. Bunda korxonada hisob ishlarida sodir bo'lgan har bir xo'jalik muomalasini o'z vaqtida to'g'ri va izchillik bilan hisob registrlarining aniq bir tizimida jamlanishi amalga oshiriladi.

Amaliyotda buxgalteriya hisobining turli shakllari mavjud. Ulardan keng tarqalgani: memorial-order, jurnal-order, bosh jurnal, informatsion texnologiyalarga asoslangan shakllaridir.

Buxgalteriya hisobi fanini amaliyot bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadigan yana bir jihati xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lum bir davr, kvartal, yarim yillik, yillik hisobot tuzishlaridir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyati ustidan kundalik nazoratni hujjatlar va hisobot registrlari asosida olib boradilar. Lekin ular ma'lum vaqt davomida xo'jalik yakunini bilish uchun yetarli emas. Ularni umumlashtirish, bir tizimga keltirish zarur. Bunga hisobot tuzish orqali erishiladi.

Hisobot tuzish qoidalari, tartibi, shakllari, hisobot topshiriladigan organlar ro'yxati, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun asosida amalga oshiriladi.

«Buxgalteriya hisobi» fani biz ko'rib o'tgan qator xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari bilan boshqa iqtisodiy fanlardan ajralib turar

ekan, demak, fanni o'rganish uchun metodlar tanlashda aynan ana shularga e'tibor berish lozim.

Bozor iqtisodiyoti zamonaviy buxgalterdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy muammolarini kompleks hal etishni talab qiladi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu o'ta muhimdir. Chunki, ularda buxgalter buxgalteriya hisobi va uni yuritish, iqtisodiy rejalashtirish, soliqlar to'lash va boshqalarda bevosita qatnashadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlashdan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi quyidagi bilimlar majmuini o'z ichiga oladi:

- ish yuritish va hujjatlar aylanishini tashkil etish;
- moliyaviy hisob;
- boshqaruv hisobi;
- tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari;
- xo'jalik va soliq qonunchiligi;
- xo'jalik jarayonlarini foydaliligini baholash;
- soliqlarni rejalashtirish;
- moliyaviy natijalarni taxmin va tahlil qilish.

Buxgalteriya hisobi boshqaruv va moliyaviy hisobga ajratib o'rganiladi.

Boshqaruv hisobi korxonaning o'zida boshqaruv uchun zarur bo'lgan ma'lumot, axborotlar bilan ish yuritadi. Boshqaruv hisobi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarxi, kalkulyatsiya qilish, shu bilan birga, mavjud vaziyatni tahlil qilish, baholash, qaror qabul qilish, kompyuter, texnologik dasturlardan foydalanish, o'rtacha xarajatlar (tannarx)ni shakllantirishni boshqarish, xarajatlarni me'yoridan ortib ketishini tahlil qilish va boshqalarni qamrab oladi, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt uchun uning holati, u yoki bu vaziyatning kelib chiqish sabablarini ko'rsatadi, unga qarab ish tutish uchun zarur ma'lumotlarni beradi.

Moliyaviy hisob esa nafaqat korxonada faoliyatini boshqarish, balki tashqi foydalanuvchilar uchun ham ma'lumot to'playdi, axborotlarni umumlashtiradi, ma'lum qiladi. Boshqaruv hisobi bilan moliyaviy hisob qator jihatlari bilan farqlanadi. Ular:

- hisob yuritishning majburiyligi;
- hisob yuritishdan maqsad;
- axborotdan foydalanuvchilar;
- hisob yuritishning asosiy qoidalari;
- axborot, ma'lumot shakllari va boshqalar.

Demak, o'quvchi-talabalarda ana shu boshqaruv hisobi bilan moliyaviy hisobni farqli xususiyatlarini anglashlari, mavzular bo'yicha o'rganish jarayonida hisobga olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar bir tomondan, mulkchilik shakllari turli-tuman bo'lib, ichki hisob siyosatiga ko'ra ham hisob-kitob yuritish farqlanadi. Ikkinchi tomondan, turli tarmoqlar, sohalarning o'ziga xos xususiyatlari ham buxgalteriya hisobida aks etadi.

Shuning uchun ana shu hisob-kitoblar qanday amalga oshirishini dars jarayonida o'rganishning tajribada sinalgan va eng maqbul metodi bu masala va mashqlardan foydalanishdir.

Demak, har bir dars uchun zarur masala va mashqlar tayyorlash zarur. Uni biror firma, korxonada misolida tayyorlash kerakki, u, barcha hisob-kitoblarni qamrab olsin. Natijada talabada butun jarayon haqida aniq tasavvur hosil bo'lishi, o'zi amalda hisob-kitoblarni olib borgan uchun ish jarayonida bemalol qiynalmay, hisob ishlarini olib borishi mumkin bo'lsin.

Fanni o'rgatishda amaliy, imitatsion, rolli o'yinlardan ham keng foydalansa bo'ladi. O'yinlarni bir necha mavzuni qamrab olgan holda tuzgan ma'qul. Fanni o'rganish uchun bu metodni qo'llashning imkoni katta. Buxgalteriya fanini o'rganishda samarali metodlardan biri kichik guruhlariga bo'lib darsni tashkil qilishdir.

Darsni tanlovlar tarzida o'tkazish mumkin. Ularni qanday qilib tashkil qilish mumkinligini avvalgi boblarda o'rganganmiz.

Fanni o'rganishda aniq mo'ljallangan savol, test, esse yozish, kontseptual, semantic jadval metodlarini ham keng qo'llash kerak. Umuman, fanni o'qitishda barcha ko'rib chiqqan metodlarimizni qo'llasa bo'ladi. Faqat ularni fanga, o'tiladigan mavzularga moslashtirish lozim. Lekin ular orasida fanni xususiyatlariga mos tushadiganlari, ko'proq samara beradiganlari, talabalarni o'zlari buxgalteriya operatsiyalarini bajarib, hujjatlarda aks ettirilishini talab qiladigan metodlardir.

4-§. O'qitish metodlarini buxgalteriya fanidan dars o'tishga moslashtirish (kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish misolida)

Mavzu bo'yicha dars o'tishda qo'llaniladigan metodlar talabalarni mazkur mavzuni chuqur o'zlashtirishlariga qaratilgan bo'lishi kerak. Dars o'tishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan qator interaktiv metodlar mavjud.

Bu metodlarni qo'llashda nimalarga, qanday mezonlarga qarashimiz kerakligi haqida to'xtab o'tganmiz. Buxgalteriya hisobidan dars o'tishda eng samarali metodlardan masala va mashqlar yechish va guruhlarini kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish metodi hisoblanadi. Chunki, buxgalteriya hisobi hisob-kitob olib borishni yaxshi bilishni talab qiladi. Buning uchun esa har bir talaba hisob-kitobni o'rganishi kerak. O'zi hisob-kitobni amalga oshirgandagina yaxshi tushunadi. Ikkinchidan, hisob-kitobni amalga oshirishda talabalar bir-biriga o'rgatsa, yaxshiroq tushunishlari va mavzuni puxta o'zlashtirishlarini ko'rib o'tdik. Bu vazifani zimmasiga oladigan «o'qituvchi» kichik guruh bo'ladi.

Buxgalteriya hisobini o'rganishda muhim rol o'ynaydigan dastlabki kategoriya, tushunchalar, balans, ikki yoqlama yozuv, schetlardagi oborotlar, saldoni hisoblash kabilar bo'lib, ularni puxta o'rganish kelgusidagi mavzularni ham chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Ularni o'rganishni kichik guruhlarda masala-mashq yechish tarzida tashkil qilish mumkin. Buning uchun quyidagicha topshiriqlar tayyorlashimiz mumkin:

1-kichik guruh uchun topshiriq.

1-tarqatma material

Kassadan hisobdorlik shartlari bilan xodimga 10.000 so'm mablag' berildi.

Korxonaga mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob bo'yicha 100.000 so'mlik materiallar kelib tushdi. Lekin puli to'lanmadi. Bu muomalalar natijasida buxgalteriya balansida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Ko'rsating. Javobingizni izohlang. Korxonaga balansi quyidagicha:

Balans

(boshlang'ich, qisqartirilgan)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	500.000	Ustav kapitali	750.000
Xom ashyo materiallari	200.000	Foyda	10.000
Kassa	50.000	Bank kreditlari	140.000
Hisob-kitob schoti	250.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilar bilan hisob-	100.000

		lashishlar	
Jami:	1000000	Jami:	1000000

2-kichik guruh uchun topshiriq. 2-tarqatma material

Xodim kassaga 10.000 so'm hisobdorlik qarzini to'ladi. Korxonaga mol yetkazib berilgani uchun hisob-kitob qililib, 100 ming so'm to'landi. Bu muomalalar natijasida buxgalteriya balansida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Ko'rsating. Javobingizni izohlang.

Balans

(boshlang'ich, qisqartirilgan)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	400.000	Ustav kapitali	450.000
Xomashyo materiallari	100.000	Foyda	20.000
Kassa	40.000	Bank kreditlari	180.000
Hisob-kitob schoti	150.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilar bilan hisoblashishlar	100.000
Debitorlar	60.000		
Jami:	750.000	Jami:	750.000

3-kichik guruh uchun topshiriq. 3-tarqatma material

Korxonada kassasidan 50.000 so'm pul hisob-kitob schyotiga o'tkazildi. Korxonada olgan uzoq muddatli 200.000 so'm qarzini to'ladi.

Bajarilgan muomalalar tufayli balansdagi o'zgarishni ko'rsating. Javobingizni izohlang.

Balans

(boshlang'ich qisqartirilgan)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa

Asosiy vositalar	500.000	Ustav kapitali	600.000
Ishlab chiqarish zaxiralari	100.000	Rezerv kapitali	50.000
Kassa	60.000	Uzoq muddatli kreditlar	200.000
Hisob-kitob schoti	200.000	Mol yetkazib beruvchilarga qarzlari	10.000
Jami:	860.000	Jami:	860.000

4-kichik guruh uchun topshiriq. 4-tarqatma material

Korxonada taqsimlanmagan foyda hisobidan rezerv fondiga 200.000 so'm ajratildi.

Korxonaga mashina - jihozlar olindi. Uni ta'sischi ustav kapitaliga ulush sifatida kiritishdi. Ularning qiymati 500.000 so'm baholandi.

Balans summasi bajarilgan muomalalardan so'ng qanday o'zgarганиni ko'rsating. Javobingizni izohlang.

Balans

(boshlang'ich qisqartirilgan)

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	600.000	Ustav kapitali	700.000
Ishlab chiqarish zaxiralari	100.000	Rezerv kapitali	50.000
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	100.000	Taqsimlanmagan foyda	200.000
Tayyor mahsulot	200.000	Muassislarning ustav sarmoyasiga ulushlar bo'yicha qarzlari	50.000
Jami:	1000000	Jami:	1000000

Topshiriqlar va ularning javobi alohida tarqatma material tarzida tayyorlanadi. O'qituvchi kichik guruhlariga topshiriqni berib, maqsadni tushuntirgach, uni yechish uchun vaqt beradi. Har bir kichik guruh topshiriqni yechib bo'lgach, javoblar darsda muho-

ama qilinadi. So'ngra o'zi tayyorlab qo'ygan javobini beradi va tabalardan o'z javoblari bilan solishtirib ko'rishni taklif qiladi.

Namoyish etiluvchi va 5-tarqatma material

I - kichik guruh uchun topshiriqning javobi
 Kassadan korxonaga xodimiga hisobdorlik shartlari bilan 10.000 so'm berildi. Pul berilgach, kassa moddasidagi summa 10.000 so'mga kamayadi. Kassadagi mablag' $50.000 - 10.000 = 40.000$ so'm bo'ladi. Shu bilan birga hisobdor shaxs ushbu korxonadan qarz bo'lib qoladi. Bu qarzni aks ettiradigan «Debitorlar» moddasi paydo bo'lib, u 10.000 so'mni aks ettiradi.
 Bunda mablag'larni aktivning bir moddasidan ikkinchisiga o'tishi sodir bo'ladi. Aktivning jami o'zgarmaydi, aktiv va passiv summalar o'rtasida tenglik saqlab qolinadi.

Balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1. Balans

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	500.000	Ustav kapitali	750.000
Xomashyo materiallari	200.000	Foyda	10.000
Kassa	40.000	Bank kreditlari	140.000
Hisob-kitob schoti	250.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashishlar	100.000
Debitorlar	10.000		
Jami:	1000000	Jami:	1000000

Ikkinchi muomala bo'yicha, korxonaga kelib tushgan materiallarning miqdori ko'payishiga olib keladi. Xomashyo materiallar moddasi 100000 so'mga ko'payadi. $200.000 + 100.000 = 300.000$ so'm bo'ladi. Lekin materiallarni mol yetkazib beruvchilardan sotib olinib, puli hali to'lanmagani uchun, mol yetkazib beruvchilar oldida ham korxonaning qarzi ko'payadi. Ya'ni, avvalda 100 ming so'm edi, yana 100 ming so'm qo'shib, $100.000 + 100.000 = 200.000$ so'm bo'ladi. Balansda aks etishi

bo'yicha bu muomala avvalgisidan farq qiladi. Bu muomala balansning aktiv va passivini o'zgartiradi. Ular bir xilda o'zgaradi, tenglik saqlanib qolinadi, har ikki tomon ham ko'payadi.

Endi balans quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

2. Balans

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	500.000	Ustav kapitali	750.000
Xomashyo materiallari	300.000	Foyda	10.000
Kassa	40.000	Bank kreditlari	140.000
Hisob-kitob schoti	250.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashishlar	200.000
Debitorlar	10.000		
Jami:	1100000	Jami:	1100000

6-tarqatma material

2-kichik guruh uchun topshiriqning javobi

Birinchi muomalada xodim kassaga 10.000 so'm hisobdorlik qarzini to'lasa, Debitorlar schyoti 10.000 so'mga kamayadi. $60.000 - 10.000 = 50.000$ so'm. Kassadagi pul mablag'lari esa 10.000 so'mga ko'payadi. $40.000 + 10.000 = 50.000$ so'm. Balansning jami summasi o'zgarmaydi.

Ikkinchi muomala, korxonaga mol yetkazib beruvchilarga 100 000 so'mlik material pulini to'lanishi natijasida kamayadi. $150.000 - 100.000 = 50.000$ so'm hisob-kitob schyotidagi mablag' 100.000 so'mga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashish schyoti ham 100.000 so'mga kamayadi, ya'ni qarz to'landi. Natijada umumiy balans summasi kamayadi.

Ikkinchi muomaladan so'ng balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Balans

Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa

Asosiy vositalar	400.000	Ustav kapitali	450.000
Xomashyo materiallari	100.000	Foyda	20.000
Kassa	50.000	Bank kreditlari	180.000
Hisob-kitob schoti	50.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilar bilan hisoblashishlar	0
Debitorlar	50.000		
Jami:	650.000	Jami:	650.000

7-tarqatma material

3-kichik guruh uchun topshiriqning javobi

Birinchi muomalada korxonada kassasidan hisob-kitob schyotiga o'tkazildi. Natijada kassadagi $60.000 - 50.000 = 10.000$ so'm pul bo'lib, 50000 so'mga kamayadi. Hisob-kitob schyotidagi pullar esa $200.000 + 50.000 = 250.000$ so'm bo'lib, 50.000 ga ko'payadi. Umumiy balans summasi o'zgarmaydi.

Ikkinchi muomalada korxonada uchun olingan uzoq muddatli qarz to'lanishi natijasida korxonaning bank oldidagi majburiyatlari bajarildi, ya'ni qarz to'landi. Natijada balans summasi 200.000 so'mga kamaydi. Bu qarzni to'lash esa hisob-kitob schyoti mablag'idan amalga oshirildi. Natijada hisob-kitob schyotidagi pul ham ($250 - 200 = 50.000$ so'm) 200 ming so'mga kamaydi. Balansning umumiy summasi 660.000 so'mni tashkil qiladi.

Balans

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	500.000	Ustav kapitali	600.000
Xomashyo materiallari	100.000	Foyda	50.000
Kassa	10.000	Bank kreditlari	0
Hisob-kitob schoti	50.000	Mol yetkazib beruvchilar va pudrat-chilar bilan hisoblashishlar	10.000
Jami:	660.000	Jami:	660.000

8-tarqatma material

4-kichik guruh uchun topshiriqning javobi

Korxonada taqsimlanmagan foydadan 100.000 so'm rezerv fondiga o'tkazsa, rezerv kapitalimiz $50 + 100.000 = 150.000$ so'm bo'lib, 100 mingga ko'payadi, taqsimlanmagan foydamiz esa 100 mingga kamayadi. $200.000 - 100.000 = 100.000$ so'm, umumiy balans summasi o'zgarmaydi.

Ta'rischilarning ustav kapitaliga ulush sifatida kiritgan 500.000 so'mlik mashina jihozlari tufayli asosiy vositalar qiymati 500 ming so'mga ko'payib, 600 ming so'm + 500 ming so'm = 1100 ming so'mga yetadi. Balansning umumiy summasi 1500 ming so'm bo'ladi.

Balans

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	1100.000	Ustav kapitali	700.000
Ishlab chiqarish zaxiralari	100.000	Rezerv kapitali	150.000
Hisob-kitob schoti	100.000	Taqsimlanmagan foyda	100.000
Tayyor mahsulot	200.000	Muassislar ustav kapitali bo'limlari bo'yicha qarzlari	550.000
Jami:	1500000	Jami:	1500000

Dars yakunida o'qituvchi eng faol qatnashganlarni guruhning o'zi tomonidan e'lon qilish uchun imkoniyat berib, so'ngra o'zi bugungi darsda qaysi guruh ko'p ball to'pladi va qaysi talabalar eng faol qatnashganini ko'rsatib, barcha talabalarga ball qo'yib chiqadi, uni qanday amalga oshirishni avvalgi boblarda ko'rib chiqqanmiz.

5-§. Modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llash

Buxgalteriyada puxta o'rganish zarur bo'lgan dastlabki mavzular, ayniqsa, buxgalteriya hisob varaqlari, ikkiyoqlama yozuv bo'lib, keyingi mavzularda ko'riladigan buxgalteriya hisobi operatsiyalarini

bajarish ko'p jihatdan talabalar ularni qay darajada o'zlashtirgani, tushunib yetganlariga bog'liq.

Shuning uchun o'quvchi-talabalarning mavzuni puxta o'zlashtirishlari kelgusida ham muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, darsda barchani faol qatnashishini ta'minlovchi modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llash, o'yinni esa quyidagicha tashkil qilish mumkin.

«Buxgalter lavozimiga ishga qabul qilish» o'yini.

O'yinning maqsadi: o'quvchi-talabalarning ikki yoqlama yozuv, hisobvaraqlar va ularda xo'jalik muomalalarining aks etishini puxta o'zlashtirishlariga erishish.

O'qituvchi o'yinda o'rganiladigan tushunchalarni esga solib, qaytaradi.

O'yinning maqsadini tushuntiradi. Guruh uchga bo'linadi. Guruhdagi eng iqtidorli talabalardan 3 kishi «ekspertlar» guruhini tashkil etadi. Ular ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazilishi haqida e'lon tayyorlashlari kerak.

Ikkinchi guruh korxonada tashkil etilgan «bosh buxgalter» boshchiligidagi 5 kishidan iborat tanlov komissiyasi, unga: kadrlar bo'limi va buxgalteriyadan tajribali mutaxassislar a'zo qilib jalb etilgan. Ular ham ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazilishi haqida e'lon tayyorlashlari kerak. E'lon vatman qog'ozga yozilgan, slayd, tarqatma material tarzida bo'lishi mumkin.

Uchinchi guruh — qolgan barcha o'quvchi-talabalar, ular kasb-hunar kollejini yoki institutni bitirib, shu korxonaga yosh mutaxassis sifatida ishga kirishmoqchi.

Komissiya ularga bir necha bosqichda topshiriq berib, ularni to'g'ri bajarib, eng yuqori ball to'plaganlarni ishga qabul qilmoqchi.

O'qituvchi o'yin o'tkazish qoidalarini o'quvchi-talabalarga tushuntiradi: har bir o'quvchi-talabaga uch bosqichda topshiriq beriladi: Birinchi topshiriq nisbatan oson testlar. Ularni kamida yarmini to'g'ri yechganlar kelgusi turda qatnashish huquqini qo'lga kiritadi.

Ikkinchi bosqichda mashq beriladi, uning to'g'ri-noto'g'riligini aniqlab, sababini yozib ko'rsatilishi kerak. Uning ham kamida yarmini to'g'ri bajarganlar kelgusi bosqichga qo'yiladi.

Uchinchi bosqichda ataylab noto'g'ri bajarilgan ishlar beriladi. Uni kamchiligini topib, to'g'ri bajarish so'raladi. Har bir bosqichda bajarilgan ishlarni tanlov komissiyasi a'zolari tekshirib, baholaydilar. Ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini ekspert komissiyasi tekshirib, xulosa chiqaradi. O'qituvchi o'yinni qanday o'tayotganini

kuzatib turadi. Bunda unga ekspert komissiya a'zolari yordam beradi. O'quvchi-talabalar quyilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzuni tushunib oladilar.

O'yin o'tkazish tafsiloti.

Guruh uchga: ekspertlar, tanlov komissiyasi a'zolariga bo'linib, o'z joylarini egallashadi. Birinchi navbatda tanlov komissiyasi tomonidan tayyorlangan e'lon matni ko'rsatiladi. Uni o'qib, o'quvchi-talabalar ishga qabul qilish uchun tanlovda qatnashishni so'rab, ariza beradilar.

Keyingi faza topshiriqni bajarish: bunda o'quvchi-talabalarga birinchi topshiriq testlar beriladi. Ular quyidagicha bo'lsin:

1-tarqatma material

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 1-topshiriq Testlar:

1. Moliyaviy hisobot standartlari ehtiyojlariga nima sabab bo'ldi?
A) barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobotlariga bir xilda yondashish;
B) hisobotlar tuzishni osonlashtirish;
D) buxgalteriya yuritishni osonlashtirish;
E) investitsiya qo'yishni osonlashtirish.
2. Xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini qaysi o'lchov umumlashtirib ko'rsatadi?
A) natura o'lchovi; B) pul o'lchovi; D) mehnat o'lchovi;
E) shartli o'lchov birligi.
3. Tezkor hisobning asosiy vazifasi nimadan iborat?
A) boshqaruvga ma'lumot berish uchun;
B) ishlab chiqarishdagi salbiy holatlarga qarshilik berish;
D) ishlab chiqarishdagi ijobiy holatlarni ro'yxatga olish;
E) kuzatilayotgan obyektlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqidagi zarur ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish.
4. Ikki yoqlama yozuvni birinchi bo'lib kim kashf qilgan?
A) Imperator Maksimilian I; B) Mikelanjelo; D) Luka Pacholi;
E) Leonardo da Vinchi.
5. Buxgalteriya hisobi fanini vujudga kelishi sababini tarixan nima bilan izohlash mumkin?

- A) savdo-sotiqning rivojlanishi;
- B) ishlab chiqarishning rivojlanishi;
- D) tovar ishlab chiqarishni vujudga kelishi bilan;
- E) mehnat taqsimotini chuqurlashuvi bilan.

6. Ikki yoqlama yozish deb, ...

- A) hisob daftarining ikki tomoni bo'yicha axborotlarni yozib borishga;
- B) xo'jalik muomalalarini ikkita daftarda qayd etishga;
- D) xo'jalik muomalalarini tranzit hisobvaraqlarda yozib borilishiga;
- E) xo'jalikda sodir bo'lgan muomalalarni hisobvaraqlar orqali o'zaro aloqadorlikda aks ettirishga aytiladi.

7. Muomalalar summasi ikkiyoqlama yozuvda qanday aks ettiriladi?

- A) bir hisobvaraqlarning krediti va ikkinchi shetning ham kreditida;
- B) bir shetning debetida, ikkinchi shetning ham debetida;
- D) bir hisobvaraqlarning debetida ayni chog'da ikkinchi hisobvaraqlarning kreditida teng summada aks ettiriladi;
- E) bir hisobvaraqlarning ham debetida ham kreditida aks ettiriladi.

8. Buxgalteriya hisobida foyda ...

- A) hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan xarajatlarni kamayishi;
- B) hisobot davrida olingan barcha daromadlarni xarajatlardan o'rinishi;
- D) mahsulot ishlab chiqarishni ko'payishi tufayli olingan daromad;
- E) mahsulot sotishni ko'payishi natijasida korxonaning hisob-kitob shetidagi mablag'larning ko'payishi deb, e'tirof etiladi.

9. Hisobvaraqlar rejasi deganda nimani tushunamiz?

- A) hisobvaraqlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir tizimga solingan ro'yxati;
- B) hisobvaraqlarda muomalalarni aks ettirish rejasi;
- D) hisobvaraqlarni aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo'lish rejasi;
- E) hisobvaraqlarda aks etadigan muomalalarning rejasi.

10. Sintetik schyotlar qanday ma'lumotlarni beradi?

- A) mehnat o'lchovidagi ma'lumotlarni;

- B) pul o'lhovidagi ma'lumotlarni;
D) natura o'lhovidagi ma'lumotlarni;
E) xo'jalik mablag'lari va muomalalari haqida umumlashtirilgan ma'lumotlarni.

Testlar bilimni sinovchi tarqatma material sifatida tayyorlanadi va ishga kirish uchun ariza bergan o'quvchi-talabalarga tarqatiladi. Har bir testni yechish uchun 1 daqiqadan vaqt beriladi va har bir to'g'ri javob bir ball baholanadi. Kim berilgan vaqtdan ertaroq testni yechib topshirsa, javobiga qarab, keyingi bosqich topshirig'i beriladi

Testning yarmini to'g'ri yechganlar, keyingi bosqichga o'tadi. Bu topshiriq ham tarqatma material qilib tayyorlanadi va ikkinchi bosqichga o'tgan o'quvchi-talabalarga beriladi. Bu topshiriq avvalgiga nisbatan murakkabroq. Har bir fikrga bildirilgan javobni yozish uchun 1 minut vaqt beriladi va to'g'ri javob 1 ball baholanadi. Ishga kiruvchilar bu topshiriqni bajarishguncha ekspertlar tanlov komissiyasining testlar javobiga qo'ygan baholari to'g'riligini tekshirishadi.

Ikkinchi bosqichda quyidagi topshiriq beriladi:

2-tarqatma material

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 2-topshiriq

Quyidagi bildirilgan fikrlarni diqqat bilan o'qing. Ularni to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsating. Fikringizning isbotini yozib bering.

T/N

1. Balans – o'lhov degan ma'noni bildiradi.
2. Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish deb, xo'jalik muomalalari natijasida vujudga keladigan, iqtisodiy aloqalarni hisobvaraqlar orqali o'zaro aloqador holda aks ettirish usuliga aytiladi.
3. Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgilash hisobvaraqlarni nazorat qilish deyiladi.
4. Hisob varaqlarning debeti va kreditida muomala summasining ko'rsatilishi buxgalteriya provodkasi deb ataladi.
5. Buxgalteriya hisobida iqtisodiy muomalalarni hisobvaraqlarda aks etishi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi.
6. Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgilash buxgalteriya provodkasi deyiladi.
7. Bajarilgan muomalaning bir hisobvaraqlarning debetida, ikkinchi hisobvaraqlarning kreditida ifodalanishi oddiy buxgalteriya

provodkasi deyiladi.

8. Hisobvaraqlar bu buxgalteriya hisobining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ular hisob-kitobni, nazoratni osonlashtiradi. Xo'jalik faoliyatidagi muomalalar, mablag'lar harakati, ularning manbalarini aks ettiradi.

9. Hisobvaraqlar bo'yicha yozuvlar yakunlari saldo (qoldiq) deb ataladi.

10. Buxgalteriya balansiga muvofiq hisobvaraqlar ikkiga bo'linadi.

11. Aktiv hisobvaraqlar deb, mablag'larning kelib chiqishi manbalarining holati va harakatini hisobga oladigan hisobvaraqlarga aytiladi.

12. Murakkab buxgalteriya provodkasi deyilganda birdaniga bir necha hisobvaraqlar kreditlanib, bir nechasi debetlanishi tushuniladi.

Ikkinchi topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganlar navbatdagi 3-bosqichga o'tishadi. Uchinchi bosqichdagi topshiriq murakkab-roq tuziladi. Unda ataylab xatoga yo'l qo'yilgan. Uni bajarish avvalgilariga qaraganda chuqurroq bilim talab etadi.

3-tarqatma material

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 3-topshiriq

1. Aktiv hisobvaraqlar chizma tarzida quyidagicha ifodalangan:

Debet	Aktiv hisobvaraqlar	Kredit
Oy boshidagi saldo	Mablag'larning ko'payishi	
Mablag'larning kamayishi	Oy oxiridagi saldo.	

Oy oxirida saldoning berilishi to'g'rimi? Hisobvaraqlar tuzilishi to'g'ri bo'lsa, to'g'riligini isbotlang, xato bo'lsa, xatolarini ko'rsating.

2. Aktiv hisobvaraqlardan biri 50 kassadagi pul mablag'larining hisob varaqlari. Odatda, ko'proq milliy valyutadagi pul mablag'lari operatsiyalari amalga oshiriladi. Yuqoridagi misolimiz bo'yicha oyning boshidagi saldo 50 ming so'm desak, oy davomida bir necha marta hisob-kitob schyotidan kassaga pul tushdi: 500 ming so'm, 200 ming so'm, 300 ming so'm, shu bilan birga kassadan xodimlarga 300 ming so'm, ishchilarga 600 ming

so'm ish haqi to'landi, desak, ana shu operatsiyalar bu hisobvaraqqada qanday aks etishini ko'rsating. Oy oxiridagi saldoni aniqlang. Yuqoridagi chizmada ko'rsatilgani bo'yicha saldoni hisoblasak, javobi qanday bo'lishi mumkin? To'g'ri javobni ko'rsating.

(Asosiy diqqatni shu hisobvaraqqaga qarating, boshqa hisobvaraqlar bilan bog'lanishni tahlil qilmang.)

3-topshiriqni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Topshiriq to'g'ri bajarilsa 10 ball beriladi.

Baholash mezonlari:

Topshiriqning mazmuni	Beriladigan ball
1. Aktiv hisobvaraqqni ifodalanishidagi xatoni topib, to'g'ri javob berish.	2
2. Bajarilgan operatsiyalarni hisob schyotlarida to'g'ri aks ettirish.	2
3. Debet va kredit bo'yicha oborotlarni to'g'ri hisoblash.	2
4. Oy oxiridagi saldoni to'g'ri aniqlash.	2
5. Javoblarni berilgan aktiv hisobvaraqqning debeti va krediti hamda saldosi ifodalanishi bilan taqqoslash asosida chiqarilgan xulosaning javobi to'g'ri bo'lsa.	2
Jami	10

Shunday qilib, to'planishi mumkin bo'lgan maksimal ball 32 ball. Tanlovda 1–3 o'rin olgan talabalar ishga qabul qilinadi.

Tanlov komissiyasi a'zolariga va ekspertlarga ballni o'qituvchi, ularni javoblarni tekshirish bo'yicha xato qilganlarni yoki yo'qligiga qarab qo'yadi. Buning uchun har bir tanlov va ekspert komissiyasi a'zosi tanlov ishtirokchilari javobini tekshirib, bergan xulosasida o'zini ismi-sharifini ko'rsatishi kerak.

Agar o'quvchi-talabalar o'rtasida avvalgi topshiriqlarni bajarish bo'yicha ball to'play olmay qolganlari bo'lsa ular uchun quyidagi topshiriqni berish mumkin. Bu ularni darsda bekor o'tirishlariga yo'l quymaydi. Ular bitta kichik guruh bo'lib, birgalikda bir-birlariga yordam berib, topshiriqni bajarishadi. Javoblariga ko'ra, rag'batlantiruvchi ball beriladi.

4-tarqatma material

yetarli darajada ball to'play olmay tanlovdan chiqib ketgan talabalar uchun topshiriq:

Quyidagi chizmada passiv hisobvaraqlarda oy davomida bajarilgan o'preatsiyalarni hisobga olib, oy oxiridagi saldoni aniqlash sxemasi berilgan.

Debet	Passiv hisobvaraqlar	Kredit
Mablag'larning ko'payishi		Oy boshidagi saldo; Mablag'lar manbaining kamayishi Oy oxiridagi saldo

$\text{Saldo}_{\text{oy oxiri}} = \text{Saldo}_{\text{oy boshi}} + O_{k-t} - O_{d-t}$;
Chizmada bajariladigan o'preatsiyalarning mazmuni to'g'ri ifodalanganmi? Isbotlang.

Bulardan tashqari e'lon tayyorlaganlik uchun ham ag'batlantiruvchi ball qo'yish mumkin.

O'yinni navbatdagi fazasi uni muhokama qilish bo'lib, o'qituvchi to'g'ri javoblarni tarqatadi.

5-tarqatma material

Topshiriqlarning javoblari

Birinci topshiriqning javoblari:

A); 2.B); 3.G); 4.V); 5.V); 6.G); 7.V); 8.B); 9.A); 10.G);

Ikkinchi topshiriqning javobi:

1. **Noto'g'ri.** Balans lotincha bis — ikki, banx — «tarozi pallas» so'zlaridan tarkib topgan bo'lib «ikki palla» degan ma'noni anglatadi, tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

2. **To'g'ri.** Ikki yoqlama yozuv buxgalteriya hisobining asosiy qoidalaridan biri bo'lib, barcha xo'jalik muomalalari bir hisobvaraqlar debetida ayni vaqtda boshqa hisobvaraqlar kreditida teng summada aks ettiriladi.

3. **Noto'g'ri.** Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgilash hisobvaraqlar korrespondensiyasi deyiladi. Bir hisobvaraqlar debeti va ikkinchi hisobvaraqlar kreditida ifodalanishi orqali bu hisobvaraqlar bir-biri bilan bog'lanadi.

4. **To'g'ri.** Xo'jalik muomalalari provodka orqali tegishli debetlanuv va kreditlanuvchi hisobvaraqlarda muomala summasi

ko'rsatiladi, ya'ni rasmiylashtiriladi. Ular birlamchi hujjatlar asosida tuziladi.

5. **To'g'ri.** Ana shu aloqadorlikni aks ettirish usuli ikki yoqlama yozish deb ataladi. Chunki, bu muomalalar bir hisobvaraqlarning debetida, ikkinchisining esa kreditida aks etadi.

6. **Noto'g'ri.** Hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgilash hisobvaraqlar korrespondensiyasi deyiladi. Ya'ni bajarilgan muomalalar qaysi hisobvaraqlar debetida va qaysi birining kreditida ifodalanishi aniqlanadi. Masalan, ishchilarga ish haqi kassada iyun oyi uchun 1 million so'm to'lanadi. Demak, bunda **5010** kassa — Milliy valyutadagi pul mablag'lari va **6710** - Ishchi va xizmatchilarga ish haqi yuzasidan qarzlarning hisobvaraqlarini o'zaro bog'lanishi, ya'ni hisobvaraqlar korrespondensiyasini hosil qiladi.

7. **To'g'ri.** Chunki, bir muomala summasi ikkita hisobvaraqlarda aks etayapti, unda hech qanday murakkablik yo'q.

8. **To'g'ri.** Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatishdagi muomalalarni hisobvaraqlarsiz olib borib bo'lmaydi. Umuman olganda, hozirgi buxgalteriya hisobini hisobvaraqlarsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Buxgalteriya obyektining har bir turi uchun alohida hisobvaraqlar ochiladi.

9. **Noto'g'ri.** Hisobvaraqlar bo'yicha ikki yoqlama yozuv yakunlari oborotlar deb ataladi. Debet va kredit oborotlari o'rtasidagi tafovut esa saldo deb ataladi.

10. **To'g'ri.** Ular aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo'linadi.

11. **Noto'g'ri.** Aksincha. Mablag'larning kelib chiqish manbalarini holati va harakatini hisobga oladigan hisobvaraqlarni passiv hisobvaraqlar deb aytiladi. Aktiv hisobvaraqlar esa xo'jalik mablag'lari holati va o'zgarishini hisobga oladi.

12. **Noto'g'ri.** Bir muomalada bitta hisobvaraqlar debetlanib, bir nechtasi kreditlansa, bir hisobvaraqlar kreditlanib bir necha hisobvaraqlar debetlanishi tushuniladi. Boshqacha bajarilgan operatsiyalar noto'g'ri hisoblanadi.

6-tarqatma material

3-topshiriqlarning javobi:

Hisobvaraqlardagi ayrim yozuvlar chizmada noto'g'ri aks ettirilgan. Bular: 1. Debetda mablag'larning kamayishi emas, ko'payishi deb yozilishi kerak. Mablag'larning kamayishi, aksincha hisobvaraqlarning kreditida aks etadi. Oy oxiridagi saldo ham debetida hisoblanadi. Chunki u aktiv hisobvaraqlar. Bajarilgan operatsiyalar bo'yicha yozuvlarni to'g'ri aks ettirsak, u quyidagicha bo'ladi.

Debet	Aktiv hisobvaraқ	Kredit
-------	------------------	--------

Oy boshidagi saldo:	Mablag'larning kamayishi
Mablag'larning ko'payishi	
Oy oxiridagi saldo	

2. Aktiv hisobvaraқ kassadagi pul mablag', 5010 milliy valyutadagi pul mablag'lari bo'yicha bajarilgan operatsiyalar asosida oy oxiridagi saldoni topish uchun debet bo'yicha va kredit bo'yicha oborotlarni hisoblashimiz kerak.

Hisob-kitob schyotiga mablag' tushsa, demak, kassada pul ko'payadi, uning debetiga yozamiz:

Birinchi marta:

D – t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 500 ming so'm.

K – t 5110 Hisob-kitob schyoti, 500 ming so'm.

Ikkinchi marta:

D – t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 200 ming so'm.

K – t 5110 Hisob – kitob schyoti, 200 ming so'm.

Uchinchi marta:

D – t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 300 ming so'm.

K – t 5110 Hisob-kitob schyoti, 300 ming so'm.

Kassadan xodimlarga ish haqi berilganda, 6710 Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar schyoti bilan bog'lanadi. Kassadagi pul kamayadi. Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar bo'yicha ham kamayadi.

U holda,

1 marta:

K – t 5110 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 300 ming so'm.

D – t 6710 Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar, 300 ming so'm.

Ikkinchi marta:

K – t 5110 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 600 ming so'm.

D – t 6710 Hisob-kitob schyoti, 600 ming so'm.

3) U holda, hisobvaraқ bo'yicha chizmamiz quyidagicha bo'ladi:

Aktiv hisobvaraқ	Milliy valyutadagi pul mablag'lari
------------------	------------------------------------

Debet	Kredit
-------	--------

Oy boshidagi saldo: 50.000	
----------------------------	--

1) 500.000	1) 300.000
------------	------------

2) 200.000	2) 600.000
------------	------------

3) 300.000	
------------	--

Oy oxiridagi saldo 150.000	
----------------------------	--

4) D - t bo'yicha oborot = 500 000 + 200. 000 + 300.000=1000000 so'm.

K - t bo'yicha oborot = 300.000 + 600.000 = 900.000 so'm.
 Aktiv hisobvaraqlar bo'yicha oy oxiridagi saldoni topish uchun oy boshidagi qoldiq (saldo) schyotining debet oboroti (O_{D-T}) qo'shilib, kredit oborotini (O_{K-T}) ayiramiz.

U holda oy oxirida saldo:

$$\text{Aktiv schyot bo'yicha, Saldo}_{\text{oy oxiri}} = \text{Saldo}_{\text{oy boshi}} + O_{d-t} - O_{k-t}$$

$$= 50.000 + (500000 + 200000 + 300000) - (300000 + 600000)$$

$$= 50000 + 1000000 - 900.000 = 150.000$$

5)Chizmada noto'g'ri berilgani bo'yicha saldoni hisoblashning ma'nosi quyidagicha bo'ladi:

$$S_{\text{oy oxiri}} + O_{k-t} = S_{\text{oy boshi}} - O_{d-t}$$

Agar raqamlarni qo'yib hisoblasak, aktiv hisob varaqlarni oy oxiridagi saldosi yuqoridagi noto'g'ri chizma bo'yicha aniqlay olmasligimizga qat'i ishonch hosil qilishimiz mumkin.

7-tarqatma material

Yetarli darajada ball to'play, olmay tanlovdan chiqib ketganlar uchun berilgan topshiriqning javobi:

Chizmada oy davomida bajarilgan opreatsiyalarni hisobga olgan holda passiv hisobvaraqlarning oy oxiridagi saldosi hisoblash modeli noto'g'ri ko'rsatilgan.

1. Passiv hisobvaraqlarda mablag'larning manbalari holati va harakati hisobga olinadi. Shuning uchun mablag'lar emas, balki mablag'lar manbaining ko'payishi deb yozilishi kerak.

2. Passiv hisobvaraqlarda debetda mablag'lar manbaining kamayishi, aksincha, kreditda mablag'lar manbaining ko'payishi yuz beradi. Shuning uchun ularning o'rnini almashtirish lozim. Saldo to'g'ri yozilgan.

Chizmamizni to'g'ri ifodalasak, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Debet	Passiv hisobvaraq	Kredit
	Mablag'lar manbayining kamayishi	Oy boshidagi saldo: Mablag'lar manbaining ko'payishi Oy oxiridagi saldo

Oy oxiridagi saldoni topish uchun oy boshidagi saldoga schyotning kredit oborotini qo'shamiz, debet oborotini ayiramiz.

$$\text{Saldo}_{\text{oy oxiri}} = \text{Saldo}_{\text{oy boshi}} + O_{k-t} - O_{d-t}$$

O'quvchi-talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtiradilar. So'ngra muhokama qilish boshlanadi.

Qanday metodni qo'llab dars o'tishdan qat'i nazar, to'g'ri javobni shunchaki aytib qo'yish yetarli emas. Asosiysi, javobni muhokama qilib, nima sababdan aynan shu javob to'g'ri ekanligini talabning ongiga yetkazishdir. Ana shundagina talaba o'rganayotgan mavzuning mazmunini puxta o'zlashtiradi va darsdan qo'yilgan maqsadga erishiladi.

Modellashtiruvchi o'yinlarda ham o'yinni tugatgach, natijasi muhokama qilinishi zarur. Muhokama oxirida barcha qatnashchilarga berilgan ballar e'lon qilinadi. O'qituvchi barcha ishtirokchilarga o'yinda qatnashganlari uchun minatdorchilik bildiradi va kelgusi darsning mavzusi va unda qo'llaniladigan metodlar e'lon qilinadi.

Shunday qilib, buxgalteriya fanining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, fanni o'rganish uchun tarqatma materiallardan, ayniqsa, hujjatlashtirish shakllaridan keng foydalanish zarur.

Ikkinchidan, masala-mashqlar yechish asosiy metod hisoblanadiki, masala-mashq yechmay, fanni o'rganib bo'lmaydi. Barcha metodlar orasida universalligi bilan ajralib turadigan juftlik va kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish ham fanni o'rganishda samarali metod hisoblanadi.

Albatta, o'rganilayotgan mavzuning maqsadidan kelib chiqqan holda muhokama qilinaotgan savolga ko'ra boshqa metodlarni ham bemalol moslashtirish mumkin. Bu o'qituvchining iqtidori, xohish-istagiga bog'liq.

Umuman olganda, yuqorida o'rganilgan aksariyat metodlarni o'rganilayotgan fanlarga moslashtirish mumkin. Lekin ularni aynan shu fan uchun qay darajada samarali bo'lishini hisobga olish zarur.

Xulosa

Ma'lumki, har bir fanning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, ular, eng avvalo, fanning predmeti, maqsad, vazifalari, o'rganish metodlari bilan ajralib turadi.

Buxgalteriya hisobi fani o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa iqtisodiy fanlardan ajralib turadi. Eng asosiysi buxgalteriya hisobi hujjatlashtirish, hujjatlarning esa yuridik kuchga ega bo'lishi, ikki yoqlama yozuvga asoslanishi bilan farqlanadi va boshqa hech qaysi fanda (auditda uni to'g'ri bajarilgani tekshiriladi)

o'rganilmaydi. Bajariladigan amallar esa qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar asosida yuritilishi shart.

Buxgalteriya hisobi amaliyot bilan chambarchas bog'liq. Faning qator xususiyatlari uni o'rganishda ko'rgazmali va tarqatma materiallardan, texnik vositalardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Fanni o'rganishda ularni hisobga olish, ko'proq bir necha metodni birgalikda qo'llash va tarqatma materiallar hujjatlar bilan ishlash, hisob-kitob ishlarini amalga oshirishni o'rganish nuqtayi nazaridan qarab tayyorlanishi zarur.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Buxgalteriya fanining xususiyatlari, ichki boshqaruv, tashqi iste'molchi, buxgalteriya hisobining maqsadi, buxgalteriya hisobining funksiyalari, buxgalteriya hisobining obyektlari, buxgalteriya hisobining sub'ektlari, buxgalteriya hisobining metodlari, buxgalteriya hisobining xususiyatlari, dars o'tish metodlarini moslashtirish.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Buxgalteriya hisobining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
2. Buxgalteriya hisobi fani boshqa iqtisodiy fanlardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
3. Buxgalteriya hisobida hujjatlashtirish qanday rol o'ynaydi?
4. Buxgalteriya hisobini yuritishda hisob yuritish qoidalari qanday rol o'ynaydi?
5. Buxgalteriya hisobi nima sababdan yuridik kuchga ega?
6. Buxgalteriya hisobini o'rganishda tarqatma material qanday rol o'ynaydi?
7. Fanni o'rganishda, sizningcha, qaysi metodlarni ko'proq qo'llagan ma'qul?
8. Fanni o'rganishda dars o'tish metodlarini qanday moslashtirish mumkin?

XXI bob. AYRIM IQTISODIY FANLAR VA DARS O'TISHDA ULARNING XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Iqtisodiy fanlarning barchasi o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Dars o'tish metodlarini tanlash uchun ularni chuqur anglashimiz, qaysi tomonlariga diqqat qaratishimiz lozimligini aniqlashimiz kerak. Bu bizni dars o'tish metodlarini tanlash va ularni fanga moslashtirish, mavzular bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqishimizni yengillashtiradi. Mazkur oxirgi bobimiz ana shu masalani o'rganishga bag'ishlangan.

1-§. «Iqtisodiy tahlil» fani va uni o'rganish xususiyatlari

XX asr ko'pincha «axborot asri» deb ataladi. XXI asrga kelib axborotning ahamiyati yanada ortdi. Zarur axborotga ega bo'lganlar, boshqalarga qaraganda ustun mavqega, qo'shimcha naf, foyda olish imkoniga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham hozirgi paytda N. Vinerning «Kimki axborotga ega bo'lsa, dunyoni tebratadi», degan iborasi mashhur bo'lib, tez-tez ishlatilmoqda.

Avvalgi bobda to'xtab o'tdik, iqtisodiy axborotlar bilan buxgalteriya hisobi ta'minlaydi. Axborotga ega bo'lish yaxshi, lekin undan qanday foydalanish kerak? Bu savolga javobni turli nuqtayi nazardan berish mumkin, **mikromiqyosda, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar miqyosida esa iqtisodiy tahlil fani¹ beradi.**

Har qanday fanni shakllanib, vujudga kelishi obyektiv zaruriyat tufayli yuz berganidek, iqtisodiy tahlil fanini vujudga kelishi ham obyektiv zaruriyat, avvalo iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi sabab bo'lgan. Chunki, resurslar cheklanganligi: birinchidan ularni samarali ishlatishni; Ikkinchidan, shu resurslarni ishlatib, ishlab chiqargan mahsuloti sotilganda sarflagan xarajatlarini qoplaydimi, yo'qmi, aniqlashni; Uchinchidan, korxonaning hozirgi holati qanday, kelgusida istiqboli qanday bo'lishi mumkinligini prognoz (ilmiy taxmin) qilishni zarur qilib qo'yadi.

¹ Iqtisodiy tahlil deganda—«Iqtisodiy tahlil nazariyasi», «Moliyaviy va bishqaruv tahlili», «Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil» ko'zda tutiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nima ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish va qanday ishlab chiqarishni har bir korxonaga, firma o'zi hal qilgan ekan, bunda ular, eng avvalo turli axborotlarga, ularni o'rganishga tayanadilar. Ularning kelajagi ana shu axborotlarni o'rganib, xulosa chiqarishlari va qanday qaror qabul qilishlariga bog'liq.

Buxgalteriya hisobida, mavjud axborotlarni o'rganishdan qo'yilgan maqsadga asoslanib, turli jihatdan yondashib, iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Ana shu ko'rsatkichlarning o'zgarishi tendensiyasiga ko'ra xo'jalik faoliyatiga xolisona baho berish talab qilinadi. Albatta har bir xo'jalik yurituvchi real holatni o'rganishdan manfaatdor. Boshqalar uchun o'z manfaatidan kelib chiqib, «yomon tomonini yashirib, yaxshisini oshirsa» ham o'zi uchun albatta real hisob-kitob qilib, xulosa chiqaradi.

Xo'jalik yurituvchilar o'z ahvollarini bilib olgach, xo'jalik yuritish samarasini oshirish uchun qanday imkoniyatlari bor? O'zlaridagi ichki imkoniyatlarni ishga solsa yetarli yoki chetdan imkoniyat qidirish, ya'ni chetdan investitsiyalar, kredit va hokazolarni jalb etish zarurmi, aniqlashlari lozim.

Qanday chora-tadbirlarni qo'llasa, firma, korxonaga tang ahvoldan chiqib ketadi yoki uning samaradorligi yanada ortadi yoki ko'riladigan zarar darajasi minimal bo'ladi. Bularni bilish uchun iqtisodiy fanlarni, ayniqsa, tahlil fanini chuqur o'rganish, boshqalar tajribasida nima, qanday yuz bergan, qanday chora-tadbirlar qo'llangan o'rganish darkor.

Bozor iqtisodiyotiga noaniqlik doimo yo'ldosh. Har bir firma, korxonaga biron faoliyat yuritgan ekan, doimo risk qiladi. Ayrim faoliyat turlarida tavakkalchilik xatari kichik bo'lsa, boshqalarida katta. Eng asosiysi ana shu tavakkalchilik xatarini kamaytirish. Agar diqqat-e'tibor bergan bo'lsangiz, oxirgi yillardagi iqtisodiy soha bo'yicha «Nobel mukofoti»ni olgan ishlarining ko'pchiligi u yoki bu jihati bilan ana shu riskni, undan keladigan talafotni kamaytirishga qaratilgan. Buning uchun esa iqtisodiyotni nihoyatda sinchiklab o'rganish zarur. Aynan ana shu zaruriyat tufayli yangi-yangi iqtisodiy matematik metodlar ishlab chiqildi va ishlab chiqilmoqda hamda korxonaga, firma, qolaversa, butun mamlakat iqtisodiyoti holatini o'rganishda keng qo'llanilmoqda. Bularni bilish uchun ham tahlil qilishni puxta o'rganish zarur.

Ma'lumki, firma-korxonalar mamlakat iqtisodiyotining hujayralari. Hujayralar sog'lom, baquvvat bo'lsa, organizm sog'lom, baquvvat bo'ladi. Ularning holati qandayligini bilish uchun esa or-

ganizmni, chuqur o'rganib, analiz qilib, tashhis qo'yiladi. Kasallik alomatlarini sezilsa, davolash yo'llari, vositalari tanlanadi va muolaja qo'llanadi. Xuddi shunday iqtisodiyotda ham firma, korxonalarining holati iqtisodiy ko'rsatkichlarni yig'ish, tahlil qilish orqali amalga oshirilib, chora-tadbirlar belgilanadi. Demak, buni ham tahlil fani bajaradi. Shuning uchun ham fan nomining kelib chiqishi ham «analiz» so'zi bilan bog'liq. Analiz, yunoncha analysis — ajratish ma'nosini ifodalaydi: 1. Obyektni xayolan yoki real bo'lakchalarga ajratish, bo'lish ma'nosida va sintez¹ bilan uzviy bog'liq holda ishlatiladi.

2. Ilmiy bilishning, tadqiqotning sinonimi.

3. Mantiqda — fikr yuritishning shakli, tarkibi, tartibi. O'zbek tilida analiz so'zi ma'nosiga yaqin, ana shu bo'lakchalarga bo'lishdan maqsadni, fikr yuritishni, tadqiqotni anglatadigan so'z tahlil tushunchasi ishlatiladi.

Yuz berayotgan jarayon, hodisalardan real xulosa chiqarish, ularga baho berish uchun, uni chuqur o'rganishimiz, sabablarini aniqlashimiz kerak. Buning uchun ularni, har bir faoliyatni turli jihatdan yondashib, qismlarga ajratib, barcha qirralarini o'rganishimiz zarur. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini tahlil qilmay iloji yo'q.

Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash, ahvoli tang bo'lib, bozorni tark etmaslik uchun o'z faoliyatini tahlil qilishi, qanday omillar ijobiy va qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash zarur. Bu olingan va ular asosida hisoblab chiqilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Ular asosida xulosa chiqariladi va qaror qabul qilinadi. Bularni esa iqtisodiy tahlil fani o'rganadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: demak, tahlilni bilish, bilibgina qolmay, to'g'ri xulosa chiqarish, baho berishga va ular asosida turli variantlar orasidan eng maqbulini topib, qaror qabul qilishni o'rganish uchun iqtisodiy tahlil fanini puxta o'rganish zarur.

Fanni puxta o'rganishda esa o'qitish metodlari muhim rol o'ynaydi. Avvalgi boblarda ko'rib chiqdik, o'qitish, o'rganish metodlarini tanlashda fanning xususiyatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

¹ Sintez (yunoncha — synthesis — birlashtirish) fikran yoki real obyektning turli elementlarini yagona bir butun(tizim)ga keltirishni bildiradi va analiz bilan chambarchas bog'langan.

Birinchidan, iqtisodiy tahlil fani eng avvalo iqtisodiyot nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiyotni bir butun holda, jamiyat miqyosida nazariy jihatdan o'rganisa, iqtisodiy tahlil fani mikromiqyosda amaliy jihatdan o'rganadi. Iqtisodiyotni jamiyat miqyosida o'rganishda iqtisodiyot nazariyasi fanidan tashqari statistika, makroiqtisodiyot va boshqa fanlar ham qatnashadiki, ular nazariy xulosa chiqarib, baho berish uchun zarur faktlar, dalillar, hisob-kitoblar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar. Iqtisodiy tahlil fani esa bevosita korxonalar, firmalar faoliyati miqyosida o'rganadi.

1. Mamlakat miqyosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

2. Korxonalar, firma va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar miqyosida esa mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil olib boriladi.

Ikkinchidan, tahlil fani statistika va marketing, menejment fanlari bilan ham bog'liq. Statistika fani mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisob-kitobini amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar va ularni qanday tarzda qo'llashga yordam bersa, marketing orqali bozor holati o'rganilib, korxonalar, firma miqyosida xulosa chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish, qaror qabul qilishda foydalaniladi.

Korxonalar, firma faoliyatini tahlil qilmay turib, boshqarib bo'lmaydi. Ichki va tashqi faoliyatni, ularga ta'sir qiladigan omillarni o'rganish asosida biznes reja tuziladiki, u istiqbolning yo'nalishini belgilaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu jihatdan menejment, marketing, iqtisodiy tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy bog'lanadi, bir-birini to'ldiradi.

Uchinchidan, tahlil qilish deganda biz doimo o'rganayotgan obyektimizni bo'laklarga, qismlarga bo'lish, taqqoslash, solishtirish, sintez qilishni tushunar ekanmiz, demak, voqea-hodisalarni statik hamda dinamik jihatdan o'rganamiz.

To'rtinchidan, tahlil fani iqtisodiy jarayon, voqea, hodisalarni yuz berishi, rivojlanishi, o'zgarishini obyektiv va subyektiv jihatlari, sabablarini o'rganadi, ya'ni tahlil dialektik metodga tayanadi. Dinamik o'rganish yetakchi rol o'ynaydi.

Beshinchidan, bu fanda taqqoslash, solishtirish asosiy o'rin tutadi. Chunki, tahlilning o'zi taqqoslashga asoslanadi. Shuning uchun ham fanni o'rganish metodlari haqida to'xtalganda birinchi navbatga taqqoslash qo'yiladi.

Oltinchidan, qo'yilgan maqsadga ko'ra, xo'jalik faoliyatini

tahlil qilish uchun bir-biri bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini qo'llash va bu ko'rsatkichlarni analitik jihatdan qayta ishlash amalga oshiriladi.

Yettinchidan, fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun asos qilib olingan tamoyillar va fanning o'ziga xosligini ifodalovchi prinsiplar mavjudki, ular iqtisodiy tahlil fanini o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi. Demak, iqtisodiy tahlil fanini o'rganish uchun samarali metodlarni tanlashda fanning ana shu xususiyatlarini hisobga olishimiz zarur. Shu bilan birga o'qituvchi fanni, mavzuni o'qitish uchun metod tanlar ekan, albatta, uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda predmetning o'zini o'rganishda qo'llaniladigan metodlarni ham nazardan qochirmasligi lozim.

Iqtisodiy tahlilda murakkab iqtisodiy **matematik metodlar**: korrelatsion-regression, logarifmlar, determinantlar, matritsalar, chiziqli programmashtirish kabilar bilan birgalikda oddiy hisob-kitoblarga asoslangan metodlar ham qo'llaniladi. Lekin u qandayligidan qat'i nazar, **tahlilda doimo ko'rsatkichlar taqqoslanadi**. Taqqoslash joriy yil ma'lumotlari bilan avvalgi yil ko'rsatkichlari, biznes reja ko'rsatkichlari, bozorda muvaffaqiyatli ish yuritayotgan xo'jalik ma'lumotlari, o'rtacha ko'rsatkichlar bilan, chet el mamlakatlari tajribasi va boshqalar bilan amalga oshiriladi.

Taqqoslashning o'z qonun-qoidalari bor. Bular: taqqoslanishi zarur ko'rsatkichlarning mazmunan bir xil usul bilan hisoblanishi; bir xil bahoda hisoblash va bir bahoga keltirish; o'rganiladigan davrlar bir xil bo'lishi; xo'jalik yurituvchi subyektning joylanishi va boshqa tabiiy omillarni hisobga olish; ularning ixtisoslashuvi, bir-biriga o'xshashliklarini hisobga olish; o'rganiladigan obyektlarning miqdori mos bo'lishi; mahsulot sifati; texnik xavfsizlik va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tadbirlarni hisobga olish; xo'jalik yurituvchi subyekt qanday mulkchilikka asoslanganini hisobga olish va boshqalar. Demak, o'qituvchi taqqoslanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni bir xil asosda bo'lishi lozimligini doimo o'quvchi-talabalarga uqtirishi lozim.

Taqqoslashni amalga oshirishda katta miqdordagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan hamda ularni solishtirish imkoniyati keng, tushunarli va ko'zga tashlanadigan metod, ularni jadvallarda ifodalash va jadval ma'lumotlarini taqqoslash asosida xulosa chiqarishdir. Undan tashqari jadval ma'lumotlari asosida turli diagrammalar, grafiklar ham chizish mumkin. Bunda mavjud axborotlarni jadval orqali ifodalashda statistik metodlar, uning

qonun-qoidalarini ham keng ravishda qo'llash mumkin.

Iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan metodlardan yana biri guruhlashtirish. Guruhlashtirish bu umumiy ma'lumotlarni qo'yilgan maqsadga ko'ra, alohida muhim belgilari va xususiyatlariga qarab, ma'lum bir guruhlariga ajratishdir. Ular maqsad, mazmuniga ko'ra tipologik, tarkibiy, omilli guruhlashtirishga ajratiladi. Guruhlashtirish metodini qo'llashning ham talablari bor. Bular: guruhlash belgisini to'g'ri tanlash; faqat bir tizimga kiruvchi ko'rsatkichlarni olinishi; ko'rsatkichlarning bir xil o'lchov va ushbu aniq qo'llanilishi; guruhlar orasidagi intervallarga diqqat qaratish; boshlang'ich va oxirgi guruh chegaralari aniq bo'lishi; guruh tuzish pastdan yuqoriga, kichik son dan katta songa qarab borishi va boshqalar. Ular tahlil natijalarini to'g'ri va aniq bo'lishiga, o'rganiladigan ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir etadigan omillarning tutgan o'rnini to'g'ri aniqlashga - qo'yilgan maqsadni ko'ngildagidek amalga oshirishga yordam beradi. Dars o'tishda ana shu jihatlarni albatta hisobga olish zarur.

Iqtisodiy tahlilda balansli bog'lanish metodidan ham keng foydalaniladi. Uni, ayniqsa, ko'rsatkichlar orasida funksional bog'lanishlar mavjud bo'lganda qo'llash muhim o'rin tutadi. U manba va uning taqsimlanishi (masalan, xo'jalikning yer fondi va uni taqsimlanishi, mehnat resurslari va ularni tarkibi kabilari), daromad, xarajatlar va boshqalarni o'rganishda qo'llash mumkin. Buxgalteriya balansi ham ushbu metodga asoslanib tuziladi. Odatda bu metod ko'rsatkichlarning bir-biri bilan funksional bog'liqligi yaqin bo'lganda to'g'ri natija beradi va uni qo'llash ijobiy sanaladi.

Iqtisodiy tahlil fanida statistika fanida keng qo'llaniladigan mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash metodidan ham foydalaniladi. U iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sish, o'zgarishini hisobga olishda ishlatiladi. Undan tashqari, o'rganilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'ridan-to'g'ri, takroriy aloqadorlikda, ya'ni funksional bog'lanishda bo'lsa, zanjirli bog'lanish metodi qo'llaniladi. Lekin tahlilda qanday metodni qo'llamaylik, xulosa chiqarish uchun albatta ma'lum darajada taqqoslashni talab qilinadi. Mavzu bo'yicha dars o'tish metodlarini tanlaganda albatta ana shularni ham hisobga olish zarur.

Iqtisodiy tahlildan maqsad tahlilni tashkil etish bosqichlari, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlilni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarini qo'llash, manbalar to'g'riligini tekshirish va ularga qo'yiladigan talablarni bilish naqadar muhimligini

o'rganishdir. Lekin dars o'tish metodi jihatidan yondoshsak, har bir talaba uchun eng muhimi, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishdir.

Har bir talaba tahlil natijalarini umumlashtirishi, unda o'z fikrini ifodalashi, erishilgan natijalarni asoslashi, xulosa chiqarishni, baholashni, takliflar berishni bilishi kerak. O'z fikrlarini qabul qilingan tartibda, tahlil nima maqsadda o'tkazilganiga qarab rasmiylashtirishni bilishlari zarur. Unga ko'ra, bayonnoma qanday tarzda yozilishi aniqlanadi. Demak, tahlil fanidan dars o'tishda o'quvchitalabalarning o'z fikrlarini bayon qilishga asoslangan metodlar, chunonchi, yozma ish, esse, nazorat ishi yozish kabi metodlarni tez-tez qo'llash foydadan xoli emas.

Tahlilni axborot bilan ta'minlashda bosh rolni buxgalteriya hisobi va hisoboti o'ynaydi. Chunki, xo'jalikning barcha faoliyati, uning natijalari aynan buxgalteriya hisobi va hisobotida aks etadi. Asosiysi, ana shu axborotlarni qo'yilgan maqsad bo'yicha qayta ishlash va ular asosida xulosa chiqarishni o'rganishdir.

Har qanday fanni shakllanib, vujudga kelishi obyektiv zaruriyat tufayli yuz berganidek, iqtisodiy tahlil fanini vujudga kelishi ham obyektiv zaruriyat, avvalo, iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi sabab bo'lgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nima ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarishni har bir korxonaga, firma o'zi hal qilar ekan, bunda ular, eng avvalo turli axborotlarga, ularni o'rganishga tayanadilar. Ularning kelajagi ana shu axborotlarni o'rganib, xulosa chiqarishlari va qanday qaror qabul qilishlariga bog'liq.

Shunday ekan, *iqtisodiy tahlil* fanini yoshlarga *o'rgatish* bozor iqtisodiyotini yanada rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda, fanni o'rganishda uning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli metodlardan foydalanish *maqsadga* muvofiqdir. *Iqtisodiy tahlil fani ko'rib o'tganimizdek* korxonaga yoki firmaning faoliyatini *tadqiq qilib*, o'zgarishlar, natijalar asosida qaror qabul qilishni o'rgatadi. Iqtisodiy faoliyatni o'rganib, uni *tahlil* qilib xulosa chiqarishni *o'rgatishda* faning xususiyatlariga mos keladigan metod — bu SWOT analiz metodidir. Bu metod birinchidan sodda ko'rinishga ega, ikkinchidan, *tahlil* natijalarini samaradorligini ta'minlashi bilan ajralib turadi.

Bosh harflari inglizchadan S (strengths - kuchli taraflari), W (weaknesses-ozjizlik tomonlari), O (opportunities-imkoniyatlari), T

(threats—xavf-xatar, tahdid ma'nolarini anglatuvchi) olingan SWOT analiz metodi xohlagan korxonaga yoki firmaning faoliyati *tahlil* qilishda hamda *o'quvchi*, talabalarni mustaqil fikrlashga, taqqoslashga, qaror qabul qilishga o'rgatadigan va tahlil fanining xususiyatlariga juda mos tushadigan metoddir. Korxonani ushbu metod orqali tahlili natijalari kelajakda strategik rejalar va marketing rejalarini tuzishda ishlatiladi. Kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilishda asosan korxonaga yoki firmaning ichki holatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Korxonadagi vaziyatni to'la o'rganish uchun uning tarkibiy qismlari faoliyatini o'rganish zarur. Sababi, har bir tarkibiy qism korxonaga faoliyatida asosiy rol o'ynashi mumkin. Korxonaning tarkibiy qismiga marketing, moliya, ishlab chiqarish va kadrlar boshqaruv faoliyati kiradi. Korxonaning strategik yo'nalishini belgilashda imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniq tasvirlash shart bo'ladi. Ojiz taraflarini iloji boricha haqqoniy, obyektiv ravishda ko'rsatish zarur, chunki ularni kamaytirish uchun haqiqiy holatni bilish kerak bo'ladi. Korxonaning imkoniyatlarini aniqlashda uning boshqaruvchilarining siyosati va jamoaning munosabatini *hisobga* olish shart.

Ushbu metoddan foydalanishda jadval tuzib olinadi hamda 4 ta guruh bo'yicha ko'rsatkichlarni ustun bo'yicha joylashtirib chiqiladi. So'ng shu ko'rsatkichlarga tegishli bo'lgan tomonlari yoziladi. Misol uchun, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan «Roi-son» firmasi asosida SWOT (analiz) *tahlil* o'tkazamiz. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

Korxonaning kuchli, ya'ni ustun taraflari	Korxonaning imkoniyatlari
<ol style="list-style-type: none"> 1. Tariqli savdo markasi; 2. Rossiya korxonalari bilan shartnomalar mavjulligi; 3. O'z ishlab chiqarish maydoni, do'konlari va xizmat ko'rsatish markazlari mavjudligi; 4. Xaridorlar bilan ishlash tajribasi borligi; 5. Mahsulot ishlab chiqarish tizimining shakllanganligi; 6. Savdo bo'limining bozor sharoitiga moslashganligi; 7. Firmaning tajribali menejerga 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xizmat ko'rsatishni yaxshilash; 2. Ishonchli mijozlarni ko'paytirish; 3. Boshqa korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, ulardan imtiyozlar olishni kuchaytirish; 4. Rentabellikni oshirish, xarajatlarni tejash mumkinligi; 5. Texnikani ijaraga hamda lizingga olishni rivojlantirish; 6. Yangi loyihalar ustida ishlash.

ega ekanligi. Xaridorlar bilan ishlash tajribasi mavjudligi.	
Korxonaning o'jiz taraflari	Tashqi xavf-xatar, tahdidlar
1. Sifat darajasining pastligi; 2. Malakali mutaxassislarining yetishmasligi; 3. Firmada pul aylanish jarayonining sustligi; 4. Kadrlar qo'nimsizligi (2007-yilda ~20 %).	1. Dollar kursining beqarorligi (Rossiya korxonalari bilan hisob-kitob dollarda bo'ladi); 2. Eksport mahsulotiga talab kamayib borayotganligi.

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, SWOT tahlili korxonaning bugungi taraqqiyot darajasini aniq ko'rish va kelgusi faoliyat uchun kerakli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. *Iqtisod* yo'nalishini tanlagan xar bir talaba SWOT *tahlilini* mukammal *o'rganishi* va keyinchalik o'z faoliyatida ko'llay bilishi zarur. SWOT *tahlili*, shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlashga va har bir korxonaning bugungi ahvolini ko'ra bilishiga yordam beradi.

Ushbu metodni qo'llashda talabalarni mustaqil ishlashini tashkil etish ham mumkin. Bunda talabalar o'zi xohlagan tashkilotni *tahlil* qilib, o'zlarini xulosalarini berishlari kerak bo'ladi. So'ngra shu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi boshqa korxonalar bilan solishtirishi mumkin. Agar guruhda talabalar soni ko'p bo'lsa, ularni kichik guruhlariga bo'lish asosida bir turdagi tashkilotlarni *tahlil* qilishlari mumkin.

SWOT *tahlili* metodini qo'llashning afzallik tarafi shundaki, bunda talabalar individual ishlashni hamda guruhda ishlashni *o'rganadi*.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanini o'rganishda yuqorida ko'rib o'tgan barcha metodlarimizni fanning va uni o'rganishning xususiyatlariga ko'ra moslashtirish mumkin. Ayniqsa, konseptual jadval, semantik jadval, T-sxema, SWOT analiz, masala-mashq, test, esse yozish, namoyish qilinuvchi va tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish, Venn diagrammasi, tadqiqot, munozara, aqliy hujum, keys stadi metodlarini qo'llash keng imkoniyatlarga ega.

2-§. «Audit» fani va uni o'qitish metodikasi

Iqtisodiy faoliyatda barcha darajadagi axborotlar, yuqorida aytib o'tganimizdek, buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asoslanadi. Buxgalteriya hisobi va hisobotida chalkashliklarga, xatolarga yo'l

qo'yish, xohish-maqсадlarimizni boshqalar tomonidan reallik tarzida qabul qilishlariga urinish, noto'g'ri axborot berish va boshqalar, albatta chiqargan xulosamiz va qabul qilgan qarorimizni noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Buning natijasida:

➤ Xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolishi yoki inqirozga yuz tutishi;

➤ shu xo'jalik yurituvchi subyekt bilan hamkorlik qiluvchilar noqulay ahvolga tushib qolishi;

➤ xo'jalik yurituvchi subyektning investorlari, kreditorlari katta zarar ko'rishlari;

➤ boshqa axborotdan foydalanuvchilar manfaatiga putur yetishi, masalan, sun'iy ravishda bankrotlik holatiga olib kelib, turli majburiyatlardan qochish holatlari yuz berishi mumkinki, ularning hammasi axborotlarning haqqoniy bo'lishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu maqsadga qanday erishish mumkin? Buning uchun:

* iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimga ega bo'lish;

* ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt, dalil, axborot va materiallar kerak;

* bunday bilim va malakaga ega bo'lgan shaxs xolis, mustaqil, insofli bo'lishi va uning faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, haqqoniy bo'lish uning manfaatiga mos kelishi zarur.

Insoniyat bu muammoning yechimi sifatida auditorlik xizmatini o'ylab topdi va ana shunday xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan audit fani shakllandi. Tarixiy manbalarga asoslangan holda, professor P. I. Камышанов auditorlikni taxminan eramizdan oldingi 200-yillarda shakllana boshlaganini e'tirof etadi. Markazlashgan davlatchilikning barpo bo'lishi hamda rivojlanishi natijasida mamlakatni boshqarish uchun haqqoniy hisob, nazorat va moliya ishlariga zaruriyat kuchaygan. U paytlarda kvestorlar, ya'ni Rim imperiyasi davrida moliya va sudlov ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxslar joylardagi hukumat buxgalterlari ustidan nazorat qilib tunganlar. Kvestorlarning hisobotlari Rimga yuborilib, imtihon qiluvchilar tomonidan eshitilgan. «Auditor» lotinchada «auditing» - aynan tarjimasida «u eshitayapti», «eshituvchi» degan tushuncha ana shundan kelib chiqqan¹.

¹ Камышанов П. И. Практическое пособие по аудиту. М.: Инфра-М, 1996, стр. 7.

Demak, «Audit» tushunchasi lotinchadan kirib kelgan bo'lib, haqqoniy hisobot yuritishni, buning uchun hukumat buxgalterlari ustidan nazorat qilishni imtihon qilish, ularni eshitish orqali amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Yevropada XVII asrda aksiyalarning vujudga kelishi, natijada aksiyadorlik kompaniyalarining o'z aksiyadorlari, kreditorlar, soliq xizmati xodimlari o'rtasida munozarali masalalarning tez-tez kelib chiqishi, ularni hal qilib beruvchi mutaxassis, xolis va haqqoniy axborotga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu ehtiyoj yanada ortib, oxir-oqibat hozirgi darajadagi tashkiliy-huquqiy infratuzilmalariga ega bo'lgan audit institutlari shakllanib, faoliyat yuritishiga olib keldi.

Audit mamlakatimizdagi xo'jalik faoliyatini nazorat va iqtisodiy tahlil qilishning nisbatan yangi yo'nalishidir. Agar G'arb mamlakatlariida audit 150 yildan buyon ma'lum bo'lsa, O'zbekistonda esa mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida shakllana boshladi.

Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, auditorlik milliy andozalari hamda Moliya vazirligining qator qarorlari, yo'riqnomalari ishlab chiqildi. Bu me'yoriy hujjatlarda xalqaro audit andozalarini chuqur o'rganib, milliy iqtisodiyotimizni xususiyatlarini hisobga olingan.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining birinchi (yuqori) pog'onasida O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) turadi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi qaroriga muvofiq qabul qilingan bo'lib, 29 moddadan iborat.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan hukumat qarorlarini ham ushbu tizimning birinchi pog'onasiga kiritish mumkin. Jumladan, 22-sentabr 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida» Qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq «Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risidagi Nizom», «Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to'g'risidagi Nizom» va

«Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan.

Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliya-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan tegishli auditorlik tashkiloti albatta jalb qilingan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javob beradi.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining ikkinchi pog'onasi – auditorlik faoliyatining milliy standartlarini (AFMS) va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) – bu barcha auditorlik tashkilotlari o'zlarining professional faoliyatlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan yagona asosiy tamoyillardir. Standartlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida Buxgalteriya hisobi, hisoboti va audit uslubiyoti boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilib tasdiqlanadi va Adliya vazirligida ro'yxatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati Milliy Standartlari (AFMS) Auditning Xalqaro Standartlari – AXS (International Standards of Auditing – ISAs) negizida ishlab chiqiladi va asosan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish qoidalarini belgilaydi. Bu qoidalar moliya-xo'jalik faoliyatining barcha subyektlarida bir xil qo'llaniladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifatini va uning natijalari ishonchliligini kafolatlaydi.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishida professional jamoat tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Republikamizda *O'zbekiston buxgalterlar va auditorlarining milliy assotsiatsiyasi (O'BAMA)*, *O'zbekiston Auditorlar Palatasi (O'AP)* ning faoliyati katta ahamiyatga ega.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 9-moddasida, auditorlik tekshiruv moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirish ekanligi, tekshirish: majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o'tkazilishi ta'kidlangan. Qonunning 10-moddasida esa muvofiq faoliyat turiga ko'ra qaysi iqtisodiy

subyektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi kerakligi ko'rsatilgan.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, mud-datlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkilotlari o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi. Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi odatda, xo'jalik yurituvchi subyektning qaroriga, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra o'tkaziladi. Undan tashqari, auditni tavakkalchilikka asoslangan, tizimli yo'naltirilgan, moliyaviy hisobot auditi mavjud.

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan xususiylashtirilgan va aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan ko'plab sobiq davlat korxonalari maxsus idoraviy davlat nazorat organlari tomonidan tekshirilishi barham topdi. Shuningdek, mulkchilik va munosabat-larning yangi turlari hisob obyektlariga aylandi.

2. Mulk egalari, investorlar va aksiyadorlarning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining ahvoli to'g'risidagi xolis axborotlarni talab qilishlari, shuningdek, buxgalter xodimlarning beqarorligi, ya'ni o'zgarib (almashlanib) turishi, ular malakasining pastligi va boshqalar.

3. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va islohotlarning chuqur-lashtirilishi munosabati bilan me'yoriy hujjatlarning tez-tez o'zgarib turishi va yangilarining qabul qilinishi va h. k. Bunday muammolar bilan to'qnashayotgan korxonalarda malakali auditorlik xizmatlariga ehtiyoj kuchayib, ularning rahbarlari mustaqil auditorlik tashkilot-lariga yordam so'rab, murojaat qilishadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi to'liq (kompleks) o'tkaziladi. Tashabbus tarzidagi, ya'ni ixtiyoriy audit esa to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 15-moddasiga muvofiq auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki hu-quqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan, ular o'rtasida xo'jalik yurituvchi subyektlar-

ning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan ham o'tkaziladi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvini belgilagan organ hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlari (tergov organlari, sud va arbitraj sudi) xo'jalik yurituvchi subyektlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga topshiriq berishlari mumkin.

Auditorlik tashkilotlari majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni, uning 17-moddasida va N 90-«Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari» nomli auditorlik faoliyati milliy standarti (AFMS)da ko'rsatilganidek, istalgan professional xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin.

Auditorlik faoliyati va auditorlik kasbining ta'rifi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasida quyidagicha keltirilgan: Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va ushbu qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.¹

Keltirilgan professional xizmatlar ro'yxati kengaytirilishi va to'ldirilishi mumkin,

Audit boshqa nazorat turlaridan o'zida tadbirkorlik faoliyatini mujassamlashtirgani va mustaqilligi bilan ajralib turadi. Bu uning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

O'zbekistondagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining auditorlik faoliyatini amalga oshirishi qonun bilan taqiqlangan.

Auditning asosiy maqsadi — moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini, ularning O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va boshqa me'yoriy hujjatlarga nechog'lik mosligi, ularning to'la-to'kisligi, aniq-ravshanligi, buxgalteriya hisobi yoki boshqa moliyaviy hisob yuritishga qo'yilayotgan talablarga javob bera olishini aniqlashdan iborat.

¹ Auditorlik faoliyati to'g'risida qonun (Yangi tahriri). Xalq so'zi gazetasi, 26 may, 2000-y.

Auditorlik faoliyati



Audit fanining xususiyatlari Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun, faoliyatning maqsadi va vazifalari tavsifidan kelib chiqib, **audit fanining predmeti** bu — xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarining to'g'ri yuritilishi, ularni qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarga mosligi, talabga javob berishini tekshirish va qonunda belgilangan boshqa xizmatlar ko'rsatishni o'rganishdir, deb aytish mumkin.

Auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ustidan maxsus vakolat olgan davlat organlari nazorati o'rnini bosa olmaydi.

Audit maxsus iqtisodiy fanlar jumlasiga kirib, u ham buxgalteriya hisobi kabi amaliy fandır.

Audit fani, **birinchidan**, o'z predmeti bilan boshqa iqtisodiy fanlardan katta farq qiladi. U auditning funksiyalarida ham o'z ifodasini topadi. Bular: ekspertlik tekshiruvi, tahlil qilish, maslahat berish, xizmat ko'rsatish bo'lib, axborot riskini kamaytirishga yo'naltirilgan.

Ikkinchidan, fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda audit faoliyatini o'rganishda turli metodlar qo'llaniladi.

Audit fani buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli har ikki fanning predmetini o'rganishda qo'llaniladigan metodlar borki; bir tomondan ulardan foydalanishda o'xshashlik, ikkinchi tomondan farqlar mavjud. Masalan, inventarizatsiya, hujjatlashtirish, ikki yoqlama yozuv, buxgalteriya schyotlari, kalkulyatsiya, balans metodlari buxgalteriya hisobini o'rganishda, taqqoslash, ilmiy taxmin, tahlil va sintez iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Lekin bu metodlarni auditda qo'llashning katta farqi bor. Unda bu metodlarni qo'llash eng asosiy maqsad axborotni, hujjatlashtirishni, bajarilgan operatsiyalarning to'g'riligini tekshirishga, aniqlashga qaratilgan.

Uchinchidan, audit fanining o'ziga xos metodlari bor. Ulardan biri, taftish qilish metodidir. Bu metod korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalarni tasdiqlovchi nazoratdan o'tkazilishini ifodalaydi.

Ekspertiza o'tkazish metodida esa hujjatlarning realligi, mahsulotning sifat ko'rsatkichlari laboratoriyada tekshirish yo'li bilan aniqlanadi. Bulardan tashqari, auditor tekshirish jarayonida statistika fanining predmetini o'rganishda qo'llaniladigan metodlardan hamda qabul qilingan umumiy metodlardan tashqari auditor uchun ma'qul, boshqalar uchun «tijorat siri» bo'lgan metodlardan ham foydalanishi mumkin. Metodlarni qo'llash auditning turi, maqsadi, vazifalariga bog'liq.

To'rtinchidan, auditorlik tekshiruvini yuqori saviyada va muvaffaqiyatli o'tkazish uchun nazorat metodi va metodologiyasini to'g'ri qo'llash, ilg'or tajriba, yutuqlardan foydalanish lozim.

Har bir auditorlik tekshiruvi vaqti cheklangan. Demak, auditor tekshirish maqsadini to'g'ri va aniq belgilashi, obyektlarni xatosiz tanlab olishi, o'z harakatlarini aniq rejalashtirishi, samarali auditorlik operatsiyalarini qo'llashi va haqqoriy xulosa chiqarib berish uchun kerakli bo'lgan dalillarni tanlashi lozim.

Ma'lum bir auditorlik tekshiruvi maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun audit o'tkazish jarayonini asosiy bosqichlari bajarilishini ta'minlash kerak.

Audit o'tkazish texnologiyasini asosiy bosqichlari haqida yagona fikr yo'q. Lekin ko'pchilik audit fanidan dars beruvchi o'qituvchilarning fikriga ko'ra uni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishga tayyorlanish va uni o'tkazishni rejalashtirish:

- * mijoz bilan tanishish;
 - * mijoz bilan o'zaro majburiyatlar va uning talablari aniqlanadi, kelishiladi;
 - * munosabatlar shartnoma va majburiyat xati orqali rasmiylashtiriladi;
 - * auditorlik guruhi tarkibi aniqlanadi;
 - * mijozning xo'jaligida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi o'rganiladi, baholanadi;
 - * bo'lajak tekshiruvning moddiylik darajasi aniqlanadi;
 - * auditorlik riski baholanadi;
 - * tekshirishning umumiy rejasi va dasturi tayyorlanadi.
2. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishning asosiy bosqichi:
 - * zarur bo'lgan barcha axborotlarni, hisobotlarni to'plash;
 - * xo'jalik faoliyatida amalga oshirilgan aloqalarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri aks etganini aniqlash;
 - * olingan axborotlar ustida ishlash, tahlil qilish;
 - * natijalar bo'yicha xulosa chiqarish va baholash.
 3. Auditni yakunlash bosqichi:
 - * ishchi hujjatlar tayyorlashni yakunlash;
 - * xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati nomiga audit natijalari to'g'risida yozma ma'lumotnoma tayyorlash;
 - * qabul qilingan shakl bo'yicha auditorlik xulosasi tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Tekshirilayotgan xo'jalik ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash, auditorlik hisobotlarini to'plash birinchi bosqichda, audit rejasi va dasturi ish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Hujjatlashtirish esa barcha bosqichda amalga oshiriladi va tekshirish yakunida tugallangan shaklga ega bo'ladi.

Beshinchidan, auditni biznesni o'ziga xos ekspertiza qilish deb ta'riflash mumkin. Ko'pchilik korxonalarda tashqi audit bilan birga ichki audit ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ishlab chiqarish xarajatlarining darajasi, rentabellik, tejamkorlik, maqbul rejimga rioya qilish va ko'rsatiladigan xizmatlarning yuqori sifatlilikligi ustidan nazorat qiladilar.

Firmalarning, shu jumladan, auditorlik firmalarining ham bozorda mustahkam o'rin topishida ularning mahsulot (ish, xiz-

mat)larining sifati muhim ahamiyatga ega. Bu borada ichki auditni muvaffaqiyatli tashkil etish har ikki tomon uchun ham manfaatli. Jahonga dong'i ketgan transmilliy korporatsiyalarning shu darajaga yetishida ichki auditning ham roli bor.

Oltinchidan, audit tekshiruvini o'tkazishda markazda auditor turadi. Demak, audit fanini o'rganishda ham markazda auditor turadi. Hech qaysi iqtisodiy fanni o'rganishda mutaxassisga bu qadar alohida e'tibor qaratilmaydi. Bu jihatdan auditor yagona va audit fani boshqa fanlardan ajralib turadi.

Auditorning, auditorlik kasbining alohida diqqat qaratish lozim bo'lgan muhim xususiyatlarini inobatga olib, 18-moddadan iborat «O'zbekiston auditorlarining kasbga oid axloq kodeksi» ishlab chiqilib, 2005-yili qabul qilindi. Unda auditorlik kasbining axloqiy me'yorlari, uning tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan mustaqillik, puxta bilimga egalik, halollik, vijdonlilik, haqqoniylik va sir saqlash kabi xalqaro prinsiplari negizidagi loyiha moddalarida o'z ifodasini topgan.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida buxgalter-auditor mutaxassisligini tanlaganlar uzoq yillar o'qish, ko'p amaliyot o'tkazish hamda ko'p sonli imtihon va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish talab qilinadi. Auditor mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, me'yoriy hujjatlarni, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilni chuqur bilishi lozim. Chunki, bilim va tajribaga ega bo'lgandagina boshqalarni tekshirish, to'g'ri xulosa chiqarish, zaruriy maslahat berish mumkin. Bunday malakaga ega bo'lish uchun o'z ustida tinmay ishlash, izlanish, boshqalar tajribasini o'rganish zarur.

Bu kasb bilan shug'ullanuvchilarni birlashtirib turuvchi tashkilotlar — auditorlar palatalari ularning ish sifatini doimo nazorat qilib boradi. Auditorni palatadan chiqarilishi uni bu kasb bilan shug'ullanishini to'xatilishini bildiradi.

O'zbekistonda bunday vakolatga Moliya vazirligi ega bo'lib, faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya berish va uni bekor qilish shu vazirlik zimmasidadir.

Auditor uchun eng noxush hol u tekshirib, ijobiy auditorlik xulosasini yozib bergach, to'satdan korxonaga o'zini «bankrot» deb e'lon qilishidir. Bunda uning maqei tushib ketadi, hatto litsenziyasidan mahrum bo'lishi mumkin. Shuning uchun u auditorlik tekshiruvini asosida kelajakda korxonaga o'z faoliyatini to'xtatishi yoki qisqartirish maqsadi, majburiyatlari yo'qligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Korxonani yashovchanligini aniqlashda quyidagi ko'r-

satkichlarni tahlil qilish kerak: korxonaga «xarajatlar — foyda — hajm» ko'rsatkichlarining nisbati, realizatsiya hajmining o'zgarishlari, samaradorlik, likvidlik ko'rsatkichlari, foyda normasi, debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyenti va boshqalar.

Agar tekshiruvlar davomida bu ko'rsatkichlar me'yorlari buzilmagan bo'lsa, auditor ijobiy xulosa berishi mumkin. Agar aksi bo'lsa, auditor buni kamida alohida bandda ko'rsatishi zarur.

Korxonani bankrotlikka tushib qolishi sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- majburiyatlarni o'z vaqtida qoplay olmaslik;
- xo'jalik faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lish.

Auditor korxonani yashovchanligini tekshirish jarayonida korxonaga ma'muriyatiga maslahat sifatida xo'jalik faoliyatini yaxshilash, to'lov qobiliyatini hamda likvidli mablag'larni salmog'ini oshirish uchun zarur qilmaydigan darajada korxonaga aktivlarini bir qismini sotish, zarur vositalarni birdaniga sotib olmay, bir qismini ijaraga yoki lizingga olish kabi tavsiyalar berishi mumkin.

Organilayotgan korxonani yashovchanligi darajasini baholash uchun auditor:

- Korxonaga, tashkilotda moliyaviy holatni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni yomonlashuvi ehtimoli bormi yoki yo'qmi? Agar yo'q bo'lsa, uni to'satdan paydo bo'lib qolish xatari qanday?

- To'satdan korxonaning ahvoli yomonlashib, bankrot bo'lib qolish xavfining reallik darajasi qanaqa? Bunday holatdan chiqib ketishning korxonaga uchun biron yo'li, chorasi bormi?

- Bu muammoni auditorlik xulosasida qanday aks ettirish kerak bo'ladi? — degan savollarga ijobiy javoblar olinsa, korxonaning moliyaviy hisobotlari va uning holati haqida ijobiy xulosa chiqarishi mumkin.

Auditor xulosasini ma'lum qilinishi qarz berish, investitsiya qo'yish, qo'ymaslik, uning aksiyalarini sotib olish yoki olmaslik haqidagi savollarga umumiy javob bo'ladi.

Auditorlar korxonalarining yashovchanligini aniqlashda ikki xil yondashishlari mumkin:

1. Aktiv. Agar korxonaning holati va uning istiqboli moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun o'ta zarur bo'lsa, bunday holda tekshirilayotgan korxonaning yashovchanligini aniqlash uchun kerakli axborot materiallarni izlab topish audit o'tkazish dasturiga alohida kiritiladi.

2. Passiv. Auditor oddiy tekshiruv jarayoni o'tkazish va faqatgina tegishli omillar ko'zga tashlanganda yoki bunday xatar bo'yicha ogohlantirilgandagina e'tibor bilan yondashadi.

Auditorning o'z mijozlariga kafolati, mijozning:

1. Davlat, boshqaruv, moliya va nazorat organlari oldida kelgusida xo'jalik yuritish imkoniga kafolat.

2. Ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi kafolati.

3. Mahsuloti (tovar, xizmatlari) iste'molchilari oldidagi kafolati;

4. Xo'jalik yurituvchi subyektning egalari, ya'ni aksionerlar va boshqalarga kafolati.

5. Ommaviy matbuot vositalari oldidagi kafolatidir.

Auditorlik xatarini kamaytirishning muhim vositalari korxonalar moliyaviy hisobotlaridagi xatoliklarni to'g'ri tasniflash va baholashdir. Ushbu xatoliklarni ikki guruhga ajratish mumkin:

a) moliyaviy sanksiyalar sifatida salbiy oqibatlariga olib keluvchi xatoliklar;

b) nomoliyaviy sanksiyalar sifatida salbiy oqibatga olib keluvchi xatoliklar.

Birinchi xatoliklarga korxonalarining ijobiy auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlarini davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar orqali aniqlangan xatoliklar kiradi. Bu xatoliklarning aksariyati soliq va majburiy to'lovlar hisob-kitoblari bilan bog'liq. Bunday holat berilgan ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan moliyaviy hisobotni davlat organlari va boshqa foydalanuvchilar uchun yaroqsizligini bildiradi. Demak, undagi ma'lumotlar real emas, amaldagi qonunlar buzilgan.

Auditor mamlakatdagi mavjud qonunlarni, me'yoriy hujjatlardan tashqari jahon amaliyotida qo'llanilayotgan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ham bilishi zarur.

Xorijiy mamlakatlarning nazorat amaliyotidagi ijobiy tajribalarni o'rganish va yoyish maqsadida 1953-yili BMT qoshida nodavlat tashkiloti — *Oliy Nazorat Organlarining Xalqaro Tashkiloti* (INTOSAI) tuzilgan.

Barcha auditorlik firmalari, xizmatlari o'z faoliyatlarida «*Xalqaro audit normalari va qo'shimcha ishlar Nizomi*» dan foydalanadilar.

Shunday qilib, audit fanini puxta o'rganib, auditor bo'lish uchun a) buxgalteriya hisobini yaxshi bilishi, bilimint amaliyotda sinagan bo'lishi; b) tegishli barcha huquqiy va me'yoriy hujjatlarni bilishi; d) amaliyotda eng ko'p yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xato-

larni bilishi, xatoni tovlamachilik va hiylagarlikdan farqlashi; e) tekshiruv natijalarini asosida to'g'ri xulosa chiqarib, tavsiyalar berishi va uni qabkl qilingan qoida bo'yicha yozma ravishda bayon qilib, rasmiylashtirishni bilish kerak.

Fanni o'rganish uchun metodlar tanlash va topshiriqlar tayyorlashning xususiyatlari

Audit fanining xususiyatlari albatta fanni o'rganish metodikasida ham o'z ifodasini topadi.

Dars jarayonida o'qituvchi bir tomondan, audit fanni predmetini

o'rganish metodlariga diqqat qaratsa, ikkinchi tomondan, ularni metodik jihatdan qo'llashga ahamiyat berishi zarur. Ayniqsa, fan tekshirish o'tkazish va xatolarni aniqlashni o'rganishga qaratilar ekan, dars o'tish metodlarini tanlashda ana shu jihatlarga alohida ahamiyat berish zarur.

Eng avvalo, auditorlik amaliyotida buxgalteriya hisobi yuritishda eng **ko'p uchraydigan xatolarni aniqlash** va dars jarayonida ularga ahamiyat berishi talabalar diqqatini qaratishi zarur. Ma'lumki, yo'l quyilgan xatolar ikki xil bo'lishi mumkin: 1. Bilmay, o'ylab ko'rmay, bexosdan qilingan xatolar; 2. Ataylab, avvaldan rejalashtirib qilingan xatolar.

Birichisini odatda **tovlamachilik, hiylagarlik** sifatida qaraladi.

Hisob va hisobotda tovlamachilik - korxonah rahbariyati va xodimlari tarkibidagi bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan atayin hisob va hisobot ma'lumotlarining noto'g'ri aks ettirish va taqdim etishidir. U hiylagarlik bilan hisob yozuvlarini o'zgartirish va dastlabki hujjatlarni, registrlarni va hisobotni qalbakilashtirishdan, xo'jalik operatsiyalar ma'nosini buzib ko'rsatishga, korxonah hisob siyosati yoki amaldagi qonunchilik bilan belgilangan qoidalarni buzishga olib keluvchi hisobdagi yozuvlarni atayin o'zgartirish, aktivlarni, yozuvlarni to'g'rilangan natijalarini yoki hujjatlarni atayin o'zgartirilgan holda baholashdan iborat.

Hisob yozuvlari yuzasidan **hiylagarlik** — hisob va hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish maqsadmda, noto'g'ri (noaniq) buxgalteriya o'tkazmalaridan yoki «storno» yozuvlardan bilib turib foydalanish. Buxgalteriya hisobi va yozuvlarni **qalbakilashtirish** — bilaturib buxgalteriya hisobining noto'g'ri yoki sohta hujjatlarni (avizo, hisobvaraqlar, veksellar va hokazolar) va haqiqatni buzib ko'rsatadigan buxgalteriya hisobi hisobvaraqlaridagi yozuvlarni rasmiylashtirishdir.

Hisob yozuvlarida va guruhlarda arifmetik yoki mantiqiy xatolar, hisob to'liqligiga e'tiborsizlik va xo'jalik faoliyati holatlari, mol-

mulkning mavjudligi va holati, hisob-kitoblar noto'g'ri taqdim etilishi natijasida moliyaviy ma'lumot bexosdan buzilishi **xato** hisoblanadi.

Auditor tovlamachilik yoki xato aniqlangan taqdirda ular kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan barcha savollarga korxonah rahbariyati va xodimlaridan javob olishi lozim. Demak, auditor uchun tovlamachilik bilan xatoni farq qilish muhim hisoblanadi. Fanni o'rganish bo'yicha metodlar tanlaganda va topshiriqlar tayyorlashda bularni hisobga olish zarur.

Ikkinchidan yo'l qo'yiladigan asosiy xatolarni aniqlash lozim.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazish vaqtida aniqlanadigan xatolarning asosiy turlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Hisob yuritishdagi xatolar:

A) Hisob yuritilmaslik – odatda korxonah *quyi* bo'limi yoki faoliyatining qaysidir bir turi bo'yicha buxgalteriyada tegishli hisob olib borilmasligi bilan ifodalanadi.

B) Tasodifiy xatolar:

– nihoyatda kam uchraydigan arifmetik xatolar, chunki, buxatolarni, odatda, buxalterning o'zi aniqlaydi;

– xo'jalik faoliyatining qaysidir bir holatini hisobga olishda hisobning to'g'ri usulini qo'llab, noto'g'ri o'tkazma berish;

– takrorlanadigan xatolar.

2. Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini bilmaslik bilan bog'liq xatolar. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari:

– Ustav kapitalini noto'g'ri hisobga olish;

– foydadan soliq va yig'implarni to'lash uchun foydalaniladigan hisobvaraqlar o'rniga **foydalar** va zararlar **hisobvaraqlaridan** foydalanish;

– sotib olinadigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, asbob-uskuna va xo'jalik jihozlari, materiallar, tovarlar va boshqa aktivlarni hisobvaraqlar rejasi bilan ko'zda tutilgandan **boshqa hisobvaraqlarga** kiritish.

3. Soliq qonunchiligini bilmaslik bilan bog'liq bo'lgan xatolar: belgilangan me'yorlar miqdoridan yuqori bo'lgan xizmat safari bo'yicha xarajatlar, shaxsiy avtotransportdan foydalanligi uchun badal haqi, reklama, o'qitish, vakillik xarajatlari, bank kreditlari bo'yicha hisoblangan foizlarni xarajatlarga belgilangan me'yorlar miqdorida o'tkazish o'rniga **to'liq** o'tkazish. Ushbu turdagi xatolarni bevosita bo'lak hisobotlarni tekshirib yoki me'yorlangan xarajatlar va ularni tannarxga kiritish bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni talab qilib va tekshirib aniqlash mumkin.

Soliqlar va majburiy to'lovlarni **noto'g'ri hisoblash**: ko'pchilik hollarda bu bandlik jamg'armasiga to'lovlar, reklama uchun soliq, hamkorlik faoliyati shartnomalariga asosan olingan mablag'lar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga taalluqlidir.

Bundan tashqari, har bir mavzuni o'rganish jarayonida ham o'qituvchi eng ko'p sodir etiladigan xato va kamchiliklarga e'tibor berishi kerak. Masalan, «Ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar»da:

- * dastlabki kirim hujjatlarining yo'qligi yoki ular belgilangan tartiblarga rioya qilmagan holda rasmiylashtirilishi;

- * xarajatlarning ayrim turlari mahsulot tannarxiga noto'g'ri o'tkazilishi;

- * tugatilmagan ishlab chiqarish qoldiqlari noto'g'ri baholanishi;

- * xarajatlar hisob davrlari bo'yicha noto'g'ri ajratilishi;

- * xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash bo'yicha usul va uslublar hisob siyosatida aks ettirilgan uslublarga nomuvofiqligi;

- * ayrim turlardagi xarajatlar asossiz hokim tannarxga kiritilishini ko'rsatish mumkin.

Yoki «Moliyaviy natijalarni shakllantirish va foydadan foydalanish» bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini auditorlik tekshiruvida odatda, yo'l qo'yiladigan xatolar ko'pincha quyidagilardan iborat bo'ladi:

- * moliyaviy xarajatlar tarkibiga *soliq* va boshqa nazorat qiluvchi idoralar tomonidan qo'llangan jarima summalarini kiritish;

- * boshqa daromadlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni aks ettirilishida hisobvaraqlar noto'g'ri korrespondentlanishi;

- * foydadan qonunchilikda ko'zda tutilmagan maksadlar uchun foydalanish.

Audit fanini o'rganishda **markazda auditor shaxsi turar ekan**, demak, aynan ana shu auditorlik mutaxassisligini egallamoqchi bo'lgan **o'quvchi-talabalarning aqlini charxlaydigan metodlarni qo'llash zarur**. Mavzuni o'rganish uchun tayyorlangan masala va mashqlar, turli topshiriqlar mazmunida ana shu xatolar yashiringan bo'lishi va ular talabalar tomonidan aniqlanishi ko'zda tutilgan bo'lishi zarur. Bu jihatdan hujjatlashtirish, hisob-kitobni to'g'ri yo'lga qo'yilganini yoki xatolarni aniqlashni o'rgatadigan metodlar fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. **O'qituvchi tomonidan ataylab kamchiliklar bilan to'ldirilgan hujjat yoki hisob-kitobni xatosini topishga qaratilgan topshiriqlar tayyorlab, darsda qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi**. Bunday topshiriqlarni boshqa metod-

lar bilan birgalikda qo'llasa bo'ladi. Ayniqsa, modellashtiruvchi o'yinlar tashkil qilib, dars jarayonida qo'llash mumkin. Ana shunday topshiriqlar asosida darsni kichik guruhlariga bo'lib o'tish mumkin.

«Auditorlik xulosasi» yozish tanlovi metodini qo'llash

Auditor uchun audit natijalarini torlik hisoboti tayyorlash va xulosasi yozishni bilish ham mu-

him ahamiyatga ega. Shuning uchun «Auditorlik xulosasi» yozish bo'yicha tanlov metodini qo'llagan ma'qul. Metodni qo'llab dars o'tish uchun kichik guruhlariga o'qituvchi korxonani tekshirib, tayyorlangan auditorlik hisobotini tarqatadi.

Hisobotni o'qib, uning asosida auditorlik xulosasi yozishni taklif qiladi. Auditorlik xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi, auditor auditorlik xulosasini yozishdan bosh tortishi mumkin. Ana shularni talabalar yodiga solib, auditorlik hisobotini sinchiklab o'qib chiqish, so'ngra kichik guruhda muhokama qilib, auditorlik xulosasi yozish kerakligi uqtiriladi.

Buning uchun 40 minut vaqt beriladi. Amalga oshirilgan auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha auditor auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlashi lozim. Boshqa turdagi auditorlik xizmatlari ko'rsatilganda ham auditorlik hisoboti tayyorlanishi mumkin.

Aytaylik, «Audit», «Debet», «Kredit», «Ekspert» kichik guruhdari tuzildi. «Audit», «Debet», «Kredit» kichik guruhlari belgilangan vaqt mobaynida xulosa yozib, taqdimot tayyorlaydilar.

«Ekspert» kichik guruhi hisobotlarni o'qib, yozilgan auditorlik xulosalarini tahlil qilib, baholaydilar.

Ular O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solish me'yorlarining elementi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001-yil 10-martda 1016-son bilan ro'yxatga olingan Auditorlik faoliyatining milliy andozalari (70-AFMA) «Moliyaviy hisobot to'grisida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi» hisoblanishi, andozaning maqsadi - amalga oshirilgan auditorlik tekshiruv natijalariga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlashga oid yagona tartibni o'rnatishdan iborat ekanligiga e'tibor qaratishlari kerak. Shuning uchun «Ekspert» kichik guruhi auditorlik xulosalarini baholashda ana shu andozaga asoslanishlari zarur. **Auditorlik xulosasi** - moliyaviy hisobotning haqqoniyligi (to'g'riligi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi to'g'risidagi auditorlik tashkilotining fikrini yozma ravishda

ifodalagan va xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat. Auditorlik xulosasi qabul qilingan qoida asosida yozilishi unda:

– Auditorlik xulosasi buyurtmachining barcha kerakli bo'lgan rekvizitlari ko'rsatilgan va auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlangan holda auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo'llanishi lozim.

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlaridan iborat:

– auditorlik tashkilotining hududiy manzili va telefon raqami;

– auditorlik tekshiruvini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya raqami, berilgan sana va ushbu litsenziyani bergan idora nomi;

– auditorlik tashkiloti davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida guvohnomaning raqami;

– auditorlik tashkiloti hisob-kitob hisobvarag'ining raqami;

– auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditor (auditorlar) hamda auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, sharifi.

Kirish qismida sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda tekshirilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati keltirilishi kerak.

Kirish qismida quyidagilar aks etishi lozim:

– xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotni tayyorlash va uning haqqoniy bo'lishi uchun javobgarligi;

– auditorlik tashkiloti auditorlik xulosa xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq bo'lishi uchun javobgarligi.

Auditorlik xulosasining asosiy mazmunini **qayd** etish qismida auditorlik tekshiruvi AFMAga muvofiq amalga oshirilganligi ko'rsatiladi.

Asosiy mazmunini qayd etish qismida auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot amaldagi qonunchilikka, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanganligini ko'rsatish kerak.

Asosiy mazmunini qayd etish qismida auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun yetarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig'i berilishi lozim.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyekt

moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida haqqoniy tasavvur berishi yoki bermasligi, moliyaviy hisobot amaldagi qonunchiligiga muvofiq yoki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayon etilishi kerak.

Auditor auditorlik xulosasini auditorlik tekshiruvi yakunlangan kun bilan belgilashi kerak.

Auditor auditorlik xulosasiga xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati moliyaviy hisobotni imzolagan yoki tasdiqlagan kundan oldingi sanani qo'yishi mumkin emas.

Auditorlik xulosasiga auditor (auditorlar), auditorlik tashkiloti rahbari imzo chekishi va u auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

«Audit» guruhi tayyorlagan xulosa

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI «ODIL-AUDIT»
KOMPANI AUDITORLIK TASHKILOTI**

O'zbekiston Respublikasi
700070. Toshkent shahar,
Miroqilov ko'chasi, 68a
Tel. +(371) 256-47-60
Faks +(371) 256-47-60

**REPUBLIC OF
UZBEKISTAN
AUDITING
«ODIL-AUDIT»**

68a, Miroqilovstr.,
700070, Tashkent Re-
publik of Uzbekistan
Tel. +(371) 256-47-60
Fax +(371) 256-47-60

Ijobiy auditorlik xulosasi

AJ «Andijonelektroapparat»
rahbariyati va ta'sischilariga

Men, «Odil-Audit» auditorlik tashkiloti (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda audit o'tkazish huquqini beruvchi AF № 00043-sonli litsenziyasiga muvofiq) auditori Mahmudov I. T. Moliya vazirligining sertifikatiga asosan «Andijonelektroapparat» aksionerlik jamiyatining 2008-yil 1-yanvaridan 2008-yil 31-dekabriga qadar bo'lgan davr uchun moliyaviy hisoboti tekshirildi.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi uchun «Andijonelektroapparat» aksionerlik jamiyatining rahbariyati javobgar hisoblanadi. Auditorlik tashkiloti mazkur moliyaviy hisobot bo'yicha o'z xulosasi uchun javob beradi.

Biz auditorlik tekshiruvini AFMAga muvofiq o'tkazdik.

Ushbu andozalar biz foydalanuvchilarni moliyaviy hisobot jiddiy buzilishlarga ega emasligiga yetarlicha ishonch bilan ta'minlashimizni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi haqqoniylikni va moliyaviy hisobot hamda boshqa moliyaviy axborotning amaldagi qonunchiligiga, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqqligini baholashga asoslanadi. Biz tomondan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun yetarlicha asoslar beradi deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, «Andijonelektroapparat» aksionerlik jamiyatining 2008-yil moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy aks ettiradi va mazkur xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq keladi.

«Odil-Audit» auditorlik
tashkiloti direktori
2009-yil «5-mart»
m.o'.

Mahmudov I. T.

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini haqqoniy yoritadi va xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda **ijobiy auditorlik xulosasi** tayyorlashi mumkin.

«Kredit» guruhi tayyorlagan xulosa

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI «ISHONCH-AUDIT»
KOMPANI AUDITORLIK TASHKILOTI**

O'zbekiston Respublikasi
700070. Toshkent shahar,
Mirsobitov ko'chasi, 60
Tel. +(371) 236-47-66
Faks +(371) 236-47-66

**REPUBLIK OF
UZBEKISTAN
AUDITING**

«ISHONCH - AUDIT»
60, Mirsobitov str., 700080,
Tashkent Republik of
Uzbekistan
Tel. +(371) 236-47-66
Fax +(371) 236-47-66

**AJ «ABCD»
rahbariyati va ta'sischilariga**

Salbiy auditorlik xulosasi

Biz, «Ishonch-Audit» auditorlik tashkiloti (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda audit o'tkazish huquqini beruvchi AF № 00045 sonli litsenziyasiga muvofiq) direktori Yo'ldoshev O. A, auditorlar Mahmudov I. T. Odilov E. A Moliya vazirligining sertifikatiga asosan «ABCD»

aksionerlik jamiyatining 2008-yil 1-yanvaridan 2008-yil 31-dekabrigha qadar bo'lgan davr uchun moliyaviy hisoboti tekshirildi.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi uchun «ABCD» aksionerlik jamiyatining rahbariyati javobgar hisoblanadi.

Auditorlik tashkiloti mazkur moliyaviy hisobot bo'yicha o'z xulosasi uchun javob beradi.

Biz auditorlik tekshiruvini AFMaga muvofiq o'tkazdik. Ushbu andozalar biz foydalanuvchilarni moliyaviy hisobot jiddiy buzilishlarga ega ekanligini yetarlicha ishonch bilan ta'kidlashimiz kerakligini taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi haqqoniyligni va moliyaviy hisobot hamda boshqa moliyaviy axborotning amaldagi qonunchilikka, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligini baholashga asoslanadi. Biz tomondan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun yetarlicha asoslar beradi deb hisoblaymiz.

Tekshiruvda aniqlanishicha «ABCD» aksionerlik jamiyati.

20 mln. so'mni xarajatlarga noqonuniy ravishda kiritgan, bu esa amaldagi qonunchilikni buzish hisoblanadi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini buzadi.

Bizning fikrimizcha, «ABCD» aksionerlik jamiyatining 2008-yil moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvoli natijalari to'g'risida haqqoniy ahborot bermaydi.

«Ishonch-Audit» auditorlik
tashkiloti direktori

imzo

Yo'ldoshev O. A

Auditorlar

imzo

Mahmudov I. T.

imzo

Odilov E. A

2009-yil «15-mart» m.o'.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida xatolar bo'lsa, ular xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotda foydalanuvchini chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, auditorlik tashkiloti salbiy auditorlik xulosasini tuzadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalar moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi.

- Odatda, salbiy auditorlik xulosasini tayyorlanishining sababi, aniqlangan xatolarni bartaraf etish maqsadida auditorlik tashkilotining moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish lozim, degan fikrga xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati rozilik bermasligidir.

«Debit» guruhi tayyorlagan xulosa

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«ADOLAT+ AUDIT»
KOMPANI AUDITORLIK
TASHKILOTI

O'zbekiston Respublikasi
700070. Toshkent shahar,
Usmon Nosir ko'chasi, 90
Tel. +(371) 255-47-50
Faks +(371) 255-47-50

REPUBLIK OF
UZBEKISTAN
AUDITING

«ADOLAT+ AUDIT»
90, Usmon Nosir str.,
700100, Tashkent Re-
publik of Uzbekistan
Tel. +(371) 255-47-50
Fax +(371) 255-47-50

Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi to'g'risidagi ariza

Biz, «Adolat + Audit» auditorlik tashkiloti (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda audit o'tkazish huquqini beruvchi AF № 00050 sonli litsenziyasiga muvofiq) direktori Qo'ldoshev O. A., auditorlar Maqsudov I. T., Oqilov I. A Moliya vazirligining sertifikatiga asosan «Irmoq» aksionerlik jamiyatining 2008-yil 1-yanvaridan 2008-yil 31-dekabriga qadar bo'lgan davr uchun moliyaviy hisoboti tekshirildi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt xorijiy yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni to'liq taqdim etmadi. Bu esa, boshlab yuborilgan auditorlik tekshiruvini biz auditorlik xulosasini tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan hajmda o'tkazish imkonini bermaydi.

Yuqorida bayon etilgan auditorlik tekshiruvi hajmini cheklash holati tufayli «Adolat + Audit» auditorlik tashkiloti (O'zbekiston Resapublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda audit o'tkazish huquqini beruvchi AF № 00050 sonli litsenziyasiga muvofiq) «Irmoq» aksionerlik jamiyatining moliyaviy hisoboti to'g'risida fikrini ifodalashdan bosh tortadi.

«Adolat + Audit» auditorlik tashkiloti direktori	imzo	Qo'ldoshev O. A
Auditorlar	imzo	Maqsudov I. T.
	imzo	Oqilov I. A
2009-yil «15-mart»	m.o'.	

Auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanganligi tufayli, auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot holati to'g'risida fikrini ifodalash uchun yetarlicha auditorlik isbotlarini olishi mumkin bo'lmasa, auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvi hajmini cheklash - xo'jalik yurituvchi subyekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning boshlab yuborilgan auditorlik tekshiruvini auditorlik xulosasi tayyorlash uchun zarur deb hisoblagan hajmda o'tkazishga to'sqinlik qilishga yo'naltirilgan ochiqdan-ochiq harakatlari yoki harakatsizliklaridir.

«Audit», «Debet», «Kredit» kichik guruhi vakillari ularga berilgan auditorlik hisoboti asosida nima sababdan ijobiy, salbiy auditorlik xulosasini berishganini yoki auditorlik xulosasini yozishdan bosh tortishganini asoslab berishadi. Buning uchun har bir guruhga 3 minutdan vaqt beriladi. Taqdimotga ham ball beriladi. Har bir kichik guruh a'zolari ham o'zlarini va boshqalarni baholashadi. Ekspert guruhi o'z fikrini bildiradi va umumiy ballni e'lon qiladi. O'qituvchi tanlovni yakunlaydi. G'olib guruh taqdirlanadi. Biz metodni qo'llashni abstrakt korxonada misolida ko'rsatdik. Lekin darsda real ma'lumotlardan foydalanish ko'proq samara beradi. Unda talabalar hisobotni o'qib chiqib, tayyorlagan taqdimot va xulosa bilan professional auditor bergan xulosani solishtirish, uni asosida xulosa chiqarish imkoni yaratiladi.

Biz ko'rib o'tgan barcha metodlarni audit faniga moslashtirgan holda dars o'tish mumkin. Demak, audit fanini o'rganishda o'qituvchi, o'quvchi-talabalar amaldagi buxgalteriya hisobi, auditga

va boshqa iqtisodiyotga oid qonunlar, me'yoriy hujjatlarni, respublikamizda qabul qilingan milliy va xalqaro standartlarni puxta bilishlari, ular asosida ish yuritishni o'rganishlariga diqqat qaratishlari, mustaqil fikrlashga, taqqoslash va qaror qabul qilishga, hisob-kitoblarni to'g'ri bajarishga o'rgatadigan dars o'tish metodlarini keng qo'llashlari lozim.

3-§. «Soliq va soliqqa tortish» fanining xususiyatlari va dars o'tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish

Soliqlar doimo jamiyat a'zolarining diqqat markazida bo'lib kelgan, chunki u har bir kishining manfaatiga taalluqli bo'lib, ikkinchi tomondan davlat budjeti daromadlarining asosiy manbaidir.

Ma'lumki, har bir davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun xarajatlar talab etiladi. Aynan ana shu xarajatlar uchun zarur mablag' bilan soliq tizimi ta'minlaydi.

Soliq tizimi boshqa sohalaridan tubdan farq qiladi.

Ana shu farq soliq organlari uchun tayyorlanadigan malakali mutaxassislarni kasbiy bilim egallashlariga oid mutaxassislik fanlari va ularni o'rganishda o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

1. Respublikamizda soliq va soliqqa tortish qabul qilingan qonunlar asosida olib boriladi.

Soliqchilik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etadi. Konstitutsiyaning 123-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli»dir.

Soliq qonunchiligi Konstitutsiyadan keyin O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri 2007-yil 25-dekabrda qabul qilinib, 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan. Birinchi kodeks 1997-yil 24-aprelda qabul qilinib, 1998-yil 1-yanvardan kuchga kirgan))ga asoslanadi. U soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlarini, soliq ishlarini yuritish va soliq majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik tartibini belgilaydi.

Soliq qonunchiligi tarkibiga soliq jarayonini tartibga soluvchi boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining me'yoriy hujjatlari kiradi. Bu esa o'z vaqtida soliq organlarida ishlovchi mutaxassislardan:

a) soliqqa oid qonunlar, huquqiy va me'yoriy hujjatlarni, yo'riqnomalarni chuqur bilishlari;

b) ular asosida qonuniy ravishda yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amallarini to'g'ri bajarishlarini talab qiladi.

2. Soliq to'lovchilar bilan soliq undiruvchilar manfaatlari qarama-qarshiligi mavjud. Soliq boshqa to'lovlardan farq qilib, soliq to'lovchilar, to'lov evaziga individual tarzda soliq to'lash paytida hech nima olmaydilar. Bu to'lovlar ularga jamiyat miqyosida ijtimoiy tovarlar va xizmatlar tarzida qaytadi. Bu soliq to'lovchilarni iloji boricha soliq to'lashdan qochish yoki kamroq soliq to'lash yo'llarini qidirishga olib keladi. Bunda soliq imtiyozlari mavjudligi ham turli salbiy, noqonuniy harakatlarni yuz berishida ma'lum rol o'ynaydi. Soliq qonunchiligi buzilishi ko'rinishlari turlicha. U soliq to'lovchilar tomonidan yoki soliq undiruvchilar tomonidan sodir qilinishi mumkin. Shuning uchun mutaxassis soliq qonunchiligini buzilishi qanday yuz berishi mumkin, uning oqibati, oldini olish choralarini yaxshi bilishlari kerak.

Jamiyatning iqtisodiy yuksalishga erishishida soliq xodimlari, ularning bilimi, malakasi, halolligi, qonunlar asosida ish ko'rishi alohida rol o'ynaydi.

3. Soliq tizimi bir tomondan ishlab chiqarish faoliyati, ikkinchi tomondan, insonlar faoliyati bilan bog'liq.

Soliq bo'yicha mutaxassis soliq va hisob qonunchiligi to'g'ri yuritilishini tashkil etishni, aynan ana shu qonunbuzarliklar qanday oqibatlarga olib kelishini chuqur biladigan, uni oldini olishga harakat qiladigan bo'lishi lozim. Soliqlarni hisoblash va uni to'lash bevosita buxgalteriya hisobi bilan bog'liq. Demak, «Buxgalteriya hisobi» soliq bilan chambarchas bog'langanligini nazardan qochirmaslik kerak.

Ma'lumki, turli mamlakatlarda buxgalteriya hisobi va soliq hisobini amalga oshirishning ikki sxemasi mavjud.

1. Buxgalteriya hisobi va soliq hisobi bir - biriga to'g'ri keladi. Bu Germaniya, Italiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar, O'zbekiston ham shu guruhga kiradi.

2. Buxgalteriya va soliq hisobi parallel olib boriladi. Bularga AQSh, Buyuk Britaniya, Avstriya, Rossiya kabi mamlakatlar kiradi. Lekin, qaysi sxemada ish yuritishdan qat'i nazar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari soliqlarni hisoblash uchun asos hisoblanadi.

Hisob tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy faoliyat yuritish jarayonida xalqaro andozalar asosida «Moliyaviy hisob» va «Boshqaruv hisobi» schyot-

larida hamda «Moliyaviy va boshqaruv» hisobotlari orqali ma'lumotlarni aks ettirish amaliyoti joriy etilgan.

Soliq bazasini to'g'ri aniqlash, ularni to'g'ri hisoblash va budjetga belgilangan muddatlarda to'lash tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatida muhim rol o'ynaydi. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lab borish natijasida korxonalar iqtisodiy noxushliklar, jarima va boshqalardan zarar ko'rmaydi. Shu sababli soliqlar hisobi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Demak, soliqchi mutaxassis nafaqat soliq, soliqqa tortishni, balki buxgalteriya hisobi, tahlil, auditni ham puxta bilishi zarur.

Shuning uchun ham soliq tizimi uchun kadrlar tayyorlashga fanning xususiyatlaridan hamda kadrlarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda yondashish zarur.

«Soliq va soliqqa tortish» fanining xususiyatidan kelib chiqib, markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi.

Masala, mashq yechish olgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini ta'minlaydi va shu yo'l bilan talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Masala yechishga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, fikr yuritish obyekti sifatida qaralishi kerak.

Masala yordamida fanni o'rganganda aniq hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng.

Masala yechishni modellashtiruvchi o'yin tarzida tashkil qilish mumkinki, bunda talabalar soliq xodimlari va soliq to'lovchilar sifatida qatnashib, real voqelikka yanada yaqin bo'ladilar.

Darsni tarqatma materiallardan foydalanib o'tish mumkin. Masala, mashq yechish jarayonida talabalarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalanish mumkin.

Ko'rib o'tgan metodlarimizni «Soliq va soliqqa tortish» fanidan ham dars mavzulariga va qo'yilgan maqsadga qarab moslashtirib, keng qo'llash mumkin.

Xulosa

Iqtisodiy fanlar tizimida iqtisodiy tahlil fani o'ziga xos o'rin tutadi. U o'zining iqtisodiy voqea, hodisalarni qismlarga bo'lib, sta-

tik va dinamik jihatdan sinchiklab o'rganishi, ularni obyektiv va subyektiv sabablarini aniqlab berishi, tavsiyalar ishlab chiqishi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy tahlilda taqqoslash, solishtirish asosiy o'rinda turadi. Chunki tahlilning o'zi taqqoslashga asoslanadi. Fanni o'rganayotgan har bir talaba uchun yana bir muhim jihat tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bo'lib, dars o'tish metodlarini tanlaganda, topshiriqlar tayyorlaganda albatta, ularni hisobga olish muvofiq ravishda moslashtirish lozim.

Iqtisodiy faoliyat yuritishda ma'lum bir xatoliklarga, ch'al-kashliklarga yo'l quyilishi chalkashliklarga yo'l qo'yiladi. Axborotlarning noto'g'riligi qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Buni oldini olishni audit fani o'rgatadi, fanni, amaliyotni chuqur bilgan malakali auditorlar amalga oshiradi.

Audit fani o'zining metodlari, buxgalteriya fani va iqtisodiy tahlil bilan chambarchas bog'liqligi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Audit fani auditni o'tkazishda markazda auditor turishi va uni shakllanishiga alohida diqqat qaratilishi jixatidan boshqa hech qaysi iqtisodiy fanni o'rganishda mutuxassisga bu qadar alohida e'tibor qaratilmaydi. Shuning uchun ham bu fanni o'rganishda aqlni charxlaydigan, teran fikr yuritishga, taqqoslash, xatoliklarni tezda topishga, qabul qilingan qonun qoidalar, me'yoriy hujjatlarni chuqur bilishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish, dars o'tish metodlarini mavzuga moslashtirish talab qilinadi.

Soliq va soliqqa tortish fanini o'qitishda esa eng avvalo qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarni, soliqlarni ishlab chiqarish faoliyati, insonlar faoliyati va ularning manfaatlari bilan bog'liqligini hisobga olish zarur. Dars o'tish uchun topshiriqlar tayyorlaganda ularni soliq bazasini to'g'ri aniqlashni talab qiladigan bo'lishiga e'tibor berish, metodlarni mavzularga moslashtirish kerak.

Asosiy tayanch tushuncha va atamalar

Axborotlarni tahlil qilish, axborotni asimmetrik tarqalishi, taqqoslash, solishtirish, guruhlashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, iqtisodiy tahlil xususiyatlari, fanning predmetini o'rganish metodlari, audit fani xususiyatlari, auditorning roli, soliq qonunchiligi, fanni o'rganish metodlari.

Takrorlash va munozara uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil fani boshqa iqtisodiy fanlardan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
2. Audit fanining vujudga kelishiga qanday zaruriyatlar sabab bo'ldi?
3. Auditning markazida auditor turadi, degan fikrga qo'shilasizmi?
4. Audit va boshqa iqtisodiy fanlarni o'rganish uchun dars o'tish metodlarini tanlashda fanning xususiyatlarini hisobga olish zarurmi?
5. Dars o'tish metodlari bilan fanning predmetini o'rganish metodlari o'rtasida qanday bog'lanish borligini tushuntirib bering.

IZOHLI LUG'AT (glossariy)

Akademik litsey — o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirish, ularning chuqur tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan o'rta maxsus o'quv yurti.

Akkreditatsiya — faoliyat yuritishga ishonch bildirish va muvofiq ravishda berilgan hujjat, ya'ni faoliyat darajasining qo'yilgan mezon va talablarga javob berishini davlat tomonidan e'tirof etilishi.

An'anaviy dars o'tish — darsning asosiy maqsadi ko'proq tushuntirishga qaratilgan, o'qituvchi bilim beruvchi, o'quvchi-talaba bilim oluvchi rolini bajaruvchi dars o'tish.

Attestatsiya — mutaxassislarning ishga layoqatini, malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berish.

Axloq — shaxsni jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Aqliy hujum metodi — qo'yilgan muammo, masala, savolga nisbatan barcha o'quvchi-talabalarning o'z fikrini bildirishini ta'minlash asosida ularni darsga faol qatnashish, o'z nuqtai nazari-dan yondashishga yo'naltirish, bildirilgan fikrlarni saralashga o'rgatuvchi metod.

Bayon qilish — o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzu, materialning mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

«**Bilaman, Bilmogchiman, Bildim (B/B/B)**» metodi - kitob, ilmiy maqolalarni o'qishga, bilmaganlarini o'rganishga harakat qilishga yo'naltiradigan metod.

«**Blits-o'yin**» metodi — mantiqiy mustaqil fikrlashga, harakatlarni ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga va baholashga o'rgatuvchi metod.

Vazifa — qo'yilgan maqsadni amalga oshirish bosqichlarining mazmuni.

Verbal — og'zaki ifodalash.

Davlat ta'lim standartlari — uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida tayyorlanayotgan kadrlarning minimal darajada eg'a bo'lishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar.

Dars o'tishning samarali metodi — mavjud turli-tuman metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo'yicha mavjud sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlar.

Darsni savollar asosida olib borish metodi – o‘quv rejasi bo‘yicha savol-javoblar yordamida talabalarni o‘quv jarayoniga jalb etish, ularda fikr-mulohaza yuritish, o‘qish, o‘rganish, o‘z fikrini izohlashga ishtiyoq uyg‘otadigan metod

Delfa metodi – O‘quvchi-talabalarni ijodiy fikr yuritish, bildirilgan fikrlarni taqqoslab, baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatadigan metod.

Didaktika (yunon-didaklikos - o‘qitadigan, o‘rgatadigan) – pedagogikaning bilim olish, ta‘lim va tarbiya nazariyasiga oid tarkibiy qismi. Didaktika «nima?» va «nima uchun?» o‘qitish kerak degan savollar bilan shug‘ullanadi.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e‘tiqod hamda fikr-o‘ylar tizimi.

Jadallashtirilgan, chuqurlashtirilgan ma‘ruza – tahliliy fikrlash ko‘nikmasini hosil qilish, rivojlantirish universal asoslariga tayangan holda tayyorlangan ma‘ruzaning mukammallashtirilgan, chuqurlashtirilgan variantidir. Ma‘ruza o‘qishda qo‘llaniladigan metod va vositalar uzviy savollar bo‘yicha avvaldan loyihalashtirilib, ma‘ruza darsining texnologik xaritasida ko‘rsatiladi.

Idrok – ma‘lumotlarni ranglar, belgilar, harakat, ko‘rish, eshish, sezish, his qilish orqali axborotni yaxlitlikka olib kelish.

Idrok etish malakasi – boshqa subyektning xususiyatlarini: uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy pedagogik malaka.

Izohlash, tushuntirish – tushuncha, so‘zning qisqacha ma‘nosini ifodalash: og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Insert metodi – o‘quvchi-talabalarni o‘qiyotgan kitoblari, maqola va turli axborotlarni tushunib yetishlari uchun o‘qish jarayonida materialning (darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqola, jadval, sxema kabilar) har bir satr boshi (yoki qismi)ning mazmunini baholash orqali, chiqargan xulosasiga muvofiq ravishda varaqning chetki tomoniga (hoshiyasiga) qalam bilan belgi qo‘yib borish orqali o‘z munosabatini bildirishga o‘rgatuvchi metod.

Interaktiv dars o‘tish metodlari – dars jarayonida o‘quvchi, talabalar hamda o‘qituvchi orasida yuqori darajada hamkorlik o‘rnatiladigan dars o‘tish metodlari.

Ilmiy muammo – fanda tadqiqot orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Iqtisodiy paradokslar va topishmoqlar tanlovi metodi – o‘quvchi, talabalarni keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammo-

larni aniq va izchil tassavvur qilish, fikr yuritish, iqtisodiy konsepsiyalarni tushunish, real hayotda qo'llashni o'rganishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan metod.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi (uslubiyati) — iqtisodiy-nazariy ta'lim berishning qonuniyatlari, fanni o'qitish, o'rganishda qo'llaniladigan turli metodlar va ularni dars jarayonida qo'llashni o'rganuvchi fan.

Iqtisodiy faoliyat — insonning ehtiyojini qondirish, ya'ni tirikchilik, hayot kechirishini ta'minlashning vosita va usullari majmui.

Kasbiy bilimdonlik — pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kasb-hunar kolleji — o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurti.

Kasbiy-pedagogik muloqot — pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro uzluksiz, doimiy hamkorlik ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayirboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarni tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik — bo'lajak mutaxassisning psixologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Keys stadi metodi «case study method» — o'quvchi-talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Kitob ustida mustaqil ishlash metodi — o'quv axborotini o'quvchi-talaba uning o'ziga xos sur'atda va qulay vaqtda olishini ta'minlashini hisobga olib, kitob ustida mustaqil ishlashni o'rgatish asosida fanni o'rganishga qaratilgan metod.

Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish metodi — guruhni ma'lum bir mezonlar asosida 3—6 o'quvchi-talabadan iborat kichik guruhlariga bo'lib, ularni hamkorlikda ishlash, bilish jarayonini puxtalashtirish, boshqalarning fikrini eshitishga o'rgatadigan, mas'uliyat talabalar zimmasiga yuklanib, ular faolligini oshirishga qaratiladigan dars o'tish metodi.

Klaster (axborotlarni yoyish) metodi — keng qamrovli fikr yuritish, o'rganilayotgan tushuncha (kategoriya, hodisa)lar, g'oyalar o'rtasida muhim bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash, keng ko'lamli fikr yuritish malakasini shakllantirishga qaratilgan metod, pedagogik strategiya.

Konseptual (mohiyati, asosini ifodalovchi) jadval, xarita

asosida fanni o'rganish metodi — o'quv materiallarida ko'rgazmalilik orqali fikr yuritish, qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish, baho berishga o'rgatadigan metod.

Kuzatish — biror (pedagogik va boshqa) hodisa, jarayon bo'yicha aniq faktlar, dalillar, axborot olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

Ko'nikma — o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlari.

Laboratoriya ishi — asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Loyihalash metodi — o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu, muammo, masalani aniqlab, uni yechish uchun kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, qo'yilgan maqsadni va uni bajarish qanday natijaga olib kelishini loyihada aks ettirish hamda uni amalga oshirishni o'rgatadigan metod.

Mavzuni o'rganishdan qo'yilgan maqsad — mavzuni o'rganish tufayli erishiladigan natijani oldindan fikran belgilash.

Malaka — shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ma'lum bir faoliyatni yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, samarali bajarish qobiliyati.

Malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum yakuni, qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan qismi

Masala yechish metodi — berilgan raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida hisob-kitob qilish orqali noma'lum natijani topish, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishni o'rgatadigan metod.

Masofadan (distansion) o'qitish — talabani mustaqil bilim olishga asoslangan ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish bo'lib, ko'pincha yoki doimo o'qituvchidan vaqt va masofa jixatidan ajralgan holda, o'quv materialini xatlar, topshiriqlar yoki audiovizual vositalar orqali mustaqil o'rganishdir.

Mafkura - g'oya va qarashlar tizimi.

Ma'ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) - o'qish) — o'quv material, biror masala, mavzu kabilarning izchil, ma'lum bir tizimga solingan bayoni.

Mashq — o'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida harakatlarni og'zaki va yozma ravishda takror amalga oshirish.

Mashqlardan foydalanish metodi — fanni o'rganish, malaka,

ko'nikmalar hosil qilish uchun tayyorgarlik ko'rish, takrorlash va sinab ko'rishga qaratilgan metod.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqtov – foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og'zaki taqdirlash.

Metod yunoncha «methodos – tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot» so'zidan kelib chiqqan bo'lib: 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish yo'li; 2) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari; 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari; 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari

Metodika – pedagogikaning tarkibiy qismi (pedagogika yunoncha paidagogike) bo'lib, shaxsni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari (usublari), qisqacha aytganda, ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan. U «qay tarzda?» va «nimalar yordamida o'qitish?» lozim masalalari bilan shug'ullanadi.

Metodologiya (yunon. methodos va logios) – faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot.

Metodologiya – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2) biror fanda, shu jumladan, pedagogikada qo'llaniladigan metodlar majmui

Modellashtiruvchi o'yin – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda turli (imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan) o'yinlar yordamida ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruh ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u.

Muammoli vaziyat – hayotdagi yoki o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muammoli ma'ruza – talabani o'ylashga, taqqoslashga, yechimini topishga undaydigan ma'ruza.

Muammoli o'qitish – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Munozara – 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs. 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

Mustaqil ishlar — bilimlarni egallash bilan birga ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladigan faoliyat, vazifa.

Nazariy tahlil — pedagogik hodisalarni alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari, o'ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Obyekt — insonning, sub'ektning bilish predmeti va faoliyati.

Odat — kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me'yorlardan kelib chiqib, amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Oliy ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasi faoliyat darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

Oliy ta'lim muassasalarining attestatsiyasi — oliy ta'lim ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Pedagog — tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogika — yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan.

Pedagogikaning nazariy vazifasi — ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogik jarayon — ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari — pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik malaka — muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorligi darajasi va turi.

Pedagogik mahorat — pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini ta'minlovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik texnologiya — «ishlab chiqarish» natijasi «mahsuloti» — ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didaktik jarayonni amalga oshirish, ya'ni o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketma-ketlikda turli vosita, metodlarni qo'llash orqali samarali ta'lim natijasiga erishishning ishonchligini ta'minlovchi, kafolatlovchi pedagogik faoliyat.

Pedagogik faoliyat — ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Ratsionalizatsiya — metodlarni yoki biror ish-harakatni takomillashtirish.

Sezgi — ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘lim bilish, his qilish. Ular insonning ko‘zi, qulog‘i, burni, tili, terisi orqali yuz berib, bilishning boshlang‘ich vositachilari hisoblanadi.

Semantik (manosini ifodalash) xususiyatlar tahlili metodi — axborotlarni kuzatishni ma‘lum bir **maydon** - jadval va grafiklar orqali ifodalash va ular orqali g‘oyalar, tavsiyalar, takliflar berishga o‘rgatadigan metod..

Seminar (lot. seminariym — manba, ko‘chma ma‘noda - maktab) — o‘quv amaliy mashg‘ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o‘quv yurtlarida, ilmiy to‘garak, anjumanlarda qo‘llaniladigan turli-tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda seminar darsida talabalarning bilimi, o‘z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Sinkveyn (axborotni yig‘ish) metodi — murakkab g‘oya, iqtisodiy tushunchalarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalashni o‘rganish. orqali mavzuni yaxshiroq anglashga, o‘zlashtirishga yordam beradigan metod.

Stimul (turtki) — shaxs psixikasi motivlarining shakllanishini ta‘minlovchi tashqi ta‘sir.

Suhbat metodi — kuzatuv chog‘ida yetarli darajada aniq bo‘lmagan zarur axborotni olish uchun qo‘llanadigan muloqot, tadqiqot metodi. Og‘zaki javobga asoslangan, keng tarqalgan shakli hikoya va bayon qilishdir.

Tadqiqot metodi — axborotlar, dalillar, ma‘lumotlar asosida tadqiqot o‘tkazish jarayonida qatnashish orqali dars o‘tishning talabalarni axborot to‘plash va uni ustida ishlash, xulosa chiqarib, baholashga o‘rgatish jarayonida mavzuning mazmunini o‘zlashtirishga, ilmiy izlanishni o‘rganishga qaratilgan metod.

Tadqiqot obyekti — ziddiyat va muammoli vaziyat tug‘diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti — bevosita o‘rganilishi lozim bo‘lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan ob‘ektning mohiyati, ma‘lum bir tomoni, xususiyati.

Talqin qilish — biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Tanqidiy nazar metodi — matnning mazmunini tadqiq qilish, taqqoslash, shaxsiy tajriba bilan bog‘lash va o‘z munosabatini bildirishni o‘rgatadigan metod.

Ta‘lim — 1) shaxsning jismoniy va ma‘naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo‘naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni

egallash g'oyaviy-axloqiy, qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta'lim dasturi — o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajada tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim maqsadi — ta'lim berishdan(olishdan) ko'zlangan muddao.

Ta'lim mazmuni — o'qitish jarayonida egallash lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar ma'nosi, hajmi va xarakteri.

Ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarning bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea-hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Tahliliy — ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish metodi — iqtisodiy fikrlashni muvofiq ravishda bildirilgan fikrlarning eng maqbulini tanlash va tavsiyalar ishlab chiqishni o'rgatishga qaratilgan metod.

Test — 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalanadigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart-test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Test metodi - ko'zlangan maqsadga ko'ra, savol qo'yib, unga bir-biriga yaqin bir necha, lekin to'g'risi bitta bo'lgan javoblar mujassamlangan topshiriq, mashqni bajarish orqali fanni, mavzuni o'rganishga, o'quvchi-talabalar bilimini sinashga qaratilgan metod.

Tushuncha — atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

Faoliyat — 1) ongli maqsadga ko'ra boshqariladigan kishining ichki(ruhiy), tashqi(jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitni kishilar tamonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etish.

FSMU metodi — o'quvchi-talabalarni mustaqil, erkin fikrlash

va o'z fikrini himoya qilishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini baholashga, bahslashish madaniyatini va unga rioya qilishni o'rgatadigan metod.

Shaxsiy fazilat — shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

Esse yozish metodi — muallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko'rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo'naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o'rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo'llaniladigan metod.

E'tiqod — shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv faoliyati.

Yakunlovchi davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda ma'lum talab va tartiblar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malaka ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan ta'lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

Yaxlitlik — pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo'lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, undagi subyektlar, obyektlar faoliyatini bir butunligini ta'minlovchi jarayon.

Yaxlit pedagogik jarayon — tarbiya jarayonida ta'lim va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

O'zlashtirish — 1) o'ziga singdirish, tushunish, bilish; 2) muayyan bilim, ko'nikma, malakalarni egallashga qaratilgan jarayon; 3) ijtimoiy tajriba natijalari bilan shaxsiy tajriba natijalarini qo'shilishi.

O'yin — faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tabaqalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z-o'zini baholash — shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O'qitish — o'qituvchining ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan faoliyati. O'qitish: 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining boshqa o'quvchilar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-

muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qitish sifatini nazorat qilish – talaba bilim saviyasini rejalashtirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

O'qish – o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat.

O'quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to'planilgan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

O'quv rejasi – ta'limning muayyan yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslari tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmi belgilangan normativ hujjat.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, talabalar tomonidan o'zlashtirishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

O'quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish – o'quvchi-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish-texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2005.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» Qonun. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.
- 1.4. «Auditorlik faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2000-yil, 26-may (yangi tahriri).
- 1.5. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1996-yil, 30-avgust.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. T., 2002.
- 1.7. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.

II. Kitoblar va risolalar

- 2.1. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston». 1998.
- 2.2. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq» 1998.
- 2.3. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1999-yil 14-aprel. T.: «O'zbekiston», 1999.
- 2.4. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T.: «Sharq», 1999.
- 2.5. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish — asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2006-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakkunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi gazetasi, 2007-yil, 13-fevral.
- 2.6. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash — barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir.// Xalq so'zi, 2008-yil, 9-fevral.
- 2.7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009.

2.8. Abdullayev A.X., Ametov A.K. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi falsafasi va davlat ta'lim standartlarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: 2003.

2.9. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, T.: 2003.

2.10. Ахунова Г.Н. Образовательная технология по курсу «Маркетинг в сфере образования» Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005.

2.11. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М: Педагогика, 1999.

2.12. Benjamin Bloom et al., eds., Taxonomy of Educational Objectives, Handbook J: Cognitive Domain (New York: Mk. Kay, 1956).

2.13. Vahobov A., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N. F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.

2.14. Гулямов С.С., Мирбартова Л.И., Абдуллаев А.Х. Новые педагогические технологии. Рекомендации по организации дистанционного обучения (Под ред. акад. Гулямова С.С.). Т.: 2002.

2.15. Жины говори на языке диаграмм. Пособий по визуальным коммуникациям для руководителей (Перевод с английского) институт комплексных стратегических исследований. Москва, 2004.

2.16. Do'smurotov R. D. Audit asoslari. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2003.

2.17. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. - T.: «Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti», 2001.

2.18. Камышанов П.И. Практической пособие по аудиту. М.: Инфра-М, 1996.

2.19. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

2.20. Ларнер И.Я. Внимание о технологии обучения а. — М.: «Педагогика», 1990.

2.21. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. T.: «O'qituvchi», 2001.

2.22. Подласый И. П. Педагогика, Учебник. М., Выше образования: 2009.

2.23. Пронина Е.Н., Лукашевич. В.В. «Психология и педагоги-

- ка». Учебник для студентов ВУЗов. Издательство «Элит», М.: 2004.
- 2.24. Профессиональная педагогика. Учебник для студентов обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. М.:Профессиональное образование, 1997.
2. 25. Рочинский В.М. Азбука педагогического труда. М.: 1990.
- 2.26. Silber K, H. Some implicational of the history of Educational Techology: we re all in this together. In: J. W. Brown and S. N. Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981.
- 2.27. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik tgnologiyalar. T.: «Moliya», 2003.
- 2.28. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “O‘qituvchi”, 2002.
- 2.29. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. T. «Sharq» 2003.
- 2.30. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish metodikasi. TMI, 2003.
- 2.31. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar. 1- va 2- qism, T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
- 2.32. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2007.
- 2.33. Farberman B.A., Musina R.G., Jumaboeva F.R. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. Toshkent, 2002.
- 2.34. Al. Farobiy. Matematicheskie traktaty. Alma-ata: Ilm, 1972.
- 2.35. Хужаев Н., Хошимов П.З., Джураев Т.Т., Гимранова О.Б. Методика преподавания экономических дисциплин. Ташкент, 2004,
- 2.38. Qobusnoma. T.: «O‘qituvchi», 1973.

3. Gazeta va jurnallar

- 3.1. Kasb-hunar ta’limi. 2004–2008-yil sonlari.
- 3.2. Xalq ta’limi. 2007-yil sonlari.

4. Statistika ma’lumotlar to’plami

- 4.1 O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008-yil. T.: 2009.
- 4.2. Основный показатели развития народного образования и подготовки кадров за 2007 год.

4.3. Internet saytlari

- <http://www.rbcnet.ru> «Экономика и жизнь».
- www.school.edu.ru.
- www.inter-pedagogika.ru.
- www.newhorizons.org
- www.rhecherswithoutborders.org.

I bob. MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI. FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY ASOSLARI

1-§. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari.....	6
2-§. Didaktika, uning tamoyillari va o'quv jarayonini tashkil etish.....	13
3-§. Dars o'tish metodlari va unga turli jihatdan yondashish.....	21
4-§. O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etuvchi subyekt.	34
5-§. Ta'lim tizimida o'qitishning asosiy shakllari.....	37

II bob. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA DARS O'TISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

1-§. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati.....	43
2-§. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari – uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi.....	48
3-§. Kadrlar tayyorlash va dars berish mazmunini o'zgartirish –davrlar talabi.....	56
4-§. Oliy ta'lim muassasalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda dars o'tishning xususiyatlari.....	58

III bob. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA DARS O'TISH METODIKASI

1-§. Pedagogik texnologiya va unga turli jihatdan yondashish.....	65
2-§. Ta'lim texnologiyasida dars o'tish metodlarining tutgan o'rni.....	73
3-§. Ta'lim tizimiga yondashuvlar va dars o'tish metodlari.....	77

IV bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR VA ULARNI TANLASH MEZONLARI

1-§. Iqtisodiy fanlardan dars o'tishda turli metodlarni qo'llash zarurati.....	86
2-§. Interaktiv metodlarni qo'llash va o'quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklar.....	91
3-§. Dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari.....	96
4-§. Iqtisodiy fanlarni masofadan o'qitish metodini qo'llashning obyektiv asoslari, afzalliklari va	

muammolari.....	100
V bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA MA'RUZA	
1-§. Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan asosiy talablar.....	104
2-§. Ma'ruza matnini tayyorlash.....	116
3-§. O'qitishning muammoli - izlanish metodlari va ularni qo'llab ma'ruza o'qish.....	134
4-§. Ta'limga texnologik yondashuvga asoslangan jadallashtirilgan (jalb qiluvchi, chuqurlashtirilgan) ma'ruza.....	139
VI bob. SEMINAR MASHG'ULOTLARIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA ULARNI O'TKAZISH	
1-§. Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni.....	152
2-§. Seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish (seminar darsi o'tishga doir uslubiy ko'rsatmalar)	156
3-§. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil etish.....	176
VII bob. DARSLARNI SAVOLLAR VA SUHBAT ASOSIDA OLIB BORISH	
1-§. Talabalarga maqsadga yo'naltirilgan savollar asosida dars o'tishning tutgan o'rni.....	189
2-§. Savollar va ularni dars jarayonida to'g'ri qo'ya bilishning zarurati.....	191
3-§. Savollarga asoslangan dars o'tish metodi va uning usullari.....	194
4-§. Suhbat metodini qo'llab dars o'tish.....	204
VIII bob. JUFTLIK YOKI KICHIK GURUHLARGA BO'LIB DARS O'TISH	
1-§. Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishning boshqa metodlardan farqi.....	210
2-§. Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishni tashkil etish va uning asosiy fazalari.....	214
3-§. Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishda turli interaktiv metod qo'llash.....	218
4-§. Metodning afzalliklari va kamchiliklari.....	221
IX bob. IQTISODIY FANLARNI O'RGANISHDA MODELLASHTIRUVCHI AMALIY O'YINLAR METODI	
1-§. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda modellashtiruvchi amaliy o'yinlar metodining tutgan o'rni.....	224

2-§.	Modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab, dars o‘tishning asosiy bosqichlari.....	226
3-§.	O‘yinni tanlash va tayyorlash, o‘tkazish. O‘yin natijasini muhokama qilish.....	229
4-§.	Asarlarni o‘rganishda o‘yin metodini qo‘llash.....	239
5-§.	Metodning afzalliklari va kamchiliklari.....	247
X bob. ILMIY TADQIQOT VA MUNOZARA METODI		
1-§.	Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda tadqiqot metodi va uning boshqa uslublardan farqi.....	250
2-§.	Darsni tadqiqot metodi asosida tashkil etish.....	253
3-§.	Dars o‘tishda munozara metodini qo‘llash.....	262
4-§.	Uslublarning asosiy afzalliklari va kamchiliklari.....	269
XI bob. MASALA, MASHQ, TESTLAR, ESSE YOZISH VA ULARDAN IQTISODIYOTNI O‘RGANISHDA FOYDALANISH		
1-§.	Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda masala-mashqlardan foydalanish metodining tutgan o‘rni.....	272
2-§.	Masala va mashqlar va ularni nazariy darslarda qo‘llash.....	275
3-§.	Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish.	280
4-§.	Masala-mashq, ularni tuzish va iqtisodiy fanlarni o‘rganishda qo‘llash.....	286
5-§.	Testlar, ularni tuzish, o‘tkazish va javoblarini muhokama qilish.....	297
6-§.	Iqtisodiy fanlardan esse yozish va esse uchun savollar tuzish.....	305
XII bob. «AQLIY HUJUM» VA «SASE STADY(KEYS)» METODI ASOSIDA DARS O‘TISH		
1-§.	Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda «aqliy hujum» metodini qo‘llash va uning boshqa uslublardan	310
2-§.	Dars jarayonida «sase stady method»ni qo‘llash.....	314
3-§.	Metodlarning afzalliklari va kamchiliklari	320
XIII bob. LOYIHALASH METODI		
1-§.	Innovatsion ta’lim texnologiyasida loyihalash metodi.....	325
2-§.	Metodning mazmuni va uni amalga oshirish bosqichlari.....	326
3-§.	Loyiha tayyorlashning taxminiy namunasi va loyiha tayyorlashni o‘rganish.....	330

XIV bob. IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA BOSHQA METODLARNI QO'LLASH

1-§.	O'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ish- lashni o'rgatuvchi metodlar.....	339
2-§.	Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlar.....	349
3-§.	Taqqoslash, baholashni o'rgatuvchi metodlar.....	355
4-§.	Axborotni yig'ish va yoyish asosida mavzuni o'rganishga qaratilgan metodlar.....	364
5-§.	Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlar.....	371
6-§.	Ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi metodlar.....	377

XV bob. KO'RGAZMALI QUROLLAR VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH

1-§.	Iqtisodiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmalilik. Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurol tur- lari.....	394
2-§.	Tarqatma materiallar va ularning tutgan o'rni.....	397
3-§.	Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tay- yorlash va ularda foydalanish.....	398

XVI bob. TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

1-§.	Iqtisodiy fanlarni o'qitishda texnik vositalar. Ularning turlari, tutgan o'rni.....	408
2-§.	Dars o'tishda doskaning va boshqa texnik vosita- larining tutgan o'rni.....	409
3-§.	Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foy- dalanish.....	414

XVII bob. MUSTAQIL ISH VA UNI TASHKIL ETISH

1-§.	O'quv jarayonida talabalarining mustaqil ishlarini tutgan o'rni. Mustaqil ta'limga alohida diqqat qaratilishi.....	420
2-§.	Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari, ta- moyillari va shakllari.....	422
3-§.	Mustaqil izlanishning asosiy shakllari.....	425
4-§.	Talabalar vaqtini taqsimlash.....	435

XVIII bob. BILIMNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

1-§.	O'quv jarayonida nazoratning o'rni va roli, na- zorat shakllari.....	439
2-§.	Talabalar bilimni sinash va baholash usullari.....	444
3-§.	O'quv jarayonini tashkil qilish, talabalar bilimni sinash va baholashda jahon amaliyotini qo'llash...	449

**XIX bob. O'QUV - USLUBIY KOMPLEKSI. ULARNI
TUZISH VA O'QUV JARAYONIDA QO'LLASH**

- 1-§. Kadrlar tayyorlashning maqsadi va uni «Davlat ta'lim standartlari»da ifodalanishi..... 454
- 2-§. Tayanch o'quv rejalari va ular asosida fanlar tarkibi va soatini aniqlash..... 458
- 3-§. O'quv majmuasi va uning tarkibi, o'quv dasturining tutgan o'rni..... 466

**XX bob. BUXGALTERIYA HISOBI FANIDAN DARS O'TISH
METODIKASI**

- 1-§. Fanning xususiyatlari va dars o'tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish..... 472
- 2-§. «Buxgalteriya hisobi» fanini o'rganishda hujjatlashtirish, hisob yuritish qoidalari va fanni o'rganishda ularning tutgan o'rni..... 479
- 3-§. «Buxgalteriya hisobi» fanining amaliyot bilan bog'liqligi..... 487
- 4-§. O'qitish metodlarini buxgalteriya fanidan dars o'tishga moslashtirish (kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish misolida) 495
- 5-§. Modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llash..... 502

**XXI bob. AYRIM IQTISODIY FANLAR VA DARS O'TISHDA
ULARNING XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH**

- 1-§. «Iqtisodiy tahlil» fani va uni o'rganish..... 515
- 2-§. «Audit» fani va uni o'qitish metodikasi..... 523
- 3-§. «Soliq va soliqqa tortish» fani xususiyatlari va dars o'tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish... 545
- Izohli lug'at (glossariy) 550**
- Foydalanilgan adabiyotlar 560**

D. TOJIBOYEVA, A. YO'LDOSHEV

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

Toshkent – “Aloqachi” – 2009

Muharrir: J. To'raxonov
Rassom: M.Odilov
Tex muharrir: A.Moydinov
Musahhih: M.Hayitova
Sahifalovchi: Sh.Mirqosimova

Bosishga ruxsat etildi: 27.10.09.
Bichimi 60x84 1/16. “Times Uz” garniturası.
Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 36,0.
Nashr bosma tabog'i 35,5. Tiraji 1000. Buyurtma № 113.

“Aloqachi matbaa markazi bosmaxonasi”da chop etildi.
100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 108-uy.

ISBN 978-9943-326-45-3



9 789943 326453